«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

Buyuk shoir va mutafakkir tavalludining 580 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

2021-yil, 8-9-fevral

«ALISHER NAVOI AND THE XXI CENTURY»

The Materials of the International Scientific-Theoretical Conference on the Theme 2021 year 8-9 february

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

Buyuk shoir va mutafakkir tavalludining 580 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

Toshkent, 2021-yil 8-fevral

The Materials of the International Scientific-Theoretical Conference on the Theme

«ALISHER NAVOI AND THE XXI CENTURY»

Tashkent, 2021 year 8 february

Mas'ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati
Shuhrat Sirojiddinov (O'zbekiston), Sirojiddin Sayyid (O'zbekiston), Ramiz Asker (Ozarbayjon), Muslihiddin Muhiddinov (O'zbekiston), Ibrohim Haqqulov (O'zbekiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Badriddin Maqsudov (Tojikiston), Tanju Seyhan (Turkiya), Aftondil Erkinov (O'zbekiston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Mark Toutant (Fransiya), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Abdulloh Ro'yin (Afg'oniston).

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI" asr mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumaniga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik masalalari, tilshunoslik muammolari haqida so'z yuritiladi. O'zbek navoiyshunosligining bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Cheif editor:
Shukhrat Sirojiddinov
Doctor of Philology, Professor

Editorial Board
Shukhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Sirojiddin Sayyid (Uzbekistan), Ramiz Asker (Azerbaijan), Muslihiddin Muhiddinov (Uzbekistan), Ibrahim Haqqulov (Uzbekistan), Almaz Ulvi (Azerbaijan), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Badriddin Maksudov (Tajikistan), Tanju Seyhan (Turkey), Aftondil Erkinov (Uzbekistan), Karomat Mullakhodjaeva (Uzbekistan), Mark Toutant (France), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan)), Abdullah Ruyin (Afghanistan).

This is a collection of articles which were sent to the International scientific theoretical conference on the theme "Alisher Navoi and the XXI Century". The collection includes the papers considering the role and importance of literary-scientific heritage of Alisher Navoi in our classical literature as well as linguistic and textual issues of his works. It presents a clear image of the current state and prospects of Uzbek researches on Navoi. The book is intended for philologists, scientific researchers, the students of master's and bachelor's degrees, and a wide audience.

The orthography of authors' and their views of works may differ from the view point of the editorship.

I. ALISHER NAVOIYNING ILMIY MEROSI VA MATNSHUNOSLIK MASALALARI

1. ALISHER NAVOI'S SCIENTIFIC HERITAGE AND TEXNOLOGY

NAVOIYSHUNOSLIK: MUALLIF SHAXSIYATI VA BADIIY MATN TALQINI

NAVOI STUDY: THE AUTHOR'S PERSONALITY AND THE INTERPRETATION OF THE LITERARY TEXT

Durdona ZOHIDOVA
Qo'qon DPI
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Maqola Alisher Navoiy ijodini psixobiografik yondashuv asosida o'rganish masalasiga bag'ishlangan. Unda Navoiyning lirik va epik asarlari buyuk mutafakkirning hasbi holi va shaxsiyati kontekstida tahlilga tortilgan va tegishli ilmiy xulosalarga kelingan.

Kalit so'zlar: *psixobiografiya, shaxsiyat va ruhiyat, komillik, munojot, gumanizm, metodologik tamoyil.*

Annotation

The article is dedicated to the work of Alisher Navoi on the basis of psychobiographical approaches. In which the lyrical and epic works of Navoi were analyred in the context of the virtue and personality of the great thinker and came to the scientific conclusions.

Key words: *psychobiography, personality and spirituality, ferfection, plea, humanism, methodological approach.*

Navoiy ijodi haqiqat va go'zallikning oliy darajadagi uyg'unligidir. Navoiyning shaxsi va hayot yo'li esa ijodida tarannum etilgan yuksak

g‘oyalarning amaliyotga betimsol tatbiqi, betakror ibrat maktabidir. Mutafakkirning muayyan bir axloqiy fazilat targ‘ibiga bag‘ishlangan bayti ortida ana shu fazilatni eng avvalo o‘zida shakllantirgan va kamolga yetkazgan Navoiy shaxsi turadi. Shu sababli Navoiy asarlariga psixobiografik yondashuv, ya’ni ularni muallif shaxsiyati orqali o‘qish va uqish muhim. Bu yerda gap faqat psixobiografik metod imkoniyatlarining zamonaviy adabiyotshunoslikda ilmiy asoslangani va tan olinganida emas. O‘z ijodiga nisbatan ilmiy tayyorgarlikning o‘zi yetarli emasligi, asarlarini tushunishda muallif shaxsiyati va ruhiyatini tanish va his etish zaruratini Navoiyning o‘zi ham ta’kidlaydi:

Har kimga ulum bo‘lsa vosil,
Gar dardiyu holi yo‘q ne hosil?...
Eshitguchi bo‘lsa dardpayvand,
Bordur ichi oning o‘tqa monand.
Munglug‘ menu mung bila payomim,
Munglug‘ kishilar so‘zi kalomim.
Shak yo‘qki qachonki bu o‘qulg‘ay,
Kim o‘qusa xotiri buzulg‘ay...
Yorab, bu raqamki bo‘ldi marqum,
Har kim o‘qumoqdin etsa ma’lum.
Harneki o‘qur taamul etsa,
Degan g‘arazim taxayyul etsa,
Ayb istamak o‘lmasa murodi,
Ber borcha hunar sori kushodi! [7, 327]

Navoiy ijodining markazida inson va unga bo‘lgan ulkan muhabbat yotadi. Bu masalada Navoiy asarlari va shaxsiyati o‘rtasida parallel o‘tkazish buyuk mutafakkirning benazir ma’naviy olami va ijod dunyosiga chuqurroq doxil bo‘lishga zamin yaratadi.

Aytish mumkinki, Navoiy ijodi komillikka erishishning shart va talablari, yo‘l va usullari haqidagi badiiy dasturdir. Komillik kasb etishning sharti – nafsni yengib, o‘zlikni tanish. Nafsni esa o‘zaro tutashib ketuvchi ikki yo‘sin orqali sindirish mumkin. Birinchisi: ko‘ngilni Haq ishqi bilan poklab, hoyu havaslardan voz kechish, riyozat va mashaqqatlarga sabr qilish. Ikkinchisi: boshqa insonlarning manfaati uchun o‘z manfaatidan voz kecha olish, o‘z

istak-xohishlarini boshqalarga naf keltirish uchun qurbon qila olish. Navoiy ijodida ham bu ikki qarash uyg‘un holda ilgari surilgan. Shoir insonning insonga bo‘lgan munosabatini komillik maqomiga asosiy vositasi deb biladi. Navoiyning komil qahramoni bo‘lgan Farhod nima uchun ishqda bu qadar yuksaklikka erishdi, ishq yo‘lida fido bo‘la oldi. Chunki uning zotida, tabiatida umuman insonlarga bo‘lgan ulkan muhabbat, rahm-shafqat hissi bor edi:

Biravkim zor yig‘lab – yig‘lab ul zor,
Topib ko‘ngli el ozoridin ozor.
Bo‘lub el anduhidin ko‘ngli g‘amnok,
Yoqo chokin ko‘rub, ko‘ksin qilib chok. [6, 106]

Muhimi shundaki, Navoiyning xalqsevarlik haqidagi bu qarashlari quruq pand-nasihat tarzida yuzaga kelmagan, balki butun hayotini boshqa insonlar manfaati deya fidoyilikda o‘tkazgan mutakakkirning hayotiy tajribalaridan tug‘ilgan. Inson zotini sevish, unga cheksiz shafqat va marhamat nazari bilan qarash, o‘zgalar dardini o‘z tinchidan ustun qo‘yish Navoiy hayotining mohiyatini tashkil etgan. Vaholanki, Navoiy umri davomida atrofidagilardan juda ko‘p jabru jafo, sitam va alam ko‘rgan. Aks holda u

Har necha qildim vafo, juz bevafolig‘ ko‘rmadim,
Ne ajab ko‘nglumga bo‘lsa nav’i insondin malol [4, 196]

qabilidagi baytlarni yozmagan bo‘lar edi. Biroq, “Naf’ing agar xalqqa beshak durur, Bilki bu naf o‘zingga ko‘prak durur” degan ishonchni hayotiy tamoyil darajasiga ko‘targan Navoiy yetkazilayotgan har bir ozorga nisbatan marhamat bilan javob berish ortida nafsning mag‘lubiyatini va ruhning g‘olibligini ko‘rgan. Navoiyning «Badoye’ ul-vasat» devonida “Yorab o‘lg‘on chog‘da jonim jismi vayrondin judo” deb boshlanuvchi g‘azali bor. G‘azal munojot mazmuniga ega:

Yo rab, o‘lg‘on chog‘da jonim jismi vayrondin judo
Ul bo‘lub mundin judo, sen bo‘lmag‘il andin judo,
Chun judo bo‘lsam meni g‘amnok yo‘qu bordin
Ne g‘amim, sen bo‘lmasang men zori hayrondin judo.
Naqdi jon chiqqanda iymon gavharin ko‘nglumga sol,
Aylagil jondin judo, lek etma iymondin judo.
Xonumondin oyirib, qilg‘anda zindon ichra hibs

Qilma lutfung men aloxonu alomondin judo.
Hashr g‘avg‘osi aro osiylig‘img‘a rahm qil,
Lutf ila ilgim tutub, qil ahli isyondin judo. [3, 10]

G‘azal avvalida Navoiy dunyoqarashining tamali bo‘lgan «insonlik nishoni – iymon, jon ketganda ham saqlay olganinggina – iymon» degan tezis aks etgan: shoir joni vayron jismini tark etar paytda dunyoning jamiki moddiy boyliklaridan qimmat, bebaho jon naqdi ham uning oldida qadrsiz bo‘lgan gavhar – iymon ne’matidan judo qilmaslikni so‘raydi. U iymon bilan ketish saodati yo‘lida boru yo‘g‘idan, jonu jahonidan, xonumonidan, erkinligidan kechishga tayyor. “Hashr g‘avg‘osi” tilga olingan baytdan boshlab fikr va tasvir dunyo hayotidan oxirat manziliga ko‘chadi. Endi lirik qahramon bandai ojiz sifatidagi gunohlaridan kechish o‘tinchi bilan iltijo qiladi, Yaratganning marhamatidan umidvor bo‘ladi. G‘azalning deyarli oxirigacha munojot tarzidagi dardli nolalar o‘ta ta’sirli qilib ifodalangan. Agar Navoiy uni shu ohang bilan yakunlaganda ham o‘quvchini mutaassir qila olar edi. Balki boshqa shoir bo‘lganda shu yo‘lni tutishi mumkin edi. Faqat Navoiy emas! So‘nggi baytlardan birida shoirning faryodi shu qadar avj pardaga ko‘tariladiki, avvalga o‘tinchlar bir tarafu bunisi bir taraf bo‘lib qoladi:

Elga maxlas istasang, yetti tamug‘ni ayla kul
Aylabon bir shu’la bu ohi duraxshondin judo.

Navoiy Yaratganga iltijo qiladi: “Agar elni azoblardan xalos qilaman desang, yetti do‘zaxingni kul qilib kuydir”. Do‘zax o‘zi lovullagan alangali joy, otashniyam kuydirib, kulga aylantirish uchun qanday qudratli otash bo‘lishi kerakligini faqat taxayyul kuchi bilan ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin. Navoiy aytadiki: “Yetti do‘zaxga o‘t qo‘yib kuydirish uchun mani O‘zingga (Allohga) bo‘lgan o‘tli muhabbatim ohidan bitta shu’la ajratib olsang, bas”. Bitta uchquni yetti do‘zaxni kulga aylantirishga qodir alanganing harorati va shiddati tasavvur qilish ham qiyin. Baytda ikki buyuk tuyg‘u yonma-yon qo‘yilgan. Biri Haqqa, ikkinchisi xalqqa bo‘lgan cheksiz va otashin muhabbat. Bu kabi navoiyona yuksak gumanistik mayllar u yaratgan timsollarga ham ko‘chib o‘tgan. Bu holning yorqin ifodasi “Lisonut-tayr” dostonida ko‘zga tashlanadi. Dostondagi “Shayxi Ahmadi Jom hikoyati” nafaqat

Navoiy ijodidagi, balki Sharq mumtoz adabiyotidagi insonsevarlik g‘oyasi avj nuqtada aks etgan badiiy tasvir namunasidir. Ahmadi Jomiy (vafoti 1141-yil) mashhur mutasavvif shayx va shoir bo‘lib, jismonan baquvvat va ulkan bo‘lgani uchun Zinda Pil – “Tirik fil” nomini olgan. Hikoyatda aytilishicha, u Tangriga shunday deya munojot qiladi:

Kim: “Iloho, ahli do‘zaxni tamom,
Harne bo‘lg‘ay shayxu shobu xosu om,
Barchaning qilg‘on gunohin afv qil,
Yorliqab, lutf aylab ozod aylagil.
Sanga bu lutf-u karam oson erur,
Bu ulus bor-u yo‘qi yakson erur.
Gar munga rozi emassen — ber mango,
O‘yla jismikim tomug‘ bo‘lg‘ay to‘lo.” [8, 10]

Mazmuni: “Ey Alloh! Barcha do‘zax ahlini: xoh u keksayu yosh, xoh u yuqori yoki quyi tabaqa vakili bo‘lsin - barchaning qilgan gunohidan o‘tgil! Ularni yorlaqab, marhamat ko‘rsat va hammasini do‘zaxdan ozod qil! Bu ishni qilish sen uchun oson, ularning boru yo‘qligi senga baribir.Bunga rozi bo‘lmasang, menga shunday jism ato etgilki, u bilan butun do‘zaxni to‘ldirib yuboray!”

Ahmadi Jomiyning o‘z jismi bilan do‘zaxni to‘ldirib, o‘zgalarga joy va azob qoldirmaslik haqidagi o‘tinchida betimsol ibrat sabog‘i mujassam. Mazkur hikoyatning mantig‘i qalblarga inson zotiga nisbatan mehru muruvvat, shafqat, bag‘rikenglikni jo etishga xizmat qiladi.

Navoiy butun ijodi va hayotini xalqqa, insonlarga baxshida etdi. Bu baxshidalik uch tomonlama xarakterga ega:

1. Insonlarning ma’naviy manfaatiga xizmat qiladigan bebaho asarlar yaratdi.
2. O‘zi el-yurt osoyishtaligi va farovonligi yo‘lida beminnat xizmatda bo‘ldi. O‘z so‘zlari bilan aytganda “odamlar g‘amidan g‘am yeb” yashadi.
3. Navoiy ma’naviy xazina - asarlaridan tashqari o‘z moddiy boyliklarini ham xalqqa nisor qildi.

Navoiy “Mahbubul-qulub”da “Desangki taoming zoye bo‘lmagay yedur va libosing eskirmagay kiydur”, “Libos har nechakim

zebodur, kiyganingdin kiydurganing avlodur” degan qarashlarni o‘zi uchun hayotiy mezon qilib olgan. Fikrimiz dalili uchun ijodkorning “Vaqfiya” asariga murojaat qilaylik. Asarda Navoiyning vaqf qilinayotgan, ya’ni o‘z ixtiyori bilan davlat ixtiyoriga o‘tkazayotgan mol-mulklari ro‘yxati aniq keltirilgan, ular qisqacha quyidagilardan iborat bo‘lgan: Hirot va uning atrofidagi 24 ta do‘kon, 4 ta tim va timcha (usti yopilgan bozor rastasi), 490 jerib hosildor yer va bog‘-rog‘, ikki koriz (sug‘orish uchun yer ostidan chiqarilgan suv) va boshqalar. Endi “Vaqfiya”dan olingan mana bu parchani ko‘raylik: “Bu jumladin o‘z maoshimg‘a soyir avomdin birining maoshi o‘tguncha issiq-sovuq daf’i uchun bir turma to‘n dag‘i munga munosib yemakka qone’ bo‘lib, qolg‘onning ba’zisin ul hazratning maslahati uchun, kelish-borishqa va navkar ...va cherik yarog‘iga sarf qildim....mustahiqlargakim, ... tongdin oqshomgacha olamdek yaxshi-yamonning nomuloyimlig‘in ko‘rub, quyoshdek bir qurs bila maosh o‘tkarurlar – yetkurdum. Va ba’zinikim, manuot va borcha takallufotdin ortti, biqoi xayr bino qildim” [9, 25-26]. Ko‘rinadiki, yuqorida sanab o‘tilgan ulkan mol-mulklar sohibi bo‘lgan Navoiy hayotda o‘zi uchun oddiy bir kishi tirikchiligiga kifoya qiladigan issiq-sovuqdan asraydigan bir juft to‘n va shunga yarasha yeb-ichishga qanoat qilgan. O‘z mablag‘ini esa bir qismini Husayn Boyqaro va qo‘shin uchun, bir qismini muhtojlikda bitta kulcha bilan kifoyalanib kun kechiruvchilar uchun, qolganini xayriya binolari qurish uchun sarf etgan, jumladan, madrasa, masjid, shifoxona, ko‘priklar, bog‘lar bunyod etgan, ilm va san’at ahliga homiylik qilgan, talabalarga o‘z hisobidan nafaqa – stipendiyalar tayinlagan. Bobur ta’rifi bilan aytganda “Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay... muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo‘lmish bo‘lg‘ay.” Navoiy o‘zining xayriya sohasidagi ishlarini “Vaqfiya”da tarixda qoldirish uchun keltirmagan, balki bu ishlarning uning vafotidan so‘ng ham davom ettirilishini vasiyat qilish maqsadida ularni sanagan. “Vaqfiya” asarida Navoiyning himmat va futuvvat darajasini tavsiflovchi favqulodda muhim ma’lumot bor: “Jonim naqdi ul Tengriga zakotkim, ko‘nglimga nasabqa yetkuncha mol zaxira qilmag‘ayman, solmadi va nasabqa

yetkan mol zakotin ayirg‘uncha ilkimda qolmadi” [9, 30]. Ma’lumki, zakot mol-mulk ma’lum miqdorga – nisobga yetganda beriladi, Navoiy o‘ta saxovatli bo‘lgani uchun qo‘lida hech qachon buncha boylik to‘planib turmagan va umrida biror marta zakot u uchun farz bo‘lmagan. Bu biografik ma’lumotning badiiy aks-sadosi shoirning ko‘plab baytlarida, xususan, “Hayratul-abror” dostonida quyidagi baytlarda ham seziladi:

Hech durur hosilu boqisi hech,
Kech boridin bot, vale qo‘yma kech.
Seni ul etguncha zabun, sen burun
Ayla ani faqr ila xoru zabun.
Panjai xurshiddek ilkingni och,
Anda neki siym esa olamg‘a soch [5, 254]

Shoir “kech” so‘zidagi tajnisdan mohirona foydalanib, ta’kidlaydiki, bu dunyoning hosili ham, boqiyligi ham yo‘qdir, shunday ekan, ularning hammasidan kechikmasdan kechmoq kerak. Hech kimga vafo qilmaydigan bu o‘tkinchi dunyo seni ham xoru zabun etmasdan oldinroq sen uni faqr yo‘lini tutish – dunyo hirsidan voz kechish bilan xor etgin. Buning uchun qo‘lingni quyosh kabi och va undagi boyliklarni olamga soch. Navoiy qo‘li ochiqlikni quyoshga tashbeh qilar ekan, “qo‘li ochiq” jumlasining ikki ma’no jihatini nazarda tutgan. Odatda, “qo‘li ochiq” iborasi saxiy kishiga nisbatan qo‘llanadi. Shu bilan birga panjalari ochilgan qo‘l shaklan ham nur sochib turgan quyoshga o‘xshaydi. Quyosh oltin nurlarini butun olamga sochgani kabi ochiq qo‘l o‘zidagi xazinalarni el ahli boshiga sochadi. Bu timsol, eng avvalo, o‘zining behisob moddiy boyliklarni xalq uchun nisor qilgan, butun umrini insoniyat uchun ma’naviy ganjlar qoldirishga baxsh etib, so‘nmas quyoshga aylangan Navoiy o‘z siymosida mujassam.

Navoiy Haq ato etgan tengsiz iste’dodi tufayli hidoyatdan nur olgan o‘lmas g‘oyalarni nafosatga to‘liq shakllar bag‘riga jo etish bilan birgalikda o‘zi surgan olijanob g‘oyalarga hayotda so‘zsiz amal qilgani uchun ham ijodkor, ham shaxs sifatida buyuklik maqomiga erishdi. Navoiyning mukammal asarlari ortida uning mukammal shaxsi turadi. Shu sababli buyuk mutafakkirning asarlarini muallif ruhiyati va hasbi holi kontekstida o‘rganish muhim. Navoiy

ijodiga psixobiografik yondashuvga navoiyshunoslikning yetakchi metodologik tamoyillaridan biri sifatida qarash salmoqli ilmiy natijalarga yo‘llaydi, asarlarining asl mohiyatini kashf etish imkonini beradi. Bu vobastalikni e’tiborga olish shoir ijodining hissiy-estetik, ma’rifiy-tarbiyaviy ta’sir kuchini oshirishi ham ayni haqiqat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сент-Бёв Ш. Литературные портреты. Критические очерки. Москва: Художественная литература, 1970.

2. Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. Москва, 1981.

3. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 5-том. Тошкент: Фан, 1990.

4. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 6- том. Тошкент: Фан, 1990.

5. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 7- том. Тошкент: Фан, 1991.

6. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 8-том. Тошкент: Фан, 1991.

7. Навоий. МАТ. 20 томлик. 9-том. Тошкент: Фан, 1992.

8. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 12-том. Тошкент: Фан, 1996.

9. Алишер Навоий. Вақфия. Тошкент: Фан, 1991.

«XAZOYINU-L-MAONIY» DEVONINING UMUMIY ALIFBO TARTIBI MUALLIFI MASHHADIYMI?

IS THE AUTHOR OF THE GENERAL ALPHABETICAL ORDER OF KHAZOYINU-L-MAONIY MASHHADI?

Oysara MADALIYEVA
O‘zR FA Sharqshunoslik instituti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Alisher Navoiy barcha yozgan she’rlarini umrning to‘rt fasliga monand ravishda «G‘aroyibu-s-sig‘ar», «Navodiru-sh-shabob», «Badoye’u-l-vasat» va «Favoyidu-l-kibar» to‘rt devonga taqsimladi va umumiy bir nom bilan «Xazoyinu-l-maoniy» deb atadi. Keyinchalik «Chahor devon» nomi bilan ham mashhur bo‘lgan mazkur majmua devon tarkibidagi she’rlarning umumiy alifbo tizimiga solingan qo‘lyozmalari ham keng tarqalgan. Ushbu maqolada «Xazoyinu-l-maoniy»ning 1501–1510-yillarda Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilib, 12 ta miniatyura ishlangan nodir qo‘lyozmasi majmua devonning umumiy alifbo tartibiga solingan birinchi nusxasi bo‘lishi mumkinligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar*: Alisher Navoiy, qo‘lyozma, devon, «Xazoyinu-l-maoniy», «Terma devon».*

Annotation

Alisher Navai divided all his poems into four divisions: Gharayib al-sighar, Nawadir al-shabab, Badae‘ al-vasat and Fawayid al-kibar according to the four stages of life. He called it Khazayin al-maani. Manuscripts containing all the poems, which later became known as Chahar Divan, were also widely distributed. This article discusses the fact that the rare manuscript of Khazayin al-maani, copied by Sultan Ali Mashhadi in 1501–1510, with 12 miniatures, may be the first copy of Navoi’s original composition.

Key words*: Alisher Navai, manuscript, divan, Khazayin al-maani, selected divan.*

1492–1498-yillarda tartib berilgani taxmin etilgan «Xazoyinu-l-maoniy» umrning to‘rt fasliga monand ravishda «G‘aroyibu-s-sig‘ar», «Navodiru-sh-shabob», «Badoye’u-l-vasat» va «Favoyidu-l-kibar» kabi to‘rt devondan tashkil topgani ma’lum [Volin, 1946: 216; Sulaymonov, 1963: 38]. Mazkur majmua devonning Alisher Navoiy (1441–1501) hayotligi chog‘ida ko‘chirilgan uch nusxasi fanga ma’lum bo‘lib, ulardan ikkitasi muallif hayotligi davrida tuzilgan kulliyotlardan joy egallagan [Alisher Navoiy, 901/1496–1497: 423*b*–658*b*; Volin, 1946: 216]. Ushbu qo‘lyozmalarning barchasida «Xazoyinu-l-maoniy» tarkibidagi she’rlar to‘rt devonga arab alifbosi asosida taqsimlangan. «Xazoyinu-l-maoniy»ning keyingi davrda kitobat qilingan ayrim nusxalarida esa to‘rt devon tarkibidagi she’rlar umumiy alifbo tizimiga solingani o‘rtaga chiqadi.

Ushbu maqolada «Xazoyinu-l-maoniy»ning tarkibidagi devonlar she’rlarining umumiy alifbo tasnifida kitobat qilinishi masalasi tadqiq etiladi. Mavjud manbalarga suyangan holda, ushbu an’anani «Xazoyinu-l-maoniy» nusxalarining kotiblari orasida ilk bor Sulton Ali Mashhadiy (836/1432–33–926/1520) boshlab bergan bo‘lishi mumkinligi haqidagi tezis o‘rtaga tashlanadi.

Bugungi kunga qadar Navoiy devonlari qo‘lyozmalari ustida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bu tadqiqotlarda shoir devonlari manbashunoslik, matnshunoslik, adabiyotshunoslik va tilshunoslik kabi turli sohalarning ob’ekti sifatida o‘rganilgan. «Xazoyinu-l-maoniy» majmua devonining umumiy alifbo tizimli qo‘lyozmalari va ushbu tasnifga juda yaqin turuvchi «Terma devon»lar masalasiga ham navoiyshunoslar tomonidan bildirilgan turli fikrlar mavjud. Ushbu qarashlardan dastlabkisi A.Volinning tadqiqotlarida uchraydi. U 1001-1004/1592–1596-yillarda tuzilgan kulliyotning 326*b*–586*a* varaqlarini ishg‘ol etgan devonni tavsiflar ekan, uni «Maxzanu-l-maoniy» nomi bilan ataydi [Volin, 1946: 221]. Keyinchalik Hamid Sulaymonov ushbu fikrning noto‘g‘riligi, aslida ushbu qo‘lyozma «Xazoyinu-l-maoniy»ning umumiy alifbo tizimiga solingan nusxasi ekanligini yozgan [Suleyman: 1961: 11]. M.Hakimov «Xazoyinu-l-maoniy»ning umumiy alifbo tartibli nusxalari va «Terma devon»larning asosiy farqi ularning tarkibidagi she’rlarning soni bilan o‘lchanmog‘i kerak, deb hisoblaydi. U Navoiy devonlarini ilmiy tavsiflash jarayonida:

«Tarkibidagi she’rlari soni 1500 dan kam bo‘lgan qo‘lyozmalar «Terma devon» nusxalari qatoriga qo‘yilgani»ni ma’lum qiladi [Hakimov, 1983: 8]. Olimning mazkur fikriga qo‘shilgan holda, «Xazoyinu-l-maoniy» she’rlarining umumiy alifboga solib ko‘chirilgan nusxalarida aksariyat holda she’rlarning ustiga devonlarning aynan qaysi biridan olingani «G‘aroyibdin», «Navodirdin» kabi qayd etiladi, «Terma devon»larda esa hozircha bu holatni kuzatmadik. Shuningdek, M.Imomnazarov, B.Maqsudov, A.Turdialiyev, R.Zohidov, Y.Tursunov, A.Erkinov, D.Yusupova, O.Jo‘raboyev, R. Djabborov kabi olimlar ham Alisher Navoiy devonlarining qo‘lyozmalari yuzasidan tadqiqotlar olib bormoqdalar [Imomnazarov, 2018: 12-17; Maqsudov, 2020: 9-18; Turdialiyev, 2018: 41-45; Zohidov, 2018: 45-47; Tursunov, 2018; Erkinov, 2017: 19-38; Yusupova, 2016: 152-158; Jo‘raboev, 2017: 47-50; Djabborov, 2019: 334-338].

Ushbu maqolaga jalb etilgan qo‘lyozma «Xazoyinu-l-maoniy» she’rlarining yaxlit alifboga solib ko‘chirilgan eng qadimiy nusxasi bo‘lishi mumkin [Alisher Navoiy, 1501–1510: 766]. Mavjud tadqiqotlardan ushbu majmua devonning bunday turdagi nusxalari XV asrning ikkinchi yarmidan ko‘chirila boshlagani ma’lum edi. Jumladan, muhr sanasi 988/1580–1581-yilga tegishli O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon fondiga tegishli 7580-raqamli «Xazoyinu-l-maoniy», shuningdek, Alisher Navoiy kulliyotining kotib Nazar Ali Fayziy tomonidan 1001-1004/1592-1596-yillarda Qizil Og‘ochda (Ozarbayjon) kitobat qilinib, hozirda Rossiya Milliy kutubxonasida Dorn 558/XVII raqami bilan saqlanayotgan qo‘lyozmasi tarkibidan o‘rin olgan «Xazoyinu-l-maoniy» nusxalari shular sirasiga kiradi [Volin, 1946: 216-221]. Mazkur qo‘lyozmalarda «G‘aroyibu-s-sig‘ar», «Navodiru-sh-shabob», «Badoye’u-l-vasat» va «Favoyidu-l-kibar»ning barcha she’rlari mana shu 4 ta devondan olinib, umumlashtirilib, yaxlit holda yakunlanuvchi harfiga ko‘ra, avval *alif*, so‘ng *ba, pe, ta, s̲a* kabi arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi harflari ketma-ketligi tasnifida ko‘chirilgan. XVII asrdan «Xazoyinu-l-maoniy»ning bunday ko‘rinishdagi qo‘lyozmalari ko‘paya boshlagan [Madaliyeva, 2019: 57-69].

«Xazoyinu-l-maoniy»ning London yaqinidagi Vindzor saroy kutubxonasida saqlanayotgan nusxasi haqida professor

H.Sulaymonning tadqiqotlarida uchramaydi. Uning temuriylar davri kitobat san'atiga bag'ishlab yozilgan tezisida Navoiyning Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilib, hozirda Vindzor saroy kutubxonasida saqlanayotgan «Xamsa» va terma devonlaridan birining qo'lyozmalari haqida so'z ketadi va bu nusxalar XV asr Hirot kitobat san'atining yuksak namunalari sifatida baholanadi. Olim terma devon nusxasining kolleksiyada saqlanish raqamini keltirmagani bois aynan qaysi qo'lyozma haqida gap borayotgani bizga qorong'i.

Navoiyshunos M.Hakimov Mashhadiy tomonidan ko'chirilib, Vindzor saroy kutubxonasida «Buxoro qo'lyozmasi» nomi bilan saqlanayotgan «Xazoyinu-l-maoniy»ning 819 varaqdan iborat ulkan nusxasi mavjud ekanini qayd etadi, ammo olim ushbu qo'lyozmaning fonddagi saqlanish raqami va berilgan ma'lumotning manbasini keltirmaydi [Hakimov, 1991: 11].

Biz izlanishlar natijasida qo'lyozma saqlanayotgan Vindzor saroy kutubxonasi (Windsor Castle) sayti orqali mazkur devonning muqovasi va miniatyura ishlangan 22 varag'ining elektron nusxasini hamda uning tavsif ma'lumotlari keltirilgan Britaniya Royal kolleksiyasi (British Royal Collection) katalogini topishga erishdik[1]. Unga ko'ra, M. Hakimovning ma'lumoti qisman tasdiqlandi. Ta'kidlanishicha, qo'lyozma Navoiy vafotidan so'ng 1501–1510 yillar davomida Hirotda Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan. Qo'lyozma kutubxonaning saytida ham, katalogda ham «Devoni Navoiy» (RCIN 1005033) nomi bilan tavsif etilgan. Ma'lumki, Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti tarixidagina emas, sharq xalqlari adabiyoti tarixida bir necha devon tuzgan shoir sifatida mashhur. Uning lirik merosi bilan jiddiy shug'ullanmagan katalogizatorlarning shoir devonlarini umumiy nom ostida («Devoni Navoiy») tavsif etishlari tabiiy holdir. Tavsifda ma'lumotida ko'rsatilganidek, Vindzor qo'lyozmasining

[1] Ushbu qo'lyozmaning miniatyuralar ishlangan va she'rlar matni keltirilgan bir necha varag'ini qo'lyoga kiritishda amaliy yordam ko'rsatgani uchun O'zR FA Sharqshunoslik instituti Yosh olimlar kengashi raisi H.Nazirova va Vindzor saroy kutubxonasi Islom va Janubiy Osiyo kolleksiyasi yordamchi kuratori Emiliy Hannamga (Emily Hannam, Assistant Curator - Islamic and South Asian Collections) minnatdorlik bildiramiz.

766 varaqdan iboratligi uning «Xazoyinu-l-maoniy» nusxasi ekanidan darak beradi.

Qo‘lyozmaga 12 ta miniatyura ishlangan bo‘lib, ulardan 4 tasi jiddiy zarar ko‘rgan. XVI asrda qo‘lyozmaga ishlangan original miniatyuralar 1605 yilda Hindistonda (Mughal court) qayta bo‘yalgan.

Qo‘lyozmaning muqovasi charmdan, qizil labakili, yashil rangda bo‘lib, shamsa va lola tasviri tushirilgan, varaqlar o‘lchami – 46x29,5 sm. Devon matni xushxat nasta’liq xati bilan ko‘chirilgan. Matn tevaragi zarhal chiziqlar bilan o‘ralgan. Poygir belgilari mavjud.

«Xazoyinu-l-maoniy»ning ushbu nodir nusxasini 1872-yil may oyida Buxoro amiri Muzaffariddin ibn Nasrulloh (h.y. 1860–1885) qirolicha Viktoriyaga (h.y. 1837–1901) hadya etgan. Qasr kutubxonasi bu vaqtda Navoiy «Xamsa»sining aynan Mashhadiy kitobat qilgan va miniatyuralari Hindistonda qayta ishlangan nusxasiga ham egalik qilar edi. Qirolicha Viktoriya Buxoro amiridan olgan sovg‘asini 1872-yil avgust oyida Royal kutubxonasiga taqdim etgan. Bizningcha, M. Hakimov mana shu sababga ko‘ra, nusxani «Xazoyinu-l-maoniy»ning Buxoro qo‘lyozmasi deb nomlagan ko‘rinadi.

Sulton Ali Mashhadiy Alisher Navoiyning turli nomdagi devonlaridan bir necha nusxa ko‘chirgani ma’lum [Madaliyeva, 2019: 79-86]. Mazkur qo‘lyozma esa «xattotlar sultoni» kitobat qilgan «Xazoyinu-l-maoniy»ning hozirga qadar ma’lum yagona nusxasi hisoblanadi.

Muhim jihati, «British Royal Collection» katalogida mazkur qo‘lyozma tarkibidagi she’rlar haqida shunday yozilgan: g‘azallar (1v–671v) va (690r–705r), masnaviylar (705r–735v), shuningdek, qit’a va dubaytiy (ruboiy)lardan iborat [Waley, 1994:15; https://www.rct.uk/collection/1005033/ divan-e-navai-dywn-nwyy-the-collected-works-of-navai]. Ushbu ma’lumot, ya’ni she’riy janrlar, xususan, g‘azalning qo‘lyozma 1-varag‘idan to 671-varag‘igacha davom etgani bizni kutubxona saytidan yuklab olingan parcha varaqlardagi she’rlarning tartibiga qiziqtirib qo‘ydi. Devondagi ض *żād* harfiga qofiyalanuvchi g‘azallarning ketma-ketligiga diqqatimizni tortdi:

«G‘aroyibu-s-sig‘ar» devonidan, varaqda g‘azalning maqtasi ko‘chirilgan:

Ey Navāî, vāqif ul hālïŋğa-kim yār allïda
Bas faravāndur ğarazgo ’asru parrāndïr ğaraż.
«Navodiru-sh-shabob» devonidan:
‘Ārażïŋdur āftāb-i ‘ālam ārādïn ğaraż,
Jān fizā nuṭqïŋdur anfāsï Masiḥādïn ğaraż.
«Badoye’u-l-vasat» devonidan:
Qïlğan ermiš nātavān sarviravānïmnï maraż,
Zār olar-men-kim, qïlïbtur zār jānïmnï maraż.

Qo‘lyozma devonda she’rlarning ustiga ularning qaysi devondan olingani qayd etilmagan, ammo har bir g‘azal boshlanishidan avval marhum muallifning haqqiga duolar yozilgan. Bu esa uning 1501-yil Alisher Navoiy vafotidan so‘ng ko‘chirila boshlaganiga ishora etadi.

«Xazoyinu-l-maoniy»ning muallif vafotidan so‘ng kitobat qilingan umumiy alifbo tizimli nusxalarida she’rlar, ko‘pincha, g‘azallar boshlanishidan avval ularning qaysi devondan olingani qayd etilgan [Alisher Navoiy, 988/1580–1581: 635]. Bunda she’rlarning tegishli devonlarga yozilgan qaydlari har doim ham mos kelavermaydi. Jumladan, ustiga «G‘aroyibdin» deb ko‘chirilgan g‘azal manbalar bilan solishtirilganda «Navodiru-sh-shabob»dan olingan bo‘lishi mumkin [Alisher Navoiy, 1070/1660: 547].

Bizning taxminimizcha, 1501-yil Alisher Navoiy vafot etgandan so‘ng, uning xotirasi sharafiga shoirning lirik merosi yaxlit bir kompozitsiya holida bir kitobga jamlash maqsadi yo‘lida «Xazoyinu-l-maoniy» devonlari she’rlarining umumiy alifboga solingan birinchi qo‘lyozmasi miniatyurali tarzda kitobat qilingan bo‘lishi mumkin. Shu tariqa Alisher Navoiy «Xazoyinu-l-maoniy»si tarkibidagi she’rlarni noodatiy, ya’ni umumiy alifbo tizimli holda tasniflash va ko‘chirish ilk bor Sulton Ali Mashhadiy tomonidan amalga oshirilgani haqidagi ilmiy farazni o‘rtaga tashlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Muhammad Isa Waley. Islamic manuscripts in the British Royal Collection. A concise catalogue. Leiden, Netherlands, 1994. ISSN 0920-0401. – P. 15.

2. Алишер Навоий. Девони Навоий. Кўчирувчи: Султон Али Машҳадий. Тарихи: 1501–1510 йй. Windsor Castle: British Royal Collection. RCIN 1005033. – 776 в.

3. Алишер Навоий. Хазойину-л-маоний (куллиёт таркибида). Тўпқопи кутубхонаси, Реван фонди: № 808. – Ҳирот, 901/1496–1497. Кўчирувчи: Дарвеш Муҳаммад Тоқий. – 236 в. (423*b*–658*b*).

4. Алишер Навоий. Хазойину-л-маоний. Кўчирувчи: Абдулмузниб Ризоқули ибн Мустафоқули. Тарихи: 1070/1660. ЎзР ФА Шарқшунослик институти: Асосий фонд. № 9766. – 547 в.

5. Алишер Навоий. Хазойину-л-маоний. Муҳр санаси: 988/1580–1581. ЎзР ФА Шарқшунослик институти: Ҳ.С. фонди, № 7580. – 635 в.

6. Волин А. Описание рукописей произведений Навои в Ленинградских собраниях, Сборник «Алишер Навои», Москва–Ленинград, Изд-во АН СССР, 1946, – С. 216.

7. Джабборов Р. Алишер Навоийнинг “Оққўюнли мухлислар девони” тил хусусиятлари // Навоий ва XXI аср. – Тошкент, 2019. – Б. 334-338.

8. Жўрабоев О. Навоий девонларининг Қўқон қўлёзмалари ва уларнинг матнига доир // Навоий ва XXI аср. – Тошкент, 2017. – Б. 47-50.

9. Зоҳидов Р. Матнга кириш иштиёқи // Навоий ва XXI аср. – Тошкент, 2017. – Б. 45-47.

10. Имомназаров М. Уч девон муқоясаси (Алишер Навоий шеърияти лирик жанрлар хронологиясига доир) // Навоий ва XXI аср. 2018 –Б. 12-17.

11. Мадалиева О. “Хазойин ул-маоний”нинг умумий алифбо тартибли нусхаси” // Alisher Navoiy va XIX asr. – Toshkent, 2019. – Б. 57-69.

12. Мадалиева О. Навоий девонларининг Машҳадий кўчирган қўлёзмалари // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2019

йил 1-сон. – Б. 79-86.

13. Максудов Б. Кодикологическое описание списка “Навадир ан-нихайа” Наваи, хранящегося в библиотеке таджикского национального университета // Навоий ва XXI аср. – Тошкент, 2020. – Б. 9-18.

14. Сулаймонов Ҳ. Навоий асарларининг манбалари ва нашри ҳақида // Алишер Навоий. Асарлар. I том. – Тошкент: ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1963. – Б. 38.

15. Сулейман Х. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Автореферат – диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. Ташкент. 1961. – С. 11.

16. Турдиалиев А. Қўқон адабиёти музейида сақланаётган Алишер Навоий асарларининг қўлёзмалари // Навоий ва XXI аср. – Тошкент, 2017. – Б. 41-45.

17. Турсунов Ю. “Хазойин ул-маоний”нинг тасниф тарихига доир. 21.02.2018. https://saviya.uz/.

18. Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Тошкент. Фан. 1991. – Б. 11.

19. Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 8.

20. Эркинов А. Алишер Навоий “Хазойин ул-маоний”си ва унинг протодевони масаласи // Навоий ва XXI аср. – Тошкент, 2017. – Б. 19-38.

21. Юсупова Д. “Хазойин ул-маоний”: тузилиш қонуниятлари, таркибий хусусиятлари // Навоий ва XXI аср. – Тошкент, 2016. – Б. 152-158.

22. https://www.rct.uk/collection/1005033/divan-e-navai-dywn-nwyy-the-collected-works-of-navai.

“NASRUL-LA’OLIY” – ALISHER NAVOIYNING “NAZMU-L-JAVOHIR” ASARI MANBAI

NASRU-L-LAOLIY” - THE SOURCE OF THE WORK OF ALISHER NAVAI “NAZMU-L-JAVOHIR”

Elyorjon AXMATQULOV
Toshkent islom instituti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada “Nasru-l-la’oliy” asari Alisher Navoiyning “Nazmu-l-javohir” asarining manbasi sifatida tadqiq qilingan. Asar muallifi va uning “Nasru-l-la’oliy”ni yaratish tarixi haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *manba, nasr, asar, muallif, tadqiqot, hikmat, badiiy talqin.*

Abstract

The article examines “Nasru-l-laoliy” as a source of the work of Alisher Navai “Nazmu-l-javohir”. Information about the author and the history of the creation of “Nasru-l-laoliy” is highlighted.

Key words: *source, prose, work, research, hikmat, artistic interpretation.*

Hazrat Mir Alisher Navoiy “Nazmul-javohir” asarida “Nasrul-la’oliy” birikmasini bir necha bor ishlatgan. Ushbu so‘zning lug‘aviy ma’nosi arabchadan tarjima qilinganda “nasr” – sochilish, “al-la’oliy” lu’lu’lar, deganidir. Lu’lu’ – dengizdan olinadigan tosh bo‘lib, durning kattasi hisoblanadi. Bu so‘zning ko‘plik shakli esa “la’oliy”dir. Shunda umumiy ma’no “Durlarning sochilishi” bo‘ladi. Ushbu birikmadan nimani tushunishimiz kerak?! Hazrat Navoiy ixlosmandlari bundan murod Hazrati Ali *(Alloh U zotdan rozi bo‘lsin)*ning hikmatlari ekanini fahmlab ulgurgan. Lekin, mana shu iborani birinchi bo‘lib kim, qachon va qayerda ishlatgan?! Durlarning sochilishi iborasi birinchi bo‘lib Qur’oni karimda bayon

qilingan. Ana shu ibora qo‘llangan “Inson” surasining 19-oyati mazmuni Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan mana bunday tarjima qilingan: *“Va ularning atrofida abadiy yosh bolalar aylanurlar, agar ularni ko‘rsang, sochilgan marjon, deb o‘ylarsan”* [Shayx Muhammad Sodiq 2016 (6):]

“Sochilgan marjon” deb tarjima qilingan birikma oyati karimada “lu’lu’an mansuron” bo‘lib kelgan. Ushbu oyati karimada jannatda uning ahli uchun xizmat qiladigan yosh bolalar haqida xabar berilgan bo‘lib, ular ko‘zni quvnatishda sochilgan durlarga o‘xshatilgan. Shunga ko‘ra, hazrat Ali *(Alloh U zotdan rozi bo‘lsin)* hikmatlari kishiga surur olib kelishi jihatidan sochilgan dur kabidir. Hazrat Alisher Navoiy “Nazmu-l-javohir” asarida “Va parishon xotirg‘a va oshufta zamirg‘a bu orzu ko‘p dag‘dag‘a solur erdikim, turkiy til bila men ham ul laoliyni orasta qilg‘aymen” [Navoiy 1999], deb ushbu iborani hazrati Ali hikmatlariga nisbat bergan va o‘zidan oldin uning forsiy tilda nazmga solinganini aytgan.

Hazrat Navoiyning “Nazmu-l-javohir” asarini tadqiq qilgan olimlar orasida “Nasrul-la’oliy” muallifi haqida turlicha fikrlar bor. Ba’zi olimlar “muallifi yo‘q”, ayrimlari “uning muallifi Johiz” degan to‘xtamga kelgani ma’lum. Bu qarashlarning ichida asar muallifi Johiz, degan fikr aniqroqqa o‘xshab tuyulgani bois bu masalani tadqiq qilib ko‘rdik. Negaki, Hazrati Ali *(Alloh U zotdan rozi bo‘lsin)*ning o‘zlari hikmat yozib “Nasrul-la’oliy” deb qo‘ymagani aniq. “Muallif yo‘q” deyish esa muammoning yechimi emasligi ayon. Shu sababdan Johizning ilmiy faoliyatini o‘rganildi. Natijada Abu Usmon Amr ibn Bahr ibn Mahbub ibn Fazora Johizning hayoti va ilmiy faoliyatida “Nasrul-la’oliy”ga aloqador biror ma’lumot topilmadi. Shundan so‘ng ushbu muammoni oydinlashtirish uchun “Nasrul-la’oliy” asari qo‘lyozmalari o‘rganildi. Ushbu nusxalardan birida uning muallifi ham yozib qoldirilgani ma’lum bo‘ldi. Natijada Abu Ali Fazl ibn Hasan ibn Fazl Tabrisiy[1] qalamiga mansub[2] ekani aniqlandi.

[1] Tabrisiy taxallusi Tafrish shahriga berilgan nisbat hisoblanadi. Tabaristonga emas.

[2] O‘sha nusxaning muallif ismi yozilgan sahifasining nusxasi ilova qilindi.

Aminuddin, aminul-islom nisbalari bilan mashhur bo‘lgan Abu Ali Fazl ibn Hasan hijriy 468 (yoki 469) yilda Xurosonning Mashhad shahrida ilm va fazlda mashhurligi bilan tanilgan oilada tavallud topgan[1]. Fazl ibn Hasan hijriy 523-yilgacha Mashhad shahrida yashab, mazkur yilda Sabzavor shahriga ko‘chib o‘tadi. Hijriy 548-yil qurbon hayiti kechasigacha, ya’ni umrining oxirigacha ushbu shaharda yashagan. Vafotidan so‘ng u kishining jasadi Imom Rizo shahid qilingan muqaddas joyga olib borilgan[2]. Bu joy “(muqaddas) qatlgoh” nomi bilan mashhur bo‘lgan. U zotning qabrlari ziyoratgohga aylantirilgan.

Ushbu o‘rinda ko‘pchilikning e’tiboridan chetda bo‘lgan muhim jihatga e’tibor qaratish zarurati tug‘iladi. Bu Alisher Navoiyning Mashhadda bir qancha muddat istiqomat qilishi bilan bog‘liq. Hazrat Navoiyning “Nasru-l-la’oliy” kimning qalamiga mansub ekani haqida ma’lumot berishga ehtiyoj sezmagani sababi asar muallifining Mashhadga dafn etilgani va u yerda olimning dovrug‘i-yu asarlari tillarda doston bo‘lgani, degan xulosaga kelish mumkin.

Abu Ali Fazl ibn Hasan o‘z asrining ulug‘ ustozlaridan ta’lim olgan. Tilshunoslik, lug‘at, mantiq, ma’oniy va bayon ilmi, tarix, hisob-kitob, algebra va geometriya kabi ilmlarni chuqur egallagan. Tafsir, hadis va tarix ilmlarida o‘z zamonasining peshvolaridan bo‘lgan, imomiylarning oliy martabadagi ulamolari qatoridan joy olgan.

Abu Ali Fazl ibn Hasan haqida ulamolar fikrlari:

Shayx Muntajibuddin Abulhasan Ali ibn Ubaydulloh ibn Bobavayh ar-Roziy[3] qalamiga mansub “Fihristu asmai ulamaish-shiy’ati va musannafiyhim” (Shiy’a ulamolari va musannaflari

---

[1] Qarang: 1.wikipedia.org/wiki/فضل_بن_حسن_الطبرسي, 2. Nasrul-la’aliy, muqaddima 6-bet, Abu Ali Fazl ibn Hasan ibn Fazl, Muhammad Hasan Zabriy Qoyiniy tahqiqi, Hamid Rizo Shayxiyning forscha tarjimasi.

[2] Erondagi Mashhad shahrining asl kelib chiqishi Imom Ali Rizoga borib taqaladi. Zaharlab o‘ldirilgan Imom Ali Rizo Sanobad qishlog‘iga dafn qilingan va shu joyga “Mashhadi Ali Rizo” (Ali Rizo shahid qilingan joy) nomi berilshgan.

[3] Hijriy 5 asrda yashab o‘tgan Bobavayhlar avlodidan bo‘lgan mashhur olim. Hijriy 504-yilda tug‘ilib, 585-yilda vafot etgan. Asarllari: Fihristu asmai ulamaish-shiy’ati va musannafiyhim, Tariyxu ar-Ray, at-tadvin fi zikri ahlil-’ilm. (Muhammad Amiyn Najif, A’yonush-shiy’a, 8/268)

ismlarining mundarijasi) kitobida shunday deydi: “Shayx, imom, aminuddin Abu Ali al-Fazl ibn Hasan ibn Fazl at-Tabrisiy siqa (ishonchli), fozil, o‘ta diyonatli va (boshqalarga) namuna edi”[1]. Ulug‘ olim Sayyid Amir Mustafo Husayniy at-Tafrishiy “Naqdu-r-rijol” kitobida shunday yozadi: “Siqa, fozil va bu jamoaning buyuklaridandir” [Sayyid Amir Mustafo Husayniy at-Tafrishiy. 266]. Alloma Majlisiy[2]ning “Vajiyza” kitobida “ko‘p ilmlarni o‘zida jamlagan, siqa (rivoyatlari qabul qilinadigan), jalil (ulug‘) kishi”, deyilgan.“Biharu-l-anvor” kitobida: “At-Tabrisiy mashhur ulamolarning faxri, millat va islomning omonatdori, mufassirlar yo‘lboshchisi, ilmi tengsiz fozillarning ustunidir. U din peshvolaridan bo‘lib, ushbu jamoaning ulug‘laridan va ishonchli kishilaridandir... Biz U zotning fazli ulug‘, shuhrati buyukligidan hamda tafsir borasidagi “Majma’u-l-bayon” nomli ko‘zga ko‘ringan kitobni va boshqa ko‘plab boqiy asarlarni taqdim etgani, natijada tengsiz ilmi, ko‘plab fazilatlari dunyoga ovoza bo‘lgani sababli tajimai hollarini yozishga ehtiyoj sezmaymiz” [Alloma Muhammad Boqir Majlisiy. “Biharul-anvor”. 136], deya ta’rif beradi. Tengsiz olim Mullo Abdulloh Isfahoniy[3]: “Shayx, shahid[4], aminuddin, fozil olim, mufassir, faqih, ulug‘ muhaddis, siqa, piri komil, tengsiz olimdir. U zot quddisa sirruhu (Alloh uning sirini poklasin), uning o‘g‘li, boshqa silsilasi, qarindosh urug‘lari buyuk ulamolardandir” [Mullo Abdulloh Isfahoniy. 4: 340-341], deb yozgan.

Xotimatul-muhaddisiyn (muhaddislar oxiri) nomi bilan mashhur bo‘lgan Shayx Nuriy[5] (mil. 1320) o‘zining “Xotimatu mustadrak al-

[1] Abulhasan Ali ibn Ubaydulloh. Fihristu asmai ulamaish-shiy’ati va musannafiyhim. 144 b.

[2] Alloma Muhammad Boqir Majlisiy 1037-yilda Isfahonda tug‘ilgan. Shayx Muhammad ibn Hasan al-hur al-’amiliyning ustozi va murshidi bo‘lgan. ko‘plab mashhur asarlar muallifi. 1111-yilda Isfahonda vafot etgan.

[3] Shayx Hofiz Mullo Abdulloh Isfahoniy XII asr mashhur ulamolaridan. Afandi taxallusi bilan tanilgan.

[4] Shayx Nuriy: “Riyozul-ulamo sohibi ham, boshqa biror kishi ham Abu Alining qanday shahid bo‘lgani haqida ma’lumot bermagan. Ehtimol, o‘sha shahidlik zahar bilan bo‘lgandir” (xotimatu mustadrokil-vasoil).

[5] Mirzo Husayn Nuriy Tabrisiy 1254-1320 hijriy yillarda yashab o‘tgan tarixchi va muhaddis.

vasoil” kitobida shayx Abu Alini quymidagicha vasf etadi: “Tengsiz olimlar faxri, millat va Islom g‘ururi, mufassir, huquqshunos, ulug‘vor, komil, olijanob (zot)dir. Mufassirlar murojaat qiladigan “Majma’u-l-bayon” nomli tafsir hamda ko‘plab boshqa mashhur kitoblar muallifi hamdir” [Mirzo Husayn Nuriy, 21-69]. Muhaddis Shayx Abbos Al-Qummiyning (1359) “Safiynatu-l-bihor” asarida: “U ulug‘ olim, olijanob, komil, olimlarning g‘ururi, din va Islomning ishonchli vakili Abu Ali Fazl ibn Hasan ibn Fazl Tabrisiydir. Fazilatlarning o‘g‘li va otasidir[1]. Uning do‘stlari ham, dushmanlari ham uning fazli haqida olamga jar solishgan. Mohir faqih, ishonchli va obro‘li, qadri baland mufassirdir” [Muhaddis Shayx Abbos Al-Qummiy. 3/205]. Muallif yana “Hadiyyatul-ahbob” asarida shunday degan: “at-Tabrisiy buyuk olim, Uning fazli haqida do‘stlari ham, dushmanlari ham olamga jar solishgan” [Muhaddis Shayx Abbos Al-Qummiy. 213].

Bundan tashqari, “Al-kuna val-alqob” asarida: “Mashhur olimlar faxri... Mohir faqih, qadri ulug‘ siqa hamda komil olimdir” [Muhaddis Shayx Abbos Al-Qummiy. 2/409], deyilsa, “Al-Favaidu-r-Rizaviyya” kitobida “Fozil, komil, faqih, muhaddis, ulug‘ insondir” [Muhaddis Shayx Abbos Al-Qummiy. 117], deya baho berilgan.

Sayyid Muhsinul-amiynning “A’yanush-shiy’a” asarida “Ulug‘ shayx, dinning ishonchli vakili, Islomning ishonchi, oliyjanob insonlarning omonatdoridir. Xulosa qiladigan bo‘lsak, bu kishining fazli, ulug‘vorligi, ilm-fan sohasida tengsiz va ishonchli ekani borasida so‘zlashning hojati yo‘q. Bularning barchasiga uning yozgan kitoblari dalolat qiladi. Fikrda o‘ziga qarshi bo‘lgan kishilarga nisbatan ham shu darajada odob ko‘rsatar va tilini muhofaza qilib tura olar ediki, uning tilidan qarshi tarafni ranjitadigan yoki ularni haqorat qilib pastga uradigan biror so‘z chiqmagan. Adiblar borasida o‘zini bunday illatlardan saqlab qola olgani borasidagi rivoyatlar juda kam” [Sayyid Muhsinul-amiyn. 8/399]. Imom Zarkaliyning “Al-A’lom” kitobida “Aminuddin Abu Ali mufassir, muhaqqiq, lug‘atshunos, imomiylarning ulug‘laridandir” [Imom Zarkaliy. 5/352], deyilgan.

[1] Bu yerda uning ismiga monand qilib tashbeh qilinmoqda. Go‘yoki ko‘plab fazilatlar unda mujassam, degandek.

Ustozlari

Buyuk shayx Abu Ali Fazl ibn Husayn ko‘plab ulamolardan ilm olib, ulardan rivoyat qilganlar. shu jumladan:

1. Shayx Abu Ali ibn Shayx At-Tusiy
2. Shayx Abul-Vafo Abduljabbor ar-Roziy
3. Ulug‘ Shayx Hasan ibn Husayn ibn Hasan ibn Babavayh al-Qummiy
4. Shayx Muvaffiquddin Husayn ibn Vo‘iz al-Bakrobadiy al-Jurjoniy
5. Sayyid Muhammad ibn Husayn al-Husayniy al-Qasabiy al-Jurjaniy
6. Shayx Abulhusayn Ubaydulloh ibn Muhammad ibn Husayn al-Bayhaqiy
7. Shayx Said Zohid Abulfath Abdulloh ibn Abdulkarim ibn Xavozin Qushayriy

Shogirdlari va undan rivoyat qilgan olimlar:

1. O‘g‘li Roziyyuddin Abu Nasr Hasan ibn al-Fazl.
2. Abu Ja’far Muhammad ibn Ali ibn Shahroshub.
3. Shayx Muntajibuddin.
4. Qutb Rovandiy.
5. Shayx Fazlulloh Rovandiy.
6. Sayyid Abulhamd Mahdiy ibn Nizor Husayniy Qoyiniy.
7. Sayyid Sharafshoh ibn Muhammad ibn Ziyoda Aftisiy.
8. Shayx Abdulloh ibn Ja’far Davristiy.
9. Shozon ibn Jabroiyl al-Qummiy.

Yozgan asarlari:

Abu Ali Fazl ibn Husayn juda ko‘p qimmatli asarlar yozgan. Ulardan ayrimlari quyidagilardir:

1. Majma’u-l-bayon fiy tafsiri-l-Qur’on. Alloma Majlisiy bu kitob haqida: “Bu kitob tafsir ilmidagi jome’ (jamlovchi) kitob bo‘lib, (o‘quvchi) kishiga undan boshqasiga hojat yo‘q”, deb yozgan.
2. Al-vasiyt fi-t-tafsir.
3. Al-Odobu-d-diyniyya li-l-xizanati-l-ma’iyniyya.
4. Al-vajiz.
5. An-nuru-l-mubiyn.
6. Al-foiq.

7. Kunuzu-n-najah.
8. Me’roju-s-suvol.
9. Haqoiqu-l-umur.
10. ‘iddatu-s-safar va umdatu-l-hazor.
11. Al-mushkilot.
12. Al-majmu’ fil-adab.
13. Mishkatu-l-anvor.
14. Al-vofiy fiy tafsiyri-l-Qur’on.
15. Al-Umda usuli-d-din.
16. Nasru-l-la’oliy.
17. Asroru-l-aimmati (yoki Asroru-l-imoma).
18. G‘unyatu-l-obid va munyatu-z-zohid.
19. Al-koffu-sh-shoff min kitabi-l-kashshof.
20. Toju-l-mavolid (yoki Sharhu-l-mavolid).
21. Jome’u-l-javomi’ yoki javome’u-l-jome’.
22. I’lamu-l-varo bia’lomi-l-hudo.
23. Al-javahir fin-nahv.
24. Shavohidu-t-tanzil.

“Nasrul-la’oliy” asari haqida. Muallif hazrat Ali ibn Abu Tolib (r.a.)ning mashhur so‘zlarini tanlab olib, ularni alifbo harflari tartibiga ko‘ra keltirgan. Asar “alif” harfidagi hikmatlar bilan boshlanib, “yo” harfidagi hikmatlar bilan tugallangan. Ushbu asar Imom Omidiyning “G‘uroru-l-hikam va duraru-l-kalim” kitobi uslubida yozilgan. Biroq bitta harfdan keyingi harflar alifbo tartibiga solinmagan. Masalan, alif bilan boshlangan so‘z, ikkinchisi “ba” yoki “ta” ekaniga qarab o‘tirilmagan. Ularga harflarning boshlanishiga ko‘ra emas, balki aksincha, to‘g‘ri kelgan tarzda tartib berilgan. Asarni nashr qilganlar hikmatlarga alfavit asosida tartib bergani o‘quvchi uchun foydali bo‘lgan.

Asarning muhim fazilati shundaki, hazrat Ali roziyallohu anhuning “Nasru-l-la’oliy”da keltirilgan hikmatlari “Nahju-l-balog‘a”, “G‘uroru-l-hikam”, Ibn Abul-Hadidning “Al-hikamu-l-mansura” kabi Ali roziyallohu anhu hikmatlarini tarannum etgan boshqa asarlarda uchramaydi.

Olim Shayx Oqobuzurg at-Tehroniy bu haqda shunday degan: “Nasru-l-la’oliy” amirul-mu’minin Ali roziyallohu anhu gaplaridan

tashkil topgan iboralar haqidagi kitob bo‘lib, alifbo tartibida ko‘ra yozilgan. Har bir harf ostida o‘n ibora, ba’zida undan ko‘p, ba’zan esa biroz kam iboralar ham keltirilgan. Uni aminulislom, mufassir, Fazl ibn Hasan ibn Fazl Tabrisiy jamlagan. Bu kitob “Xizanatu-s-sadr” kutubxonasi hamda Hoji Mullo Navro‘z Ali Bastomiyning Mashhaddagi vaqfxonasida mavjud. Alloma Xonsariy va Hodiy Kashifu-l-g‘ito huzurlarida nusxalari ko‘chirilgan. Mir Fayzulloh[1] uni “Arba’iyn”, “Arba’iyna-sh-shahid”, “Isna ashariyya fil-mava’izl-adadiya” kitoblari bilan birga chop ettirgan.

Shayx Mirzo Abdulloh Afandi yana bunday yozadi: “Ushbu olim Tabrisiyning asarlaridan biri “Nasru-l-la’oliy” kitobidir. Uning ko‘plab nusxalarini ko‘rdim, ba’zisini Isfahonda, ba’zisini Mozandaronda... bu muxtasar risola bo‘lib, uni alifbo tartibiga ko‘ra yozgan. Unda Ali roziyallohu anhuning so‘zlarini Omidiyning “Al-g‘uror va-d-durar” kitobi uslubiga ko‘ra bayon qilgan” [Шайх Мирзо Абдуллоҳ Афанди. 4/346].

Ushbu ma’lumotlar va ularning tahlili Alisher Navoiyning “Nazmu-l-javohir” asari va unga manba bo‘lgan Fazl ibn Hasan ibn Fazl Tabrisiyning “Nasru-l-la’oliy” asarlarini qiyosiy o‘rganish navoiyshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardandir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Имом Ҳусайн ибн Масъуд Бағавий. Маъалимут-танзийл. “Дору Тойба”. Мадина. 2008 й. 4-жуз. “Ар-Роҳман” сураси.

2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. “Тафсири ҳилол”. Ҳилол нашриёти. Тошкент, 2016 й. 6-жуз. Инсон сураси.

3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1999.

4. Абулҳасан Али ибн Убайдуллоҳ. Фиҳристу асмаи уламаиш-шийъати ва мусаннафийҳим. 144 б.

5. Саййид Амир Мустафо Ҳусайний ат-Тафриший. “Нақдур-рижол”. 266 б.

[1] Mir Fayzulloh ibn Abdulqohir al-Husayniyat-Tafrishiy, Najafiy ulug‘ olim, muttaqiy. Parhezkorligi, ilmi va husnu xulqi bilan mashhur bo‘lgan. alloma Irdibliyning shogirdlaridan bo‘lgan.

6. Шайх Муҳаммад ибн Ҳасан ал-ҳур ал-ъамилий. “Амалул-омил”. 216 б.
7. Аллома Муҳаммад Боқир Мажлисий. “Биҳарул-анвор”. 136 б.
8. Мулло Абдуллоҳ Исфаҳоний. “Риёзул-уламо”. 4: 340-341 бетлар.
9. Мирзо Ҳусайн Нурий Табрисий. Хотимату мустадрак ал-васоил. 21-69.
10. Муҳаддис Шайх Аббос Ал-Қуммий. “Сафийнатул-биҳар”. 3/205.
11. Муҳаддис Шайх Аббос Ал-Қуммий. “Ҳадийятул-аҳбоб”. 213-б.
12. Муҳаддис Шайх Аббос Ал-Қуммий. “Ал-куна вал-алқоб”. 2/409
13. Муҳаддис Шайх Аббос Ал-Қуммий. “Ал-Фаваидур-Ризавийя”. 117-б.
14. Саййид Муҳсинул-амийн. “Аъянуш-шийъа”. 8/399.
15. Имом Заркалий. “Ал-Аълом”. 5/352.
16. Умар Ризо Каҳҳола. “Муъжамул-муаллифийн”. 3/269.
17. Шайх Мирзо Абдуллоҳ Афанди. Риёзул-уламо. 4/346.



الصفحة الأولى من نسخة (ج)

بسم الله الرحمن الرحيم

هذا كتاب نثر اللآلي من كلام مولانا

أمير المؤمنين علي بن أبي طالب عليه السلام

على ترتيب حروف المعجم ❁ رواه الشيخ

الأجل أبو علي الطبرسي صاحب مجمع البيان

في تفسير القرآن طيب الله مضجعه

حرف الألف إيمان المرء يعرف

بإيمانه ❁ إخوان هذا الزمان جواسيس

الصفحة الأولى من نسخة فزه

FRANSIYA KUTUBXONALARIDA SAQLANAYOTGAN SHARQ NODIR MUMTOZ ASARLARINING BEZATILGAN NUSXALARI

Kosimboy MAMUROV
TSUULL
Mohina KHAMIDOVA
TSUULL

Annotatsiya

Mazkur maqola Fransiya kutubxonalarida saqlanayotgan sharq mumtoz asarlarining, xususan, Alisher Navoiy asarlarining bezatilgan nusxalariga oid ilmiy ishlar tadqiqotiga oid monografik tadqiqot to‘g‘risida.

Tayanch so‘zlar: *monografiya, bezatilgan nusxalar, Sharq mumtoz adabiyoti nusxalari, Fransiya kutubxonalari.*

Annotation

This article is about monograph on the study of ornate copies of Oriental classics, in particular, work by Alisher Navoi in libraries of France.

Key words: *a monograph, study of ornate copies, Oriental classics, works by Alisher Navoi, libraries of France.*

2019-yili 9-fevralda Alisher Navoiy tug‘ilgan kunning 578 yilligi munosbati bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy-nazariy anjumanida bir qator O‘zbekistondagi chet el elchixonalarining, shu jumladan, Tojikiston, Turkiya va Fransiyaning elchixonaari vakillari tomonidan universitetga o‘z davlatlari kutubxonalarida saqlanayotgan Alisher Navoiyning qo‘lyozma asarlarining hamda ular to‘g‘risidagi ilmiy izlanishlarning elektron nusxalarini taqdim qilgan edilar. Bu materiallar ichida Turkiya va Fransiya kutubxonalaridagi Alisher Navoiy asarlarining tasviriy nusxalari to‘g‘risida batafsil, chuqur va keng olib borilgan ilmiy izlanishlar

to‘g‘risidagi mukammla monografik ishlar ham bo‘lib, ulardan biri Turkiyalik navoiyshunos olim La’li Uluch tomonidan ingliz tilida tayyorlangan. Unda Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan A.Navoiy qo‘lyozmalarining bezatilgan nusxalariga oid ilmiy ma’lumot bor. Ikkinchi ish esa Fransiya kutubxonalarida saqlanayotgan Navoiy asarlarining bezatilgan nusxalariga oid materiallar bo‘lib, ularni keng kitobxonlar ommasi, xususan, navoiyshunos olimlar e’tiboriga yetkazish uchun universitetning tarjima laboratoriyasida ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Tarjimon, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori v.b., f.f.n. Qosimboy Ma’murov. Muharrir: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.d. Dilnavoz Yusupova.

Mazkur ish muallifi Fransua Richard. U 1948-yili tug‘ilgan, Fransiya milliy kutubxonasida Fors tili qo‘lyozmalarining sobiq saqlovchisi, De Luvr Muzeyida Islom san’ati departamentining sobiq direktori, BULAK Kutubxonasining Markaziy va ilmiy ishlari direktori, Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasining chet ellik a’zosi; Farobiy mukofoti sohibi (Tehron 2017).

Movorohunnahrning jilolantirilgan (bezatilgan) qo‘lyozmalarining davlat kolleksiyalari asosan Parijdagi Fransiya milliy kutubxonasi va De Luvr Muzeyida to‘plangan. Fransiyaning birinchi qirollik kutubxonasi, (Qirolning kutubxonasi deyiladi) Charlz V ning (1364-80) hukmronligi davrida 1200 ta qo‘lyozmani o‘z bag‘rida saqlab kelgan Luvr kutubxonasi tarqatib yuborilgan edi. Biroq Luiz XI hukumroligi (1461-83-yy.) ostida yana bitta kutubxona tashkil qilinadi. 1544-yili Fransuz 1 kutubxonani Fantanbluga ko‘chiradi. Va 1537-yildan boshlab u Fransiyada nashr qilingan kitoblarning har biridan bittadan nusxa oladigan bo‘ladi. Mazkur kutubxona 1567 va 1593-yillar o‘rtasida Parijga ko‘chiriladi, va uning birinchi katologlar jildlarini to‘plash 1622-yilda boshlanib, keyingi asrlarda davom ettiriladi. Kutubxona 1692-yili xalq uchun ochiladi, va 1721-yili u Richelyu hukmronligi davrida Fransiya Qirolining Mazarin Saroyiga ko‘chiriladi. Mazkur kutubxonadagi birinchi arabcha qo‘lyozmalar kolleksiyasi renessans davrida (XVI asrda) to‘plangan. Ammo aksari qo‘lyozmalar kolleksiyasi Markaziy Osiyoga XVII

va XVIII asrlarda kelgan xorijiy olimlar va kutubxonachilar tomonidan qo‘lga kiritiladi. Usmoniylar imperiyasiga, jumladan, Misr, Eron va Hindistonga maxsus ekspeditsiya tashkil qilinadi, biroq bu sohada Markaziy Osiyo hali beri kashf qilinmasdan kelar edi. Sharq qo‘lyozmalari birinchi bosma katalogi 1739-yili olam yuzini ko‘radi. 1795-yilga kelib mazkur kutubxonaga qaytadan “Milliy kutubxona” maqomi beriladi, kutubxona fondi cherkovdagi kitoblar kolleksiyasining revolyusion hukumat musodarasi natijasida va keyinchalik Napoleon qo‘lga kiritgan kitoblar hisobidan boyiydi. Fransiyada revolyusiya boshlanishi arafasida kitoblar kolleksiyasi 300.000 nusxani tashkil qilgan bo‘lsa, 1818-yilga kelib, kolleksiya miqdori ikki baravarga oshadi. XIX asr davomida Ma’mur (administrator) Leopold-Viktor Delizl kutubxona qo‘lyozmalarining alohida boy va noyob kitoblar kolleksiyalari bo‘limini tashkil qiladi.

Bosma nashrlar uchun Fransiya milliy kutubxonasi Fransiyada amalga oshirilgan har bir bosma nashrdan bittadan nusxa oladi. Chet ellardan olib kelingan kitoblar asosan gumanitar sohaga oid bo‘lgan. Bundan tashqari, kutubxonada taqriban 180 000 qo‘lyozma kitob bor. XX asrning oxiriga kelib De Richelyudagi kutubxona binosining eski kompleksi to‘xtovsiz o‘sib boradigan kitoblar kolleksiyasi oqimini endi o‘ziga sig‘dira olmay qoladi. Natijada Dominiko Perrault tomonidan loyihalangan yangi kutubxona 1995-yili Seyne Daryosi bo‘yida qurib bitkazildi va keyingi yili ishga tushirildi. Uning xona va zallari 4 ta 22 etajli lotincha L shaklidagi oynakor osmono‘par binolar majmuidan iborat bo‘lib, ochiq maydon atrofida qad ko‘targan. Bu yangi qurilma bino Kutubxonadagi barcha kitoblar, periodikalar (gazetalar) va jurnallarni o‘zida joylashtirgan bo‘lib, bosma kitoblarning umumiy soni 12.000.000 dan ortiq. Kutubxonaning qadimiy qo‘lyozmalar bo‘limi esa tarixiy O‘quv zalidan iborat Reu De Richelyudagi eski binodaligicha qoldi. Fransiya Qirollari Kutubxonasi esa Fransiya Revolyusiyasidan (Inqilobidan) keyin “Fransiya Milliy Kutubxonasi”ga o‘zgartirilgan bo‘lib, u albatta Markaziy Osiyodan to‘plangan muhim qo‘lyozmalar kollekiyasiga ega kutubxonalardan eng birinchisi hisoblanadi. Mavorounnahrdan keltirilgan birinchi jilolantirilgan qo‘lyozmalardan bittasi Fransiya

Elchisi Denis de La Xaya Ventelet tomonidan 1653-yillar atrofida Istanbul shahrida sotib olinadi. Mazkur forscha nodir qo‘lyozma Sa’diyning “«Bo‘ston»” asari bo‘lib, BnF Persan 257 raqam ostida mashhur Nikolas Fuke (1615-1680) nomidagi kutubxonada avval saqlangan. Nikolas Fuke Fransiya Qiroli Luiz XIVning moliyaviy ishlar nazoratchisi bo‘lgan. Ammo juda ham badavlat va ayni paytda baxtsiz nazoratchi 1667-yili qamoqqa mahkum qilinganda, mazkur qo‘lyozma Qirol kutubxonasiga olib kelinadi. Bir necha yildan keyin, yana Istanbulda mashhur zakovatli sharqshunos olim, va kashfiyotchi hamda “Ming bir kecha” tarjimoni, Fransuz elchisining o‘sha paytdagi yosh kotibi Antoin Galland (1646-1715) kitob do‘konida uyg‘ur tilidagi “Me’rojnoma”ning ajoyib qo‘lyozmasiga ko‘zi tushadi, va uni Usmoniylarning 25 piastr bahosida sotib oladi. Mazkur qo‘lyozma qadimgi turk adabiyoti va tamadduni to‘g‘risidagi bizning bilimimiz uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Bitta jildda ikkita matn ya’ni “Me’rojnoma” va uning uyg‘ur tilidagi matni hamda Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarining turkcha tarjimasi jamlangan. Bizningcha har ikki matn milodiy 1430-1440-yillar atrofida Hirotdan kelgan xuddi o‘sha Haru Malik Baxshi ya’ni qisqacha Malik Baxshi tomonidan ko‘chirilgan. Malik Baxshi temuriylar ma’muriyati turkiy tillar devonining a’zosi bo‘lgan degan ehtimol ham mavjud. Mazkur to‘plam Golberdning o‘limidan keyin 1732-yili qirollar kutubxonasiga olib kelinadi va u yerda ilova turk 190-raqam belgisi ostida hozirgacha saqlanmoqda.

Sharq tillarini o‘rganish uchun Kolbert (Ecole des Jeunes de Langue) tomonidan tashkil qilingan Fransuz maktabining birinchi o‘quvchisi Piyerre – Vinsent Armain Fransiya qirollarining kutubxonsi uchun sharq qo‘lyozmalarini topish maqsadida 1722-1725-yillarda Aleksandriya Yegiptida (Misrda) bo‘lganda nihoyatda muhim jilolantirilgan asar “Mir Alisher Navoiyning Qulliyotini” qo‘lga kiritadi, mazkur asar hozirgi kunda kutubxonada Supplément turc 316 va 317-raqami ostida mavjud. Mazkur qo‘lyozma hijriy 930 va 933 (1524-7 AD) yillar orasida Ali Hijraniy tomonidan ikki to‘plam hajmida ko‘chirilgan va 1522 va 1529-yillar orasida, ehtimol, Tahmasb Safaviyning akasi Sam Mirzo uchun va Hirotning hokimi uchun hashamatli tarzda ko‘chirilgan. Turk tili eksperti bo‘lgan

Armain mazkur ikki nusxani keyinchalik o‘rganish maqsadida o‘limiga qadar o‘z uyida saqlaydi, o‘limidan keyin esa uning beva xotini qo‘lyozmani faqat 1757-yili Qirollar kutubxonasiga topshiradi.

Fransiya revolyusiyasi paytida, 1789-yildan keyin, bir kichkina Fors Antologiyasi (hozir BnF Supplément persan 802 raqamli) 1801-yili Milliy kutubxona tomonidan Pierre de Brueys kutubxonasidan olingan kitoblar bilan birga qo‘lga kiritiladi. O‘sha paytda Buxoro va Samarqandga borish oson emas edi va kitoblarni sotib olishning yagona manzili bu Istambul, Aleppo, Kair, Isfahan yoki Hindiston edi. Milliy kutubxonadagi kitoblar ichida Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) nomli Forscha she’ri qo‘lyozmasi, Ulug‘bekning shaxsiy kutubxonasi uchun maxsus tayyorlangan al-So‘fining Suvar al-kavakib al-tabita traktatining juda ham mashhur nusxasi, Sa’diyning “«Bo‘ston»” nusxasi, Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat ul-anvor” asarining nusxasi. Mir Alisher Navoiyning turkiy tildagi she’ri “Lison ut-tayr” asari, Hotifiyning “Layli va Majnun” asari, va boshqa kitoblar Arab, Fors va Turkiy tillardagi matnlar kolleksiyasi yoki shu sohaga oid ko‘chirilgan nusxalar, albatta, hanuzgacha ham juda ko‘p va ular hozirgi kungacha ham olimlarning maxsus diqqat e’tiborining ob’yekti bo‘lib qolmoqda. Fransiya matnshunos olimi Fransua Richardning mazkur ishi noyob xazinalar borasida Markaziy Osiyo maktabi bo‘yicha birinchi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

E’tiboringiz uchun rahmat!

II. ALISHER NAVOIYNING ADABIY MEROSI VA TARJIMAYI HOLI BILAN BOG‘LIQ MASALALAR

II. ALISHER NAVOI’S LITERARY HERITAGE AND INVESTIGATIONS IN HIS BIOGRAPHY

SHAHZODA SHOHG‘ARIBGA NASIHATLAR

Akramjon DEHQONOV
ToshDO‘TAU
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi shahzoda Shohg‘arib Mirzoga bag‘ishlangan bobi tahlil qilinadi. Shuningdek, “Xamsa” dostonlaridagi boshqa shahzodalarga bag‘ishlangan boblar haqida ham ayrim mulohazalar bildirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar*: Alisher Navoiy, shahzoda, Shohg‘arib Mirzo, ilm, ma’rifat, Husayn Boyqaro.*

Annotation

The article analyzes the chapter of the poem “Farhad and Shirin” which is dedicated to Prince Shahgarib Mirzo. And the chapters of other poems of “Khamsa” by Alisher Navoi dedicated to other princes are also commented.

Key words: *Alisher Navoi, prince, Shahgarib Mirzo, enlightenment, knowledge, Hussein Baikaro.*

Alisher Navoiy “Xamsa” tarkibidagi dostonlarida Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘illari – shahzodalarga alohida boblar bag‘ishlab, bu boblarda ularga juda samimiy nasihatlar qiladi. Dostonlardagi shahzodalarga bag‘ishlangan boblar ichida “Farhod va Shirin” dostonining oxirida, 53-bobidagi Shohg‘arib Mirzoga qilingan nasihatlar alohida ajralib turadi. [2, 460-468].

Shohg‘arib Mirzo – Sulton Husayn Boyqaroning Xadichabegimdan tug‘ilgan o‘g‘li. U 1470/71-yilda Hirot shahrida tug‘ilgan. U haqda Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da quyidagicha yozadi: “Yana Shohg‘arib Mirzo edi, bukri edi. Agarchi hay’ati yomon edi, tab’i xo‘b edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg‘ub edi. “G‘aribiy” taxallus qilur edi, devon ham tartib qilib edi. Turkiy va forsiy she’r aytur edi... Necha mahal Hiriy hukumatini Sulton Husayn Mirzo Shohg‘arib Mirzog‘a berib edi. Otasining zamonida o‘q naql qildi. Andin o‘g‘ul-qiz qolmadi” [10, 149].

(Yana Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘illaridan biri Shohg‘arib Mirzo bo‘lib, u bukri edi. Badani nogiron bo‘lsa ham, she’rlari dilga yoqimli bo‘lib, she’rlariga “G‘aribiy” deb taxallus qo‘yardi. Devon ham tuzgan. Turkiy va forsiy tilda she’r yozardi. Hirot shahri hokimligini Sulton Husayn Boyqaro bir necha vaqt Shohg‘arib Mirzoga bergandi. Otasining zamonida dunyodan o‘tdi. Undan farzand qolmadi).

Alisher Navoiy “Majolisun-nafois” tazkirasida Shohg‘arib Mirzo haqida shunday deydi: “Shohg‘arib Mirzo – sho‘x tab’liq va mutasarrif zehnlik va nozik taxayyulliq va daqiq taaqqulliq yigitdur. Nazm va nasrda naziri ma’dum va mutaxayyila va hofizada adiyli noma’lum. Ov va qush xotirig‘a marg‘ub va qurro va o‘qush ko‘ngliga mahbub... Devon ham jam’ qilibtur. Yaxshi matla’lari bu muxtasarg‘a sig‘mas, magar yana bir kitob bitilg‘ay” [8, 256].

(Shohg‘arib Mirzo – quvnoq tabiatli, zehni kuchli, xayol dunyosi keng, nozik narsalarni ham aqli anglaydigan yigit. Nazm va nasrda unga teng keladigan kishi yo‘q. Tasavvur kengligi va zehn o‘tkirligida unga o‘xshash odam topilmaydi. Ov va qushlarni juda yaxshi ko‘radi. Qur’on qiroat qilishni va kitob o‘qishni juda sevadi. Devon ham tuzgan. Yaxshi matla’lari bu qisqacha kitobga sig‘maydi. Uning she’rlari haqida yana bir kitob yozish kerak.)

Alisher Navoiy “Majolisun-nafois”da Temuriy shahzodalardan birortasi haqida Shohg‘arib Mirzo haqida aytganchalik maqtov so‘zlarini aytmaydi. Birortasining she’rlaridan namuna keltirganda Shohg‘arib Mirzoning she’rlaridan namuna keltirganchalik ko‘p namuna keltirmaydi. Navoiyning Shohg‘arib Mirzoga bo‘lgan mehri boshqacha iliq va samimiy edi. Shohg‘arib Mirzo 1496-yilda vafot

etgan. Alisher Navoiy unga bag‘ishlab marsiya ham yozgan [7, 513-515].

Ma’lumki, Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘illaridan uch nafariga maxsus boblar bag‘ishlagan. Bular Badiuzzamon Mirzo, Shohg‘arib Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzolardir.

Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzolarga bag‘ishlangan boblarda Navoiy asosan shahzodalarni madh qiladi, ularning fazilatlarini zikr etib, hukmronlik bilan bog‘liq eng zarur nasihatlarni aytib o‘tadi.

Shohg‘arib Mirzoga bag‘ishlangan bob ham shahzodaning madhi bilan boshlanadi. Lekin boshqa shahzodalar madhida asosan ularning hukmdorlik sifatlari, podshohlarga xos fazilatlari xususida so‘z borgan bo‘lsa, Shohg‘arib Mirzo madhida ko‘proq uning insoniy fazilatlari, go‘zal xulqi vasf etiladi. Bu mazmun bobning nasriy debochasidanoq boshlanadi:

“Saltanat shajarasining samarasi va xilofat bog‘ining shajarasi, hidoyat avjida manzil etgan, tamalluqning nihoyatiga etgan, riyo qasri bunyodin qo‘nqarg‘on, balog‘at ayvonida ot chiqorg‘on, ya’ni sultonzodai olam Abulfavoris Shohg‘arib Bahodir...”.

(Saltanat daraxtining mevasi, xilofat bog‘ining daraxti, hidoyat osmonida manzil tutgan, tamalluq (ulug‘larga, ustozlarga xizmat qilish)ning nihoyatiga yetgan, riyo binosini poydevori bilan ag‘dargan (riyo – odamlarning ko‘zi uchun bir yaxshi ishni qilish), balog‘at ayvonida ot chiqargan, ya’ni olam sultonzodasi Abulfavoris Shohg‘arib Bahodir...)

Agar “Farhod va Shirin” dostoni 1484-yilda yozib tugatilganligini e’tiborga olsak, bu paytda Shohg‘arib Mirzo 13-14 yoshlarda bo‘lgan. Navoiy hali yosh bola bo‘lgan shahzodaning noyob she’riy iste’dodini o‘sha vaqtdayoq ilg‘ay olganini yuqoridagi misoldan sezishimiz mumkin. Navoiy shahzodaga bag‘ishlangan bobning dastlabki baytlaridanoq uning so‘zga – she’rga qobiliyatli ekanligini ta’kidlaydi:

Qayu shahzoda ul koni malohat,
Takallum vaqti daryoyi fasohat.
Fasohat bobida shahg‘a qarib ul,
Bori shahlar fasihi Shohg‘arib ul... [2, 461].

“Xamsa” dostonlarida Husayn Boyqaroning o‘g‘illari – shahzodalarga bag‘ishlangan boblar mazmunini uch qismga ajratish mumkin:

1. Madh qismi. 2. Nasihat qismi. 3. Duo qismi.

Madh qismida Navoiy so‘z borayotgan shahzodaga xos bo‘lgan fazilatlarni sanab o‘tadi. Albatta, bu qismda Husayn Boyqaroning ham vasfi qisqacha bo‘lsa-da so‘z borayotgan shahzodaga bog‘liq holda keltirib o‘tiladi.

Madh qismi tugagach, nasihat qismiga o‘tiladi. Nasihat ham har bir shahzodaning fe’l-atvoriga, faoliyat yo‘nalishiga, qiziqishlarining doirasiga mos ravishda olib boriladi. Ularga hukmdorlik ishlarida zarari tegishi mumkin bo‘lgan ishlarni sanab, ulardan ehtiyot bo‘lishni tayinlaydi. Masalan, Badiuzzamonga qilingan nasihatda (“Hayratul-abror” dostoni, 50-bob) so‘zni dunyoning o‘tkinchiligidan, umrning bevafoligidan boshlab, so‘ng har bir ishda Tangrini yodda tutishni tayinlaydi. So‘ngra shahzodaga birma-bir o‘z nasihatlarini bayon qiladi. Bu yerdagi nasihatlar mazmuni asosan hukmdorlik, podshohlik faoliyati bilan bog‘liq o‘gitlardir.

Shohg‘arib Mirzoga qilingan o‘gitlar esa mazmunan butunlay boshqa yo‘nalishda. Navoiy bu o‘rinda shahzodani ma’naviy kamolotga da’vat qiladi, ilmga targ‘ib etadi. Shoir o‘z o‘gitini hikmatli so‘z darajasiga chiqqan mashhur bayti bilan boshlaydi:

Quyoshlik istasang kasbi kamol et,
Kamol ar kasb etarsen, bemalol et [2, 462].

(Quyoshdek olamga nur sochishni istasang, ma’naviy kamolga etishni kasb qilgin. Kamolotga erishishni istaydigan bo‘lsang, boshqalarga maloling – og‘irliging tushmagan holda kamolotga erishgin.)

Shundan so‘ng Navoiy ilmning fazilatlari haqida so‘z boshlaydi:

Kishi ta’limdin topsa malolat,
Topar ilm ahli ollinda xijolat...
Birovkim qilsa olimlarga ta’zim,
Qilur go‘yoki payg‘ambarga ta’zim.
Hadis o‘lmish nabiydin bo‘yla hodis,
Ki: “Olim keldi payg‘ambarga voris” [2, 462].

Bu bobda so‘z asosan ilm va olimlarning fazilati haqida borganidan bilish mumkinki, Shohg‘arib Mirzo nihoyatda ilmga intiluvchan, ilmga chanqoq yigit bo‘lgan. Biz buni yuqorida “Majolisun-nafois”dan olingan iqtibosda ham ko‘rgan edik.

“Xamsa”ning boshqa shahzodalarga bag‘ishlangan boblarida ilm va olimlar xususida umuman so‘z ochilmaydi. Navoiy, yuqorida aytib o‘tganimizdek, o‘z nasihatlarini shahzodalarning qiziqish doirasiga moslab yo‘naltiradi. Navoiy Shohg‘arib Mirzoga nasihat qilar ekan, so‘z faqat ilm mavzusida boradi. Navoiy yosh shahzodaga faqat ilmning sharafi va izzati haqida so‘zlash bilangina cheklanmaydi. Uni ilm izlashga targ‘ib qiladi, qiziqtiradi. Uzoq va yaqin o‘tmishda o‘tgan podshohlardan ilm yo‘lini tutganlari, ya’ni Iskandar va Mirzo Ulug‘beklarning nomlari yaxshilik bilan boqiy qolganligini ta’kidlaydi:

Sikandar topti chun ilmu hunarni,
Ne yanglig‘ oldi, ko‘rgil, bahru barni.
Aningdek saltanat ahli ko‘p erdi,
Qayu birga bu nav’ish dast berdi?..
Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek
Ki, olam ko‘rmadi sulton aningdek... [2, 463].

Shundan so‘ng Navoiy ilmlar ichidan eng sharafli bo‘lganlarini sanab keltiradi:

Guzar qil har necha ilm o‘lsa hosil,
Chu din ilmig‘a etting ayla manzil... [2, 463].

(Har qancha ilm hosil qilsang, to‘xtamay o‘tib ketaver, din ilmiga yetib kelsang, shunda to‘xtab, manzil qil)

Keyin Navoiy din ilmlari ichida ham sharafli bo‘lganlarini ajratib ko‘rsatib, avvalo, fiqh, hadis va tafsir ilmini o‘rganishni shahzodaga tavsiya qiladi. Din ilmlarini puxta egallagach, tib ilmini ham o‘rganish foydali ekanini ta’kidlaydi:

Va lekin tibbu hikmat ham erur xo‘b
Ki, sihhatdur kishi jismida matlub [2, 463].

(Fiqh, hadis, tafsir va tib ilmlarini o‘rgangach, tarix ilmini o‘rganishga rag‘bat qilsang, unda ko‘p ibratli voqealarni topasan, – deya so‘zini davom ettiradi Navoiy. – Tarix sahifalarini varaqlasang, qanchadan qancha podshohlar yashab o‘tganini, bu ko‘hna dunyo barchasidan qolib ketayotganini ko‘rasan. Ulardan yo yaxshi, yo

yomon ot qoldi. Sen nima bo‘lganda ham jahonda noming yaxshilik bilan qolishiga sabab bo‘ladigan ishni qilgin. Haq taoloning qaytargan ishidan qayt, qilishga buyurgan ishini qil.)

Shundan so‘ng Navoiy shahzodaga shunday hikmatli nasihatlarni qiladiki, bu nasihatlar 13-14 yoshli bolaga qilinayotgan o‘gitlarga o‘xshamaydi. Aksincha, hayotda ancha issiq-sovuqni ko‘rgan, ko‘pgina ishlarni tajribadan o‘tkazgan insonga qilinayotgan nasihatlarga o‘xshaydi:

Vagar hikmatqa bo‘lsa iltifoting
Ki, Nuh umricha bo‘lsun hayoting...
Nekim bo‘lsa mizojingg‘a guvoro,
Anga ko‘p mayl qilma oshkoro.
Bu so‘zni ahli hikmat debdurur xo‘b:
“Yamondin oz behkim, yaxshidin ko‘b...” [2, 466].

(Agar sening hikmatga mayling bo‘lsa, umring Nuh hayoticha bo‘lsin. Mizojingga yoqqan narsaga ko‘p mayl ko‘rsataverma. Chunki hikmat ahli: “Yaxshi narsaning ko‘p bo‘lganidan ko‘ra, yomon narsaning oz bo‘lgani yaxshidir”, deb aytganlar.

Agar tarixni o‘rganadigan bo‘lsang, o‘tgan podshohlarning qanday ish tutganiga nazar sol. Qaysi biri elga zulm qildi, qaysi biri adolat qildi. Qaysi ishdan mamlakat obod bo‘ldi-yu, qaysi ishdan vayronalikka yuz tutdi. Lashkar tartibi qanday tuziladi, dushman qo‘shini saflari qanday buziladi, bularni ham o‘tgan podshohlarning ishlaridan o‘rgan. Din ishi qanday ishlar bilan taraqqiy qiladi, oxirat ishlari nimadan zarar topadi. Qaysi ish qaysi podshohning sifati bo‘lib, olamda uning yaxshi oti qolishga sabab bo‘lganini tarixni o‘qiganingda bilib olasan, – deydi Alisher Navoiy so‘zini davom ettirib. – Tiniq fikring bilan bularni anglab olsang, bu bilganlaring dunyoda senga foyda keltiradi, oxiratda ham yaxshilikka sabab bo‘ladi.

Bu mening qalamim yozgan narsalar ta’bingga noxush botmasdan, ularga ehtiyoj bo‘lgan paytda aytganlarimga rioya qilsang va yaxshi natijalar topsang, men ko‘rsatgan yo‘l-yo‘riqlar foyda bersa, mening ruhimni ham duo bilan eslagin. Mening pandlarim senga naf berganiday, sening duoying ham menga naf beradi.)

Navoiy shahzodalar – Badiuzzamon, Shohg‘arib va Muzaffar Mirzolarga qilgan pandlarining oxirida ularning har biriga, albatta,

otasiga itoat qilishini ta’kidlaydi. Ularning saodati – otaga itoatda ekanini tayinlaydi. Alisher Navoiyning bu pandlari qisqa, lekin o‘ta ta’sirchan, ma’noli va bashoratnamo edi.

Masalan, 1. “Hayratul-abror”da Badiuzzamonga qilgan pand:

Zoda muridu otani pir bil,
Har ishida hukmiga ta’sir bil.
Bo‘lma bu pir ollida taqsirlik,
Istar esang davlat ila pirliq [1, 328].

(Farzandni muridu, otani pir bilgin, farzandning har bir ishida bu munosabatning ta’siri borligini bilgin. Modomiki shunday ekan, davlatga va ulug‘ yoshga yetishni istasang, bu pir (ya’ni otang)ga xizmat qilishda kamchilikka yo‘l qo‘ymagin.)

2. “Farhod va Shirin”da Shohg‘arib Mirzoga pand:

Nechukkim, shoh topmish dinu dunyi,
Sanga ham yetgay ushbu ikki ma’ni.
Bu ikki ishni gar qilsang tavaqqu’,
Ne ishkim shah qilur, qilg‘il tatabbu’ [2, 467].

(Shoh (Husayn Boyqaro) din-u dunyo saodatini topganidek, senga ham bu ikki ne’mat (din va dunyo saodati) yetishadi, qachonki mana bu ikki ishni doim e’tiborda tutsang: bunda shoh (ya’ni otang)ning tutgan ishlariga ergashgin!)

3. “Saddi Iskandariy”da Muzaffar Mirzoga bag‘ishlangan pandnomada:

Ikinch ulki, qil xizmati volidayn,
Bil ul ikining qullug‘in farzi ayn.
Agar istasang dunyovu oxirat,
Bugun saltanat, tongla kun – mag‘firat.
Ki, Haqdin rizo hosil etmak budur,
Rizo demayin, Haqqa yetmak budur [5, 554].

(Ikkinchi nasihatim shuki, ota-onangning xizmatini qil. Agar dunyo-yu oxiratning yaxshiligini, dunyoda saltanat-u oxiratda Allohning mag‘firatini istasang, bu ikkovlariga xizmat qilishni farzi ayn deb bil. Haqning roziligini olish ota-onangga xizmat qilish bilan bo‘ladi. Haqning roziligi emas, Haqqa yetishishning o‘zi mana shudir.)

“Farhod va Shirin”dagi o‘gitlardan Alisher Navoiyning Shohg‘arib Mirzoga katta umidlar bog‘lagani sezilib turadi. Oradan 14 yilcha

vaqt o‘tib bitilgan “Majolisun-nafois” tazkirasidagi Shohg‘arib Mirzo haqida yozilgan so‘zlardan esa ulug‘ shoirning o‘sha umidlari oqlanganini, bu shahzoda ulg‘ayib barkamol, ilmga muhabbatli, tavozeli va odobli yigit bo‘lganini bilib olamiz.

“Xamsa” dostonlaridagi yosh shahzodalarga bag‘ishlangan boblarda Alisher Navoiy ularga jonkuyarlik bilan otalarcha samimiy nasihatlar qiladi. Ular rioya qilishi lozim bo‘lgan ishlar bilar birga ehtiyot bo‘lishi shart bo‘lgan bir necha holatlarni ham aytib o‘tadi. Bu nasihatlarda Navoiy o‘zining yaqin do‘sti Sulton Husayn Boyqaro davlatining sadoqatli xizmatchisi, hukmdorning yaqin va sirdosh do‘sti, shahzodalarning mehribon va jonkuyar murabbiyi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinlarda Navoiyning ushbu saltanatning kelajagi uchun xavotir olayotgani sezilib turadi. Afsuski, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning vafotidan so‘ng Xurosonda ro‘y bergan voqealar ulug‘ shoirning xavotirlari bejiz emasligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. MAT. 20 tomlik. 7-tom. – T.: 1991.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. MAT. 20 tomlik. 8-tom. – T.: 1991. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. MAT. 20 tomlik. 9-tom. – T.: 1992.
3. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. MAT. 20 tomlik. 10-tom. – T.: 1992. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT. 20 tomlik. 11-tom. – T.: 1993.
4. Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub, Munshaot, Vaqfiya. MAT. 20 tomlik. 14-tom. – T.: 1998.
5. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 20-tom. – T.: 2003.
6. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. Ilmiy-tanqidiy matn. Tayyorlovchi: G‘aniyeva S. – T.: 1961.
7. Ahmedov T. “Xamsa” qahramonlarining xarakter jozibasi. – T.: 1986.
8. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: 1989.
9. Ergashev Q. O‘zbek nasrida insho. – T.: 2011.
10. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. – T.: 1993.
11. Yusupova D. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: 2013.

NAVOIY HOMIYLIGIDA IJOD QILGAN KOSHIFIYLAR

THE KASHIFIS, CREATED UNDER THE AUSPICES OF NAVOI

Bahriddin UMURZOQOV
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
(O‘zbekiston)

Аннотатsия

Mazkur maqolada Alisher Navoiy homiyligida kamolga yetgan Koshifiylar haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: *davr, adabiy jarayon, adabiy muhit, shaxs, tarixchi.*

Annotation

This article provides information about the Kashifis who grew up under the auspices of Alisher Navoi.

Key words: *period, literary process, literary environment, person, historian.*

Mamlakatimizda milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz tiklanib, qadimiy qo‘lyozma merosimiz durdonalarini har tomonlama yanada chuqurroq o‘rganishga davlat siyosati darajasida jiddiy ahamiyat berilayotgan hozirgi kunda biz ko‘hna madaniy merosimizni, uzoq o‘tmishga borib taqaladigan milliy tariximizni teranroq anglab yetmoqdamiz. Sharq mumtoz adabiyoti o‘ziga xos badiiyatga, teran mazmun-mohiyatga, ulug‘ ma’rifatga, kuchli ta’sirga ega bo‘lgan nafis adabiyotdir. Bu adabiyotning deyarli barcha durdona asarlari, eng avvalo, sog‘lom ishonch-e’tiqod, pokdomonlik, husni xulq, yuksak insoniy fazilatlarning oliy samarasi o‘laroq, ulug‘ iste’dodlarning bir-birlariga o‘zaro beg‘araz, ijobiy musobaqalari va ta’sirlari natijasida paydo bo‘lgan. Shu sababdan mumtoz adabiyotimizga, uning bebaho asarlariga qiziqish so‘nggi yuz yillikda yanada ortib, ular tadqiq etilib borilmoqda.

XV asrning ikkinchi yarmi - XVI asrning boshi Hirotda ilmiy-adabiy maktablar gullab-yashnagan bir davrdir. Ba’zi tarixchi

olimlar, tadqiqotchilar Hirot ilmiy-adabiy maktabining gullab-yashnashi hodisasini "Mirzo Ulug'bekning fojiali o'limidan keyin Samarqanddagi ilmiy muhit Boyqaro taxtga chiqqach, Hirotga ko'chdi", deya Husayn Boyqaroning saltanatga kelishi bilan, ya'ni Boyqaro shaxsiyati bilan bog'laydilar yoki shunga ishora qiladilar. Aslida-chi?! Aslida bu olamshumul ijobiy hodisa bevosita Amir Nizomiddin Alisher Navoiyning shaxsiyati, oliyjanob fazilatlari, shaxsiy sa'y-harakatlari, oliy himmati, ilm, ijod, san'at ahliga bo'lgan yuksak e'tibori samarasi bo'lganligi kunday ravshandir. Xuddi shunday holat bugun yurtimizda ilmga, ilm ahllariga nisbatan o'zgargan ijobiy e'tiborda o'z aksini topmoqda. O'sha davrda, haqiqatan, Hirotda adabiyot va san'atning barcha sohalarida ulkan yuksalishlar yuz berdi, madaniy-ma'naviy sohalarda ajoyib yutuqlar qo'lga kiritildi.

Alisher Navoiyning homiyligi, xos e'tibori natijasida barakali ijod qilganlardan biri Savzavorlik Husayn Voiz Koshifiy va uning o'g'li Aliy Safiydir. Alisher Navoiy hazratlarining beg'araz moddiy va ma'naviy yordami sabab Koshifiylar oilasi nomi abadiyatga muhrlandi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotshunoslik fanida hozirgacha Husayn Voiz Koshifiy va Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Hiraviy hayotlari va ijodlari haqida bironta ham maxsus tadqiqot yo'q. Faqatgina Aliy Safiyning "Rashahot ayn al-hayot" (Hayot bulog'idan tomchilar) asarining toshbosma-litografik nashrlaridan tarixchi olimlarimiz va adabiyotshunoslarimiz o'z ilmiy tadqiqotlarida istifoda qilishgan [1;5;7;8;9;9;11;12;13;14;15]. Ammo "Rashahot" asarining toshbosma va litografik nashrlari bilan asarning qo'lyozma nusxalari o'rtasida jiddiy farqlar, o'zgarishlar mavjud. Navoiydan yuksak e'tibor va ehtirom ko'rgan Koshifiylar oilasining ulug'i, shubhasiz, Husayn Voiz Koshifiydir. Avvalo ana shu alloma haqida qisqacha so'z yuritsak.

Allomaning to'liq nomi: Mavlono Kamoluddin Husayn ibn Ali Voiz Koshifiy Sabzavoriy Hiraviy (vaf. 910 /1504)dir. Husayn Voiz Koshifiy o'z davrining yetuk qomusiy olimi bo'lib, katta shon-shuhratga ega bo'lishiga qaramasdan, bizda uning hayoti va ilmiy merosi haqida batafsil ma'lumot beruvchi bironta ham maxsus yirik monografiya yaratilmagan.

Navoiy Husayn Voiz Koshifiyga ta’rif berar ekan, bunday deb yozgan: “Mavlono Husayn Voiz – “Koshifiy” taxallus qilur, Sabzavorliqdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahrdadur va Mavlono zu funun-u rangin va purkor voqe’ bo‘lubdur. Oz fan bo‘lg‘aykim, daxli bo‘lmagay. Xususan, va’z, insho va (ilmi) nujumki, aning haqqidur va har qaysisida mataayyin (alohida, tayin –U.B.) va mashhur ishlari bordur...” [4. 132]

Navoiy Husayn Koshifiyning alloma ekanini, deyarli barcha fanlardan chuqur boxabar zotligini, ayniqsa, insho (nasr) va ilmi nujum, ya’ni falakiyot (astronomiya –U.B.) ilmlarida g‘oyat iste’dodli olimligini e’tirof etgan.

Navoiy Koshifiyning mufassirligiga (Qur’on ilmlari bilimdon ekaniga –U.B.) alohida to‘xtalgan. Navoiy Koshifiyning “Tafsir”i haqida bunday deb yozgan: “Mavlononing tafsiri “Javohir at-tafsir” dur, “al-Baqara” surasini bir mujallad bitibdurkim, (bu suraning o‘zi –U.B.) yuz juz’ bo‘lg‘ay” [4. 124]

Bugungi kunimizgacha “Tafsiri Husayniy” nomi bilan ma’lum va mashhur bo‘lib kelgan mazkur “Mavohibi Aliyya” asarining ellikdan oshiq nusxalari O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida, shuningdek, O‘zbekiston musulmonlari kutubxonasi fondida mavjud. Bular ichida muallif, ya’ni Koshifiyning dastxati bilan hijr. 899 sanada/ mel.1493-yilda ko‘chirilgan, bezakli, xushxat nusxasi, ayniqsa, g‘oyat nodir qo‘lyozma hisoblanadi [19.429]. Mazkur manbani o‘rganish asnosida biz shunday xulosaga keldikki, bu qo‘lyozma nusxani Voiz Koshifiy o‘z muborak qo‘li bilan maxsus qilqalamda yozib tugatgach, Hazrat Navoiyga ehtirom ila hadya aylagan. Zotan, ushbu “Tafsir”ning asl nomi, ya’ni “Mavohibi Aliyya” (Hazrat Alisherga tuhfa) shunga ishora qilmoqda.

Mavlono Husayn Voiz Koshifiyning tafsirdan tashqari, hadis, adabiyot, tarix, riyoziyot, kimyo fanlariga oid qirqdan oshiq katta hajmli ilmiy-adabiy asarlari bor. Mana shuning uchun ham Navoiy Voiz Koshifiy haqida “oz fan bo‘lg‘aykim, daxli bo‘lmag‘ay” deb yozgan edi [4.124-125].

“Rashahot”dagi ma’lumotga asoslanib, aytishimiz mumkinki, Hazrat Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy do‘stligi, ijodiy hamkorligi

qirq yildan ortiqroq bir davrni o‘z ichiga oladi. Bu ikki iste’dod sohibi o‘rtasidagi beg‘araz, samimiy do‘stlik hamda ijodiy hamkorlik tahsinga loyiq bo‘lgan va ajoyib samaralar bergan. Navoiy tazkiranavis va shoir sifatida e’tirof etgan Koshifiylarning yana bir vakili borki, bu Faxruddin Aliy Safiydir. Darhaqiqat, Aliy Safiy ham o‘z davrining mumtoz siymolaridan biri hisoblanadi. Mavlono Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mavlono Xondamir bilan bir asrda va bir shaharda yashab, ijod etgani, Jomiy va Navoiyning himoyasi ostida bo‘lganligi Aliy Safiyning, haqiqatan, katta baxti edi.Chunki Jomiy va Navoiydek ulug‘ zotlar hayot bo‘lgan davrda u Hirotda yaxshi ta’lim olgan va samarali ijod qilgan.

Aliy Safiy asarlari muqaddimasida o‘zini quyidagicha tanishtirgan: “Faxruddin Ali ibn Husayn al-Voiz al-Koshifiy – u “Safiy” taxallusi bilan tanilgandir” [20. 14]. Ma’lum bo‘lmoqdaki, Aliy Safiy Hirot ilmiy va adabiy maktabining yetuk namoyandasi bo‘lgan Mavlono Husayn Voiz Koshifiyning o‘g‘lidir.

Faxruddin Aliy Safiy o‘z otasi Mavlono Voiz Koshifiyning “zu fununlik” (allomalik –U.B.) martabasiga havas qilganligi aniq. “Safiy” taxallusini shoirga Mavlono Abdurahmon Jomiy berganligi naql qilingan. Aslida Faxruddin Ali o‘ziga “Ziyo(uddin)” deb taxallus tanlagan va bu haqda Abdurahmon Jomiyga aytganida, Jomiy bunday javob qilgan: “Sen Ziyo taxullusingni o‘g‘limga bergin – uni Ziyouddin deb ataymiz, o‘zingga esa “Safiy” deb taxallus qo‘ygil!” Shu kundan boshlab Faxruddin Ali yozgan asarlariga “Safiy” deb taxallus qo‘ya boshlaydi [20.9].

Aliy Safiyning yashab ijod etgan joyi, vafot etgan va dafn qilingan yeri Hirot bo‘lgani uchun “Faxruddin Aliy Safiy *al-Hiraviy*” deb ham atalgan. Uning tavallud sanasi haqida eronlik tarixchi olimlar va tazkiranavislar aniq ma’lumot aytishmagan [16.2]. Eronlik tadqiqotchi Ahmad Gulchin Ma’oniy esa “Latoif al-tavoyif”ga bag‘ishlangan tadqiqotida Aliy Safiyning tug‘ilgan sanasini taxminiy yo‘l bilan aniqlashga harakat qilgan [16.3].

Aliy Safiy hijr. 867 sana (mil.1471-yil)da Sabzavor shahrida tug‘ilgan. U o‘z tavallud yili haqida “Rashahot ayn al-hayot” asarida bunday deb yozgan: “Xizmati volidim (ya’ni, Husayn Voiz Koshifiy - B.U) alayhi-r-rahma aytur erdilarkim, “Sen jum’a kechasi jumodu-

l-avval oyining yigirma birlanchisida sakkiz yuz oltmish yettida mutavallid bo‘lding...” [20.9]

Aliy Safiyning, haqiqatan, Sabzavorda tug‘ilganiga “Rashahot”dagi quyidagi ma’lumot asos bo‘la oladi: “Men birinchi marta Samarqandga kelib, Hazrati Eshon (ya’ni, Xoja Ubaydulloh Ahror –U.B.) bilan uchrashish sharafiga muyassar bo‘lganimda, ul zot mendan: “Ey, yigit! Qayerliksan?” deb so‘radilar. Men: “Tug‘ilgan yerim Sabzavor, ammo Hiriyda (Hirot shahrida -U.B.) nash’u namo topibdurman”, deb javob berdim” [20.9].

Alisher Navoiy “Majolis an-nafois” nomli asarida Aliy Safiy haqida bunday yozgan: “Ul bag‘oyat darveshvash va foniy, dardmandsheva yigitdur. Hirotdan Samarqandga Hazrati Xoja Ubaydulloh Ahror suhbatiga musharraf bo‘lur uchun bordi va andoq derlarkim, onda qabul sharafin topib, irshod va talqin saodatiga sarafroz bo‘lub, yana Xurosonga keldi...” [4.132].

Aliy Safiy ilk saboqni zamonasining yetuk olimlaridan biri bo‘lgan otasidan olganligi shubhasiz. Shuningdek, Hirot madrasalarida ilm tahsil qilganligi ham aniq. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa Hirot olimlari, shoirlari bilan muloqotda bo‘lganini uning “Latoyif at-tavoyif” (“Ajoyib lutf so‘zlar”) nomli asaridan ham bilib olish mumkin. Mazkur asarda Hirotning taniqli olimlari, shoirlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qiziq hikoyalar, nuktadonlik, ya’ni topqirlik, zakovat bilan o‘zaro aytilgan latif so‘zlar o‘z ifodasini topgan. Shunday qilib, Aliy Safiy 1484-yili Movarounnahrga keladi. U Qarshida Xoja Ahror bilan uchrashish baxtiga muyassar bo‘ladi va to‘rt oy davomida ul zotning xizmatida bo‘ladi. 1487-yilda u yana Samarqandga kelib, endi sakkiz oy Xoja Ahror xizmatida bo‘ladi. Aliy Safiy Xoja Ahror va ul zotning o‘g‘illaridan ko‘p iltifotlar ko‘radi.

Aliy Safiy Xoja Ahrordan eshitgan so‘zlarni yozib boradi. Xoja Ubaydulloh Ahror vafotidan keyin yozib olgan narsalarini jamlab, bir kitob qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Biroq zamonning turli voqea-hodisalari, zamona notinchligi bois bu orzusini to‘liq amalga oshira olmaydi. Nihoyat, 1503-yili, ya’ni Xoja Ubaydulloh Ahror vafotidan 16 yil o‘tib, mazkur kitobini yozib tugatishga muvaffaq bo‘ladi va kitobiga “Rashahot ayn al-hayot” (“Hayot bulog‘idan

tomchilar") deb nom qo‘yadi. "Ajoyib tasodiflardan biri shulki, - deb yozgan edi muallif, - kitobning nomi uning yozilish tarixini (abjad hisobi bo‘yicha – B.U.) ifodalaydigan bo‘lib chiqdi" [20.16].

Faxruddin Aliy Safiy Mavlono Husayn Voiz Koshifiyning yolg‘iz farzandidir. Tarixchilar va tazkiranavislarning bu haqdagi fikrlari bir xil [16.3].

Eronlik tarixnavislar va tadqiqotchilarning asarlarida Mavlono Jomiy va Mavlono Husayn Voiz Koshifiy boja bo‘lishgan, degan qarash bor [16.4]. Tarixchi olim B.Ahmedov esa "(Husayn Voiz) Koshifiy Abdurahmon Jomiyning qayin inisidir", deb yozgan [17.202]. Ammo bu qarashlar xato. Chunki Faxruddin Aliy Safiy "Rashahot" asarida Mavlono Jomiy tarjimai holini bayon qilar ekan, bunday deb yozgan: "Ushbu satrlar muallifiga (ya'ni, Aliy Safiyga – B.U.) to‘qqiz yuz to‘rtinchi sana sha'bon oyida Mavlono Sa'duddin quddisa sirruhu hazratlarining katta o‘g‘li Xojai Kalon xizmatiga kirishlik va ul zotga domod bo‘lishlik nasib bo‘ldi. Va (Mavlono Xojai Kalon – B.U.) meni bandalikka (ya'ni, muridlikka, shogirdlikka – B.U.) qabul qildilar. Shunda padarim alayhir-rahma (ya'ni, Mavlono Husayn Voiz Koshifiy – B.U.) dedilarki, "shul voqe'aki, bundan qirq yil oldin (tush –B.U.) ko‘rgan edim, mana shu soatda voqe' bo‘ldi, o‘z ta'birini topdi..."

Aliy Safiy Mavlono Jomiy tarjimai holi bayoni oxirida yana quyidagilarni yozgan: "Maxfiy qolmasinkim, Hazrati Mavlono Sa'duddin *quddisa sirruhu*ning valadi buzrukvorlari Hazrati Xojai Kalonning ikki qizlari bor edi. Biriga Mavlono Jomiy uylangan edilar, ikkinchi qizlari esa men bilan nikohlandi. Va (quyidagi misralar - U.B.) mana shu ma'noda aytildi: Qit'a.

Du kavkab-i sharaf az burj-i Sa'd millat-u din,
Tulu' kardu bar omad ba soni dur zi sadaf.
Az on yake ba ziyo gasht bayt-i orif-i Jom,
Az in haziz va bol-i Safiy shud avj-i sharaf".

Mazmuni:

Ikki sharaf yulduzi millat va dinning baxtiyorlik burjidan,
Dur sadafdan chiqqani kabi nur sochib chiqdi.
Ulardan biri Jom orifi uyining nuri bo‘ldi,
Bu nasibadan Safiyning qanoti sharaf cho‘qqisiga yetdi [20.212].

Demak, Abdurahmon Jomiy Mavlono Husayn Voiz Koshifiy bilan emas, balki uning o‘g‘li Aliy Safiy bilan boja bo‘lgan.

“Riyoz al-ulamo” muallifi yozishicha, Mavlono Koshifiy Hirot va Movarounnahrning boshqa shaharlarida shi’a va rofiziy firqalariga mansub deb tanilgan edi. Sabzavor va boshqa shaharlarda esa u shiy’a mazhabi mansubi deb gumon qilingan va bunga ishonishgan [16.5]. Aslida esa, Mavlono Husayn Voiz Koshifiy va ul zotning o‘g‘li Aliy Safiy Ahli sunna va-l-jamoa e’tiqodi va hanafiy mazhabiga mansub edilar. Bunga ularning yozgan adabiy asarlari, ilmiy meroslari yaqqol misoldir.

Otasining vafotidan keyin Hirotning katta jome’sidagi va’z, xitobat ishi Aliy Safiyga qoldi. “Habib as-siyar” muallifi Mavlono Xondamir bu haqda quyidagi ma’lumotlarni bergan: “929-hijr. sana (mil. 1522-yil) Mavlono Kamoluddin Husaynning farzandi arjumandi Mavlono Faxruddin Ali otasi o‘rniga qoimi maqom (o‘rinbosar – B.U.) bo‘ldi. Jum’a sabohi u Hirot jome’sida – bu jome’ barcha fayz oladigan muborak bir yerdir – xalqqa nasihat aylar, barchani Haqqa da’vat etur edi. G‘oyat xush, balig‘, chiroylik nutq qilur va bu xitob-irshodi bilan ko‘ngillarga surur baxsh qilur edi...”

“Tuhfa-i Somiy” asariga ishlangan miniatyura (mitti, kichik surat –U.B.) “*Mavlono Faxruddin Aliy Safiyning va’z majlisi*” deb nomlangan [16.40]. Bu surat Faxruddin Aliy Safiyning Hirot ilmiy muhitida o‘ziga xos mavqe egasi bo‘lganiga dalolat qiladi.

Mavlono Jomiyning, keyinroq Alisher Navoiyning vafotidan so‘ng ilm-fan, adabiyot va san’at barq urib gullagan Hirotdan fayz-u baraka ko‘tarildi.

Hijriy 938-sana Ramazon oyining 29-kuni (mil. 1531-yil) Ubaydullohxon o‘z lashkari bilan Hirot tashqarisiga keldi va bu shaharni qamal qildi. Suv, oziq-ovqat kabi shahar xalqi uchun keladigan yordam yo‘lini batamom to‘sib qo‘ydi. Ahvol kundan-kun yomonlashadi. Ish shunga borib yetadiki, xalq it va mushuk go‘shti yeyishga tushdi. Ayni sananing rabiy’ul-avval oyining 14-kuni Shoh Taxmasb Hirot xalqiga yordamga keldi. Ubaydullohxon chekindi va Hirot qamaldan ozod bo‘ldi.

Aliy Safiy “Latoyif at-tavoyif” asari debochasida yozishicha, u 939 hijriy sananing (mil. 1532-yil) oxirida Hirot qamalidan keyin

turli qiyinchilik va balo-uqubatlardan uzoq bo‘lish maqsadida G‘urjistonga - Shoh Muhammad Sayfulmuluk xizmatiga borgan [16.2]. Shoh Muhammad Sayfulmuluk Aliy Safiyga hurmat ko‘rsatadi. Shu bois u ko‘p tahlikalardan omon qolgan. Chunki bu davr sunniylar va shi’alar tortishuvlari avj olgan bir davr edi. Aliy Safiy o‘ziga ko‘rsatilgan izzatu hurmatdan xursand bo‘lib, Shoh Muhammadni maqtab bir qasida yozadi. Shoir mazkur qasidasida azob-uqubatlardan qanday omon qolganiga alohida urg‘u bergan. Ammo Aliy Safiyning xotirjamligi uzoqqa bormaydi. O‘sha yili Shoh Taxmasb Safaviy G‘urjistonga o‘z amirlarini qo‘shin bilan yubordi. Ular shaharni qo‘lga kiritadilar. Shoh Taxmasbning o‘zi esa Mashhadga yurish qiladi.

G‘urjiston o‘t-olov, urush changalida qolgan kunlar Aliy Safiy bu shahardan qochadi va Hirotga qarab yo‘l oladi. Bu yo‘lchilik Aliy Safiyga og‘ir bo‘lgan. U oxirgi bir yil mobaynida boshidan o‘tkazgan azob-uqubatlar ta’sirida yo‘lda – Hirot yaqinida vafot etadi. Bu haqda “Anvor al-qudsiyya” asarida ma’lumot berilgan: “U (ya’ni, Aliy Safiy - B.U.) Hirot tashqarisida vafot etdi. Uning (muborak) jasadi Hirot shahri ichiga olib kirildi va dafn qilindi. Bu voqea hijriy 939 (mel. 1532) sanada sodir bo‘ldi” [5.137].

Eronlik tadqiqotchi Ahmad Gulchin Ma’oniy fikriga ko‘ra, Faxruddin Aliy Safiy bu vaqtda oltmish uch yoshda bo‘lgan. Allomaning qabri Hirot shahridagi Ixtiyoriddin qal’asi yaqinida joylashgan [16.37].

Faxruddin Aliy Safiyning farzandi bor yo yo‘qligi haqida biron-bir ma’lumot topolmadik. Eronlik tadqiqotchilar ham bu haqda yozishmagan.

Faxruddin Aliy Safiy “Safiy” taxallusi bilan she’rlar ham yozgan. Uning “Layli va Majnun” vaznida “Mahmud va Ayoz” nomli she’riy manzumasi (dostoni), shuningdek, “Rashahot ayn al-hayot” (“Hayot bulog‘idan tomchilar”) asarida o‘ndan ortiq ruboiylari, qit’a va baytlari mavjud.

Quyidagi asarlar Aliy Safiy qalamiga mansub asarlar sifatida e’tirof etilgan: “Rashahot ayn al-hayot” (“Hayot bulog‘idan tomchilar”), “Latoyif at-tavoyif” (“Ajoyib lutf so‘zlar”), “Anis al-orifiyn” (“Orif zotlarning hamrohi”), “Hirz al-amon min fitan al-zamon”

(“Zamona fitnalaridan xalos bo‘lish uchun omonlik choralari”), “Farasnomai Safiy” (“Safiyning ot haqidagi dostoni”), “Odob al-as’hob” (“Birodarlik odobi / Birodarlar uchun odobnoma kitobi”), “Lavoih al-qamar” (“Oyning ko‘rinishlari haqida”), “Manzuma-i Mahmud va Ayoz” (“Mahmud va Ayoz haqida she’riy doston”), “Lug‘ati Aliy Safiy” (“Aliy Safiyning lug‘ati/so‘zligi”) [20.12].

O‘zR FA Sharqshunoslik institutining asosiy va H. Sulaymonov nomidagi qo‘lyozma fondlarida mazkur asarlarning o‘nlab qo‘lyozma nusxalari va toshbosma nashrlari saqlanadi. Ularni o‘zaro qiyoslaganimizda, shu narsaga qat’iy amin bo‘ldikki, Aliy Safiy asarlarining qo‘lyozma nusxalari muxtasarligi, matni to‘liq ekanligi bilan o‘sha asarning litografik nashrlaridan farq qiladi. Toshbosma nashrlarda chalkash o‘rinlar talaygina uchraydi. Ayniqsa, Aliy Safiyning “Rashahot ayn al-hayot” asarining nodir qo‘lyozmalari adabiy manbashunoslik xususiyatlari va matnshunoslik jihatidan hanuz yaxlit va izchil o‘rganilgan emas.

Yaqinda biz Toshkent qo‘lyozma fondlaridan xorijiy tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib ketgan Aliy Safiy qalamiga mansub yana uchta nodir yangi asari qo‘lyozmasini topishga muvaffaq bo‘ldik. Hozirda ijodkorning ana shu qo‘lyozmalarining tavsifi va tadqiqi ustida qizg‘in ish olib bormoqdamiz. Endi Faxruddin Aliy Safiyning Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning shaxsiyatiga munosabati masalasi haqida qisqacha to‘xtalsak. Aliy Safiy “Rashahot” asarida yirik bir bobda Mavlono Abdurahmon Jomiy haqida mufassal so‘z yuritgan.

Aliy Safiy «Rashahot»da Jomiyni «Mavlono Imomuddin al-mushtahar bi-Nuriddin ibn Mavlono Nizomuddin Ahmad Dashtiy ibn Mavlono Shamsuddin Mu-hammad Dashtiy Abdurrahmon al-Jomiy quddisa sirruhu-s-somiy», «Hazrat Maxdum» deb zikr qilgan [20. 176-177].

Aliy Safiy «Rashahot»da Alisher Navoiyni «Amir Nizomuddin Aliysher» nomi bilan ikki marta, ya’ni «Hazrat Maxdumning Hijoz safariga tavajjuh etgonlari zikri» bobida va «Hazrat Maxdumning vafotlari zikrida» bobida Jomiyga Navoiyning ul zotga yo‘llagan bir ruboiysi va fardini ham keltirib, tilga olgan [20. 197, 213].

Mazkur o‘rinlarda u Navoiyning o‘z ustozi Mavlono Jomiyga nisbatan har doim nechog‘lik yuksak ehtirom ko‘rsatganiga, bu bilan

hazrat Navoiyning chiroyli odob-axloqli komil inson hamda oliyjanob qalb egasi bo‘lganligiga alohida urg‘u bergan. Chunonchi, Navoiy Mavlono Jomiyni hajdan qaytishini orziqib kutgan. Husayn Bayqaro Marvda ekan, unga “Mavlono Jomiy Hirotga yetib kelibdilar” degan xabar yetganida, Boyqaro darhol o‘z ixlosi va hurmatini ifodalab “loyiq tuhfalar” (munosib tuhfalar, sovg‘alar-U.B.) bilan bir maktub yuboradi. Ajoyib tasodif, Mavlono Jomiy qo‘liga Boyqaro maktubi va Navoiyning ruq’asi bir vaqtda yetib kelgan. Ruq’ada quyidagi misralar Navoiyning o‘z qo‘li bilan bitilgan edi: Ruboiy.

Insof bideh ey falaki miyno fom,
To z-in du kudom xubtar kard xirom.
Xurshidi jahon tobi tu az janobi subh,
Yo mohi jahon gardi man az jonibi shom. [20.197].

(Mazmuni: Insof qil, ey ko‘k gumbazli falak,
Bu ikkovidan qay biri chiroyliroq xirom etdi.
Tong vaqti chiqqan nurli quyoshmi,
Yoki shom chog‘i chiqqan olam kezuvchi Oyimizmi?)

Bu misralar hazrat Navoiyning mehr-muhabbatga to‘la salim qalbi naqadar sof, pokiza bo‘lganligiga, ul zotning ma’rifati va ma’naviyati cho‘qqisi esa naqadar yuksak bo‘lganligiga dalolat qiladi. Mavlono Jomiyga Husayn Boyqaroning rasmiy maktubidan ko‘ra hazrat Navoiyning mehr ifodalagan samimiy misralari ma’qul kelgani aniq. Zero, “Rashahot”da yozilishicha, Boyqaro Jomiy va Navoiyning hajga borishlariga turli xil bahonalarni ro‘kach qilib, ko‘p bor ularni bu muborak safardan qoldirgan. Ammo Abdurahmon Jomiy oxiri o‘z zakovati va topqirligi bilan Boyqaroni mot aylagach, haj safariga borishga musharraf bo‘lgan [20.191-198].

Darhaqiqat, hazrat Navoiy kattalarga hurmat, kichiklarga izzat bobida faqat o‘z zamondoshlarigagina emas, balki keyingi nasllar uchun ham ulkan ibrat namunasi edi. Navoiyning homiyligi bois Hirotda yuzlab iste’dod egalari erkin, g‘am-tashvish nimaligini bilmay ijod qilish baxtiga musharraf bo‘lishgan. Ana shu iste’dodlar qatorida Mavlono Husayn Voiz Koshifiy va ul zotning o‘g‘li Faxruddin Aliy Safiy ham munosib o‘rin olgan bo‘lib, ota va o‘g‘ildan nafaqat musulmon xalqlarga, balki barcha xalqlar – umuminsoniyatga boy ilmiy-adabiy meros qoldi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotimizning yetuk siymolari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning himoyasi ostida yetishgan olim va fuzalolar, ijodkorlar haqida kelgusida yirik monografik tadqiqotlar yaratish tadqiqotchilarimiz oldida turgan muhim ishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қадимий қўлёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ этиш ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори // Халқ сўзи, 2017 25 май, №103 (6797). – Б.1.
2. Абдуллаев И. Нақшбандия – оламшумул таълимот // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. Тошкент, 1993. № 9-10. Б. 55-58.
3. Алий Сафий. Рашаҳот. Лакҳнав, 1890.
4. Алишер Навоий. Мажолис ун нафоис. Асарлар. Ўн беш жилдлик. Ж. 12. / Нашрга тайёрловчи: С.Ғаниева. 1966.
5. Анвор ал-қудсиййа фи маноқиб ас-содоти ан-Нақшбандийя. Миср, 1344/1925.
6. Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI – XVII вв. (Письменные памятники) / Отв. ред. У.И.Каримов. Ташкент, 1985.
7. Бабаджанов Б.М. Политическая деятельност шейхов накшбандийа в Мавераннахре (перв. пол. XVI в.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1996.
8. Бобохонов Ш., Абдулазиз Мансур. Нақшбандия тариқатига оид қўлёзмалар фиҳристи. Тошкент, 1993.
9. Болдырев А.И. Ещё раз к вопросу о Ходжа Ахраре / Духовенство и политеская жизнь на ближнем и среднем востоке в период феодализма. Москва, 1982.
10. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. Тошкент, 1993.
11. Веселовский Н.И. Памятник Ходжи Ахрара в Самарканде / Восточные заметки. Санкт-Петербург, 1895.
12. Вяткин В. А. Изъ биографии Ходжи Ахрара. (Перепечатано из № 147. «Туркистанские ведомосты», за 1904 г.
13. Казаков Б. Анонимное житие Ходжи Ахрара. Москва, 1984.

14. Казаков Б. Сыновья Ходжи Ахрара и последние Тимуриды. Москва, 1982.

15. Каримов Э. Э. Роль, место и социальные позиции духовенстьво Мавераннахра в XV в.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1990.

16. Мавлоно Фахруддин Алий Сафий. Латойиф ал-тавойиф / Нашрга тайёрловчи: Аҳмад Гулчин Маъоний. Теҳрон, 1373 /1953.

17. Навоий замондошлари хотирасида / Тўпловчи: Б.Аҳмедов. Тошкент, 1985.

18. Султон И. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. Тошкент, 1984.

19. Тафсири Баҳр. Қўлёзма тафсир китоблар асосида Қуръони карим оятларининг маънолари, тафсирлари ва таъвиллари. Қуръони карим китобларининг қўлёзма китоблар фиҳристи. Монография / Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи: Б.Умурзоқов. Тошкент, 2010.

20. Фахруддин Алий Сафий. Рашаҳот айн ал-ҳаёт (Обиҳаёт томчилари): тарихий-маърифий асар / Таржимон: Домла Худойберган ибн Бекмуҳаммад (XIX аср). Жорий алифбодаги ёзувга табдил қилиб, нашрга тайёрлаганлар ва кириш сўз муаллифлари: Маҳмуд Ҳасаний, Баҳриддин Умурзоқ. Сўнг сўз муаллифи ва масъул муҳаррир: Б. Умурзоқов. Тошкент, 2004.

SHE’RIYATDA MUTAFAKKIR OBRAZINING TADRIJI

THE TRANSLATION OF THE IMAGE OF THE THINKER IN SHARIA

Gulbahor Ashurova
ToshDO‘TAU
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada she’riyatda Navoiy obrazining badiiy talqini masalasiga e’tibor qaratilgan. Navoiy siymosining shoirlar ijodidagi o‘ziga xos jihatlari tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: *Navoiy obrazi, Abdulla Oripov ijodi, she’riyat, mahorat, san’at, tafakkur g‘azal, g‘oya, usul, o‘ziga xoslik.*

Annotation

This article focuses on the issue of artistic interpretation of the image of Navoi in poetry. The peculiarities of Navoi’s image in the works of poets were studied.

Key words: *Navoi image, Abdulla Aripov’s work, poetry, skill, art, contemplative ghazal, idea, method, originality.*

Alisher Navoiy obrazini yaratish jarayoni she’riyatda silliq kechayotgani yo‘q. Bu tabiiy holdir. Zamonaviy she’riyatimizda bu jarayon ba’zan izchil o‘sish, yuksalish tarzida namoyon bo‘lsa, ayrim hollarda obrazli tasvir o‘rnini sayozlik, bayon egallashi ham, afsuski, kuzatiladi. Biroq bu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, bugun biz she’riyatimizda Alisher Navoiy obrazining tadriji haqida fikr yuritish imkoniga egamiz. Negaki, buyuk mutafakkir obrazini yaratish jarayoni muntazam tus oldi, izchillik kasb etdi.

Shoir To‘lan Nizom “Navoiynoma”larning katta tarixga egaligini, ularda Navoiy siymosining turli qirralari o‘ziga xos tarzda ifoda etilganini yaxshi biladi. Shuning uchun ham u boshqacha yo‘l tutishni ma’qul ko‘radi. Ayni mana shu haqda

qalam tebratadi. Buning misoli “Navoiy yashagan uyda” she’ridir [To‘lan Nizom: 16].

She’r sarlavhasining o‘ziyoq e’tiborni tortadi. Shoir nima uchun qator poetik detallardan aynan “uy”ni tanlab olgan. Uning tanlash imkoniyatida “imorat”, “qasr”, “koshona”, “kulba” singari so‘zlar ham mavjud edi. Nazarimizda, “uy” mazkur sinonimik qatorda o‘zining nisbiy neytralligi, oddiyligi, xalqonaligi bilan xoslanib turadi. Ayni mana shu jihatlar esa shoirga Navoiy siymosini chizish uchun ko‘proq xizmat qiladi. Uning birinchi misrasi she’rning Bobur shohga aloqadorligini ochiq ko‘rsatib turadi. Unda Boburning Navoiy siymosini ko‘rishga bo‘lgan beadoq ishtiyoqi, unga intilishlari samimiy tarzda aks etgan. Buning uchun shoir Alisher Navoiyning uyiga xos bo‘lgan “poetik jihoz”larni yaxshi topgan:

Bobur shoh Navoiy yashagan uyda,
Besh doston – “Xamsa”ni naqshlagan uyda,
Asl javohirot – “Chor devon”ini
Turkiy el poyiga tashlagan uyda –
Bir oy tunab qoldi, kechayu kunduz
Hazrat ruhi bilan so‘zlashdi tanho:
Pirim, oxir keldim, qani qaydasiz?
Bu kun kulbangizga yo‘l berdi Xudo.

So‘ng Bobur shoh kechinmalari tasviriga o‘tiladi. Albatta, bu kechinmalar ham yana Navoiyning o‘zi bilan bog‘lanadi. Buning uchun esa buyuk mutafakkirning ustozlari, Navoiy ilhom olgan manbalar, shogirdlari, do‘stlari, ularga aloqador bo‘lgan qaydlar tilga olinadi. Bu uydagi jihozlar “yashar egasidan ayro noiloj...”, “gulchinsiz gulzorlar, bulbulsiz chorbog‘” ham poetik topildiqlar qatorida sanalishi joizdir. Quyidagi misralar ham ayni mana shu siraga mansub:

Bu joyda qorovul tongdan shomgacha
Olam o‘txonasi Shams – gulchiroy,
Yulduzlarni sochib erdan tomgacha
Tun bo‘yi qo‘riqlab, yurib chiqar oy.

Shundan keyin tasvir maromi o‘zgaradi. Shoir poetik fantaziyaga keng o‘rin beradi. Shunda “Hushyor tortdi zamin, ko‘k – yetti qavat, Tashqida sezildi yengil bir qadam”. Tabiiyki, bu qadam egasi Hazrat Navoiy edi. U o‘z qahramonlari kuzatuvida kirib kelmoqda:

Eshik lang ochildi.Farhod va Shirin,
Layli Majnun ila bo‘ldilar paydo.
Qushlar to‘lib ketdi surib bir-birin,
Navoiy ko‘rindi tutgancha aso.

Ushbu misralar o‘z-o‘zidan “Xamsa” dostonlariga, “Lison ut-tayr”ga havola vazifasini ado etadi. Mumtoz adabiyotda talmeh deb yuritiladigan mazkur she’r san’ati, ayni paytda kitobxonni tarix sari yetaklaydi, qadimiy dostonlarning ajoyib qahramonlari tarixi va taqdirini eslash orqali shoir muddaosini ilg‘ashlariga yordam beradi.

Alisher Navoiy yaratgan obrazlar tizimining o‘zi ham shoir va ijodkorlarimizning ilhom manbai bo‘la oladi. Bu qahramonlarning alohida donishmandligi (Iskandar), mard va tantiligi (Farhod), beqiyos go‘zalligi (Shirin, Layli, Dilorom) ishqda sobit va vafodorligi (Farhod, Majnun, Shayx San’on, Shirin, Layli, Dilorom va boshqalar) ijodkorlarimizga ilhom va huzur beradi.

Zulfiya Mo‘minova “Ishq yo‘li” she’rida shunday yozadi:

Mening ne ishim bor bexabar bilan,
Bahor xabarim bor, gul xabarim bor.
Bir qo‘shnim Laylidir, bir qo‘shnim Shirin,
Yurakka boruvchi yo‘l xabarim bor [Mo‘minova 2016: 16].

Zulfiya Mo‘minova mazkur satrlarda ikki maqsadni, birinchidan, Alisher Navoiy tasviridagi buyuk qalb egalari bo‘lgan ikki qahramonning bugun – bizning zamonamiz uchun real haqiqatga aylangan tirik insonlar ekanligini ta’kidlash, ikkinchidan, zamondoshlarimizning buyuk qalb egalari, yuksak ma’naviyatli shaxslar darajasiga intilib borayotganidan faxr-u iftixorini ifodalash muddaosini betakror badiiy talqin etgan.

Shoiraning “Samarqandda” she’ri ham shu silsilaga mansub. Ijodkorning asl maqsadi Samarqand shahrining poetik qiyofasini chizib berishdan iborat. Biz Samarqand ta’rifida bitilgan asarlarning uzun ro‘yxatini bilamiz, albatta. “Asrlar poeziyasida Samarqand madhiyasi” degan kitob ham fikrimizning dalili bo‘la oladi. Undagi ulug‘vor ro‘yxatga kirgan asarlardan o‘tkazib yangi gap aytish oson emas. Ammo Zulfiya Mo‘minovaning bu mavzuda o‘z so‘zi va ovozi bor. Uning misralari har doim ham ohorliligi, yangicha o‘y va tuyg‘ular jilosi jihatidan alohida ajralib turadi. Bu she’rida ham

shoira ijodiy yo‘liga sodiq qolgan. U Samarqand ta’rifini bog‘lar tavsifidan boshlaydi:

Ko‘zim Bog‘i dilkushoda,
Xayolim Bog‘i balandda,
Yuragim Bog‘i shamolda –
Samarqandda, Samarqandda [Mo‘minova 2016: 16].

Samarqand anjirlari, Samarqand nonidan taraladigan bo‘y, bu muazzam shahar tufayli paydo bo‘ladigan faxr-u iftixor, qolaversa, o‘zining shu shaharga bevosita aloqadorligidan paydo bo‘ladigan g‘urur (yo‘llarga termulgan onam...) tasviri she’rdagi o‘ziga xoslikni ta’minlagan. Albatta, bu she’rdagi yana bir o‘ziga xoslik Samarqand ta’rifidagi Zulfiya Mo‘minova ko‘zi bilan ko‘riladigan buyuklarning benazir makoni ekanligi bilan izohlanadi:

Navoiyning yonar so‘zi,
Ulug‘bekning oy, yulduzi,
Behishtu jannatning o‘zi
Samarqandda, Samarqandda.

Amir Temur, Al-Buxoriy, Xizr singari tarixiy va afsonaviy qahramonlar silsilasida Alisher Navoiy nomining mavjudligi shoira uchun Samarqandning o‘ziga xos poetik qiyofasini ko‘rsatib berishda munosib vosita bo‘lgan.

“Siz” she’rida esa Majnun bilan Farhod yor, do‘st, oshiq obrazining yanada yorqin va ta’sirchan chizilishiga qo‘shimcha imkon bergan:

Ayni gul chog‘ingiz, yigit chog‘ingiz,
Majnun ila Farhod xizmatga kelibdir [Mo‘minova 2016: 16].

“Ko‘nglim” she’ridagi Layli talmehi ham shu vazifani ado etadi [Mo‘minova 2016: 16]. Hazrat Alisher Navoiy siymosini tasvirlash oson emas. Bu ulug‘ bobokalonimiz ruhiyatini yaqqolroq his etish uchun aksar shoirlar dastlab buyuk mutafakkirni muayyan satrlarda yodga oladi. Mahmud Toir olti bandlik muxammasining beshinchi bandida Navoiy nomini tilga oladi:

Bu yo‘llar – sabrimiz sadosin yo‘li,
Bu yo‘llar – Navoiy navosin yo‘li,
Hazrat Amir Temur duosin yo‘li,
Ruhlar shodon yurgan osmon yo‘li bu,
O‘zbek qayta ochgan jahon yo‘li bu [Mo‘minova 2016: 29].

Muxammasning ushbu bandi shu holati bilan ham o‘ziga xos, maroqli. Agar uning “O‘zbek yo‘li” sarlavhasi ostidagi boshqa bandlar bilan uyg‘unlik darajasiga e’tibor berilsa, Navoiy dahosining o‘ziga xos bir qirrasi anchayin zalvorli tasvirlanganini his etish mumkin.

She’rning birinchi bandi tarixiy orzuning ushalishi, keyingi bandda shu tarixiy taraqqiyotning tadrijiyligi, bu yo‘lning millat iftixori bo‘lgani, nihoyat, uchinchi bandda tarixning buyuk natijalari o‘sha zamonlarning o‘zida qolib ketmasdan, uning yangidan yuz ochgani, to‘rtinchi bandda esa “Qayta kashf etilgan” “xushniyat o‘zbekning imkon yo‘li” qayd etiladi. Yuqorida keltirilgan band mana shu fonda mutlaqo o‘zgacha ta’sir kuchini beradi. “Taxmis qilish shunchaki shaklbozlik emas, balki mahorat sinovidir. Avvalo, u yoki bu shoirning muayyan g‘azalini tanlashda shoirning dunyoqarashi, estetik nuqtai nazari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qolaversa, taxmis usuli – har bir shoir uchun mahorat sinovi, ilhomlantiruvchi kuch yoki biror muhim fikrni ro‘yobga chiqarish vositasi bo‘lishi mumkin” [Is’hoqov 2014: 127].

Navoiy haqida she’r yozmagan adibning o‘zi yo yo‘q yoki juda kam. Ayrim adiblar esa bu mavzuda ancha-muncha she’rlarni yozishgan. Maqsud Shayxzoda, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va boshqalar shu siraga kiradi. Bu qatorni Abdulla Sher nomi ham to‘ldirib turibdi. Uning Navoiy haqidagi turkum she’rlari mavjud. Ular “Navoiy sog‘inchi” degan umumiy nom bilan yuritiladi.

Abdulla Sher gapni Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”si tarkibidagi birinchi devon “G‘aroyib us-sig‘ar”dan boshlaydi. U devonni cheksiz olamga o‘xshatadi. She’riy zamin va she’riy osmonning mehvari, tayanch nuqtasi esa “buyuk qalam”dir:

“Ashraqat”dan boshlangan devon
O‘xshab ketar cheksiz olamga.
Undagi yer, undagi osmon
Suyanadi buyuk qalamga.

Shundan keyin shoir Navoiy asarlarining mohiyati, mazmuni, muddaosini sharhlashga o‘tadi. Uning nazarida, bu asarlar odamzodga olam va odamga qarashdagi yangicha nuqtai nazarlarni tuhfa etadi, odam olamga mutlaqo boshqacha nazar bilan qarashga o‘rganadi. Muhimi, ular kishiga ruhiy bedorlik bag‘ishlaydi:

Ul qalamning sehrli pati
Uchib tushmish jannatiy qushdan.
Qog‘oz bilan qalam suhbati
Odamzotni uyg‘otar tushdan.

Navoiyning ulug‘ligi uning ma’rifatida, so‘z tufayli bashariyat qalbiga yo‘l topa bilishidadir. Shuning uchun ham Abulla Sher Navoiy qo‘llagan so‘z tushunchasi oldidan “ulug‘” epitetini qo‘llaydi:

Asrlarki, devondan porlab,
Yoritadi Ulug‘ So‘z Sharqni.
So‘nmas ovoz bizga der, chorlab:
“Angla tunu tongdagi farqni!”.

Shoh va shoir qarshilantirishi Abdulla Sherda ham mavjud. U shohlar va buyuk shoir ma’naviy olamini qiyoslaydi. Bu qiyoslar mag‘zini chaqishni o‘quvchiga havola qiladi:

Shohlar o‘tdi, o‘tar aysh surib,
Quyosh bilib toj gavharini.
Shoir esa oh tortar ko‘rib
Ul muqaddas Nur javharini.

Shohlar uchun tojdagi gavhar ulug‘lik alomatidir. Shuning uchun ham ular tojdagi gavharni Quyosh o‘rnida qabul qilishadi. Navoiy uchun esa dur – so‘zdir. U so‘z ziyosi bilan faxr-u iftixor qiladi, uni muqaddas sanaydi. Shundan hayajonga (“oh tortar ko‘rib”) tushadi. Mana bunday his-tuyg‘u egasining esa kiyim-boshlari emas (“Alisherbek kiygan bir kuloh Mingta tojdan a’lodir, a’lo”), balki ma’naviy durdonalari muhimdir.

Ikkinchi she’r Navoiyning asarlariga berilgan umumiy shoirona baho tavsifidan iborat. Navoiy asarlaridan gul hidi kelib turadi. Bu gulning boshqalariga o‘xshamaydigan jihatlari ko‘p. Xususan, ular “ilohiy” hamda “cho‘ng”dir.

Navoiyning asarlaridan
Bo‘y sochadi ilohiy, cho‘ng gul.
Unga qo‘ngan asalaridan
Qanot tilab uchadi ko‘ngil.

“Kabi” hamda “labi”, “asarlaridan” va “asalaridan” so‘zlari bittagina harfiga ko‘ra farqlanadi, xolos. Shuning uchun ham ular to‘la va mukammal qofiyalar sifatida she’riy ohangning tabiiyligini

ta’minlab turibdi. Keyingi bandda Navoiy asarlarning majoziy xususiyatlariga e’tibor tortiladi:

Unda qushlar odamlar kabi
So‘zlaydilar o‘zni unutib
Va qushlardek, odamlar labi-
Kuylay boshlar so‘zni unutib.

Ushbu misralarning “Lison ut-tayr” qahramonlari haqida ekanligi ko‘rinib turibdi. Navoiyning haqiqiy muxlislari buni osongina his eta oladi. Abdulla Sher qalami ham Navoiy misralaridagi serqirra va purma’no an’analar tufayli charxlanib, o‘tkirlashib borayotganini e’tirof etish joiz. Qushni odamga, odamni qushga o‘xshatish shu o‘rinda tabiiy, samimiy, demakki, o‘rinli bo‘lgan. E’tibor berilsa, birinchi ikki misrada o‘ziga xos so‘z o‘yini yuzaga kelganini ilg‘ash mumkin. Bu “qushlarning odamlar kabi” bo‘lishi bilan bog‘liq. Ammo o‘xshatishning asosiy unsuri – nimasiga ko‘ra degan joyida ikki xildagi talqinga imkon borligi nazarga tushadi:

1. *Odamlar kabi so‘zlaydilar;*
2. *O‘zini unutib so‘zlaydilar.*

Keyingi ikki qatordagi o‘xshatish ham shu mantiqni davom ettiradi. Navbatdagi band ham istioralar silsilasi bilan muzayyan qilingan. Bunday shoirona xayol va tasavvurning mevalari sifatida nodir mulohazalar, uchqur tafakkurning ajib jilvasi, quyma misralar, yoqimli she’riy jarang yuzaga keladi:

Unda shohlar tarashlaydi tosh,
Tog‘ni kesib o‘tadi doston.
Tojdan chiqib, yuksalganda bosh
O‘pib qo‘yar egilib osmon.

Jonlantirish va istioralar ko‘chma ma’nolarga qanot bergan paytda Xadichabegim singari tarixiy shaxslarning daxli she’rning real hayot bilan yanada yaqinlashuviga zamin hozirlaydi:

Unda falak o‘z tasbehini
Misra qilib o‘giradi jim:
G‘azaldagi xushbo‘y behini
Islab yashar Xadichabegim.

Albatta, “falakning o‘z tasbehini misra qilib o‘girishi” Abdulla Sherning badiiy kashfiyotidir. Bu yerda Xadichabegim haqidagi

ishoralar ham o‘ziga xosdir. Ushbu banddan keyin Hirotning “qushuyqu”ligi, “ming yillik ishqdan” kuylab turgan “qadimiy qayg‘u” haqidagi kuzatishlar ham mana shu ishoralarga kuch beradi:

Unda Hirot doim qushuyqu,
Samarqandni izlaydi tushdan.
Vatan degan qadimiy qayg‘u
Kuylab turar ming yillik ishqdan.

Navoiyning tasavvufona ohanglari ham shoir nazaridan chetda qolmaydi:

Ashraqatni ko‘rasan unda,
Ilohiy nur ochar ko‘zingni:
Anglaysanki, dunyoyi dunda
Tanimabsan hali o‘zingni.

Ko‘rinib turibdiki, shoirning muddaosi Alisher Navoiy she’riyatida mujassamlashgan yuksak insoniy g‘oyalar va ko‘tarinki ohanglarning inson ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri haqida. O‘zlikni tanishning ilk ostonasi – Alisher Navoiy she’rlaridir, degan hukm misralarning umumiy mazmunidan kelib chiqadigan xulosa sifatida his etiladi.

Navbatdagi qism yangi bir tuyg‘ular to‘lqini bilan aloqador. Unda Navoiyning keyingi avlodlarga ko‘rsatadigan ta’siri qalamga olingan. Bizningcha, “Navoiy ozod qilgan qul” turkona she’rning parvozi bilan bog‘liq:

Men – Navoiy ozod qilgan qul,
She’r o‘sadi qutlug‘ erkimdan.
Yuragimda yashaydi Bulbul,
Yuragimda Humo berkingan.

Jismim – gulxan, qalamim cho‘g‘dir,
O‘zim – xato, so‘zim – bexato.
Shoirlikda armonim yo‘qdir:
Ashraqatga qildim iqtido.

Turkumning to‘rtinchi she’ri “Zanjirband sher” deya nomlangan. Unga buyuk hazratning “Zanjirband sher – yengaman der” hikmati epigraf sifatida keltiriladi. Shoir o‘zini “Zanjirband sher” sifatida tasavvur etadi. Ammo bu birinchi, ilk tasavvurdir. Buni she’r yakuniga yetmasdan turib to‘la tasavvur etish qiyin. Shuningdek,

she’rni to‘la o‘qimasdan turib uning bosh mazmun va mantig‘ini idrok etish ham imkonsiz:

Men bilmayman, bu ne jahd-jadal,
Bu qandayin aql yetmas sir:
Men tug‘ilmay, besh asr avval,
Suvratimni chizmish Ulug‘ Pir.

Mening suratimni Ulug‘ Pir chizib qo‘ygan! Dabdurustdan buning mohiyatiga yetish qiyin. Keling, misralar mantig‘ini erinmay kuzataylik:

Zanjirband sher, boq, yengaman der, –

Bu Navoiy chizgan suratning o‘zginasi, xolos.. Albatta bu ham birinchi o‘qishdagi taassurotdir. Ikkinchi misrani o‘qishimiz bilan endi boshqacha assotsiatsiyalar paydo bo‘la boshlaydi:

Yirtilgudek jaranglar qog‘oz.

Nima uchun? Nega qog‘oz jaranglaydi?Qog‘ozning yirtilgudek jaranglashi nimani anglatadi? Keyingi misralarni o‘qiganimizda bu savollar biroz anglangandek tuyuladi:

Jaranglaydi zanjirlangan sher,
Jaranglaydi po‘lat bir ovoz.

“Zanjirlangan” hamda “po‘lat bir ovoz” jarangning zanjir bilan aloqadorligiga ishora emasmi? Yana kutishga to‘g‘ri keladi. She’rning kalit so‘zlari yana tavsiya etiladi:

Zanjirband sher, boq, yengaman der, –
Yildan-yilga ul zanjir tarang:
Besh asrki, men, Abdulla – sher!
Men qilaman zanjir bilan jang!

She’rdagi so‘z o‘yinlari qisman ochila bormoqda. Endi “Men”ning lirik qahramon sifatida “Abdulla Sher”ga tenglashishi kuzatiladi. Ammo, bu yerda yana bitta nozik qistirma mavjud. Shu jumladagi “sher” katta harflar bilan yozilgan emas. Ayni shu holat “sher”ning istiora sifatida qo‘llanganini anglatadi. Nihoyat, yakunlovchi bandni o‘qiymiz. Endi ko‘p narsa joy-joyiga tushadi:

Besh asrki, suvratim mening
Na’ra tortib yashaydi bedor...
Tugamaydi muhlatim mening
Toki She’r bor, toki Zanjir bor!

Demak, gap, eng avvalo, suratning o‘zi haqida borayotir. Hali shoirning o‘zi emas, balki u chizgan sher surati olamga dovruq solmoqda. Surat yashayotgan bo‘lsa, buyuk shoirning o‘zi ham yashashda davom etadi. “Bedor” degan so‘zning qo‘llangani bejiz emas. U “yashaydi”, yashaganda ham “na’ra tortib” yashaydi. Bu mangulikni ta’minlayotgan asosiy hodisa She’rdir. Oxirgi misrada ushbu so‘zning katta harflar bilan yozilgani, uning tarkibidi ayirish belgisining mavjudligi shu so‘zga e’tibor berishni talab etadi. Demak, She’r bor ekan buyuk bobomiz – Hazrat Alisher Navoiy ham har doim bor, har doim abadiydir.

Navoiyga qaytish – uzluksiz va ilhombaxsh jarayon. Uning davomiyligini o‘rganish ham ibratli xulosalarga kelish imkonini beradi. Shuning uchun Navoiy yashagan davrdan boshlab bugunga qadar buyuk shoir siymosi badiiy talqin etilgan. Zero, Navoiyning hayoti va ijodi haqiqiy saboq va ibrat maktabidirki, mutafakkir shoir tajribalariga tayanib, did, saviya va mahoratni yuksaltirish har bir iste’dod uchun ijodiy muvaffaqiyat garovidir. Chunki Navoiy yashagan davr va bu buyuk shaxs ibratli hayot yo‘lining ta’siri va ilhomlantirish jozibasi yuksak, u hamisha barhayotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт - матбаа ижодий уйи. – Т., 2015.

2. Мустақиллик даври адабиёти. Адабий-танқидий мақолалар, бадиалар. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт - матбаа ижодий уйи. – Т., 2006.

3. Тўлан Низом. Навоий яшаган уйда // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2016, 15 апрел, № 16 (4363).

4. Мўминова Зулфия. Ишқ йўли // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2016, 15 апрел, № 16 (4363).

NAVOIY MAQTAGAN SAYYID ASIL KIM?

WHO IS SAYYID ASIL WHO PRAISED NAVOI?

Rustamjon DJABBOROV
Adliya vazirligi "Adolat" Milliy huquqiy axborot markazi (O'zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning faqat bir g'azalida tilga olingan, lekin shu paytga qadar adabiyotshunoslar va tarixchilar e'tiboridan chetda qolib kelgan tarixiy shaxs – Sayyid Asilning kim ekanligi, uning Navoiyga qanday bog'liqlik tomoni borligi tadqiq etilgan. Maqolada kirish qismi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, mazmun-mohiyati ochib berilgan, xulosada muallifning ko'tarilgan masala yuzasidan aniq mulohazalari aks etgan. Maqolada Sayyid Asil nomi tilga olingan g'azal va uning mazmun-mohiyatiga ham qisqacha to'xtalib o'tilgan. Ma'lumki, ayni paytga qadar Navoiyning tarjimayi holi bilan bog'liq maqolalar va ilmiy asarlarda bunday shaxs nomi tilga olinmaydi.

Kalit so'zlar:: *Alisher Navoiy, Sayyid Asil, Abusaid Mirzo, No'yon barlos, temuriylar, arg'in, Hirot, Tabriz, "Oqqo'yunli muxlislar devoni", g'azal, bayt, oqqo'yunlilar.*

Annotation

The article explores the identity of Sayyid Asil and his relationship with Alisher Navoi, who is mentioned in one of the gazelles of this poet, but which has long been ignored by literary scholars and historians. The article presents the purpose, objectives and content of the study with specific comments by the author on the issue raised. The article briefly touches on the essence and meaning of the gazelle in which the name of Sayyid Asil is mentioned. It is well known that until now this name was not mentioned in articles and scientific works related to the biography of Navoi.

Key words: *Alisher Navoi, Sayyid Asyl, Abu-Saeed Mirza, Noyoon*

Barlas, Timurids, Argins, Herat, Tabriz, "Diwan of the Aq-Qoyunlu Admirers", ghasels, оққўюнлилар

Ma'lumki, Alisher Navoiyning asarlarida unga zamondosh bo'lgan va undan avval yashab o'tgan o'nlab shoirlar, hukmdorlar, mutafakkirlar, olimlar, davlat va jamoat arboblari haqida so'z boradi. Ulardan ko'pchiligi boshqa tarixiy manbalar orqali ham bizgacha yetib kelgan, ayrimlari haqida esa faqat Navoiyning asarlari orqali xabardor bo'lish mumkin.

Biz mazkur maqolamizda nomi ilk bor Oqqo'yunlilar davridaTabriz shahrida ko'chirilgan Alisher Navoiy devonida tilga olingan Sayyid Asil ismli tarixiy shaxs va uning buyuk shoir bilan aloqadorligi xususida so'z boradi. Ayni paytga qadar mazkur devon va uning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati bir qator o'zbekistonlik va xorijiy olimlar, xususan P.Sujek, S.Yoshifusa, T.Seyhan B. Peri, Y.Chetindog' hamda o'zbek olimlaridan M.Imomnazarov, A.Erkinov, D.Yusupova va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, shu paytga qadar Navoiyning ushbu devonda nomi tilgan olingan yagona zamondoshi Sayyid Asilning kim ekani, uning Navoiyga qanchalik aloqasi borligi o'rganilmagan.

Yuqorida aytilganidek, Alisher Navoiy o'zining ko'pgina asarlarida o'zidan avval yashab o'tgan shaxslar va o'z zamondoshlari haqida bugungi kun nuqtayi nazaridan juda qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Masalan, "Nasoyim ul-muhabbat"da

772 nafar tasavvuf va tariqat namoyandalari, shoir va allomalarning hayoti va faoliyati haqida xabar topamiz . Shoir "Majolis un-nafois" asarida esa, o'zi bevosita ko'rgan, tanigan, shuningdek, undan avvalroq yashab o'tgan, turkiy va forsiy tilda ijod qilgan yuzlab shoirlarning hayoti va ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar topish mumkin.

Shuningdek, Alisher Navoiyning muayyan shaxslarning tarjimayi holi, faoliyati, fe'l-atvori haqida hikoya qiluvchi "Holoti Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Hamsat ul-mutahayyirin" singari asarlari ham mavjudki, bularning barchasi

shoir yashagan davrdagi siyosiy vaziyat, ijtimoiy hayot, madaniy muhit haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. "Xamsa"ning har bir dostonida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylarning tavsifiga bag'ishlangan boblar ajratadi.

Nafaqat Navoiyning tazkiralari, tarixiy va nasriy asarlari, balki uning devonlarida ham bir qancha tarixiy shaxslar nomi tilga olinadi. O'z devonlari debochasida shoir bir qator ustoz shoirlar nomini minnatdorlik ila tilga olib o'tadi. Ularning ayrimlari kim ekani, ularning Navoiyga qanday aloqador ekani hanuzga qadar o'rganilgan.

Biz quyida so'z yuritadigan tarixiy shaxs nomi Navoiyning "Badoyi'ul-bidoya" devonida 431-g'azalida tilga olingan. Mana, o'sha g'azal:

Ey, jamoling ravzasi firdavs bog'idek jamil,
Lablaringning kavsari aynan tusammo salsabil.
Istamas bo'lsa muhabbat ahli yoshin Dajladek,
Ne uchun chekti qazo mashshotasi ollingg'a Nil?
Ko'zuma yo'lungda tufrog'lig' tikankim sanchilur,
Bor biaynih surma ul tufrog', tikan andoqki mil.
Bargi guldek hulla jismingda sabo tahrikidin
Titrar andoqkim kumush ustida bir muflis baxil.
Ey kabutar, vosil o'ldum, noma kelturmakni qo'y,
Kim harimi lomakonda mahram ermas Jabrail.
Orazing oyina yuz mahvash safodin ursa dam,
Ko'zgu olkim, ko'rguzur yuz vajhdin ravshan dalil.
Ey Navoiy, boda ol, ich xossa bu shukronag'a,
Kim salomatdur asolat gavhari sayyid asil [3, 442]

G'azalning oxirgi misrasi maqta'i oldingi baytlardan tamomila farq qiladi.

Endi shoir o'z e'tiborini ma'shuqa, ishq mavzusiga emas, aniq bir shaxsga qaratadi. Ya'ni, shoir o'ziga murojaat qilib, "Ey Navoiy, qo'lingga qadah ol, loaqal asolat gavhari bo'lgan Sayyid Asilning salomatligi shukronasi uchun boda ich" demoqda. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda ko'pgina g'azallarda maqta' g'azalning umumiy mazmunidan uzilgan holda, qaysidir tarixiy voqeaga ishora yoxud ma'lum shaxsga murojaat tarzida bitiladi. Alisher Navoiy

g‘azallarida so‘nggi misralarda, asosan, Husayn Boyqaroga murojaat yoki uning tavsifi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bu g‘azal maqta’sida ham aynan muayyan tarixiy shaxs tilga olingan. Lekin ko‘rinib turibdiki, u Husayn Boyqaro emas. Chunki bu paytda Husayn Boyqaro Navoiydan, umuman Hirotdan ancha olisda edi. Biz quyida bu haqda alohida so‘z yuritamiz.

Bu baytda esa, ayni paytga qadar kimligi bizga yetarlicha ma’lum bo‘lgan boshqa bir shaxs haqida so‘z boradi:

Ey Navoiy, boda ol, ich xossa bu shukronag‘a,

Kim salomatdur asolat gavhari Sayyid Asil.

Shu paytgacha nashr qilingan Navoiy devonlarida, 20 jildli “Mukammal asarlar to‘plami”da, ularning internet sahifalaridagi elektron talqinlarida “Sayyid Asil” nomi kichkina harflar bilan ko‘rsatilgani noshirlar ham o‘z davrida bu ikki so‘zga atoqli ot emas, oddiy sifat yoki turdosh ot deb qaraganini bildiradi.

Mazkur bayt ilk bor Navoiyning hijriy 976/ milodiy 1471-yilda ko‘chirilgan “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”da uchrashi bu g‘azal shoirning yoshligida, aniqrog‘i 30 yoshigacha bo‘lgan davrda bitilganini bildiradi. Ma’lumki, bu devon Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallaganidan so‘ng, oradan ikki yilcha o‘tib, qo‘shni Oqqo‘yunlilar davlatida, Uzun Hasan hukmronligi davrida, uning o‘g‘li Sulton Xalil hokimlik qilayotgan Sherozda, Anisiy taxallusi bilan tanilgan kotib Abdurrahim Xorazmiy tomonidan ko‘chirilgan [8, 25].

Qo‘lyozma ayni paytda Qohiradagi Misr Milliy kutubxonasida, Turc Lib 68 tartib raqami ostida saqlanmoqda. Devonga 223 ta g‘azal, 2 ta muxammas, bitta mustahzod va bitta tarje’band kiritilgan.

Devonning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri Navoiy she’rlarining o‘sha davr Oqqo‘yunlilar davlati adabiy tili o‘g‘uz turkchasiga moslashtirilganidir. Masalan, yuqoridagi baytning ilk misrasi “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”da “Ey Navoiy, boda ol, ich, xossa bu shukronaya” [2,38a] tarzida berilgan . Aniqrog‘i, eski o‘zbek tilidagi jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi (-g‘a) –ya tarzida ishlatilgan.

E’tiborli tomonida, ushbu devondagi she’rlarda Sayyid Asildan boshqa biror bir zamondosh tarixiy shaxs nomi tilga olinmagan.

Keyinchalik bu g‘azal “Xazoyin ul-maoniy”dagi ikkinchi devon – “Navodir ush- shabob”da ham keltirilgan. Demak, bu yerda shoirga

yoshlik chog‘laridan tanish bo‘lgan, shoirning mehri va ishonchini qozongan, maqtovga sazovor shaxs haqida so‘z bormoqda.

Biz ayni paytga qadar navoiyshunoslik bilan bog‘liq maqolalarda, hatto 2 jildli “Alisher Navoiy” qomusiy lug‘atida ham Sayyid Asil ismini uchratmadik. Bayt mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, lirik qahramon Navoiyni Sayyid Asil ismli tarixiy shaxsning borligiga shukr qilib, qadah ko‘tarishga undamoqda. Keyingi misrada Sayyid Asil “asolat (asllik) gavhari” deya sifatlanmoqda.

Albatta, bu o‘rinda mumtoz adabiyotda keng qo‘llaniladigan ishtiqoq (bir so‘zdan boshqa so‘z hosil qilish, bir o‘zakdan hosil bo‘ladigan bir nechta so‘zni bayt yoki jumladan qo‘llash) san’atidan foydalanilgan [12,72].. Ya’ni bir o‘zakka mansub ikkita so‘z asolat va asil yonma yon qo‘llangan. Bu odatda she’rdagi shakliy go‘zallik, so‘zlarning bir-biriga bog‘liqligi she’rning o‘ziga xos jozibasini ta’minlagan.

Demak, Navoiy tomonidan bu tarzda sharaflangan zot “asllik gavhari” degan nomga munosib bo‘lishi kerak edi.Avvalo nima uchun “asolat gavhari” degan nom ishlatilmoqda? Tilga olingan zot shu qadar hurmat va ehtiromga loyiq, ulkan martabaga ega zotmidi? Bu ismning birinchi qismi Sayyid so‘zi hurmat ma’nosida ishlatilganmi, yoki uning ajdodlariga, nasabiga ishora bormi?

Baytdagi “sayyid” atamasi haqida ham ikki og‘iz. Odatda bu nom asosan payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning nabiralari Hasan va Husayn (r.a.) avlodlaridan tarqalgan kishilarga nisbatan aytilgan. Shu bilan birga sayyid atamasi kelib chiqishi payg‘ambar avlodlariga borib taqalmaydigan, ammo yuksak martabali amirlar, beklar, shahzodalar va hukmdorlar nomiga ham hurmat yuzasidan sayyid atamasi ishlatilgan. Masalan, o‘zbeklarning mang‘it sulolasidan bo‘lgan Buxoro amirlari ismiga ham “sayyid” atamasi qo‘shib ishlatilgan. Bugungi arab tilida bu atama “janob” ma’nosida har qanday kishiga hurmat yuzasidan qo‘llanilishi mumkin. Demak, baytda nazarda tutilgan zotni faqat shajarasi payg‘ambarimizga borib taqaladigan kishilar orasidan izlash to‘g‘ri emas.

Biz turli manbalardan Sayyid Asil ismi bilan tanilgan, Navoiyga zamondosh bo‘lgan ikki tarixiy shaxs haqida ma’lumot topdik. Ulardan biri Beatris Forbs Mans qalamiga mansub “Temuriylar

davrida Eronda siyosat va din" (Politics and Religion in Timurid Iran) nomli kitobida tilga olingan Sayyid Asildir [9, 70-71].

Muallifning yozishicha, uning asli ismi Sayyid Asiliddin Abdulloh Voiz bo‘lib, bugungi Eron hududidagi Sheroz shahrida tug‘ilgan. Sulton Abusaid Mirzo davrida Hirotga kelgan, uning qo‘l ostida mas'ul vazifalarda ishlagan, Gavharshodbegim masjidida voizlik ham qilgan. Hirotda yashab o‘tgan mutasavvif olimlar va tarixiy qadamjolar haqida "Maqsad ul-iqbol" nomli asar yozgan.

"Maqsad ul- iqbol" asari Abusaid Mirzoga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ziyorat odoblari, Hirotda yashab o‘tgan avliyolar, ular dafn qilingan qabrlarning o‘rni, shuningdek, turli shohlar va hukmdorlar oilalari vakillarining qadamjolari haqida ham so‘z yuritiladi.

Asar milodiy 1458-yilda yozilgan. Keyinchalik u 1932-yilda afg‘onistonlik Mullo Muhammad Siddiq Hiraviy tomonidan mukammallashtirilgan. Muallifning o‘zi yuz yillar osha Asidillin Voiz nomi bilan xalq ichida mashhur bo‘lib kelgan.

Xondamir "Habib us-siyar" asarida Sayid Asil haqida yozarkan: "ba sifati asolatu vufuru jalodatu nabohatsha'nu qadami dudmon mavsuf va ma'ruf bud...",- deya ta'riflaydi. Shuningdek, uning tafsir, hadis, insho va ta'lifda benazir ekanini aytadi. Xondamirning yozishicha, Sayyid Asil Abu Sa'id Ko‘ragon zamonida ona yurti Sherozdan Hirotga keladi. Bir muddat Hirotdagi Gavharshobegim madrasasida xalqqa ma'ruza va mav'izalar o‘qiydi. 883- yil rabiulavval oyining 17- kuni

(1478- yil, 26- iyun) vafot etadi. Husayn Boyqaro uning farzandlariga tasalli va taskin uchun otalariga tegishli bo‘lgan suyurg‘ol yerlarni ularga bag‘ishlaydi [6, 193]. Albatta, Husayn Boyqaroning bu qadar izzat va ikromiga sazovor bo‘lgan inson Navoiyning e'tiboridan chetda qolishi mumkin emas. Qolaversa, Hirotdagi olim, shoir, tarixchi, umuman adabiyot va san'atga aloqador insonlarning aksariyati Navoiyning rag‘batidan, himmatidan bahramand bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan Husayn Boyqaro davrida ham Navoiy Sayyid Asiliddin Vo‘iz bilan uchrashgan bo‘lishi kerak. Lekin biz yuqoridagi g‘azal mazmuniga e'tibor qaratsak, u ancha avval, taxminan Abusaid Mirzo hukmronligi paytida bitilganini oson payqashimiz mumkin.

Bu davrda Navoiy hali yosh yigit edi. Sayid Asiliddin esa, Abusaid mirzoga ancha yaqin bo‘lgan, hukmdor uchun kitoblar bitgan. O‘sha paytda bu ikki zot qaysidir vaj tufayli uchrashgan, suhbatlashgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Balki, o‘sha paytlarda Sayyid Asiliddin yolg‘izlanib qolgan yosh Navoiyga qo‘lidan kelgancha yordam bergandir?

Agar tarixiy manbalarda Sayid Asil nomi bilan tilga olingan boshqa biror tarixiy shaxs uchramaganida, yuqoridagi baytda faqat Asiliddin Voiz ko‘zda tutilgan bo‘lishi mumkin, deya fikr bildira olgan bo‘lardik.

Bir qator manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, Sayyid Asil ismli ikkinchi tarixiy shaxs esa, arg‘in beklaridan bo‘lgan, bir paytlar Abusaid mirzo xizmatida bo‘lgan arg‘in beklaridan biri Sayyid Asil arg‘in ekani oydinlashdi [7, 128-133].

U haqidagi ma’lumotlar ilk bor temuriylar davrida noma’lum muallif tomonidan yaratilgan “Mu’izz alnsob” asarida uchraydi. Unda yozilishicha, arg‘inlar turkiylarning qadimiy urug‘laridan bo‘lib, Amir Temur davrida ham juda katta e’tiborga ega bo‘lishgan. “Temur tuzuklari”da arg‘in urug‘i sohibqironga tobe bo‘lgan 40 turkiy urug‘dan biri bo‘lib, bu urug‘larning 12 tasi (jumladan arg‘inlar ham) uning xos navkarlari tarkibiga kirgan. Amir Temur farmoniga binoan Toshxo‘ja arg‘in urug‘iga amir deb e’lon qilingan, yana yigirma kishi o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi lavozimlariga tayinlangan [11, 106].

Abusaid mirzo hokimiyat tepasiga kelishiga ham arg‘inlarning xizmati katta bo‘lgan. Hatto Sulton Husayn Boyqaro xizmatidagi a’yonlar orasida ham bir qancha arg‘in bek va amirlari uchraydi [8,79]. Ammo, ular orasida Sayyid Asil bo‘lgan-bo‘lmagani haqida ma’lumotlarimiz yetarli emas. Uning ismi faqat Abusaid mirzo xizmatida bo‘lgan arg‘inlar orasida tilga olib o‘tiladi [6, 193].

Xondamirning “Habib-us siyar” asarida yozilishicha, Abusaid mirzo ashaddiy raqibi va qarindoshi Yodgor Mirzoning yoniga, Uzun Hasan saroyiga Sayyid Asil arg‘inni elchi sifatida yuborgan.

Demak Sayyid Asil Oqqo‘yunlilar saroyida bo‘lgan, ushbu xonadon vakillari bilan uchrashgan bo‘lishi kerak. Shu sababli “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”da aynan Sayyid Asil ismi keltirilgan g‘azalning ham joy olishi bejiz emasga o‘xshaydi.

Zotan, devonda Navoiyga bevosita zamondosh bo‘lgan biror bir Hirot muhiti vakili uchramaydi. Bu paytda Navoiyning g‘azallari soni ancha ko‘p bo‘lgan. Taxminlarga ko‘ra, 1465-yilda tuzilgan “Ilk devonda ham 300 dan ortiq g‘azal kiritilgan edi. Balki, Sayyid Asil nomi Oqqo‘yunlilar muhitida ham yaxshi tanish bo‘lgandir? Manbalarda Husayn Boyqaro toj-taxt mojarosi bilan yurgan kezlari 1464-yilda Sayyid Asil arg‘un boshchiligidagi Abusaid mirzo qo‘shinlaridan mag‘lub bo‘lib, ortga chekingan. Said Asil o‘z sheriklari Said Murod va Shayx Temur bilan Husayn Boyqaroni to Xorazmga qadar ta’qib qilib kelishgan [4, 180].

Biz yuqoridagi baytni Alisher Navoiy hali Abusaid mirzo hukmronligi ostida Hirotda yashab yurgan paytida bitilgan bo‘lishi mumkinligini aytdik. Ma’lumki, Abusaid mirzo hukmronligi davrini Navoiy o‘zining “eng baxtsiz, kimsasiz, muhtojlikka to‘la” davri deb eslaydi [10, 59].

Aynan uning hukmronligi davrida Abusaid mirzo shoirni Samarqandga badarg‘a qiladi. Bu badarg‘a sabablarini olimlar turlicha sharhlashgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham “Boburnoma”da bu haqda so‘z yuritarkan, “...bilmon, ne jarima bila Sulton Abusaid mirzo Hiriydin ixroj qildi” degan edi [13,153]. Har qalay, Abusaid mirzo ashaddiy g‘animi Husayn Boyqaro bilan yaqin munosabatda bo‘lgani uchun ham, Alisher Navoiyni o‘zidan yiroqlatgan bo‘lishi haqiqatga yaqin keladi.

Xullas, Abusaid mirzo hukmronligi davrida Navoiy yaqinlaridan ajragan, tog‘alari qatl etilgan, moddiy va ma’naviy madadga muhtoj kezlari edi. Shu bois, u saroyga ancha yaqin, hukmdorning ishongan sarkardalaridan bo‘lgan Sayyid Asil arg‘indan qandaydir yaxshilik, himmat ko‘rgan, shu bois, uning nomini hatto o‘z g‘azaliga ham kirgizgan bo‘lishi mumkin. Balki tasavvufiy ruhdagi bu g‘azal Sayyid Asilga taqdim qilish uchun bitilgandir?

Aslida, e’tibor bilan qaralsa, g‘azal mazmun nuqtayi nazaridan Sayyid Asilni maqtashga bag‘ishlanmagan. Ammo mumtoz adabiyotda mutlaqo boshqa mazmundagi, deylik oshiqona asarlarni ham muayyan tarixiy shaxsga atash an’anasi mavjud bo‘lgan. Masalan, XIV asrda yashab o‘tgan o‘zbek shoiri Xorazmiy oshiqning

ma’shuqasiga nomalar ko‘rinishidagi “Muhabbatnoma” asarini o‘sha paytdagi Oltin O‘rda hukmdori Jonibek sulton (1357- yilda vafot etgan)ning beklaridan biri Muhammad Xo‘jabekka atab 1353-yilda yozgan edi.

Navoiyning ushbu temuriy hukmdor paytidagi hayoti, uning nima sababdan Hirotdan badarg‘a qilinishi haqida turli xil fikrlar bildirilgan.

Sayid Asilning keyingi taqdiri haqida biz tarixiy manbalarda zarur ma’lumotlarni topa olmadik. Har qalay Sulton Husayn Boyqaro hokimiyatni qo‘lga olganidan so‘ng, bir qator arg‘in beklari o‘z vazifalarida qolgan bo‘lsalar ham. “Muizz-al-ansob”da uning xizmatida bo‘lgan arg‘inlar orasida Sayid Asil ismi uchramaydi.

Garchi tarkibida ushbu bayt bo‘lgan g‘azal 1465- yilda tuzilgan “Ilk devon”da kiritilmagan bo‘lsada, 1471- yilda Tabrizda ko‘chirilgan “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”da uchrashi uning Navoiy Hirotdan ketmagan paytlari bitilgan bo‘lishi ehtimolini kuchaytiradi. Ushbu bayt keyingi devonlarda ham “masalan, 1484-yildagi “Badoyi’-ul bidoya”da ham uchrashi Navoiyning oradan o‘n yildan ortiq vaqt o‘tganiga qaramay, Sayyid Asilga bo‘lgan ixlosi, hurmati yo‘qolmaganini ko‘rsatadi.

Xo‘sh, yuqoridagi ikki tarixiy shaxs (Sayyid Asiiliddin Vo‘iz va Sayyid Asil Arg‘un) dan qay biri Navoiyning alohida e’tirofiga sazovor bo‘ldi ekan?

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, tarozi posangisi ko‘proq ikkinchi tarixiy shaxsga tomon tosh bosmoqda. Chunki baytda “Sayyid Asil” ismi ishlatilmoqda. Sherozlik voizning ismi tarixiy manbalarda aynan “Sayyid Asiliddin Voiz” tarzida ishlatilgan. Albatta, g‘azaldagi vazn va qofiya aynan “Sayyid Asil” so‘zini talab etsada, Navoiy davrida hurmatga loyiq kishilarning ismlarini qisqartirilgan ko‘rinishda ishlatish odat sanalmagan.

Ikkinchidan, baytda “boda” so‘zi ishlatilgan. Garchi bu o‘rinda boda ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lishi ehtimoldan soqit qilinmasa-da, asosan o‘zining diniy ruhdagi asarlari bilan nom chiqargan, diniy mav’izalar, nasihatlar orqali dovrug‘ qozongan shaxs nomini “boda” bilan yonma yon tilga olinishi mantiqqa u qadar to‘g‘ri kelmas.

Xullas, bu haqda hozircha aniq ishonch bilan javob qaytarish qiyin. Lekin, bayt mazmunidan kelib chiqsak, Sayyid Asilning salomatligi Navoiyning “boda olib ichishi”ga, shukr qilishiga, uning o‘zi “asllik gavhari” degan ta’rifga arziydigan darajada ekan, kim bo‘lishidan qat’i nazar Navoiyning qalbidan joy olgan, uning mehri va ishonchini qozongan zot bo‘lishi kerak.

Navoiy 1484- yilda ko‘chirilgan devonida ham shu bayt aynan qaytarilgan ekan, demak, bayt mazmunan o‘sha davr holatiga to‘g‘ri kelishi uchun Sayyid Asilning tirik bo‘lishi taqozo etilardi. Sayyid Asiliddin Voiz esa, bu paytda hayot bo‘lmagan. Bundan chiqdi, Navoiy bu baytni Sayyid Asil Arg‘inga atab yozgan, degan to‘xtamga kelsak, to‘g‘ri bo‘lsa kerak.

Bir paytlar Husayn Boyqaroni quvg‘in qilgan, uning ashaddiy g‘animlariga xizmat qilgan amirga Navoiy shunday ehtirom ko‘rsatgan bo‘larmidi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Albatta, Navoiyning boshqa asarlarida Sayyid Asil nomi uchramagani ham keyinchalik shoir bu shaxs Husayn Boyqaro saroyida izzat topmaganini ko‘rsatadi. Ammo, bu bayt hali Navoiy Husayn Boyqaro saroyida xizmatga kirmagan davrlarda bitilgan. Ehtimol, Navoiy Sayyil Asil nomini o‘z g‘azalidan olib tashlamaslik orqali yoshlikdagi qadrdoniga bo‘lgan sadoqatini yana bir karra ko‘rsatgandir? Balki, keyinchalik, Sayyid Asil Husayn Boyqaro tarafidan afv etilgandir? Balki qaysidir usul bilan Navoiy hukmdorning eng yaqin mulozimi maqomini egallaganidan keyin, qaysidir yo‘l bilan Sayyid Asilga ham muruvvat ko‘rsatgandir? Balki, hukmdorning g‘azabidan, qasosidan uni asrab qolgandir? Har qalay bu savollar biz uchun javobsiz qolmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alishar Navoiy o‘z davrida siyosat, din, adabiyot, san’at sohalarida ko‘zga ko‘ringan har bir tarixiy shaxsni e’tibordan chetda qoldirmagan. Ular haqida u yoki bu asarida qandaydir ma’lumotlar qoldirishga harakat qilgan. Hatto oradan yillar o‘tib, bu shaxslar Navoiydan uzoqlashib ketgan taqdirda ham, shoir ularning nomini o‘z she’riy satrlari qatida saqlab qolgan va bu ismlarning asrlar osha barhayotligini ta’minlagan.

Yillar davomida e’tibordan chetda qolib kelgan Sayyid Asil ismi ostida ham bir paytlar Navoiyni yaqindan bilgan, unga yordam

bergan, u bilan do‘stlik rishtalarini bog‘lagan inson hayoti, kechmishi yotgan bo‘lishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Nasoyimul-muhabbat. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 17-jild. Toshkent. Fan. 1999.

2. Alisher Navoiy. Oqqoyunli muxlislar devoni. Qo‘lyozma. Misr Milliy kutubxonasi. Turc Lib 68. 38 a.

3. Alisher Navoiy. Badoyi’ul-bidoya. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. .1-jild. Toshkent. Fan. 1987. B 442.

4. Ахмедов Б. А. Государство кочевйх узбеков. М.: Наука, 1965.

5. Erkinov A. Alisher Navoiy. Oqquyunli muxlislar devoni (1471 yil). Tokyo: Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa, 2015.

6. Ghiyās al-Dīn ibn Humām al-Dīn Khvānd Mīr. Habibus-siyar. Dept. of Near Eastern Languages and Civilizations, Harvard University, 1994. P. 193.

7. Сабитов Ж.Аргуны во владения Тимуридов в 1450-1451 года. Средневековые тюрко-татарские государства. Сборник статей. Выпуск №3. – Казань. Ихлас. 2011. с. 128-133.

8. История Казахстана в персидских источниках. Том 3. Муизз ал Ансаб. Перевод Ш.Вахидова. Алматй, 2006. С.179.

9. Manz Beatrıce. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. Cambrıge unıversıty press. 2007. P 70-71.

10. Sirojiddinov Shuhrat, Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. Toshkent: Akademnashr. 2011. 59 b.

11.Temur tuzuklari. Forscha matnidan Alixonto‘ra Sog‘uny va Habibulla Karomatov tarjimasi. Toshkent. Sharq. 2005. 105-106 b.

12. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Toshkent. Ta’lim-media. 2019. B. 172.

13.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyolovchi P.Shamsiev. Toshkent. Yulduzcha. 1989.

“ALIFBEI TAYR” YOXUD “LISON UT-TAYR”: YANGICHA TALQIN VA TAHLILLAR

ALPHABET TAIR OR LISON UT-TAIR: NEW INTERPRETATION AND ANALYSIS

Alibek ABDURAHMONOV
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni yangicha yondashuv asosida tahlil qilinadi. Muallif dostonda keltirilgan qushlar majozan turli toifadagi insonlar emas, balki bir insonning ichki dunyosi, undagi o‘zaro ziddiyatlar va tovlanishlardir, degan xulosaga keladi.

Kalit so‘zlar: *botiniy uyg‘unlik, qushlar tili, qushlar bozori, Simurg‘.*

Annotation

This article gives us unique information that we can learn about the great poem “Lisan ut-tair” of “Great Alisher Navoi” in a new conception. The author comes to the conclusion that the birds mentioned in the epic are not figuratively different categories of people, but the inner world of one person, the contradictions in him.

Key words: *inner harmony, bird language, bird market, Simurg.*

Taniqli zamondoshimiz, tibbiyot fanlari nomzodi, ruhshunos Vladimir Levi o‘zining “Men va biz” kitobida yozadi: “Har bir insonning miyasiga har qanday narsa kelishi mumkin. Va bundan qo‘rqish kerak emas – miyamizning ishlash mexanizmi tabiiy ravishda shunday tuzilgan”. Har birimiz bu so‘zlarni o‘qib quvonib ketamiz: “Qanday yaxshi, men bo‘lsam, o‘zimni biroz “savdoyiroq” deb yurgan edim, ma’lum bo‘lishicha, bu odatiy, me’yordagi jarayon ekan!” Ajoyib mutaxassisga tashakkur! U bizga vaqtida yordam berdi, qolaversa, bu kitobni faqat biz o‘qib chiqmagandirmiz axir?

Shunday deb o‘ylashimizga qaramasdan, baribir bu tasallilar bizni to‘liq qanoatlantira olmadi.

Ko‘pdan buyon qiynab kelayotgan g‘ayrishuuriy o‘ylarning barchasi gunoh emasligiga bizni ishontira oladigan va qalbimizni poklay oladigan tog‘dek mustahkam, ulug‘vor diniy bir Pir, ulkan Daho bizga kerak edi. Bularning barchasiga diniy baho kerak edi. O‘sha chigal muammoga yechim sifatida buyuk Navoiyning javobidan o‘zga hikmatni bilmaymiz:

Zotning ijmolig‘a tafsilsen,
Ham vujud ishkolig‘a ta’vilsen.
O‘z vujudungga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen o‘zungdan istagil [Alisher Navoiy, 1991].

Ezopdan tortib Krilovgacha bo‘lgan “ushbu qissadan hissa shuki..” tarzidagi masallar ruhida tarbiyalangan bugungi aksariyat zamondoshimiz “qushlar bozori”da ijtimoiy muammolarni ko‘radi: nomunosib odamlar “yog‘li joylar”da o‘rnashib olgan; arziydigan, munosib odamlar noloyiq joylarda xor-u zor bo‘lib, muhtojlikda hayot kechirmoqda. Va doston oxiridagina “qushlar bozori” bir shaxsning mohiyati ekanligini xulosa qilishi mumkin. Har bir qush o‘z xususiyati, tabiatiga ega ekanligini aytib e’tiroz bildirish mumkin – bitta shaxs shu darajada har xillik kasb etishi mumkinmikin? Bir odam mashhur so‘fiy Abu Yazid al-Bistomiyni izlab yurib, uning eshigini taqillatdi va “Abu Yazidni qayerdan topsam bo‘ladi?”, – deb so‘radi. “Men ham uni qirq yildan buyon izlayman, lekin haligacha ham topa olmadim”, - deb javob berdi Abu Yazid.

“Qush bozori” – inson ichki olamining serqirra olmosi bo‘lib, uning har bir qirrasi bir shaxsning turfa sifatini anglatadi: odamiylik, yaxshilik, yomonlik, ichiqoralik, g‘azab, manmanlik, shafqatsizlik, xudbinlik va h.k. O‘zi bilan o‘zi kurashayotgan tirik, vujudga ega bo‘lgan bu olmosda tegishli hokimiyat – tafakkur va ruh hukmronligi o‘rnatilmaganligi tufayli tuban, foniy dunyo kuchlari, razilliklar o‘zlari nomunosib bo‘lgan joyni ishg‘ol qilib olganlar. “Qushlar izdihomi”! Shovqin-suron, betartiblik! Inson ichki olami ziddiyatlariga bundan-da yaxshiroq majoziy o‘xshatish bormikan? Insonning – birgina shaxsning…? Shunday vaqt keladiki, Navoiyning o‘zi bu qushlarni bir butun qilib birlashtiradi. Gapning o‘rni kelganda

hech kimni ayab o‘tirmaydigan rus xalqi bunday odamni “Boshida podshosi yo‘q” (bez sarya v golove) deya ta’riflagan. Galadagi bu betartibliklar qushlarning bundan keyin ham shunday davom etishi mumkin emasligi, qonun va tartib bo‘lishi lozimligi va nihoyat, uni o‘rnatadigan hukmdor kerakligini e’tirof qilgunlarigacha davom etadi. Hudhud paydo bo‘ladi va “bu telbavor gala”da tartib o‘rnatishga qodir bo‘lgan qushlar shohi – Semurg‘ning dargohiga uchib borishni taklif qiladi:

“Shuhrati Simurg‘ ila ofoq aro,
Zoti mamlu charxi oliy toq aro.
Siz tushub ul shohdin behad baid,
Ul yoqinroq sizga min hiblul varid.
Har kishi bo‘lsa tirik ondin yiroq,
Ul tiriklikdin o‘lum ko‘b yaxshiroq” [Alisher Navoiy, 1991]

Simurg‘ deganda Yaratgan timsoli nazarda tutilayotganligini tushunib olmoq uchun Qur’ondagi Ollohi Taolo o‘zini bizga bo‘yin tomiridan ham yaqinroq ekanligini aytgan oyatini yodga olsak kifoya. Mana shu ikkita asos, ikkita chiziq – Xudoni izlash va o‘z-o‘zidagi uyg‘unlikni axtarish butun asar bo‘ylab yonma-yon o‘tadi. Avvaliga men tushuna olmadim, gap bu yerda nima haqida: Xudoni izlash haqidami yoki uyg‘unliknimi? Doston oxiridagina bu ikkita asos yagona bo‘lib birlashadi. Biz dostonning har bir misrasi, har bir bobini tadqiq qilish niyatidan yiroqmiz. Kamina dostonning “javohirlar”i saqlanayotgan joylariga o‘z fikrimni bildirmoqchiman va dostonning shu asosiy bobidagi, qushlar o‘z maqsadlariga yetishadigan vodiydagi bosh g‘oyani tasdiqlaydigan bir necha qismni keltiraman. Bizga oshkor bo‘lgan narsani bayon qilamiz. Axir dostonning o‘q ildizi, asosiy “gavhar”i mana shu bir necha misra bo‘lib, ularga Navoiy alohida diqqat qaratadi. Bu shunday misralarki, unda “Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni nima haqida?” degan besh yuz yildan buyon qo‘yilib kelayotgan savolga javob beradigan misralar. O‘z sayohatlarining maqsadi bo‘lgan asosiy vodiyga yetib kelgach, qushlar har bir gulda xuddi ko‘zgudagi kabi o‘z tasvirlarini ko‘radilar. Navoiy: “bu shunday holatki, xuddi ko‘zguga yoki suv yuzasiga qaraysanu, nigohing bilan butun borliqni qamrab, o‘z aksingni ko‘rasan”,- deb bu holga aniqlik kiritadi. Va...

“Ko‘rdilar o‘zni qayonkim tushti ko‘z,
Olloh-olloh ne ajoyibdur bu so‘z.
Kim qilib o‘ttiz qushni havas,
O‘zlarin ko‘rdilar ul si murg‘u bas.
Munda zohir bo‘ldi sirri “man araf”,
Kim ko‘rubtur gavhar o‘lmog‘lig‘ sadaf”

“Qushlar bozori” har xil odamlar emas, balki bir insonning ichki dunyosi degan edik. Mana Navoiyning o‘zi ham barcha qushlarni bir butun qushga – Simurg‘ga birlashtirdi. Zohir bo‘lgan “Man araf”siriga kelsa, “Man araf” bu “Kim o‘zini tanisa, Parvardigorini taniydi” hadisining birinchi so‘zlaridir. G‘oyasi murakkab emas: inson o‘zida Yaratganning sifatlarini aks ettiradi. Boshqa bir narsani tushunish mushkulroq. Axir “qush bozori”da har xil qush fasodlari ham bor-ku! Bundan kelib chiqqan holda qanday qilib inson Xudoni aks ettirishi mumkin? Gap shundaki, qushlar galasi vodiyma-vodiy (tasavvufiy talqin asosida aytganda, maqom-bamaqom) uchgan sari unda qushlar soni kamayib boraveradi, ya’ni bora-bora insonning ruhi poklanib, ichki dunyosidagi yomon illatlari kamayib, va nihoyat oxirgi vodiyga yetganda o‘ttizgina qush – “Si-murg‘” (forschada “Si-Murg‘” – o‘ttiz qush) – insonning faqat ijobiy sifatlari qoladi. Bu endi biz bilgan qushlar bozori emas. Va aynan shu “Simurg‘” o‘z Parvardigorini aks ettiradi. Taniqli sharqshunos I.P.Petrushevskiy «Islom Eronda» kitobining islomdagi so‘fiylikka bag‘ishlangan bobida, har xil so‘fiy tarmoqlarda maqomlar soni ham har xil ekanligini, ya’ni Farididdin Attor maqomlarni yetti, Abu Homid G‘azzoliy esa to‘qqiz deb bilganlarini yozadi [Petrushevskiy, 1966]. Endi, boshqa ko‘z qarash, F.Attorning “Mantiq ut-tayr” kitobi ilovasidagi izohni keltiramiz: “F.Attor Simurg‘ timsolida o‘ttiz qushdan - o‘ttiz vaziri bo‘lgan adolatli podshohning majoziy tavsirini beradi. Bu timsolda go‘zallikni, san’atni ulug‘lovchi Moniy ta’limotining ta’siri ham borga o‘xshaydi”. Zamonaviy, balki, yosh kitobxonga bu izoh nimani ham berishi mumkin? Bir necha satrlardan keyin asosiy satrlar boshlanadi:

“Kim qilib me’roji vahdatqa guzar,
Li ma ollo sirridin bergay xabar”

Bu yerda, “Li ma ollo” siri – Xudo bilan qalban doimo birga bo‘lish siri haqida gapirilmoqda. Dengiz – e’tiqodli inson. E’tiqodli

inson mohiyati nimadan tashkil topadi? Xudoga bo‘lgan ishonchdan – iymondan tashkil topadi. Siz Ollohga, uning farishtalariga, payg‘ambarlariga, qiyomat kuniga ishonasiz. Mana e’tiqodning mohiyati. Agar e’tiqod o‘rniga boshqa narsa bo‘lganida edi, bu endi iymon keltirgan inson bo‘lmasdi, xuddi suv o‘rnida mayda toshlar bo‘lganida dengiz emas, tosh-shag‘al to‘la ulkan chuqurlik bo‘lgani kabi.

“Haq vujudi bahri mavj etqay ayon,
Mavj naqshidin tengizga ne ziyon”.

“Haq” so‘zining bu yerda “haqiqat” ma’nosida emas, “Parvardigor” ma’nosida kelayotganini hech qiyinchiliksiz anglab olish mumkin. Gap Parvardigor pokligi to‘g‘risida ketayotgan ekan, bundan kelib chiqadiki, o‘zida Xudoning sifatlarini aks ettirgan inson pokligi haqida ham ketmoqda. Xoliq Alloh vujudi yuzaga keltirgan mavjlar yoki ushbu vujud haqida fikrlashga, ularni anglashga, qandaydir talqin qilishga biz, maxluqlar ojizmiz. Lekin bir qarashda kamolotga yetgan bo‘lsa-da, pok emasdek tuyulayotgan insonning pokligi haqida fikr yurita olamiz. Inson vujudi nimadan iborat? Inson, o‘zining fazilatlari va qusurlari bilan mavjud bo‘lgan, ruhoniyati Xudodan va qonida shayton kezib yurgan, umuman aytganda, Parvardigorning xohishi va irodasi bilan shunday bunyod bo‘lgan banda. Va albatta, bunday vujud – mohiyat insonni junbushga keltiradi (mavj). Lekin to‘lqinlar tug‘yonidan, haqiqatda ham, dengizga hech qanday ziyon yetmaydi – u dengiz bo‘lmasdan qolmaydi. E’tiqodli odam, uning miyasi qanchalik g‘alati ajabtovurliklarni xayol qilmasin, aylantirmasin, iymonsiz bo‘lib qolmaydi. To‘lqinlar mavji – inson miyasining g‘alati faoliyati bo‘lib, inson mohiyatidan kelib chiqadi. Bundan bizning iymon-e’tiqodimiz zarar ko‘rmaydi, ya’ni hech qanday fojia sodir bo‘lmaydi. Dengiz mavj urgani bilan dengiz bo‘lmasdan qolmaydi. “Suv vujudidin tengiz bo‘ldi tengiz” – ya’ni iymonli odam o‘zidagi iymon tufayli iymonga ega bo‘ladi, xuddi dengiz o‘zida suv mavjudligi tufayli dengiz bo‘lgani kabi. “Bo‘lsa ul gar mavjluq, gar mavjsiz” – bundan kelib chiqadiki, e’tiqodli inson xoh osuda-tinch holatda bo‘lsin, xoh miyasining g‘alati faoliyati bois qalbida ziddiyatlar junbushga kelgan holatda bo‘lsin, iymonini yo‘qotmaydi.

Suvdin ayru mavjqa yo‘qtur vujud,
Bahr iladur mavjqa budu nabud [Alisher Navoiy, 1991].

Muqaddas javharga qarshi yo‘naltirilgan vasvasalar faqatgina mana shu javharga – iymonga ega kishilardagina bo‘lmog‘i mumkin. Agar iymon bo‘lmasa, qanday qilib iymonga qutqu solgan vasvasalar bo‘lmog‘i mumkin? Ya’ni “Suvdin ayru mavjqa yo‘qtur vujud”. Hattoki, ular iymon belgilaridir degan bo‘lardim. Xuddi mavj suv mavjudligining belgisi bo‘lgani kabidir. Bu haqda quyidagi hadis bor: “Shahr ibn Xaushab aytdi: Men va mening onam tomonidan amakim ikkalamiz Oyshanikiga bordik va amakim aytdi: “Ba’zida qalbimizda shunday narsa sodir bo‘ladiki, ularni tilimizga chiqarsak, u dunyodan butkul umidimizni uzishga to‘g‘ri kelardi. Agarda u ish oshkor bo‘lsa, bizlarni albatta o‘ldirgan bo‘lardilar”. Oysha uch marta takbir aytib, dedi: “Rasulullohdan u haqida so‘ralgan edi va u aytdi: “Kimda shunday holat ro‘y bersa, uch marta takbir aytsin. Bunday holat faqat iymoni bor insonda sodir bo‘ladi” [Imom Buxoriy, 2009]. Demak, bunday vasvasalar iymon mavjudligining belgisidir. Haqiqatdan ham iymon-e’tiqoddan butkul mosuvo odamning qalbiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri: “O‘g‘irla! O‘ldir! Alda!” kabi vasvasalar yog‘diriladi xolos. Va iymonsiz odam bu vasvasalarni amalga oshirishi juda ham oson, ayniqsa, bandalardan guvohi bo‘lmasa yoki iymonsizda “bu ish oshkoraligidan yiroq” degan fikr foyda bo‘lsa.

Tahlilda davom etamiz: “Sendin o‘zga yo‘q, nekim mavjud erur” . Ya’ni o‘zingdagi har qanday narsani faqat o‘zing yaratasan. Dunyo bo‘lsa bo‘m-bo‘sh sahna. Mana shu yerda qadimgi Xitoy falsafasining asosiy qarashlaridan biri xotiramga keldi: “Sening ichki dunyonggina haqiqiydir. Tashqi olam – xayoliy, u ichki dunyongning akslanishidir”. Bu quyidagi iborani eslatadi: “Baxtli bo‘lishni xohlaysanmi – bo‘l”. Hozir tahlil qilgan misramizdan oldin yana bitta, juda muhim qator bor edi. Biz uni vaqtinchalik tahlilga tortmay turdik, chunki tashqi olamning tarjimada murakkablashtirilgan “bo‘m-bo‘shligi”ga oydinlik kiritmay turib, bir qarashda oson bo‘lishiga qaramasdan, uni tushuntirish mushkul edi:

“Kim sen – o‘qsen har nekim maqsud erur”.

Inson o‘ziga, o‘z ichki olamiga hukmdor ekanligini tushunib yetmog‘i lozim, boshqasi yo‘q, mavjud emas! Bizning qo‘limizda

o‘z olamimiz, hayot, turmush, tashqi olamni ayblash nojoiz. Bular barchasi behuda narsalar (bo‘sh sahna ma’nosida ham, “foydasiz” degan mazmunda ham). Inson – o‘q, u o‘ziga o‘zi maqsadni tanlay oladi, ya’ni kishanlar (behuda gunohkorlik tuyg‘usi) yo‘q bo‘lar ekan, u ozoddir.

Borliq uqubatlari bizning mohiyatimizdandir. Biz endi to‘g‘ri yo‘nalishga ega bo‘lgach, ya’ni yaratilgan barcha narsadan maqsad inson ekanligiga imon keltirgach, nimani istamoqchi bo‘lsak faqat o‘zimizdan istashimiz lozimligini tushunib yetamiz!

“Turfa qushsen ravza noxlistonidin,
Pok toyirsen sharaf bo‘stonidin” [Alisher Navoiy, 1991].

Navoiy oldindan bizga gunohlarimiz yo‘qligini tushuntirar va ozodligimiz hamda kuchimizni ko‘rsatar ekan, pokligimizga diqqat qaratadi. Mana “Baribir gunohimiz bordir?” savoliga uzil-kesil javob. Mana men asosiy deganim misralarni ham tahlil qildik. Bundan keyingi qatorlarda ham tavsiya beruvchi va ogohlantiruvchi qimmatli ma’lumotlar bor. Lekin har narsaning o‘z vaqti bo‘ladi. Hozir esa...

Lek Simurg‘ istagan ul jam’i tayr,
Kim suluk ichra riyozat birla sayr –
Aylabon chun o‘zni qobil qildilar,
Ul talabdin vasl hosil qildilar.
Senda ham bilquvva ul mavjud erur,
Fe’lga kelsa davo maqsud erur.
Qobil etmay o‘zni gar qil avji so‘z.
Zohir etsang dor ila solmoqqa tuz.
Kimki bu ma’nidin ogoh o‘ldi bil,
Kim kesildi onga so‘z ayturg‘a til.
Onglokim so‘z o‘zga, ma’ni o‘zgadur,
Ma’ni ongmos, shog‘il ulkim so‘zgadur [Alisher Navoiy, 1991].

Navoiy bu yerda yana bir bora Yaratgan bilan aloqa iymon va e’tiqod orqali amalga oshirilishini ta’kidlaydi. Bu muloqotda so‘zlarga o‘rin yo‘q. Na so‘zlar, na qandaydir turtkilar yoki shaytoni-la’inning ochiq-oshkora hiyla-nayranglari hisobga olinmaydi. Banda Yaratgan Egamdan biror aniq narsa haqida so‘rashi boshqa gap. Lekin bu yerda gap Xudo bilan doimiy, ko‘rinmas bog‘liqlik

haqida, e’tiqod haqida. Bu aloqa hech narsa bilan bulg‘anishi mumkin emasligi haqida bormoqda. E’tiqod yoki bor yoki u yo‘q. Yoki dengiz yoki shag‘al tosh. E’tiqodni, O‘ziga bo‘lgan ishq bilan barobar, Yaratgan insondagi eng muqaddas joyga qo‘yadi, qayerdaki, miyaning an’anaviy belgilariga bu yerda o‘rin yo‘q! Qur’onda (8:24) shunday deyilgan: “Yana bilib qo‘yingizki, Alloh inson bilan uning dili (o‘rtasi)da “parda” bo‘lib turadi va Uning (huzurida) jamuljam bo‘lursiz” [Abdulaziz Mansur, 2004]. Sayid Sobiq “Islom dunyoqarashi” kitobida yozadi: “Xudoga bo‘lgan ishonch, e’tiqod inson va yaratgan o‘rtasidagi oliy aloqadir**.** Axir yerdagi eng mukarram zot – inson, insondagi eng qimmatli narsa – ko‘ngil, ko‘ngildagi eng qimmatbaho narsa – e’tiqod” [Sayid Sabik, 2002]. Alloh Taoloning o‘zi ham, undan keyingi bilimlar sohiblari ham miyani e’tiqod, iymon makoni sifatida ko‘rsatmaganlar. Miya – qurilma, Olloh yaratgan mo‘jiza, Yaratganni tanish va hayot yo‘lini topish uchun kerak bo‘ladigan qudratli asbob. Va bizning burchimiz – uni o‘z vazifasiga binoan ishlatish. Ichki ziddiyat, miyani Xudo buyurgan vazifasidan chalg‘itish, “turtkilar” bilan bekor ovora bo‘lish – shaytonni shod qilishdan boshqa narsa emas. Lekin biz bu savdo hayotimizni qanchalik zaharlashi mumkinligini yaxshi bilamiz.

Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626) shunday deydi: “Tabiatga bo‘ysunib, uni bo‘ysundirmoq osonroqdir” [Bekon, 1978]. To‘g‘ri kelgan gapni gapirmoq, past-u baland so‘z aytmoq – shaytoni la’inning qutqusiga uchib, u bilan jangga kirmoq deganidir. Xudo haqida, uning bizga beradigan inoyati va himoyasi haqida unutib, faqat o‘ziga, o‘zining ahmoqona manmanligiga, yasama mardligi – uddaburonligini ko‘z-ko‘z qila olishiga ishonib, egiluvchan bo‘lish o‘rniga g‘azabini bosa olmasdan shaytonga “zarbalar” yog‘dirish nafaqat befoyda mashg‘ulot, balki xatarli ham – ba’zida o‘ziga suiqasd qilishgacha ham olib kelishi mumkin. Shayton bilan jangga kirishish – haqiqiy URUSh, inson o‘ziga ortiqcha tuyulayotgan qismini, miyasidagi “o‘sma”ni yulib tashlashga urina boshlaydi (miyamizning faoliyat mexanizmini-ya?), bu insonning mohiyatidir. Uning tarkibiy qismlarini yana sanab o‘tirish shart emas deb o‘ylayman. Bunday jangchi urushni o‘zini osib o‘ldirish bilan yakunlaydi, – ogohlantiradi Navoiy.

Qush tilini tushunganlar g‘aflatdagilarning ongiga asosiy sirni yetkazish (uni batamom “davolash”) maqsadida og‘ziga kelganini gapirishga oshiqadi: “Tushun, bu hammasi hech narsa emas! Agar, hattoki, Xudoning o‘zi kechirsin, miyangga quyidagi narsa kelsa ham: ... ”. Xuddi shu ko‘p nuqta o‘rnidagi so‘zlarning yangrashidan bizni ogoh qilmoqda Hazrat Navoiy! Ko‘rib turganingizdek, men ham ehtiyotkorman. Navoiy lutf qilganidek, “bezabonlar tilidan” foydalanyapman.

“Men deb istig‘for qildim, yo iloh,
Oytmas so‘zdin sanga qildim panoh”.

Izoh shart emas – bu so‘zlar Navoiy ogohlantirmoqchi bo‘lgan xatar haqidagi mening farazimni tasdiqlaydi. Navoiyning o‘zi “qushlar tili”ni tanladi, o‘xshatishlardan foydalandi, lekin bu mistik bilimlarni an’anaviy tarzda yashirish uchun emas, balki shu bilan teng ravishda (hatto ko‘proq ham bo‘lishi mumkin) Yaratgan Egamdan qo‘rqqani bois, xavfli tushuntirishlardan qochib “aytib bo‘lmaydigan” so‘zlarni aytmadi. Va Navoiy “tilsizlar tili” – qushlar tilidan dohiyona foydalana bildi.

Parvardigori olam quyidagi ogohlantiruvchi so‘zlarni aytgan: “Ichingizdagi narsani oshkora qilsangiz yoki yashirsangiz ham, Alloh sizlarni u bilan hisob-kitob qilur. So‘ngra O‘zi xohlagan kishini mag‘firat qilib, O‘zi xohlagan kishini azoblar. Alloh hamma narsaga qodirdir” (Qur’on. 2:284). Yashirin gunohlarga quyidagilar kiradi: begunoh insondan gumon qilish, hasad, senga yomon bo‘lgani uchun yoki iztirob chekkaning bois, kulfat chetlab o‘tgan yaqiningga yomonlik tilash, ongli ravishda ayollarga hirs bilan nazar solish kabilar. Men bekorga “ongli ravishda” so‘zlarini ishlatganim yo‘q. Shaytonning qutqusi bilan bo‘lsin, yoki nafsdan bo‘lsin, ixtiyorsiz ravishda sodir bo‘lgan hodisaga biz javobgar emasmiz. Nafsning o‘zi gunoh emas (yeyish-ichish, uxlash gunoh bo‘lmagani kabi). Fojia biz o‘z nafsimizning quliga aylanganimizda, yoki barcha qilmishlarimizni shaytonga ag‘darib (haqiqatan ham aynan u sababchi bo‘lishi ham mumkin), uning nog‘orasiga o‘ynaganimizda boshlanadi. Ko‘pchilik esa butunlay yo‘ldan ozadi, ichki betartiblikka, boshboshdoqlikka bemalol yo‘l qo‘yib beradi, va ichki turtkilarga e’tibor bermaslik o‘rniga, ularni

ong ostining barcha puchmoqlaridan tutib chiqadilar (xoh ular islom dinshunosligida “vasvasa” deb ataluvchi shaytoniy qutqular tufayli bo‘lsin, xoh “xavajis” deb ataluvchi o‘z nafsining talabi bilan bo‘lsin), va ongli ravishda ulardan huzurlanadilar – bemalol buni shaytonga to‘nkash mumkin axir! Navoiy, albatta, bu muhim jihatni ham nazardan qochirmagan, dostonning asosiy bobigacha bo‘lgan qismida o‘quvchining ongini uqishga tayyorlab ochiq, parda bilan yashirilmagan matn orqali o‘rgata borib, bir rivoyat keltirgan: talaba pir oldiga kelib, kundalik turmushda ham jonidan to‘ydirgan, ibodat qilishga ham doimiy ravishda halaqit berib kelayotgan la’inning hiyla-nayranglaridan shikoyat qilibdi. Shunda pir talabaga undan oldin shayton kelib ketganligini, ustozga shu qadar gunohga botgan, axloqsiz, xayollarining buzuqligi bobida shaytonga ham dars bera oladigan, oldida o‘sha shayton ham begunoh norasidaga aylanib qoladigan shogirdni tarbiyalab yetishtirgani uchun tashakkur bildirganini aytibdi. Asosiy satrlar bayon qilingan bobdan so‘ng kelgan rivoyatlar boshqa ko‘plab rivoyatlar kabi dostonning javhari bo‘lgan haqiqatni tasdiqlaydi. Shu jumladan eng yirik qissa – Shayx San’on qissasi ham. Nima uchun Navoiy, Farididdin Attor kabi, bu qissaga shunchalik ko‘p sahifa bag‘ishladi? Axir dostonda yana boshqa ko‘plab teran mazmunli, hajman kichik bo‘lishiga qaramasdan g‘oyalar yangiligi bilan diqqatni tortuvchi hikoyatlar kam emas. Lekin mana shu eng katta hikoyat bizning fikratimizga ma’lum yo‘nalish beruvchi, ongimizni asosiy g‘oyaga tayyorlovchi baland bir mayoq emasmi? Shayx San’on qanday qilmishlar sodir etmasin, qanchalik g‘azabga sazovor, dahriyona ishlarni amalga oshirmasin – yuragidagi muhabbati bilan shunchalik ulug‘vor va muqaddas bo‘lib qolaveradi. So‘fiylar asarlarida ma’shuqaga bo‘lgan ehtiros ortida nima yashiringanini bilish uchun katta mutaxassis bo‘lish shart emas. Albatta u - Allohga bo‘lgan ishq! Shayxning barcha kurakda turmaydigan ishlari esa - vasvasaning ramziy timsoli xolos! Buni isbotlash uchun Farididdin Attorning “Mantiqut tayr”iga murojaat qilamiz. Dostonda, Shayx San’on may ichish, butga sajda qilish, cho‘chqa boqish kabi barcha jirkanch sinovlardan o‘tib bo‘lgan joyida, Farididdin Attor juda aniq izoh beradi: “Sen bu ish faqat Shayx San’on boshiga tushgan, deb gumondasan. Lekin

bu xatar har bir kishi ichida bor. U har zamon boshini chiqarib, odam bolasini bezovta etadi. Agar sen o‘zingdagi cho‘chqadan ogoh bo‘lmasang, tariqat yo‘liga kirgan solik emassan, meni ma’zur tut. Ey mard, agar tariqatga qadam qo‘ymoqchi ekansan, bu yo‘ldagi butlar, cho‘chqalar kabi ming turli balolardan qo‘rqma” [Farididdin Attor, 2006]. Farididdin Attorning ushbu, o‘zi bergan izohiga qaramasdan, “Mantiq ut-tayr” kitobining ilovasida Shayx San’on qissasi kitobxonga bu holda tushuntiriladi: “Shayx San’on qissasi - F.Attor va A.Navoiy asarlarining eng go‘zal sahifalarini tashkil etadi. Mazkur qissada - vujudiy va ruhiy go‘zallikning ilohiy, muqaddas ekanligi, oshiq uchun barcha din va mazhablarning farqi yo‘qligi, ishqning xalqaro va dinlararo ahillik va do‘stlik sababchisi ekanligi tasvirlanadi”. Lekin qissada so‘z vujudiy va ruhiy go‘zalliklar, ikki kishi orasidagi sevgi haqida emas, Allohga bo‘lgan ishq haqida borayotganini, hech bo‘lmasa, Shayxning tarso qiziga “Sen bilan do‘zaxga borishga ham tayyorman, ammo sensiz bihisht men uchun do‘zaxdir” degan gaplaridanoq anglab bo‘lmaydimi? Shayx San’on qissasi miyamizning qilmishlarini va hatto shu qiliqlar oqibatida ham dog‘ tushmagan, qalbimizda musaffoligicha turgan iymon, e’tiqodimizni eslatmaydimi? “Har kimning miyasiga har narsa kelishi mumkin...” deya yozgan edi V.Levi. Nogahoniy xayollar – inson mohiyatida bor. Ular yo‘qolmaydi. Sizning ularga bo‘lgan, o‘zingizga bo‘lgan munosabatingiz o‘zgaradi. Nogahoniy deb atashimning sababi nainki ularning qisqaligida, balki qanchalik to‘satdan paydo bo‘lishida hamdir. Muddatiga qarab ular har xil bo‘lishi mumkin. Ular suzuvchan yoki aniq (so‘zlarda, obrazlar, ilohiyotga qarshi mantiqan “ishonchli” xulosalarda) va ko‘pincha juda, juda ham “chapani” bo‘ladi. (Navoiyda “qush tili”, men jargondan foydalanishimga to‘g‘ri keladi). Shuncha vaqtdan buyon o‘ziga xos faoliyatda bo‘lgan miyangiz bir soniyada qayta qurilib qolmaydi. Sonning (miyangizga singib borayotgan yangi nuqtai nazar bilan, yangi holatda o‘tkazayotgan kunlar, oylaringizning soni) sifatga aylanishi uchun vaqt kerak. Son esa, albatta, sifatga aylanadi. Va bu sifat sizniki bo‘ladi, axir yunon faylasufi Sinesiy aytganidek: “Aql, o‘zi uchun isbotlangan deb hisoblaydigan haqiqatlaridan hech qachon voz kechmaydi”. Hamisha yodda tuting: nogahoniy

vasvasalar butunlay, tamomila yo‘qolmaydilar, axir – “bu xom sut emgan banda”...

Vasvasaning butunlay, tamomila yo‘qolishi faqat jannatda sodir bo‘ladi, mehribon va kechirguvchi Ollohning O‘zi u makonni tadqiqot muallifi va o‘quvchisiga nasib aylagay. Siz umrimizning oxirgi kunlarigacha Allohning ruxsati bilan bizning ko‘ksimizga vasvasa solish huquqiga ega bo‘lgan la’inni unutmang. Lain qo‘ygan sirtmoqdan, Alloh bergan ilm orqali, qutulsangiz ham, oyoqlarda qolgan uning qoldiqlarini unutmang. Men bu bilan nima demoqchiman? .. Abu Ali ibn Sinoning “Qushlar” risolasida ham shu manzara kuzatiladi: baland-baland qanot qoqqan qushlar yetti vodiy ustidan uchib o‘tadilar va ularni Ulug‘ Shoh (inson erishishi mumkin bo‘lgan botiniy uyg‘unlikning eng oliy darajasi) kutib oladi. Bu risolaning boshida qondoshlari tomonidan qafasdan ozod etilgan qush – “Oyoqlarim-chi?! Nega mening oyoqlarimni tuzoq sirtmog‘ining qoldiqlaridan xalos qilmadingiz?” deydi. “Agar mumkin bo‘lganda edi, - javob berdilar ozod qushlar, - biz o‘zimizning sirtmoqlarimizdan xalos bo‘lardik. Oyoqlarimizdagi sirtmoq qoldiqlarini ko‘rmayapsanmi?” Va sayohatning oxirida Ulug‘ Shoh (parvozning oliy chegarasi) xomush tortib dedi: “Sizga tuzoqni qo‘ygan Zotning O‘zidan boshqa hech kim sizni sirtmoqlardan ozod qilolmaydi” [Saldadze, 1983]. Hattoki Najmiddin Kubro ichida “kofir” borligiga va hech qachon bu dev musulmon bo‘lmasligiga iqror bo‘ladi:

Devest daruni man ki pinhoni nest,
Bardoshtani sarash bo osoni nest.
Imonash hazor bor talqin kardam,
On kofiro sari musulmoni nest.

Ya’ni:

Ul dev ichimdadir, chu pinhon ermas,
Kim bosh ko‘tarib yurmagi oson ermas.
Iymonini ming martaba talqin qildim,
Ul kofir o‘zi, asli musulmon ermas.

Buni “Valitarosh” – pirlar tarbiyachisi Najmiddin Kubro aytyapti. “Lisonut tayr” da uning bir nigohidan hatto itdek jonivor muqaddaslik kasb etganligi hikoyasi keltirilgan Kubro shunday

demoqda. “Hidoyat” jurnalida shaytonning vasvasalari haqidagi kichkina bir maqolani uchratib qoldim. Unda misol qilib ko‘zgu keltiriladi... Va so‘raladi: “Ko‘zgudagi ilon aksi kimgadir ziyon yetkazmog‘i mumkinmi, yoki ko‘zgudagi nopokliklar tasviriga tegingan odamni shu tasvirlar bulg‘ay oladimi? Hamda shunday javob beriladi: “Albatta, yo‘q! Xuddi shuningdek iymonimiz, qalbimizda nafrat uyg‘otayotgan o‘y-fikrlar ham bizga hech qanday zarar yetkaza olmaydi”. Ya’ni: “Mavj naqshidin tengizga ne ziyon?” Endi bilimlar qalbingizga mahkam o‘rnashdi. Ammo... “Hayratul-abror”da Navoiy deydi:

“Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o‘ldi, amal aylagil” –

Navoiy, maqsading ilm edi, maqsadingga yetishding – uni amalda qo‘lla! Bu yerda Yaratganning ijodi – insondan hayratda qolgan Hazrat Nizomiy Ganjaviy so‘zlarini eslash ayni muddao, va shuning uchun F.Sulaymonovaning “Aql va tafakkur kuchi” risolasidagi Nizomiy haqidagi bobidan keltiramiz:

On ba gavhar ham gadar ham safiy,
Ham mahak, ham zaru, ham sayrafiy.
(Inson tabiatan ham loyqa, ham toza,
U ham mahak, ham oltin, ham zargar).

... Agar inson yaramas intilishlar – xasislik, ochko‘zlik, xudbinlik, kibrlilik, aysh-ishratdan ong kuchi yordamida o‘z xohishi bilan voz kecha olsa, u farishtalardan ham yuqori ko‘tarilishi mumkin:

Odamim raf’ei malak mikunam,
Da’vo azon suyi falak mikunam.
(Men insonman, farishtani tan olmayman,
Osmonga ko‘tarilib azon aytmoqni da’vo qilaman) [Sulaymonova, 1991].

Navoiy kitobining yakuniy qismida (“Xamsa” hamda boshqa asarlari bilan o‘ziga naqadar yuksak, qo‘l yetmas yodgorlik tiklaganini anglagan va iqror bo‘lgan holda) umr shoshib o‘tayotgani, ko‘nglidagi ulkan orzusi bo‘lgan kitobi hamon yozilmagani va yozilmay qolishi mumkinligi, ushalmagan orzuning og‘ir yuki – armon bilan boqiy dunyoga rixlat qilishi ehtimoli haqidagi fikr unga doimo tinchlik bermay kelganligi to‘g‘risida gapiradi. Bu asar “birgina kun” (o‘rta

asrlar) da mavjud muammolar yoki faqat sanoqlilargina oxirigacha tura olgan, Xudo jamoliga muyassar bo‘lish orzusi yo‘lida yurgan bir hovuch odamlarning tor doirasi uchungina mo‘ljallangan bo‘lganida yoki bolalar uchun yozilgan chiroyli ertak bo‘lganida, hazrat bu qadar qayg‘uga botarmidi? Shu mazmundagi “Mantiq ut-tayr” ham, sufiylar uchun qo‘llanma bo‘lganida, o‘z vaqtida, yosh Alisherga nima bera olgan bo‘lardi? Bu bitiklar qo‘llanma emas, ular – biz yetib bora olmaydigan yuksakliklarda bo‘lgan, diydor sharafiga vosil bo‘lganlarning hisobotidir. Bu hisobotlarida ulug‘larimiz, ko‘plab sabablarga ko‘ra, o‘zlari yetishgan haqiqatlar haqida ochiq matn bilan ma’lum qila olmaydilar, lekin biz, yerdagi – “sudralish uchun tug‘ilgan” mavjudotlarga azbaroyi yordam bergilari kelganidan, haqiqiy dard chekkanlarga mo‘ljallangan tilni kashf qildilar. Shu kunlarda adabiyotshunoslar orasida “Lison ut-tayr” bolalar uchun yozilgan asar, degan ko‘z qarash ham mavjud bo‘lib qoldi. Bunga sabab Navoyi “Mantik ut-tayr”ni yoshligidan sevib o‘qigani bo‘lsa kerak. Lekin ushbu yosh bola, o‘z zomonining yosh bolasi, Qur’onni yod bilgan, hadislardan boxabar va ustiga-ustak yuksak iste’dodli yosh bola ekanligi nazarga olinmaydi. “Lison ut-tayr” sufiylar uchun yozilgan qo‘llanma emas, lekin asarni bu darajada kamsitish ham katta xatoga yo‘l qo‘ymoqdir.

Maqolamizda keltirilgan buyuklarning so‘zlari qudrati bilan birgina odam o‘z qalbida osoyishtalik va uyg‘unlikka erishsa, o‘zini va Egasini tanisa, biz o‘zimizni behad baxtiyor his qilardik. Axir, bir odam ham – bu butun bir olam, butun bir borliq! Bu haqida o‘z so‘zlarimiz bilan quyidagini aytishni xohlar edik:

Bu ne hol? Inson g‘amda – g‘amda olam ko‘z ichra!
Tabassum yuzin yoritsa – olam shodon ko‘z ichra!
Balo kelsa – butkul olam, sho‘ng‘ib ikki shabnamga,
Oxirat kelganidek, titrar shu on, ko‘z ichra.

Mazkur ishimizni “Alifbei tayr” deb nomladik... Har qanday alifbo singari u ham hajman kichkina. Ammo yupqagina alifbeni o‘rganmay turib, qalin-qalin kitoblarni o‘qish mumkin emas. Risolaning nomi ulug‘larimiz Farididdin Attor va hazrat Navoiy asarlari nomlari bilan hamohang. Bu hamohanglik yanglish tasavvur hosil qilmasligi uchun aytib qo‘ymoq lozimki, kamina ushbu buyuk

mardlarga hattoki jilovdorlikka ham nomunosibman. Bu ism o‘z-o‘zidan tug‘ildi, chunki bu risola – “Lison ut-tayr” dostoni ganjinasi eshiklari kalitidir. Navoiyning Husayn Boyqaroga yozgan maktubida olti qatordan iborat masnaviysi bor. Uning mazmuni shuki, xazina boyliklari ko‘zni qamashtiradigan darajada bo‘lsa ham, ularga yetib borish uchun, xoh podshoh, xoh qul bo‘lsin, faqat birgina, qulfga tushadigan temir kalitni ishlatadilar [Sulton I, 1985]

Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi haqiqat Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” kitobiga asoslanadi. Bu kitobda yirik musulmon mutasavvufi va faylasufi G‘azzoliyning “Risola-at tayr” – “Qushlar haqida risola”si ta’siri aks etgan bo‘lib, u ham o‘z navbatida Ibn Sinoning “Qushlar” risolasiga tayanadi. Daholar asarlarini vaqt yenga olmaydi, ular hamisha dolzarb.

Tadqiqotni yakunlagach, “Lison ut-tayr” ning Sergey Ivanov tarjimasidagi qisqartirilmagan to‘liq variantini o‘qib qoldim. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, S.N.Ivanov ilovada yozadi: “Alisher Navoiyning poetik merosini rus tiliga o‘girgan mutarjimlar tarjimalari tadqiq etilgan ishlar adabiyotda hamon yo‘q” [Navoi, 1993]. Ilovaning birinchi qismida A.N.Malexova “Qushlar tili”ni sharhlashga (faqatgina shaxsiy taxminlariga asoslangan alfozda) urinadi, o‘zining bu urinishida u Navoiy o‘z hayoti, ijodini qushlar tili bilan bayon qilganligini, asardagi so‘fizm asoslari esa bor-yo‘g‘i an’analarga sodiqlikdan boshqa narsa emasligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Buyuk Navoiyning hayoti yoki ijodida qanday jumboq bo‘lishi mumkinki, unga “qush tili” – majoziy til zarur bo‘lib qoldi? Axir buyuk dahoning hayoti va ijodi barchaga kaftdagidek ayon emasmidi? Axir Navoiyning o‘zi “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “Lison ut-tayr” botiniy ilm sirlari haqida ekanligini aytmaganmidi? Nostradamus (jumboqli katrenlarida emas, kitobining muqaddimasida ochiq matn bilan) “Lison ut- tayr”da yashiringan ushbu haqiqat haqida yozgan emasmikan? - “Shunday bo‘ladiki, Yaratganning xohish-irodasi butunlay qaror topadi, uning istagiga qarshi turuvchi hech qanday kuch topilmaydi, shuurda sodir bo‘layotgan qarama-qarshiliklar tufayli sog‘lom tafakkur tantana qiladiki, u eng avvalo, o‘ziga Muhammad ta’limotidan tayanch topgusidir” [Nostradamus, 1555]. Nostradamus nutqidagi oldingi so‘zlarni o‘qir ekanman,

ularni tasdiqlab bir oyatni keltirgim kelar: “Alloh odamlar uchun qaysi bir rahmatni ochib (ravona qilib) qo‘ysa, bas, uni tutib qoluvchi bo‘lmas va nimani tutib qolsa, bas, Undan so‘ng uni (bandalarga) yuboruvchi bo‘lmas. U (buyuk) qudrat va (cheksiz ilmu) hikmat egasidir” (Qur’on. 35 : 2).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Т., 1991.
2. Петрушевский И.П. Ислам в Иране. –Л., 1966.
3. Имам ал-Бухари. Ал-адаб ал-муфрад. – Москва, 2009.
4. Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. –Т.: Тошкент ислом университети НМБ, 2004.
5. Сайид Сабик. Исламское мировозрение. – Бишкек, 2002.
6. Френсис Бэкон. Слово о науке. – Москва: Знание, 1978.
7. Фаридиддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. – Т., 2006.
8. Салдадзе Л.Г. Ибн Сино. Авиценна. – Т.: Матбуот, 1983.
9. Сулаймонова Ф. Ақл ва тафаккур кучи. – Т.: Фан, 1991.
10. Султон И. Книга признаний Навои. – Т.: Гафур Гулям, 1985.
11. Навои Алишер. Язык птиц. – Санкт-Петербург: Наука, 1993.
12. Нострадамус. Ўғлим Цезарга муқаддима. Салон, 1555.

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA MUNOJOT TALQINI

INTERPRETATION OF SUPPLICATION TO ALLAH (MUNOJOT)IN THE EPIC POEM “FARHOD AND SHIRIN”

Zilola AMONOVA
Lobar SHOKIROVA
Buxoro davlat universiteti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy ijodida alohida o‘rin egallaydigan “Xamsa” dostonlaridan “Farhod va Shirin” tarkibidagi munojot bobi g‘oyayaviy-badiiy tahlilga tortilgan. Tahlil davomida misralarda keltirilgan fikrlarning manbalari, ya’ni Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, tasavvuf ta’limoti bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *munojot, doston, badiiy mahorat, talmeh, “Xamsa”, “Farhod va Shirin”.*

Annotation

The article deals with the ideological and artistic analysis of the prayer charter “Farhod and Shirin” from the epic “Khamsa”, wich has a spesial place in the works of Alisher Navoi. The analysis focuses on the sources of the verses, such as the Qur’an, the Hadith, and the teachings of Sufism.

Key words: *prayer, epic, art, talmeh, “Khamsa”, “Farhod and Shirin”.*

Turkiy xalqlar adabiyoti uzoq tarixga ega bo‘lgan ma’naviy xazinadir. Mazkur adabiyotning mavzular olami har bir davrda taraqqiy etib, kengaya bordi. Jumladan, islomgacha bo‘lgan davr adabiyotida tangriga bo‘lgan iltijolarning berilishiga, inson ko‘ngli tub-tubidagi tuyg‘ularning bayoniga ayricha urg‘u berilgan. “Ana shu hodisa moniylik davri adabiyotida, yozma adabiy tilda o‘ziga yarasha “Tangriga iltijo uslubi”ning yuzaga keluvini ta’minlab berdi”

[4,104]. Keyinchalik islom dinining shakllanishi va taraqqiy etishi natijasida turkiy xalqlar adabiyotida ham islomiy qarashlar va g‘oyalar o‘z ifodasini topa bordi. Mazkur holatni Sharq mumtoz adabiyoti va kitobatchilik tarixida ham ko‘rish mumkin. Kitobatchilikning shakllanishi kitob yaratish maxsus qoidalarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Bunda, albatta, odobi tasnifga rioya qilingan. Odobi tasnif – asarning boshlanish qismida barqarorlashib qolgan tarkibiy qismlari: Unvon, basmala, hamd, munojot, na’t, choryorlar vasfi, muqaddima (ammo ba’d..., asarning yozilish sababi), asar matni (asosiy matn), xotima, tammat. Bu qismlar har bir asarda, albatta, bo‘lishi kerak, degan gap emas. Ammo asarga kiritilgan qismlar shu tartibda bo‘ladi.(6, 126). An’anaviy kirish boblaridan biri bo‘lgan munojot asarlarda *basmala* va *na’tdan* keyin keladigan, Ollohga murojaat tarzida yozilgan qismdir. Ta’kidlash joizki, islom davrida yaratilgan munojotlar uslubida ham qadimgi turkiy til davrida yaratilgan an’ananing epkinlarini kuzatish mumkin” [4,104]. Demak, islom dini ta’siri natijasida maxsus an’ana shakllandi. Ya’ni yaratilgan ilmiy va badiiy asarlar basmala, hamd, na’t, bag‘ishlov kabi kirish qismi boblari bilan boshlandi. Bu holat maxsus an’anaga aylandiki, mumtoz adabiyotimizda yaratilgan barcha asarlarda o‘z ifodasini topdi. Jumladan, Alisher Navoiyning har bir asarida ushbu an’anaga qat’iy amal qilinganligini ko‘rish mumkin. “Xamsa” asari tarkibiga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostoni ham hamd va munojot boblari bilan boshlanadi. Asarning birinchi bobi Alloh hamdiga, ikkinchi bobi Alloh sifatlariga, uchinchi bobi munojot talqiniga bag‘ishlanadi:

Ilohiy, andakim yo‘q erdi budum,
Adam uyqusida erdi vujudim [1, 8].

Munojot arabcha “yalinish, yolvorish” ma’nolarini anglatadi. Mazkur bobda Navoiyning Allohga munojoti, qalb izhori berilgan. Munojotning ilk baytida shoir Ilohga murojaat qilib, inson yaratilishidan oldin uning vujudi (bud – borliq, mavjudlik, vujud) yo‘qlik olami (adam) da uyquda ekanligini ta’kidlaydi. Navoiy baytda nido (Ilohiy), tazod san’ati (budum va adam) imkoniyatlaridan foydalanib, fikr ta’sirchanligiga erishadi. Shoir inson vujudining adam olamidagi holati tasvirini keyingi baytda ham davom ettiradi:

Ne ruhum gulshanidin dard raydo,
Ne jismim tufrog‘idin gard raydo.

Navoiy ruh latofati ifodasi uchun gulshan istiorasini qollaydi. Jismning tuproqdan yaratilishiga ishora qilib, jismim tufrog‘i birikmasini qo‘llaydi. Shoir inson vujudan yaratilmagan paytida uning na ruhi gulshanida dard raydo (paydo) bo‘lganligini, na jismida gard raydo (paydo) bo‘lganligini ta’kidlaydi. Ya’ni inson yo‘qlik olamida ekanida ruhi ham, jismi ham hamma narsadan ozod, tinch bo‘lganligi haqidagi mulohazalar bayoni beriladi. Shoir baytda bir-biriga yaqin so‘zlarni qo‘llash orqali tanosub she’riy san’atining (ruh – jism, tufrog‘ - gard) go‘zal namunasini yaratgan. Navoiy yo‘qlik olami tasviri haqidagi mulohazalarni navbatdagi baytda ham davom ettiradi:

Vujudimda anosir band tormay,
Tanim ichra so‘ngak rayvand tormay.

Ya’ni inson yo‘qlik olamida ekan, hali vujudida to‘rt unsur – havo, suv, tuproq, olov birlashmagan edi. Ma’lumki, odam tanasi suyaklardan tashkil topgan, ammo u yo‘qlik makonida ekan, tanasida suyaklar birlashmagan, payvandlanmagan edi. Shoir o‘z mulohazalarini badiiy asoslash uchun tanosub (“vujud” – “tan”) san’atidan foydalangan. Alisher Navoiy yo‘qlik olamidagi holatini tasvirlashni davom ettiradi:

O‘tumda yo‘q tiriklik mehri tobi,
Suyum yo‘qluk biyoboni sarobi

Adamda insondagi o‘tda, alangada tiriklik mehri, tiriklik harorati yo‘q edi. U yerdagi suv esa, hech narsasi mavjud bo‘lmagan biyobondagi sarobga, ya’ni aldamchi xayolotga o‘xshaydi. Hazrat Navoiy har bir baytda yo‘qlik va borliqdagi holat zidlanishlarini aytib o‘tish bilan birgalikda, ularni she’riy san’atlar yordamida yanada aniqroq dalillagan. Masalan, shu baytda ham “o‘t” – “suy”, “tiriklik” – “yo‘luk” so‘zlari orasidagi zidlanishlar ham bu farqlarni yanada aniqroq ochib bergan. Keyingi baytga e’tibor qaratsak:

Bo‘lunmay tufrog‘im gardi fanodin,
Nasime yo‘q vujudimda havodin.

Yo‘qlik makonida ham, inson umrining poyonida, ya’ni o‘lar chog‘ida ham tuproq changi undan ajralmaydi, mazkur holatda esa

inson vujudida havo, shamol, shabada yo‘q. Hazrat Alisher Navoiy baytdan baytga o‘tar ekan adam, ya’ni yo‘qlik olamidagi holatlar haqida yanada ko‘proq ma’lumot berib boradi. Ta’kidlash joizki, baytda yo‘qlik olamida insondan tuproq gardi ajralmasligi aytilgan. Bu orqali inson tuproqdan yaratilganligiga ham ishora qilib o‘tilgan. Shuning uchun ham inson vujudida shamol yo‘q, balki tuproq gardi bor.

Ne tan, ne tanda bosh, ne bosh aro ko‘z,
Ne yuz, ne yuzda lab, ne lab aro so‘z.

Shoir insonning yo‘qlik olamida uyquda bo‘lgan vaqtida hech bir tana a’zosi shakllanmaganligi, ya’ni tana, bosh, ko‘z, yuz, lab kabi a’zolari ham yaratilmaganligiga ishora qiladi. Hattoki, labaro chiqadigan so‘z ham bo‘lmagan. Hazrat Alisher Navoiy baytda tanosub (“tan” – “bosh” – “ko‘z” – “yuz” – “lab”) orqali o‘z fikrini yanada badiiy, yanada ta’sirchan ifodalagan. Misralarda tana a’zolari yo‘qligi, shakllanmaganligi birin-ketin aytib kelinar ekan, bayt oxirida labaro so‘z ham yaratilmaganligini ta’kidlaydi. Navbatdagi baytda ham ayni mulohazalar davom ettiriladi:

Ne jonu anda ne yuz dardi jonso‘z,
Ne ko‘ngul, ne anga ming neshi dildo‘z.

Navoiy yo‘qlikda borlik dunyosidan farqli ravishda hali jon ham, ko‘ngil ham paydo bo‘lmaganligini baytda qayd etadi. Jon va ko‘ngil bo‘lmagani sababli ularga azob beruvchi dard ham, alam ham mavjud emasligiga urg‘u beradi. Munojotning aksariyat baytlarida tazod san’ati qo‘llanilgan. Bu baytlarning ma’no- mazmunini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, ushbu baytdagi “jonso‘z” (jon o‘rtovchi, azob beruvchi), “dildo‘z” (ta’sirli, ko‘ngildan g‘amni ketkazuvchi) so‘zlari ham tazodni yuzaga keltiradi.

Inson a’zolari ichra shoh darajasiga ko‘tarilgani borki, bu – Ko‘ngildir. Unda butun olam, tafakkur va taxayyul jamul-jam bo‘lgan. Qachonki, odam vujudan yaratildi, unda ko‘ngil ham mavjudlik to‘nini kiydi. Ko‘ngil – shoh, ko‘ngil – sulton. Chunki unda ishq mujassam. Shunda ko‘ngilda ishq g‘ami, hijron qayg‘usi aks etadi. Ammo ko‘ngil yaratilmaguncha u g‘amdin ozod ekanligini Navoiy keyingi baytda zikr etadi:

Nechukkim yo‘q ko‘ngul yo‘q g‘amdin ozod,
Bo‘lub yo‘q jon dog‘i yo‘q qayg‘udin shod.

Vujud dastlab yaratilganda, unda oloyish (bulg‘anish, ifloslik, kirlik) bo‘lmay, adam (yo‘qlik) olamining kunjida(burchak) osoyish (tinchlik, orom) edi, deya Navoiy navbatdagi baytda odam yaratilishining dastlabki holatalrini bayon etadi:

Vujud ichra yo‘q oloyish alarg‘a,

Adam kunjida osoyish alarg‘a.

Navoiy yo‘qlik olamining borliq olamidan farqlarini ko‘rsatar ekan, yo‘qlik olamida yana bir muhim jihat, inson ruhi pokligini, unda ifloslik yo‘qligini ta’kidlaydi. Adamda odamning ruhi, vujudi pok bo‘lgani uchun tinch, osoyishta uyquda ekanligini zikr etadi:

Borin ul uyqudin uyg‘otting oxir,

Yig‘ibon bir-biriga qotting oxir.

Ma’lumki, inson adam olamida misli uyqudagi singari edi. Alloh taollo unga o‘zidan ilohiy ruh ato etidiki, inson uyqudan uyg‘ongandek, borliqqa nazar tashladi. Uning barcha a’zolarini bir-biriga ulab harakatga keltiradi. Ammo Ul xoliqi olam barcha yaratiqlari kabi odamga ham foniylikni qismat ayladi. Uning o‘zigina boqiy zotdir. Shoir bu orqali Qur’oni Karimda keltirilgan fikrlarga ishora qiladi.

Yo‘qlik olamida inson ruhsiz jasad – jonsiz tana holida edi. Chunki uni hali Haq taollo ilohiy ruh bilan uyg‘otmagan, tiriltirmagandi. Shuning uchun odamda “rasmu roye” (rasm-qoida), “muddaoye” yo‘q edi. Navoiy navbatdagi baytda ana shu jihatlarga e’tibor qaratadi:

Bu yo‘qlarg‘a yo‘q erdi rasmu roye,

Ne imkon xudkim o‘lg‘ay muddaoye.

Haq taollo – ulug‘ hikmat egasi. Uning qudrati bilan inson yaraldi. Alloh taollo “O‘kush hikmat bila” (ko‘p, ancha, talay hikmat bila) inson a’zolarini “rayvand qildi” (payvandladi):

Borisin bir-biriga band qilding,

O‘kush hikmat bila rayvand qilding.

Barchani yaratuvchi zot insonlarni ko‘p hikmat bilan yaratdi. Alloh buyuk yaratuvchilik qudrati bilan insonga ruh bag‘ishladi. Ya’ni Odam yaraldi. Albatta, bunda katta hikmat bor. Chunki Alloh hech narsani behikmat yaratgan emas. Insonni yaratishidan ham ulug‘ maqsadi bor edi:

O‘zung surdung raqam torqoch bu noma,
Shaqiy yoxud said erkonga xoma.

Iloh insonlarni yaratib, ularning taqdirini ham bitdi. Har bir odamning “shaqiy” (baxtsiz, gunohkor) yoki “said” (baxtli, baxtiyor) bo‘lishini uning “raqam”ida (taqdirida) yozganligini shoir ta’kidlaydi. Darhaqiqat, taqdiri ilohiy, uni bitish ham, o‘zgartirish ham faqat O‘zining izmida. Zero, Qur’oni Karimda: “Albatta, Biz har bir narsani qadar ila yaratdik”, - deya marhamat qilinadi. Shuning uchun ham insonlar orasida “taqdirda bori bo‘ladi” degan ibora yuradi. Navoiy ayni masalalar mohiyatini yoritishda tazod (shaqiy, said), tanosub (sur, xoma) san’atlarining imkoniyatidan o‘rinli foydalangan.

Alloh taollo o‘zining yaratuvchilik qudrati orqali inson tanasiga ruhni kirgizib, unga jon ato etdi. Uning taqdirini bitdi. Ammo odamni ojiz va notavon qilib yaratdi. Ya’ni yuksak qudrat sohibi Alloh insonga “tuman ming ajz birla notavonlik”ni nasib ayladi:

Nasib etting ani qilg‘onda jonliq,
Tuman ming ajz birla notavonlik.

Shuning uchun insonda “tuman ming ajz” (o‘n minglab ojizliklar va notavonlik) lar mavjud. Navoiy har bir baytda Alloh qudratini, uning yuksakligini ta’kidlar ekan, navbatdagi baytda ham hatto “Rahm ichra g‘izo” bachadonda yegulik, taom, rizq beruvchi ham ul qodir Alloh ekanligiga urg‘u beradi:

Rahm ichra g‘izo ham ulki ma’lum,
Havoyi dilkusho ham ulki ma’lum.

Olloh shunday qudratli Zotki, u turfa mo‘jizalar bilan odamni yo‘qlik olamidan borliqqa chiqaradi. Insonni dastlab rahm (bachadon) da paydo qildi. Yaratganning qudrati bilan odamni rizqlantirdi. Darhaqiqat, Olloh karami cheksiz Zotdir. Navoiy ayni mulohazalar orqali Qur’oni Karimning “Haj” surasidagi 5 –oyati karimasi “... Biz sizga bayon qilishimiz uchun sizlarni tuproqdan, so‘ngra nutfadan, so‘ngra alaqadan, so‘ngra bitgan-bitmagan bir chaynam go‘shtdan yaratdik. Va bachadonlarda xohlagan narsamizni ma’lum muddatgacha qaror toptiramiz...”ga ishora qiladi.

Shoir insonning dunyoga kelishi og‘ir mashaqqatli jarayon ekanligini, Haq taolo shu holatda ham o‘z marhamati ila odamni

“yuz tuman ishkanja aylab” (yu ming qiyinchiliklar) yorug‘ olamga keltirilishi bilan bog‘liq mulohazalarni keyingi baytda keltiradi:

Bu zindondinki jismin ranja aylab,

Chiqording yuz tuman ishkanja aylab.

Shoir insonning dunyoga kelishi, ulg‘ayishi, rizqi bilan bog‘liq mulohazalarni keyingi baytlarda yoritadi:

Qilib hissu quvodin oni ma’yus,

Ham etting mahd zindonida mahbus.

Olloh o‘z qudratini namoyish etib, insonni qanday yo‘qlik olamidan borlik olamiga keltirgan bo‘lsa, rahm (bachadon) zindonidan ham shunday ozod etdi. Ammo u zindondan ozod etib, yana bir boshqa zindon (mahd) beshik zindoniga mahbus etdi. Shoir inson go‘daklik chog‘ida quvo (quvvatlar, kuchlar kuch – quvvat) dan, hislardan ayro, umidsiz holda bo‘lganligini ham ta’kidlaydi.

Etib besh-olti qatra sutga muhtoj,

Ul o‘lsa to‘q, agar ul bo‘lmasa och.

Navoiy yuqoridagi baytlarida insonning dunyoga kelishi, uning rizqi bilan bog‘liq mushohadalarni izchillikda ifodalab boradi. Jumladan, chaqaloqning dunyoga kelgandan so‘ngi rizqi haqida mulohaza yuritar ekan, ona ko‘kragidagi sut uning rizqi, tirikligini ta’minlovchi asosiy vosita ekanligiga urg‘u beradi. Ya’ni Haq taolo go‘dakni besh-olti tomchi sutga muhtoj qilib qo‘yadi, agar shu sut bo‘lsa, uning qorni to‘q, mabodo shu sut bo‘lmasa, bolaning och qolishi baytda zikr etiladi. Shoir baytda “och” va “to‘q” so‘zlarini qo‘llab, tazod she’riy san’atining imkoniyatlaridan kelib chiqib insonning dunyoga kelishidan oldin (ona qornidaligida) ham, tug‘ilgandan keyin ham rizqini berguvchi – ul qodirul Olloh ekanligini ta’kidlaydi. Navoiy mazkur baytlarida Qur’oni Karimning “Haj” surasidagi 5-oyatiga ishora etadi.

Navoiy munojotda insonning dunyoga kelishi, go‘daklik chog‘lari, ulg‘ayishi, taqdir hukmi ila hayot kechirishi bilan bog‘liq barcha mulohazalarni izchillikda birma-bir izohlaydi. Shundan so‘ng, qayd etgan har bir gapi, fikrlaridagi nuqsonu kamchiliklar uchun Ollohdan kechirim so‘raydi:

Junundin so‘zga bir dam bo‘lmay ogoh,

Gar ortuq so‘z dedim: astag‘firulloh.

Shoir munojotda “junundin” (telbalikdan) ogoh bo‘lmay nomaqbul so‘z aytgan bo‘lsam, “dedim: astag‘firulloh”, deya istig‘for keltiradi. Zero, istig‘for banda tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va gunohlarga kafforat bo‘ladi, uning qalbini tozalaydi. Shu bois Navoiy navbatdagi baytda nido san’ati (Ilohiy) imkoniyatlaridan foydalanib, Yaratganga iltijo qilib, “majnunlug‘umg‘a” (telbaligimga) boqmagil, mening “mahzunlug‘umg‘a” (g‘amginlik, xafalik) holimga boqib, o‘z karam (ehson) ingdan benasib qilma, deya iltijo qiladi:

Ilohiy, boqmag‘il majnunlug‘umg‘a,
Karamdin chora qil mahzunlug‘umg‘a.

Ma’lumki, ijodkor uchun uning yozganlari farzandidek aziz. Shoir birgina satrni bitish uchun qanchalar mashaqqat chekadi. Navoiy ham “nomamni qaro” qilish uchun – bitish uchun yuzum sarg‘aydi, deb navbatdagi baytda zikr etadi:

Yuzum sarg‘ortibon nomam qarosi,
Qarortib nomani xomam qarosi.

Shoir baytda so‘z takroriga asoslangan tasdir (qaro, noma so‘zlari takror qo‘llangan) orqali fikr ta’sirchanligiga erishgan. Olloh bandalari doim uning lutfu marhamatidan, inoyatidan umidvor bo‘ladi. Navoiy ham inoyat (ayni) ko‘zi bilan mening (xomam) qalamim sari boqginki, yozganlarim sharafidan yuzimni qizil, nomamni oq qilgin, deya munojot qiladi:

Inoyat aynidin xomam sari boq,
Qizil ayla yuzum, nomamni ham oq.

Hazrat Navoiy yuzimni marhamating suvi bilan pokla, so‘zim ko‘sin -nog‘orasining ovozasini baland qil, deb yaratganga murojaatini davom ettiradi:

Yuzum lutfung suyidin toza qilg‘il,
So‘zim ko‘sin baland ovoza qilg‘il.

Baytlardagi “inoyat ko‘zi”, “lutf suvi”, “so‘z nog‘orasi” kabi metaforalar shoir ijodida o‘ziga xos lirizmni shakllantirishga xizmat qilgan. Navoiy navbatdagi baytida Allohga munojotini davom ettirib, nutqimni tarabxez (xursand qiluvchi, shodlikni qo‘zg‘atuvchi), kilkim (qalamim) ni shakarrez (shirin, yoqimli) qilgin deydi:

Meni nutqum tarabxez ayla, yo Rab,
Nayi kilkim shakarrez ayla, yo rab.

Ezgu tilak va yaxshiliklar doim mo‘min bandalar uchun asosiy e’tibor qaratiladigan masalalardan sanaladi. Chunki har bir ishning amali niyatga bog‘liqligi Qur’oni Karim oyatlarida ham zikr etiladi. Alisher Navoiy shu bois ilgimga (qo‘limga) jomi tavfiq (yordam, madad jomi)ni keltir, ko‘nglimga esa rohi tahqiq (haqiqat yo‘li)ni yetkazgin, deya ezgu tilaklarni so‘rab Allohga munijotini davom ettiradi:

Ketur ilgimga dog‘i jomi tavfiq,
Yetur ko‘nglumga dog‘i rohi tahqiq.

Navoiy qiyomatda Muhammad (s.a.v) shafoatidan umidvorligini oxirgi baytda ta’kidlaydi:

So‘zum rohin qilib ravshan safodin,
Shafoat jomi yetkur Mustafodin.

Shoir so‘zim maslagini pok qil, deya Allohga munojot qiladi. Talmeh vositasida (Mustafo) oxir zamon payg‘ambari Muhammad (s.a.v)dan shafoat jomini yetkarishini katta umid bilan so‘rash orqali dostonning munojot qismiga yakun yasaydi. Demak, mumtoz adabiyotimizda hamd, munojot kabi boblarning asar boshlanishidan o‘rin olishi maxsus an’ana darajasiga ko‘tarilgan. Ayni holat Sharq mumtoz adabiyoti uchun ham xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. МАТ. 8-жилд. Тошкент 1991.
2. Amonova Z. “Layli va Majnun” dostonining hamd bobida shoir mahorati. So‘z san’ati xalqaro jurnal. Maxsus son, 2020. 168-17.
3. Amonova Z. Mumtoz adabiyotda munojot talqini. Actual problems and solutions of modern philology. International conference. Uzbekistan 2020. 210-215-bet.
4. Қ.Содиқов. Матншунослик ва манбашунослик асослари. Тошкент 2017.
5. Qur’oni Karim. (Alouddin Mansur tarjimasi). – Toshkent: Cho‘lpon, 1991.
6. Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2012.

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA MA’SHUQA OBRAZLARI VA ULARDAGI RAMZIYLIK MASALASI

IMAGES OF A LOVE IN THE FRIEND “SADDI ISKANDARIY” AND THE ISSUE OF SYMBOLISM IN THEM

Zuhra MAMADALIYEVA
Jizzax davlat pedagogika instituti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi ma’shuqa obrazi tahlil qilingan. Ushbu obrazning Ravshanak timsolidagi tarixiyligi va asliyati – protatipi masalasi, “Xamsa” dostonlariga kirib kelishi jarayoni va dostondagi o‘rni o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *“Saddi Iskandariy”, Iskandar, Ravshanak, Mehrnoz, Lu’bati Chin, ma’shuqa, ramziylik, tadrijiy takomil, komil inson, mutlaq go‘zallik.*

Annotation

This article analyzes the image of a lover in Alisher Navoi’s epic “Saddi Iskandariy”. The historical and originality of this image in the image of Ravshanak - the question of its prototype, the process of its penetration into the epics of “Khamsa” and its place in the epic are studied.

Key words: *“Saddi Iskandariy”, Iskandar, Ravshanak, Mehrnoz, Lu’bati Chin, mistress, symbolism, gradual perfection, perfect man, absolute beauty.*

“Saddi Iskandariy” ishqiy doston emas. Muhabbatni o‘ziga xos tarzda ta’rifu tasniflagan va jo‘shib kuylaydigan Navoiy bu dostonda hikmat va falsafani sevimli mavzusidan ayro tasvirlaydi. Shuning uchun bu dostondagi ma’shuqalar, aniqrog‘i bosh qahramonning

rafiqalari obrazlari bosh qahramon darajasiga chiqmagan. Dostonda ishqiy masala birinchi o‘ringa ko‘ratilmas ekan, umuman ma’shuqa obrazining nima keragi bor edi? Navoiy bu borada an’anaga asir bo‘lib qolib, shunchaki boshqa xamsanavislar yo‘lidan bordimi? Nihoyat, dostondagi ramziylik masalasi ko‘rilar ekan, ushbu obrazlarning ham ramziyligi bormi-yo‘qmi? Ushbu maqolamizda yuqoridagi savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Dostonda dastlabki ma’shuqa obrazi – Iskandarning birinchi xotini Ravshanak hisoblanadi. Dostonda u Doroning qizi bo‘lib, Doroning vasiyatiga binoan Iskandar uni nikohiga oladi. Bu obrazning kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, odatdagidek tarixiylikka duch kelamiz. Ravshanak (Roksana, Ro‘xshona) (mil.av. 342–309) – Baqtriya malikasi, mahalliy amaldor Oksiart (Vaksuvadarva)ning qizi va ayni paytda tarixiy Iskandar – Aleksandr Makedonskiyning rafiqasi bo‘lgan. Baqtriya Fors imperiyasining sharqiy qismi, hozirgi kunda shimoliy Afg‘oniston, Tojikiston, O‘zbekiston va Qirg‘izistonning shimoliy viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Oksiart Aleksandrning yaqinlashayotganidan xabar topgach, xotini va bolalarini So‘g‘diyona qoyasi deb nomlangan mustahkam qal’aga joylashtiradi. Ammo miloddan avvalgi 327-yilda bu qal’a va uning barcha aholisi, shuningdek, Oksiartning bolalari va xotini ham makedoniyaliklarga taslim bo‘lib, asir tushadi. Yunon yozuvchisi Arrian bu haqda shunday hikoya qiladi: “Bu qizlardan birining ismi Ravshanak bo‘lib, balog‘at yoshida edi. Jangchilarning aytishicha, u Osiyodagi barcha ayollarning ichida (Doroning xotinidan tashqari) eng go‘zali edi. Aleksandr uni bir ko‘rishdayoq sevib qoldi, ammo u qizning asiraligidan foydalanib, darrov ega bo‘lishni xohlamadi, aksincha, hurmat-izzatini joyiga qo‘ygan holda to‘y-tomosha qilib, unga uylandi”. Bu nikoh Aleksandrni mahalliy aholi bilan yaqinlashtiradi. Ular Aleksandrga ishonch bildirib, bu nikohni yuksak qadrlaydilar va Aleksandrni yaxshi ko‘rib qoladilar. Ravshanak miloddan avvalgi 326-324-yillarda Aleksandrning Hindistonga yurishida va Bobilga qaytishida hamrohlik qiladi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Hindistonga yurishi vaqtida Ravshanak va Aleksandrning yangi tug‘ilgan o‘g‘li chaqaloqligida o‘lgan. Miloddan avvalgi 323- yilda Aleksandr ham to‘satdan vafot etadi.

Ravshanak uning o‘limidan bir oy o‘tib o‘g‘il ko‘radi va unga Aleksandr deb nom qo‘yadi. Keyinchalik 15 yashar kichik Aleksandr va uning onasi Ravshanak Makedonskiyning raqiblari tomonidan yashirincha yo‘q qilinadi.

Bu obrazning “Xamsa”larga kirib kelishi ham qiziqarli. Tarixiy asarlarda Ravshanakni Eron shohining qizi sifatida tasvirlash an’anaga kirgan. Bunday xatoga birinchi bo‘lib fors tarixchisi Tabariy yo‘l qo‘ygan. Bu tasodifiy xatomikin yoki ataylab qilingan ishmi, ma’lum emas. Tabariyning ta’sirida Firdavsiyning “Shohnoma”sida ham Ravshanak Iskandarning sevimli rafiqasi va Eron shohi Doroning qizi sifatida talqin etiladi. Aslida Doroning vasiyatiga binoan Aleksandrga nikohlangan qizning ismi Sitora bo‘lib, u Aleksandr Makedonskiyning Ravshanakdan keyingi ikkinchi rafiqasi hisoblanadi.[Plutarx. 2018: 95]

Nizomiy va boshqa xamsanavislar, jumladan, Navoiyda ham Ravshanak Doroning qizi sifatida talqin etilgan. Iskandar bu go‘zal qizni Doroning jang maydonida o‘limi oldidan qilgan vasiyatiga ko‘ra, xotinlikka olgan:

Yana Ravshanakkim, qizimdur mening,
Bukundin nari mensizimdur mening.
Kelib saltanat bahridin durri pok,
Sharaf avjidin axtari tobnok.
Bisotingni ul sham’ birla yorut,
Aning shug‘lidin xotiringni ovut.
Kivur mehr birla shabistoninga,
Qilib aqd, o‘lturt ani yoninga [Navoiy.1993: 197.]

Ya’ni: “... Ravshanak degan qizim bor. U bugundan boshlab mening mensizimdir... U saltanat dengizining pok duri, sharaf osmonining porloq yulduzidir. Xonadoningni u sham bilan yoritgin, u bilan o‘ynab-kulib, o‘zingni ovutgin. Mehr-muhabbat bilan uni uyingga kiritib, aqd-nikoh bilan bag‘ringga olgin” [Navoiy.1991: 612.]

Ravshanak dostonda deyarli ko‘rinmaydi. Faqat Hindistonning Nigor qishlog‘ida bo‘lib o‘tgan to‘yda Iskandar nikohiga olganligi va unga bemisil hurmat-izzat ko‘rsatganligi tasvirlanadi:

Hamul Ravshanak mahdi ulyo bo‘lub,
Shabistonida majlisoro bo‘lub.
Bori parda ahlig‘a bonu edi
Ki, shah birla zonu-bazonu edi [Alisher Navoiy.1993: 385.]

Ya’ni: *Ravshanak katta xotin sifatida yotoqda shoh bazmini qizdirar, u bilan har boim bir taxtda tizzama-tizza o‘tirar hamda haramxonadagi barcha xonimlarga boshliq va malika edi.*

Mehrnoz (Nozmehr) esa “Saddi Iskandariy”da Iskandarning ikkinchi xotini bo‘lib, Kashmir shohi Malluning qizi sifatida talqin etiladi. Dostonda tasvirlanishicha, Mallu Iskandardan qochib, tilsim qal’a bino etib, uni ichiga yashirinib oladi. Iskandar hakimlar hikmati bilan qal’a sirini ochgach, vafot etayotgan Malluning vasiyatiga binoan qizi Mehrnozga uylanadi. Mehrnoz juda go‘zal va nozli qiz bo‘lib, Iskandar unga oshiq bo‘ladi. Biroq Ravshanakni kayoniylardan ekanligi uchun naslu-nasabini hurmat qilib, unga alohida e’tibor ko‘rsatadi. Buni bilgan Nozmehr Iskandarni rashk qilib, unga ta’na-malomatlar qiladi. O‘zini shohdan uzoq tutishi natijasida Iskandardagi ishq junun darajasiga yetadi, deydi Navoiy:

Chu shah ko‘rdikim, toqati toq o‘lur,
Junun ichra rasvoyi ofoq o‘lur.
Anga ishq amri junun aylamish,
Junun aqlu fahmin zabun aylamish [Alisher Navoiy.1993: 385.]

Ya’ni: Nozmehrning sarkashligi oshgan sari Iskandarning tashvishi kuchayib borar edi. Toqati toq bo‘lgan shoh bu holat uning jununini orttirib, rasvoyi olam qilishi mumkinday tuyuldi.

Bu noz-u firoqning sababini so‘raganda, Mehrnoz go‘zallik va muhabbatning nasl-u nasab bilan ishi yo‘qligini, balki bunday narsalardan chandon ziyodaligini aytadi.

Bu obrazning tarixiy asliyati – prototipi yo‘q. Uning go‘zalligi, sho‘xligi, donoligi jihatidan Ravshanakka qaraganda Navoiy dostonda ko‘proq unga urg‘u berganini ko‘ramiz. Umuman, bu obraz go‘zallik bilan uyg‘unlashgan Kashmir hiylagarligi ramzi hisoblanadi.

Bu ishtin malolat topib Nozmehr
Ki, shoh o‘zga yon qildi og‘oz mehr [Alisher Navoiy.1993: 387.]

“Saddi Iskandariy” dostonidagi ma’shuqalar sirasiga *Lu’bati Chin, (Sho‘xi Chiniynajod, Chin qo‘g‘irchog‘i (go‘zali)* obrazi ham

kirib, Iskandarga Chin xoqoni sovg‘a qilgan kanizak hisoblanadi. Dostonda tasvirlanishicha, Iskandar avvaliga bu kanizakka unchalik parvo qilmaydi. Biroq bu Chin ohusi, deydi Navoiy, chumolisifat maxluqlar bilan bo‘lgan jangda sher kabi ajdaholarni ov qilib, qahramonlik ko‘rsatdi:

Bu holatda bir chobuk aylab shitob,
Yopib orazi uzra chiniy niqob.
Nechukkim quyosh ko‘kda po to ba farq,
Quyoshdek bo‘lub ko‘k temur ichra g‘arq [Alisher Navoiy.1993: 409.]

Ya’ni: *Mana shu asnoda yuziga Chin niqobi tutgan bir epchil odam zudlik bilan maydonga tushdi. U xuddi ko‘kdagi porloq quyoshdek ko‘m-ko‘k po‘lat kiyimlarga o‘rangan, jahonga nur sochuvchi osmon oftobidek yer yuzidagi simobdek jo‘sh urib turar edi.*

Jangda qahramonliklar ko‘rsatib, bazmlarda esa o‘z noziklik va go‘zalligini namoyon qilgach, unga butunlay asir va maftun bo‘ladi:

Xitoyi hasab, sho‘xi chiniynajod,
Jamolig‘a huru pari xonazod [Alisher Navoiy.1993: 354.]

Uning bu qadar kamolotidan aqli lol bo‘lgan Iskandar ikki malikani ham yodidan chiqarib, unga tamom maftun bo‘ladi.

Sharq adabiyotida ramziylik an’anasi shu darajada rivojlangandiki, narsa-buyumlar, inson a’zolari bilan bir qatorda mamlakat va shaharlarga ham matndagi ma’noga qarab ma’lum ma’nodagi ramzlar yuklangan. Jumladan, Jaloliddin Rumiy “Ma’naviyi masnaviy”ning birinchi kitobida Samarqandni orzularga yetkazuvchi maskan, Hindistonni esa ozod ruhlar Vatani va umuman ozodlik ma’nolarida ramzlashtirsa, Navoiyning o‘zi “Farhod va Shirin”da yunon mulkini ilm-u hikmat diyori sifatida tasvirlaydi. [Alisher Navoiy.1989; Jaloliddin Rumiy 2010.] Keyingi ikki diyorga Iskandar lashkar tortib boradi, biroq bu yurtlar fotihning dovrug‘ini eshitib, unga o‘z ixtiyorlari bilan taslim bo‘ladilar. Ya’ni inson o‘z kamoloti yo‘lida shunday jidd-u jahd qiladiki, natijada bu ilmlar kamolotga da’vogar shaxsga o‘z darvozalarini ochadi. Chin xoqoni Iskandarga sovg‘a qilgan Jamshid jomi va oyinai Chinda ham o‘ziga xos ma’nolar yashirigan hisoblanadi.

Jamshid jomi afsonaviy buyum bo‘lib, uni afsonaviy Eron hukmdori Jamshid yasattirgan. Uning ikki g‘aroyib xususiyati

mavjud bo‘lib, birinchidan, ichidagi may hech qachon tugamas ekan. Buning sababi, jom tashqaridagi bor maylarni o‘ziga tortish xususiyatiga ega emish. Ikkinchidan, uning tashqi qismida Yer yuzining barcha joyida ro‘y berayotgan voqea-hodisalar aks etar ekan. Keyinchalik bu obraz tasavvuf adabiyotida o‘ziga xos ma’no yuklangan holda ramzlashdi. Jamshid jomi jahongirlik ramzi va ayni paytda bedor ko‘ngil timsoli ramzi hamdir. Bedor ko‘ngil esa faqat komil insongagina nasibdir va unda nafaqat yetti iqlim, balki butun koinot manzarasi aks etib turadi.

Oyinai Chin (iyhom san’atidan foydalangan holda Navoiy bu jumla bilan Xitoy oynasi va haqiqat oynasi degan ikki ma’noni ifodalagan) esa ikki tomoni ham yorug‘ ko‘zgu bo‘lib, Iskandar uni kishilarni qandayligini bilish uchun qabul vaqtida foydalanar ekan. Bu timsol ham sof ko‘ngil ramzi bo‘lib, ko‘ngli oynaday toza kishining qalbida suhbatdoshining kimligi namoyon bo‘lishi haqidagi falsafiy-psixologik tasavvurga borib taqaladi.

Iskandar donishmandlik san’ati unga hadya etgan bu sovg‘alarning ajoyibligidan hayratlanadi va musohib hakimlarga mana shunday mo‘jizaviy buyumlar – usturlob va ko‘zgu yasashni buyuradi. Yetti iqlimni egallagan podsho endi osmon jismlarini kuzatib, ularni ham o‘rganmog‘i, ya’ni komil inson o‘z ilmini tugal chuqurlashtirmog‘i kerak. Buning uchun Iskandar usturlob bilan yulduzlar harakatini kuzata boshlaydi. Sehrli ko‘zgu esa xuddi Jamshid jomiday jahonda sodir bo‘layotgan voqealarni akslantirib turadi. Bu ixtirolarning ramziy ma’nosi esa komil inson o‘z ilmini chuqurlashtirishi natijasida ko‘ngli tozalanishi deyishimiz mumkin, lekin u faqat zohiriy ilmlarni egallash bilan kamolotga erishilmaydi. Inson komil bo‘lmog‘i uchun botiniy ilmlarni ham egallashi talab etiladi. “Saddi Iskandariy”da ham shu an’ananing davom etganligini ko‘ramiz.

E’tibor beradigan bo‘lsak, Ravshanak ta’rifida oz so‘zlagan, faqat uning nasl-u nasabini ta’riflab, Iskandarning unga nisbatan ehtiromiga e’tibor qaratgan Navoiy Mehrnoz tasviriga ko‘proq ahamiyat bergan. Mehrnozning go‘zalligi, nozli va dono ekanligini ta’riflagan ulug‘ shoir Lu’bati Chin timsolida esa mutlaq go‘zallikni, Yaratganning Jamol va Kamol sifatilarini o‘zida mujassamlashtirgan komil inson siymosini yaratadi.

Yuqoridagi xususiyatlarni, ya’ni Ravshanak, Mehrnoz, Lu’bati Chin obrazlari xususida muallifning munosabati nuqtai nazaridan fikrlaydigan bo‘lsak, dostondagi bu siymolar yagona bir ma’shuqa obrazining talqinlari hisoblanadi. Obraz Iskandarning kamolotiga monand tadrijiy taraqqiy etib boradi. Ya’ni, Ravshanak timsolida dastlab faqat naslu nasabi tufayli e’tirofga loyiq obraz, Mehrnoz timsolida go‘zallik va muhabbat sohibasiga aylansa, Lu’bati Chin qiyofasida jisman va ruhan go‘zallikning sohibi, kamolot egasi darajasiga ko‘tariladi. Bundan tashqari obraz faqat tadrijiy takomil kasb etmay, uning ramziylik xususiyati ham mavjud bo‘lib, quyidagi hollarda ko‘rinadi.

Bu o‘rinda ramz so‘zlarning asl ma’nosiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da quyidagilarni o‘qiymiz: RAMZ - (ar رمز imo, ishora, imlash)- simvol, ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi, obrazlilik turi. [Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. 2010] Demak, obraz faqat “Saddi Iskandariy” dostoni matnida quyidagi ma’nolarni aks ettiradi:

1) Ravshanak fors zaminining aslzoda farzandi. Unga aqlu donish, sipolik va hurmat-ehtirom munosib. Dastlab bosh egmagan Forsni zabt etgan Iskandar hali faqat zaminiy ehtiyojlar qurshovida bo‘lib, aynan shu xususiyatlar Ravshanak timsolida ramzlashib, Iskandarga oshno bo‘ladi.

2) Kashmir azaldan hiyla-nayrang ramzi va sehrgarlar yurti ekanligi Navoiydan oldingi mumtoz adabiyotda ham ko‘p tasvirlangan. Iskandar Kashmirni zabt etganligi lavhalarini Navoiy alohida e’tibor va mahorat bilan tasvirlaydi. Kashmir diyorining atrofini tog‘lar xalqa shaklida o‘rab olgan, tog‘ tepasidagi favqulodda holatlar uchun qurilgan maxsus qal’a Kashmir sehrgarlarining bemisl hiyla-nayranglarining namunalari sifatida osmon bilan so‘zlashib turibdi. Kashmirni ham, uning tog‘ tepasida joylashgan sehrgarlar qurgan tilsim qal’ani ham Iskandar Arastu hakim boshchiligidagi donishmandlar hikmati bilan zabt etadi. Demak, Iskandar, ya’ni kamolotga da’vogar inson bu yo‘lida dunyo hiyla-nayranglarini ilm-u urfon yordamida zabt etishi mumkin ekan. Kashmir mulkining farzandi bo‘lgan go‘zal, nozli va dono qiz Mehrnoz, ayni paytda Kashmir hiylagarligining ramzi. Kashmirni zabt etgan va kamolot

pillapoyasidan ilgarilayotgan Iskandarga yuqoridagi xususiyatlar ramzi sifatida yor bo‘ladi.

3) Dostondagi Chin (Xitoy) yurti ma’rifat va san’atkorlik diyori sifatida talqin etilgan. (Buni Navoiy “Lison ut-tayr”da Simurg‘ning Chin shahri ustidan uchib o‘tishi, parvoz payti uning bitta pati tushib qolishi va bu patdan ulgu olgan musavvir Moniy monaviylik san’atiga asos solishi lavhasida yana bir bor ta’kidlaydi) [Alisher Navoiy.1996.] Mutlaq go‘zallik, Jamol va Kamol ramzi bo‘lgan Lu’bati Chin kamolot pillapoyalaridan yuqorilab, ma’lum darajaga erishgan Iskandarga Chin xalqi san’ati, ma’rifati va kamoloti ramzi sifatida hamroh bo‘ladi. Dostonda dastlab Ravshanakka mehr qo‘ygan Isakndarning, keyin Mehrnozga oshiq bo‘lishi, so‘ngra esa Lu’bati Chinga maftunligi ham mana shuning uchun ahamiyatli bo‘lib, Navoiyning shaklan an’ana doirasidan chiqmasada, mazmunan ilg‘or fikrlayotganini ko‘ramiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Saddi Iskandariy” dostonidagi Ravshanak, Mehrnoz va Lu’bati Chin obrazi ma’shuqa obrazining turli ko‘rinishlari hisoblanadi. Bu obraz ramziy xususiyatlarga ega va ayni paytda dostondagi tadrijiy tarzda takomillashgan obrazlardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин (Насрий баёни билан). Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989.

2. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 1993. Т.11.

3. Алишер Навоий. Садди Искандарий. (Насрий баёни билан) Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.

4. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 1996. Т.12.

5. Плутарх. Искандар Мақдуний. / Подшоҳ ва саркардаларнинг ҳикматли сўзлари. З.Аълам ва У.Отажон таржималари. – Тошкент Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, ДЭН, 2018.

6. Румий Мавлоно Жалолиддин. Маснавийи маънавий. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. – Тошкент: Meriyus, 2010.

7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр, 2010.

“BIRODARI ARJUMAND VA FARZANDI DILBANDGA PANDLAR”

Umedullo MAXMUDOV
ToshDO‘TAU
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning Abdulla Morvarid bilan munosabatlari va Navoiyning boshqaruv masalalarida Abdulla Marvoridga bergan maslahatlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar*: *Alisher Navoiy, Abdulla Morvarid, monshaat, epistolyariya, Ahmadi Dai.

Annotation

This article discusses Alisher Navoi’s relationship with Abdullah Morvarid and Navoi’s advice to Abdullah Marvorid on governance issues.

Key words: *Alisher Navoi, Abdullah Morvarid, monshaat, epistolary, Ahmadi Dai.*

Nizomiddin Mir Alisher kamolot, adl-u adolatning timsoli edi. Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning adolati uning faoliyati, barcha asarlari, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida o‘z aksini topadi. Alisher Navoiy o‘z yozishmalarini bir kitobga jamlab, epistolyar janrda bebaho asar yaratadiki, bu asar turkiy adabiyotda shu yo‘nalishda yozilgan ilk asarlardan biri edi.

Navoiyning o‘z qalamiga mansub maktublarini o‘rgangan olimlar A. O‘rinboyev, Y.Tursunov, M.Hasanovlarning tadqiqotlariga ko‘ra, Navoiy umrining ikkinchi yarmida ko‘p yozishmalar olib borgan. 1485-1499-yillar orasida temuriy shahzodalar va podshohlar, o‘z yaqinlariga yozgan maktublarini to‘playdi hamda ushbu majmuani “Munshaot” nomi bilan ataydi. Asar deyishimizning sababi, Navoiy turkiy tilda yozilgan barcha maktublarda adresatlar (maktub yozilgan shaxslar)ning nomlari va maktublarning qayerda, qachon, yozilish

sabablariga oid ma’lumotlarni olib tashlaydi. Oqibatda kishilarga jo‘natilgan maktublar shaxsiy voqelik darajasidan, umuman, badiiy va chuqur insoniy qimmatga ega badiiy asar turlariga aylangan.

“Munshaot” — so‘zidan murod insho shakli va qolipida yozilgan munshiyona bitiklar hamda jo‘natmalar(maktublar)dir [21641-42: 1984]. Temuriylar davrida ayniqsa, o‘n beshinchi asrda maktublarni yig‘ib, majmua holiga keltirish odat tusiga kirdi. Navoiy davrida ham ko‘pgina e’tiborli munshaotlar yaratildi.

Turkiy tilda yaratilgan ilk munshaot Ahmad Doining “Munshaot”i bo‘lib [Eski Türk Edebiyatı Tarihi, 2005: 106-108], undan bizning davrga qadar ba’zi sahifalar yetib kelganligi bois turkiy tilda mukammal yaratilgan munshaotning ilk namunasi sifatida Navoiy qalamiga mansub “Munshaot” asari tushuniladi. Alisher Navoiy nafaqat turkiy tilda, balki forsiy tilda ham maktublar yozgani ma’lum. Turkiy tildagi maktublardan farqli ravishda Navoiyning forsiy tilda yozgan maktublarida adresat (maktub yozilgan shaxs) nomlari, uning yozilish sabablari va o‘rni xususidagi ma’lumotlar olib tashlanmagan.

Navoiyning forsiy maktublari o‘z zamonasida bir jildda jamlanib, kitob holiga keltirilmagan. Ular turli munshaot asarlari tarkibida kelgan bo‘lib, ushbu asarlar sirasidan Mansho ul-insho, Munshaoti Abdulloh Marvorid, Riyoz ul insho, Badoyi’ ul-insho, Munshaoti Jomiy kabi asarlarni zikr etmoq joiz.

Alisher Navoiyning fors tilida yozilgan maktublari asosan do‘stona xarakterga ega bo‘lib, ularning orasida bitta “pandnoma”si didaktik ruhda, nasihat yo‘sinida bitilganligini qayd etmoq joiz. Biz quyida Alisher Navoiyning Abdulloh Marvoridga fors tilida yozgan “pandnoma”si xususida so‘zlashdan avval Abdulloh Marvorid shaxsiyati xususida qisqacha ma’lumot keltirishni joiz bildik.

Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarining to‘rtinchi majlisida ulug‘lar orasida Hazrat **Xoja Abdulloh Sadr** ismli shaxsni zikr etar ekan, quyidagi ma’lumotlarni keltiradi:

“*Xoja Muhammad Marvorid o‘g‘lidurkim, muddate vazorat devonida muhr bosar erdi va o‘z ixtiyori bila istig‘for qilib, ofiyat kunji ixtiyor qildi. Bu toifadan anga muyassar bo‘lg‘ondek oz kishiga bo‘lmish bo‘lg‘ay. O‘zi kichik yoshida ulum kasb qildi...G‘aflat va*

beparvolig‘din o‘zga hech aybi yo‘qdur. Chun yigitdur, umidi daf’ bor” [Навоий, 2011: 394].

Navoiy zikr etgan Shahobiddin Abdulloh Marvorid hijriy 865 (milodiy 1461)-yilda Kirmonda dunyoga kelgan va deyarli umrining oxiriga qadar Hirot shahrida yashagan. Uning otasi Shamsiddin Muhammad Sadr Marvorid kirmonlik aslzodalardan bo‘lib, turkman qabilasi sanaluvchi qoraqo‘yinlilar fitnasi (872-875) natijasida Kirmondan Hirot shahriga ko‘chib o‘tadi va Abu Said Muhammadning saroyida vazir lavozimida xizmat qilgan. Keyinchalik, u Sulton Husaynga ham sadoqat bilan xizmat ko‘rsatadi. Xondamir «Habib us-siyar»da yozishicha “Xoja Shamsiddin Muhammad Marvorid — (vaf. 409/ 1498—99, Hirot), asli kirmonlik, davlat va din arbobi. Mirzo Jahonshoh Turkman saltanati zamonida Hirotga kelgan. Abu Said davrida vazirlikda muhrdor bo‘lgan. Samarqandda ham biroz yashagan [مخافم رخ .یگنەرف .تارەت-1379. ص-188]. Keyinchalik Xoja Abdulloh Ansoriy mozorini ta’mirlash va obodonlashtirish ishlarini boshqargan.

Abdulloh Marvorid otasining ko‘magi bilan yoshlik chog‘idan boshlab Sulton Husayn Boyqaroning saroyiga kirib keladi va bir muddat o‘tgach sadorat maqomiga yetib, saroyda “parvonachi” lavozimini egallaydi.

Abdulloh Marvorid serqirra va o‘ta iste’dodli shaxs sifatida tanilgan bo‘lib, aksariyat tazkiranavislar uni xat san’atining benazir bilimdoni sifatida e’tirof etganlar. Jumladan, Alisher Navoiy Abdulloh Marvorid xususida so‘z yuritar ekan, shunday deydi: “*...va xutut fanida benazir bo‘ldi*” [Навоий, 2011: 394]. U xat usullarini ustozi Mavlono Abdulloh Tabbox Hiraviydan o‘rgandi, nasta’liq xatini esa Xoja Tojiddin Salmoniy huzurida mashq qildi. Muarrixlar kitoblarni bezatishda juda ko‘p qo‘llanilgan va mashhur san’at turlaridan biri bo‘lgan “Abru” (Abri Bahor) san’atining kashf etilishini ham Abdulloh Marvorid nomi bilan bog‘laydilar.

Abdulloh Marvorid shoir sifatida ham juda barakali ijod qilgan. U o‘zining she’rlarini jamlab, devon tartib beradi hamda uni “Munis ul-ahbob” deya nomlaydi. Mazkur asardan Abdulloh Marvorid qalamiga mansub qasida va ruboiylar o‘rin olgan. U g‘azalnavislikda Abdurahmon Jomiyga ergashadi. U o‘zining “Xusrav va Shirin”

dostonini esa Nizomiyga taqlidan yaratadi. Zamondoshlarining xotirlashicha, shoirlar Abdulloh Marvoridning xonadonida yig‘ilib, o‘z ijod namunalarini uning nazaridan o‘tkazganlar.

Abdulloh Marvorid *“Advor va musiqiy ilmida ...benazir bo‘ldi. Va qonunni ma’lum emaskim, hargiz kishi andoq cholmish bo‘lg‘ay. Va podshoh xizmatida oliy mansabqa sarfaroz bo‘ldi”* [Навоий, 2011: 394]. U Sulton Husayn Boyqaroning majlislarida qonun (Qonun cholg‘u asbobi – Setor (Cythare) cholg‘usining oilasiga mansubdir. U Yevropada Canon yoki Miocanon nomi bilan mashhurdir. U yog‘och qutining ustki qismiga joylashtirilgan bo‘lib, noxun yoki qo‘lda chalinadi. U ko‘rinishidan hozirda mavjud chang cholg‘u asbobini eslatadi) sozini chalar edi va zamonasida uningdek qonun chaluvchi inson yo‘q edi [بی‌نایب، یدهم. اوحا لو راثآ خوشونی‌اس. انتشارات علمی. چاپ. مود نارهت ۱۳۶۳ ش ص].

Shuningdek, Abdulloh Marvoridning insho san’atida ham mohir ekanligi Alisher Navoiy tomonidan e’tirof etilgan. “*Va insho fanini ham kamolg‘a yetkurdi. Va o‘zi yaxshi muhovaraliq va yaxshi xulqluq va yaxshi suhbatliq yigitdur*” [Навоий, 2011: 394]. U saroydan ketgach, Sulton Husayn Boyqaro davrida chiqarilgan farmon va hujjatlar, saroy a’yonlarining yozishmalarini o‘zida jamlagan “Munshaot” yoki “Sharafnoma” asarini ta’lif etdi. Abdulloh Marvorid Alisher Navoiy vafotidan so‘ng saroyda uning lavozimini egallaydi va sultonning farmonlari va yozishmalarining muhrdoriga aylanadi.

Abdulloh Marvorid 1535-yoki 1536-milodiy sanada Hirotda vafot etadi va Musallo qabristoniga dafn etiladi [Ahmadi, Aghahosseini, Mirbagherifard, 2013].

Yuqoridagi ma’lumotlarga qaraganda, Abdulloh Marvoridning “Majolis un-nafois” asarida zikr etilishi, uning Alisher Navoiy tomonidan qadrlangani, ularning orasida ustoz-shogird rishtalari mavjud ekanligi ma’lum bo‘ladi. Biz quyida hukmingizga havola qilmoqchi bo‘lgan maktubda ham Alisher Navoiy Abdulloh Marvoridni birodari arjumand va farzandi dilband, deya e’tirof etadi hamda unga davlat ishlarini yuritishga oid qimmatli maslahatlarini beradi. Ushbu maktub Eron Islom Respublikasidagi Malik muzey-kutubxonasida noma’lum muallifning “Munshaot” nomli asari

tarkibidan o‘rin olgan va qo‘lyozmalar fondida 1393.04.06428/043 raqami bilan saqlanmoqda. Maktub fors tilida yozilgan va shikasta nasta’liq xatida bitilgan. Sarlavhasi qizil rangda asosiy matndan ajratib ko‘rsatilgan.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, Alisher Navoiy o‘z davrida turli lavozimlarda faoliyat olib borgan mansabdor shaxslarning tarbiyasi, ularning fazilatlariga juda qattiq e’tibor bergan. Navoiyning maktubida adl-u adolat, saxovat, muloyimlik, rahmdillik kabi fazilatlar eng avvalgi o‘rinlarda zikr etiladi. Mazkur maktubda yozilgan nasihatlar nafaqat o‘z davri uchun balki bugungi kun uchun ham qimmati va ahamiyatini yo‘qotmagan deb hisoblash mumkin.

ضوعب هک دیراورم هللادبع تهج ریزوریش یلع ریم هک همان‌دنپ
هتشون وا هب ددرگررقم ترازو بصنمب دوخ

و هاج بحب هکنآ مالس یادا زا دعب ار دنبلد دنزرف و دنمجرا ردارب
تیصاخ رشب لوغشم نآ تنکم و رایتخا یب سفن و لوهجم تسای‌ر
ارق‌یالخ تساه یشوه شراک هک هاشداپ تافتلا و تسازفا تلفغ هاج
تسا راوشد ندروآ شوهب ار سک نینچ تسا زاسراک سک نینچ اب
(شلاچ) شیاجب داب نآ یتسم اما درآ لاحب لقع ددمب یه‌اگادوخ رگا
تسا رُذع مقتنم کلف هک دسر شرطاخب اجک یتسم نآ رد و درادگن
(تنم ییاقب) تسی‌یاقب هار یهاجزا هللاراعش لدع مکاح کلف قلاخ و
وا ناتسود و و هدنخ رد وا حیابق زا نانمشد و هن ییافو ار شرمع و
هناوید نآ زا ناگناگ یب و دنرثتم اه یشوخان نآ زا نایانشآ هدنمرش
دیاب ار میقتسم لقع و میلس سفن سپو ریختم و بصعتم اهیشو
ار یتسرپدوخ و یئاردوخ و دنزاس دوخ یب اردوخ اه یتسم نآ رد هک
مه ار نامل‌سم نالان نیا دنزادرپ مولظم ناگدنمرد لاحب و دنزادنیب
مد نیا هتشگن دنم هرهب و هاگآ مادک چیه زا هتشذگرس رب تساجنیا
رون رد کلف اراهقرو نآ هک هدیاف هچ هدش فقاو دوخ تاریصقت هب هک
هجیتن ندناشفا ترسح کشا زا هن و ءهدیاف ندیشک تمادن هآ زا هن هدید
قح «دوبن متسناوت متسنادب نوچ ،دوس هچ متسنادن متسناوت ات»
تسا (ه)دومرف تمارک ار هاج و تلود نیا هک ار ناشیا یلاعت و هناحبس
و رورغب اردوخ هک تسا نآ سامتلا درک تیانع هاشداپ برقت (تدم)
ناتسدریزو هزجع و دنزادنا ور ترخآ و ایند نارسخ و دنرادگن تلفغ
مرن و تمحر هب ار ناراسکاخ راک دنزاونب ییوجلد و تقفشب ار
ظافلا هب و دنشارخن ار ناشیورد لد تشرد نخسب و دنزاسب ییوگ
نمیا ناطیش و سفن بیرف زا دنشاب ناشیا لد تحارج مهرم میالم
قالخا راک همه رد و دندنسپن رود دوخ زا تومل‌ا ةکلم تامدص و دننیشن

درشتی نکنند در جزای عمل از شرمساری روز قیامت اندیشه نمایند از بدکرداری اباء جنس هرچه فراموش کنند و خود را از شراب غرور مست نسازند و جهت مصلحت دنیا با یکدیگر ستیزند و چنین بحالش غم رسد صبر و تحمل گزینند و هیچ وقت از ترس غافلی نباشند از دگرددی عطای نگردند و هیچ نه گاه از ملازمت بندگی سایه حق بی کار و عاطل نباشد و سخن راست که صلاح دولت شاه و کل رعایای و سپاه در آن باشد نتریسند و بگویند که اگر اجر و عوض آن در دنیا نرسد قیامت از ایزد تعالی بجویند و اب مصلحت پادشاه و صلاح دولت بگیرند و خوشنودی الهی است مصلحت ظاهریه پذیرند و به ملایمی به عرض رسانند و به توفیق سبحانی از آن بمقام گذرند و اب خوردان طریقت و خرمت وهیمکنان مدارا و موافقت کنند و اب بندگان تعظیم شفقت و مرعی دارند و چیزی که به خود رواندارند نباشند اب دیگران هیچ بردارند و زیان خود نپسندند و در همه مطلق محول کنند.

باقی رسید.

Amir Alisher Navoiyning amriga ko‘ra o‘z o‘rniga vazirlikka tayinlangan Abdulloh Marvoridga yozgan pandnomasi

Birodari arjumand va farzandi dilbandga adoyi salomdan so‘ng mansab va qudrat ila nafsiga beixtiyor uning ila barobar vatan muhabbati va xizmati ila mashg‘ul, o‘z zohiriy va botiniy xususiyoti ila va ham aql-u zakosi birla podshoh iltifotiga doxil bo‘lmish zotga so‘z o‘rgatmoq dushvor magar aql madadila ani anglarlar durustdir. Bunda ma’lum bo‘lsinki, ko‘zlari pardalanmasin, raftoru af’olu a’mol ila g‘urur va kibrga yuz tutmasinlar agar shundaydir zehnlarida munavvar bo‘lgaykim falak ginaxohdur. Aflok Xoliqining shiori – hukmi adldur. U qudratda boqiydur. Nafsi salim va aqli mustaqim ila o‘zlarini xudpisandlik ham johparastlikdan, xudra’ylikdan yiroq tutsinlar bil’aks umrda vafo ko‘rmagaylar, dushmanlariga kulgu bo‘lib, do‘st va aqrabolari unga yetmish noxushliklardan mutaassir bo‘lgaylar. Shuning ila barobar aning devonavashligidin begonalar mutaassib va mutaxayyir qolgaylar. Bunda faqirlar va mazlumlarga ko‘z tutsinlar. Mazlum va bechoralarning arzi holiga yetsinlar. Bu damda alarning taqsiridan voqif bo‘lib, o‘tmishini qayta varaqlamoqdin ham ko‘zlariga yosh, ko‘ngillariga hasratu nadomat yetkazmakdan ne naf?

Ayyomi qudratda bilmay nedin sud,
Anglaganda qodir ermastur vujud.

Alloh Taolo ul zotga davlat va qudratni karomat qilmish va podshohga muqarrablikni inoyat etmish. Hazratlaridan iltimos shulkim, g‘ururga yuz burmasinlar, zinhor g‘ofil bo‘lmasinlar, dunyo va oxirat xasoratidan (ziyonlaridan) ogoh tursinlar. Vuzaro (qo‘l ostidagi vazirlar)ning ajzini (kamchiligini) shafqat va mehribonlik ila navozish aylab, faqiru haqirning ishini rahmat va muloyimlik ila bitirsinlar. Noshoyista (qo‘pol, noma’qul) alfoz ila darveshlar ko‘nglini tig‘lamasinlar shuning ila barobar shirinsuxanlik ila alarning jarohatlik ko‘ngillaring marhami bo‘lmoqqa ma’mur bo‘lsinlar. Nafs va shayton qutqusidan uzoq tursinlar va ham o‘zni Malakul mavtning azobidan yiroq sanamasinlar. Tamomi vazoyifda badxo‘lik qilmasinlar, agarchi andoqdur ro‘zi qiyomat sharmsorlik jazosini andesha etsinlar.

Abnoyi jins (hamkasb)lariga badjinslik qilmoqni unutsinlar hamda o‘zni g‘urur sharobidan mast etmasinlar, aning ila barobar olamni obod qilmakda musobaqa qilsinlar. Agarki, ularga g‘am-tashvish yetar bo‘lsa sabr va tahammulni lozim tutsinlar. Zinhor taqvodan g‘ofil bo‘lmasinlar filhol hech avqotda Haq Taologa qullik qilmakdan va bandalikdan chekinmasinlar. Rostdan siloh yiroqdir demishlar. Agar podshoh, raiyyat va sipoh haq uzra bo‘lsalar tars va vahshatdan tiyilsinlar. Demishlarki, uning ajri dunyoda yetmasa, uni Qiyomatda Haq Taolodan istang. Podshoh va sipoh ila kengashib ish tutsinlar. Ilohiy xushnudlik undakim, aniq qarorga kelib, uni podshohga muloyimlik birla arz etsinlar. Shunda ilohiy tavfiq ila maqomlari ziyoda bo‘lur.

Kichiklarga shafqatli bo‘lmak barobarida badgumonlar ila murosa-yu madora tariqini tutsinlar. Xalqqa ta’zim va ehtiromda bo‘lib, unga rioyat etsinlar. O‘zlariga ravo ko‘rmaganni hech bir birodari mo‘minga ravo ko‘rmasinlar va ham o‘zgalarga ziyon yetkazmakdan qo‘l tortsinlar. Boqiy yetdim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. صص 21641- Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами (Ўн жилдлик). 9-жилд. Мажолис ул-нафоис. – Т., 2011.

2. Eski Türk Edebiyatı Tarihi: Edebiyat Tarihi – Metinler. Prof. Dr. Mine Mengi. Başer Matbaasi. Ankara-2005. 106-108.

3. Introducing Bayani Kermani and the Manuscripts of His Monsha'at. Asraossadat Ahmadi, Hossein Aghahosseini & Sayed Aliasghar Mirbagherifard. Asian Culture and History; Vol. 5, No. 2; 2013

4. 42. دهخدا. لغت نامه دهخدا. جلد 14. چاپخانه مجلس. تهران-1984.

5. رجال کتاب حبیب السیر. گردآوری، مقدمه و اضافات دکتر غلامحسین جوادی. سلسله انتشارات انجمن آثار و مفاخر فرهنگی. تهران-1379. ص-188.

6. محمدحسن سمسار. «ابری». مرکز دایرةالمعارف بزرگ اسلامی. ۱۳۸۹. روی هشت ۱۹ در دهنی بازبینی شد.

7. مورادی کرمانی، شاهابادی عبدالله. مونس الاحباب. تصحیح و توضیح سید علی میرافضلی، تهران، کتابخانه مجلس شورای اسلامی، ۱۳۹۰

8. بیانی، مهدی. احوال و آثار خوشنویسان. انتشارات علمی. چاپ دوم. تهران ۱۳۶۳ ص ۳۵۰ – ۳۵۲

Internet manbalari:

1. https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiyning-uch-mashhur-maktubi.html

2. http://rch.ac.ir/article/Details/12576

3. http://malekmuseum.org/en/artifact/.

MUMTOZ ADABIYOTDA APOKOLIPTIK UNSUR: BADIIY TALQINNING FENOMENOLOGIK TAHLILI
(“Hayrat ul-abror” dostoni ikkinchi munojot misolida)

Akrom MALIKOV
ToshDO‘TAU
(O‘zbekiston)

Annotasiya

Ushbu maqolada koinotning yo‘qlikka yuz tutishi bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlarning badiiy adabiyotdagi talqini xususida so‘z yuritiladi. O‘zbek adabiyotida, umuman, mumtoz asarlarda, xususan, Alisher Navoiy qalamiga mansub “Hayrat ul-abror” dostonida ushbu mavzuning badiiy ifodasi fenomenologik metod asosida tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: *fenomen, fenomenologik metod, apokoliptik adabiyot, kataklizm, qiyomat, oxirat, Zuhal, Mushtariy, Bahrom, Quyosh, Zuhra, Tiyr, Oy, yer*

Abstract

This article discusses the interpretation in the literature of religious views regarding the non-existence of the universe. In Uzbek literature, in general, in classical works, in particular, in the epic “Hayrat ul-abror” by Alisher Navoi, the artistic expression of this theme is analyzed on the basis of phenomenological methods.

Key words*: phenomenon, phenomenological method, apocalyptic literature, cataclysm, doomsday, hereafter, Saturn, Jupiter, Mars, Sun, Venus, Mercury, Moon, Earth.*

Qiyomat, ya’ni olamning yo‘qlikka yuz tutishi bilan bog‘liq qarashlarning barchasi e’tiqodiy masalalar hisoblanib, bu mavzuni badiiy jihatdan talqin qilish adabiyotda qadimdan kuzatiladigan hodisalardan biridir. O‘zbek adabiyotining Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Huvaydo, So‘fiy Olloyor singari namoyandalari asarlarida qiyomatning qoyim bo‘lishi – oxirizamon mavzusi salmoqli o‘rin tutadi.

G‘arb adabiyotida bu turdagi asarlarga apokoliptik adabiyot sifatida qaraladi. Apokoliptik adabiyotga mansub asarlarning barchasi apokoliptik janrda yozilgan deb hisoblanadi. Bu asarlar kataklizmik (kutilmagan holda ulkan o‘zgarishlar ro‘y berishi, vayronagarchiliklar sodir bo‘lishini aks ettirish) yondashuvlardan ilhomlanish hosilasi bo‘lib, yahudiy va xristianlarning g‘ayb bilan bog‘liq e’tiqodlarini o‘zida badiiy aks ettiradi. Bu asarlarda oxirazamonda Iyso Masih (alayhissalom)ning qaytishi va yer yuzida adolat o‘rnatishi, olamning yo‘qlikka yuz tutib, odamzod Xudo tomonidan hisob-kitobga tortilishi, gunohkorlar jahannamga, yaxshi insonlar jannatga kiritilishi to‘g‘risidagi voqealar bayon qilinadi. Mazkur syujetlar “Tavrot” va “Injil” xabarlariga tayanadi [4,5,10].

Yevropa Uyg‘onish davri namoyandalari Dante, Shekspir, Gyote asarlarida ham apokoliptik motivlar bo‘rtib ko‘rinadi, bu mavzudagi badiiy asarlar XX asrda ham ko‘plab yozildi, tadqiq etildi, kitobxonlar, tanqidchilar tomonidan e’tirof etilgan badiiyat namunalarining reytinglari ham e’lon qilindi [12].

O‘zbek adabiyotida apokoliptik mavzular Qur’on va hadisga asoslanib, g‘ayb bilan bog‘liq xabarlarga qat’iy e’tiqod qilgan va shu asosda umr kechirgan so‘fiy shoirlarning asarlarida aks etgani haqida yuqorida to‘xtaldik. Ushbu maqolamizda Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi uchinchi munojot misolida o‘zbek mumtoz adabiyotidagi apokoliptik unsurlarni fenomonologik tahlil qilamiz.

Fenomenologiya va ilmiy tadqiqotning fenonologik metodi xususida ba’zi maqolalarimizda to‘xtalib o‘tganmiz [1,2]. Inson ongida tashqi olamning aks etishi: qo‘rquv, quvonch, hissiyoti, birlamchi taassurotlarning odam psixologiyasida hosil bo‘lishi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganuvchi fan fenomenologiya deb nomlanadi va badiiy asar matnidan yozuvchining muayyan masaladagi qarashlarini tashqi iqtiboslarsiz, talqinlarsiz o‘rganish, eng mayda va yirik detallargacha diqqat qaratib, ular orasida o‘zaro bog‘lanishlar asosida xulosalar qilish fenomenologik metodning xas jihatlaridir. “Tashqi iqtiboslarsiz” deganda tahlil jarayonida o‘rganilayotgan mavzu xususida boshqa tadqiqotchilarning xulosalariga murojaat qilmaslik nazarda tutiladi, biroq asarning ichida muallif havola qilgan manbalardan ko‘chirmalar

keltirish mumkin. Fenomenologik yondashuvda matnning asl ma'nosi sof matnning o'zidan aniqlanadi [8].

"Hayrat ul-abror" dostonidagi ikkinchi munojot sarlavhasida Alisher Navoiy ikki masalani – Yaratuvchi va yaralmish markazga qo'ygan. Yaratuvchini shoir "Xoliqi ashyo" – narsalarning Yaratuvchisi va "Vohidi dono" – Yakka va tengsiz Biluvchi deya ataydi. Yaralmishlarni ham ikki nom – maxluqot va mavjudot so'zlari bilan ifodalaydi. "Xoliqi ashyo" ismining yoniga azamat – ulug'lik sifatini, "Vohidi dono" ismining yoniga jabarut (hammadan ustun, Uning qoshida hamma shikasta) sifatini keltirgan Alisher Navoiy maxluqot zebolarining jilvalanib zuhur etishi, mavjudot ra'nolarining futur topishidan Unga na foyda, na ziyon yetishini ta'kidlaydi. Xudoni "Xoliqi ashyo" deb atalishi muqobalasida "maxluqot zebolari" nomi bilan yaratiqlarning zikr qilinishi orasida mazmunan bog'lanish bor, ya'ni Xudo yaratiqlarni ularga muhtojligi uchun paydo qilmadi. Yaratiqlar ichida ra'nolari bor edi, ularni borliqdan yo'qlikka hukm qilgan Xudoni shoir Vohidi dono – yakka va yagona Bilguvchi deb sifatlashi zamirida Xudo qaysi ishni qachon va qanday shaklda qilishni bilishiga ishora bor [7:16].

Sarlavha munojotning tezisi bo'lib, kitobxonga matnda "mavjudot ra'nolari qay tariqa futur topishi" haqida badiiy bayon kelishi haqidagi xabarni beradi. O'quvchi kayfiyatini mutolaaga hozirlaydi.

Alisher Navoiy uslubiga xos jihatlardan biri uning asarlaridagi yaxlit g'oya – konsept bir necha qism (juz, far') vositasida anglanishidir. "Hayrat ul-abror"dagi har bir bob o'zining mukammal ichki tuzilishiga ega. Mavzu doirasidagi muammo qo'yiladi, bosqichma-bosqich uning mohiyati yoritiladi va kulminasiyada o'quvchi ongi mutafakkir taqdim qiladigan yechimga ham hissiy, ham aqliy jihatdan tayyor bo'ladi, shoirning g'oyasi to'g'ri ekaniga ishonch hosil qiladi. O'rganayotganimiz munojotda dastlab shoir Allohga murojaat qiladi va quyidagi masalalarni yoritgan:

1. *Ey bori mavjudg'a Sendin vujud // Balki vujud ahlig'a fayyozi jud* – mavjud bo'lgan barcha narsaga Xudodan vujud berilgani aytilmoqda. Shuningdek, "vujud ahli" deb ushbu haqiqatni anglab yetganlar nazarda tutilib, Xudo ularga saxovat ko'rsatib, fayz ato etganiga urg'u berilgan.

2. *Katmi adamdin neki mavjud o‘lub // Sojid o‘lub, Sen anga masjud o‘lub* – “katmi adam” yo‘qlikda qa’ridan, berk turgan mavjudsizlikdan vujudga kelgan har ne Xudoga sajda etadi.

3. *Kimki boshi sajdada – masjudsen // Kimki yuzi qiblada – ma’budsen* – ibodatga loyiq bo‘lgan yagona Zot Xudo bo‘lib, sajdaga bosh qo‘yganlar, qiblaga yuz qaratganlarning barchasi faqat Uni Iloh deb biladi, Unga sig‘inadi.

Ushbu uch baytda Alisher Navoiy Xudoning oliy va ulkan qudrat egasi ekanligini ta’kidlagan va biz bu uch baytni bobning shartli muqaddamasi deyishimiz mumkin. Keyingi qismda shoir falaklar va yerning yaratilishi haqida so‘zlaydi, osmonning baland gumbazga tashbih qilgan shoir quyosh va yulduzlar bu gumbazdagi ziynat deb ataydi. Koinotning yaralishi har qanday aqlni lol qiladi. Lekin Xudo uchun bu kabi yuzlab ishlarni yaratish ish hisoblanmaydi. Chunki uning qudrati cheksiz. U bu olamni lutfi bilan yaratgan bo‘lsa, qahri bilan buzishi ham mumkin. Bu ishda unga hech kim monelik qila olmaydi. Koinotni barpo qilish bilan Xudoning azamati biror foyda ko‘rmagani kabi uni sovurib yuborishdan ham jabarutiga ziyon yetmaydi. Chunki Xudo bu yaratiqlarga muhtoj emas. Xudoning qudratini Alisher Navoiy butun koinot bir etak kuldek yulduzlarning bir hovuch guldek sochilishini ifodalash bilan anglatadi. Xudoning qahri o‘zini namoyon etishi bilan qiyomat sodir bo‘ladi:

1) yettinchi qavatda Zuhal;
2) oltinchi qavatda Mushtariy;
3) beshinchi qavatda Bahrom;
4) to‘rtinchi qavatda Quyosh;
5) uchinchi qavatda Zuhra;
6) ikkinchi qavatda Tiyr;
7) birinchi qavatda Oy zavolga yuz tutadi. Qiyomat dahshati shu tariqa yerga yetib keladi. Dengizlar iztirobga tushib qaynaydi, ko‘piklari, to‘lqinlari yulduzlarga tegadi; yer o‘z o‘rnidan qo‘zg‘aladi – hosil bo‘lgan g‘ubor sababli falak ko‘zga ko‘rinmay qoladi; tog‘lardan taraqlagan tovushlar yangraydi, ularning bu faryodlari ayriliq nidosi bo‘lgan “Alfiroq” singari yangraydi.

Mazkur nuqtada Alisher Navoiy olamning futur topishi – barpo bo‘lgan koionotning yo‘qlikka yuz tutish jarayonidagi dahshatlarni

ifodalaydi. Shoir shu o‘rinda “fano yeli” so‘zini qo‘llaydi: fano yeli esadi va hammasi g‘oyib bo‘ladi. Faqat Alloh boqiy qoladi. Fano yelidan murod koinot avval yo‘q edi, so‘ng mavjud bo‘ldi va yana ilgarigi holiga qaytdi – bo‘lmagandek holga keldi. Allohning Boqiyligi haqidagi haqiqat o‘zini ko‘rsatdi. Shoir “*Yor muabbad bo‘lub, ag‘yor yo‘q”* misrasi bilan Allohni Yor deb ataydi, buning zamirida koinotdagi barcha yaratiqlar Allohga oshiqlik izhor etganligi, jamiki maxluqotlarning Allohga muhtojligi to‘g‘risidagi so‘fiyona qarashlar bor. Lekin Alloh ularning hech biriga ehtiyojmand emas. Shoir “*Arzu falak yo‘qidinu boridin // Borchaning ixfosiyu izhoridin // Ne azamat ichra Anga sud o‘lub // Ne jabarutig‘a ziyonbud o‘lub”* satrlarida yer va koinotning yo‘qligi – ixfo ekanligidan Allohning azamatiga sud (foyda), borligi – izhor (zohir) ekanligidan Allohning jabarutiga ziyon ham yetmasligini qat’iy ta’kidlaydi. Mazkur misralar sarlavhada aks etgan ma’noning ifodasidir. Shoir bu fikrlariga hujjat tarzida Qur’ondan oyat keltiradi:

لِلّٰهِ الْمُلْكُ الْيَوْمَ ۚ لِمَنِ الْمُلْكُ الْيَوْمَ ۖ لِلّٰهِ الْوَاحِدِ الْقَهَّارِ (16)

Ma’no tarjimasi:

“Ular (qabrlaridan) chiqadigan (qiyomatda) Allohga ulardan biror narsa maxfiy bo‘lib qolmas. “Bugun podshohlik kimnikidir?” (deb so‘rab O‘zi aytur:) “Vohid (yagona) va Qahhor (g‘olib) Allohnikidir”.

Alisher Navoiy oyatdagi لِمَنِ الْمُلْكُ kalimasini baytda iqtibos o‘laroq keltirib, o‘z bayonining manbasini aniq va ravshan ko‘rsatadi.

Bobning so‘nggi uch baytida shoi Allohdan o‘zi uchun afv va marhamat o‘tinadi.

Biz mazkur tahlil jarayonida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. “Hayrat ul-abror” dostonidagi ikkinchi munojot apokoliptik adabiyot namunasi bo‘lib, unda Alisher Navoiyning qiyomat sodir bo‘lishi, olamning yo‘qlikka yuz tutishi haqidagi e’tiqodi aks etgan.

2. Alisher Navoiy koinotni yolg‘iz Yaratuvchining mulki, san’ati, qudrati o‘laroq biladi va buni badiiy shaklda aks ettiradi, koinotning paydo bo‘lishi yakka Xudoning irodasi va lutfini aks ettirgani kabi

buzilib, avvalgi holiga – yo‘qlikka qaytishi ham yagona Xudoning xohishi va qahrining namoyishidir.

3. Alisher Navoiy koinotdagi har bir yaratiq Allohga ibodat qilishini bildirishi bilan maxluqlar Unga, Uning rahmatiga muhtojligini ta’kidlaydi.

4. Alisher Navoiy koinotni yetti qavat osmondan iborat deb bilgan va qiyomat tasvirini yuqori qat falak – yettinchi osmondan boshlaydi. Har bir qavatdagi posbonlarning qiyomatdan dahshatga tushishini batafsil ifodalaydi.

5. Alisher Navoiy yerni Oy osmonida deb hisoblaydi va yerda qiyomat sodir bo‘lganda yuzaga chiqadigan holatni tog‘lar va dengizlarning aql bovar qilmas ahvolga tushishi bilan chizib bergan.

6. Koinotning bor va yo‘qligidan Xudoga foyda va ziyon yetmaydi, Alisher Navoiyning bu haqdagi fenomeni Qur’onga tayanishi uning yakunda keltirgan iqtibosi bilan o‘z isbotini topadi.

Umuman olganda, o‘zbek adabiyotidagi apokoliptik janrga mansub asarlarni aniqlash, ulardagi muallif fenomeniga diqqat qaratish, shuningdek, nazariy jihatlarini tahlil qilish, badiiyatini o‘rganish, kitobxonlar tasavvuriga hosil qiladigan tasavvurlarini tadqiqqa tortish, apokoliptik adabiyotning keyingi davr adabiyotiga, adabiy tafakkurga, umuman, badiiy san’atga o‘tkazgan ta’sirini aniqlash galdagi vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат-ул-аброр / Илмий-танқидий матн; Тузувчи: Порсо Шамсиев. – Т.: Фан, 1970

2. Алишер Навоий ва XXI аср: мақолалар тўплами; масъул муҳаррир Ш. Сирожиддинов. – Т.: Tamaddun, 2016.

3. “Ilm-fan va ta’limda innovatsion yondashuvlar, muammolar, taklif va yechimlar” mavzusidagi 5-sonli Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi materiallari to‘plami, 30-oktabr, 2020-yil. – Farg‘ona shahri: Academiascience, 2020. – B. 180 – 185

4. Reviewed Work: The Apocalyptic Imagination in Medieval Literature by Richard K. Emmerson, Ronald B. Herzman. Review by: Steven F. Kruger // The Journal of English and Germanic

Philology // Vol. 93, No. 1 (Jan., 1994), pp. 109-112 (4 pages) // Published By: University of Illinois Press

5. Revelation and the Apocalypse in Late Medieval Literature: the Writings of Julian of Norwich and William Langland (Religion & Culture in the Middle Ages) //Publisher : University of Wales Press; 1st edition (April 18, 2020) // Language: : English // Hardcover : 288 pages.

6.The Apocalypse in the Middle Ages https://books.google.co.uz/books?id=KV3XsVpwx1oC&printsec=frontcover&hl=ru&source=gbs_ge_summary_r&cad=0// Richard Kenneth Emmerson, Bernard McGinn // Cornell University Press, 1992 – 428 page

7.Xamsa: to‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik / A. Navoiy; nashrga tayyorlovchilar: I.Haqqul; mas’ul muharrir S.Rafiddinov; O‘zRFA, A.Navoiy nomidagi til va adabiyot in-ti. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2013. – 812 b.

8.Электрон манба: https://plato.stanford.edu/entries/phenomenology/ .

9.Философия луғати. – Т.: Ўзбекистон, 1976. – Б. 514.

10.Электрон манба: https://www.britannica.com/art/apocalyptic-literature

11.Электрон манба: https://www.newworldencyclopedia.org/entry/ Apocalypticliterature

12.Электрон манба: https://lithub.com/the-50-greatest-apocalypse-novels/

III. ALISHER NAVOIY LIRIK MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI

III. THE PROBLEMS OF STUDYING LYRIC HERITAGE OF NAVOI

G‘AZALDA MA’NO ENERGETIKASI
THE ENERGY OF MEANING IN THE GAZELLE

Suvon MELI
O‘zR FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklor instituti
(O‘zbekiston)

Annotasiya

Mazkur maqolada g‘azaldagi ma’no va kuy uyg‘unligi haqida fikr yuritilgan. G‘azalning kuyga solingandan so‘ng ortib boradigan ma’no ottenkasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *g‘azal, kuy, navo, maqom, ma’no kuchi, ottenka.*

Annotation

This article discusses the meaning and melody of the poem. An analysis of the increasing meaning of the ghazal after the melody is performed.

Key words: *ghazal, melody, melody, status, power of meaning, ottenka.*

So‘z yakka o‘zi va o‘zaro aloqaga kirishib muayyan ma’no anglatadi. Og‘iz juftlash yoki qog‘oz qoralashdan maqsad birovga nimanidir aytish, nimagadir chorlashdir. She’riyat esa el-ulusga, kelajak avlodga aytmoqchi bo‘lgan xos ma’nodirkim, shuning uchun u adabiyotshunoslikda badiiy ma’no deb yuritiladi. Badiiy ma’no hamisha she’rxonga, tingnlovchiga qaratilgan bo‘ladi. “Lekin she’r bahosi muxlisgadir tan” (A.Oripov) deyilganidek, asl badiiy ma’no unga ixlos qo‘ygan odamgagina o‘z ko‘rk-jamolini ko‘rsatadi.

Odatda muxlis bilan ma’no (she’r) o‘rtasida maxfiy muloqot kechadi. “Maxfiy” deyishimizga sabab, ikki o‘rtada kechadigan ma’noviy jarayonni aniq belgilash, mantiq tiliga ko‘chirish juda mushkul, hatto to‘lig‘icha ifodalash imkonsiz. Zero, ma’noviy muloqot o‘zining tub mohiyatida kvantfizikaviy, hattokim, ilohiy hodisadir. Bu, yuqorida aytilganidek, uning qamrov parametrlarini anglash, aniqlash g‘oyat qiyin deganidir. Shu o‘rinda bizga san’atning yana bir turi – musiqa yordamga keladi. Avval paydo bo‘lishidanoq mumtoz g‘azaliyot musiqa bilan chambarchas bog‘liq hodisa bo‘lib, aytishlaricha, qadim zamonlarda g‘azal o‘qilmagan, kuylangan. Bu yaralishi bilan musiqiy ohangga asoslangan aruz vazni tabiati bilan ham bog‘liq, albatta. Bundan ham nazariy, ham amaliy bir xulosa kelib chiqadi, ya’ni ma’no, ayniqsa, mumtoz g‘azaldagi ma’no g‘azalning musiqiy talqini – ashuladan tashqari anglanishi, demakki, o‘rganilishi mumkin emas. Bu, sal oshirib aytganda, opera librettosini o‘qib operaning butun ma’no-mohiyatini anglab yetdim, deganga o‘xshagan g‘ofilona gapdir.

O‘zim musiqashunos bo‘lmaganim bois bu masalada shu soha vakili bo‘lmish taniqli hofiz va mumtoz musiqamiz bilimdoni O‘lmas Rasulovga sim qoqdim. Payti ham aniq esimda, 2020-yil, 19-may. Avval o‘z g‘oyamni aytdim:

– G‘azaldagi ma’noni musiqiy talqin, ashulasiz to‘liq o‘rganish mumkin emas.

– Juda to‘g‘ri, - dedi O‘lmas aka.

Shundan so‘ng, men o‘z ma’ruzam uchun Hazrat Navoiyning “Ne navo soz aylagay...” g‘azalini olishim, uni sozanda Nafisa To‘xtayeva maromiga yetkazib ijro etganini aytganimda, O‘lmas aka bu ashula dastlab akademik hofiz va bastakor Yunus Rajabiy bastalagan “Farhod va Shirin” musiqali dramasida yangragani, uni mashhur xonanda Zaynab Polvonova ijro etgani, bu ijro oldida Nafisa To‘tayeva yosh boladek bo‘lib qolishini aytdi. Shundan so‘ng ijrodan olgan inja taassurotini bayon eta boshladi:

– G‘azal ijro etilganda avval odam raqsga tushgisi keladi, keyin bora-bora raqs yig‘iga aylanadi, endi ruh raqsi boshlanadi. Ruh yig‘laydi. Vujud yo‘qoladi.

– Ruh yana sassiq vujudga kirishini bilib yig‘lar balki, – dedim

men. Bu fikrga suhbatdoshim munosabat bildirmadi, yo tasdiqladi, yo qo‘shilmadi. O‘zim keyin angladimki, fikrim xato. Bunday paytda ruh vujudni tamom unutadiku oxir.

Taniqli hofiz va musiqashunos bilan bo‘lib o‘tgan bunday mazmundor suhbat o‘z g‘oyamga bo‘lgan ishonchimni mustahkamladi hamda shu sohadagi izlanishlarga rag‘bat uyg‘otdi.

Darhaqiqat, ohanggi topilib, mumtoz ashulaga aylangan g‘azal butun vujudi bilan kuylaydi, ich-botinidagi bor dardu alamini to‘kib soladi. Harfiy yozuvdagi g‘azalda ma’no sokit, go‘yo uxlagan holatda bo‘lib, uni aniqlash va tahlil qilishga urinish xuddi uyqudagi mudroq odamdan fikr so‘raganga o‘xshaydi. G‘azal maromida kuylanganda go‘yo u uyqudan uyg‘ongandek, qaddini rostlagandek, butun borlig‘ini ko‘z-ko‘z qilgandek bo‘ladi. Buyuk ashula og‘ushidagi g‘azal chinakam badiiy asar, mo‘jiza va uni ayni shu holatda, ayni shu aurada mushohada qilgan holda tahlil va tadqiq qilish maqsadga, aynan ilmiy maqsadga muvofiqdir. Hissiyot va tuyg‘ular olamining o‘z maxsus tili bo‘lganidek, so‘z bilan ohang uzviy birikkan ashulani ham o‘z dardu holi bor.

Zamonamizning ulug‘ shoiri Abdulla Oripov “Navoiyni anglash” (2007-yil) maqolasida “Biz yuqorida keltirgan she’riy misralarni balkim har qanday mutaxassis ilmiy-badiiy jihatdan to‘g‘ri sharhlab bera olar. Lekin Navoiy hasratiyu armonini kim sharhlay oladi?” deya o‘rinli savol tashlagandi [Орипов, 2010: 281]. Shoir ko‘zda tutgan-tutmagan g‘ayrioddiy “sharhlovchi”dan biri, shubhasiz, musiqadir.

Aslida g‘azal jo‘rligida yangraydigan musiqani sharhlovchi deyish unchalik to‘g‘ri emasdir. Chunki muayyan g‘azal asosida yaratilgan ashula ohanglari, chertim va aytim yo‘llari bilan birgalikda, avval boshdan g‘azal botinida mavjud bo‘lib, buni ilohiy tarzda ilg‘agan bastakor azaliy mavjud ohangni, nolishlarni yuzaga chiqarar, balki. Nima bo‘lganda ham musiqa g‘azalda so‘z orqali ifoda etilgan fikr va his-tuyg‘ularni o‘z sehr-jozibasi orqali tinglovchiga, muxlisga inja yo‘sinda yetkazib bera oladi.

G‘azalning ma’no-mazmun jihatidan turlari ko‘p. Lekin uni shakl, tashqi tuzilish jihatidan ikkiga, tarkibida radif mavjud g‘azallar va radif mavjud bo‘lmagan, ya’ni turli qofiyadosh so‘zlar bilan

baytlari yakunlangan g‘azallar. Bu jaydari tasnif, albatta, lekin u shu o‘rinda bizga kerak. Ushbu tasnifda radif tayanch hodisa sifatida olinmoqda hamda bu uning g‘azal strukturasi va ma’no tizimida alohida ahamiyat kasb etishini urg‘ulaydi. Odatda, she’riy misralarda qofiyadosh so‘zlardan keyin kelib misrani yakunlovchi bir xil so‘z yoki so‘z birikmasi radif hisoblanadi. Nazarimizda, hozirgacha radifning badiiy vazifasi va ahamiyati, ayniqsa g‘azaldagi uning strukturaviy va ma’noviy xizmati yetarlicha tadqiq qilinmagan. Buning uchun umuman radif haqida gapirmay, muayyan g‘azalda uning aniq poetik vazifasini o‘rganish samaraliroq, bizningcha.

Radif g‘azal maydonida ishtirok etar ekan, u bunda asarning poetik va g‘oyaviy konsepsiyasini hosil qiluvchi va boshqaruvchi, ularni muayyan nuqtada birlashtiruvchi yetakchi struktur omil hamda kalit so‘z yoki so‘z birikmasidir.

Dastavval g‘azalning shakliy arxitektonikasiga nazar tashlaylik. Matla’, ilk bayt, shoir “ikki daryo yuvar kokilin” deganidek, bir-biriga mutanosib, ya’ni qofiyadosh so‘zlar va radifdan tashkil topgan “ikki kokil”, ikki misra, ya’ni bayt. Matla’ so‘zi ma’lumki, arabchada quyosh va yulduzlarning chiqish joyini anglatadi. Matla’ orqali g‘azal vujudi paydo bo‘lar ekan, u yangi kuch, yangi ma’no bilan go‘yo porlaydi, tug‘ilganidan belgi beradi. Keyingi baytlar matla’dan farqlanib, uni shaklan to‘liq takrorlamaydi. Faqat navbatdagi baytdagi ikkinchi misra orqali matla’ga uyqashlik hosil qiladi va shunday jarayon g‘azal oxirigacha davom etadi.

Maqta’ g‘azalning so‘nggi bayti bo‘lib, aksariyat hollarda muallif nomini o‘zida muhrlaydi. Bu hol, birinchidan, o‘ziga xos an’ana bo‘lsa, ikkinchidan, g‘azalda shu paytgacha aytilgan ma’no va tuyg‘ularga muallif munosabatini ko‘rsatib, unga husn-tarovat baxsh etadi. Biz quyida Hazrat Navoiyning yuqorida nomi aytilgan g‘azali tahlili orqali asar strukturasi, aqliy va hissiy olami, ma’no energetikasi va bunda radifning roli hamda badiiy vazifasini ko‘rsatishni niyat qildik. Men hofizimiz O‘lmas Rasulov aytgan Zaynab Polvonova ijrosini eshitmaganman, yoki eshitgan bo‘lsam-da, eslay olmayman. Lekin Nafisa To‘xtayeva ijrosidagi “Ne navo soz aylagay...” ashulasini ko‘p marotaba tinglaganman, bu ijro ongxotirimda muhrlanib qolgan. Tahlil jarayonida ushbu ashula istasam-

istamasam qulog‘im ostida, ong-shuurimda yangrab turadi va buyuk g‘azal borasida fikrlashimga madad beradi.

Shunday qilib, g‘azalning matla’si bundfy:

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,

Aylamas to‘ti takallum shakkaristondin judo.

Radifning ma’no yetakchilik roli ayniqsa matla’da yaqqol ko‘rinadi. U takrorlanar ekan, ham ma’no, ham ohangi bilan baytni boshqaradi va butun g‘azalning ma’no energetikasi, ta’sir quvvatini belgilab beradi. Ushbu jarayonga go‘yo start beradi. Ashulada har safar ovoz “judo”ga kelganda bir qayrilish qiladi-da, sinay-sinay deydi, sinmaydi va yangi harakatga shaylanadi.

Baytdagi radifdan tashqari tayanch so‘zlarni aniqlaydigan bo‘lsak, ular: bulbul – guliston va to‘ti – shakkariston bo‘lib, ular inkorga asoslangan (birinchi misrada ne, ikkinchi misrada – mas qo‘shimchasi) ma’no bilan radifga bog‘lanadi.

Bulbul va gul butun musulmon Sharq adabiyotining an’anaviy timsollaridan bo‘lib, ular hozirgi kunda siyqasi chiqqan obrazlardek tuyulsa-da, aslida olamshumul ramz va jahoniy kodlardir. Qomuslarda yozilishicha, gul (flos) – yopiq urug‘li o‘simliklarning generativ (jinsiy urchish) organidir. Bu, albatta, gulning o‘ta moddiy, ashyoviy ma’nosi, lekin ushbu ma’no gul va bulbul qo‘shaloq timsolining jahoniy ezoterik miqyosini ochishga imkon beradi. Ya’ni u ikki jins – erkak (bulbul) va ayol (gul) ni ramzlaydi.

Ezoterikaga oid kitobda yoziladi: “Birdan (sof eng, XUDOdan) Ikkilik (erkak va ayol) kelib chiqadi. Shundan so‘ng asl mohiyatda bir bo‘lgan Uchlik o‘rtasida o‘zaro hamkorlik bo‘lishi mumkin” [Myara, 2008. 227]. Bu haqiqat muqaddas kitobimiz “Qur’oni karim”da shunday marhamat qilinadi:

“Ey insonlar! Sizlarni bir jondan (Odamdan) yaratgan va undan juftini (Havvoni) vujudga keltirgan hamda u ikkovidan ko‘p erkak va ayollarni tarqatgan Parvardigoringizdan qo‘rqingiz” (“Niso” surasi, 1-oyat).

Bir jondan yaralganlar orasidagi muhabbat o‘zining xos holat va oliy onlarida Yaratgan tomon yo‘naladi. Qisqasi, yaralganlar ishqi Yaratgan ishqi bilan yakun topadi. Ishqi haqiqiy ham aslida shu.

Mana, bulbulning gulga oshiqligi, gulning bulbulga ma’shuqaligi qaerlarga olib ketadi gapni.

Ilk misraga tanosib tarzida kelgan ikkinchi misradagi to‘ti va shakkaristonga kelsak, to‘ti jonzotlar orasida insonga taqlidan so‘zlay oladigan yagona qush hisoblanadi. Lekin u ham o‘z makoni shakkaristonidan ayro bo‘lsa takallum qilmaydi, ya’ni gapirmaydi. Shakkariston nayshakarzorni anglatib, majoziy ma’nosi biri shirin suhbat, ikkinchisi ma’shuqaning labidir. Demak, hatto shu bitta so‘z bilan ham ma’no Oliy xilqat tomon yo‘nalmoqda.

Ikkinchi bayt:

Ul quyosh hajrida qo‘rqarmen falakni o‘rtagay,

Har sharorekim, bo‘lur bu o‘tlug‘ afg‘ondin judo.

Shu baytdan boshlab yana bir yetakchi so‘z – tushuncha haj (ayriliq, judolik) g‘azal maydoniga kiradi va o‘z ma’nosi bilan radifdagi o‘ziga yaqin mazmunni yanada kuchaytiradi. Ayni shu yerdan boshlab g‘azaldagi asl muddao “Ul quyosh” tarzida yuz ko‘rsatadi. Biz buni hozircha Yaratgan deya olmaymiz. Lekin o‘ziga behad jalb etuvchi, olamni yoritadigan, isitadigan, jonzotu nabototga hayot baxsh etadigan quyosh nimagadir majoz bo‘layotgani, undan ayrilish esa Men ni cheksiz iztirobga solayotgani aniqdir.

G‘azalning keyingi baytlari, masalan, 4-baytida yana hajrga murojaat qilinib, “ul quyosh”ning badali Yor matnga kiradi:

Bo‘lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag‘il,

Yorni mendan judo yoxud meni ondin judo.

Shu yerdan boshlab g‘azalning bosh g‘oyasi, konsepsiyasi oydinlashadi. Tiriklikning mazmuni ham, yashashning ma’nosi ham o‘n sakkiz ming olamni yaratgan Allohdir. Undan ajralganning holiga voy.

“Qur’oni karim”da shunday deyiladi: “Aniqki, Allohni zikr qilmoq (barcha narsadan) ulug‘roqdir. Alloh qilayotgan ishlaringizni bilib turur” (“Ankabut” surasi, 45-oyat). Hozirgi tilimizda “zikr qilmoq” ko‘pincha so‘zlash, bayon etish ma’nosida qo‘llanadi, lekin uning eslash, xotirlash degan ma’nolari ham borki, Yaratganni xotirlash, ya’ni Uni xotir-o‘y va ko‘ngilga kiritish barcha narsadan ulug‘roqdir, deyilmoqda Alloh kalomida.

G‘azalning 5-baytida ayriliq dardi, hissiyot eng yuksak cho‘qqiga chiqadi. U g‘azalning chinakam shohbaytidir.

Hajr o‘lumdin talx emish, mundin so‘ng, ey gardun, meni,
Aylagil jondin judo, qilg‘uncha jonondin judo.

Baytda yana “hajr” yetakchilik qilib. u o‘limdan ham achchiq, shu tufayli “men” “gardun” (falak, koinot)ga murojaat qilib, quyma ikkinchi misrani aytadi – “Aylagil jondin judo, qilg‘uncha jonondin judo”. Bunda “jon” va “jonon” tazodi vujudga kelib, “Jonon” endi oddiy sevgili, ma’shuqa emas, Yaratgan ekanligi aniqlasha boradi. Shu yerda bir gap. Hazrat Navoiy juda ko‘p g‘azallar bitgan, lekin o‘zining sanoqli g‘azallariga muxammas bog‘lagan. Shunday asarlardan biri – ushbu g‘azaldir. Bu narsa buyuk shoir ushbu g‘azalini naqadar yuksak qadrlaganini ko‘rsatadi. G‘azalning so‘nggi bayti, ya’ni maqta’ Yaratgan haqidagi Allohga muhabbat ehtirosiga to‘la buyuk asarni munosib yakunlaydi:

Bir iyosiz it bo‘lib erdi Navoiy yorsiz,
Bo‘lmasun, yo Rabki, hargiz banda sultondin judo.

Oldinroq Yor – Alloh, Yaratgan ekanligini aytgan edik. Odam, banda (hazrat Navoiy bu yerda butun yukni o‘z gardaniga oladi) Yorsiz egasi yo‘q daydi it kabidir, u qayga borishni ham, qaysi tuynukka bosh suqishini ham bilmaydigan it kabi. Shu yerdagi “erdi” so‘ziga e’tibor qarataylik. Mashhur bir hofiz ushbu ashulani kuylay turib, “erdi” o‘rniga “qoldi” so‘zini ishlatadi, natijada qo‘pol xato, Hazrat Navoiy sha’niga tuhmatga o‘xshash ma’no kelib chiqadi. Ya’ni Navoiy (banda) Yorsiz egasiz it bo‘lib qoldi?! Asliyatdagi “erdi” esa “bo‘lmoq” fe’lining o‘tgan zamoni bo‘lib, voqeaning o‘tgani, ortda qolganini anglatadi. Ya’ni bir paytlar Navoiy Yaratgandan ayro bo‘lganda egasiz it kabi edi, endi unday emas, deyilmoqda maqta’da. Shu yerda ilk marta Yaratganga majozsiz murojaat qilinmoqda – “yo Rabki”. Bu ham g‘oyat ma’nodor nuqta bo‘lib, Yaratgan haqidagi, Undan ayrilish, hijron alam – anduhlari she’r yana O‘ziga qaratilgan xitob bilan tugallanmoqda. Radifdan oldingi ikki so‘zga kelsak, banda – banda, Sulton esa, shak-shubhasiz – Yaratgandir. Shunday qilib muhtasham g‘azal yakunlanadi, uning qat-qati va qabatlarida cheksiz nola chekkan ashula ham tugaydi. Uning bunchalik ta’sir kuchi, qalbni sel qiluvchi quvvati, energetikasi nimada? Bunda

ikki omil mavjud deb o‘ylayman. Birinchisi, g‘azalda madh etilgan (hijron azobi ham madh) zot – Yaratganning bemisl, hech bir ta’rifga sig‘maydigan kuch-quvvati, ikkinchisi Inson, bandaning Yaratganidan ayro tushishning qanchalik alamli ekanligining katta badiiy kuch bilan tasvir va ifoda etilishi. Ezoterikaga oid kitobda shunday yoziladi: “Hatto Oliy Reallikning transsendental sifatlarini shunchaki muhokama qilish yoki Xudo haqidagi oddiy gap-so‘zlar ham qalbni poklovchi eng kuchli malhamdir” [Каптен, 1996: 321].

Hazrat Navoiy esa Yaratgan haqida shunday o‘tli misralar bitar ekan, ular kuch-qudrat sohibi va qalblarga malham bo‘lishi tayindir. G‘azal va ashula o‘zining ma’no energetikasi, ma’no-mohiyatini Yaratgandan olsa, neajab.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 6-жилд. Тошкент: Шарқ, 2010.

2. Каптен Ю.А. Тайны Агни – Йоги или анатомия фальсификаций. Санкт-Петербург: Изд. Общество духовной и психической культуры, 1996.

3. Эшби Муата. Египетская йога: Секретные техники. М.: ООО Издательство «София», 2008.

BIR G‘AZAL SHARHI

A GAZELLE COMMENT

Rashid Zohid
ToshDO‘TAU
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

“G‘aroyibus sig‘ar” devonidan keltirilgan bu g‘azalda fano va baqo manzaralari insonning dunyoga va Haqqa munosabati orqali, bir-birini taqozo qiluvchi va ayni paytda o‘zaro zid tazodli majozlar vositasida go‘zal tarzda chizib ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: buqalamun, tufroq, dunyo, jarida, dunyo arusi, haram vasli, qurbat

Annotation

In this ghazal, quoted from the Gharoyibus Cigar, the scenes of death and eternity are beautifully depicted through man’s relation to the world and to the Truth, through metaphors that contradict each other and at the same time contradict each other.

Key words: *I am a bull, soil, world, jarida, world bride, haram vasli, qurbat.*

Bu dunyoning boqiy emasligi, undagi to‘kin-sochinliklar kun kelib yo‘qotish va mahrumlikka, gullab yashnashlar barbodlik va xorlikka aylanishi yoki bularning mutloq aksi bo‘lib, kecha oyoq ostida toptalgan narsa bugun boshlarga ko‘tarilishi, mag‘lubiyat g‘alabaga do‘nishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoning ishlari mana shu tarzda o‘zgarib turishi mo‘tabar manbalarda zikr etilgan. Balki, shu e’tiborga ko‘ra, dunyo va undagi narsalarga munosabatda doimo muvaqqatlik kayfiyati bilan yondashuv lozimligini uqtiruvchi qarash mumtoz adabiyotimizning asos mavzularidan biriga aylangan.

Olloh taolo deydi: *“Bu hayoti dunyo faqat (bir nafaslik) o‘yin-kulgudir, xolos. Albatta Ollohdan qo‘rqadigan kishilar uchun Oxirat*

diyori yaxshiroqdir. Axir aql yurgizmaysizlarmi?!” Bobomiz Alisher Navoiy bu xitobni anglagan, haqiqatni ich-ichidan his qilgan bir mo‘min-musulmon, hassos qalb egasi edi [An’om surasi, 6-oyat]. Mumtoz bir adab sifatida esa dunyoning qavat-qavat pardalariga o‘ralgan, o‘ta maxfiy, haddan tashqari inja fitnalarini ko‘ra olgan o‘tkir va sog‘lom nazar sohibi edi. Shuning uchun g‘azalning avvalgi baytidayoq, bir qarasangiz oq, yana bir qarasangiz qora va boshqa ranglarda tuslanayotgan buqalamun dunyoning jazbasiga e’tiborni buradi:

Jahoni buqalamun ichra tushmish elga gudoz,
Magarki tosig‘a o‘t yoqti charxi shu’badaboz.

Bu o‘tkinchi, o‘zgaruvchan dunyo ichra o‘t tushib, odamlari go‘yo kuyib, erib borayotgandek. Bu joziba insonni shu darajada asir qilganki, qochish o‘rniga o‘zini o‘tga uryapti, dunyo bilan qo‘shilib, o‘zining umri erib, yo‘q bo‘lib borayotganini sezmayapti. Yo‘q, Navoiyni bu tasvir qoniqtirmadi, endi u dunyoni tagidan olov yoqilayotgan tosga o‘xshatdi. Olovni yoquvchi – charxi sho‘badaboz, ya’ni doimiy aylanishda bo‘lgan olamning harakati shu qadar tez bo‘lishiga qaramasdan, odamzod na bu tezkor harakatni, na ostidan urayotgan olovni sezmasdan bamaylixotir yuribdi. Bunchalik xavfni sezmaslik uchun inson sehrlangan bo‘lishi kerak. Toki, bu sehrdan xalos bo‘lmaguncha u har soniya, har daqiqa erib borayotganini xayoliga ham keltirmaydi. Ha, inson mana shu tarzda sabablarning qutqusiga uchgan... Lekin tosning boshqa bir vazifasi ham bor – poklanishga vosita bo‘lish! Navoiy bu ma’noni ham nazardan qochirmagan, eslang: “*Jahondin notamom o‘tmoq ba ayni / Erur hammomdin nopok chiqmoq*”.

Bu turfaroqki, munungdek tamug‘ aro tushmish,
Samuru qoqum uchun olam ahlig‘a taku toz.

Yo‘q, bundan-da ajibroq tashbeh shuki, dunyo oshlangan oppoq suvsar terisiga mengzaydi, u lovillagan jahannamga tashlangan, dunyo ahli unda o‘zini o‘tga, cho‘qqa urib yelib-yuguryapti. Bayt “Bu turfaroqki...” deb boshlanar ekan, tashbehni yanada quyuqlashtirishga hojat sezildi. Sababi, yuqoridagi o‘xshatishlarda dunyo timsolidagi vaqt tushunchasining sur’ati o‘zining darajasidan biroz sustroq tasvirlangandek bo‘ldi. Aslida, dunyo olovga tashlasa,

bir zumda kuyib kul bo‘luvchi oshlangan teriga o‘xshaydi. Shunday teriki, qimmatbaho, mo‘ynasi mayin, oppoq, suvsar terisi! Bu sifatlar lovullagan olovga uloqtirilgan terining kulga aylanishini yanada tezlashtiradi. Dunyo muhabbatining kuchiga qarangki, olam ahli juda tez o‘tayotgan vaqtni his qilmayapti, shu holatda ham dunyo uchun tinimsiz yelib yuguryapti. Dunyo fitnalari shunday... tugamaydi.

Sahobiylardan Zayd ibn Arqam aytadi: “Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu bilan birga edik. U kishi ichishga biror narsa so‘radilar. Asalli suv keltirishdi. Suvni og‘ziga yaqinlashtirar ekan, Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu yig‘lab yubordi. Hatto bu yig‘i shu yerdagi boshqa sahobalarni ham yig‘latdi. Hamma yig‘idan to‘xtasa ham, Olloh rozi bo‘lsin, Abu Bakr yig‘lashdan to‘xtamadi, yig‘layverdi. Sahobalar yig‘ining boisini darhol so‘rashga botina olmadilar. Keyin Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu ko‘z yoshlarini artdi. Shunda sahobalar: “Ey Rasulullohning xalifasi, sizni nima yig‘latdi?” – so‘rashdi. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu aytdi: “Rasulullоh sollallohu alayhi va olihi va sallam bilan birga edim. Rasulullohning o‘zidan nimanidir haydayotganini ko‘rdim, yonlarida hech kim yo‘q edi. Shunda men: “Ey Ollohning rasuli, o‘zingizdan nimani haydayapsiz?” – dedim. Rasuli akram aytdilar: “Bu dunyodir, u menga ko‘rinyapti, uzoqroq bo‘l, deb dunyoni o‘zimdan quvdim, keyin u ketdi va dedi: “Sen meni o‘zingdan uzoqlashtirgan bo‘lsang-da, sendan keyingilar mendan qutula olmaydi!” [Ibn Abu Dunyo va Bayhaqiy bu hadisning sanadini sahih deyishgan].

Qarang, Payg‘ambarimizdan uzoqlashgan dunyo Abu Bakrga yaqin keldi va uni yig‘latdi, bizning ichimizga kirib, surur bag‘ishladi. Mana, dunyoning fitnasiga aldanib qolishning oqibati..! So‘ngra dunyo uni istagan ko‘yga soladi, oltin-kumushlari bilan zanjirband etib, meni quch, mening osmonimda uch, deydi. Endi ayting-chi, dunyoning qullariga qul bo‘lgan kimsa Ollohga qanday bandalik qiladi?!

Ne ko‘kka chiqmoq erur dolboyu o‘tag‘a bila
Ki, bolu par bu esa, mumkin ermas ul parvoz.

Dunyoga aldanib qolgan inson xuddi xo‘rakka o‘rgatilgan ov qushiga o‘xshaydi. U ko‘kka ko‘tariladi-yu, ov xo‘ragini ko‘rib, shu

zahoti ovchining qo‘liga qo‘nadi. Boz ustiga, uning boshida jig‘asi bor, dunyo bilan g‘ururlantiruvchi, mast qiluvchi! Qachonki, inson dunyoga chirmab tashlaydigan bu xo‘rak va bu jig‘ani qanot deb bilsa, ayting-chi, bunday qanotlar bilan ko‘kka parvoz qilish mumkinmi?!

Ne garmlig‘ni qo‘yar, ne fusurdalig‘ni bashar
Nechaki kuyub erir o‘tu muz kebi qishu yoz.

Charxi kajraftor tos kabi bu dunyoning ostiga o‘t qalab, na o‘zining yondirib-kuydirishiga tin beradi, na ahli dunyo ham o‘zining g‘aflat og‘ushidagi ruhsizlig-u so‘lg‘inligiga chek qo‘yadi. Holbuki, dunyo olamida qancha qish-u yozlar o‘tib, inson o‘tdek kuyib, muzdek erib borayotir...

Falak arusida yo‘q mehru dilrabolig‘ ko‘p
Nechukki husnu jamol ahlig‘a vafo bila noz.

Dunyo – falak kelinchagi. Husn-u jamol egasida vafo yo‘g‘-u, noz-karashma ko‘p bo‘lganidek, falak kelinchagi bo‘lgan dunyoda ham mehr yo‘q, ammo dilni o‘ziga tortuvchi jozibasi ko‘p! To Qiyomatgacha bu hol davom etaveradi, na sinovlarga to‘la dunyoning fitnalarida tinim bor, na insonning g‘aflat uyqusida. Navoiy o‘zaro zid bu ikki harakatdan hayratda. Mayli, dunyoni tushunish mumkin, buyurilganni qilyapti, tabiatidan chetga chiqish ixtiyori unda yo‘q. U misoli chiroyli kelinchak, noz-ishvasi ko‘p, vafosi yo‘q, jozibasi ko‘p, mehri yo‘q. Lekin inson nega sust, umrining bemahsul o‘tib ketayotganiga loqayd, beparvo, fikrdan, zikrdan bunchalar g‘ofil?!

E*gilib o‘psa yer ahli g‘urur hurmat uchun,*
Shabih erur anga mutlaqki mast qilsa namoz.

Dunyoga, uning matohlariga aldanganlarning hurmat yuzasidan tavozu’ bilan egilib, yer o‘pishlari mast holda namoz o‘qiyotgan kishiga o‘xshaydi. G‘ofillik shu darajadaki, bandaligini izhor etmoqchi bo‘ladi, faqat Xoliqqa emas, maxluqqa! Uning o‘ziga o‘xshagan ahli dunyo oldida kamtarlik bilan egilib yer o‘pishlari mast holda namoz o‘qiyotgan kishini eslatadi. Go‘yo Navoiy: o‘zi mast bo‘lsa-yu, namoziga balo bormi, deyayotgandek. Albatta hazratning bunday deyishiga asosi bor: “Ey mo‘minlar, to gapirayotgan gaplaringizni bilmaguningizcha mast holingizda namozga yaqin kelmanglar [Niso surasi, 43-oyat]”. Demak dunyoga qul bo‘lib qolish ham majoziy ma’nodagi bir mastlikdir. Bu mastning otashin so‘zlari, chiroyli

ko‘rinayotgan amallari aslida yolg‘on, da’volari kulguli va puchdir. Navoiy dunyo fitnasi va unga aldanib qolish illatlarini birma-bir fosh etgach, keyingi baytlarda bu balodan qutilish choralarini izlaydi, balki topganday bo‘ladi:

Xush ul jaridaki, bir nav’ qilsa sayru suluk
Ki, soya hamqadam o‘lsa anga, kamar hamroz.

Inson shunday bir tarzda yo‘lga tushsaki, bu yo‘lda faqat soyasi unga yo‘ldosh, faqat kamari unga sirdosh bo‘lsa, qanday ajib yolg‘izlik, xolilik bu! Ya’ni, hazratimiz najot xolislikda ekanini eslatyapti. So‘z samimiy, amal xolis, fe’l to‘g‘ri bo‘lsa, Olloh bilan bandasining ishi bitadi, oraga qil ham sig‘maydi. Qilgan yaxshiligingiz qanchalik maxfiy bo‘lsa, shunchalik xolis bo‘ladi. Navoiy ayni xolislikni sog‘ingani uchun “qandayin ajib yolg‘izlik bu, qandayin ajib xolilik” deb uni ardoqlayapti.

So‘nggi baytda Navoiy bu muborak yolg‘izlik va xolilikni “navo” so‘zi bilan ifodalayapti. “Navo” so‘zi biz bilgan “ovoz”, “ohang”, “mungli un”dan tashqari, o‘rni bilan, “boylik”, nasiba”, “bahra” ma’nolarida ham ishlatiladi:

Navo agar tilasang, tut qiroqki, egri bami
Ne ko‘p taponcha yeru ne biyik chekar ovoz.

Agar mungli bir undan bahra olmoq istasang, dunyo shovqinidan o‘zingni chetga ol. Garchi shunday xilvatnishin yer shapaloqdek bo‘lsa ham, u yer sadosining pardasi baland. Demak, xolislikdan taralayotgan un(ün)dan bahra ola bilish – haqiqiy boylik. Moddiy mezonlarga xilof ravishda bunday boylik ko‘p narsalarga ega bo‘lish va turli-tuman shartlarni bajarish majburiyatini zimmaga yuklamaydi, balki dunyo shovqinidan o‘zingizni chetga ololsangiz, bas. Yo‘q, topganingiz adog‘siz kengliklar, go‘zal bog‘-rog‘lar, yastangan tog‘u daralar, baland qasrlar bo‘lmasin, mayli, kaftdek yer bo‘lsin. Modomiki, shu kaftdek yerda dunyo muhabbati hukmron emas ekan, u yerning qadri baland, sadosi baland. Shuning uchun Navoiy o‘ziga-o‘zi nido qilyapti:

Navoiy, yor ila bo‘lkim, budur haram vasli,
Maqoming o‘lsa Ajam yo Iroq yoki Hijoz.

Ey Navoiy, qaerda xolislikni topsang, izlaganing qarshingda! haqiqiy yor, haqiqiy do‘st – Olloh zikri bilan bo‘l! Negaki,

kuylayotgan maqoming xoh Ajam, xoh Iroq, xoh Hijoz cholg‘u yo‘lida bo‘lsin, ichkariga kirish, xoslar davrasini topishning yagona yo‘li – Yaratuvchingni eslash bilan qurbat hosil qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 3-жилд, Т.Фан, 1988, Б.172
2. Порсо Шамсиев.Навоий асарлари луғати.Т.1972, 782 б.
3. Қуръони карим. (Шайх Алоуддин Мансур. Ўзбекча изоҳли таржима. Қуръони каримни ўрганиш илмий маркази. 2004)
4. Қозихўжаев А. Ғазалнинг серовоз олами//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2009, 4 декабр, № 49. –Б.4-6.

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA XAZON FASLI TASVIRI VA UNING ZAMONAVIY SHE'RIYATDAGI TADRIJI

Dilrabo QUVVATOVA
Zarnigor SOHIBOVA
BuxDU, *(O'zbekiston)*

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy lirikasida xazon fasli va dehqon obrazlarining zamonaviy o'zbek she'riyatidagi tadriji masalasi yoritilgan. Bunda Alisher Navoiy qasidalaridan olingan baytlar, A.Oripovning "O'zbekiston", "Kuz manzarasi"; M.Yusufning "Singlimga maktub", "Muddao" she'rlari qiyoslangan va ularga xos mushtaraklik va o'ziga xosliklar aniqlangan.

Kalit so'zlar: *kuz, dehqon obrazi, tashbeh, qasida, she'r, Vatan obrazi, ramz, tadrijiylik.*

Annotation

The article examines the problem of the evolution of the image of autumn and a peasant in the lyrics of Alisher Navoi in modern Uzbek poetry. The poems from the odes of Alisher Navoi, "Uzbekistan", "Autumn Landscape" by A. Aripov; poems by M. Yusuf "Letter to the Sister", "Purpose" are compared and their common features and characteristics are revealed.

Key words: *autumn, image of a peasant, metaphor, ode, poem, image of the motherland, symbol, gradualism.*

Mumtoz she'riyatimizning cho'qqisi bo'lgan Alisher Navoiy ijodida inson umri tabiatning to'rt fasliga qiyosan badiiy talqin etiladi. Uning mashhur "Xazoyin ul-maoniy" devoni qismlari shu asosda ramziy nomlanganligi, har bir faslning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan forsiy tildagi "Sittai zaruriya" ("Olti zaruriy qasida") va "Fusuli arbaa" ("To'rt fasl") qasidalari fikrimizni tasdiqlab turadi. Ulug' mutafakkir nazmida kuz – xazon faslining alohida o'rni bor. Tabiatdan ma'lumki, kuz tushkunlik, xazon, hayotning so'ngi

hisoblanadi. Shoir talqinidagi kuz esa ko‘proq mumtoz lirikada keng qo‘llanilgan hijron – “yoridan ayrilgan oshiq” motivini ta’sirli ifodalashga xizmat qiladi. Ta’kidlash lozimki, hijron, ya’ni “yoridan ayrilgan oshiq” motivi mumtoz shoirlarimiz ijodi doirasida ko‘p takrorlanuvchi poetik obraz bo‘lib, motiv-obrazlar sirasiga kiradi. Bu motiv lirikada an’anaviy tarzda ishlatiluvchi “oshiq – yor – ag‘yor”, “kutayotgan oshiq – kelmagan yor”, “borlig‘ini unutgan oshiq – beparvo yor” singari motiv obrazlardan sanaladi va Alisher Navoiy ijodida juda ko‘p qo‘llangani bilan ahamiyatli [10,18]. Ulug‘ shoir ijodida hijronni kuz fasli manzaralari va bu fasldagi tabiat hodisalari bilan yonma-yon qo‘yish hollari ko‘p uchraydi. Bu borada, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida kuz fasli manzaralari aks etgan 386 hamda 450-g‘azallar ayniqsa e’tiborni tortadi. Bu she’rlarda shoir lirik qahramon holatiga muvofiq kuz tabiati manzarasini mahorat bilan chizadi [9,213].

Navoiy talqinidagi kuz fasli obrazining mufassal tasviri “Fusuli arbaa” tarkibidagi “Xazon” qasidasi bo‘lib, “Devoni Foniy”dan o‘rin olgan. “Saraton”, “Day” va “ Bahor” qasidalarida tabiat tasviri bilan birga Husayn Boyqaro madhi keltirilgan bo‘lsa, “Xazon” qasidasida to‘lig‘icha kuzning go‘zal manzarasi beriladi. Bu ham uni boshqa qasidalardan ajratib turuvchi alohida belgisi hisoblanadi. “Fusuli arbaa”ni alohida o‘rgangan olima G.Boltayeva “Xazon” qasidasining deyarli barcha baytlari majoziy ma’no kasb etadi, desa xato bo‘lmas. Bunday o‘rinlarda borliqdagi jarayonlar inson jismidan tabiatga (yoxud uning aksi) ko‘chiriladi [3,59], – deya ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy she’riyatida xazon fasli manzaralari dehqon obrazi bilan bog‘liqlikda o‘z ifodasini topgan. Buni ulug‘ shoirning “Xazon” qasidasidagi quyidagi satrlar tasdiqlab turadi:

Aчab madfun, ki az чўyi zarash dehqon chu bikshoyad,
Zi xok orad burun gўū xavosi obi hayvonro [2,299].

Tarjimasi: Ajib bir xazina: dehqon zar oquvchi arig‘ini ochsa, tuproq tagidan go‘yo obi hayvon xosiyatini yuzaga chiqaradi [2,302]. Bunda dehqon mehnatining mahsuli “zar sochuvchi ariqqa”, yetishtirilgan hosil esa tuproq tagidan chiqqan “obi hayvon” – tiriklik suviga mengzalgan. Shoir dehqon va kuz faslida mana shunday uyg‘unlikni ko‘radi.

Zamonaviy she’riyatimizning gultoji bo‘lgan A.Oripov ijodida Alisher Navoiy an’analarining davom ettirilganligini ko‘rish mumkin. Bu haqda adabiyotshunos N. Jabborov she’riyatimizning ikki jahongiri she’riyatini tilimizga bo‘lgan e’tibor, Vatan haqidagi bitiklardagi hamohanglik nuqtai nazaridan qiyoslaydi [4, 112-120]. Bu mushtaraklikni ikki ijodkor she’rlaridagi kuz fasli va unga yondosh obraz sifatida dehqon obraziga murojaat qilinganligida ham kuzatish mumkin. Shu nuqtai nazardan A.Oripovning “Kuz manzarasi”, “O‘zbekiston” she’rlari mulohazalarimizni tasdiqlab turadi. Bu asarlarda kuz va dehqon obrazlari ijtimoiy mazmun tashiydi, Vatan, mehnatkash xalq siymosini gavdalantirishga xizmat qiladi.

Kechki kuzak kirmoqda, nina sochar izg‘irin,
Dehqon ham tashlab ketdi qadrdon dala-qirin.
Huvillab qoldi, mana, gavjum bog‘lar, bog‘chalar,
Yashil ellarga tomon uchib ketdi qushchalar.
Ketdi qirdan turna ham, bo‘shab qoldi tabiat,
O‘lik mezonlar kezar sovuq dalada faqat.
Qahrabo ko‘z yosh to‘kib turar faqat daraxtlar,
Ne qilsin, uchay desa, ularda yo‘q qanotlar... [8,57]

Ma’lumki, dehqonning hosillarini yig‘ishtirgandan so‘ng qadrdon dalasini tark etishi kuz oxirlariga – kechki kuzakka to‘g‘ri keladi. Shu nuqtada Navoiyga hamohanglik bor. Qolaversa, kuz tasvir bilan bog‘liq shoir tashbehlari ham ohorli. Kuzdagi yerga to‘kilayotgan yaproqlar “qahrabo ko‘z yosh”ga o‘xshatiladi. Qahrabo esa sariq rangli tosh. Yaproqlarning to‘kilishi ko‘z yoshi holatiga juda o‘xshaydi. Shoir kuzni tasvirlashda o‘ziga xos badiiy tamsil yarata olgan.

“O‘zbekiston” she’ridagi quyidagi satrlarda ham zahmatkash o‘zbek dehqonining haqiqiy obrazi yaratilgan:

Kech kuz edi, men seni ko‘rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o, dehqon yurtim,
Turar eding yalangto‘sh, yayov.
– Tashqarida izillar yomg‘ir,
Kir, bobojon, yayragil bir oz.

Deding: – Paxtam qoldi-ku axir,
Yig‘ishtiray kelmasdan ayoz.
Ketding, umri mahzanim manim,
O‘zbekiston, vatanim manim [8,180].

Bunda ham kech kuz va dalasini tashlab chiqa olmayotgan, “umri xazina”ga teng dehqon obrazi yaratilgan. Undagi fidoiylik yomg‘ir yog‘ib tursa ham “yalangto‘sh, yayov” holda hosilini yig‘ishtirishga oshiqishida yorqin ko‘rinadi. Qolaversa, shoir nazdida, kech kuzda “derazadan boqqan birov” – o‘zbek dehqoni Vatan timsolini ifodalab keladi.

Alisher Navoiy kuz ta’rifini berar ekan, unga yondosh bir qancha badiiy detallarni keltiradi. Shulardan biri kuzga hamohang behi obrazidir. “Xazon” qasidasida o‘qiymiz:

Xazon z-avroq beh z-aknun ki zinat dod bȳstonro,
Xush oyad surxrȳū az sharobi zard mastonro [2,299].

Tarjimasi: Kuz endi o‘zining behi rangli yaproqlari bilan bo‘stonga o‘zgacha zeb berdi, – sariq sharobdan mast bo‘lganlarning yuziga qizillik xo‘p yarashgandek [2,302]. Behi, avvalo, kuzda pishadigan meva turi. Bunda ulug‘ shoir xazon barglarini pishib yetilgan sap-sariq rangli behiga mengzaydi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida, xususan, Muhammad Yusuf ijodida kuz fasli va behi obrazi yonma-yon kelganligi kuzatiladi. Jumladan, shoirning “Singlimga maktub”, “Muddao” she’rlari fikrimizni tasdiqlaydi:

Yana qaysar ruhim
Jonimni cho‘qir,
Yoz deydi,
Singiljon, qo‘rqay nimadan?..
Eng go‘zal she’r – sening yorilgan qo‘ling,
Hamma boshliqlarning
Boshlig‘i – Vatan!..
U yoqda shotutlar to‘kilar tag‘in,
Behilar hidiga to‘ladi xonam.
Ayvonda, xirmonda, Andijon tomonda
Kuz – meni sog‘inib sarg‘aygan onam –
Yig‘laydi, bu yil ham kelmadi bolam... [6,48]

Ma’lumki, behi xushbo‘y iforli mevadir. Xonaning behilar hidiga to‘lishi kuz tashrifidan darak beradi. Qolaversa, shoir kuzni sog‘inib sarg‘aygan munis onasiga o‘xshatadiki, bu ham uning betakror topilmasidir. Bunda onasidan yiroqdan farzandning ruhiy holati aks etgan.

Kuzda go‘zal bizning Farg‘ona,
Qiyosi yo‘q jannat maskandir.
Uyimizni sog‘indim, ona,
Bog‘imizda behi pishgandir... [7,29]

Bunda ham shoir kuz go‘zalligini behilarning pishishida ko‘radi. Ayni zamonda tengsiz go‘zallik manzarasi Vatanga ulkan muhabbat hislari bilan uyg‘unlashib ketganligi kuzatiladi.

Yuqorida tahlil etganimz satrlar orqali Alisher Navoiy ijodi va bugungi o‘zbek she’riyatidagi hamohanglik va uyg‘unlikni faqat kuz hamda dehqon obrazlari misolida dalillashga harakat qildik. Shular yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Birinchidan, Alisher Navoiyda dehqonning zahmatli mehnati mahsuli “zar sochuvchi ariqqa”, yetishtirilgan hosil tuproq tagidan chiqqan “obi hayvon” – tiriklik suviga o‘xshatilgan bo‘lsa, A.Oripovda kech kuz va dalasini tashlab chiqa olmayotgan, “umri xazina”ga teng, “yalangto‘sh, yayov” dehqon obrazi Vatan timsolini ifodalaydi. Ikkinchidan, Alisher Navoiy kuzgi yaproqlarni pishib yetilgan sap-sariq behiga o‘xshatsa, A.Oripov “qahrabo ko‘z yosh”ga mengzaydi. Bu tashbehlarda uyg‘unlik bor. M.Yusuf xonaning behilar hidiga to‘lishida kuz tashrifini ko‘radi. Demak, kuz barglari tasvirida tadrijiylik kuzatish mumkin. Uchinchidan, A.Oripovning dehqonni “umri xazina” deya ta’riflasa, M.Yusuf kuzni sog‘inib sarg‘aygan munis onasiga o‘xshatadi. Bu ham Alisher Navoiy she’riyatida yuz ko‘rsatgan kuz va dehqon obrazlarining zamonaviy o‘zbek she’riyatida badiiy takomilga erishganligini ko‘rsatib turadi.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. III том. Хазойин ул-маоний: Ғаройиб ус-сиғар. – Тошкент: Фан, 1988.

2. Алишер Навоий Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Тошкент: Фан, 2003.

3. Boltayeva G. Alisher Navoiy “Fusuli arbaa” qasidalar turkumining manbalari va g‘oyaviy-badiiy tahlili. Monografiya. – Navoiy, 2020.

4. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.

5. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005.

6. Муҳаммад Юсуф. Шоир севгиси. Тузувчи: Назира ас-Салом. – Тошкент: Ношир, 2014.

7. Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар. – Тошкент: Шарқ, 2016.

8. Орипов А.Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1 жилд. Шеърлар ва достонлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.

9. Соҳибова З. Навоий ижодида хазон фасли ва ҳижрон мотиви // БухДУ илмий ахбороти, 2020 йил № 4. – Б. 213-218.

10. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.

NAVOIYNING FORSIY MEROSIDA QO‘LLANILGAN TAXALLUSLARI

Nazora BEKOVA
Buxoro davlat universiteti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Turli tarixiy manbalar, bayozlar va to‘plamlardagi fakt hamda dalillarga ko‘ra, shoir forsiy tildagi asarlariga “Foniy” taxallusi bilan birga “Fanoiy”, “Navoiy” taxalluslarini ham qo‘llagan. Mazkur maqolada ayni shu masalalar bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar**: tarixiy manba, to‘plam, forsiy meros, “Foniy”, “Fanoiy”, “Navoiy”.*

Annotation

According to various historical sources, facts in collections and the evidences the poet used the pseudonyms “Foniy”, “Fanoi”, and “Navoi” in his Persian works in equal measure. This article describes the same issues.

***Key words**: historical sources, collection, Persian heritage, “Foniy”, “Fanoi”, “Navoi”.*

Izlanishlarimiz natijasida ba’zi manbalarda shoirning forsiyda qo‘llanilgan taxalluslari xususida ham har xil fikrlar bildirilganligiga guvoh bo‘ldik. Hofiz Nurmuhammadning 1325-hijriyda Kobulda nashr etilgan “Tarixi Mozori Sharif” asarida Balx shahri madhiga bag‘ishlangan, shu kungacha ko‘pchilikka malum bo‘lmagan ikki forsiy g‘azali o‘rin olgan.

Shoirning bu kitobdan o‘rin olgan g‘azallari “Foniy” taxallusi bilan emas, balki “Fanoiy” taxallusi bilan yozilgan. Albatta shoirning bu taxallusi ko‘pchilikka malum bo‘lmasa ham, u yangi emas. Ustod S.Ayniyning “Namunayi adabiyoti tojik” asarida uning taxallusi forsiyda “Fanoiy” deb ko‘rsatilgan [Ayni, 1923:180].

1346-hijriyda Qobulda Muhammad Yaqub Vohidiy Juzjoniy

tashabbusi bilan “Anjumani tarix” nashriyotida chop etilgan “Amir Alisher Navoiy (Foniy)” to‘plamidan o‘rin olgan doktor Said Muhammad Abdulloning “Vaziri marufi Afg‘oniston” maqolasida quyidagi satrlarni o‘qish mumkin: “Bu buyuk shaxsning taxallusiga doir ixtiloflar ko‘zga tashlanadi.Chunonchi, bazi tazkira mualliflari, yani “Namunayi adabiyoti tojik”, “Otashkadayi Ozar”, “Osori Hirot” va yana bir necha o‘rinlarda uning taxallusi “Fanoiy” deb ko‘rsatilgan. Ammo Faxriy “Latoifnoma”siga yozilgan urducha muqaddimada, Volayi Dog‘istoniyning “Nigoristoni suxan” kitobida va “Qomus ul-alom” asarlarida uning forsiydagi taxallusi “Foniy” deb ko‘rsatilgan [Amir Alisher Navoiy (Foniy), 1346:10].

Malum bo‘lishicha, doktor Muhammad Said Abdulloning bu maqolasi bu kitob nashr etilmasidan oldin Lohurda chop etilgan “Oriental kolledj magazin” to‘plamining 36-sonida urdu tilida bosilgan ekan va o‘sha yili Eron olimi Sarvari Go‘yo Etimodiy bu maqolani “Qobul” jurnalining 1313-hijriy yildagi 11-sonida dariy tiliga tarjima qilib bosib chiqargan. Muhammad Yaqub Vohidiy to‘plamiga ana shu jurnaldagi maqola olingan va chop etilgan. Ko‘rinib turibdiki, Namunayi adabiyoti tojik”, “Otashkadayi Ozar”, “Osori Hirot” tazkiralarida Navoiy forsiydagi taxallusi “Fanoiy” ekan. Bundan tashqari Navoiydan ilhomlanib tazkira tuzgan Som Mirzo ham o‘zining “Tuhfayi Somiy” asarida uning taxallusi “Fanoiy” deb ko‘rsatgan [Tuhfai Somi, 1314:181]. Hofiz Nurmuhammadning Qobulda nashr etilgan yuqorida nomi zikr etilgan asarda shoirning rasmi ham keltirilgan.Uning Sulton Boyqaro topshirig‘i bilan Balxga borgani takidlanib, shoirning o‘sha erda “Fanoiy” taxallusi bilan yaratilgan ikki g‘azali keltirilgan. Yuqorida keltirilgan fakt va dalillarga ko‘ra, shoir “Fanoiy” taxallusi bilan sherlar yozgan degan malumotlarga ishonish kerakka o‘xshaydi. U dastlabki davrlarda Fanoiy taxallusi bilan ijod etgan. O‘zi Hirot shahrida qurdirgan inshootlaridan birini ham bejizga “Fanoiya”deb atamagan bo‘lsa kerak. Ammo keyinchalik bu taxallusni qo‘llamagan ko‘rinadi. Shoir “Majolis un-nafoisda” mashhadlik Mavlono Fanoiy haqida malumot beradi. “Xazoyin ul-maoniy”dan o‘rin olgan qitalaridan birida do‘stlaridan biri Darvesh Fanoiy nomini tilga olib o‘tadi. E.Shodiyevning fikricha, shoir zamondoshlariga taxallusda sherik

bo‘lishni munosib ko‘rmagani uchun, u taxallusini o‘zgartirgan, keyinchalik “Foniy” taxallusida ijod qilgan. Forsiy devonini “Devoni Foniy” deya nom bergan, ularda “Foniy” taxallusini qo‘llagan [Shodiyev, 1990:23]. Mana, uning Balxda yozilgan “Fanoiy” taxallusi bilan yozilgan g‘azallaridan biri:

Bazmi may dar komi dardoshomi Balx omad nadid,
In hama og‘oz az anjomi Balx omad nadid.
Hech kas ankoi mag‘ribro shikori xud nakard,
Shod bosh ,ey dil, ki andar domi Balx omad nadid.
Gavhare g‘oyib shud andar qari daryoyi Nasaf
B-in zamon az qubbatul islomi Balx omad nadid.
SHomiyonro bad az in qadri Ali paydo shavat,
K-in furuzon sham andar shomi Balx omad padid.
Sonii xuldilbarin yani mozori shomi din
Dar maqomi lozimul ikrom Balx omad padid.
Ayni obi zindagi az Ko‘fa mechustand xalq,
Ey Sikandar, bin ki andar Chomi Balx omad padid.
Rav, Fanoi,bazmi urfon az mozori shoh jo‘y
Sikkai shahanshohi bar nomi Balx omad padid [Hofiz Nurmuhammad, 1325:31].

Har holda uning “Fanoiy” taxallusi ham o‘z zamondoshlariga malum bo‘lgan. Shu taxallus bilan yozilgan g‘azallarini o‘qigan tazkiranavislar o‘z asarlarida uning shu taxallusini ham qayd etib o‘tishgan. Shoirning o‘zi ham «Favoyid ul-kibar»ning 506-g‘azalida shunday yozadi:

Fanoiy mahz etar **«Sittai zaruriya»,**
Nedinki yo‘qqa zarurat emas bu nav’ oltov [Navoiy, 1990:343].

Shoirning Fanoiy taxallusi bilan yaratilgan sherlarini to‘plash va tadqiq etish, uning biografiyasini va ijodiy faoliyatini yanada kengroq rejalar orqali o‘rganish yo‘lida yangi-yangi sahifalar ochgan bo‘lar edi.

Ba’zi manbalarda hazrat forsiy she’rlarida ham **Navoiy taxallusi**ni qo‘llagani haqida ma’lumotlar uchraydi. Shoirning zamondoshi Faxriy Hirotiy (1443-1556) «Radoyif ul-ash’or»ining mukammal nusxasining topilishi [Shodiev,1982:5] ham uning forsiy merosini o‘rganishda muhim hodisalardan biri bo‘ldi. XV asr oxiri va XVI

asr o‘rtalarida yashab ijod etgan Faxriy Hirotiy o‘z zamonining etuk shoirlaridan biri, atoqli tarjimon va iste’dodli adabiyotshunis olim sifatida butun Xuroson va Movaraunnahrda keng shuhrat qozongan edi.

Alisher Navoiy merosini atroflicha o‘rgangan, uning asarlaridan katta badiiy zavq olgan bu iste’dodli adib 1511-1522-yillar orasida «Majolis un-nafois»ni fors tiliga tarjima qilib, uni «Latoifnoma» deb atadi. O‘z tarjimasiga yangi 9-majlisni kiritdi va unga Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlarni hamda «Majolis un-nafois»ga kirmay qolgan yana 189 shoir haqidagi qimmatli faktlarni ham ilova qilib, bu asarni yanada boyitgan edi.

Faxriy Hirotiy Alisher Navoiy ijodidan har tomonlama bahra olib ,she’riyatda ham, tazkirachilikda ham uning an’analarini davom ettirdi.Alisher Navoiy asarlarini puxta va atroflicha o‘rgangan,tarjima qilgan, o‘z «Radoif ul-ash’or»iga uning forsiy g‘azallarini ham tanlab kiritgan bu ajoyib olimni o‘z zamonasining etuk navoiyshunoslaridan biri edi, desak yanglishmaymiz.

Faxriy Hirotiyning mazkur asarida Alisher Navoiyning forsiy g‘azallariga ham keng o‘rin berilgan bo‘lib, bu she’rlarga u «Mavlono Mir Alisher bo taxallusi Foni go‘yad» (Mavlono Mir Alisher «Foniy»taxallusi bilan aytur),»Amir Alisher go‘yad» (Amir Alisher aytur), «Amir Alisher farmoyad» **(**Amir Alisher buyurur), «Mir Alisher bo taxallusi Foni farmoyad» (Mir Alisher «Foniy» taxallusi bilan buyurur)tarzida sarlavhalar qo‘yganki, Faxriy Hirotiy «Radoyif ul-ash’or»idagi «Foniy»taxallusi bilan yozilgan bu g‘azallar qaysi Foniyniki ekan? Kashmirlik Muhsin Foniynikimi? Hoja Dehdor Foniynikimi? Yoki Alisher Navoiy - Foniynikimi, - deb ikkilanishga hojat qolmagan. Chunki yuqorida ta’kidlaganimizdek, Faxriy Hirotiy o‘z kitobida har bir g‘azalni keltirishdan oldin bu kimning g‘azali, o‘sha muallifning qaysi taxallus bilan yozgan g‘azali ekanligini aniq ko‘rsatib o‘tgan.

Ergashali Shodiyev Faxriy Hirotiy tomonidan tartib berilgan bu kitobdan Alisher Navoiy-Foniyga tegishli bo‘lgan she’rlarining katta bir qismini ajratib oladi va uni «Devoni Foniyning» professor Hamid Sulaymon tomonidan nashrga tayyorlangan nusxa bilan solishtirib chiqadi. Olim Faxriy Hirotiy «Radoif ul-ash’or»ida Foniy

taxallusi bilan keltirilgan 10dan ortiq g‘azal «Devoni Foniy»ning Alisher Navoiy asarlari kulliyoti tarkibida nashr etilgan nusxasida ham mavjud ekanligini aniqlagan. Nazardan o‘tkazganimizda, mazkur g‘azallar shoir asarlarining yigirma va o‘n tomligidan ham o‘rin olganligiga amin bo‘ldik. Masalan, Navoiy kulliyoti 15 tomligining 5-tom 1-kitobining 70,128,160,148, 5-tom 2-kitobining 126, 128, 266-sahifalarida keltirilgan g‘azallar Faxriy Hirotiyning “Radoif ul-ash’or”ida ham uchraydi. Olimning ta’kidlashicha, ammo bu g‘azallarining ayrim bayt va satrlar orasida joylashtirilgan iboralarida goho farq va tafovutlar ko‘zga tashlanadi. Bu tafovutlar Alisher Navoiy forsiy she’rlarini yanada chuqurroq o‘rganish ,”Devoni Foniy”ning ilmiy tanqidiy matnini tuzishda manbaashunos olimlarimizga qo‘l kelishi mumkin.

E.Shodiyev haqli savol qo‘yadi: “ Faxriy Hirotiy “Radoyif ul -ash’or”ida Alisher Navoiy g‘azali sifatida berilgan bu she’rlar ustod Sadriddin Ayniy tuzgan kichik majmuada ham mavjud. Shunday ekan, bu g‘azallarni AlisherNavoiy qalamiga mansub emas, deb qarasak to‘g‘ri bo‘larmikin? To‘g‘ri, bu forsiy g‘azallar “Devoni Foniy”ning Parij nusxalarida uchramasligi mumkin, ammo she’rlar “Devoni Foniy”ning boshqa mukammal nusxalarida ham uchrab qolishi mumkin-ku, axir! Biz shoirning “Devoni Foniy”ga kirmay qolgan forsiy she’rlari bo‘lishi mumkin emas, deb ayta olamizmi? To‘g‘ri, Hamid Sulaymon “Xazoyin ul-maoniy”ning mukammal nusxasini nashrga tayyorlaganda Navoiy tomonidan “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritilmay qolgan 20dan ortiq g‘azal, bir qator ruboiylar, fardlar va qit’alarni aniqlab, nashr ettirgan edi-ku!” [Alisher Navoiy, 1960:773-794].

A.Hayitmetov Alisher Navoiy lirikasining ba’zi masalalari yuzasidan fikr yuritganda Alisher Navoiyning rasmiy devonlariga kirmagan Xondamirning «Makorim ul-axloq», Vosifiyning «Badoe ul-vaqoye» asarlarida, shuningdek, «Tom ut-tavorix» asarlarida keltirilgan bir qator she’rlar yuzasidan so‘z yuritar ekan: «Umuman, Navoiy davridagi va undan keyinroq yozilgan tarixiy, adabiy, ilmiy manbalarni sinchiklab o‘rganish Navoiyning forsiy tilidagi ijodi, umuman, lirik ijodi haqida yangi ma’lumotlar berishi shubhasiz»,- degan edi [Hayitmetov, 1981: 28].

Haqiqatan ham Navoiyning forsiy va turkiy g‘azallari turli manbalarda ko‘plab ko‘zga tashlanmoqda. Tojik olimi A.Muxtorov XVI asr shoiri Muhammad Solihning yangi topilgan «Risola dar bayoni mazoroti Balx»asari haqida so‘z yuritar ekan, Alisher Navoiyning 1480-1481 (885-hijriyda)-yillarda Husayn Boyqaro topshirig‘i bilan Balxga kelishi haqida ma’lumot beradi va uning Balx shahri haqida yaratgan forsiy she’ri yuqoridagi asarda keltirilganini ma’lum qiladi [Muxtorov, 1975: 21]. Yana boshqa bir qator manbalarda ham Navoiyning “Devoni Foniy” kitobiga kirmay qolgan forsiy g‘azallari uchrab turishi tabiiy bir holdir. Faxriy Hirotiy “Radoyif ul-ash’or”idagi :

Chashmi man bar safhan zar dambadam simob rext,
Bar umedi dardi vaslat gavhari serob rext.
Shomi g‘amat giriftu nayomad sahar maro,
Ro‘zi shabam g‘izo shuda xuni chigar maro.
Hijobi rah zi sozad zi donishu amal ast,
Kushodi kor za lutfu inoyati amal ast.

matlalari bilan boshlanuvchi yana bir qator g‘azallar keltirilganki, “Amir Alisher go‘yad”, “Mavlono Mir Alisher bo taxallusi Foniy go‘yad”, “Mir Alisher bo taxallusi Foniy Farmoyad” sarlavhalari bilan keladi. Bizning nazarimizda ham Faxriy Hirotiy keltirgan bu g‘azallar Alisher Navoiy qalamiga mansubdir. Ba’zi olimlarimiz Alisher Navoiy forsiy she’rlarini faqat “Foniy” taxallusi bilan yaratgan. ”Navoiy” taxallusi bilan esa forsiy she’rlar yozmagan, degan fikrni bayon etadilar. Faxriy Hirotiy “Radoyif ul-ashyor”idagi Alisher Navoiyning ko‘pchilik g‘azallari “Foniy” taxallusi bilan, ba’zan g‘azallar esa “Navoiy” taxallusi bilan ham keladi. Masalan, o‘sha asardan o‘rin olgan quyidagi g‘azalga e’tibor beramiz:

Chashmi sho‘xi yoru dar dunboli abro‘ xoli o‘,
Xast oxue,ki chug‘ze boshad az dunboli o‘.
Na’lu dog‘am hast go‘yo az sumi aspash nishon,
Baski dar maydon chu xoki rax shudam pomoli o‘.
Chashmam az savdoyi xattash xushk gashta chun qalam,
Tobho dar rishtai chonam ba soni noli o‘.
Mardumi chashmi Navoiy qatra afshonad zi ashk,
Zor chu yak tifle, ki obafshon ast amvoli o‘.

Bu g‘azal biroz boshqacharoq shaklda Sadriddin Ayniyning “Alisher Navoiy” monografiyasida keltirilgan. Ustod Ayniy o‘z kitobining ilova qismida “Navoiy” taxallusi bilan yozilgan g‘azal deya alohida ajratib keltirilgan g‘azal quyidagicha:

Chashmi sho‘xi yor az dunboli abro‘ xoli o‘,
Hast oxue ki charg‘i boshad az dunbole o‘.
Na’ldog‘am hast go‘yo az sumi aspash nishon,
Baski dar maydon chu xoki rax shudam pomoli o‘.
Chun ruxash binam, shavad az zavq holi man digar,
Zavqi in mane kase donad, ki gardad holi o‘.
Gar ravad dil meravat az bahri tash’eash zi pay,
Gar rasad jon merasad bar lab ba istiqboli o‘.
Mardumi chashmam, Navoiy qatra afshonad zi ashk,
Rost chun tifle, ki obafshonda ..... o‘ [Ayni, 1963:439].

Sadriddin Ayniyning xabar berishicha, bu g‘azalni Alisher Navoiy o‘z ustozi Abdurahmon Jomiyning:

Murg‘i jon kardi, havoyi donahon xoli o‘,
Gar nabasti rishtan log‘artani man boli o‘.

matlali g‘azaliga javoban yaratgan bo‘lib, Navoiyning bu forsiy g‘azaliga Riyoziy Samarqandiy, Hiloliy, Sayfiy Buxoriy, Xòja Musayib Devon kabilar tatabbu’ bitganlar [Ayni, 1963:439].

Yuqorida keltirilgan bu dalillardan Alisher Navoiy o‘zbekcha asarlariga ham “Foniy” taxallusini qo‘llagani singari o‘zining forsiy g‘azallaridan ayrimlarini “Navoiy” taxallusi bilan yozgani haqidagi fikrlarni Fahriy Hirotiyning bu asari to‘la tasdiqlaydi. Fahriy Hirotiy “Radoyif ul-ashyor”ida shoirning “Navoiy” taxallusi bilan yozilgan forsiy g‘azallari yana uchraydi. Quyida keltirilgan g‘azalga ham shoir ”Navoiy” deb imzo chekkan:

Novake, sho‘xe gahi mahvi chone monda,
Dar tani zoram chi mag‘zi ustuxone monda.
Naqshi la’li tu suman, yori miskini tu man,
Az mahi parvin, ki o‘ bar osmone monda.
Raft jonu dinu dil az mann, chu rafti, voy man.
Botini tanho g‘arib az korvone monda.
On, ki bigzasht, az chavoni, dar pai piri fitod,
Az yaqin aftodavu, dur az kamone monda.

E, Navoi, bo sagi ko‘yash nagashti oshno,
Do‘st medoram turo to nim jone monda.

Umuman, Fahriy Hirotiyning bu asari har tomonlama o‘rganish va tadqiq etishga arziydi. Bu asardan faqat Alisher Navoiyning she’rlarigina emas, balki Navoiy zamondoshlarining ko‘plab noyob forsiy g‘azallarini topish va bu she’rlardan ajoyib guldasta tuzish mumkin.

Alisher Navoiyning fors-tojik tilida yaratgan asarlari bir erga toplansa, hajm e’tibori bilan nihoyatda boy meros bo‘ladi. Chunki, shoir “Muhokamat ul-lug‘atayn”da forsiy asarlari nomi, hajmi va ular qaysi janrlarda bitilgani haqida to‘liq ma’lumot beradi. Forsiy masnaviylari borligini ham e’tirof etadi. Lekin hozirgacha Navoiy-Foniyning forsiy masnaviylari topilmagan. Shoirning hisobicha, muammolari soni besh yuzta. Navoiy asarlarining yigirma tomligida esa ularning soni 266 ta. Bu kabi ma’lumotlar ulug‘ shoir forsiy merosi hali to‘liq jamlanmaganligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiyning fors-tojik tilida yaratilgan asarlari tojik adabiyoti taraqqiyoti uchun ham, o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amir Alisher Navoiy (Foniy). – Kobul. 1346.Sah.10.

2. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. IV tom.Favoyid ul-kibar. Ilmiy-tanqidiy tekst asosida nashrga tayyorlovchi Hamid Sulaymon. –T.: Fan, 1960. –B.773-794.

3. Ayni. Kulliyot. Jildi II. Kitobi yakum. –D. 1963. Sah.439.

4. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 6-tom. Favoyid ul-kibar. –T.: Fan, 1990. – B.343.

5. Shodiyev E. Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi asarlari. –T.:-Fan, 1990. – B.23.

9. Shodiev E. “Radoyif ul-ash’or”da Navoiyning forsiy g‘azallari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1982. №5.

10. Hayitmetov A. Navoiy lirikasining ba’zi masalalari // Navoiy va ijod saboqlari. –T.: Fan, 1981. – B.28.

11. Hofiz Nurmuhammad. Ta’rixi Mazori sharif. – Kobul, 1325. Sah.31.

MATLABGA YETAKLOVCHI MA'RIFAT MASKANI
(bir g'azal sharhi)

Abdumurod TILAVOV
ToshDO'TAU
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Alisher Navoiy ijodini o'rganish va o'rgatish, shoir ma'rifatidan bahramand bo'lish o'quvchidan kalom, fiqh, tasavvuf kabi bilimlardan ham boxabarlikni taqozo etadi. Maqolada ulug' shoirning bir g'azali sharhi orqali ushbu fikrga oydinlik kiritiladi.

Kalit so'zlar: *ilm-ma'rifat, ahd, nafs, jaholat, omonat, maqolat (nutq so'zlash), "ne'mal vakiyl", zikr.*

Abstarct

Learning and teaching Alisher Navoi's works and understanding his enlightement are demanded to knowing about the notions which belong to sufizm: kalom, fikh, tasavvuf. In this article, this idea is commented through the one gazel of Alisher Navoiy.

Key words: *science, enlightement, decision, ignorance, temporal, make a speech, "nimal vakil", mention.*

Hazrat Alisher Navoiy ijodini yetkazishga mas'ul adabiyot o'qituvchisi zimmasida zalvorli ma'naviy yuk borligi, bu yukni hafiflatmoq - yengillatmoqning yo'llaridan biri muallimning chuqur bilim, ma'rifatga ega bo'lmog'i lozimligi bot-bot aytilmoqda.

Darhaqiqat, shoir ijodida shunday o'rinlar borki, uni ilmi kalom, tasavvuf ta'limoti kabi ilm-ma'rifat sohasiga oid ma'lumotlarsiz tushunish, tushuntirish, sharhlash mumkin emas. Fikrimizni ayrim misollarda bayon etishga urinamiz.

"Favoyidul-kibar"ning 8-g'azali quyida matla bilan boshlanadi:

Kishi istasakim, yetmagay malolat anga,
Kerakmas ahli jahon birla zavqi holat anga.

“Malolat - malollik, ko‘ngilga yetgan og‘irchilik, siqilishlik, horg‘inlik” [Navoiy asarlari lug‘ati, 1972: 356].

Navoiyning bunga o‘xshagan satrlari bu dunyoning barcha zavqu-safolari, aniqrog‘i, ne’matlaridan voz kechish, tarkidunyochilikka targ‘ib emas, balki inson kamolotiga to‘siq bo‘luvchi dunyo sevgisini qalbga kiritmaslikka; “Dunyoni ko‘r, sayr qil, ichiga kir, ammo ehtiyot bo‘l - dunyo sening ichingga kirmasin!” (Muhammad Nurulloh Jazariy) qoidasiga muvofiq umrguzaronlik qilmoqqa chorlovdir.

Gar odame malak o‘lsaki, qilmasin ta’rif,
Agar kishi desakim, yetmagay xijolat anga.

Inson xijolatga qolmayin desa, farishtalik maqom - martabasiga ko‘tarilsa hamki, zinhor o‘zini ta’rif qilmasin - kibru havoga berilib maqtanmasin; haddini bilsin. Axir, shayton ham kibri tufayli ilohiy dargohdan badarg‘a bo‘lmadimi?

Hazrat Navoiy bu bayt orqali bizga quyidagi ilohiy kalomni ham eslatmoqchi bo‘lsalar ajab emas: “Alloh xudbin - takabburlarni va maqtanchoqlarni sevmas” (an-Niso surasi, 36-oyat).

Yomonni, demaki izlol etar ekin shayton,
Degil: fasodda mundin yetar zalolat anga.

Izlol etish - haq, to‘g‘ri yo‘ldan chiqarish, yo‘ldan ozdirish. Baytning mazmuni: yomon kishini shayton yo‘ldan adashtirar ekan, demagin. Bil’aks, ba’zan fisqu fasodda, buzg‘unchilikda hatto inson shaytondan o‘tadi, bunday nafsiga ergashgan kimsadan hatto shaytonga ham zalolat yetadi. Shu o‘rinda adabiyot o‘qituvchisi baytning mazmun-mohiyatini tushunishga yordam beruvchi quyidagi she’rni qiyoslash uchun o‘quvchilarga aytishi mumkin:

Koinot gultoji insondir azal,
Undadir eng oliy tafakkur, amal.
Hatto u tubanlik ichra ham tanho,
Ey falak, ijoding muncha mukammal!

Darvoqe, Hazrat Alisher Navoiy asarlarini tahlil qilish davomida bunday usuldan foydalanish ijobiy samara berishini alohida ta’kidlamoqchimiz.

Chu derlar insonni mushtaq o‘ldi nisyondin,
O‘zinu ahdin unutmoq etar dalolat anga.

Mushtaq o‘lmoq - boshqa bir so‘zdan hosil bo‘lgan, yasalgan degani. Demak, “inson” so‘zi “nisyon” (unutish) so‘zidan kelib chiqqan, deydilar. Chunonchi, o‘zini va ahdini unutish holati buning isbotidir. Bu o‘rinda insonning birovlarga bergan ahdi - va’dasini unutishi bilan birga al-miysoq kunida Allohga bergan ahdi ham nazarda tutilmoqda.

“Qachondan beri musulmonsan?” degan savolga “Qolu balo”dan beri musulmonman”, deya javob berilishi ko‘plab adabiyotlarda ta’kidlanadi. Mutafakkir shoir “o‘zini ahdin unutmoq” deganda quyidagi voqyeani eslatishni, to‘g‘rirog‘i unutmasligimizni murod etmoqdalar:

(“Ey Rasulim!”) Yod et, Rabbing Odam bolalaridan, ularning (kelgan va kelajak) zurriyotlarini pushti kamarlaridan (sulblaridan zarralar holida) ol(ib chiqar)gan va ularni o‘z-o‘zlariga guvoh qilib: “Alastu bi Robbikum - Men emasmanmi sizlarning Rabbingiz?” (degan edi). Ular esa: “Qolu bala - Ha, (Sen Rabbimizsan) biz guvoh bo‘ldik”, degan edilar. (Bu esa) qiyomat kunida: “Bizlar bundan bexabar edik”, demasliklaringiz uchundir” (“A’rof”, 172).

Bilurki, ro‘ziy anga Haq berur, o‘zidekning
Bo‘lur chu bandasi, bois erur razolat anga.

“Navoiy asarlari lug‘ati”dan: “Ro‘zi(y) - forscha. Kundalik ovqat, nasiba, tiriklik vositasi; Ro‘zi o‘lmoq - bo‘lmoq - Nasib bo‘lmoq, hissa bo‘lmoq, erishmoq (biror narsaga); Ro‘zi qilmoq - Nasib qilmoq, erishtirmoq”; [Navoiy asarlari lug‘ati, 1972:534].

Dedi ulkim: “O‘t menga ro‘zi qilur,
Ehtiyojim ne ekanin ul bilur” (“Lisonut-tayr”)

Hazrat Navoiy bu bayt orqali insonni “koinot gultoji”ligidan pastga tushiruvchi bir ma’naviy illatga ishora qilmoqdalar. Ha, inson rizq-nasibani beruvchi Haq taolo ekanini bila turib, o‘zini xoru zalil qiladi. Bunga uning razolati - pastkashligi, tubanligi boisdir. Hotami Asom (roziyallohu anhu) “To‘rt ilmni bilgach, dunyodan (dunyo qayg‘usidan, o‘tkinchi orzu-havas, tashvishlaru) butkul xalos bo‘ldim” degan ekanlar. “Bular qaysilar?” deb so‘rashganda, u shunday javob bergan ekan: “Birinchisi, bildimki, Alloh taoloning menda haqqi bor. Mendan boshqa hech kim bu haqni ado etishga qodir emas. Darhol bu haqni ado etish uchun harakat qila boshladim.

Ikkinchisi: qismatimga atalgan rizqni, ochko‘zlik qilib qancha ko‘p harakat qilsam ham aslo ko‘paytira olmasligimni tushundim va rizqni ko‘paytirish qayg‘usidan xalos bo‘lib, huzur-halovat topdim. Uchinchisi: qochgan bilan qutulib bo‘lmaydigan narsa - o‘lim meni ta’qib etayotganini bilgach, darhol unga hozirlik ko‘rishga tushdim. To‘rtinchisi: buyuk bir Ilohim bor. U mening har bir holimdan voqifdir, degan fikrga kelgach, Undan uyalib, nomaqbul ishlardan voz kechdim. Banda, agar Alloh taolo uni ko‘rib turganini bilsa, u qiyomat kuni Parvardigoridan uyaladigan bir ish qilmaydi” [Asqaliy, 2019: 35].

Aslida Hazrat Navoiyning yuqoridagi bayti ushbu hikmatning nazmdagi go‘zal ifodasi hamdir.

Demaki, ilmda kelmish malakdin afzun,
Ki devdin dog‘i afzun erur jaholat anga.

Afzun - ortiq, ziyoda ko‘p ma’nolarini bildiradi.

Insonni ilmda farishtadan ham ortiq, afzal bo‘ldi, demagin. Ba’zan insondagi jaholat - nodonlik devdan, ya’ni shaytondan ham o‘tib ketadi. Jaholat har zamonda qoralangan, insonning zavoliga sabab bo‘lgan. Naqshbandiy tariqati ustozlaridan Shayx Mahmud As’ad Jo‘shon hazratlari yozadilar: “Insonning uch dushmani bor: 1) nafs; 2) shayton; 3) jaholat - nodonlik” [Kenjabek Mirzo, 2009: 35].

Jaholat hirsu havas, badnafslik, zulm-sitamning ham kalitidir aslida. Binobarin, hirsu havas asosi barbod, nafsu havo qasri vayron, zulmu sitam yo‘qolmay - jaholatga barham berilmay turib el shodon, mamlakat obod bo‘lmaydi, degan edilar xalqparvar shoirimiz:

To hirsu havas xirmani barbod o‘lmas,
To nafsu havo qasri baraftod o‘lmas,
To zulmu sitam jonig‘a bedod o‘lmas,
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.

G‘azalning Navoiydagi bayti:

Birov amonatin asray olmas, agarchi erur,
Xudoy amonatin asramoq havolat anga.

Inson ba’zan birovning omonatini asray olmaydi-yu, yana unga Allohning omonatini saqlash, asrash topshirilgan, deya hayratlanmoqda, ayni paytda jon kuydirmoqda shoir. Hazrat Navoiy

nazarda tutgan “Xudoy amonati” tushunchasini anglashimiz uchun ulug‘ vatandoshimiz, fazilatli Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf xazratlarining tafsirlariga murojaat qilamiz:

“Albatta, Biz omonatni osmonlarga, yerga va tog‘larga taklif qildik. Bas, ular uni ko‘tarishdan bosh tortdilar va undan qo‘rqdilar. Uni inson ko‘tardi. Darhaqiqat, u o‘ta zolim va o‘ta johildir” (“Azhob”, 72).

“Omonat” so‘zi “amana” fe’lining masdari - ish-harakat nomi bo‘lib, “ishonib topshirilgan narsa” ma’nosini anglatadi. Ushbu oyati karimada Alloh taoloning omonati, birortaga ishonib topshiriladigan narsasi borligi tushuniladi. Bu omonat nima edi, degan savolga ulamolarimiz ushbu oyatdan va boshqa manbalardan kelib chiqib:

“Shariat takliflari va Allohning farzlari”, deb javob beradilar. Boshqacha qilib aytganda, Alloh taoloning O‘z haqqiga, insonlarning haqqiga va boshqa maxluqotlarning haqlariga bog‘liq amrlarni, nahyilarini (qaytariqlarini), ko‘rsatma-ta’limotlarini va hukmlarini o‘z joyiga qo‘yish bo‘yicha Uning ishongan vakili bo‘lish taklifi, demakdir. Bu esa o‘z ixtiyori bilan bo‘ladigan narsadir. Ya’ni o‘sha takliflarni amalga oshiradiganlar o‘z hurriyatiga - xohlasa, amal qilib, xohlamasa, qilmaslik ixtiyoriga ega bo‘ladi. Ushbu oyatdan Alloh taolo mazkur omonatni O‘zining turli maxluqlariga taklif qilgani bilinadi...

Darhaqiqat, inson jinsi (hamma emas, albatta) o‘ta zolimdir. O‘ziga yuklatilgan va o‘zi qabul qilgan omonatga muvofiq ish yuritmasdan o‘ziga-o‘zi zulm qiladi. Inson jinsi o‘ta johildir, shuning uchun o‘zi rozi bo‘lib, qabul qilib olgan omonatning ulkanligini bilmasdan, unga xiyonat qiladi. Inson zulm qilavermasdan, o‘ziga yuklatilgan omonatni ado etsin. Inson johil bo‘lavermasdan, o‘ziga yuklatilgan omonatning qanchalik nozik ekanini tushunib yetsin. Axir, unga osmonlar, yer va tog‘lar ko‘tarishdan qo‘rqqan omonat yuklatilgan-a!” [Shayx Muqammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2019: 612].

Chu bo‘ldi nutq ila mumtoz barcha hayvondin,
Ham oxir ul hayvondin erur maqolat anga.

“Maqolat” - so‘zlar, nutqlar. Inson nutq tufayli barcha hayvondan mumtoz - ustun va afzal bo‘ldi. Oxiri (qiyomat yaqinlashganda) yana

o‘sha hayvondan insonga so‘zlashuv, nutq bo‘ladi (O‘sha hayvon insonga o‘xshab gapiradi).

Ushbu bayt Hazrat Navoiyning kalom, tafsir, hadis ilmlarida ham benazir olim ekanini ko‘rsatuvchi dalillardandir. Qur’oni karimning “Naml” surasi, 82-oyatida shunday deyiladi: “(Qiyomatning qoim bo‘lishi haqidagi) so‘z boshlariga kelgan vaqtda biz ular uchun yerdan bir hayvon (ajoyib va g‘aroyib bir maxluq) chiqarurmizki, u insonlarning Bizning oyatlarimizga qat’iy ishonmaganliklarini aytib ularga so‘zlagaydir. (Bas, endi tavba eshiklari yopilgan bo‘lur, haqiqiy ishonganlar bilan ishonmaganlar ajralur)”. Oyatdagi qiyomatga yaqin chiqadigan bu hayvon “Dabbatul arz”ni odamlarga gapirtirishdan maqsad ularning ilohiy oyatlarga imon keltirmaydigan bo‘lganlarini bildirish uchundir [Shayx Muqammad Sodiq Muhammad Yusuf: 326].

Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon Namangoniy al-Farg‘oniy summa Kobuliy Shayx So‘fi Ollohyorning “Sabotul-ojiziyn” asari sharhi bo‘lgan “Hidoyatul-tolibiyn” kitobida bir bayt sharhida ushbu so‘zlarni yozganlar: “Ba’zi ahodisga (hadislarga) qaraganda dabbatul-arzning (yer hayvonining) chiqishi qiyomatdan ilgaridur. Makka qurbi (yaqini)dagi Safo tog‘i yorilib, bir hayvon chiqurki, odamlar birlan so‘zlashur (ta’kid bizdan. Qiyoslang: “Ham oxir ul hayvondin erur maqolat anga” - A.T.)” va ayturki: “Holo qiyomat yaqindur”. Sodiq imonlik kishilarni qiyomatga maxfiy (qiyomatni inkor qilgan) munkir kishilardin judo qilur (ajratur). Ba’zi rivoyatlardin ma’lum bo‘ldiki, oxir vaqtda oftob mag‘ribdan chiqg‘aydir, so‘ngra bu voqye’a zohir bo‘lur”.

Yana shorih: yer hayvonining sababi bilan bu mo‘‘jizani ko‘rsatishdan maqsad shu bo‘ldiki; “(Ey inkor etuvchilar!) Payg‘ambarlar tilidan aytilgan qiyomat va undan keyin bo‘ladigan ishlarni qabul qilmas edinglar, bu kun u narsani bir hayvon tilidan majbur qabul qilursizlar, lekin bu qabul qilishning endi hech foydasi yo‘qdir”, - deb bildirish ekanligini bayon etadi (Mirzo Kenjabek, 2016: 170).

Alisher Navoiyning yuqoridagi va maqtadan oldingi ushbu bayti nutq tufayli mumtoz qilingan bani Odamga o‘ziga xos OGOHNOMA hamdir:

Bu zulmlarki ul aylar, ne aylagay nogah,
Aning hisobida Haq aylasa adolat anga!

Ha, inson bu nojo‘ya tavri, xatti-harakati, tutumi orqali nafaqat boshqalarga, balki eng avvalo o‘ziga zulm qilmoqda! Buning muqobilida Alloh taolo adolatli hukm chiqarsa, bu notavon banda bunga dosh beradimi? Yo‘q, albatta. Inchunun, muborak manbalarda bandalarning Allohning adolatini emas, balki lutfi, karami, mag‘firatini so‘rab, umidvorlik bilan tazarru qilishi tavsiya etilgan. Negaki, Alloh adolat bilan bandaning amalini hisobga tortsa, bandaning holi zabun bo‘ladi; bunga banda toqat ham qilolmaydi.

Navoiy og‘zida “ne’mal vakiyl” erur zikring,
So‘rug‘ kuni karamingg‘a buyur vakolat anga.

Mumtoz adabiyotda shoirning Qur’on oyatlari, hadisi shariflardan foydalanib, fikrini bayon etish san’atiga “iqtibos” san’ati deyiladi. Hazrat Navoiy mazkur g‘azal so‘ngida shu san’atning go‘zal namunasini taqdim etmoqdalar. Baytning ta’lifiga asos bo‘lgan manba “Oli Imron” surasining 173-oyatidir: “Ular (Alloh va Rasuliga bog‘langan zotlar shunday zotlar)ki, xalq ularga: (“Dushmaningiz bo‘lgan”) insonlar sizlarga qarshi lashkar to‘pladi, bas, ulardan qo‘rqinglar” deganida, bu (so‘z) ularning imonlarini orttirdi va: “Alloh bizga kifoyadir, U qanday go‘zal vakiyldir!” - dedilar (va safarga chiqdilar)”.

Muborak manbalarda “Hasbunallohu va ne’mal vakiyl” (Alloh bizga kifoyadir...) zikrini o‘qib yurish bandaning balo-qazolardan saqlanishi, g‘am-tashvishi bartaraf, mushkullari oson bo‘lishiga sabab ekani alohida ta’kidlangan. Zero, zikr qalb xotirjamligining eng asosiy omillaridandir. Shuning uchun Alisher Navoiy hazratlari boshqa bir baytlarida aytadilarki:

Mosivalloh xotirimdin salb qil,
Anda zikringni huzuri qalb qil!

Ha, Hazrat Navoiy ijodiy merosi mahobatli ma’naviyat maskani bo‘lib, bu maskandan saboq olgan har tolib qalbi, ongi ma’rifatga to‘lib, matlabiga yetgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqaloniy Ibn Hajar. Oltin o‘gitlar. - Toshkent: Sharq, 2013.

2. Kenjabek Mirzo. “Murshidi komil hikmatlari”. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.

3. Kenjabek Mirzo. Haq aylasa adolat... “Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar” kitobida. - Toshkent: Sano-standart, 2016.

4. “Navoiy asarlari lug‘ati”. Nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. - Toshkent, 1972.

5. Shayx Muqammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 4-juz. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2019.

ALISHER NAVOIYNING HAMD G‘AZALIDA OYAT VA HADISLARNING BADIIY TALQINI

Ahadxon MUHAMMADIYEV
Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devoni tarkibidagi birinchi hamd g‘azali oyat va hadislar bilan qiyoslangan holda tahlil etilgan va tegishli ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *Favoyid ul-kibar, devon, hamd, na’t, oyat, hadis, badiiy talqin.*

Annotation

The article analyzes the first hymns of Alisher Navoi’s “Favoyid ul-Kibar” in comparison with the verses and hadiths and draws relevant scientific conclusions.

Key words: *Fawaid ul-kibar, hymns, hamd (Ghazals praising God), na’t (Poems about the Prophet), ayat, hadith, artistic interpretation.*

Sharq she’riyatida hamd va na’tlar alohida mavqega ega. Biz juda uzoq yillar devonlar va dostonlarimizni ana shu ibtidodan ajratgan holda o‘rganishga majbur bo‘ldik. Vaholanki, hamd va na’tlarda mualliflarning falsafiy mushohadalari yaqqol ifodalanadi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlar tarkibidagi hamdu na’tlar mustaqillik yillaridan boshlab o‘rganila boshlandi.

Ta’kidlaganimizdek, devon yoki dostonlar Tangri Taolo madhi – hamd bilan boshlanib, so‘ngra Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi va sallamga bag‘ishlangan na’tlar keltiriladi. Mumtoz adabiyotimizda Hazrati Payg‘ambar siymosi tasvirini keng monografik rejada ilmiy tadqiq etgan olim Muslihiddin Muhiddinov hamd-na’tlar xususida quyidagi fikrlarni o‘rtaga tashlaydi: “Bizning fikrimizcha, hamd va na’tlar muallif dunyoqarashini oydinlashtirishda

muhim ahamiyatga ega… “hamd” va “na’t”da qasida xususiyati bor, ya’ni ta’rif-tavsifi, til uslubi ko‘tarinki ruh bilan yozilgan. Lekin qasidaning shakli qofiyalanish tartibi boshqa (aa, ba, va…) bundan tashqari, qasida janrining obekti “na’t hamd”lardan farq qiladi. Na’t-hamdlarda muallifning falsafiy mushohadalari ham ifodalangan” *[Muhiddinov, 2005: 36]*.

Darhaqiqat, Muslihiddin Muhiddinov ta’kidlaganidek, dostonlardagi Tangri zotu sifati ta’rifiga bag‘ishlangan munojot va hamdlarni o‘rganishning ahamiyati katta. Bu boblar asoslarning asosidir, inson haqidagi qarashlar poydevori ham shu *[Muhiddinov, 2005: 25]*.

Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari o‘z asarlarida Qur’oni Karimdagi sura nomlari yoki oyatlarini tazmin qilish bilan ularning mazmuniga oid xulosalar yordamida o‘z mushohadalarini bayon etganlar.

Qur’oni karimdan olingan iqtiboslar bugunda quyidagicha tasnifga ega:

Qur’ondagi qissalar talmehi.

1. Qur’ondagi suralar ismi talmehi.
2. Qur’ondagi oyatlar tazmini.

Qur’ondagi qissalar talmehi ham o‘z navbatida yana ikki guruhga ajratiladi:

a) Qur’ondagi qissa qahramonlari nomini bevosita zikr etish orqali talmeh;

b) Ular bilan bog‘liq voqealarga xos ishoralar orqali talmeh.

Qur’ondagi oyatlar tazmini ham o‘z navbatida yana ikki guruhda tasniflanadi:

a) Oyatdagi biror asosiy so‘z orqali tazmin;

b) Oyatning muayyan bo‘lagini keltirish orqali tazmin vositasida o‘quvchi ongida muqobil manzara gavdalantiriladi *[Rodmart, 2002: 26, 30; Hojiahmedov, 1999: 62]*.

Biz mazkur maqolamizda Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar” dostonlari tarkibiga kiruvchi quyidagi hamd g‘azalni oyat va hadislar bilan qiyoslagan holda tahlil qilishni maqsad qildik. G‘azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Ey, yetti manzar tarhig‘a me’mori Sun’ungdin bino,
Masnu’lar foniy, vale maslub Soni’din fano *[Navoiy, 1990: 5]*.

Yetti qavat osmonning (yetti manzar) bino qilinishi (tarhi) Sening me’mori sun’ingdan – yaratuvchilik qudratingdan bino bo‘lgan. Bu haqda Qur’oni karimning ko‘plab oyatlarida aniq ma’lumotlar kelgan. Jumladan, Mulk surasining 3-oyatida shunday deyiladi: “(U) yetti osmonni qatma-qat qilib yaratgan Zotdir” *[Qur’on, 2016: 562]*.

Masnu’lar – Yaratgan tomonidan ijod qilinganlar foniy – o‘tkinchi. Biroq foniylik Sone’dan – Allohdan maslubdir (ajratilgan). Masnu’ning – har bir jonning foniyligi Qur’oni karimning “Oli Imron” surasi 185-oyatida, “Anbiyo” surasi 35-oyatida, “Ankabut” surasi 57-oyatlarida o‘z tasdig‘ini topgan *[Qur’on, 2016: 74, 324, 403]*. Unga ko‘ra, har bir jon o‘limni totguvchidir. Demak, Alisher Navoiyning “Masnu’lar foniy” jumlasining masdari yuqoridagi oyatlardir, deb xulosa qilish maqsadga muvofiqroq, nazarimizda.

Chekmay malak lutfung kuni juz zikr ila tasbih uni
Odam debon qahring tuni har dam “zolamno Robbano”.

Sen lutf qiladigan kunda malaklar (farishtalar) zikr va tasbihdan o‘zgasini tilga olmaydilar. Qahring tunida (Odam va Havvoni qilgan gunohlari sabab jannatdan Tushirishing chog‘ida) Odam “Robbano zolamno” – ey Robbimiz, biz o‘z-o‘zimizga zulm qildik, deya o‘zlarining gunohkor ekanliklarini e’tirof etgan.

Sharq mumtoz shoirlari ijodida «zolamno Robbano» iborasi tez-tez ko‘zga tashlanadi. Bu ibora Qur’on oyatining bir qismidir. Faqat, shuni alohida ta’kidlash kerakki, Qur’onda “zolamno Robbano” tarzida emas “Robbano zolamno” tarzida ifodalangan. Shoirlarimiz esa vazn va qofiya talabiga ko‘ra bu ikki kalimani o‘rnini almashtirib qo‘llaganlar. Biroq bu almashtirilishda ma’no zarar topmasligini alohida ta’kidlash lozim.

Xullas, A’rof surasidagi 23-oyatning muayyan bo‘lagi – «Robbano zolamno»ni keltirish orqali tazmin vositasida o‘quvchi ongida muqobil manzara – Odam va Havvoning ta’qiqlangan ishni sodir etib jannatdan tushirilganlari va shu munosabat bilan Robbilariga qilgan duolari gavdalantirilgan: “Ikkisi aytdilar: “Ey Robbimiz! biz o‘zimizga o‘zimiz zulm qildik. Agar bizni kechirmasang va bizga

rahm qilmasang, biz, albatta, ziyon ko‘ruvchilardan bo‘lib qolurmiz” *[Qur’on, 2016: 153]*.

Hamdingg‘a har ko‘tah nazar ham gungu lol o‘lg‘ay magar,
Chunkim demish xoyrul bashar ul yerda “...la-uhsi sano”.

Baytning mazmuni: Sening hamding – maqtovingda har bir kaltabin (ko‘tah nazar) gung va lol bo‘lib qoladi. Chunki xoyrul bashar – basharning eng a’losi o‘z so‘zida “...la uhsi sano” – Sening hamding, sanoingni sanab oxiriga yeta olmayman, – deya e’tirof etgan.

Mazkur baytdagi Xoyrul bashar, albatta, Muhammad (s.a.v)dirlar. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Sharq mumtoz shoirlari ijodida “...la uhsi sano” jumlasi ham tez-tez ko‘zga tashlanadi. Bu jumlaning asl masdari hadisdandir. Hadisni “Sharhun-Navaviy Ali muslim” asarida Abu Hurayra (roziyallohu anhu) mu’minlar onasi Oisha (roziyallohu anho)dan quyidagicha rivoyat qilgan:

ذوُعأو ،كَتِبَوُقُع نم كَتِافاَعُمِبو ،كِطخَس نم كاَضرِب ذوُعَأ يِنإ ّمُهَّللا كسفن ىلع َتْيَنْثَأ امك تنأ كيلع ًءانَث يصْحُأ ال ،كَنْم كِب *[Yahyo ibn Sharofiddin Navaviy, 2009: 151]*[1] .

Ma’nosi: Ey Allohim, Sening roziliging bilan g‘azabingdan, ofiyating ila uqubatingdan, Sen orqali (Sening vositangda) azobingdan panoh so‘rayman. ***Senga aytilishi kerak bo‘lgan sanolarning hisobini bilmayman.*** Sen O‘z Zoting maqtovi haqida aytganingdek, hamd ayta olmayman[2].

Jinsi bashar yo‘q ogahing, xurshid xoki dargahing,
Ko‘k mahd aro tifli rahing yetti atou to‘rt ano.

Bu baytda ham Navoiy jinsi basharning Alloh hamdini ifoda etish borasida ojiz ekanini yana bir bor ta’kidlamoqda. YA’ni, inson jinsiga mansublar Sening Zoting sirlaridan to‘la ogoh emaslar. Insoniyat uchun buyuk hisoblangan bitmas-tuganmas energiyaga ega bo‘lgan quyosh ham Dargohing oldida xok (tuproq)ka tengdir. Boshqacha aytganda, Allohning nuri oldida quyoshning nuri tuproq kabi nursizdir. Inson ko‘zi bilan nuqsonini topib bo‘lmas *[Qur’on,*

[1] Mazkur hadis “Majmu’ul-fatovo” asarida Oisha onamizdan rivoyat qilingan sahih hadisda ham keltirilgan.

[2] Tarjima o‘zimizniki.

2016: 562] darajadagi viqorli osmon(ko‘k) esa Sening yo‘lingda beshikka belangan go‘dakdek (haqir). Mazkur go‘dakka yetti qavat osmon – ota, to‘rt unsur[1] – onadir.

Faqr ahli istab qurbating, ahli g‘ino ham toating,
Yetkanga dog‘i furqating ne faqr nofi’, ne g‘ino.

Faqr ahli[2] (kambag‘allar) Senga yetishishni, ahli g‘ino (boylar) ham o‘z mol-mulklari bilan Sening toatingda bo‘lishni xohlaydilar. Biroq Sening furqating (ajralish) dog‘i (olovi) kambag‘alni ham, boyni ham manfaatsiz bechora holga soladi.

Vaslingda ishrat xo‘b erur, ayshu tarab marg‘ub erur,
Sensiz manga matlub erur tanda alam, jonda ano.

Bu bayt ham mantiqan o‘zidan oldingi bayt mazmuninig davomidir. YA’ni Allohning vasliga yetish yaxshi, dilxush va yoqimlidir. Aksincha, Uning vaslidan mahrumlik – baxtsizlikdir. Shu sabab, Navoiy doimo Alloh yodi bilan bo‘lishni istaydi. Navoiyga ko‘ra, agar buning teskarisi bo‘lsa, tanni alam (og‘riq), jonni qiyinchilik (azob) qurshagani afzalroqdir.

Ishqingda bir devonalig‘, shavqingda bir farzonalig‘,
Ag‘yordin begonalig‘ aylab o‘zungga oshno.

Shunday ekan, Ishqing yo‘lida devonalikni, Ishtiyoqingda oqilu donolikni, ag‘yor (raqib)dan begonalikni nasib aylab, O‘zingga oshno qilgin.

Jurmu gunahlardin o‘tub, kelturma yuzga qo‘rqutub,
Lola agar sog‘ar tutub, musicha gar qilmish zino.

Havoyi nafsim yo‘lida qilgan aybu gunohlarimdan kech. Qiyomat kunida ularni yuzimga ro‘baro‘ qilgan holda meni qo‘rqitma. Hattoki, lola guli may to‘la qadah tutadi. Musichaning esa zinosi bor-ku.

Bordur Navoiy bekase, ishq ichra andoqkim xase,
Chun O‘rtading ani, base, Kuydurma do‘zaxda yano.

G‘azal yakunida Navoiy Parvardigori olamga o‘zining yolg‘iz, g‘arib va kimsasizligini izhor etarkan, Haq ishqi yo‘lida xas kabi haqir ekanini tan oladi. Biroq shu haqir xas bir umr Sening

[1] Ayrim lo‘g‘atlarda “chor modar” ham deyilgan.

[2] Shu o‘rinda, Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiyning «Faqirlik faxrimdir» degan mashhur shiorini eslab o‘tish joiz.

ishqingda o‘rtandi – yondi. Shunday ekan Sen uni do‘zaxing olovida kuydirmagin, deya iltijo qiladi.

Xullas, Alisher Navoiyning diniy falsafiy qarashlari uning hamd g‘azallarida yaqqol aks etgan. Shoirning hamd g‘azallarini o‘rganar ekanmiz uning nafaqat dunyoviy, balki diniy bilimlarning ham mohir ustasi ekanini anglaymiz. Navoiyning ayni hamd g‘azallari, nazarimda, jamiyatdagi komil insonlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Sharqda inson tarbiyasiga oid katta tajriba va adabiy-falsafiy meros mavjud. Bu ulkan hikmatlar xazinasidan hali yetarlicha foydalanayotganimiz yo‘q. Bizda qadimdan tarbiyaga juda katta e’tibor berilgan. Iymon-e’tiqodli, hikmati baland, saxiy, muruvvatli odamlar namuna qilib ko‘rsatilgan.

Alisher Navoiy yetuk jamiyatshunos olim va tadbirli davlat arbobi bo‘libgina qolmay, u o‘z davrining Ubaydulloh Xoja Ahror Vali, Abdurahmon Jomiy kabi yirik mutasavvuflari nazariga tushgan va ularning e’tiborlarini qozona olgan (bu esa oson ish emas edi) faylasuf ijodkor ham edi. Qolaversa, Navoiy ham XV asrda tariqatning Xuroson, Hindiston va boshqa islom olami bo‘ylab tarqalishida munosib hissa qo‘shgan Nuriddin Abdurahmon Jomiy singari o‘zlarining qator asarlari – “Nasoyim ul-muhabbat” [Navoiy, Nasoyim ul-muhabbat: 2011], “Hayrat ul-abror” [Navoiy, Hayrat ul-abror: 1991] va boshqa dostonlari, she’riyatida naqshbandiya tariqati qonun-qoidalarini tahlil va talqin etgan. Shuningdek, bu tariqatning ommalashuvida o‘zining munosib ulushini qo‘shgan.

Navoiy ijodi davr falsafiy-badiiy tafakkurining in’ikosi iste’dodli shaxsning konseptual qarashlari, izlanishlari mahsuli sifatida qadrli va e’tiborga molik. Uning she’rlarida faylasuf, oshiq, gado, ezilgan qalb sohibini uchratish; zamonni, uning girdobi, halokatini ko‘rish; fosiqlik vayronalari-yu, ezgulikning nurli mavjlarini his etish mumkin. Navoiyning lirik qahramoni – uning o‘zi. U go‘yoki ulkan ummonda (dunyoda) o‘z kemasi (ijodi) bilan safarga chiqqan. Bu safar (hayot) uni o‘zini tanishida, ummonga (dunyoga), ummon ahli (insoniyat)ga, uning turlanishlari va tovlanishlari (bo‘ron, to‘fon, tiniqlik va hok…)ga nisbatan xulosalar chiqarishga majbur qiladi. Zero, loqaydlik – ruh ofati, aql halokatidir. Navoiy o‘z nigohini muayyan manzilga – muhit va zamonga qadaydi. Real

hayotiy manzaralar orqali borliqqa nisbatan falsafiy qarashlarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, oltinchi jild. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: Fan, 1990.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, O‘n yettinchi jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Fan, 2001.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, yettinchi jild. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Fan, 1991.
4. Yahyo ibn Sharofiddin Navaviy. Sharhun-Navaviy Ali muslim. 4 jildlik, to‘rtinchi jild. – Bayrut: 2009.
5. Muhiddinov M.Q. Komil inson – adabiyot ideali. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005. Rodmart A. Hofiz g‘azallarida Qur’on ta’siri // Sino. – Toshkent, 2002.- №5.
6. Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent Islom universiteti, 2016.
7. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 1998.
8. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999.

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA FANO TIMSOLINING IRFONIY MOHIYATI

Alisher RAZZOQOV
Samarqand Davlat universiteti
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy she'riyatidagi fano timsolining adabiy-estetik va tasavvufiy mohiyati o'rganilgan. Qo'yilgan ilmiy muammo shoirning g'azal, qit'a janridagi she'rlari misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, fano, foniy, baqo, tasavvuf, g'azal, qit'a.*

Annotation

The article explores the literary-aesthetic and mystical significance of the image of fano in Alisher Navoi's poetry. The scientific problem is revealed in the example of the poet's poems in the ghazal and kit'a genres.

Key words: *Alisher Navoi, fano, foniy, bako, sufizm, ghazal, kit'a.*

Alisher Navoiy she'riyatida "fano" va "foniy" timsollari o'zining muhim adabiy-estetik hamda tasavvufiy mohiyatiga ega bo'lib, uning ma'no qirralarini tahlil va talqin qilish uchun, avvalo, islom tasavvufiga doir ilmiy-adabiy manbalarni hamda shoirning barcha she'riy, nasriy asarlarini atroflicha tushunib o'qib o'rganish lozim. Negaki, shoirning aynan bir asarida fano timsolaning adabiy-estetik, irfoniy mohiyati to'la ochib berilmagan. Sababi fano so'zining tasavvufiy mohiyati ham nihoyatda serqirradir. Navoiy bu masalaning nihoyatda serqirra va murakkab ekaniga ishora qilib shunday deydi:

Deding, fano nedur, muxtasar deyin o'lmak
Ki, sharhin tilasang, yuz risola bo'lg'usidur [Навоий. 3, 2011: 200].

Haqiqatdan ham "fano" so'zi birlamchi ma'noda "yo'q bo'lish, yo'qlik, halok bo'lish" [Фарҳанги забони точикй, 1969: 409]

yoki o‘tkinchilik ma’nolarini anglatadi. Navoiy she’riyatida bu so‘z birlamchi ma’nosida qo‘llanganda, asosan, moddiy olam va u bilan bog‘liq narsalar, tushunchalarning vaqtinchalik, o‘tkinchi ekanini ta’kidlashga xizmat qiladi. Nima bo‘lganda ham, bu so‘zning ham lug‘aviy, ham irfoniy ma’nolarini tutashtiradiga yagona tushuncha yo‘qlik va yo‘qolishdir. Buning ilk tasavvufiy ma’nosiga oydinlik kiritish uchun Sayid Ja’far Sajjodiyning “Irfoniy istilohlar va iboralar lug‘ati”ga murojaat qilamiz. Unda “fano” so‘zi “bandaning Haqqa foniy bo‘lishi, bashariy jihatlarining Haqning rububiyat jihatida yo‘q bo‘lishidir” [٦٢٨:١٣٧٠ ،ی‌داجسا], deb izohlangan. Lekin bu ta’rif ham birmuncha izohtalabdir. Abu Nasr Sarrojning tasavvuf mavzulariga bag‘ishlangan “Al-Luma” asarida bu ta’rifga yanada oydinlik kiritilgan. Unga ko‘ra, fano “Bandaning bashariy sifatlar va tuban orzulardan qutulib, ilohiy sifatlar ila bezanishidir. Bandaning o‘z faoliyat shuurining yo‘qolib, uning o‘rniga foil o‘laroq Allohning o‘tishidir. Qulning o‘z faoliyatini ko‘rmasligi deya ifoda etganimiz bu holda qulning o‘rnida Alloh qoim bo‘lar. Alloh ko‘rar, Alloh aytar va Alloh tutar. Bu holatda “Men uning ko‘rar ko‘zi, tutar qo‘li, yuradigan oyog‘i bo‘laman” qudsiy hadisining hukmi yuzaga chiqadi. Qul Alloh bilan shu qadar mashg‘ul bo‘ladiki, nihoyat “men”lik tushunchasini unutadi. Bu holga zikr bilan erishilsa “fano fil-mazkur”, muhabbatla erishilsa “fano fil-mahbub” deyiladi” [Serrac, 1996: 524]. Yoki buni boshqa tomondan yoritadigan ta’riflar ham mavjud: “Fano – Haq taologa xalqni aralashtirmasdan shohid bo‘lish. Boshqacha qilib aytganda, fano – Haq taologa g‘arq bo‘lib, Undan o‘zgani sezmay qolishdir” [Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2, 2019: 182].

Alisher Navoiy she’riyatida fano so‘zining irfoniy sharhida ko‘pincha qit’alarda ahamiyat beriladi. Chunki qit’adagi fikrlar ko‘p hollarda xulosaviy xarakterda ekani ham ularda fano timsolining muxtasar ta’rif-tavsifini yaratishga imkon bergan. Misalan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining 3-qit’asida bu mavzu tamsil san’ati yordamida badiiylashtirilgan. Qit’a nasriy sarlavhasining o‘ziyoq tugal bir asardek taassurot uyg‘otadi. Sarlavha she’rning umumiy mazmuniga ishora qilibgina qolmay, uning ma’nosini yanada to‘ldirish, izohlash vazifasini ham bajargan: “Fano sharbati bobidakim, ta’mi

zahri qotildiru baqoyi abad no‘shi ul zahrdin hosil”. Ya’ni, fano “sharbati”ning ta’mi o‘ldiradigan zahardek tuyulsa ham, ammo boqiylik lazzati shu zahardan hosil bo‘ladi, deyiladida, qit’aning o‘zida foniylikning yana bir ahamiyati haqida so‘z yuritiladi:

Foniyi mutlaq o‘lmayin solik,
Anga yo‘qtur umidi maqsadi kull.
Qaro tufroqqa singmagan qatra
Andin imkoni yo‘q ochilmoq gul [Навоий. 1, 2011: 706].

Qit’aning birinchi baytida qo‘yilgan masala shunday: solik mutlaq foniy bo‘lmay turib sulukdan ko‘zlagan asosiy maqsadiga yeta olmaydi. Bu fikr ikkinchi baytda tamsil san’ati bilan quvvatlanadi: tomchi qora tuproqqa singmagunicha gul unib chiqmaydi. Shu kabi tamsiliy fikr Atoulloh Sakandariyning tasavvufiy hikmatlarida ham uchraydi: “Vujudingni xumul – noma’lumlik yeriga ko‘mgin, ko‘milmagan urug‘dan unib chiqqan narsaning hosili bo‘lmas” [Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 1, 2019: 114]. Biroq Navoiyning bu qit’asi birgina fano mavzusiga bag‘ishlangani bilan uning mohiyatini to‘la ochib bermagan, bir she’r doirasida buning imkoni ham yo‘q. Bu she’rda solik o‘zini nimaga butkul foniy qilishi lozim, degan savol ochiqligicha qolgan. Bu savolning turli xildagi yechimi shoirning boshqa ko‘plab she’rlarida, dostonlarida va nasriy asarlarida mavjuddir. Qit’ada aytilgandek, solikdan talab etilgan fanolik xuddi yerga singib ketgan tomchidek o‘zini butkul Haqning irodasiga topshirishdir. Zero, “Qalbi fano bo‘lgan kimsa ilohiy fe’llar tajallisiga mazhar bo‘ladi. Vahdat dengiziga g‘arq bo‘lgan solik u dengizdan o‘zga narsani ko‘rmaydi, o‘zini shu dengizning bir tomchisi sifatida ko‘radi” [Yilmaz, 2004: 218].

Tasavvufda fanoning o‘zi ham bir qancha turlarga bo‘lib tasniflangan. Masalan: “Fanoning birda sayr va suluk sifatidagi ta’lim-tarbiya jarayoniga ko‘ra fano fil-ihvon, fano fish-shayx, fano fir-rasul va fano filloh singari turlari ham bordir... Fano filloh: solikning o‘z sifat va vasflaridan qutulib, Alloh sifatlari bilan bezanmog‘i. Allohga foniy bo‘lishning ortidan Allohga boqiy bo‘lish holi o‘rgaga chiqar” [Yilmaz, 2004: 218 – 219]. Fanoning aynan shu oxirgi turi Alisher Navoiy qit’asidagi “foniyi mutlaqlik” bilan bir ma’nodadir. Bu bosqichda solik o‘zligidan butkul xalos

bo‘ladi. “Navodir ush-shabob” devonidagi 29-g‘azalda Navoiy o‘zlikdan voz kechib fano yo‘liga kirishni buyurar ekan, bu yo‘lda solik uchun eng og‘ir yuk uning o‘zligi ekanini ta’kidlaydi:

Ey Navoiy, tashlab o‘zlukni fano yo‘lig‘a kir,

Kim erur ul yo‘lda egninga bu yuk og‘ir balo [Навоий. 2, 2011: 34].

Bu baytdagi xalos bo‘lishga buyurilgan o‘zlik inson tabiatidagi tuban sifatlardir. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining 41-qit’asida esa fano mavzusining yanada o‘zgacha poetik talqiniga duch kelamiz. Bunda Navoiy insonning bashariy sifatlarini o‘zida jamlagan “o‘zlik” so‘zini “imorat” so‘zi bilan birikma holida qo‘llab, fanoni shu “imorat” ostiga berkitib qo‘yilgan xazinaga o‘xshatadi:

Kimki o‘zluk imoratin buzdi,

Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi.

Ul imoratni buzmayin solik

Bo‘la olmas bu naqdga molik [Навоий. 1, 2011: 719].

“O‘zlik imorati”ni buzish nega kerak? Komillik sifatlariga mazhar bo‘lish uchun ham insonga o‘zlik zarur emasmi? Ammo mohiyat shundaki, “O‘zlik imorati” – obrazli tushuncha. Inson tirikligini ta’minlovchi quvvatlar yig‘indisi – “nafsi hayvoniy”ni shu imoratning poydevori yohud ustunlari deyish mumkin. Kibru havo, manmanlik, molu davlat hirsi, xudparstlik va mansabparastlik singari mayl hamda istaklar “o‘zlik imorati”ning jihozlaridir. U buzilgach, bularning barchasi barham topadi. Va Ruhning boqiy ozodligi boshlanadi” [Ҳаққул, 1991: 55]. Demak, o‘zlik imoratini buzish deganda uning moddiy asosini barbod qilish emas, ruhiy-ma’naviy asoslarini isloh qilish, deb tushunsak to‘g‘riroqdir.

Suluk yo‘ligi kirgan insonning oliy maqsadi Haqqa yetish, Haqni tanishdir. Haqqa yetgan valiylarda odatdan tashqari ishlar – kashfu karomatlarning zohir bo‘lishi tasavvuf tarixi va so‘fiylar manoqiblaridan ma’lumu mashhurdir. Islom aqidasida ham payg‘ambarlar mo‘jizalari bilan birga valiylar karomatining haqligi ta’kidlangan. Lekin buning sharti karomat sohibi o‘zining zohiriyu botinini shariat va sunnatga mutlaqo muvofiq, tobe’ qilgan bo‘lishi zarur. Va karomatni o‘ziga Haqdan kelganini, Haqning unga ikromi ekanini, bunda o‘z say’-harakatining umuman yo‘qligini har doim

esda tutishi va zarracha ham qoldirmay o‘zini unutib foniylikka yuz tutishi kerak bo‘lgan. Karomatga o‘xshash havoda uchishu suvda yurish singari noodatiy ishlarni qilsa-da, lekin bunda xaschalik bo‘lsa ham o‘zini ko‘rgan kishini Navoiy odamlik safidan chiqaradi, o‘sha o‘zlikdan xaschalik ham qoldirmay “fano otashgohi”ga tashlab kul qilishni buyuradi:

To o‘zungni xascha ko‘rgungdur emassen odamiy,
Gar havoda sayr qil, gar su uza ko‘rguz xirom.
Kul qil ul xasni fano otashgohig‘a tashlabon,
To ko‘ngul mir’oti ul kuldin jilo topqay tamom [Навоий. 1, 2011: 449].

Navoiyga ko‘ra, foniy bo‘lishning eng asosiy foydasi ham u orqali inson o‘zligidan xalos bo‘lishidir, bundan ortiq foyda bormi, deydi shoir:

Dema, ne sud erur o‘lmoq fano harimig‘a xos,
Yana ne sud kerak o‘zlugungdin etsa xalos [Навоий. 1, 2011: 292].

Fano faqat o‘zlikdan emas, balki eldan ham xalos bo‘lish yo‘lidir. Buning uchun ham o‘zlik yo‘lini tark etib, fano ko‘chasiga qochmoq kerakdir:

Ey Navoiy, tilasang eldinu o‘zdin maxlas,
Chiqqil o‘zluk yo‘lidin chustu fano ko‘yiga qoch [Навоий. 4, 2011: 105].

Eldan xalos bo‘lishni ham o‘zlikdan xalos bo‘lish singari moddiy ma’noda emas, ruhiy-ma’naviy asosga ko‘ra talqin etish to‘g‘riroqdir. Chunki naqshbandiya tariqatining asoslaridan biri – “xilvat dar anjuman” – anjuman, jamoat ichida ham o‘zini xilvatdagidek xis etish buning asosidir.

Quyidagi baytda esa fano va foniy so‘zlarining ham birlamchi, ham irfoniy ma’nolari qo‘llangan:

Davlati boqiy tilar ko‘nglung, fano kasb aylakim,
Dahri foniy sari mayl aylamas farzonatab’ [Навоий. 4, 2011: 294].

Ya’ni, boqiylik davlatiga erishishni istagan kishiga fanolik kasbi tavsiya etiladi. Eng muhimi bunday baxtli inson ta’bi endi “dahri foniy” – o‘tkinchi dunyoga mayl ko‘rsatmaydi. Fanoning hosili baqodirki, ular o‘rtasidagi tafovut quyidagicha: “Fano yo‘qlik,

hechlik va o‘tkinchilik bo‘lsa, baqo esa qoluvchi va doimiy bo‘lishdir. Yomon fe’llarni tark etgan kimsaning shahvoniy va nafsoniy orzulari fano bo‘ladi, ixlos va husni niyat boqiy qolur. Dunyodan qalb bog‘liqligini yo‘qotgan kimsaning qalbi dunyo havasidan foniy bo‘lar, dunyo havasi va yomon fe’llar fano bo‘lishi bilan futuvvat va to‘g‘rilik boqiy qolur” [Yilmaz, 2004: 217].

Masalaning yana bir nozik tomoni shundaki, fano darajasiga yetgan inson o‘zining bashariy sifatlaridan butkul chiqishi, jismonan mahv bo‘lishi mumkinmi, degan savol tug‘ilishi ham mumkin. O‘zining tartib-qoidalarini, irfoniy asoslarini insonparvar, hayotiy Islom dini nengiziga qurgan tasavvuf ta’limotida bu masalaning ham o‘ziga xos yechimi mavjuddir. Yomon fe’llardan foniy bo‘lib, rabboniy sifatlarga boqiy bo‘lgan insonning jismoniy hayotiga ham hech qanday nuqson yetmasligi, balki jismoniy hayotining ham yanada mukammal, go‘zal bo‘lishi shubhasizdir. “Naqd un-nusus” asarining sharhida shunday tushuntiradi: “...fanodan murod qulning asl borlig‘ining yo‘q bo‘lishi emasdir, aksincha zaif nurning quvvatli nur ichida yo‘qolishidir. Yulduzlarning Quyosh yorug‘ida yo‘qolishi kabi” [Ankaravi, 1981: 52]. Abu Nasr Sarroj “Fano holidagi banda ba’zi bashariy sifatlaridan qutulsa-da, bashariyat sifatidan tamoman chiqolmaydi” [Serrac, 1996: 524] – deydi. Bu fikrlarning badiiy ifodasi Navoiyning ushbu qit’asida ko‘rinadi:

Fano maqomiga yetkan solik vasfidakim, moldin anga ziyon yo‘qturu johdin nuqson:

Soliki ozodani ko‘rsang g‘aniy, qilg‘ay debon
Mol aning man’i suluki qilmag‘il inkor anga.
Kema tiyri mol aro bo‘lmish muqayyad demagil,
Ko‘rki, oncha mol o‘lurmu monii raftor anga [Навоий. 1, 2011: 707].

Demak, inson fanolik maqomiga yetgach nafaqat o‘zining asl insonlik sifatini saqlab qoladi, balki bunday inson uchun boylik, hatto mansabu martabaning ham zarari tegmaydi, uning botiniy hurriyatiga rahna sololmaydi, xuddi kemaning ustidagi og‘ir yuklar uning suvda suzishiga monelik qilolmaganidek. Navoiy mansub naqshbandiya tariqatining ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida keng tarqalishida muhim omil uning dunyoviy hayotda ham botiniy

hurriyatga erishishiga bo‘lgan ishonchidir. Tariqat yo‘lboshchisi Xoja Bahouddin Naqshbandning ushbu so‘zlari buni quvvatlaydi: “Solik balog‘at (kamol)ga yetgandan keyin dil va til o‘rtasida farqi qolmaydi, ya’ni tashqaridagi mashg‘ullik botin amallariga to‘siq bo‘lolmaydi, botin amaliga zohir mashg‘ulotidan hijob yuzlanmaydi” [Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир, 1993: 88]. Yana bir jahatdan valiylarning dunyo ichida bo‘lishi ularning el nazaridan pinhon bo‘lishiga vosita bo‘lgan. Abdurahmon Jomiy “Nafohat ul-uns” asarida buni izohlab: “Xudovand O‘zining ba’zi avliyolarini begonalar nazaridan izzat qubbasi ostiga berkitgandir, ularning holini nomahramlar nazaridan yashirish va ahli zohirning ularni dunyoga rag‘bat qiluvchilar deb o‘ylashlari uchun ularning zohiriga rag‘bat suratidagi boylik libosini kiydirgandir”, [۱۱ - ۱۲:۱۸۵۸ایم‌اج،] – deydi. Mavzuning yana bir muhim jihati fanoda ham fanolik masalasidir. Bu fanolikning eng oliy darajasi bo‘lib, Navoiy bu haqda irfoniy qarashlarining oliy cho‘qqisi va xulosasi bo‘lgan “Lison ut-tayr”da shunday yozgan:

Ey fano ahli sening vosillaring,
Vasl nuzhatgohig‘a doxillaring.
Kim baqo topmoqqa sendin mayl etib,
Chun solib o‘zni fano sori yetib.
O‘zlukin har kimki foni qilmayin,
Ul fanoning ham fanosin bilmayin.
Topmoq imkon yo‘q visoling komini,
Ul fanolardin baqo anjomini [Навоий. 5, 2011: 278].

Bundan ko‘rinib turibdiki, fanoning ham fanosi foniylik bilan baqo maqomi o‘rtasidagi holatdir. Buning ham irfoniy tavsifi naqshbandiya ta’limotida mavjud. Jumladan, Xoja Muhammad Porsoning “Qudsiya” asarida yozilishicha: “Fanoning fanosi shuki, jismoniy vujud ham, ruhoniy vujud ham foniy bo‘ladi, toki ko‘ngilda (Haq taoloning) ulug‘ligi yuz ko‘rsatib, uning yagonaligi kashf bo‘lur va bu holning g‘alabasi dunyo va uqboni unuttiradi... Aql va nafsdan ham foniy bo‘lib, fanoning o‘zidan ham foniy bo‘lar. Bunday fanoning tilida Haq so‘zlaydi va tan (Haqning amriga) mute’yu farmonbardor va itoatkor holga keladi. Ayni shu fano hayrat va benishonlikdir” [۴۰ :۱۳۵۴ ی‌اس‌راپ ی‌راخ‌ب،]. Buning mohiyatini

oz bo‘lsa-da anglagan o‘quvchi Navoiyning quyidagi baytidagi lirik qahramon holatidan ajablanmaydi:

Xirqayu sajjodani qilsam fano dayrida rahn,

Ikki olam sudini mundoq ziyondin ko‘rgamen [Навоий. 4, 2011: 478].

Aslida bunday holat lirik qahramonning botinida yuz bergan, deb aytishga asosimiz bor. Chunki bu misralarni bitgan shoirning o‘zi hamma musulmonlar singari zohidona hayot kechirgan. Fanoning fanosi benishonlik sifatida ta’riflanishida ham shu ma’no yo‘q emas. Alisher Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida o‘zining tasavvuf piri Abdurahmon Jomiyning hayot yo‘lini yoritar ekan, qalbida ilohiy ma’rifat to‘lib-toshgan bu ulug‘ orif inson o‘z xonadonining xizmatchi xodimlaridan hech ajralib turmasligiga bejiz urg‘u bermagan. Yoki ilk ustozi Sayyid Hasan Ardasherni foniy inson timsoli sifatida tasvirlar ekan, uning saroyda sipohiylik vazifasida ishlaganini ham nazarda tutib, u fano “sipohi”ni falakdan oshirgan bo‘lsa-da, aslida sipohiylik o‘zining fanolik martabasini yashirish uchun vosita edi, deydi:

Falakdin sipohi fano oshurub,

Sipohiyliq ichra o‘zun yoshurub [Навоий. 1, 2011: 695].

Xullas, fano timsolining adabiy-estetik, tasavvufiy mohiyatini anglash Alisher Navoiy ijodining irfoniy asoslarini to‘g‘ri tushunishga yo‘l ochadi. Shu bilan birga fano timsoli Navoiyning tasavvuf ta’limotidagi dunyoviy-insonparvarlik qarashlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Bu timsol mohiyati shoir g‘azaliyotida lirik qahramon ruhiy kechinmalari fonida tasvirlansa, qit’alarida birmuncha aniqroq, xulosaviy xarakterdagi tavsiflar bilan yoritilgan. Dostonlar va nasriy asarlarida konkret tarixiy yoki to‘qima obrazlarda o‘z badiiy ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик: 1-жилд. – Тошкент, 2011.
2. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик: 2-жилд. – Тошкент, 2011.
3. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик: 3-жилд. – Тошкент, 2011.
4. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик: 4-жилд. – Тошкент, 2011.
5. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик: 9-жилд. – Тошкент, 2011.

6. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон. Таржимон: Маҳмудхон Маҳдум Ҳасанхон Маҳдум ўғли. – Тошкент: Ёзувчи, 1993.

7. دكتر سيد جعفر سجادى. فرهنگ اصطلاحات و تعبيرات عرفانى. تهران: تهورى، ١٣٧٠

8. Ebu Nasr Serrac Tusi. El-Lüma. Islam Tasavvufu. – Istanbul: Altinoluk Yayinlari, 1417 – 1996.

9. Ismail Ankaravi. Nekş el-Füsus şerhi. – Istanbul: Ribat yayinlari, 1981.

10. مولانا نورالدين عبدالرحمن جامي. نفحات الانس من حضرات القدص. كلكته: مطبع ليسي، ١٨٥٨.

11. خواجه محمد بن محمد پارسای بخاری. قدس. كلمات بحا ل دين نقشبند. طهران: كتابخانه طهورى، ١٣٥۴.

12. Фарҳанги забони точикй. Чилди дуввум. – Москва: Советская энциклопедия, 1969.

13. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳислатли ҳикматлар шарҳи. 1-жуз. – Тошкент: Hilol-nashr, 2019.

14. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳислатли ҳикматлар шарҳи. 4-жуз. – Тошкент: Hilol-nashr, 2019.

15. Hasan Kamil Yilmaz. Tasavvuf ve Tarikatlar. – Istanbul: Ensar, 2004.

16. Ҳаққул И. Камол эт касбким... – Тошкент: Чўлпон, 1991.

IV SHO‘BA. ALISHER NAVOIY IJODINING JAHON TAMADDUNIDAGI O‘RNI, SHOIR ASARLARINI XORIJIY TILLARGA TARJIMA QILISH. ADABIY TA’SIR VA SAN’AT MASALALARI

PANEL IV. THE ROLE OF ALISHER NAVO‘I IN WORLD CIVILISATION, PROBLEMS IN TRANSLATION OF POET’S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES. LITERARY IMPACT, LITERATURE STUDIES AND ART

O‘TMISHI ULUG‘ MILLATNING KELAJAGI HAM SHUNDAY BO‘LADI

THE FUTURE OF A NATION WITH A GREAT PAST WILL BE THE SAME

Abdulhay SOBIROV
ToshDO‘TAU
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodining tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Shoir ijodini o‘rganishning bugungi kundagi zarurati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar*: axloqiy fazilatlar, milliy tarbiya, ma’naviy yetuklik.*

Annotation

This article highlights the educational value of Alisher Navoi’s work. The need to study the poet’s work today is analyzed.

Key words: *moral qualities, national education, spiritual maturity.*

Afinalik Perikl bundan ming yillar muqaddam: “O‘zidan mangu xotira qoldiradigan insonlar uchun tug‘ilish chinakam baxtdir”, – deb yozgan edi. O‘zi mansub bo‘lgan millatning dardi bilan

yashagan, uning baxt-saodati uchun kurashgan, millatparvar, fidoiy insonlargina shunday ulug‘ sharafga loyiq bo‘ladi. Ular orasida donishmand shoir, o‘zbek millatining faxri, buyuk inson hazrat Mir Alisher Navoiyning nomi alohida jaranglaydi.

Shoir o‘z asarlaridan birida xalqparvar, ilmli, mard va jasur insonlarni “shamsul millat”, ya’ni “millat quyoshi” deb atagan edi. Bu sifatni hammadan avval uning o‘ziga nisbatan qo‘llasak, adolatdan bo‘lardi. Oradan asrlar o‘tsa ham Alisher Navoiy ijodi o‘zbek adabiyoti, san’ati va madaniyati osmonida ko‘klam quyoshi kabi yaraqlab, porlab turibdi; undan nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun taraqqiyparvar insonlar o‘zlariga yarasha bahra olmoqda.

Shoir tomonidan yaratilgan “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Majolis un-nafois”, “Nazm ul-javohir”, “Tarixi muluki Ajam”, “Mufradot” singari asarlar xalqimizning dunyoqarashini takomillashtirishda, ma’naviyatimiz, ma’rifatimiz va madaniyatimizni o‘stirishda juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, Alisher Navoiy kabi buyuk zotlar shaxsini ulug‘lashga, ularning ijodini o‘rganishga qayta-qayta murojaat etish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan birini tashkil etmoqda. Kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan “Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qaror fikrimizning yana bir yaqqol dalilidir.

Dunyo maydonida millatlar va elatlar faqat o‘zlarigagina xos bo‘lgan alohida nishonlari, davlat ramzlari bilan farqlanadi. Alisher Navoiy nomi o‘zbek millatining xalqaro maydonda kimligini ko‘rsatib turuvchi, jahonning “mana men” degan daholarigina erisha oladigan ana shunday qutlug‘ belgilarimizdan biridir. Shu bois, uning nomini qancha ulug‘lasak, qancha yuksaklarga ko‘tarsak, u bilan birga millat sha’ni, obro‘-e’tibori ham yuksalib boradi. Shu ma’noda yuqorida tilga olingan Qaror xalqimizning qalbidagi ayni muddao bo‘ldi.

Shoirning “Hayrat ul-abror” dostonida shunday satr bor: *”Naf’ing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu naf’ o‘zingga ko‘prakdurur”*. Inson tomonidan qilingan har bir urinishning, har bir harakatning ajri bor. Bundan eng avval insonning o‘zi naf, manfaat topadi.

Chunki, u barcha jonzotlar ichida eng aqllisi, eng sharaflisidir. Bu haqda Navoiy: *“Borchasini garchi latif aylading, Borchadin insonni sharif aylading”,* – deb yozadi. Insonning insoniyligi uning tashqi qiyofasi, go‘zalligi, kiyinishi bilan emas, balki biron kasb-korni mukammal egallashi, boshqalar bilan qilgan muomala-munosabati, amalga oshirayotgan ezgu ishlari bilan belgilanadi. Unda imon, insof, e’tiqod, xalqqa qayishish, mehnatsevarlik, poklik fazilatlari mujassam bo‘lmog‘i darkor.

Mana, Navoiyning ulug‘ligi va xalqimiz qalbiga yaqinligining siri qayerda?! Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning bosh maqsadi, davlatimizning siyosati ostida ham aynan mana shu ezgu g‘oyaning yotgani hammamizga yaxshi ma’lum.

Bugun mamlakatimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” shiori ostida dunyoga yuz ochayotgan, yurtimizdan yetishib chiqqan ulug‘ zotlarning qarashlari, o‘gitlari asosida Uchinchi Renessansga tamal toshi qo‘yilayotgan hozirgi tarixiy lahzalarda Alisher Navoiy kabi bobolarimizning ruhlariga ehtirom, ular yaratgan asarlardagi g‘oyalardan kuch-quvvat olib, faqat olg‘a qarab intilish faqat taraqqiyparvar, ijodkor, yaratuvchan, kelajakka umid bilan qarovchi, keyingi avlodlarning istiqbolini uchun matonat bilan kurashuvchi millatninggina qo‘lidan keladi.

Qarorda nazarda tutilgan Alisher Navoiy hayoti va ijodini mamlakatimiz va xalqaro miqyosida keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror loyihasini ishlab chiqish, Alisher Navoiy ordenini ta’sis etish, Afg‘oniston Islom Respublikasining Hirot shahridagi Alisher Navoiyning maqbarasi majmuasida qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan Alisher Navoiy qalamiga mansub va u yashagan davrga oid qo‘lyozmalarning faksimile nusxalarini mamlakatimizga olib kelish, 2020-2021-yillar davomida Alisher Navoiyning qo‘lyozmalari asosida shoir asarlarining mukammal ilmiy nashrini yaratish, Alisher Navoiy asarlari hamda navoiyshunoslik fani bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning elektron platformasini yaratish borasidagi topshiriqlar zamonaviy o‘zbek tamaddunining tom ma’nodagi aks-

sadolari, yurtimizda davom etayotgan ezgu ishlarning, bunyodkorlik va yaratuvchanlik harakatlarining uzviy davomi desak, aslo yanglishmagan bo‘lamiz.

Jahondagi ayrim davlatlar o‘zlarining buyuk ekanligini harbiy kuch-qudrati, urush-janjali, boshqalarga bosim o‘tkazishi bilan namoyon etayotgan bugungi murakkab va shiddatli zamonda ona O‘zbekistonimiz faqat ezgu maqsadlari, yaxshilik va xalqparvarlik bilan butun dunyoga ibrat namunasini o‘tamoqda. Bu esa Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan satrlarga hamohang siyosatdir. *“Jahl ahli bila kimgaki ulfat bo‘lg‘ay, Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo‘lg‘ay. Faqr ahli bila angaki suhbat bo‘lg‘ay, Shak yo‘qki, ziyoda shukri ne’mat bo‘lg‘ay”*.

Dunyo tamaddunining eng muhim belgilardan biri, millatlarning yashab qolish shartlaridan asosiysi bu – avlodlar davomiyligi, oldingi avlod yaratgan tafakkur durdonalarining, madaniyat, san’at, adabiyot obidalarining farzandlar tomonidan munosib tarzda e’zozlab-avaylanishi, va har tomonlama, izchil o‘rganishi hamda ularga amal qilgan holda muntazam yangiliklar qo‘shib borishi sanaladi. Shu ma’noda Qarorda ta’kidlab o‘tilgan Alisher Navoiy asarlarini uzluksiz o‘qitish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda 2021/2022 o‘quv yilidan barcha ta’lim muassasalarida shu asosda o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, “Navoiy va yoshlar” maxsus dasturini yaratish, umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Navoiy vorislari” g‘azalxonlik tanlovi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilari o‘rtasida “Navoiyni anglash” mavzusida insholar tanlovini o‘tkazish va g‘oliblarni munosib taqdirlash; beshta muhim tashabbus doirasida yosh dasturchilarni keng jalb etgan holda Alisher Navoiy asarlarining mobil ilovalarini yaratish va ularni yoshlar o‘rtasida ommalashtirish, 2021-yilda Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi ijod maktabini tashkil etish haqidagi fikrlari buning isbotidir.

Eng muhimi, biz o‘zimizni tanitmasak, tariximiz, madaniyatimiz, san’atimiz, adabiyotimizni targ‘ib qilmasak, boshqa xalqlar kimligimizni bilmaslikda davom etaveradi.

Qarorda alohida ta’kidlab o‘tilgan mamlakatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga

bag‘ishlangan tadbirlar tashkil etish; chet elda istiqomat qilayotgan o‘zbek tili mutaxassislari, tarjimonlarni jalb etgan holda Alisher Navoiyning asarlarini chet tillarga tarjima qilish, nashr etish va xorijiy mamlakatlarda taqdimotlarini o‘tkazish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish haqidagi fikrlar O‘zbekistonni dunyoga tanitish yo‘lidagi o‘ziga xos sobit qadamlardan biri bo‘lib qolishi shubhasiz.

Umuman olganimizda, inson boshqalarga, o‘zini oq yuvib, oq taragan, voyaga yetkazgan millatiga nimasi bilan foyda keltiradi? Bu savolga Alisher Navoiy juda o‘rinli va chiroyli tarzda javob berib ketgan: *“Tuxm yerga kirib, chechak bo‘ldi, Qurt jondin kechib, ipak bo‘ldi. Lola tuxmicha g‘ayrating yo‘qmu?! Pilla qurticha himmating yo‘qmu?!”* Bu satrlardan xalqimizning har bir vakili, ayniqsa, yosh avlod yetarlicha xulosalar chiqarib olmog‘i darkor. Qurtu qumursqalardan tortib, uchar qushlargacha, yovvoyi hayvonlargacha – barchasi yashash, keyingi avlod uchun zamin yaratish ishqi bilan hayot kechirayotgan bir paytda nima uchun inson bolasi zabun, harakatsiz, hamma narsadan voz kechib, notinch yashashi kerak?! Aksincha, u el uchun, yurt uchun, porloq kelajak uchun yonib yashamog‘i darkor. Buning uchun esa inson biron bir kasbning etagini tutishi joiz. Aks holda, u Navoiy aytgani kabi: *“Kamol et kasbkim olam uyidin, Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq, Jahondin natamom o‘tmak biaynih, Erur hammomdin nopok chiqmoq”*.

Alisher Navoiy asarlaridagi Farhod, Shirin, Shopur, Mehinbonu, Layli, Qays, Anushervon, Bahrom, Dilorom, Suhayl kabi yuzlab timsollar bizlarni yaxshiliklarga, ezguliklarga yetaklaydi; Xusrav, Sheruya kabi timsollar esa bizni sergak, ogoh bo‘lib yashashga chorlaydi. Hozirda davlatimiz tomonidan ilgari surilayotgan ulkan bunyodkorlik va yaratuvchanlik ostida Alisher Navoiy tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar yotibdi. Bizning bosh maqsadimiz yoshlarga zamonaviy ilm-fan, texnika sirlarini o‘rgatish va ularni ma’nan yuksak va jismonan barkamol avlod qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu yo‘lda bizga to‘siq bo‘layotgan illatlar istagancha topiladi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari tufayli tinch va osuda hayotimizni loyqalatishga, yoshlarimizning ongini zaharlashga

urinayotgan “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlari: *axloqiy buzuqlik, johillik, nodonlik, o‘z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo‘yish, shaxsiyatparastlik, zo‘ravonlik, ishyoqmaslik, millatchilik, qo‘rslik, qo‘pollik* va hokazo salbiy holatlar Navoiy asarlarida qattiq qoralanadi. Buni tushunish uchun Navoiy asarlarining mazmun-mohiyatini chuqur his qilish, satrlarda yashirinib yotgan ma’nolarni to‘la anglab yetish va ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarish lozim. Zero, Navoiy aytganlaridek: *“Har nafasing holidin ogoh bo‘l, Balki anga hush ila hamroh bo‘l”.* Shoir asarlarida ilgari surilgan xalqparvarlik, mardlik, jasurlik, mehnatsevarlik, millatlararo tenglik, bag‘rikenglik singari o‘lmas g‘oyalar aslo o‘z qimmatini yo‘qotmaydi, bizlarni yangidan-yangi marralar, zafarlar sari chorlab turaveradi.

“SAB’AI SAYYOR”NING NAVO SIRLARIGA DOIR
ON THE NAVO SECRETS OF “SAB’AI SAYYOR”

Oqilxon IBROHIMOV
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Annotatsiya

Mumtoz maqomlar bilan bog‘liq turli (tarixiy, nazariy, ijrochilik va b.) masalalarni o‘rganishda Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning ijodiy merosi biz san’atshunoslar uchun eng qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. Zero, bu murakkab san’atni ilmiy-nazariy jihatdan mukammal bilgan hazrat Navoiy bu jabha amaliyotida yana yetuk ijodkor-ijrochi maqomiga ham yuksalaganligi yozma manbalardan ayon. Shu jumladan, qadimgi maqom turkumi bo‘lgan “Etti maqom” pardalarini aniqlash va ularni ilmiy tahlil qilishda Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni va unga ishlangan miniatyuralar hozirga qadar yagona va eng muhim manbadir.

Kalit so‘zlar*: maqom, sayyora, musiqa, sado, tasvir, miniatyura, yetti.*

Annotation

The creative heritage of Nizamiddin Mir Alisher Navoi is one of the most valuable sources for us art critics in the study of various issues (historical, theoretical, performance, etc.) related to classical maqoms. It is clear from written sources that Hazrat Navoi, who knew this complex art from a scientific and theoretical point of view, rose to the status of a mature artist-performer in the practice of this front. In particular, Navoi’s epic “Sab’ai Sayyar” and the miniatures made on it are still the only and most important source in the identification and scientific analysis of the curtains of the ancient maqom series “Seven s”.

Key words: *maqom, planet, music, sound, image, miniature, seven.*

Maqom san’atining ilmu amalini mukammal bilgan va “Navoiy” taxallusida turkiy tilni mumtoz sadolantirgan so‘z mulkining sultoni asarlari go‘zal samo‘ navolari bilan yo‘rilganki, buni qalban his qilish mumkin. Bu holatni aql kuchi ila idroklanishida esa Hazrat qo‘llangan ko‘plab musiqa istilohlari muhim ko‘mak, asarlariga ishlangan mo‘jaz tasvirlar (miniatyuralar) esa ramziy ishoralar yanglig‘ ahamiyatlidir. Alalxusus, ushbu maqolada Hazrat Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida botiniy sadolanib kelayotgan qadimiy “Etti maqom” haqida baholi qudrat so‘z yuritiladi.

Bu o‘rinda zarur tarixiy ma’lumot sifatida shuni aytish joizki, o‘tmishda mumtoz maqomlarning yaxlit musiqiy turkum sifatida shakllanish jarayonlari asosan ma’rifatparvar hukmdorlarning saroylarida yaratilgan shart-sharoitlar (moddiy ta’minot, madaniy muhit va b.) o‘laroq amalga oshgan. Zero, aynan shunday madaniy maskanlarda olimu fuzalo, shoiru san’atkorlar maqsadga yo‘nalgan ilmiy-ijodiy hamkorlik qilish imkoniga ega bo‘lganlar (Shunday imkoniyatlar o‘laroq maqomlarning ilk ko‘rinishidan tortib, bizgacha yetib kelgan so‘nggi namunalari (Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari va b.) ham dastlab san’atsevar hukmdorlarning saroylarida yaratilgan.).

Bu borada “Sab’ai sayyor” dostonining bosh qahramonlaridan bo‘lgan shoh Bahrom shaxsi e’tiborni o‘ziga tortadi. Mutaxassislarga yaxshi ma’lumki, bu badiiy obraz aslida sosoniylar sulolasidan bo‘lgan mohir ovchi va san’atsevar hukmdor Varaxran V (418-438) xaqidagi afsona va rivoyatlarga borib taqaladi. Ayni vaqtda, doston mazmunida, bir tomondan, qadimgi Sharq xalqlarining maftunkor musiqa nag‘malari koinotda azaldan mavjudligi, cholg‘uchi ayol siymosidagi Zuhra sayyorasi san’atkorlarning homiysi hamda yer yuzidagi sanam sozandalar uning timsoli ekanligi haqidagi kosmologik qarashlari, ikkinchi tomondan esa, qadimgi yunon faylasufi Pifagorning yetti samoviy jism – Oy, Merkuriy, Venera, Quyosh, Mars, Yupiter va Saturn koinotning markazida joylashgan Yer atrofida aylanma harakat sodir etishi asnosida o‘zaro uyg‘un (7 xil) musiqiy nag‘malar sadolanishi xususidagi “falaklar uyg‘unligi” (“sayyoralar uyg‘unligi”) ta’limoti ham o‘ziga xos in’ikos etadi.

Bu kabi qarashlarning Bahrom Go‘r hayoti bilan bog‘liq ifodalanishi bejiz emas, albatta. Zero, qadimgilarning musiqa borasidagi dunyoqarashi Sosoniy hukmdorlarining saroy madaniyatiga ham “ko‘chgan” bo‘lib, xususan, mashhur musiqachi Borbad (vaf. 628) ijodiga oid 7 Xusravoniy, 360 ta qo‘shiq va 30 ta kuy turkumlarida o‘zining muayyan ifodasini topgan edi. Inchunun, musiqa san’atining katta ixlosmandi bo‘lgan podsho Varaxran V saroyida ham o‘z davrining ko‘plab yetuk san’atkorlari xizmat qilgan.

O‘tmishdagi tamaddunlar tarixidan yaxshi xabardor bo‘lgan alloma Nizomiy Ganjaviy qadimgilarning o‘rta asrlarga kelib o‘z mohiyatini yo‘qotayozgan kosmologik qarashlarini tasavvuf ta’limoti bilan yo‘g‘rilgan maqom san’ati kesimida qayta jonlantirib, asar mazmuniga mahorat bilan badiiy singdirib yuborgan edi. Tabiiyki, Nizomiy Ganjaviy maqomlar haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lishida o‘z zamonasi mumtoz musiqasidan kelib chiqqan. Nazarimizda, mutafakkir shoir yashagan davrda saroy san’atida “Etti maqom” turkumi amalda bo‘lgan.

Binobarin, shu paytdan boshlab “Haft paykar” va unga javob (nazira) tarzida yozilgan Amir Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht” (“Sakkiz jannat”), Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” (“Etti sayyora”) kabi dostonlarda katta va kichik olamlar uyg‘unligini ifoda etuvchi mumtoz navolar botiniy sadolanib kelmoqda. Buni anglab olishimizda Hazrat Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni va undagi yetti hikoyaga maxsus ishlangan mo‘jaz tasvirlardagi quyidagi holatlar aohida e’tiborlidir:

1. Doston qahramoni bo‘lgan shoh Bahrom chinakam ishq dardiga mubtalo, binobarin, u musiqani qalban tinglash, uni samodan kelayotgan ruhiy oziqa sifatida idrok etish salohiyatiga ega. Natijada shoh Bahromning go‘zal husn va axloq sohibi Diloromga bo‘lgan muhabbat sarguzashtlari tariqatga oid maqom bosqichlarining ramziy ifodasi bo‘lgan yetti sayyor hikoyasi kesimida yanada jonli va ishonarli bog‘lanadi.

2. Bahromning sevikli yori Dilorom nafaqat go‘zal husni va zakovati, balki maftunkor xushovozi va mohir cholg‘uchiligi bilan ham yuksak san’at siymosi hamda Zuhra sayyorasining timsolidir.

3. Doston nomida kelgan hamda asar davomida ochqich yanglig‘ axamiyatga ega “etti” so‘zi va uning turli birikmalarda kelgan (etti sayyor, yetti iqlim, yetti rang, haftaning yetti kuni, yetti osmon va h.) zamirida qadimgilarning “Etti sayyor” musiqasi botiniy anglashiladi. Ayni vaqtda, dostondagi yetti hikoyaga ishlangan miniatyuralar bu masalani oydinlashtirishga “ko‘mak” beradi. Zotan, Kamoliddin Behzod kitob mo‘jaz tasviriy san’atini yuksaltirgan, Hirot miniatyura maktabi dovrug‘ini jahonga yoygan musavvir ekanligi yaxshi ma’lum. Shu bilan birga e’tirof joizki, Kamoliddin Behzod, ustozi Mirak Naqqosh, izdoshlari Qosim Ali, Do‘st Muhammad, Mahmud Muzahhib, shuningdek Hirot maktabining ta’siri kuchli bo‘lgan Buxoro va Samarqand maktablarining miniatyura asarlari XV-XVI asrlar tasviriy va amaliy bezak san’ati, arxitekturasi va mafkurasi qatorida musiqasini ham o‘rganishda muhim manbalardan hisoblanadi. Xususan, tasvirlar asosida o‘sha paytda amaliyotda keng qo‘llangan musiqiy cholg‘ular, ularning turli sharoitlarda hozir bo‘lish shakllari, qolaversa muayyan janrlari haqida ham ozmi-ko‘pmi ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Ushbu maqola doirasida tasvirlarda jilolangan ranglarning mumtoz maqomlarga dahldorligi masalasi mubohasa etiladi. Bunda Hazrat Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoniga ishlangan miniatyura tasvirlaridan asosiy ma’lumot va dalillar manbai sifatida foydalanishga urinib ko‘ramiz [Иброҳимов, 2007: 3-4].

Jumladan, adabiy manbaga ko‘ra, yetti hikoyaning har biri muayyan rang bilan muqim bog‘liq holda bayon etiladi. Masalan, birinchi hikoyada hozir bo‘lgan shoh Bahrom, hind go‘zali va barcha borliq qora rangda bo‘lishi kerak edi. Biroq “Sab’ai sayyor” dostoniga ishlangan “Bahrom qora qasrda” mo‘jaz tasvirida o‘zgacha vaziyatni ko‘ramiz: oldingi (quyi) sahnada tasvirlangan yetti (kanizak va sozandalar) siymosida “Etti maqom”dan biri ijro etilayotganini fahmlash mumkin. Zero, tasvirdagi doira zarbli cholg‘usi “usulli musiqa” (ya’ni maqom)ga ishora, chang-arfa esa – “Etti maqom” ramzidir.

Yana bir e’tiborli tomoni shundaki, bu sahnada hozir bo‘lgan siymolar faqatgina qora rangda emas, balki yetti xil rang uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Faraz qilishimizcha, adabiy manbadan farqli bu

holat hikoyalar botinidagi maqom pardalari va navolarini ranglar vositasida imkon qadar ifoda etish istagidan kelib chiqqan. Bu o‘rinda rang va ohang tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda maqomlarning samoviy jismlarga aloqadorligi borasida ham qadimdan kelayotgan ilmiy an’analar mavjudligi nazarda tutilgan bo‘lsa kerak. Zero, o‘tmishda maqomlar ham muayyan ranglar bilan bog‘liq ijro etilgan. Binobarin xofiz va sozandalar ijro etilayottan maqomlarga rang jihatdan muvofiq liboslarda bo‘lishgan, tinglovchilar uchun ham yetti hil rangda maxsus xonalar ajratilgan. Musavvir Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari tomonidan Alisher Navoiyning «Sab’ai sayyor» dostoniga ishlangan tasvirlarda (miniatyuralarda) ham bu an’ana o‘z aksini topgan edi [Алишер Навоий достонларига ишланган расмлар, 1970: 14-19].

Shuningdek, dostonda qayd etilgan yetti sayyorni qadimdan kelayotgan anana asosida maqomlarning yetti navi bilan quyidagi tartibda bog‘lanishi ham aniqlangan:

Saturn	Quyosh	Oy	Mars	Merkuriy	Yupiter	Venera
Rahoviy	Iroq	Navo	Ushshoq	Busalik	Zirafkand	Rost

Bu kabi bog‘lanish va ulardan kelib chiqadigan ramziy holatlar asarning teran g‘oyasini anglashda inobatga olinishi kerak. Xullas, shu asnoda ranglarni tovushlar ifodasiga “o‘girilishi” pirovardida “Bahrom qora qasrda” miniatyurasida “Etti maqom”ning birinchisi bo‘lgan Rohaviy maqomining tovush-pardalari shartli timsollar asosida hozir bo‘ladi. Bu fikrni quvvatlovchi qo‘shimcha bilvosita dalil ham bor. Yozma manbalardan ayon bo‘lishicha, Rohaviy maqomini ijro etish vaqti tong otishi bilan (Bomdod namozi arafasida) boshlanadi. “Bahrom qora qasrda” nomli miniatyurada ham tong vaqtiga ishora bor. Unda, jumladan yuqorida aks etgan gumbaz ortida to‘q moviy va och (oqarish) rang bo‘yoqlar “to‘qnashuvida” to‘q rang ortga chekinayotgani sezilarlidir [Кавкабий, 1985: 58].

Shu kabi holatlar hikoyalarga ishlangan keyingi miniatyuralarda ham namoyon bo‘ladiki, bunda ustuvor rang va kun vaqtiga ishora etuvchi timsollar o‘zgarib borishi kuzatiladi. Inchunin, “Bahrom oltin qasrda” (ikkinchi hikoya) nomli tasvirda kelgan sariq rang ustuvorligi (“lya”) dagi nurli timsollar Iroq maqomining pardalari va uning choshgoh vaqtida ijro etilishiga ishora etadi [Миниатюры

к поэмам Алишера Навои, 1970; 1982].

Shuningdek, mazkur miniatyuralar turkumidan o‘rin olgan “Bahrom yashil qasrda” (uchinchi hikoya) – Navo maqomini, “Bahrom gulgun qasrda” (to‘rtinchi hikoya) – Ushshoqni, “Bahrom moviy qasrda” (beshinchi hikoya) – Busalik maqomini, “Bahrom sandal tusli qasrda” (oltinchi hikoya) – Zirofkand maqomi va ularni ijro etilish vaqtlarini ramziy ifodalaydi. Pirovardida, Zuhra kuni va oq rangga bog‘langan Rost maqomi (“Bahrom oq qasrda”, yettinchi hikoya) katta turkumning yakuni sifatida hozir bo‘ladi. Uning vaqti yarim tundan to tongga qadar davom etishi ayon bo‘ladi. Shu asnoda Rost maqomi vaqtining yakuni dastlabki maqom – Rohaviyning boshlanish vaqtiga ulanib ketgan va shu tarzda turkum muntazam aylangan bo‘lsa kerak.



11. Бахром кора қасрда. Собиқ сойири.

Shunday qilib ma’lum bo‘ladiki, “Sab’ai sayyor” dostoniga ishlangan miniatyura tasvirlari asosida o‘tmishda qo‘llangan yetti maqom pardalari haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin ekan. Bu hol ayni paytda doston g‘oyasini teran anglashda ham inobatga olinishi lozim ko‘rinadi. Xususan, yetti hikoya asnosida biz shoh Bahromning ma’naviy yuksalishini ustuvor ranglar almashinuvi va maqom pardalarining muntazam yuksalib borishi asnosida bir qadar anglashimiz mumkin. Pirovardida, so‘nggi hikoya oq rang va uning botnida mavjud Rost maqomiga bog‘langan ekan, bu hol bosh qahramon taqdiri uchun ijobiy xulosaga yetarlicha asos bermog‘i kerak. Zero, oq rang tasavvufda haqiqatga erishganlik, yuksaklik belgisi. Uning bilan bog‘liq Rost (Chin, haqiqat) maqomi ham shu ma’noni zuhur etadi. Binobarin, bu boradagi dastlabki xulosa sifatida shoh Bahromning doston yakunidagi halokatini ma’joziy

ma’noda, ya’ni oshiq shohning ruhoniyat jabhasidagi g‘alabasiyu, nafsi ammorasining halokati tarzida e’tiroflash mumkin. Bu masalani butkul oydinlashtirish maqsadida esa doston mazmuni va unga ishlangan miniatyuralarni qiyosiy kesimda yanada kengroq o‘rganish lozim ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий достонларига ишланган расмлар. Альбом муаллифи Ҳ.Сулаймон. – Т.: 1970. – Б. 35.

2. Гаджибеков У. Основы азербайджанской народной музыки. –Баку: 1985. – С. 18-20.

3. Жмудь Л.Я. Пифагор и его школа. –Л.: 1990. – С. 91-128.

4. Кавкабий. “Рисолаи мусиқи”. – Душанбе: 1985. – Б. 58.

5. Маллаев Н.М., Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: 1976. – Б. 476.

6. Миниатюры к поэмам Алишера Навои// Составители Хамид Сулейман, Фазила Сулаймонова. – Т.: 1982. – С. 35

7. Хасанов Саидбек. “Роман о Бахраме”. – Т. : 1988. – С. 130.

MAVJUDNI MAVJLANTIRGAN NAZIRALAR

Iqboloy ADIZOVA
ToshDO‘AU
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada adabiyot taraqqiyotida mumtoz an’analar va naziranavislikning o‘rni yoritilgan. Alisher Navoiy qalamiga mansub “Isi” radifli g‘azalga bog‘langan Amiriy, Uvaysiy, Furqat nazira-g‘azallarining taraqqiyot bosqichlari tadqiq etilgan. Oshiqona, irfoniy va ijtimoiy g‘oya yo‘nalishidagi o‘sish tizimi ilmiy dalillangan.

Tayanch so‘zlar: *Naziranavislik, novatorlik, xol, ishq, vahdat, zulf, vasl, hajr, timsol.*

Annotation

The role of classical traditions and naziranavislik in the development of literature are illumirated in this article. In particular, there is researched the stades of development of nazira-ghazals which were written by Amiri, Uvaysi and Furkat and they were connected to Alisher Navai’s ghazal which was named “Isi”. Furthermore, the growth system in the direction of erotic, irfani and social idea is scientificaflly proven.

Key words: *naziranavislik, innovation, mark, love, vakhdat, zulf (ringlet), vasl, hajr (separation), symbol.*

Adabiyot hamisha an’analardan oziqlanadi. An’anaviylikning bag‘ridan o‘sib chiqib, yangilanadi. Taraqqiyotning yangi pog‘onalariga ko‘tariladi. Naziranavislik mavjudni mavjlantirish, eskini rivojlantirib, yangini yaratish demakdir. Naziranavislik tufayli turg‘un adabiy asar harakatga keladi, yangi hayotini boshlaydi. Chunki ular novatorlikka borish, yangilanish yo‘llaridan saboq beradi. Ijodkorlarimizni ijodning yuksak cho‘qqilari sari etaklashga xizmat qiladi.

Jumladan, Uvaysiy devonidagi naziralar tajribasi ham buni isbotlaydi. Shoira Navoiy, Amiriy, Nodira, Jomiy, Lutfiy, Fuzuliy kabi ko‘plab ijodkorlarning eng mashhur g‘azallariga naziralar bog‘lagan. Jumladan, Alisher Navoiyning “Badoe’ ul-vasat” devonida “Bog‘ aro go‘yo sabo solmish edi jonon isi, Kim, etishgach gul isi, men toptim andin jon isi” matlasi bilan boshlanuvchi bir g‘azali bor. O‘zbek adabiyoti tarixida mazkur g‘azalga ko‘plab ijodkorlar nazira bog‘lashgan. Bu, ayniqsa, Qo‘qon adabiy muhitida o‘ziga xos an’anaga aylangan. O‘ziga xos adabiy musobaqa tusini olgan. ”Unga Zokirjon Furqat nazira, Rojiy va Nodim muxammas, Nodim yana, o‘z navbatida, Rojiyning tazminli muxammasiga musamman yozgan edi” [Orzibekov, 1978: 86]. Ushbu tajriba asosida Uvaysiy va Amiriy ham o‘ziga xos nazira yaratishgan. Bizga ma’lumki, Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron” tazkirasi, ma’lum ma’noda, nazira–majmua, tatabbular jamlamasidir. Tazkiraning yaratilish tamoyilidan kelib chiqib, undan mazkur g‘azalga bog‘langan ko‘plab naziralar ham o‘rin olgan. Jumladan, Amiriyning “isi” radifli g‘azali ham tazkirada munosib o‘rin tutgan.

Amiriyning mazkur g‘azali 9 baytdan iborat. Navoiy g‘azali bilan hajm jihatidan teng. Ikkala asar ham ramali musammani mahzuf (foilotun-foilotun-foilotun-foilun; - v - -/ - v - -/ - v - -/ - v -) vaznida yaratilgan. Asarlar mazmun jihatidan ham bir-biriga yaqin. Amiriy asarida Navoiy qo‘llagan qofiyalarning bittasi (birinchi baytdagi “jon” so‘zi) ishlatilgan, xolos. Ikkala asarda ham birinchi bayt mazkur qofiya bilan ziynatlangan. Bir xil “isi” radifi qo‘llangan. Har ikki asar ham oshiqona yo‘nalishda. Ularda yor va oshiqning visol onlari tasvirlangan. Ammo, ikkala shoir asarida ushbu tasvir o‘ziga xos va takrorlanmas ifoda tizimi bilan yoritib berilgan. Jumladan, Navoiy g‘azali ham vasl mavzuida yozilgan. Bu yo‘lni shoir tabiat tasviri bilan bog‘liqlikda ochib beradi. Bog‘, sabo, gul, rayhon, g‘uncha kabi timsollarni qo‘llab, ular vositasida jonon va jon, yuz va xat, og‘iz va durdek tishlar bilan bog‘liq ramziy mohiyatlarni yoritib berishga harakat qiladi. Dastlabki baytda gul va jonon timsollarini muqoyasa etadi. Lirik qahramon gul ramzida jononni tasavvur qiladi. Ammo, u ikkinchi baytdayoq, bu fikridan qaytadi.

Gulning qizilligida qotillik alomatini koʻradi. Buning sababini esa shoir keyingi baytda oshkor etadi:

La'li koʻnglum qatlini qilmoqqa boʻldi nuktasanj,

Ey koʻngul, dam asrakim, keldi bu soʻzdin qon isi [Navoiy, 1990:446].

Keyingi baytlarda oshiq yor yuzida haqiqiy yor vaslini koʻradi. Endi unga gulu rayhon kerak emas. Chunki lirik qahramon nazdida ular, uni asl maqsaddan chalgʻituvchi dunyoviy ashyolarga aylanadi:

Yuzu xattining nasimidin chu toptim toza jon,

Vah, ne jonimgʻa kerak emdi gulu rayhon isi [Navoiy, 1990:446].

Oshiq koʻngli ishq dardidan majruh. Ishq paykoni bilan yaralangan. Oshiq uchun ishqdan yoqimli holat yoʻq. Hatto, ishq sodir etgan jarohat ham shifobaxsh. Shu sababli, lirik qahramonga gʻunchaning yoqimli atridan koʻra ham, koʻngliga sanchilgan, hatto qadimiyligi va davomiyligidan zanglab ketgan ishq paykoni hidi qadrdonroq:

Gʻuncha atrin xushlamasmen menki, koʻnglum bogʻida

Dark etarga oʻrganibmen zanglig' paykon isi.

Buning sababi aniq, chunki faqat ishqqina oshiqni asl maqsadiga etkazuvchi, vaslga muyassar etguvchi vosita. Zero, ishq paykoni, ya'ni kiprikning oshiqqa yoʻnaltirilishining oʻzidayoq, vasl holati tasvirini koʻramiz.

Keyingi baytda xoli savdo – qora xol haqida fikr yuritiladi:

Xoli savdosin, dema, koʻnglung nega fosh ayladi

Kim, yoshurgʻon birla boʻlmas mushkning pinhon isi.

Baytda xol mushkka qiyoslanadi. Mushkni qancha yashirsang–da, hidi oshkor etadi. Irfoniy lugʻatlarda qora xol gʻayb olami ramzi, vahdat nuqtasi sifatida izohlanadi: "Xol – soliklar va zavq ahli tariqiga koʻra, Haq vahdati nuqtasidir" [Duktur Sayyid Ja'far Sajjodiy, 1379: 236]. Shundan kelib chiqib, shoir ramziy ma'noda uni mushk bilan muqoyasa etadi. Chunki uni koʻz bilan koʻrmasangda, muattar boʻyi sehri bilan seni oʻziga jalb etadi. Xuddi shuningdek, koʻnglingda mujassamlashgan gʻayb asrorini, vahdat holatini ham sening ruhiy holating oshkor etib qoʻyadi. Keyingi baytda shoir boda timsolini qoʻllaydi. U ham ramziy ma'no kasb etadi. Bodani koʻp iste'mol etganda, kishi mast boʻlib yiqiladi. Oʻzini unutadi.

Shoir shu holatdan ishq maqomining yuqori darajasidagi ruhiy holatni ifodalash maqsadida foydalanadi.

G‘azalning maqtasi umumlashtiruvchi, ya’ni barcha aytilgan fikrlarga yasalgan xulosa, ma’lum ma’noda, matladagi fikrga qaytish, uni eslatish vazifasini bajaradi. Asarda shaklan raddul-matla’ san’ati qo‘llanmagan. Ammo shu san’at vazifasini shoir o‘zgacha so‘zlar va obrazlar keltirib, tamsil va talmeh orqali amalga oshirgan. Shoir Ya’qub va mahi Kan’on obrazlari orqali Qur’oni karimdagi “Yusuf” surasini eslatadi. Ya’qub alayhis-salomning o‘g‘li Yusuf diydoriga naqadar ilhaq, intizorlikda ko‘zlari ojiz bo‘lib qolganligi, uning ko‘ylagini hidlagach esa najot topganligi – ko‘zlari ochilganligiga ishora qiladi. O‘zini – Ya’qubga, seviklini – Yusufga mengzaydi:

Guldin ul gulrux isin topqach Navoiy ochti ko‘z,
O‘ylakim, Ya’qub ko‘nglakdin mahi Kan’on isi.

Ayniqsa, mazkur so‘nggi baytda, Navoiyning g‘azaldan ko‘zlagan muddaosi to‘la yuzaga chiqadi. Shoir talmeh san’ati vositasida Yusuf qissasiga ishora qiladi: Yusufning ko‘ylagini hidlagan otasi – Ya’qubning ko‘zi ochilganidek, ya’ni hodisaning mohiyatiga etganidek, Gulda gul yuzli go‘zallikning ramzini ko‘rgan lirik qahramonning ham ko‘zi ochiladi. Ya’ni asl mohiyat nimada ekanligini anglaydi. Ma’rifat hosil qiladi.

Navoiyning mazkur g‘azaliga Rojiy Marg‘iloniy ham nazira – muxammas yozgan. Uni tadqiq etgan adabiyotshunos olim R. Orzibekov shunday mulohaza bildiradi: “Rojiy Marg‘iloniyning mazkur g‘azalga hazaj bahrining hazaji musamman shaxobchasida yozgan [Orzibekov, 1976: 86] muxammasidan bir bandi quyidagicha:

Elga bargi aysh ekan har bir guli bo‘ston isi,
Iskadim men g‘am samumi birla go‘yo qon isi.
Topmadim gulshan nasimidin magar hirmon isi,
“Gar bahor el topsa bo‘stondin gulu rayhon isi,
Kelur ul rayhon ila guldin menga hijron isi”.

Tazminli nazira muxammasning birinchi bandi bo‘lgan bu parchada qo‘shtirnoq orasidagi so‘nggi 4- va 5- misralar Alisher Navoiyning shu radifli g‘azalining matla’i bo‘lib, uning ustidagi uch misra Rojiyning o‘z tab’idandir” [Orzibekov, 1976: 86].

Ammo, shu o‘rinda, bir masalaga oydinlik kiritish lozim, deb hisoblaymiz. Risola muallifi muxammasdagi 4- va 5- misralar Navoiy g‘azalining matlasi deya ma’lumot beryapti. Lekin Navoiyning g‘azalida bunday bayt uchramaydi. Qo‘qon adabiy muhitida mazkur g‘azalga nazira yozgan Amiriy, Uvaysiy, Furqat kabi ijodkorlar asarlarida ham, aynan, bunday bayt keltirilmagan. Ammo mazkur muxammasni to‘la ravishda Rojiyning mustaqil ijodi namunasi deb ham bo‘lmaydi. Chunki undagi tashbehlar, badiiy ifoda shakllari, qo‘llangan so‘zlar qamrovi Uvaysiy, Amiriy, Navoiy kabi ijodkorlarning “Isi” radifli g‘azallari ta’sirida yaratilgani sezilib turadi. Jumladan, Amiriyning nazira g‘azalida ham Navoiy g‘azali kabi e’tibor, asosan, vaslga qaratiladi. Shoir laff va nashr san’atini qo‘llab, sunbulu kokil, rayhonu xat timsollaridan o‘z fikrini ifodalash uchun foydalanadi. Ammo shu o‘rinda Amiriyning o‘ziga xos ifoda yo‘sini namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, mumtoz adabiyotda sunbul, rayhon timsollari an’anaviy va bir-birini taqozo etadi. Ular moddiy predmet tarzida tasvirlanayotgan ikki obraz(kokul va xat) ning sifatiy belgilarini tasdiqlashga xizmat qiladi. Ammo Amiriyda esa, aksincha, ulardan ikki maqsadda foydalanilgan. Birinchidan, shoir kokul va xatni sunbul va rayhonni inkor etuvchi ashyolar sifatida zidlantirib tasvirlasa, ikkinchidan, shoir shu yo‘l bilan sunbul va rayhon kokul va xatning “nashr” sifatida mohiyatini yoyib beruvchi, tasdiqlovchi badiiy ashyo sifatida ham qo‘llayapti. Sajjodiyning tasavvuf lug‘atida zulfning turli izohlari beriladi. Shulardan birida: “Zulf – hech kim anglayolmaydigan g‘oyiblik mohiyatidir” [Duktur Sayyid Ja’far Sajjodiy, 1379: 442], deyiladi. Amiriy lirik qahramoni yuqori maqomda turib, xuddi ana shu mohiyatga etishni orzulaydi:

Sunbulu rayhon shamimin aylamasmen orzu,
Kim, tilarmen kokuli xatti abirafshon isi [Amiriy, 1972: 236].

Tasavvuf lug‘atlarida vasl – Haqdan boshqa hamma mavjudlikni unutish ma’nosida talqin etiladi [Duktur Sayyid Ja’far Sajjodiy, 1379: 786]. Amiriy g‘azalida ham lirik qahramon ana shunday o‘zini va borliqni unutgan visol holatida:

Vasl topdim, zindai jovid bo‘ldum dahr aro,
Go‘yiyokim, jon isi erdi menga jonon isi.

G‘azal mumtoz adabiyotga xos bo‘lgan ko‘pma’noli mazmunga ega. Zohiran qaraganda, bir go‘zal dilbarga oshuftalik, visol va hijron tuyg‘ulari ifodalangandek ko‘rinadi. Ammo, botinan g‘azal zamirida ramziy obrazlar vositasi bilan ishora etilayotgan teran ilohiy mohiyat mavjudligini ham anglash qiyin emas:

Yorga aydim: yuzu zulfung asirimen Amir,
Aydikim, keldi bu so‘zdin kufr ila iymon isi.

Ma’lumki, irfoniy lug‘atlarda yuz – ilohiy jamol tajallisi. Zulf esa turlicha ma’nolarda talqin etiladi. Shunday ma’nolaridan biri Sajjodiy lug‘atida quyidagicha izohlangan: “Irfoniy atamalar”da keltirilishicha, zulf – kufr zulmatiga ishoradir” [Duktur Sayyid Ja’far Sajjodiy, 1379: 442]. Shunday ekan, yuqoridagi baytda shoir uslubidagi ko‘pma’nolilikka uning o‘zi ham ishora qilib ketadi. G‘azalda zohiran majoziy, botinan esa ilohiy vasl holati o‘z ifodasini topgan. Bunday xulosaga kelishimizga asarda qo‘llanilgan ramzlar, timsollar va so‘zlar tizimi ham asos beradi. Ayniqsa, yuz va zulfga, kufr va iymon so‘zining zidlantirib qo‘llanishi bu mohiyatni yanada oydinlashtiradi. Ushbu asarlar orasida Uvaysiy she’riyati ruhiy tahlilning nihoyatda chuqurligi bilan ajralib turadi. Uning devonida ham “isi” radifli 7 baytdan iborat g‘azal bor. U ham ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Navoiy, Amiriy, Furqat g‘azallaridan farqli ravishda unda fikr bir-biriga zid holat - vasl va hajr tuyg‘usi haqida boradi.

Uvaysiyning hodisalarga yondashishi, talqin etishi o‘ziga xos. Jumladan, ushbu g‘azalda vasl holati tasvirga olingan. Lirik qahramon vaslga erishgan. Ammo, u “shodmonlikda g‘amginlikni unutmang” aqidasiga amal qiladi. Hozirda vasl og‘ushida bo‘lsada, hijron riyozatlarini xotirlaydi. Uni unutmaydi. Ushbu g‘azalda shoira mahoratining ikki qirrasi ko‘rinadi:

1. O‘zi yaratayotgan timsolning ichki olamini chuqur talqin eta olish;

2. So‘zlarni tanlash va qo‘llashdagi o‘ziga xos noyob iste’dodini namoyon eta olish.

Uvaysiy g‘azalidan shoira ko‘zlagan muddao boshqa shoirlarning mazkur radifli asarlaridan farqlanmaydi. Ammo, uslub, mahorat, poetika nuqtai nazaridan keskin farqlanuvchi qirralar behisob.

Avvalo, shoira uslubiga xos chuqur ruhiy tahlil, hayot mohiyati, inson ruhiyatini anglashga intilish, so‘zlar zamiridagi dardni, hayotni uyg‘otib qo‘llay olish san’ati yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, qofiya tarzida tanlangan so‘zlar bu borada alohida ahamiyatga molik.

Qofiya uchun muvaffaqiyat bilan tanlangan ana shunday o‘tkir so‘zlar she’r va shoir maqomini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Mazkur g‘azaldagi qofiyalar xuddi ana shunday vazifani bajarishga bexato yo‘naltirilgan so‘zlardir.

Shoiraning mazkur g‘azali nazira shaklida yaratilgan. Shu sababli, ma’lum ma’noda o‘zi ta’sirlangan g‘azallarga noziklik bilan, sezdirmay o‘z munosabatini ham bildirib o‘tadi. Jumladan, Amiriy g‘azalida ham ilohiy jamolga, ham majoziy dilbar qiyofasiga chizgilar yaqqol seziladi, degan edik. Yuqorida keltirganimizdek, vasl – Haqdan boshqa hamma narsani unutmoqdir. Ammo, Amiriy lirik qahramoni tabiatida bunday yuksak maqomdan chekinish holatlari ko‘rinib turadi. Undagi oshiq ba’zan o‘zini unutsa, ba’zan dunyoviy maqomi borasida ham faxr va kibr bilan eslaydi:

Gulshani ayyom eli yuz shukr farmonimdadur,
Kelmagay, yorab, bulardin vardi nofarmon isi.

Shu sababli ham, Uvaysiy o‘z g‘azali matlasida, bizningcha, “vasldan hijron isi keladi” deya salaflari fikriga munosabat bildirib o‘tadi.Chunki tasavvuf lug‘atlarida “Hajr – Haqdan boshqaga zohiriy va botiniy iltifot” [Duktur Sayyid Ja’far Sajjodiy, 1379: 796], deya sharhlanadi. Demak, bizningcha, shoira g‘azalining birinchi baytini Amiriy g‘azalidagi oshiq holatining, ma’lum ma’noda, tanqidga olinishi deya qabul qilish mumkin. Chunki Amiriyda vasl haqida so‘zlanyapti. Ammo, dunyoviylikka iltifot unutilmayapti. Shu sababli, Uvaysiy o‘zining chuqur ma’noli e’tirozini ifodalayapti:

Keldi vaslingdin, netaykim, bu kecha hijron isi,
Ul sabab erdi: tabassumdin kelur giryon isi [Uvaysiy, 1983: 84].

Ikkinchi misra birinchi misraning biz keltirgan talqini bilan bog‘liq. Hazrati Maxdumi A’zam Dahbediy o‘zining “Ruboiylar sharhi risolasi”da so‘zlash va kulishni shunday izohlaydi: “Bilgilki, so‘zlash va kulishdan maqsad ul zotning go‘zal ismlariyu sifatlarining solik qalbida tajalli qilishidur” [Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy, 2001: 129]. Demakki, vaslga mukammal erishilmagan ekan, tajalli ham

to‘liq bo‘lolmaydi. Shu boisdan Uvaysiy har bir solik va oshiqqa saboq bo‘luvchi chuqur mazmunli fikrni bayon etadi.

Uvaysiy so‘zlarni nihoyatda donishmandlik bilan tanlaydi. Har bir so‘z lirik obraz ruhiy holatini aniq inkishof etadi. Jumladan, “Ul sabab erdi: tabassumdin kelur giryon isi” birinchi baytning ikkinchi misrasi. “Yig‘i aralash tabassum qilish”ning o‘zi she’rxonni lirik qahramon holatiga olib kiradi. Uning tuyg‘ularini anglashga yaqinlashtiradi. Yig‘i ma’nosining, aynan, giryon so‘zi orqali ifodalanishining o‘zida ham, shoira nazarda tutgan chuqur mantiq borligini anglash qiyin emas. Tabassum va yig‘i so‘zlari vositasida tazod san’atining qo‘llanishi lirik qahramon ruhiy holatini, egallagan maqomu darajasini o‘quvchi tasavvurida aniq tasvirlab berishga xizmat qiladi. Holat suratini bunday bexato chizib berish Uvaysiyning shoira sifatidagi o‘ziga xos mahoratini belgilaydi.

Amiriy g‘azalida vaslga erishganlik haqida masrurlik bilan kuylanadi. Ammo, Uvaysiyda bu holat butunlay farq qiladi. Uning lirik qahramoni o‘zi ko‘tarilgan maqomdan qanoatlanmaydi. Amiriy asarida masrurlik ruhi ustuvor bo‘lsa, Uvaysiyda mahzunlik ustuvor.

Mashrab tal’atidagi ishq maqomining yuksakligini ta’kidlash maqsadida, rivoyatlardan birida, “Oh deganda nafaslaridan qovurilgan go‘shtning bo‘yi kelardi”, deyilgan. Uvaysiy g‘azalining quyidagi baytida ham xuddi ana shunday maqomdagi oshiq holati o‘ziga xos ifodasini topgan. Garchi u Majnun kabi, dili ishq g‘ami bilan to‘lgan bo‘lsada, la’lining shavqida yurak-bag‘ri qovurilgan, iztirobda. Mazkur baytda shoira so‘zlarni turli ma’no tovlanishlarini e’tiborda tutib qo‘llagan. Jumladan, La’li so‘zi Majnun bilan yonma-yon ishlatilganligi sababli Layliga ishorani ham bildiradi. Undan tashqari, la’lning lab ma’nosidan kelib chiqib, zohiriy ishtiyoq va ramziylik bilan bog‘lab, ko‘ngildagi ilohiy tajalliga ehtiyojmandlik ma’nolarida ham qabul qilishimiz mumkin.

Ikkinchi misrada bag‘ir va biryon so‘zlaridagi undoshlar uyqashligi vositasida hosil etilgan tavze’ san’ati ohangdorlikni va mazmuniy mutanosiblikni ham ta’minlagan:

Garchi men husnungga Majnun, zarfi dil sarshori g‘am,
Shavqi la’lingdin bag‘irdin kelgusi biryon isi [Uvaysiy, 1983: 84].

Dunyoviy ishqning ibtidosi oshiqlik, intihosi vasl. Ammo, shoira asarida vasl ishq intihosi emas, balki uni yanada olovlantiruvchi cho‘g‘ sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki vasldan so‘ng fano bosqichi bor. Oshiqning asl maqsadi esa unga intilishdan iborat:

Gar tabassum etsa gul, bulbulga orom o‘lmagay,
Lablaring to xandadur, mendin kelur afg‘on isi.

Mazkur g‘azal zohiran qaraganda, oshiqning majoziy vasl va hajr tuyg‘ulari izhori sifatida taassurot qoldiradi. Ammo, Uvaysiy uslubidan kelib chiqib, chuqurroq yondashsak, asar ilohiy ishq va tajalli falsafasini ham o‘zida mujassamlashtirgan murakkab ramziy ma’nodagi asar ekanligini anglaymiz. Shoira orifona g‘oyalarini ifodalashda ko‘p ramziy timsollarni qo‘llaydi. Vasl, tabassum, la’l, subh, rayhon, gul, bulbul, lab, Yusuf kabi timsollar shular jumlasidandir. Birinchi misradagi gul tabassumi va bulbul fig‘oni; ikkinchi misradagi lab xandasi va oshiq nolasidagi mutanosiblik ramziy ma’noga ega. Chunki lab tabassumi, xandasi orif ko‘nglida Haq jamolining, Ilohiy fayzning tajalli topishini anglatib keladi. Bunday maqomdagi oshiq esa fano sari intiladi.

Uvaysiy salaflari asarlaridan ilhomlanibgina qolmasdan, o‘zidan keyingi xalaflariga ham kuchli adabiy ta’sir o‘tkazgan. Jumladan, mazkur “Isi” radifli g‘azallar taraqqiyot tarixida Furqat tomonidan yaratilgan nazira g‘azal ham muhim o‘rin egallaydi. U 7 baytdan iborat. Asarning shakliy xususiyatlari salaflari ijodidagi kabi saqlangan. U Navoiy asaridagi 5 ta qofiyani qayta qo‘llagan (jonon, rayhon, qon, jon, xandon). Furqat g‘azali salaflari asarlaridan juda katta farq qilmaydi. Ammo, undagi mahorat qirralari, tasvir uslubi o‘ziga xos va yangichaligi ko‘rinib turadi. Ayniqsa, bu jihat g‘azalning so‘nggi baytida yaqqol namoyon bo‘lgan. Mazkur baytda Navoiyda ham, Furqatda ham bir xil qofiya, radif (xandon isi), bir xil timsol qo‘llaniladi. Ammo shoirlarning individual yondashuvi natijasida badiiy ashyolar asarda turli vazifani bajarib keladi. Navoiyda og‘iz va dur tishlar shabnam va ochilgan g‘unchaga tashbehlanadi. Bu erda shoirning tashbeh uchun tanlagan ashyolarining nihoyatda mutanosibligi ko‘rinadi. Oppoq, durdek tishlar marvarid yanglig‘ shabnam donalariga, og‘iz esa tabassumga shaylangan g‘unchaga

qiyoslanadi. Furqatda esa mazkur “xandon isi” qofiya va radif butunlay boshqa – ijtimoiy mazmun va mundarija kasb etadi. Shoir ulardan jahon ayvonidagi nomukammallik va noqisliklardan iztiroblanish tuyg‘ularini ifodalash uchun foydalanadi:

G‘ussadin qon yutmayin naylay, jahon gulzoridin,

Topmasam sho‘rida, Furqat, bir guli xandon isi [Furqat, 1959: 84].

Ushbu bayt shoir g‘azalida eng so‘nggi – ettinchi bayt bo‘lib keladi. U asar g‘oyasining kulminatsion nuqtasi vazifasini bajaradi. Holat tavsifiga bag‘ishlangan g‘azal so‘nggi baytda dunyo va insoniyat ma’naviyatiga nisbatan keskin isyonni o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy, umumbashariy mohiyatga ega bo‘ladi.

Navoiy g‘azali ta’sirida yaratilgan mazkur “isi” radifli asarlar o‘zbek mumtoz adabiyotida, xususan, Qo‘qon adabiy muhitida an’ana va novatorlik masalasini, ularning o‘zaro munosabatini aniqlashda muhimdir.

Kuzatuvimiz shuni ko‘rsatadiki, bir xil mavzuda, bir xil vaznda, bir xil radifda yaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, har bir iste’dodli ijodkor qalamidan chiqqan asar o‘ziga xos yangi ijod mahsuli sifatida dunyoga keladi. Unda har bir ijodkorning tafakkur tarzi, dunyoqarashi, falsafiy mushohadalari o‘z ifodasini topadi. An’anaviylikning saqlanishi bilan birga mavzuga yangicha yondashuv, yangicha tasvir tizimi ko‘zga tashlanadi. Ular bir-biriga o‘xshashi bilan birga, davr ruhini, uning muammolarini yoritish, tasvirlash prinsiplari bilan farqlanib turadi. Shu sababli, har bir ijodkor yaratgan asardagi mazmun, fikr, g‘oya, tasvir tamoyillarida taraqqiyot belgilarini kuzatamiz. Mazkur g‘azal Navoiy tomonidan yaratilgan oshiqona yo‘nalishdagi asardan tasavvufiy va nihoyat ijtimoiy yo‘nalishdagi g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan, keng qamrovli asar maqomigacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tganligini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001.

2. Amiriy. Devon. – T.: Fan, 1972.

3. Duktur Sayyid Ja’far Sajjodiy. Farhangi istilohot va ta’biroti irfoniy. – Tehron, 1379.

4. Navoiy. MAT.5-tom, Xazoyin ul-maoniy. Badoe’ ul-vasat. – T.: Fan, 1990.

5. R.Orzibekov O‘zbek lirik poeziyasida g‘azal va musammat. – T.: Fan, 1976.

6. Uvaysiy. Ko‘ngil gulzori. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

7. Furqat. Tanlangan asarlar. 2 tomlik., 1-jild. – T.: O‘zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959.

«ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН» АЛИШЕРА НАВОИ В ЛИТЕРАТУРНОМ СОЗНАНИИ РОССИЙСКИХ ВОСТОКОВЕДОВ

«LEILI AND MEJNUN» ALISHER NAVOI IN THE LITERARY CONSCIOUSNESS OF RUSSIAN ORIENTAL SCIENCES

Гулноз ХАЛЛИЕВА
Узбекского государственного университета мировых языков (Узбекистан)

Аннотация

В тезисах раскрывается компаративистское мастерство российского востоковеда Е.Э. Бертельса путём анализа некоторых сравнительных исследований учёного. В целях освещения исследовательской специфики и методики работы Е.Э.Бертельса с письменными памятниками Востока на основании его статьи в данной работе определяются ведущие фрагменты поэм «Лейли и Меджнун» авторов Низами, Дехлави и Навои.

Ключевые слова: *востоковедение, тюркология, узбекская классическая литература, компаративистика, эпизоды, Низами, Дехлави, Навои,* «Лейли и Меджнун».

Annotation

The theses reveal the comparative skill of the Russian orientalist E.E. Bertels by analyzing some of the scientist's comparative studies. In order to highlight the research specifics and methods of work of EE Bertels with the written monuments of the East, on the basis of his article, the leading fragments of the poems "Leyli and Majnun" by the authors of Nizami, Dehlavi and Navoi are determined in this work.

Key words: *oriental studies, Turkic studies, Uzbek classical literature, comparative studies, episodes, Nizami, Dehlavi, Navoi, "Leyli and Majnun".*

Сравнивая творчество Алишера Навои (1441-1501) и Фарид

ад дина Аттара (1145-1221) Е.Э.Бертельс опроверг мнение западноевропейских и многих российских учёных о том, что Алишер Навои (1441-1501) является переводчиком и подражателем персидской литературы. «Рассмотрение поэмы «Лисан ат-тайр» показывает нам большого художника, мастера слова, способного из данного материала создать оригинальное произведение, но помимо этого художественного дарования мы видим еще человека с широким образованием, огромным житейским опытом, и что для нас еще ценнее, большим сердцем, полным любви, к окружающим его людям и во имя этой любви способным забыть и простить все их недостатки» [Бертельс, Навои и Аттар, 83]. Востоковед А.Н. Малехова продолжила исследования Е.Э.Бертельса относительно «Лисан ат-тайр» и предоставила науке новые горизонты произведения [Малехова].

«Лейли и Меджнун» - другое не менее значимое произведение, попавшее в поле зрения Бертельса - компаративиста. Сравнивая поэму «Лейли и Меджнун» двух персоязычных поэтов Низами Гянджеви́ (1141-1211) и Амира Хосрова Дехлави (1253-1325), а также тюркоязычного поэта Алишера Навои Бертельс называет Навои «блестящим знатоком всей старой традиции» и в тоже время, в ряде случаев порывающим с традициями и вступающим на новый путь [Бертельс. Избранные труды,430] . Он отмечает, что европейские ориенталисты не полностью понимая всего хода литературного процесса на Востоке, установили, что все поэмы Навои представляют собой «назире»[1] и поэтому великого поэта считали переводчиком персидских произведений.

Статья была впервые опубликована в 1940-м году, в научном сборнике подготовленном к 500-летнему юбилею Алишера Навои [Бертельс, Лейли и Меджнун], затем была включена в сборник избранных произведений учёного[Бертельс, Избранные труды] В 1943 году «Лейли и Меджнун» была переведена С. Липкином на русский язык и издана с предисловием Е.Э. Бертельса [Навои, Лейли и Меджнун]

В начале статьи дана информация об истории создания

[1] В восточной поэзии «ответ» поэта на поэму другого поэта.

поэмы, о ее генезисе, диапазоне распространения, о ключевых эпизодах, описанных в ней, и о поэтах ранее писавшие на схожие темы. После, в сравнительном аспекте освещаются поэмы «Лейли и Меджнун» авторства Низами, Дехлави и Навои. Е.Э. Бертельс сообщает, что Низами приступил к написанию поэмы без особого желания, так как считал тему «Лейли и Меджнун» скучной и неинтересной, не допускающей высокопарных выражений. Поэма посвящена персидскому царю Ахсатану ибн Манучехру (1160—1197) и состоит из суфийских этюдов. Язык произведения образный и сложный.

Из краткого сюжета поэмы Низами нами были выделены следующие **основные эпизоды:** *мольба отца; рождение Кайса; встреча в школе – начало любовных отношений между Кайсом и Лейли; поход Меджнуна в Мекку и его побег на обратном пути; победа Навфала над племенем Лейли и его отступление по просьбе Кайса; обручение Лейли; смерть Ибн Салама; скитание Меджнуна в горах подобно юродивому, любовная кульминация; трагедия Лейли и Меджнуна.*

Поэма Низами, становится вскоре знаменитой и начинаются попытки написания на неё назиры. Придворный поэт Дехлави приступает к созданию своей поэмы спустя век после Низами. В поэме Дехлави можно выделить следующие **основные эпизоды**: *пророчество звездочета о любовных переживаниях Кайса; встреча в школе – начало любовных испытаний; распознание матерью тайны Лейли, раскрытие этого секрета ее отцу, домашний арест; сватовство и эпизод отказа; победа Навфала и его отступление; женитьба Меджнуна на дочери Навфала, его побег в день своей свадьбы; написание письма и встреча в безлюдной пустыне по инициативе Лейли; трагедия Лейли и Меджнуна.*

По вышеперечисленным сюжетным линиям можно определить следующее своеобразие поэмы Дехлави: Во-первых, в поэму Дехлави не внесен эпизод с описанием хаджа (религиозное паломничество мусульман в Мекку) Меджнуна. Во-вторых, Хадж заменен предсказанием астролога, что «лишает Меджнуна активного начала и делает его безвольной игрушкой в руках безликого рока» [Бертельс, 423]. Меджнун Дехлави – образец

безразличия, поэтому он и женится на дочери Навфала и глупо убегает со своей свадьбы. В-третьих, Е.Э. Бертельс считает неудачным эпизод встречи в пустыне по инициативе Лейли, поскольку это описание наносит ущерб общей концепции произведения. Из-за него психологическое и философское содержание последующих событий теряют свою значимость. По мнению ученого, Дехлави не осознал глубину философской мысли Низами; сцепление событий носит случайный характер, и трагическая развязка не оправдана [Бертельс, 423].

В-четвертых, язык поэмы, простой и сжатый удовлетворяет дворцовому уровню, но не способен оставлять такое же яркое впечатление как язык Низами. Несмотря на это, поэма Дехлави получила большую известность, нежели поэма Низами.

Как известно, Алишер Навои знал произведения Дехлави и Низами, когда приступил к написанию своей «Лейли и Меджнун». Об этом можно догадаться из предисловия произведения. Анализируя некоторые поэтические фрагменты, где отображено отношение самого Навои к Низами и Дехлави, Е.Э. Бертельс приходит к следующему выводу: «…Навои, признавая высокие художественные достоинства поэмы Амира Хосрова, всё же ставит её неизмеримо ниже произведения Низами. При всей своей внешней сдержанности он довольно сурово и совершенно верно отмечает блестящую внешность поэмы Амира Хосрова, за которой, однако, не скрывается глубины и величия произведений Низами» [Бертельс, 425]. Навои с восточной скромностью сообщает о том, что его цель сотворение маленького «городка» и «сада» около ранее построенного Низами «замка». Нижеприведённые факты помогут нам узнать, как же было на самом деле.

Структуру поэмы Навои Е.Э. Бертельс анализирует глубже, чем предыдущие произведения. По нашему мнению, этим ученый хотел ещё раз доказать оригинальность творчества Навои. Другими словами, «он хотел показать, что поэт взял у своих предшественников, а в чём он счёл нужным идти своим собственным путём» [Бертельс, 427] Из описания Бертельса можно определить **следующие эпизоды поэмы Навои**: *мольба*

отца; рождение Кайса; организация пиршества в школе отцом Лейли в честь выздоровления дочери; встреча Кайса с Лейли на этом пиршестве и его необычное при этом состояние (здесь Бертельс подчеркивает, что Навои смог изобразить этот процесс в следующих реалистических деталях: увидев Лейли, Кайс впадает в непонятное состояние и прячется от всех в самый разгар пиршества. Лейли случайно находит его, спрашивает у него причину его грусти, но ни на один миг не сомневается в своей причастности к этому)*; неудачный эпизод сватовства; наступление Навфала на племя Лейли, его победа и отступление (в поэме Навои Меджнун во сне узнает, что отцу Лейли грозит смерть, если он не выполнит задание, и просит Навфала отступить); обручение Лейли; смерть жениха; поездка Меджнуна в Мекку и его побег на обратном пути; скитание по горам и степям; мотив дружбы с псом возлюбленной* (в этом эпизоде Бертельс напоминает, что «приятельство с псом» может показаться немного странным европейскому читателю, но это было нормальным явлением для среднеазиатской лирики XV века)*; возвращение Меджнуна и его венчание с дочерью Навфала (*этот эпизод есть и в произведении Дехлави, но в нем Меджнун венчается перед свадьбой Лейли, а у Навои – после ее свадьбы. В поэме Навои у дочери Навфала есть свой возлюбленный. Узнавший об этом Меджнун не соглашается на свадьбу и дарит двум молодым счастье соединения. У Дехлави же этот эпизод кончается побегом Меджнуна в день своей свадьбы*); побег Лейли из дома и случайная встреча с Меджнуном* (здесь Бертельс обращает наше внимание на слово «случайное». Если у Дехлави встречу организует сама Лейли, то у Навои это происходит без нарушения восточного этикета и не указывает на недостатки воспитания Лейли).

Встречу Лейли и Меджнуна Е.Э. Бертельс оценивает как отдаление от концепции Низами у обоих писателей, и подчеркивает, что этот эпизод «разбивает план развития действия и отнимает у любви Меджнуна тот «дематериализованный» характер, который ей придан Низами» [Бертельс, 429] . У Низами была цель показать божественную силу любви.

Поэтому его Меджнуну не нужна Лейли в физическом облике, духовно в своем безумии он уже присоединился с ней (суфийская концепция любви). Навои же, по мнению Е.Э.Бертельса, от этой концепции отказывается вполне сознательно: ему нужна не неземная любовь, а обычное человеческое чувство, его цель – приблизить поэму к реальной действительности.

В интерпретации ученого история любовных приключений Лейли и Меджнуна - это иллюстрация того, к каким семейным трагедиям может привести абсолютная власть родителей над детьми [Бертельс, 430]. Конечно, с подобным заключением Е.Э. Бертельса трудно согласиться. По нашему мнению, интерпретировать следует, исходя из «национально-религиозной специфики мусульманской культуры. При глубоком анализе идейно-художественного содержания текста становится очевидным, что причина бед – не абсолютное господство родителей, а долг мусульманина перед религиозным шариатом и семьей. Конечно, в силу «сталинских условий» Е.Э. Бертельс был вынужден считаться с идеологическим давлением, поэтому учёный при анализе иногда мог допустить такие поверхностные трактовки. Осознание горькой участи репрессированных востоковедов, таких как А.Н. Самойлович, С.Л. Волин и других, вынуждало поступить именно так. [Люди и судьбы].

При сравнительном анализе всех трех вариантов поэмы «Лейли и Меджнун» Е.Э. Бертельс приходит к следующим выводам:

1. Трудно согласиться со словами Навои, скромно повествующем о создании маленького «городка» и «сада», ибо анализ Е.Э.Бертельса показывает, что он сотворил «замок» не хуже, чем у самого Низами;

2. При создании своей поэмы Низами опирается на суфийскую концепцию, а Навои считает, что только реалистичными эпизодами можно убедить читателя и поднять самые актуальные проблемы эпохи. По мнению автора данной работы, Навои с самого начала уделяет пристальное внимание к духовности человека и проблеме стремления человечества к совершенству. Европейские востоковеды все произведения Навои считали переводом и не видели необходимости в их глубоком изучении. Именно поэтому, исследования в западном навоиведении всегда

ограничивались лишь общими описаниями его рукописей.

В конце статьи, Е.Э. Бертельс отмечает, что поэма «Лейли и Меджнун» имеет особую ценность. «Безграничная любовь к человеку, которой горело великое сердце Навои, которая направляла всю его и литературную, и общественную деятельность, в этой поэме сказалась особенно ярко» [Бертельс, 431]

Подводя итог всему вышесказанному, можно с уверенностью отметить, что компаративистские исследования Е.Э. Бертельса дают возможность читателю одновременно получить сведения о нескольких произведениях, ознакомиться со спецификой и методикой работы с тюркскими письменными памятниками. На основе своих изысканий учёный разработал методологические основы изучения рукописей, подготовки научно-критического текста, показал специфику исследований тюркской литературы [Бертельс, 1965, 11-18].

Литература:

1. Бертельс Е.Э. Навои и Аттар // Сборник статей / Мир Али Шир.–Л:.1928.–С.24–83.

2. Бертельс Е.Э. Лейли и Меджнун // Сборник статей / Родоначальник узбекской литературы. – Ташкент:. 1940.–С. 30-50.

3. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Джами. –М.: Наука, 1965.

−499 с

4. Конрад Н.И. Средневосточное возрождение и Алишер Навои // Избранные труды.-.М: Наука. –С.90-104.

Люди и судьбы. Биобиблиографический словарь востоковедов − жертв политического террора в советский период (1917−1991). −СПб.: Петербургское Востоковедение, 2003.−496 с.

5. Малехова А.Н. Поэма Алишера Навои «Лисан-ат-тайр» («Язык птиц»): поэтика композиционных и образных средств: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.−Т., 1978. 26 с.

6. Малехова А.Н. Поэма Алишера Навои Язык птиц // В кн. Алишер Навои Язык птиц. −СПб.: Наука, 2007. С. 267−329.

7. Навои Алишер Лейли и Меджнун. Поэма / Пер. С.Липкина / Вступительная статья Е.Э. Бертельса. -Ташкент: Госиздат,1943. 232 с

ALISHER NAVOIY – JAMIYAT ISLOHOTCHISI VA QONUNLAR IJODKORI

Rahmon FARMONOV
JIDU professori

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning siyosiy faoliyati haqida fikr yuritiladi. Muallif buyuk mutafakkirning davlat arbobi sifatida amalga oshirgan ishlarini tahlil qilish jarayonida uning mohir diplomat, jamiyat islohotchisi, o‘zbek davlatchiligi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan qonunlar ijodkori ekanligiga ham diqqat qaratadi.

Kalit so‘zlar: *diplomat, islohotchi, davlatchilik, qonunlar, davlat arbobi.*

Abstract

This article examines the political activities of Alisher Navoi. In the process of analyzing the work of the great thinker as a statesman, the author also draws attention to the fact that he was a skillful diplomat, a reformer of society, a creator of laws, who made a huge contribution to the development of Uzbek statehood.

Key words: *diplomat, reformer, statehood, legislator, statesman.*

Alisher Navoiy Samarqandda yashagan davrida mashhur olim Xoja Fazlulloh Abullays huzurida fiqh ilmidan saboq oladi. Bu haqda shoirning o‘zi “Majolis un-nafois” asarida shunday yozadi: “Faqir ikki yil alarning qoshida saboq o‘qib erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, “farzand” der edilar” [Navoiy, 1997: 32]. Alisher Navoiy fiqh sohasidagi bilim va tajribasini keyinchalik davlat arbobi sifatida amaliy ishlarida va islohotlarida izchil qo‘lladi.

Navoiyning Samarqandga qachon kelganligi to bugungi kunga qadar bahsu munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Navoiyshunos Sh.Sirojiddinov bu borada o‘z monografiyasidagi “Navoiy Samarqandda” faslida batafsil so‘z yuritgan [Sirojiddinov, 2011]. Bu

muallifning xulosalarini inkor etmagan holda o‘quvchilar diqqatini bir masalaga qaratmoqchimiz. Ma’lumki, Navoiy yoshlik davrining bir muddatini Abulqosim Bobur saroyida o‘tkazdi. Sulton 1456-yili qishlash uchun Mashhadga ko‘chganida, Alisher va Husayn Boyqaroni ham o‘zi bilan saroy xizmatiga olib ketadi.

1457-yil qish faslida Abulqosim Bobur vafot etgan vaqtda Navoiy 16-17 yoshli navqiron yigit edi. O‘sha yili Abusa’id taxtni egallab, Xurosonda nisbatan osoyishtalik o‘rnatdi. Biroq Sulton Abusaid Abulqosim Boburdan ko‘ra qattiqqo‘l, barcha muammolarni jismoniy kuch yo‘li bilan hal qilish tarafdori bo‘lgan. Sulton Abusaid Hirot taxtini egallagunga qadar Xurosonda Movarounnahrdan ko‘ra birmuncha erkinlik, ijod ahli uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘lgan. Navoiyning aytishicha, bu zamonda “Xuroson ahli Samarqand ahliga asir erdilar va har nav’ zulm va ta’ddini alardan voqye bo‘lsa, bu asirlar mute’ va farmonpazir” [Navoiy, 199: 114]. To‘g‘ri, Abusaid bir muddat Hirot taxtini egallashi munosabati bilan Movarounnahr va Xurosonni bir davlat ostida birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi, biroq Ulug‘bek o‘ldirilganidan so‘ng Samarqanddagi mutaassib kuchlar ilm-fan, taraqqiyot rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdilar. Aynan Samarqandda o‘rnatilgan “tartibotlar” Xirotda ham joriy etildi. Navoiy o‘z hayoti davomida biron-bir hukmdorga nisbatan Abusaidga ochiq e’tiroz bildirganidek munosabatda bo‘lgan emas. Bu o‘z-o‘zidan ma’lum, chunki Abusaid podshohligida Xirotda ijod qilish emas, balki osoyishta kun kechirishning o‘zi ham og‘ir bo‘lib qoldi. Bundan tashqari, XV asrning 60-yillarida Alisher Navoiy nafaqat iste’dodli yosh shoir, balki xalq orasida adolat uchun kurashuvchi, millat va din vakili hamda Sulton Abusaidga qarshi kurashayotgan Husayn Boyqaroning yaqin do‘sti sifatida tanilib ulgurgan edi. Shu bilan birga “Holoti Pahlavon Muhammad” asaridagi qisqa va purma’no iboralarida Sulton Abusa’id Mirzo davrida zulm va zo‘ravonlik avjiga chiqqanligi ifoda etilgan. Shu bilan birga Alisherning tog‘alari Mirsa’id Ali Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiyning asosiy kasblari sipohiylik bo‘lib, Boyqaroning lashkarboshilari qatorida Abusaidga qarshi jang qilishlari natijasida podshoh jallodlari tomonidan qatl etilgan edilar. O‘z navbatida 1466-1467-yili Badaxshonda Navoiyning do‘stlari tomonidan ko‘tarilgan qo‘zg‘olon Abusaid tomonidan

ayovsiz bostirildi. Demak, Abusaid zamonidagi zulm va zo‘ravonlik butun Xuroson xalqiga qaratilgan bo‘lib, Navoiy shaxsini ham chetlab o‘tmadi. Zahiriddin Bobur “Boburnoma” asarida Navoiyni “Sulton Abusaid Mirzo Hirotdan ixroj qildi. Samarqandga bordi, necha yilkim, Samarqandda edi” – deb yozadi [Boburnoma, 1989: 153]. Shu sababli “Shoirlar va ilm ahli siyosatda betaraf bo‘lganlar” iborasini Navoiyga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi [Sirojiddinov, 2011: 50]. O‘z navbatida Sh.Sirojiddinovning “Navoiyning tog‘alari yoki Badaxshon hokimining Abusaid buyrug‘i bilan qatl ettirilishi Sulton va Navoiyning bir-birlariga sovuq munosabatda bo‘lishlariga asos bo‘-la olmaydi” – degan so‘zlari bahstalab bo‘lib [Sirojiddinov, 2011: 51], Sulton Abusaid Navoiyning Husayn Boyqaro bilan maktabdoshligi, qalin do‘stligi va eng muhimi hammaslakligini juda yaxshi bilar edi. Bundan tashqari, Sulton Abusaid toju taxt uchun kurashda eng asosiy raqib yosh, iste’dodli sarkarda temuriy Husayn Boyqaro ekanligini yaxshi tushunib yetgan edi. Ilgarilari Husayn Boyqaroga Mirzo Ulug‘bek homiylik qilgan bo‘lsa, Ulug‘bek vafotidan keyin Sulton Abusaid Husayn Boyqaroni qamoqqa oladi, u qamoqdan qochib Abulqosim Boburga qo‘shiladi. 1458-yil 20 yoshli Husayn Boyqaro Astrobodni egallab, u yerdagi hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi va 10 yil davomida Sulton Abusaidga qarshi kurashni davom ettiradi. Xulosa shundan iboratki, XV asrning 60-yillari o‘rtalarida iqtidorli shoir, xalq orasida o‘z donoligi va xalqparvarligi bilan tanilgan Alisherning Sulton Abusa’id uchun poytaxtdan uzoqroqda bo‘lishi ma’qul topilgan edi. Samarqandda bo‘lganida ham Alisher Navoiy Sulton Abusaidning o‘g‘li Samarqand voliysi Sulton Ahmad va shahar hokimi Ahmad Hojibek nazoratida bo‘lgan.

Alisher Navoiy Samarqandda necha yil yashaganligi, ikki yoki to‘rt-besh yilmi, hozirgacha noaniqligicha qolmoqda. Uning Samarqanddan qaytgan sanasi aniq, Sulton Husayn Boyqaro 1469-yil mart oyi oxirida Hirotni egallagach, Navoiyni Samarqanddan chaqirtirib oldi va Navoiy o‘sha yilning aprel oyida Hirotga kirib keldi.

Navoiy Samarqandda tahsil olish bilan bir qatorda Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va adabiy hayotni kuzatib bordi. Navoiyning Samarqanddagi ezgulik ishlari to‘g‘risida Xondamir ajoyib lavhalarni qoldirgan. Bu zamonda Xuroson va

Movarounnahr askarlari toju taxt talashayotgan temuriylar orasidagi urushning qurbonlari bo‘lganlar. Sulton Abusa’id zamonida Husayn Boyqaro lashkarlari Xuroson viloyatlari va tumanlariga hujumlar uyushtirib turganlar. “Bir gal ulardan ikki nafari Amir Ahmad Hoji (Axmad Hojibek Samarqand shahri hokimi – R.F.) odamlari tomonidan qo‘lga olindi. U o‘ylab o‘tirmasdan, bularning har ikkalasi qatl etilsin va boshlari Samarqand voliysi Sulton Axmad Mirzoning oldiga olib borilsin, deya hukm chiqardi. O‘sha paytda Axmad Hojining qo‘shinida bo‘lgan, Hazrati sultonning (Husayn Boyqaro – R.F.) yaqin kishisi bo‘lgan ul oliy hazrat (Alisher Navoiy – R.F.) ushbu hukm to‘g‘risida eshitib, o‘sha ikki asirning holiga rahmlari keldi va Amir janoblariga: - bu ikki kishini tiriklay Sulton Axmad Mirzoning oldiga yuborish kerak, toki uning o‘zi bevosita ulardan Mirzo Sulton Husaynning vaziyat qanday ekanini bilib olsin va bular to‘g‘risida o‘zi ma’qul topgan hukmni chiqarsin - , dedilar. Amir Axmad Hojiga bu so‘zlar juda ma’qul bo‘lib, ul hazratni (Alisher Navoiyni – R.F.) olqishladi va asirlarni o‘z podshohi oldiga jo‘natdi. Sulton Ahmad Mirzo ulardan Sohibqiron Sultonning (Husayn Boyqaroning - R.F.) qanday ahvolda ekanligini bilib olgach, har ikkalasini qamoqqa tashladi. Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, ushbu azizlardan biri qamoqdan ozod bo‘lib, dono Amir (Alisher Navoiy – R.F.) ning huzuriga shoshildi. Uning xizmatkori bo‘lish majburiyatini bo‘yniga olib, bir umr ul hazrat mulozimlari qatoridan joy olib, uning duoi jonini qilishga majbur bo‘ldi” [Xondamir, 2015: 93-94].

Alisher Navoiy Samarqandda ekanligida shahar harbiy qismlaridan birida harbiy xizmatni o‘tagan va “Chig‘atoy amiri” unvoniga sazovor bo‘lgan. Bugungi kunda bu harbiy unvon kapitan rutbasiga mos keladi.

Xondamir shunga o‘xshash yana bir hikoyat keltiradi. O‘sha kezlari Alisher Navoiy Movarounnahrda bo‘lgan. Sulton Abusaid amirlari Chaxchax yaqinidagi jangdan so‘ng Husayn Boyqaroning lashkarlaridan bir to‘dasini asirga olib, ularni qatl etish, so‘ngra boshlarini o‘z podshohlariga jo‘natish uchun bo‘lib olishdi. Husayn Boyqaroning yaqin kishisi bo‘lgan Alisher Navoiy o‘rdugohda (harbiy qarorgoh, shtab, lager – R.F.) Amir Sulton Hasan Arxangiyning o‘g‘li Mirzobek bilan bo‘lgan. Asirlardan ikkitasi Amir Sulton Hasan

Arxangiyga tekkan, o‘sha damda Amirning o‘zi bo‘lmagan, uning o‘g‘li Mirzobek oldiga tavochi (podshohning buyruq va topshiriqlarini yetkazuvchi va amalga oshiruvchi amaldor, ad’yutant – R.F.) ikki asirni olib kelib, har ikkalasini ham qatl qilib boshlarini podshoh huzuriga yuboring, - degan. Alisher Navoiy Mirzobekka: - Men jang maydonining falon joyida bir jasadni ko‘rdim. Bir ikki tanga jallodga bersangiz va uning kallasini olib kelsa va o‘sha kallani qo‘lga tushgan asirlardan birining kallasi deb podshoning oldiga jo‘natsangizu asirlardan birini o‘ldirmasdan qo‘yib yuborsak, degan umidda edim, - dedi. Mirzobek Navoiyning aytganini qildi va bir kishining hayoti saqlab qolindi. Navoiy asirlardan ikkinchisining hayotini qay yo‘l bilan saqlab qolsak ekan, deb o‘ylab turganida, tavochi yetib kelib, bittadan ortiq asirni o‘ldirmang, bitta kalla yetadi,- dedi. Shunday qilib, jang maydonidan olib kelingan kallani tavochiga berib, har ikkala kishini qo‘yib yubordilar [Xondamir, 2015: 94-95].

Alisher Navoiy Samarqandda ekanida topqirligi, uzoqni o‘ylab ish ko‘rishi, qolaversa, mohir diplomatligi tufayli saroy ahli o‘rtasida katta obro‘ qozondi va temuriylar o‘rtasidagi jangda imkoni boricha o‘z maslahatlari bilan harbiylar va asirlarning hayotlarini saqlab qolishga muyassar bo‘ldi. Bizning nazarimizda, Navoiy Samarqandda ekanida o‘z ustida tinimsiz ishlashi, bu yerdagi ziyolilar va mansabdor shaxslar bilan uzluksiz aloqada bo‘lishi, piru ustozlar orttirishi bilan bir qatorda Samarqand voliysi Sulton Axmad Mirzo va uning yaqin odami, shahar hokimi Ahmad Hojibek bilan tez-tez suhbatlar qurgan, keyinchalik saroy ahli bilan ham yaqinlashgan. Ma’lumki, Sulton Ahmad podshox Abu Sa’id Mirzoning katta o‘g‘li bo‘lgan. Navoiy Samarqanddaligida u viloyat voliysi bo‘lgan. Navoiy va podshoh Sulton Abusa’id munosabatlari to‘g‘risida yuqorida gapirdik, biroq Navoiyning shahzoda va viloyat voliysi Ahmad Mirzo bilan munosabatlari risoladagidek bo‘lgan, albatta, bunda Alisherbekning namunali xulqi, donishmandligi, yuksak ma’naviy fazilatlari, vaziyatni zudlik bilan anglashi katta rol o‘ynagan. Sh.Sirojiddinov Alisher Navoiyning uchta benazir xislatlar sohibi ekanligini qayd etadi, bular: uning favqulodda iste’dodi natijasida yozilgan buyuk asarlari, mashhur davlat arbobi bo‘lgani, nihoyat, uni ulug‘ pir maqomiga ko‘targan xulq-atvori [Sirojiddinov, 2011: 70].

XV asrning 60-yillaridan boshlab Sulton Husayn Boyqaro nufuzli qo‘shinlarga boshchilik qilgani holda Xurosonda paydo bo‘ldi. Hirot, Obivard, Niso, Mashhad va boshqa hududlarda goh muvaffaqiyatli, goh muvaffaqiyatsiz tarzda Sulton Abusa’id Mirzo qo‘shinlariga qarshi kurashib yurdi. Biroq ko‘p o‘tmay Sulton Abusaid 1468-yil Ozarbayjondagi Mo‘g‘on cho‘lida turkmanlarning Oqqo‘yunlu sulolasidan bo‘lgan Uzun Hasan (1453-1478) bilan jang vaqtida halok bo‘ldi. Sulton Abusa’idning o‘g‘illari: Sulton Ahmad, Sulton Mahmud va Umarshayx Mirzo Husayn Boyqaro bilan kurashdan voz kechib, Movarounnahrga qarab yo‘l oldilar. 1469-yil mart oyi oxirida Sulton Husayn Boyqaro Xurosonning podshosi sifatida tantana bilan Hirotga kirib keldi. Husayn Boyqaroni Hirot xalqi yaxshi qarshi oldi. Shunday qilib, temuriylar davlati yana ikki mustaqil davlatga: Sulton Husaynnning hukmronligi qaror topgan Xuroson podsholigi va Abusa’idning o‘g‘illari hukmronlik qilgan Movarounnahr davlatiga bo‘lindi.

Darhaqiqat, yangi hukmdor o‘ziga aqlli, saltanat sirlarini yaxshi biladigan, yashirin ishlar, maxfiy sirlarni tekshirish uchun o‘ziga sodiq do‘st, xalqparvar, dono, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qiladigan diplomat, zukko shaxsni tanlashi kerak edi. Bu jihatdan Husayn Boyqaro uchun Alisherdan munosib inson topilmas edi.

1469-1470-yillar Husayn Boyqaro bilan Alisher Navoiy uchun nihoyatda murakkab va og‘ir sinovlar davri bo‘ldi, chunki yangi davlatning tamal toshini qo‘yish arafasida Xurosonda temuriylar o‘rtasida toju taxt uchun kurash avjiga chiqdi. 1468-yil Abusaid o‘ldirilgach, taxtni egallagan Husayn Boyqaro boshqa bir temuriy da’vogar Yodgor Mirzoga qarshi kurash olib bordi. 1470-yilning o‘rtalarida Yodgor Mirzoga qarshi kurashishda Husayn Boyqaro Hirot shahrida o‘z amaldorlarini qoldirib urushga ketgan edi. Bu paytda Hirot aholisi mahalliy amaldorlarning o‘zboshimchalik bilan soliq solganligidan g‘azablanib qo‘zg‘olon ko‘tardi. Sulton Husayn Boyqaro bilan safarda bo‘lgan Alisher Navoiyning iltimosiga binoan podshohga aholini tinchitish va ochko‘z amaldorlar qilgan adolatsizligiga barham berish niyatida Navoiyni Hirotga yuboradi. Navoiy xalq orasida norozilik tug‘dirishga sababchi bo‘lgan gunohkorlarni jazolash to‘g‘risidagi Sulton farmoni juma namozi

minbaridan turib xalqqa o‘qib eshittirilishini aytadi. Alisher Navoiyning maslahati bilan Sulton Husayn Boyqaro Hirotda farmon chiqarib, poytaxt va uning atrofidagi dehqonlar, hunarmandlar va barcha aholini ikki yilga favqulodda soliqlardan va askarlarni boqish uchun solinadigan to‘lovlardan ozod qiladi [Mirzoyev, 1957: 20].

Yodgor Mirzoga qarshi barcha kurashlarda Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning yonida turib unga maslahatlar berib turadi. 1470-yil yozida Yodgor Mirzo o‘ldirilgach, Husayn Boyqaro to vafoti (1506) gacha Xurosonda podshohlik qildi.

Alisher Navoiy 1469-yil aprel oyidan to 1471-yil oxirigacha Husayn Boyqaro saroyida muhrdorlik qildi. 1471-yil kuzida amirlikka tayinlandi. Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro bilan bo‘lgan qisqa suhbatlaridan so‘ng Navoiy bilan Said Hasan Ardasher (Navoiy u to‘g‘rida “bu faqirga ota o‘rnida edi.....Bu faqir turklar va tojiklar orasida undan yetukroq kishini ko‘rmaganman -”deb yozgan edi.) bir kunda jubba va kulohi navro‘zi kiyib muhrdorlik ishiga kirishishlari to‘g‘risida qaror qilinadi. Ko‘pchilik saroy ahli xayollarida muborak farmonga muvofiq tadbirli, dono va yosh Alisherning barcha amirlardan yuqoriga muhr bosadi, degan fikr tinchlik bermas edi. Ammo Alisher “qog‘ozni olib, o‘ta kamtarlik va xokisorlik yuzasidan shunday bir joyga muhr bosadilarki, biror kishi undan quyiroqqa muhr bosa olmadi. Said Hasan bu holatni ko‘rib xijolat bo‘ldi, boshqalar esa Amirlik yig‘inlarining to‘rida o‘tiruvchi bu zotning bunchalik kamtarligidan hayrat dengiziga g‘arq bo‘ldilar” [Xondamir, 2015: 106]. Darhaqiqat, Alisherning bu raftorini saroydagi uning muxoliflarini yosh amaldor bilan yaqinlashishga va ko‘pchilikning mehrlarini qozonishga undadi.

Sadriddin Ayniyning ma’lumotlariga ko‘ra, 1472-yilning boshida Xuroson davlati va uning poytaxti Hirotda tarixiy o‘zgarishlar yuz berdi. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro farmoni bilan amirlik rutbasiga ega bo‘ldi va bosh vazirlikka tayinlandi. O‘sha damda uning ustozi halol va adolatli, komil inson Said Xasan Ardasher ham amirlik unvoniga sohib bo‘ldi. Alisher Navoiy bosh vazir bo‘lgan devonda Nizomulmulk mulk ishlari bo‘yicha mutasaddi edi. Xo‘ja Majididdin esa Husayn Boyqaro saroyida parvonachi vazifasini egalladi. Parvonachi Sultonning qabul kunlari kelib tushgan ariza,

arzu dodlar, noroziliklarning mazmunini podshohga tanishtirib, javobini va ijrosini o‘z egalariga yetkazar edi. Vazirlikda Alisher Navoiyga yaqin kishilar uning sodiq shogirdlari Xo‘ja Afzal va Xo‘ja Abdulla Marvarid ham bo‘lib, ular molu mulk masalalari bilan shug‘ullanib, Navoiyning topshiriqlarini bekamu ko‘st ijro etar edilar. Nima bo‘lganda ham Sulton Husayn Boyqaro saroyida Alisher Navoiy podshohdan keyin birinchi shaxs hisoblanar edi [Ayni, 1975: 173]. XX asrning taniqli afg‘on tarixchisi Mir G‘ulom Muhammad G‘ubor ma’lumotlariga ko‘ra, Alisher Navoiydan keyin eng nufuzli vazir bu temuriy Shujoiddin Arg‘un bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida G‘ur viloyatining hokimi ham edi. Bu mavzeda xazoralar va takudariylar ko‘pchilikni tashkil etar edi [G‘ubor, 1967: 271].

Alisher Navoiy mamlakatni boshqarishda adolat mezonlarini o‘ziga asos qilib oldi, imkon darajasida ortiqcha soliqlarni bekor qildi, davlat byudjetini qattiq nazoratga oldi, xazinaga kelib tushadigan daromadlarning bir qismini mamlakat ehtiyojiga, uning farovonligiga sarflar edi. Shu bilan birga mahalliy hokimlar va amaldorlarning o‘zboshimchaligiga chek qo‘yib, mamlakatda qattiq tartib o‘rnatdi. Alisher Navoiy mamlakat bosh vaziri sifatida ilm-fan, adabiyot, san’at va madaniy sohalarga katta e’tibor qaratdi, ziyolilar, hunarmandlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Alisher Navoiy vaqf mulklaridan keladigan katta daromadni ilm-fan va ma’rifatga yo‘naltirdi. Vaqfdan keladigan daromadlarni ilgarilari sadrlar o‘z bilganlaricha ishlatishar va oz qisminigina davlatga ajratishar edi. Navoiy bu ishga chek qo‘ydi, vaqf tizimini takomillashtirdi, vaqfdagi kirim-chiqimlar uchun hisob-kitob daftarlari yuritiladigan bo‘ldi. Shuningdek, vaqfdan keladigan daromad bevayu bechora, kambag‘al, yetim-yesirlarga sarflanadigan bo‘ldi. Alisher Navoiy homiyligida o‘nlab emas, yuzlab ilm toliblari yetishib chiqdi, ilm-fan, adabiyot, tasviriy san’at, xattotlik, turli kasb-hunar egalari mashhuri jahon bo‘ldilar. Alisher Navoiy shaxsida maorifparvarlik, saxiylik va insonparvarlik bir-birlari bilan uyg‘unlashib ketgan edi. Alisher Navoiy o‘zi qurdirgan madrasalardagi mudarrislarga har yili 200 oltindan maosh belgilagan, u davrda 5 oltinga bir qo‘y bergan. Yana har oyda ularga ikki qopdan bug‘doy va arpa bergan. Bug‘doy non uchun, arpa esa uni minadigan oti uchun sarflangan.

Navoiy talabalar sonini guruhda 11 tadan oshirmaslikni tavsiya beradi, agar har guruhda 20 va undan ortiq talaba bo‘lsa, mudarris ularning har biriga yetarlicha e’tibor bermaydi deb hisoblaydi; o‘z navbatida Navoiy talabalarni qobiliyati va yaxshi o‘qishiga qarab uch toifaga bo‘lgan va ular uchun uch daraja maosh – stipendiya belgilangan [Qodirov, 2010: 146].

Alisher Navoiy yo‘llarni ta’mirlash, yangi yerlarni ochish, kanallar qazish, ko‘priklar yasash, hammomlar qurish masalasiga jiddiy e’tibor qaratdi. Navoiy Husayn Boyqaroning o‘ziga e’tiqodini oqlagani uchun uning “Muqarribi Xazrati Sultoniy”, ya’ni “Sultonning eng yaqin kishisi” unvoniga sazovor bo‘ldi. Navoiyshunos Sh.Sirojiddinov Alisher Navoiyning yuqori mansab, sohibdevon – devon oliy amiri mansabini 1472-1476-yillar davomida egallagan deb hisoblaydi. Shu bilan birga muallif Alisher Navoiyning “Vaqfiya” asariga asoslanib, buyuk mutafakkirning bosh vazir – devon sohibi sifatida mas’ul bo‘lgan 9 ta soha va tarmoqlarni sanab o‘tadi.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, Alisher Navoiy bosh vazir sifatida turli xalq sayillari, umumxalq tadbirlarini tashkil etish bilan birga, tashqi ishlar, xorijdan kelgan ulug‘ mehmonlarni rasmiy qabul qilish va kuzatish, favqulodda holatlar, isyonlar hamda chegara muammolarini hal qilish; shu bilan birga poraxo‘rlikka qarshi chora-tadbirlar ko‘rish, talonchilik va bosqinchilikka qarshi kurash, sud-adliya ishlari, viloyatlardan tushgan ariza va shikoyatlarni tekshirish, amnistiya (ozod etish) va diniy aloqalardan iborat bo‘lgan [Sirojiddinov, 2011: 67].

Aytish joizki, Navoiy bosh vazir bo‘lgan davr Xuroson podsholigining eng gullagan davriga to‘g‘ri keldi. Juda ko‘p qurilishlar, jumladan, madrasalar, xonaqohlar, hammomlar, masjidlar, aholi istiqomat qiladigan joylar, kutubxonalar, madaniyat, san’at maskanlari barpo etildi. Kanallar qazilib, yangi yerlar ochildi, ko‘priklar qurildi. Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro saroyida o‘n yil davomida vazirlik qilishi davomida ilm-fan, adabiyot, san’at, madaniyat sohalaridagi ulkan siymosi, Alisher Navoiyning davlat va jamoat arbobi sifatida serqirra faoliyati afsuski to hozirgacha to‘la o‘rganilgani yo‘q. Faqat shu narsa ma’lumki, Alisher Navoiy bosh vazirlikdan iste’fo bergan bo‘lsa-da, biroq davlat ishlaridan

butunlay uzoqlashmadi. Ustozi va do‘sti, fors-tojik adabiyotining yirik vakili Abdurahmon Jomiyning maslahatlari bilan doimo xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qildi. Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida qayd etilishicha, Navoiy mansab va lavozimda ishlab yurgan kezlari miskin va darveshlarga moddiy yordam berish hamda boshqa yurtlardan kelgan yo‘lovchilar va musofirlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida Xurosonning turli joylarida ko‘plab xonaqohlar, rabotlar, hovuzlar, ko‘priklar, hammomlar qurdirgan. Kitobda barpo etilgan inshootlarning ayrimlari tilga olingan: 12 ta xonaqoh va imorat, 54 rabot qurilib, yana bitta rabot qaytadan ta’mirlanganligi, 19 ta hovuz kovlanganligi, 14 ta ko‘prik yasalganligi, 2 ta ko‘prik ta’mirlanganligi va 2 to‘g‘on barpo etilganligi, 9 ta hammom bunyod etilganligi haqida ma’lumot keltiriladi [Xondamir, 2015: 65-68]. Qiziq tomoni shundaki, Alisher Navoiy barpo etgan inshootlarning soni va qiymati podshoh Husayn Boyqaro qurdirgan binolar va inshootlardan ko‘p bo‘lgan. Muxtaram o‘quvchilarimizda “Alisher Navoiy bunchalik boylikni qayerdan olgan?”degan savol tug‘iladi. Navoiy o‘z davrining katta daromadga ega shaxslaridan bo‘lgan. Lekin u o‘z boyligini xalq manfaatiga, nochor kishilarning mushkullarini yengillashtirishga qaratgan. Alisher Navoiy mehr va marhamatli, saxovatli bo‘lib kamtarlikda tenggi yo‘q inson bo‘lgan. Navoiyning ana shu jihatlari ham ibrat, ham namuna bo‘lib, avlodlarimizni bunyodkorlikka, ezgulikka chorlab kelmoqda.

O‘sha kezlari Xorazm Sulton Husayn Boyqaro davlati tarkibida bo‘lgan. Podshoh Husayn Boyqaro Hirot xalqidan uch ming oilani Xorazm viloyatiga ko‘chirishga farmon bergan, ammo bu farmonni bajarishda ko‘chirilayotgan aholining boshiga ne kulfatlar tushishini tasavvur qilish qiyin. Navoiy bosh vazir sifatida podshohga 11 marta murojaat qilib (holbuki qoidaga ko‘ra Navoiy vazir sifatida podshohga 9 martabagacha murojaat qilishi mumkin edi – R.F.) Xorazm viloyatiga ko‘chirishni uch martagacha kamaytirishga erishgan. Demak, Xorazm viloyatiga uch ming oila o‘rniga ming oila ko‘chirtirilgan [Xondamir, 2015: 65-68].

Navoiyning ijtimoiy, siyosiy faoliyati va davlatni boshqarish, uni idora etishda nasriy yo‘l bilan yozilgan “Munshaot” asari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asar insho san’atining o‘zbek tilidagi dastlabki

nodir namunasi bo‘lib, unda Navoiyning turli yillarda yozilgan 100 dan ortiq maktublari jamlangan [Tursunov, 2016: 145]. Bizning hajm jihatdan imkonimiz chegaralanganligi sababli shartli ravishda 56-maktub deb nomlangan xatning mazmuni bilan o‘quvchilarimizni tanishtiramiz. Zero, bu maktub temuriylar uchun davlatni idora qilish dasturulamali edi desak o‘rinli bo‘ladi. Navoiyshunos olimlarimizning fikricha, bu maktub XV-asrning 90-yillarida yozilgan va aynan Husayn Boyqaroning katta o‘g‘li Badiuzzamonga atalgan [Tursunov, 2016: 15-22]. Mazkur maktubda temuriylarning Xurosondagi davlati tanazzulni boshidan kechirayotganligi va Alisher Navoiy davlat ishlaridan bir muncha uzoqlashgan bo‘lsa-da, biroq mamlakatda sodir bo‘layotgan voqyea-hodisalarga befarq qarab turolmasligi yaqqol aks etgan. Alisher Navoiy tajribali davlat arbobi sifatida, o‘z faoliyatida siyosiy ixtiloflarning oldini olish, markazlashgan mustaqil davlatga rahna solayotgan kuchlar, eng avvalo, Husayn Boyqaro bilan shahzodalar, ayniqsa, Badiuzzamon o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etish, mamlakat osoyishtaligini, yaxlitligini ta’minlash va yurtning barqaror bo‘lishi ustida qattiq iztirob chekayotgan edi.

56-maktub o‘z hajmi jihatdan ham ancha katta; unda Alisher Navoiy mamlakatni boshqarishga oid o‘ttizdan ortiq muammolarni o‘rtaga tashlab, ularni zudlik bilan amalga oshirish yo‘llari va uslublarini ko‘rsatadi: “Yana ulkim, alas-sabo (ertalab bir yo‘lakay-R.F.) haramdan chiqqach, devonda o‘lturub dodxoh so‘rulsa, dag‘i dodxoh so‘rarda o‘zluk bila mashg‘ulluq qililsa, agar bir mazlumg‘a birovdin zulme o‘tgan bo‘lsa, zolimg‘a andak siyosat qililsakim, o‘zga zolimlarg‘a mujibi intiboh (ogohlantiruvchi – R.F.) bo‘lsa” [Tursunov, 2016: 97]

Alisher Navoiy markazlashgan davlatga rahna yetmasligi uchun ichki intizomga, joylarda podsholik tomonidan yo‘llangan amru farmonlarni bajarishni nazorat qilishga katta e’tibor qaratadi. “Yana ulkim, - deb yozadi Navoiy, - arkon davlatqa har ishkim, buyrulur, agar butmagi bir kun muyassardur, agar ikki yo uch kun – andoq muqarrar bo‘lsakim, bot butardek ishni hamul kun arz qilib, javob olsalar..... Har kun ne miqdor butganin kelib arz qilsalar. Agar ba’zi hukm yo‘suni bila mioddin (belgilangan vaqt – R.F.) o‘tkarib, arzg‘a yetkurmasalar, alarga andoq xitob bo‘lsakim, o‘z ishlaridan g‘ofil

bo‘lmasalar” [Tursunov, 2016: 97] Alisher Navoiy o‘z maktubida mamlakat a’yonlarini dinu diyonatga chorlaydi, 5 vaqt namoz o‘qish, ro‘za tutish, beva-bechoralar holidan xabar olish, chog‘ir ichishdan o‘zni saqlashga da’vat etadi. Shu bilan birga Navoiy Allohga murojaat qilib, undan davlat boshliqlariga, amaldorlarga insof, diyonat so‘raydi.

Navoiy Badiuzzamonga murojaat etib, undan sharobxona, fohishaxona, qimorxona kabi joylarni man qilishni so‘raydi. Chunki bunday “buzuqi maskanlar” odamlarni yomon yo‘lga boshlaydi, ularning ma’naviyatini tubanlashtiradi. “Yana ulkim, - deb yozadi, - Navoiy, - shahar ehtisobi (hisob qilish, tekshirish, ta’qiqlovchilar – R.F.) amrida yaxshi ehtimom (ahamiyat berish, diqqat qilish-R.F.) qililsa, andoqkim, sharobxona, baytul-latif (fohishaxona) va qimorxona – bularga o‘xshar nomashru’ umurni kulli man qililsa. Muhtasiblar xaftada 2 qatla bozor ahlining narxlaridan vuquf topsalar” [Tursunov, 2016: 98]. Maktubda xalqni ma’rifatli qilish, turli ilmlardan, shu jumladan tarixni o‘rganish masalasiga katta e’tibor qaratilgan. Hatto kutubxonalarda tarixni, xususan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarini o‘rganish yuzasidan ma’ruzalar qilish va bahslar tashkil etishni Alisher Navoiy tavsiya qilgan.

“Yana ulkim, mulk va mol ishida, base dodxoh ishidan farog‘at hosil bo‘lsa, malolat daf’i uchun kitobxonaga kirilsa, kutubxona ahli bilan mashg‘ulluq qililsa, navvobdan (o‘rinbosar, navbatchi – R.F.) har qaysi munosib ko‘rulsa, tavorix o‘qumoq buyurulsa, bataxsis “Zafarnoma”, agar mashoyix so‘zi yo ba’zi davvovindin dag‘i guftu shunuft (savol-javoblar –R.F.) bo‘lsa, nomunosib ermas” [Tursunov, 2016: 97]. Alisher Navoiyning bu maktubi yana bir jihatdan qimmatliki, u 1487-1488-yillarda Astrobodda hokimlik qilgan edi, u yerda adolatparvar amir nomi bilan mashhur bo‘lgan shoirning tajribasi Badiuzzamonga juda qo‘l kelgan [Qomusiy lug‘at, 2016]. Hatto shoir o‘z maktubida Badiuzzamonga o‘sha zamonda ma’lum va mashhur bo‘lgan bir necha fozilu donishmandlarga tayanib ish ko‘rishini maslahat beradi. Bizning nazarimizda, maktubda Navoiy tomonidan nomlari tilga olingan tarixiy shaxslar Astrobod muzofotida istiqomat qilganlar. Ulardan biri “bulukot (viloyat –R.F.) ulug‘laridan Xoja Faxriddin bolig‘ barchaga bu dastur bila muqarrar

qilinsakim, buluklar kent – bakent bu nav amal qilsalar” [Tursunov, 2016: 98].

“Yana ulkim, - deb ta’kidlaydi Navoiy, - sudurg‘a (diniy marosimlarni tekshiruvchi katta mansabdor – R.F.) hukm bo‘lsakim, viloyat avqofidin (vaqflar –R.F.) xabardor bo‘lsalar, buzulg‘onni tuzsalar, mutag‘alliba ilgida (zo‘rlik bilan qo‘lga oluvchi – R.F.) bo‘lsa chiqorib, hosilin masrifig‘a yetkursalar. Bu ishlarkim, sudurg‘a buyrulur Xoja Falonni dag‘i hukm bo‘lsakim, alar ishidin xabardor bo‘lub, alarg‘a madadkorlig‘da tahsir (kamchilik – R.F.) bo‘lmasa”. Navoiy yana o‘z fikrini davom ettirar ekan, “Hofiz Muhammad Sanoyi g‘animatdur (nazarimizda bu insonning yoshi o‘sha paytda ulug‘ bo‘lsa kerak, uning nomi maktubda Xoja Falon kabi ikki marta tilga olingan – R.F.), sharda (diniy qoidaga muvofiq) aning qavlig‘a quvvat berilsakim, sharg‘a mujibi tarvij (rivojlanishga sabab) bo‘lsa”. Alisher Navoiy elning ahvolidan doimo boxabar bo‘lishni, fuqarolarning arzlarini diqqat bilan tinglab, tegishli choralar ko‘rishni maslahat beradi. “Har qaysig‘a o‘z xo‘rd xolig‘a (o‘ziga yarasha) ko‘ra, iltifot qilib, bataxsis (xususan), Mir Zaynulobiddin jonibikim, rioyati bag‘oyat vojibdur, mundag‘i iltifot dasturi bila alar jonibin doyim rioyat qililsa”.

Navoiyning mamlakat hududining g‘arbiy chegara qismida joylashgan Astrobodga alohida diqqat qaratgani bejiz emas, chunki mazkur o‘lka zamonaviy til bilan aytganda, strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakat aholisi tinchligini saqlashning muhim omili hisoblangan. “Ul viloyatning bir kulliy ishi, - deb yozadi Navoiy, - dahonalarning (chegaradan o‘tish darvozasi –R.F.) zabtidur. Bu mahaldakim, ko‘ngul tilamasdek amre voqi’ emas, dahonalarda andoq mazbut kishilar (zabt etuvchi kishilar – R.F) qo‘yub, andoq mustahkam va mazbut qililsakim, nauzu billox, agar amre hodis bo‘lsaki, mujibi taraddudi (ikkilanish sababi) xotir bo‘lsa, dahonalar tarafidin xotir bikulliy jam’ bo‘lsa”.

Alisher Navoiy tashqi siyosat, davlatlararo munosabatlar, tashqi savdo masalalariga jiddiy e’tibor qaratib, bu sohada korrupsiya, poraxo‘rlikka yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlariga batafsil to‘xtaladi. “Devonilarga hukm bo‘lsakim, - deb yozadi Navoiy, - atrofdin kelgan bozilgonlar (savdogarlar – R.F.) jonibin rioyat qilsalar. Ul viloyatda “tamg‘a” lafzi bo‘lmasa. Zakotni shar’ va hukm yo‘sini bila alardin

mustaxlas (xalos etishgan, ozod etilgan) qililsa. Zakotchilar ishidan bavojibi moh bamoh (oyma-oy), balki hafta-bahafta fuqf topib, arzg‘a yetkursalar . Juzviy jarima qilg‘anni kulliy siyosat qililsa bok (xavf) yo‘qtur, to bu ovoza olam mamolikiga yoyilsa, tujjorning (savdogarlarning) ruju’i ko‘prak bo‘lsa”.

Alisher Navoiy mazkur maktubda qo‘shinlardagi tartib-intizom, qo‘mondon va zobitlar o‘z vazifalarini sidqidildan bajarishlariga alohida e’tibor qaratadi. “Mirzo navkarlarikim, anda qulluqqa mashg‘uldurlar, Mirzo navkarligi haysiyatidin (layoqatidan) inoyat va hurmat alar bobida kam bo‘lmasa. Lekin beqoidalig‘i biridan zohir bo‘lsa, bosxos va siyosatda ma’zur tutulmasa. Yana ulkim, tavochi beklariga hukm bo‘lsakim, yotish emin mazbut ta’yin qilib, yotish tavochisi har kun alarning yotishiga kelgan kelmaganini yaxshi tergasa to yotish ishi favt bo‘lmasa”. Shunday qilib, bir qatrada ummon aks etganidek, Alisher Navoiy o‘zining bir maktubida XV asr so‘nggi choragidagi temuriylar davlatining ichki va tashqi siyosatini, qanday qilib mamlakatning xavfsizligini ta’minlash, uni barqaror rivojlantirish chora-tadbiri dasturini tuzib, uni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib berdi.

Navoiy Xuroson ahlining ko‘pchiligi, shu jumladan ruhoniylar bilan ham yaxshi aloqada bo‘lgan. Mamlakat diniy peshvolarini xalq, mamlakat, davlat manfaatlarini himoya qilishga undagan. Vaqf mulklarini saqlash, rivojlantirish hamda bu mulklardan kelgan daromadni ta’lim-tarbiya, ilm-fan, diniy ulamolarning ehtiyojlariga yo‘naltirgan. Alisher Navoiyning ulamolar o‘rtasida juda katta obro‘ga ega bo‘lganligini shundan ham bilsa bo‘ladiki, u 1500-yilda Husayn Boyqaroning ijozati bilan Makkaga haj safariga otlanadi. Shu munosabat bilan Navoiy mamlakatning din peshvolari va taniqli davlat arboblari, ziyolilar bilan uchrashadi. Yig‘ilganlarning barchasi bir ovozdan Alisher Navoiydan Xurosonni tark etmaslikni o‘tinib so‘radilar, chunki Xuroson mamlakati xavf yoqasida. Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrni zabt etgan va Amudaryodan kechib Xurosonni bosib olishni rejalashtirmoqda. Birgina shu misolning o‘zi Vatan, xalq va davlat oldida Alisher Navoiyning xizmatlari naqadar yuksak ekanligini ko‘rsatib turibdi. Navoiy bu safar ham hajga borishni orqaga tashladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning eng yaxshi maslahatchisi, ishongan do‘sti, uni murakkab vaziyatlarda qo‘llab-quvvatlagan yirik davlat arbobi va mohir diplomat, butun hayoti davomida bir-birlari bilan toju taxt talashgan shaxzodalarni yarashtirishga bor kuch-quvvatini sarflagan fidoyi shaxs edi. Uning davlat arbobi, mohir diplomat sifatidagi faoliyati, bunyodkorlik ishlari, Vatani va o‘z xalqini sevib ardoqlash yo‘lidagi fidokorliklari, buyuk mutafakkirning boy adabiy, ma’naviy, tarixiy merosi hali yana ko‘p asrlar jahon ahlini hayratga solishiga shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1997. Т.13.
2. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. Назм ул-тавоҳир. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1999. Т.15.
3. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1 – 2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Тошкент: Sharq, 2016.
4. Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989.
5. Мирзоев А. Бинои. – Сталдинобод: Тожикистон, 1957 (тожик тилида).
6. Мир Ғулом Муҳаммад Ғубор. Афғонистоннинг тарихий йўли. – Кобул, 1967 (дари тилида).
7. Садриддин Айни. Собр.соч. в 6 томах. Т. 6. Москва: Худ. литература.
8. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий- типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011.
9. Турсунов Ю. “Муншаот” асарининг матни тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2016.
10. Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент.: Ғ.Ғулом нашриёти, 2015.
11. Эргашев К. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Ташкент: Фан, 2009.
12. Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент, 2010.

“SHAYX SAN’ON QISSASI”NING JUG‘ROFIYASI

GEOGRAPHY OF THE STORY “SHEIKH SANAN”

Mo‘minjon SIDDIQOV
QDPI dotsenti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Shayx San’on” qissasining mintaqalararo tarqalishi va talqini tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *Sharq adabiyoti, sayyor syujet, Shayx San’on, qissa, tush, murid, yo‘l, nasoro, tarso, shart, amal, jarima, devona, o‘zlik, qaytish, qabul.*

Annotation

This article examines the inter-regional distribution and interpretation of “Sheikh Sanan”’s story.

Key words: *Oriental literature, planetary plot, Sheikh San’an, short story, dream, event, murid, way, Christian, tarso, condition, action, fine, mad, identity, return, acceptance.*

Sharq mumtoz mintaqa adabiyotida jug‘rofiyasi anchayin keng bo‘lgan “Shayx San’on qissasi” mavjud. Bir vaqtlar zikr etilgan qissa haqida olmon sharqshunos olimasi Anna Mariya Shimmel xonim ushbularni degan edi: “Kishining ulkan muhabbat tufayli behud-devona bo‘lib qolishi to‘g‘risida ham ancha-muncha rivoyatlar mavjud. Ularning ichida eng mashhuri Shayx San’on tarixidir. Shayx to‘satdan bir tarso qiziga ko‘ngil qo‘yib qoladi va uning visoliga yetish uchun qizning buyrug‘i bilan may ichadi va hatto uning cho‘chqalarini boqadi. Rivoyat nihoyasida Shayxni yo‘ldan ozdirgan qizning o‘zi Haq yo‘liga o‘tib, iymon keltiradi va Shayx o‘z muridlari yoniga qaytadi. Mavlono Farididdin Attor o‘zining “Mantiq ut-tayr” kitobida bu rivoyatni mumtoz asar darajasiga yetkazib hikoya qilgach, rivoyat Sharq islom olamida ma’lum

va mashhur bo‘lib ketdi. Kashmir adabiyotida ham, Malayziyada ham bu asarning o‘sha tillardagi namunalari bor. 1994-yilda Buxoroda bo‘lganimda tarjimon qiz bu rivoyatning Mir Alisher Navoiy qalamiga mansub chig‘atoy turkcha namunasini ichki bir ehtirom bilan hikoya qilib, meni juda hayratga soldi. Zero, Shayx San’on sarguzashtlarida ayolga nisbatan bo‘lgan muhabbatning g‘oyatda ulkan, mislsiz qudratga ega ekanligi bayon etilgan” [3,92]. Haqiqatan ham, mazkur bo‘lgan qissa bir qator xalqlar og‘zaki va yozma adabiyotida necha asrki eng ardoqli asarlar qatorida mutolaa va tadqiq qilib kelinmoqda. Shayx San’on tarixiga tegishli qissaning Farididdin Attor va Alisher Navoiy talqinlaridagi variantlari ko‘zdan kechirilar ekan, bu fikrlarning nechog‘lik to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin [1,106-136; 2,91-128]. Ayni choqda, bu qissalarga mazmundosh bo‘lgan kurdistonlik Faqir Tayronning murabba’ dostoni [4,13-47] hamda ozarbayjonlik Husayn Jovidning shu nomdagi dramasi [5,11-12-son] Shayx San’on haqida bitilgan bu yodgorliklarning mintaqalararo keng tarqalganiga dalil bo‘la oladi.

So‘z san’ati tarixidan shu narsa ma’lumki, Sharq mumtoz adabiyotida “Tayr” (qushlar majozi orqali berilgan) qissalar anchagina mo‘l va ular so‘fiyona adabiyotda alohida mavqe’ tutadi. Bu qissalarning ham ilohiy, ham majoziy mohiyat kasb etishi esa fanga ma’lum. Ular tarkibiga kirgan bir qator hikoyat va qissalar mualliflar nash’u namo topgan zamonlarda shakllangan falsafiy qarashlarni, odob-axloq qoidalarini badiiy talqin etishga xizmat qilgani ham hech kimga sir emas. Chunonchi, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlari umumsyujeti va undagi hikoyat hamda qissalarda yakranglik yaqqol sezilib turadi. Faqir Tayronning “Shayx San’on” dostoni mazmunan bu asarlar tarkibidagi qissaga aynan o‘xshash. Husayn Jovidning shu nomdagi dramasi umummazmunida keltirilgan asarlarga yaqinlik bo‘lsa-da, avvalo, dramaturgiya talablari, qolaversa, zamon va muhit, kishilar dunyoqarashiga muvofiq bir qator tafovutlar ham ko‘zga tashlanib qoladi.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga javobiya hisoblanadi. Birinchi galda, Navoiy dostonini benazir iste’dodning takrorlanmas namunasi

sifatida baholash lozim. Zero, ko‘pgina manbalarda Navoiyning dostoni Attor dostonining tarjimasi, deb kelingan. Bizning fikrimizcha, bu doston tarjima bo‘lmay, Sharqda keng tarqalgan tatabbu’chilik yo‘lida bitilgan asardir. Y.E. Bertels ham o‘z vaqtida Navoiy dostoni, xususan “Shayx San’on qissasi” da juda ko‘p manzaralar, masalan, tarsobacha yashagan qasr, ibodatxona tasviri Farididdin Attor dostonida uchramasligini qayd etib o‘tgan edi [5, 343]. Chunki Farididdin Attor maqsadga asosiy e’tiborni qaratgan bo‘lsa, Alisher Navoiy maqsad qatoriga shoirona tasvir va talqinni ham qo‘shgan; “Layli va Majnun” dostoni muqaddimasida aytib o‘tganidek, faqat afsona so‘ylash uning niyatida turmagan:

Yozmoqqa bu ishqi jovidona,
Maqsudim emas edi fasona.
Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.
Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun [6,271].

Ana shu maqsudlardan kelib chiqan bo‘lsa kerakki, shoirning yuksak iqtidori qissada butun bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi. Bu mahorat nafaqat doston umummazmunining, balki hikoyatlar, xususan “Shayx San’on qissasi”ning syujet qurilishi, timsollar tizimi, ularning xatti-harakatlari, personajlar nutqi, badiiy tasvir usuli hamda vositalarida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Yanada chuqurroq mulohaza qilinsa, arab folklorida paydo bo‘lgan mazkur “Shayx San’on qissasi” yozma adabiyotga ma’lum bir o‘zgarishlar, ayni paytda muayyan bir maqsad bilan kiritilgan. To‘g‘rirog‘i, Attor va Navoiy ilohiy ishqning mohiyatini ochib berishda ayni shu qissa mazmunidan foydalanganlar.

Agar qushlar shu qissada tasvirlangan voqelikdan boxabar bo‘lmaganlarida, Shayx San’onning oshiqlik yo‘lida har qanday ishni bajarishga qodir ekanliklarini anglamaganlarida, ehtimolki, so‘nggi manzilga yetib bormagan bo‘lardilar. Shayx San’on qissalari tipologiyasidan kelib chiqadigan birinchi xulosa shuki, Attor va Navoiy o‘z asarlarida ayni shu qissa mazmuni orqali ilohiy ishqning mohiyati, ayni chog‘da pir va murid odobi masalalarini bayon qilganlar. Faqir Tayron qissasi xalq og‘zaki ijodiga yaqinligi va ayni shu fonda

yuqorida tilga olingan masalalarda bahs borganligi bilan Attor va Navoiy dostonlariga nisbatan yaqinlashib boradi. Husayn Jovid “Shayx San’on” dramasi bundan birmuncha boshqa ko‘rinish kasb etib, muallif ilohiy ishqni real hayot foniga ko‘chirgan va uning talqinida bu ishq yangicha mohiyat kasb etgan. Yanada to‘g‘risi, romantika bilan realizm uyg‘unlik kasb etib, hayotga bir qadar yaqinlashib borgan. .

Farididdin Attor, Alisher Navoiy, Faqir Tayron va Husayn Jovid falsafiy qarashlarida mushtaraklik qator masalalarda seziladi. Shayx San’on nasaro yurtida tarso qiz shartlarini qabul qilishi va ularni bajarishga kirishishi, keyin muttasil tozarlanib borishi ana shu mushtaraklikning bir ko‘rinishidir. Lekin, har to‘rtala asarda tarixiy sharoit, muhit va qahramonlar xatti-harakatlari talqinlarida tafovutlar ham yo‘q emas.

Alisher Navoiy qissasi Attor qissasiga qanchalik yaqinlashib bormasin, talqinda shoir maqsadlari va mahoratining o‘ziga xosligi seziladi. Chunonchi, tush lavhasidagi tasvirlar, tarso qizining tavsifidagi qarashlar bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Faqir Tayron qissasida hamda Husayn Jovid dramasida bu boradagi farqlar sezilarli. Bu, shubhasiz, birinchisining og‘zaki adabiyot bilan, ikkinchisining esa real, ayni paytda, taxayyuliy hayot bilan uzviy bog‘lanib ketganida ko‘rinadi.

Asarlarning syujet qurilishlarida ham o‘xshashlik va ayrim bir tafovutlar borligini inkor qilib bo‘lmaydi. Attor va Navoiy qissalari va shuningdek, Faqir Tayron dostonida o‘xshashlik, Husayn Jovid dramasi voqelik tasviridagi tafovut aniq sezilib turadi. Jovid dramasidagi ayrim timsollar hamda muhitning oldingi qissalarda mavjud emasligi ham ana shu tafovutdandir.

Attor va Navoiy qissalarida masnaviychilik talablariga muvofiq holda badiiy talqinlar ko‘zga tashlanadi. Bu talqinlarda esa mualliflarning badiiy mahorati namoyon bo‘ladi. Faqir Tayronda xalq og‘zaki ijodiga yaqin bo‘lganidan murabba’ shakli tanlangani ham e’tiborga molik. Jovid dramasida bu adabiy tur talablari oldingi rejaga chiqadi. Shunga ko‘ra, ulardagi replikalar qahramonlarning ruhiy va tashqi dunyosini yoritib berishga xizmat qiladi.

Farididdin Attor va Navoiylarning “Shayx San’on” qissalari hamda Husayn Jovid dramasidagi g‘oyalar oqimi va badiiyatidagi

mushtaraklik hamda tafovutlarni adiblar dunyoqarashi va mahorati tufayli yuzaga kelganini anglash qiyin emas. Mualliflar asarlarning shakli va mundarijasini ilohiy ishq haqidagi qarashlari mag‘ziga singdirib yuborgani sir emas. Va har uch asarda adiblarning bu masaladagi qarashlari bir nuqtada tutashadi. Asosiy tafovut esa ularning dunyoqarashi, niyati, uslublari va tasvirlash yo‘sinlarida ko‘rinadi, xolos.

Farididdin Attorning “Shayx San’on” qissasining mundarijaviy oqimidagi asosiy g‘oyaviy yo‘nalish Alisher Navoiy qissasida izchil namoyon bo‘lgan. Alisher Navoiy asar mazmunida Attorning yo‘lidan uzoq tushmagan holda, asosiy g‘oya va yondosh g‘oyalarni bir qadar chuqurroq – badiiylashgan tasvir fonida berishga erishgan. Asardagi makon va zamon talqinida, qahramonlar portretini chizishda, ularning xatti-harakatlarini asoslashda, har bir detal tafsilotida Attordan ancha ilgarilab ketganini kuzatish mumkin.

Husayn Jovid Ibn Saqqo qissasini Attor va Navoiy romantizmidan uzib olib, real voqelikka ancha yaqinlashtira olgan. Natija o‘laroq, dramada realizm unsurlari bo‘rtib ko‘ringan. Bu holat dramaning syujet yo‘nalishlaridan tortib, qahramonlarning hayotiyligi, ular replikalaridagi jonlilik, hayotga yaqinlikda, dramaturgning bu unsurlarni tavsiflash jarayonidagi mahoratida namoyon bo‘ladi. Unda istifoda etilgan bir qator badiiy tasvir vositalari, qahramonlar va voqelik talqinidagi shiddat, asar konfliktidagi jonlilik buning yorqin dalilidir.

Zikr etilgan qissalar va dramada, bir so‘z bilan aytganda, ishqning tasavvufona talqini, surat va siyrat, jaholat va ma’rifat o‘rtasidagi farq va ziddiyatning go‘zal badiiy tasviri berilgan. Garchi asarlarning birlamchi ma’nolari ilohiy ishq talqini bo‘lsa-da, ular zamiridan ufurib turgan majoziy ma’nolarni ham ilg‘ash qiyin emas. Bu asarlar ayni shu jihati bilan yuksak tarbiyaviy qimmatga molik. Qisqasi, har to‘rtala asar ham ulkan ma’rifiy qimmatga ega. Bular orqali kishilarning ma’naviy kamoloti, axloqiy mukammalligiga ishoralarni tuyish, ulardan ibrat olish, ezgulik, yaxshilik, odamiylik sifatlarini o‘zlashtirish imkoni yuzaga keladi. Mualliflar risolada masalaning ana shu tomonlarini e’tiborda tutganlar, shunga muvofiq yuzaga kelgan talqinlar, havola etilgan xulosalar o‘quvchini shunday mushohada etishga unday oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фаридиддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. Жамол Камол таржимаси. Тошкент, “Фан”, 2006.

2. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Тўла асрлар тўплами. 10 жилдлик. 9-жилд. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги НМУК, 2011.

3. Аннамарие Шиммел. Жонон менинг жонимда. Тошкент: Шарқ, 1999.

4. Бертелс Е.Э Жами и Наваи. Избранные труды. Т.3. М.: 1963.

5. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Тўла асрлар тўплами. 10 жилдлик. 7-жилд. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги НМУК, 2011.

6. Факи Тайран. Шайх Санъан. Критический текст, перевод, примечания и предисловие М.Б.Руденко. М., изд. Наука, 1965.

7. Ҳусайн Жовид. Шайх Санъон. Озарбайжон тилидан Усмон Қаҳҳор таржимаси. “Жаҳон адабиёти”, 2012 йил. 11-, 12-сонлар.

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK ROMANLARIDA XRONOTOP

CHRONOTOPE IN UZBEK NOVELS OF THE PERIOD OF INDEPENDENCE

Islomjon YOQUBOV
Nizomiy nomidagi TDPU
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy-adabiy an’analar, xususan Navoiy adabiy-badiiy merosining ijodiy qayta o‘zlashtirilishi mustaqillik davri milliy romanlarining makon va zamon chegaralarini behad kengaytirgani masalasi tadqiq etilgan.

Tayanch so‘zlar: *Badiiy matn, milliy tafakkur, makon va zamon, lomakon, vorisiylik, metaforiklik, assotsiatsiya, poetika, shakl va mazmun, adabiy montaj usuli, kompozitsion markaz.*

Annotation

The article examines the problem of creative development of nqtional-literary traditions, in particular the literary and artistic heritage of Navoi, which significantly expanded the space-time boundaries of national novels of the period of independence.

Key words: *Literary text, national thinking, space and time, lalonism, continuity, metaphor, association*, poetics, form and content, literary montage method, compositional center.

Mustaqillik davri milliy romanlarining makon va zamon chegaralari behad kengayib bormoqda. Adabiy jarayonda kuzatilayotgan ayni hodisaning milliy romanchilik uchun ijobiy sifat-belgi ekaniga shubha yo‘q. Bu holni milliy-adabiy faktorlar, xususan vorisiylik kategoriyasi va genetik asoslar bilan izohlash muammoning birgina qirrasini aks ettiradi. Keyingi yillar romani poetik ifoda qamrovi reallik, xayolot, tush, xotira o‘rtasidagi dabdurustdan ilg‘ash qiyin bo‘lgan aloqadorlik hisobiga boyidi. Badiiy tasvirga qiyoslash,

chog‘ishtirish, qarshilantirish, kutilmagan tarzdagi o‘rin almashishlar va birikish holatlari kirib keldi. Asarning metaforiklik darajasi behad ortdi.

Bugun kitobxonlik darajasi bir qadar tushib ketgani haqidagi asosli tashvishlarning hammasi xuddi shu nuqtaga kelib bog‘lanadi. Chunki muallif narsa-hodisalar orasidagi qanday aloqadorlikka tayandi? Ularni qaytarzda yagona zanjirga birlashtiradi?- deganga o‘xshash savollarga javob topish uchun o‘quvchi ijodiy faol bo‘lishi shart. O‘quvchining so‘z va ifodalarni ular aloqaga kirishgan so‘zlar bilan tenglashi, zidlashi yoxud tobelikda olib qarashining o‘zi yetarli emas. Buning uchun tomchi ortidagi ummon his qilinishi, ya’ni qo‘llanilgan poetik so‘z anglatayotgan tushunchalararo bog‘liqlik chuqur idrok etilishi lozim. Taxayyul balandligi, tasavvur kengligi, tafakkur teranligi taqchil joyda ayni hodisa sodir bo‘lmaydi. Bunday holda assotsiatsiyalar yaratgan ko‘prikdan ular mansub bo‘lgan zanjir xalqalari tomon o‘tish, uzviy tutashtirish amalga oshmaydi. Tushunchalar o‘zaro bog‘lanmas ekan, badiiy matn ham o‘z chiroyini ochmaydi. Kitobxon muallifning o‘ziga xos poetik nuqtai nazari, badiiy falsafasini anglab yetmaydi, his qilmaydi.

Umuman, bugungi milliy romanlar poetikasida odam va olamni metaforik idrok etishga intilish kuchaydi. Bizningcha, asl yangilanish milliy romannavis badiiy niyati, estetik ideali va uning mustaqillik davri ehtiyojlaridan kelib chiqishi natijasida paydo bo‘lmoqda. Romanchilikda she’riyat tomon siljish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun ham milliy romanlarga yangi-yangi shakl va mazmun, mohiyatni ochib berish hamda izohlashga qo‘l keladigan bayon uslublari kirib kelmoqda.

Milliy romannavis global dunyo bilan hamkor-hamnafas ekan, uning hissiy idroki, poetik tafakkuri, ifoda qamrovi kengayaveradi. O‘zbek romanchiligi sovet davrida erishgan yutuqlarga yoppasiga chiziq tortish fikridan mutlaqo yiroq tarzda, ta’kidlash o‘rinliki, XX asrning 30- yillaridan e’tiboran umuminsoniylik deyilganda umumsho‘ro odamining kommunistik e’tiqodga bo‘lgan sadoqati tushunildi va aksariyat romanlarda o‘z ifodasini topdi. O‘zbek romani ham muayyan ma’noda, umumsho‘ro romanchiligining “kichik modeli”ga aylantirildi. Mustaqillik davri adabiyotshunosligi

va poetik ijod namunalarida esa, vorislik tushunchasi milliy negizda turib umuminsoniy, umumkoinot miqyoslarida idrok etilmoqda. Chunki odam nasli yagona makonda yashashga mahkum, ona sayyora va umumkoinotni asrashga mas'ul ekani anglab yetildi. Qolaversa, inson faktoriga yondashuv ham tubdan yangilandi. Albatta, hamma qalamkash ham o'zini "qayta qurib oldi", deyish qiyin. Ammo ilg'or romannavislar insonning ona tabiatni o'z iqtisodiy manfaatiga ko'ra o'zlashtirish pozitsiyasi, iste'molchilik tutumi mutlaqo noto'g'ri ekanini anglab yetishgani bor gap.

Zamondosh romannavislar mavjud barcha falsafiy-estetik, ma'rifiy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlar qaysi zamon va makonda yaratilgan bo'lmasin, umuminsoniyatga daxldor fikriy ulug'vorlik, poetik go'zallik, umuminsoniylik ifodalangan bo'lsa, ularning barchasini ijodiy qayta o'zlashtirishga ehtiyoj tuyushmoqda. Ayni vaqtda, nazariy asosning kengayishi va globallashuvi milliy-adabiy an'analarimizdan oziqlanyapti. Masalan, Navoiy "Lison ut-tayr" falsafiy dostonida *"Lomakon maydonida javlon"* urish va undan *"ohangi ajab maydon"* qilish gashtidan so'z ochadi. Shoir xayol otida parvoz etarkan, sayr chog'ida olam unsurlarining o'zaro uyg'un haraktini ko'rib behad shodlanadi. Moddiy dunyo zanjirlaridan xalos bo'lish holidan mamnun ekanini izhor etadi. "Badoye' ul-bidoya" devonida Muhammad Mustafo (s.a.v)ning lomakondagi sayri Buroq oti qiyofasida moddiylashgan xayol ulovida kechganiga ishora qiladi. Har bir mo'min payg'ambar sifatlarini eslasa, undan katta ibrat olib, o'zining parishon holidan xalos bo'ladi, deya uqtiradi.[Navoiy, Badoye' ul-bidoya. 1987: 195-; 240 b.] "Badoye' ul-vasat"da shoir lirik qahramoni ulug' visolga vosil bo'lgani, lomakonda farishtalar, xususan, Jabroil ham mahram bo'lolmasligini ta'kidlaydi.[Navoiy, Badoye' ul-vasat.1990: .275 b.] "Farhod va Shirin" dostonida Raxsh oti lomakonga eltgani xususida so'z boradi. [Navoiy, Farhod va Shirin. 1991:14 b.] "Favoyid ul kibar" da:

O'zin o'zlukdinu kavnayn mulkidin qilib xorij,
Qayu kavnayn mulki, lomakondin ham topib ixroj.
[Navoiy, Favoyid ul kibar. 1990: 19 b.]

misralari uchraydi. Ko'rinadiki, Navoiy asarlarida "men"likni o'zlik va borliq (makon)dangina emas, lomakondan ham haydash

haqida fikr yuritilmoqda. Shoir ta’kidlashicha, lomakonda “men” butkul ixroj (surgun) qilinadi. Boshqacharoq aytganda, u borliqqa singib ketib, mutlaq birlik yuzaga keladi. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida lomakon bepoyon dengizga qiyoslanadi. U shunday dengizki, uning har bir tomchi suvi ruhga hayot bag‘ishlaydi. Chunki lomakonga erishish – bu bebaho ilohiy ne’matga noil bo‘lmoq. Zotan, asl ma’nolar xazinasi aynan yo‘qlik mulkida mujassam. [Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. 1987: 9 b.] “Mahbub ul-qulub”da shoir zamon ahliga mehru vafo ko‘rguzib, ulardan bevafolik va behayolik ko‘rganidan ozurda bo‘ladi. Shuning uchun vafo va hayoni g‘am-g‘ussaga to‘la, g‘uborli foniy olam sarhadidan omon olib o‘tadi. [Navoiy, Mahbub ul-qulub. 1990. 46 b.] Lomakon Navoiy uchun moddiy olamni unutib, ko‘ngilga taskin berish, ya’ni barcha jabr-jafo hamda dard-balolardan xalos bo‘lish umidiga aylanadi. Uning makonsizlik bilan ovunishi, bir tomondan, ijtimoiy-axloqiy, ta’limiy mazmun tashisa, ikkinchidan, poetik idrok yuksakligida ilohiy uyg‘unlik sog‘inchi ham o‘z ifodasini topadi. “Navodir un-nihoya” devonida hijronzada jon koinotdagi uyg‘unlikda xotirjamlik topadi. Chunki uning asl tilagi ham shu yuksak manzil, ruh oti javlon urib, o‘zini erkin sezadigan maskan ham lomakon edi. Bunday hol “Navodir ush-shabob” devoni, “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida, ham kuzatiladi.

Shunday ekan, yangilanishlar qamrovining fikriy miqyosi kengayishi mohiyat e’tibori bilan milliy tafakkurga qaytish, uning vositasida zamon va zamondoshni anglashdan iborat. Hech shubhasiz, poetik tafakkurimizda milliylik kategoriyasi dominantlik qilmoqda. Insoniyat tajribasi adabiyotning o‘z milliy qiyofasini asrab qolish yo‘li Sharqona tafakkur va shunga mutanosib hayot tarzi ekanini e’tirof etadi. Binobarin, romaniy qahramon global dunyoda betakror o‘zligini namoyon etishi uchun ham, milliy e’tiqodi, fikr-o‘ylari, ish tutumi va o‘limni qarshilashi hamda yo‘qlik olamidagi ruhiy hayoti, hatto lomakonda tasvirlanganida ham mutlaqo o‘zbek bo‘lishi, o‘zgacha bo‘lolmasligi bilan yorqin ajralib turishi shart. Zotan, bizning romanlarimiz jahon kitobxonlari uchun milliyligi bilan qadrli.

Zamondosh o‘zbek adiblari har giyohda bir mo‘jiza ko‘rib, ular timsolida insonni tasavvur qilib, sharaflab qalam tebratishyapti.

Ular muazzam borliqning azaliy garmoniyasini chuqur badiiy idrok etib, romaniy olam yaratishmoqda. Ayni vaqtda, olam yaxlitligi – jamodot, nabotot, sayyoralararo bog‘liqlik teran anglangan zamonaviy o‘zbek romanlari tom ma’noda milliydir. Zotan ko‘l, tog‘, daryo va shamoldan tortib, to popushak, qizilishton, sa’va, kakku, po‘kka, qarg‘a, boyqushgacha bo‘lgan yaxlit birlik manzarasini poetik ifodaga ko‘chirish (Isajon Sulton, “Ozod” romani) ijodiy intellektning milliy zamini mustahkamligining bosh belgisidir. Sharq-musulmon falsafasi, nafosatshunosligi, adabiyotshunosligi kabi o‘zbek romani ham, yuqorida ta’kidlanganiday, faqat ijtimoiy reallikka asoslanuvchi badiiy voqelik bilan qanoat tuymaydi. Demak, gap adabiy-falsafiy merosimizni vorisiylik asosida qayta idrok etishga borib taqaladi. Bu asarlar folklorga xos soddalik, navoiyona ruh, rumiyona falsafadan tashqarida o‘z izohini topmaydi.

“Rang va mehvar”, “Zarradagi olam”, “Boqiy darbadar”, “Ozod” kabi romanlar bo‘ylab kezib yuruvchi mo‘ysafid chol obrazi har bir kitobxon badiiy didiga ko‘ra: tajribali dehqon, Rumiy, Navoiy, Xayyom, Mashrab, hatto Oybek va Mirtemir bezovta ruhi sifatida tasavvur qilinadi. A.Dilmurod va I.Sulton millat dahosining barhayot ruhiga tayanadi. Unga yukunadi, taqdiri azal va abadiyat falsafasini anglashga intiladi.

Qizig‘i shundaki, adiblar hatto o‘ziga zamondosh shoirlar nafis so‘zi botiniga yashiringan ma’nolar xazinasiga ham ilinj-la boqadi. “Yo‘l” romanida U.Hamdam ijodkor bo‘z yigitning er yetish, ma’naviy kamol topish yo‘li merosiy xazinani qayta idrok etish, odam bolasining ibtidodan intihogacha bo‘lgan necha mingyilliklarga cho‘zilgan maqsadliyu bemaqsad uzun hayot yo‘lini taftish qilish, diniy-ilohiy manbalarni mushohada etish, nihoyat Rumiy hamda Navoiyga yukunish orqali kechadi. “Zarradagi olam” romanida A.Dilmurod ham mingyilliklar aro fikriy mushohada asnosida har zarrada bir hikmat, har ulug‘ hikmatda anglangan mangu haqiqatni his etadi. I.Sulton “Ozod” romanida qoyadagi na’matak (Oybek), majnuntol tagida o‘tirgan mo‘ysafidga (Mirtemir) ishora qiladi. Shubhasiz, yuqoridagi kabi hollar ustozlar qismati, adabiy-ma’naviy merosidan bahramandlik, abadiy ruhlari oldidagi chuqur qarzdorlik hissi, merosiy qalam qarshisidagi mas’ullikdan tug‘ilgan.

Anglashiladiki, kuzatilgan misollarda qahramonning shakllanish yo‘li to‘lig‘icha milliy zaminda kechadi. Buni romanlar struktur qatlamidagi mifologiya, ertakona sarguzasht, eposga xos romantika ham tasdiqlaydi. Zotan, bo‘z yigitni dinamik o‘stirib borib, Eranga aylantirish yozuvchi ijodiy niyatidayoq ko‘zda tutilgan. Shuning uchun, barcha struktur-semantik parchalar bosh maqsad negizida adabiy montaj usulida yagona kompozitsion markazga jipslashadi. “Ozod” va “Yo‘l” romanlaridagi safar, sinov, homiy kabi motivlar ham bu asarlar milliy zamindan oziqlanishini tasdiqlaydi. Jumladan, “Ozod” romanidagi safardan murod ma’shuqani izlash emas, balki afsonaviy tog‘ lolasini topib, bo‘lajak ayoliga (Oydin) hadya etishdir. Ozodning hamdami ham Shopur (Navoiy, “Farhod va Shirin”) yoxud Navfal (Navoiy, “Layli va Majnun”) dostonlaridagi kabi real shaxs sifatida tasavvur qilinmaydi. Chunki uning yaqin hamdami shamol edi.

Diqqat qilinsa, shamol Ozodning kamol topishiga mutanosib tarzda yo‘lboshlovchi donishmand zot, ziyrak roviy, nihoyat ilohiy inoyat mujdasi kabi ierarxik ketma-ketlikda namoyon bo‘ladi. U qahramon ma’no dashtlari – sinov manzillarida kuzatgan kutilmagan voqea-hodisa, timsol va ramzlarni sharhlab, talqin qilib boradi. Shamolni ustoz bilgan Ozodning fikri, his-tuyg‘ulari, istak va tushunchalari tobora teranlasha boradi. Bu teranlik va ma’naviy-ruhiy yuksalish yo‘li uning tegrasida jilvalangan zohiriy manzara-holatlardan botiniy mohiyatga tomon ildamlash tarzida kechadi.

Ozod ko‘zlagan maqsad (borish manzili) aniq, intilishlari e’tiqod-ishonchga esh, hamdami (piri komil) ekani bois, tasvir davomida barcha ishoratlar asrori ayonlashib, uning qalb ko‘zgusi va ruh oynasida olam akslana boshlaydi. Nafis so‘zga jo etilgan ilm-hikmat (zohiriy darcha)dan ma’no qatlami (botini)ga nazar tashlash oqibat (manzil)ga eltadi. Demak, maqsad aniq va e’tiqod ishonchli (“yo‘l” to‘g‘ri tanlangan) ekan, g‘aroyibotlar ham ong-shuurda shunga vobasta tarzda jilvalanib, uni haqiqatga eltadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.1. Badoye’ ul-bidoya. – T.: Fan,1987

2. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.5. Badoye' ul-vasat. – T.: Fan, 1990
3. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.8. Farhod va Shirin. – T.: Fan, 1991
4. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.6. Favoyid ul kibar. – T.: Fan,1990
5. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.3. G'aroyib us-sig'ar. – T.: Fan,1988
6. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.14. Mahbub ul-qulub. – T.: Fan,1998
7. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.2. Navodir un-nihoya. – T.: Fan1987
8. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.4. Navodir ush-shabob. – T.: Fan, 1989
9. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T10. Sab'ai sayyor. – T.: Fan,1992
10. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.11. Saddi Iskandariy. – T.: Fan,1993

NAVOIY MAKTABIDAN SABOQLAR

LESSONS FROM NAVOI SCHOOL

Zebo QOBILOVA
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Amiriyning Alisher Navoiy ijodiy merosi ta’sirida yaratgan baytlari tahlil qilinadi. Badiiy mahorati takomilida Navoiyning o‘rni asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *adabiy muhit, g‘azal, tatabbu, taxmis, bayt.*

Annotation

The article analyzes the verses created by Amir under the influence of Alisher Navoi’s creative heritage. Navoi’s role in the development of artistic skills is based.

Key words*: literary environment, gazel, tahmis, tatabbu, byte.*

Alisher Navoiy Qo‘qon adabiy muhiti shoirlarining barchasiga ustoz, g‘oyaviy rahnamo edi. Mazkur muhitning asoschisi Amiriy ham Navoiy ijodini shunchalik chuqur o‘qib-o‘zlashtirganki, ustoz shoir she’rlari shogirdga shu qadar yod bo‘lib ketganki, uning ko‘plab g‘azallarida mavzu va ohang, vazn va ritm, qofiya va radif jihatdan mushtaraklikni ko‘ramiz. Ular aynan u yoki bu g‘azal ta’sirida emas, balki ulug‘ shoirning umumijodi ta’sirida ulardan ilhomlanib yaratilgan. “Chekmasa gar charx bir xurshidi tobon dardini”, “Qachonkim ul pariruxsora elga no‘shxand etti”, “Manki sahroyi junun Majnuni sargardoniman”, “Yo‘luqti tun arosida manga ul mohi shabgardim”, “Qadam qo‘ydi buzulgon tiyra kulbam sori tun mohim”, “Xastamen ul guldin ayru andalibi zordek” misralari bilan boshlanadigan g‘azallari ham u yoki bu darajada Navoiyga ergashib, undan ilhomlanib yozilgan.

Alisher Navoiy bir baytida mubolag‘a san’atini haddi a’losiga yetkazib, xasdek jismim bilan g‘am tog‘ini ko‘tarishga bel bog‘ladim, lekin devor orasidagi somon kabi uning ostiga qoldim deydi:

Ko‘hi g‘am tortarg‘a xasdek jism ila bel bog‘ladim,
Ostig‘a qolmishmen andog‘kim samon devor aro..

Amiriy esa bu tashbehga ham yangilik qo‘shadi: tog‘ ostida qolgan shisha kabi ko‘nglim dard tog‘i ostida behuda sabr qilib yotibdi:

Shishae tog‘ ostida qolg‘on – bu yanglig‘ beasar
Bo‘ldi ko‘nglum ko‘hi darding ostida sabrozmo.

Navoiy g‘azallarida oshiqning ma’shuqa husnini bir ko‘rib, “surati devor”, “naqshi devor” bo‘lib qolganligi haqidagi tasvirlar ko‘p uchraydi. Quyidagi bayt bu mavzudagi baytlarning eng mashhuri hisoblanadi:

Keldi Chin naqqoshi ul yuz naqshini qilmoqqa tarh,
Chehra ochib, naqshi devor aylading naqqoshni (II, 604).

Amiriyning ayni mazmundagi bir necha baytlari mavjud. Aytaylik, quyidagi baytda “Bu shaklu bu shamoyil bilan noz bazmi aro kirib, savrqomatlarning barchasini soyai devorga aylantirding desa:

Bu shaklu bu shamoyil birla bazmi noz aro kirding,
Sihi qadlarni qilding soyai devor, xush kelding (1, 193).

Mana bu baytda “Ul oy kabi go‘zalning zebo suratini ko‘rib, uning oldida o‘zimni surati devorga o‘xshatdim” deb lutf etadi:

Ko‘rub ul oyning zebo suvratini, qolmadi hushim,
O‘zumni bu jihatdin suvrati devora o‘xshattim (1, 229).

Boshqa baytda esa “Ishq ichra bir pari hijronida hayrat mayini simirib, menday surati devorga aylangan yana bir kishi bormi?” deb mubolag‘a qiladi:

Kimdurur ishq ichra mendek bir pari hijronida
Suvrati devor yanglig‘ sog‘ari hayrat chekan (1, 279).

Aslida muayyan timsolu tashbehlar Amiriy ijodida qayta-qayta qo‘llanib, har gal uning yangi bir qirrasi ochiladi yoki rivojlantirilib, muayyan badiiy maqsadga xizmat qildiriladi.

Ma’lumki, she’riyatda ba’zi narsa-hodisalar, hayvon va o‘simliklar o‘z tabiatiga ko‘ra istiora tarzida inson, uning holati, xatti-harakatining timsoliga aylanib ketgan. Navoiy ijodida ham bunday timsollarning butun bir silsilasini ko‘ramiz: sham, parvona, quyun, sing‘an safol, sipand va hokazo. Ayniqsa, quyun obrazi shoir ijodida haddi a’losida qo‘llangan – u sarson-sargardon, dalli-devona, besabru toqat oshiq timsoli bo‘lib keladi. Chunonchi, quyidagi baytida u “O‘zligim qafasini buzib chiqish uchun o‘zimni har yonga uraman, zero, dard vodiysida

sargardon quyun kabi bir ahvoldaman", deb mubolag‘a qiladi:

To‘lg‘anurmen o‘zlugumdin chiqg‘ali bukim erur,
Dard vodiysida sargardon quyundek hay’atim (I,414).

Mana bu baytida esa "Ey do‘st, mabodo Majnun ishq dashtida meni so‘rab qolgudek bo‘lsa, u bu vodiyda quyundek sargardon bo‘lib yo‘qolib ketdi deb ayt" deb lutf etadi:

So‘rsa Majnun ishq dashtida meni, ayt, ey rafiq –
Kim, quyundek itti bu vodiyda sargardon bo‘lub (I, 81).

Amiriy ijodida ham ayni timsolning faolligini ko‘ramiz. Misol uchun quyidagi baytda "Ishq dashtida menga duch kelgan Majnun: "Bu vodiy ichra charx urgan quyunmi yoki ishq yo‘lida tuproqqa aylangan jismingning g‘uborimi?" deb so‘radi", – deb mubolag‘a qiladiki, u salafining yuqoridagi baytdagi fikrni rivojlantirib, to‘ldirib keladi deyish mumkin:

Mani sargashta ko‘rgach, ishq dashtida dedi Majnun:
"Quyunmudur bu vodiy ichra sargardon g‘uboringmu?" (1,290)

Navoiyning lirik qahramoni "Agar ishq dashtida Majnun seni ko‘rib qolib, mening ahvolimni surishtirsa, bu vodiyda quyun kabi yo‘qolib ketdi deb ayt", deya do‘stidan iltimos qilsa, Amiriy baytida oshiqi sargashtani Majnunning o‘zi ko‘rib, undan: "Bu vodiy ichra kezib yurgan quyunmi yoki sening ishq ko‘yida tuproqqa aylangan vujudingning g‘uborimi?" – deb mubolag‘a bilan so‘raydi.

Navoiy baytida oshiqning ishq vodiysida yo‘qolib ketgani haqida so‘z borsa, Amiriy baytida uning tuproqqa aylangan vujudi g‘uborining quyunga aylanib charx urib yurgani tasvirlanadiki, Amiriy Navoiy qo‘llagan tashbehni rivojlantirib, avj nuqtaga ko‘targanini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, mubolag‘aning "uch turi farqlanadi. "Ham aqlan, ham odatan nomumkin, ya’ni tasavvur qilish ham qiyin, bo‘lishi esa mutlaqo mumkin bo‘lmagan mubolag‘a turiga g‘uluv deyiladi". Agar shoir qo‘llagan mubolag‘aga aql ham ishonmasa, hayotda ham ro‘y bermasa, bu – g‘uluv deyiladi. Agar Navoiy bayti mubolag‘aning tablig‘ turiga kirsa, Amiriy bayti g‘uluvga to‘g‘ri keladi.

Quyidagi baytida esa Amiriy "Bu oshiqi bechora hijron dashtida quyundek zoru sargardon bo‘lib vasling havas qiladi" deb ma’shuqa so‘rog‘ida qayoqqa borishni bilmay o‘zini har yoqqa uradigan oshiqni sahroda charx urib esgan quyunga nisbat bersa, keyingisida shunday yozadi:

Hajr dashtida quyundek zoru sargardon yurub,
Vasling aylar oshiqi besabru besomon havas (1,130).

Amiriy ba'zida baytlarini navoiyona shakllantiradi:

Oshnolarg'a desangkim qilmayin begonalik,
Bo'lmag'il, ey mahjabin, begonalarga oshno (1, 42).

Bu bayt Navoiyning quyidagi misralarini esga soladi:

Begona bo'luptur oshnodin,
Begonag'a oshno bo'luptur (I, 161).

Lekin bu salaf baytining aynan takrori emas. Navoiy baytida oshiq ma'shuqadan shikoyat qiladi: "Oshnodan begona bo'lib, begonaga oshno bo'libdi". Amiriy bayti esa pand-nasihat mazmunida: "Ey oy yuzli go'zal, do'stlarga begonalik qilmay desang, begonalar bilan do'st bo'lma!" Bu yerda ma'no kengayishi hodisasini ko'ramiz.

Amiriyning mana bu bayti Navoiyning shikoyat ohangida qayta-qayta she'rlarida ta'kidlagan kimga vafo qilgan bo'lsam, evaziga jafo ko'rdim mazmunidagi baytlariga hamohang:

Har kishigakim vafo qildim, mango qildi jafo,
Olam ahlini sarosar imtihon ettim, Amir (1, 81).

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, Amiriy turkiy adabiyotning Hazrat Navoiydek so'z san'atkori asarlarini sevib mutolaa qilgan, ul zotning ijodxonasidan mahorat sabog'ini olgan, o'ziga kuchli ta'sir ko'rsatib, jo'shqin ilhom bag'ishlangan g'azallariga tatabbular qilgan, taxmislar bog'lagan, ularga ergashib baytu misralar tuzgan. Navoiy yaratgan obrazlarning yangi qirralarini namoyon etgan; badiiy san'atlarni avj nuqtaga ko'targan. Zero, Alisher Navoiy Amiriyni iste'dodli va mahoratli shoir o'laroq shakllanishi, g'azal ustasi bo'lib yetishishida muhim rol o'ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. I жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.

2. Амирий. Девон. I. Ўзбекча шеърлар (Нашрга тайёрловчилар А.Мадаминов, Э.Очилов, З.Қобилова, О.Давлатов). - Т.: Tamaddun, 2017.

3. Исҳоқов. Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.: Ўзбекистон, 2014.

YUSUF XOS HOJIB VA NAVOIYNING DIDAKTIK QARASHLARIDAGI MUSHTARAKLIK

YUSUF KHOS HOJIB AND THE DIDACTIC OF NAVAI COMMON VIEWS

Barno ABDURAHMONOVA
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ikki davrda yashagan turkiy xalqlar adabiyotining ikki buyuk dahosi Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiyning didaktik qarashlaridagi mushtaraklik borasida fikr bildirilgan.

Kalit so‘z: *sheriyat, so‘z qo‘llash, badiiy mahorat, mushtaraklik, ezgulik, yomonlik, qarshilantirish.*

Annotation

This article discusses the commonality of the didactic views of the two great geniuses of Turkic literature Yusuf Khos Hajib and Alisher Navoi, who lived in two periods.

Key words: *poetry, word usage, artistic skill, commonality, goodness, evil, confrontation.*

She’riyat paydo bo‘libdiki, u ezgulikka oshno, yovuzlikka qarshi, adolatga tashna, zulmga nisbatan murosasiz bo‘lib yashaydi. Shu manoda aytish mumkinki, qadimgi turkiy adabiyotning asoschisi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi sermazmun o‘gitlarni ham, turkiy til asoschisi, she’riyat sultoni Alisher Navoiyning purmano misralarini ham yaxshilik va yomonlik deb atalgan ikki qutb ajratib turadi. Malumki, shoir yoki yozuvchi ijodining o‘ziga xosligini yoki ular ijodlaridagi mushtaraklikni ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, badiiy tasvir vositalaridan qay darajada foydalanganligini tahlil etish orqali ham yoritish imkoniyati keng.

Yusuf Xos Hojib ijodini ilmiy o‘rganishga asos solgan adabiyotshunos olim Boqijon To‘xliev “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari borasida shunday deydi: “Har qanday badiiy tasvir vositalarning mohiyati, uning badiiy funksiyasi malum bir asarning g‘oyaviy mazmuni, uning ichki dunyosini ochishga nechog‘lik yo‘nalganligi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, Yusuf Xos Hojibdek adib ham o‘z asarida badiiy tasvir vositalarini shunchaki vosita sifatida foydalanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. “Qutadg‘u bilig” dostonidagi to‘rtliklarda ifodalangan badiiy tasvir vositalari,jumladan, tashbeh yoki tazodlar ijodkor tomonidan muayyan maqsadda qo‘llanilgan (To‘xliyev, 2004: 28-29). Olimning bu fikrlarini Yusuf Xos Hojib ijodiga emas hazrat Alisher Navoiy ijodiga ham daxldor desak bo‘ladi. Etiborimizni quyidagi to‘rtlikka qarataylik:

Biligsizga davlat yarashsa kelib,
Biliglikka artuq yarashur tegib.
Biligsiz bila tursa davlat qali,
Biliglik bila turg‘a teng tush ko‘rib.

Mazmuni: *Agar nodonga kelgan davlat unga yarashsa,*
Donoga kelgan davlat unga nihoyatda yarashadi.
Agar davlat nodonga kelib qaror topsa,
U dono uchun mos va muvofiq bo‘lib qaror topadi.

Mazkur to‘rtlik orqali adib bilimli va bilimsiz kishilarning davlatga ega bo‘lganligidagi munosabatlari borasida so‘z yuritadi. Davlat nodon bilan birga bo‘ladi, xolos, biroq dono qo‘lidagi davlat uni mukammallik sari yetaklaydi, deb biladi. Shoir bilimsizlikni qoralab, donolikni yani bilimdonlikni ulug‘laydi. O‘z fikrini nodon va dono so‘zlarini zid keltirish orqali asoslashga harakat qiladi.

She’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy ham bilimsizlikni jiddiy qusur deb biladi, ilmdan shaxsiy manfat uchun foydalanuvchi kishilarni qattiq tanqid ostiga oladi. Ilmni o‘z manfaati yo‘lida sarf etuvchilarni johillik qiluvchilar deb biladi.Ular o‘zlarini ham, halqni ham nodon gumrah etadi:

Ilmni kim vositai joh etar,
O‘ziniyu xalqni gumrah etar.
Olim agar jon uchun o‘lsa zalil,

Ilmi aning jahonga bo‘lg‘ay dalil. (A.Navoiy.To‘la asarlar. to‘plami.6-jild.Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-manba ijodiy uyi. 2011 yil. 192-bet.)

Inson umri davomida yaxshilardan ibrat olishi mumkin, yomondan saboq olishi-chi? Nima uchun yomondan saboq olishi kerak, buni farqlay olish yana insonning o‘ziga havola qilinadi. Muammoni hal qilish insonning hukmida, aslida hayotning qonuni shunday: donodan-yaxshilikni, nodondan-yomonlikni kutish mumkin degan falsafiy xulosalar chiqarish mumkin. Yusuf Xos Hojib ezgulik kishining aslidan bilinadi deydi:

Kishi aslingga, ko‘r, qilinchi tanuq,
Qilinchi ne ersa ko‘r, asli ul-o‘q.
Kimning asli ezgu, qilinchi o‘ngay,
Esiz aslingga kendu qilqi tanuq.

Mazmuni: Kishining asliga ya’ni qandayligiga uning qiliqlari belgi bo‘ladi. Qiliqlari qanday bo‘lsa asli ham shunday bo‘ladi. Kimning asli yani kelib chiqishi toza va yaxshi bo‘lsa, uning xulqi ham, qilgan ishlari ham ham yaxshi bo‘ladi. Yomonning asliga uning fe’li sabab bo‘ladi. Adib bu misralarda yaxshi va yomon so‘zlarini o‘zaro zidlash orqali inson o‘zini qanchalik sirli tutishga harakat qilmasin , u o‘z ichki dunyosini parda bilan bo‘lsa-da, to‘sa olmaydi. Uning xatti –harakatlari, qiliqlari, yurish-turishi, gap-u so‘zlari shu kishi haqida malumot beradi, uning kimligini oshkor qiladi. Boshqalarga nafi tegmaydigan odam , o‘zgalar g‘am- tashvishiga sherik bo‘la olmaydigan kishi yovuzdur, deb baholaydi shoir. Yorug‘ dunyoda kimning nomi yomon bo‘lib tanilsa, uning tirik yurmagani ma’quldir. Ezgulik bilan yashagan odamgagina tiriklik tatiydi, unga tiriklik yarashadi. Yusuf Xos Hojib to‘rtlikning uchinchi va to‘rtinchi misralarida ezgu-yaxshi, esiz-yomon so‘zlarini keltirish orqali tazodni hosil qilar ekan, insonni doimo yaxshiliklar qilishga undaydi.

Ulug‘ shoir Alisher Navoiy nodon, johil odamlardan xalqning jafo ko‘rishini quyidagi misralarda ifodalab,ulardan eshak foydalidir,chunki u odamga xizmat qiladi deydi.Eshakni nodon kishilarning timsoli sifatida keltiradi va nukta iborasini nodonga qarshi qo‘yadi.:

Umrin ablah kechirub g‘aflat ila,

Nukta o‘rnigaki tortar xarros.
eshakdirki, tag‘ofil yuzidin
Qilg‘ay izhor paypay arros (Navoiy 2011: 716)

Yusuf Xos Hojib dunyoda odamning yaxshi nom qoldirishining bir necha shakllari borasida kishilarga saboq beradi. Yorug‘ dunyoga kelgandan so‘ng ezguliklar qilib yashab o‘tish lozimligini eslatadi:

Esizka – so‘kush, ezgu- o‘g‘du bilar,
O‘zungga baqa ko‘r,qayusun qilur,
O‘zung ezgu bo‘lsa, ating o‘g‘dilig‘,
Qali bo‘lsa esiz, so‘kush, ey silig.

Mazmuni: Yomon so‘kiladi (tanbeh beriladi), yaxshi maqtovga loyiq bo‘ladi,O‘zingga qara qay birisini tanlaysan? O‘zing yaxshi bo‘lsang, maqtovga loyiqsan, Agar yomon bo‘lsang tahqirga mahkumsan, ey latif xulqli. Va kishilarga o‘git tarzida Zahhokning dunyoda yomon nom qoldirishida uning yomon xulqi sabab bo‘lgan bo‘lsa, Faridunni baxtga erishuvida esa uning yaxshi xulqi sabab bo‘lganligini misol qilib keltiradi:

Sukushlug nelug buldi Zahhokdak utun,
Nelug o‘gdi buldi Faridun qutun. (To‘xliyev, 2004.28-29).

Kishining fel-atvori, xulqi uning kimligini namoyon etuvchi ko‘zgudir.Shuning uchun kishi yomonlikdan tiyilib, yaxshi fazilatli bo‘lishga intilib yashashi lozim deb bilgan shoir yaxshilik va yomonlik so‘zlaridan o‘rinli foydalanadi. Alisher Navoiy odamlarga ziyon yetkazuvchi kimsalarni odamlarning eng yomoni deb biladi. Shoirning bu boradagi fikrlari quyidagicha:

El qochsa birovdan el yomoni bil oni.
Ahvolidin idbor nishoni bil oni.
Fel ichra ulus baloi joni bil oni,
Olam elining yomon yomoni bil oni. (Navoiy, 2011: 62)

Yusuf Xos Hojib ham, Alisher Navoiy ham xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotimizdagi an’anaviy obrazlar – yaxshi va yomon, dono va nodon, do‘st va dushman, diyonat va qabohatga murojaat qilish orqali tazodning go‘zal namunalarini yaratganlar.

Yusuf Xos Hojib do‘st va dushmanni qarshilantirish orqali xalq og‘zaki ijodidagi purma’no so‘zlarni “ Do‘sting mingta bo‘lsa ham oz, dushmaning bitta bo‘lsa ham ko‘pdir” maqolini qo‘llaydi:

Dushman birgina bo‘lsa ham zarari ming-mingdir,
Minglab do‘sting bo‘lsa ham ozligi birga tengdir.
Kishi dushmanidan foyda qilmagin,
Agar qilgan bo‘lsa, o‘zining ko‘rguligidur.

Alisher Navoiy insonlarni irqi, millatidan qati nazar bir-birlari bilan ahil, do‘st bo‘lib yashashlarining tarafdori bo‘ladi. Shoir davlatning borida kelib, o‘zini do‘st tutadigan kishilarni haqiqiy do‘st deb bilmaydi. Balki qiyinchilik hamda mushkul ahvolda qolgan chog‘ingda vafo qilgan kishini qo‘ldosh deb bilsang, u chin do‘st bo‘ladi. Davlat chog‘i va qattig‘lig‘ so‘zlarini boylik va faqirlik o‘rnida keltirib, misralardagi zidlikni hosil qiladi:

Qardoshing emas ulki qo‘yib bosh sanga,
Davlat chog‘i qilg‘ay o‘zini qo‘ldosh sanga.
Kim qildi qattig‘lig‘da vafo fosh sanga,
Ul bo‘ldi habiblar ichra qo‘ldosh sanga.

Har ikki shoir ijodida insonning qadr-qimmati yuksaklarga ko‘tariladi. Ular inson xoh yosh bo‘lsin, xoh keksa uning qadri bilimi, aql va oqilligi bilan belgilanadi, deydi va bunda sher tasirchanligini oshirish maqsadida yana tazod sanatiga murojaat qilar ekanlar kishi tili yani so‘zi tufayli ezoz topishi yoki qadrsizlanishini ko‘rsatish uchun Yusuf Xos Hojib to‘g‘ri so‘zlagan kishini - dono, rost so‘zlamaganni esa nodon jumlalarini keltirish bilan izohlaydi:

Bilib so‘zlasa so‘z bilingka sanur
Biligsiz so‘zi o‘z bashini yeyur.
O‘gush so‘zda artiq asig‘ ko‘rmadim,
Yana so‘zlamishda asig‘ bulmadim.

Alisher Navoiy haqiqiy inson to‘g‘ri so‘zlashi va to‘g‘ri bo‘lishi kerak deydi:

Har kimgaki egrilikta ovoza durur,
Tuz jodda ichra yo‘lidin oza durur.
Tuzlukta tarab behadu andoza erur.
Kim rostdurur,yuzi aning toza durur.

yoki

Kishi chinda so‘z desa zebo durur,
Necha muxtasar bo‘lsa avlo durur.

Yusuf Xos Hojibning ham, Alisher Navoiyning ham qahramoni

oqil va dono kishi. Oqillik va donolik uchun yoshning ahamiyati yo‘q.Chunki oqil va dono bo‘lish uchun bilim, to‘g‘riso‘z bo‘lish zarur. Har ikki ijodkorning falsafiy umumlashmalarida insonning aql-idrok kuchiga ishonch uning bilimi, aqli va zakovati bilan belgilanishi ochiq o‘z ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiyning talim-tarbiya borasidagi fikrlaridagi hamohanglik ular ijodlaridagi, qarashlaridagi mushtaraklik namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. ТАТ. 1-жилд.Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-манба ижодий уйи. 2011 йил. 712-бет .

2. Алишер Навоий. ТАТ. 6-жилд.Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2011 йил. 192-бет.

3. Алишер Навоий. ТАТ. 10-жилд.Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2011 йил. 62-бет.

4. Тўхлиев Б. ”Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”и ва айрим жанрлар такомили”. Тошкент, 2004 й.28-29-б.

NAVOIYDAN IJODIY BAHRAMANDLIK

CREATIVE ENJOYMENT OF NAVOI

Tozagul MATYOQUBOVA
ToshDO'TAU
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning G'afur G'ulom ijodiga ta'siri masalasi o'rganiladi. Navoiyning G'.G'ulom ijodiga adabiy ta'siri kengqamrovli bo'lib, maqolada ushbu masalaning ayrim jihatlari kuzatiladi. Unda shoirning Navoiyga bag'ishlangan she'rlari va g'azallariga bog'lagan taxmislari tahlili misolida G'.G'ulom badiiy mahoratining o'ziga xosligi muayyan darajada tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar. *An'ana, badiiy mahorat, o'ziga xoslik, lirik qahramon, mushtaraklik, g'azal, bayt, tuyg'u, kechinma. mushtaraklik, taxmis.*

Annotation

This article examines the influence of the great thinker Alisher Navoi on the work of Gafur Gulam. The literary influence of Navoi on the work of G. Gulom is extensive and the article discusses some aspects of this issue. In it, the originality of the artistic skill of G. Gulom is to a certain extent explored through the analysis of poems and gazelles dedicated to Navoi.

Key words. *Tradition, artistic skill, originality, lyrical hero, community, gazelle, byte, emotion, experience, presumption.*

Akademik G'afur G'ulom ijodiy merosida ko'pgina mumtoz so'z san'atkorlari qatori Navoiydan ijodiy bahramandlik alohida o'rin tutgan. Taniqli navoiyshunos A.Hayitmetov uning turli yig'in, anjuman, adiblar bilan suhbatlarida Navoiy, Muqimiy kabi shoirlarning yuzlab baytlari o'z ilmiy sharhini topishi haqida to'xtalib: *«... maqolalarida ana shu suhbatlarning yoqimli bo'yi kelib turadi»*

*[*Hayitmetov A., 1997: 55*]*, – deb yozadi. G‘.G‘ulom ijodida Navoiy bilan bog‘liqlikda o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolar anchagina sertarmoqdir. Bu masalani shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Navoiy asarlari nasriy bayonini tayyorlash. G‘.G‘ulom Navoiy “Xamsa” sining ikkinchi dostoni “*Farhod va Shirin”*ning nasriy bayonini tayyorlagan. Bu doston G‘.G‘ulom “Mukammal asarlar to‘plami”ning 8-jildidan o‘rin olgan.

2. Alisher Navoiyning forsiy tildagi lirik asarlaridan ayrim namunalarni tarjima qilish. Shoir Navoiyning “*Devoni Foniy”i*dan ayrim g‘azallarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima tarjima qilgan. Ushbu tarjimalar bugungi kunda ham kitobxonlar tomonidan sevib o‘qilmoqda.

3. Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodi bo‘yicha chuqur ilmiy izlanishlarga asoslangan maqolalar yozish va anjumanlarda maruzalar qilish. G‘afur G‘ulomning *“*Folklordan o‘rganaylik” (939) «Navoiy va zamonamiz» (1948), «Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy» (1964), «Buyuk ustoz» (1966) nomli ma’ruza va maqolalarida Navoiy ijodining o‘ziga xosligi, asarlarining hayotbaxshligi masalalari ilmiy asosda o‘rganilgan.

4. Shoirga bag‘ishlangan she’rlar va g‘azallariga taxmislar bitish. G‘afur G‘ulom nafaqat Navoiyga atab she’rlar yozib, badiiy ijodda uning o‘lmas obrazini yaratdi, balki ayrim she’rlarida fikr tasdig‘i uchun Navoiy va shoir asarlaridagi qahramonlar obrazini vosita sifatida qo‘llagan. Shoir Navoiyning ayrim g‘azallariga taxmislar bitib, ulug‘ mutafakkir ijodiy an’analarini mohirona davom ettirgan.

Alisher Navoiy she’r va dostonlarining ko‘plab o‘rinlarida adabiyotning, badiiy ijodning nozik qirralariga muayyan munosabat bildiriladi. Bunday o‘rinlarda shoir badiiy asar mukammalligini ta’minlovchi omillar, o‘z yozganlari barcha davrlar talabiga javob bera olishi xususida so‘z yuritadi. Jumladan, Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasherga bag‘ishlagan masnaviy nomasida:

Men ul menki, to turk bedodidur,
Bu til birla to nazm bunyodidur
[Alisher Navoiy.. T.3, 1988: 529 b.]
deb yozgan bo‘lsa, «Lison ut- tayr» dostonida:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam
[Alisher Navoiy. Lison ut-tayr, 1991: 259 b.]

misralarini bitadi. Bunda Navoiy faxriya usulida turkiy tilda qalam tebratishda nodir ekanini shoirona tasvirlash bilan birga «*turk nazmi»*da ijod etganidan shoirona g‘urur va iftixor tuyg‘ularini ifoda etadi. Adabiyotning, xususan, turkiy she’riyatning qudratini ulug‘laydi.

G‘afur G‘ulom ijodida ham o‘zbekona g‘urur va iftixor tuyg‘ulari ifodalangan o‘rinlarda Navoiy ijodiga hamohanglik kuzatiladi. «Men Sharq shoiriman. Shuning uchun Sharq klassiklarining hammasi mening hesh-aqrabolarim, desam ajablanarli bo‘lmas... Meni ularning merosi va an’analari tarbiyalagan. Hali beshikda yotar ekanman onam Hofiz, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy g‘azallaridan xonish qilib, meni allalardi. Tabiiyki, ularning asarlari ona suti bilan qonimga singib, jismu ruhimga sayqal berardi”[G‘afur G‘ulom. T.11, 1989:298 b.], – deydi G‘afur G‘ulom. Uning bitiklarida sharqona tafakkur tarzi, ifoda yo‘sinlari, so‘z qo‘llash madaniyati mustahkam o‘rin olgan. Shu bois ham shoir ijodini Sharq adabiyotiga xos an’analardan ajratmagan holda tushunilishi, shu mezonlar asosida tahlil etilishi lozim. Shoir she’rlarida o‘zbek xalqining o‘tmishi, buguni va kelajagi haqida so‘z yuritar ekan, unga bo‘lgan cheksiz muhabbatu hurmatini g‘afurona ehtirom tuyg‘ulari bilan ifodalaydi. U she’rlarining birida:

Men o‘zbek shoiriman -
O‘z xalqimning tiliman [G‘afur G‘ulom.T.3, 1984: 161]

deb yozadi Bunda shoir Navoiy singari o‘zini va so‘zini shu xalqning ko‘ngil talpinishlari nidosi, deb biladi. Millat nomini baland ko‘tarar ekan, g‘urur va iftixorini yuksak patetika bilan samimiy ifoda etadi. Bu o‘rinda “*o‘zbek shoiri*” obrazi lirik “*men*”ning g‘urur va iftixorini, ko‘ngil kechinmalarini, xalqiga va ijodiga bo‘lgan samimiy munosabatini yoritishga xizmat qilgan.

G‘afur G‘ulomning *“Alisher”, “Alisher Navoiy qabri ustida”* nomli she’rlari bevosita Navoiy obrazi talqiniga bag‘ishlangan. G‘afur G‘ulom Navoiyga bag‘ishlangan she’rlarida adabiyot, badiiy ijod, so‘z san’atining yuksakligi haqidagi qarashlarini ilgari suradi.

Uning «*Alisher»* nomli she'rida Navoiyga bo'lgan hurmat, shoir ijodining boqiyligi, asrlar osha uning ijodiy merosi ma'naviyat xazinasi bo'lib kelayotgani, xalq e'zozidan iftixor tuyg'ulari g'urur bilan kuylanadi.

Yuksak tog' oralab o'kirgan sherning
Na'rasiga tengdir aksi sadosi.
Besh yuz yil yangradi tog'day vatanda
Buyuk Alisherning asriy nidosi [G'afur G'ulom.T.*2, 1984:* 143 b.]

She'rning ushbu misralar bilan boshlanishi tasodif emas. Zotan, ulug' shoir asarlarining aks-sadosi yuksak tog' oralab o'kirayotgan sherning narasiga o'xshatilishi, vatanimizning tog'ga qiyoslanishi orqali Navoiyning buyukligi, shoir ijodi ta'sir kuchining cheksizligi mubolag'ali tarzda tasvir etiladi. Unda shoir yaratgan so'z durdonalari minglab qalblarda aks-sado berayotganligi, Navoiy asarlari boqiyligi badiiy ifodalanadi.

Navoiy va uning tengsiz ijodini turli tomondan ta'rif-tavsif qilayotgan G'.G'ulom betakror tashbehlar, ifodalar keltiradi. She'rdagi «Alisher Mushtariy yulduzi kabi O'zbek osmonida bolqigan chog'i», «To'fon, quyunlarda yakkayu yolg'iz, Monolit, granit haykalday mag'rur», «Oltin baldoqdagi nifrit ko'z kabi *Asaring biz uchun bo'ldi qorachug'»* kabi ko'tarinki ruhga yo'g'rilgan quyma misralar shoirning betakror qiyofasini gavdalantiradi. Navoiy «*to'fon», «quyun*»larda yolg'iz edi. Uning ijodi zavol bilmasligi, ko'z qorachig'iday e'zozlanishi boisi ham kurashlardagi mag'rurlik, intilishlardagi sobitlikdadir. Ming yillarni ko'zlab qalam tebratish, ya'ni o'zbek osmonida Mushtariy yulduziday porlamoq baxti nasib etgan bobokalon ustozdan iftixor etmoq ayni paytda shu yuksak manzil havosiga intilmoq hamdir. Ana shu intilishdan tolmaslik G'afur G'ulom ijodini ham abadiyatga daxldor qila oldi.

G'afur G'ulom 1964-yilda Afg'onistonda bo'lganida "Hirot" nomli turkum she'rlar ijod qilgan. Shoir bu maskan ziyoratini bejiz tanlamagan. Buning zamirida Alisher Navoiy rubobiy she'riyatidan ilhom olib, kamol topgan shoirning qondoshlik tuyg'usi, o'z ustoziga cheksiz ehtiromi, bitiklarini g'azal mulkining sultoni badiiy-estetik tarozisida tortib ko'rishga intilish hissi yotadi. G'.G'ulom *"Alisher Navoiy qabri ustida"* g'azalini Navoiyning "Aylab" radifli she'ri ohangida bitgan:

Dilim ravshanligin hissim yo‘lida ***oftob*** *aylab,*
Mazoring boshida ta’zim ila turmakdadurmen
sarhisob *aylab,*
Qulog‘ing so‘z eshitmas bo‘lsa ham qalbdan
xitob *aylab,*
Vatandoshlar salomin necha jildli bir ***kitob***
aylab
Navoiy deb Musalloga kelibmen ***intixob*** *aylab.*
[G‘afur G‘ulom, 1984: 323]

Ko‘rinadiki, misralar oxiridagi “oftob”, “sarhisob”, “xitob”, “kitob”, “intixob” singari qofiyalardan so‘ng “aylab” so‘zi takrorlanib keladi va radif o‘rni qat’iyligiga erishiladi. Bunda fikr va his-tuyg‘u ta’kidi ritmi kuchaytirilib, har bir misra bilan ajralmas mazmuniy aloqasi ta’minlanadi.

Shoirning ushbu she’rida bu tabarruk maskanga tashrifi bilan bog‘liq muhim sabablar ochiladi. *Birinchidan,* bu G‘.G‘ulomning ustoz shoir Navoiy qoshida hisob berishga shahdlangan ko‘ngil hitobidir. *Ikkinchidan,* bu genial o‘zbek shoirining muborak ruhi oldidagi qarzdorlik hissidir. *Uchinchidan,* necha asrlardan buyon Navoiy ma’rifatidan ko‘ngli yorishib kelayotgan vatandoshlarining muborak salomini yetkazish mas’uliyatidir.

G‘.G‘ulomning Navoiy ijodiga mun osabati uning g‘azallariga bog‘lagan taxmislarida yanada yaqqolroq kuzatiladi. Ma’lumki, biror shoir g‘azallariga taxmis bog‘lash g‘oyatda mas’uliyatli ish bo‘lib, shoir g‘azalda ifoda etilgan mazmunni chuqur his qilgan holda taxmisda shu ma’noni yanada chuqurlashtirishi, hayotga, zamonaga moslashtira olishi lozim. Adabiyotshunos R.Majidiy ta’kidlaganlaridek, “Muxammas bog‘lash shoir ijodiy doirasining kengayishiga, o‘tmishdagi ilg‘or shoirlar ijodi bilan qiziqishning oshishiga, ular qoldirgan ijodiy traditsiyani egallashga va ularning ilg‘or fikrlarini xalqqa yetkazishga xizmat qilgan”. [Majidiy R., 1963: 89 b.]. Bu fikrlar tasdig‘ini Navoiyning *“Tun bila tong”* radifli g‘azaliga G‘.G‘ulom bog‘lagan taxmisi misolida kuzatishimiz mumkin.

“Tun bilan tong” Navoiyning “Badoe’ ul-vasat” devonidagi 363-g‘azalidir.

Mening firoqimu aning visoli tun bila tong,
Bu nav' dahrda yo'q ehtimole tun bila tong.
G'arib zulfu yuz ermasmukim, jahon eliga
Ko'runmamish bu ikining misoli tun bilan tong.
Tongim yorug'u tunum tiyradurki, chirmashadur
Ko'ngul aro yuzu zulfung xayoli tun bila tong.
Ne tunda aysh nasimi, ne tongda mehr, magar
Ki, bo'ldi zulfu yuzung poymoli tun bila tong.
Tunung xujasta, tonging qutlug' o'lsun, ey mahvash
Ki, ikki banda sanga bo'ldi xoli tun bila tong.
Biravki, tongu tunin boda birla o'tkargay,
Yaqinki, bo'lmag'ay aning maloli tun bila tong.
Navoiy etmadi zulfu yuzung visolin kashf,

Valek erur g'amining ittisoli tun bila tong [Alisher Navoiy. T.5, 1990: 259].

G'.G'ulom Navoiyning 7 baytdan iborat ushbu oshiqona g'azalining har bir baytiga uch misradan qo'shib, 21 misra she'r yaratadi. Taxmisda g'azalning barcha baytlari o'zgarishsiz keltiriladi. Shoir mantiqan she'rdagi Navoiy qarashlarini davom ettirib, fikr va tuyg'uni o'ziga xos tarzda ifoda etadi.

Mening qarog'imu oning jamoli tun bila tong,
Mening zavolimu oning kamoli tun bila tong.
Mening kuyuk mahim, oning hiloli tun bila tong,
Mening firoqimu aning visoli tun bila tong,
Bu nav' dahrda yo'q ehtimole tun bila tong.

Ushbu she'rda oshiqning ayriliq tufayli chekkan iztiroblari, holati, kechinmalari tun va tong timsollari vositasida yoritiladi. Tun-ayriliq, tong esa visolni ifoda etadi. She'rdagi timsol, ifoda va tashbehlarning barchasi shu kechinmalarni shoirona ifodalashga qaratilgan. Misralarning botiniy mazmunida esa tasavvufona qarashlar mujassamlashgan. Adabiyotshunos N.Komilov ta'kidlaganidek: "Tasavvuf falsafasiga ko'ra, inson qarama-qarshi ikki asos - modda va ruhdan iborat. Shuning uchun unda ana shu ikki asosning xususiyatlari jamdir... Ruh va jismdan iborat insonni ilohiy olam bilan jism olami orasidagi chegara, deb ataydilar va tongga o'xshatadilar. Chunki tong ham tun bilan kunning chegarasidir.

Tongdan keyin qorong‘ilik ketib, quyosh porlab chiqqaniday, inson ruhi ham asta-sekin jism qorong‘iligi - zulmatini tark etib, musaffo ruh olami, nurlar olamiga talpinmog‘i darkor” [Komilov N. 2009: 25 b.]. Bildirilgan fikrlar ushbu taxmisga ham bevosita daxldordir. Mazkur taxmisning birinchi bandida lirik qahramon ko‘ngil oynasi bo‘lmish ko‘z qaroqlarida akslangan jamol jilvasini azaliy birlik, yaratuvchi poyidagi umidvor musallamlikdan ajratib bo‘lmaganidek, “zavol” va “kamol”ni ham o‘z darajasini his etgan bandaning holi, oshiqning ma’shuqaga bo‘lgan fidokorligidan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu boisdan, ikki o‘rtadagi masofa harqancha olis, jamol jilvasi qoshida oshiqning holi ilojsiz, jismi majolsiz bo‘lmasin, zotning sifatiga bo‘lgan e’tibor va ehtirom uning ruhiy balandlik darajasiga mutanosib tarzda chizilgani bilan e’tiborni tortadi. Shoir fikrlarining Navoiy fikrlariga esh, tuyg‘ulariga vobastaligini ta’minlaydi. Bandning boshida “mening” so‘zini takror qo‘llash orqali anafora badiiy tasviriy vositasiga murojaat qilinib, misralar ohangdorligi yanada kuchaytirilgan.

Shoir o‘z bedor qalbidagi so‘ngsiz iztiroblar tug‘yonini zamon ahliga anglatishga intilarkan:

Nechuk tushuntira oldim buni gumon eliga,
Hamisha ishqni qilguvchi imtihon eliga,
Ki birni ikki deyib bo‘lmag‘ay zamon eliga,
G‘arib zulfu yuz ermasmukim, jahon eliga.

Ko‘runmamish bu ikining misoli tun bilan tong. *[*G‘afur G‘ulom.T.*3, 1984:* 343].

Ko‘rinadiki, o‘z dilini anglatishga intilayotgan G‘.G‘ulom ayrim sahv-xatolarini xaspo‘shlash niyatida emas. Zulmat o‘rni nur bilan almashishiga zarracha shubha qilmagan shoir diliga tirmashgan savdoning tusi: goh *“ko‘z qarog‘i”,* goh *“zulf qarosi”,* gohida *“Oy* [ba’zan *qon*] *kuyugi”*, ayrim o‘rinlarda *“tun tiyrasi”*ga qiyoslanadi. Bularning bari lirik qahramon dilidagi qayg‘u miqyosining nechog‘lik keng ekani haqida tasavvur bera oladi. Qizig‘i shundaki, shoir lirik “Men”i: subhidam bilan yuzlashmoq chorasi jahon ishidan etak silkish ekan, degan xulosaga keladi:

Kimki qayg‘u qo‘lidan yaqoni qutqordi,
Jahon ishiini etak silkimak-la bitkordi,

Qarong‘u kecha yurib subhidam tomon bordi.
Biravki, tongu tunin boda birla o‘tkargay,
Yaqinki, bo‘lmag‘ay aning maloli tun bila tong.
[G‘afur G‘ulom.T.3, 1984: 343]

Agar biz taxmis g‘azalning so‘nggi bandida bu xulosa hali yagona chora emasligi ham ayon bo‘ladi. Zotan, Navoiy: *“Chorasizlik dardinga chora bo‘lmish”*, deganidek ulug‘ ishqning chorasi ham chorasizlikni chora deb bilmoqdir.

Qilolmadim qaro tun, nurli tong zavolin kashf,
Nafas-nafas o‘tayotgan umrning uvolin kashf,
Siyoh haqqi bu Mirzo, qog‘oz jamolin kashf,
Navoiy etmadi zulfu yuzing visolin kashf,
Valek erur g‘amining ittisoli tun bila tong.
[G‘afur G‘ulom.T.3, 1984: 343]

Nazarimizda, ustoz Navoiy va murid G‘.G‘ulom ko‘ngillari tun bila tong timsollariga tutash bo‘lishi mutlaqo bejiz emas. Zotan, nurli tong bu – zavol topgan tun hosilasi. Aksincha, tun bu – tong intiho topuvchi nuqtadan ibtidolanuvchi borliq. Shu abadiyat qarshisida umr bir nafaschalik qisqa va o‘tkinchi. Lekin, insonga taqdim etilgan lahzalik umr qadri amal orqali erishilgan savob va uvolning darajasiga ko‘ra o‘lchanadi. Shunday ekan, odam bolasi har bir nafasni savobli amallar yo‘lida sarflab, oq qog‘ozday toza qalbini moddiy dunyo g‘uborlaridan pokiza asramog‘i lozim.

Anglashiladiki, umr qimmatini lahza qadri bilan o‘lchayotgan G‘.G‘ulom lirik qahramoni aziz umri zavol topishidan zarracha nadomat chekmaydi. Illo, bu zavol ortidan nurli tong ibtidolanadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, G‘.G‘ulom mumtoz adabiy meros, xususan, Navoiy ijodining yetuk bilimdoni bo‘lgan. U teran tahlillarga asoslangan adabiy-tanqidiy maqolalari, ma’ruzalarida va badiiy yetuk she’rlarida Navoiy an’analariga ehtirom bilan munosabatda bo‘lgan. Shoir she’riyatida Hazrat Navoiyga she’rlar bag‘ishlab, uning obrazini yaratdi. Ulug‘ shoir g‘azallariga taxmislar bog‘lab, Navoiy an’analarini ijodiy davom ettirdi. G‘afur G‘ulom va Navoiy masalasini o‘rganish shoir ijodi manbalarini aniqlashga, asarlarining o‘ziga xos qirralari va badiiy xususiyatlarini tushunishga yordam berishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 3-tom. – T.: «Fan», 1988.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 5-tom. – T.: «Fan», 1990.
3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
4. Komilov N.Tasavvuf. – T.: Movarounnahr-O‘zbekiston, 2009.
5. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. –Toshkent.: “Fan”, 1963.
6. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983.
7. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.2. – T.: Fan, 1984.
8. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.3. – T.: Fan, 1984.
9. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. 11 tom. – T.: Fan, 1989.
10. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: O‘qituvchi, 1997.

MIRHASAN SADOIY IJODIDA NAVOIY AN'ANALARINING BADIIY TAKOMILI
(hamd, na't, munojot va manqabat mavzularidagi g'azallar misolida)

Nazmiya MUXITDINOVA
SamDU
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijodxonasida kasbi kamolga yetgan Mirhasan Sadoiy devonidagi hamd, na't, munojot va manqabat mavzularidagi g'azallarida an'ana va o'ziga xoslik masalalari tadqiq etilgan. Shoirning bunday mavzudagi she'rlarida salaflar an'analarining badiiy takomili g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar:*devon, mavzu, g'oya, timsol, badiiyat, an'ana va o'ziga xoslik.*

Annotation

This article examines the issues of tradition and originality in the poems of Mirhasan Sadoi, who grew up in the studio of Alisher Navoi. In the poems of the poet on this theme, the artistic perfection of the traditions of the teachers is analyzed from the ideological and artistic point of view.

Key words:*devon, theme, idea, symbol, art, tradition and originality.*

XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida yashab ijod etgan ko'zga ko'ringan yirik namoyandalardan biri Mirhasan Sadoiyning "Tajdid un-nazm" devoni asosan g'azal janridan tarkib topgan. Devondagi g'azallarining mazmun-mundarijasi rang-barang. An'anaga ko'ra, devonlar hamd va munojot mavzusidagi g'azallar bilan boshlanadi. Qayd qilish kerakki, devon tartib berishda dastlabki g'azallarni hamd va munojot, na't va manqaba mavzularida bitish

an’anasiga Alisher Navoiy asos solgan bo‘lib, bu haqda Navoiyning o‘zi “Badoe’ ul-bidoya” devonining debochasida batafsil to‘xtalib o‘tgan [Badoe’ ul-bidoya. 1987: S. 19]. Albatta, Navoiydan oldingi turkiygo‘y shoirlarda ham hamd va na’t mavzusidagi g‘azallar uchraydi.Ammo ularning devonlari keng tarqalmagani bois, mazkur an’ananing sarchashmasi Navoiy devonlaridan boshlanadi, deyishga to‘laqonli asosimiz bor.

Sadoiy esa, alifbo tartibiga qat’iy rioya etgan holda, devonida hamd, na’t va munojot mavzusidagi g‘azallarni alifbo tartibida joylashtirgan. Jumladan, devonning “fotiha g‘azali”ning dastlabki so‘zi “ibtido” bo‘lgani va bu so‘z “Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman” ma’nosini beruvchi basmala oyati mazmuniga ishora ekanligini hisobga olib, mazkur g‘azalni hamd–basmala g‘azal desak ham bo‘ladi:

Ibtido Ma’budi olam, Xoliqi arzu samo,
Qudrating birla yaratting Hazrati Odam ato.
[Sadoiy Mirhasan. 2010: S. 14]

Sadoiyning mazkur g‘azalidagi o‘ziga xoslik shunda ko‘rinadiki, u dastlabki baytlarida Qur’onda zikr etilgan voqea va hodisalar – Odam Atoning yaralishi, farishtalarning unga sajda qilishi, Shayton hiylasiga uchib, jannatdan quvilgani, Allohning madadi bilan Muso alayhissalom uchun Namrud yoqqan gulxan gulzorga aylanishi haqida so‘z boradi. Oltinchi va yettinchi baytlarda esa oxirzamon Payg‘ambari Muhammad Mustafo (s.a.v.) hamda u kishining to‘rt xalifasi – Abubakr, Umar va Usmon Ali hazratlari haqida so‘z boradi:

Ul Muhammadni «Habibim» deb o‘shal Parvardigor,
Barcha payg‘ambarg‘a qildi balki toji anbiyo.
Ul Abu Bakru Umar, Usmon, Aliyu chori yor,
Bo‘lmadi hargiz alardek, payravi ul Mustafo.

Yuqorida qayd qilganimizdek, payg‘ambar vasfidagi bayt-u g‘azallar na’t, roshid xalifalar haqidagi asarlar esa, manqabat deb yuritiladi. Sadoiy dastlabki g‘azalda uchta yirik mavzu – hamd, na’t va manqabat ohangidagi baytlarni insho qilib, shu tariqa, o‘zining maslaki va mazhabi, diniy e’tiqodining bayonnomasi o‘laroq yaxlit bir asar yaratadi. Sadoiy an’anadan chekinmagan holda mazkur uch mavzuni sakkiz baytda ifodalashga harakat qilgan. Maqta’da esa,

munojot ohangi ustunlik qilib, duo va iltijolar bilan g‘azaliga yakun yasaydi:

Yo Iloho, ayb emas, bal subhu shomu ro‘zu shab
Yod etib doim sani, chiqsa Sadoiydin sado.

Sadoiyning maqta’ baytidagi qofiya Navoiyning mashhur “Ashraqat...” g‘azalining matla’sini eslatadi. Farq shundaki, Navoiy o‘zining diniy-irfoniy g‘oyalarini jom va may poetik obrazlari orqali ifoda etgan bo‘lsa, Sadoiy o‘z tazarrulari va munojotlari ilohiy dargohga qabul etilishi haqida so‘z yuritadi. Bu ham shoirning an’ana doirasidagi novatorlikka intilishi sifatida baholanishi mumkin.

Adabiyotshunos Ziyoda G‘afforova o‘z tadqiqotlarida Shayx Ahmad Taroziy asariga tayangan holda hamda g‘azallarni ikki katta guruh – tavhid g‘azallar hamda munojot g‘azallarga tasnif etgan. [G‘afforova Z. 2018: 21] Mazkur tasnif bo‘yicha Sadoiyning hamd g‘azallariga murojaat qiladigan bo‘lsak, devonda tavhid g‘azallar uchta (1,17,159-raqamli g‘azallar), munojot g‘azallar esa 11 ta (2,6,9, 12, 23, 24, 52, 53, 79, 111, 152-raqamli g‘azallar) ekaniga guvoh bo‘lamiz.

Hamd g‘azallar yagona mavzuda – Haq taoloning zoti va sifatlari vasfida bitilgan bo‘lsa-da, shoir har birida yangi-yangi poetik ifoda va usullarni qo‘llashga harakat qilgan. Jumladan, 17-raqamdagi g‘azalning dastlabki baytlar majoz tariqida yozilib, matla’da sanam timsoliga murojaat qilingan bo‘lsa-da, keyingi baytda mazkur timsol bevosita Haq taoloning majoziy talqini ekani ravshanlashadi:

Xoliqi kulli shay’ o‘zung, Roziqi kulli hayy o‘zung,
Rahmati begaroningga keldi Sadoiy termulub.

[Sadoiy Mirhasan. 2010: S. 24]

Turkiy qofiyalar tizimi bilan orastalangan ushbu g‘azalda Alloh taoloning go‘zal ismlaridan bir nechtasi keltirilib, muddao aniq-ravshan bayon etilgan bo‘lsa, “*Alifdek qomating jono, qarab bir lahza ko‘rmasman, Ki sandin o‘zgaga harchand desa, dinimni bermasman*”, bayti bilan boshlanadigan 159-raqamli g‘azalda [Sadoiy Mirhasan. 2010: S. 94] Alloh taoloni ulug‘lash va sifatlarini zikr etish bilvosita – majoziy timsollar yordamida ifodalangan. Bunday ijodiy izlanish va tajribalarni ayniqsa munojot ohangida yozilgan g‘azallarda yaqqol ko‘rish mumkin.

Sadoiyning munojot mavzusida yozgan g‘azallari ancha salmoqli. Bu g‘azallarning umumiy xususiyati – Haq taolo dargohiga tazarru etish, xatokor bandaning gunohini kechirish va Uning ulug‘ligi va ayblarni yashiruvchi sifatlarini vasf etishdan iborat. Jumladan, devonda ikkinchi raqam ostida kelgan g‘azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Xudoyo o‘tti umrim, bilmadim **dunyoyu mo fiho**,*
Iloho Sanga ayturman Karimo yo gunahbaxsho!
[Sadoiy Mirhasan. 2010: S. 14]

Shunday iqtiboslar boshqa munojotnomalarda ham qo‘llanilgan. Jumladan, 9-raqamli g‘azalda Qur’oni karimning “Zumar” surasidan “Allohning rahmatidan noumid bo‘lmangiz” mazmunidagi qismi baytga nur va ziyo bag‘ishlagan:

Sani va’dang erur «Lo taqnatu min rahmatillah» - deb,
Gunah mandin, ki sandin mag‘firat, ey Qodiri yakto!
[Sadoiy Mirhasan. 2010: S. 19]

Sadoiy yozgan munojot g‘azallarida 152-sonli g‘azal alohida e’tibor talab qiladi. Bunda shoirning tazarrulari tavba va nadomat ohangiga omuxta bo‘lib, “qulman” radifi bilan fikrini yanada ta’sirchanroq ifodalashga harakat qilgan. Bilib-bilmay gunohlariga iqrorlik, Allohning fazlu marhamatiga umidvorlik hamda ayni paytda uning g‘azabidan qo‘rquv tuyg‘usi o‘quvchini ogohlikka chaqiradi. Bu satrlar har bir kishini hayot mohiyati, oqibat va oxirat g‘ami, dunyoning arzimas tashvishlari o‘tkinchiligi, haqiqiy najot va saodatni faqat ilohiy dargohdan talab qilish lozimligi haqida fikrlashga undaydi:

Xudovando, sanga yozgan yamonlardin yamon qulman,
Azaldin to abad qilg‘on gunohi begaron qulman.
Esiz umrum bo‘lub oxir ibodat fikrini qilmay,
Qiyomat vahmidin qo‘rqub yurak sadpora qon qulman.
[Sadoiy Mirhasan. 2010: S. 90]

Xuddi shunga yaqin motivlar Sadoiyning na’t g‘azallarida ham ko‘zga tashlanadi. Devonda 88-raqam bilan qayd qilingan “tamosho qil” radifli g‘azalning dastlabki baytlarida payg‘ambarlardan Odam Ato, Muso, Xizr, Ya’qub alayhimussalomlarning ismi talmih qilingan. Keyingi baytlarda esa Muhammad rasulullоh (s.a.v.) va

u kishining to‘rt xalifasi – Abubakr Siddiq, Umar Foruq, Usmon Zinnurayn va Ali Murtazo ismlari keltirilgan hamda islom tarixida muhim o‘rin tutgan Xaybar jangi esga olinadi. Bu esa g‘azal mavzusining kengayib, na’t hamda manqaba qorishiq holatda keltirilganiga zamin yaratgan:

Muhammad Mustafodur sohibi me’roj ila minbar,
Tufaylidin yaratgan bu jahon yaksar, tamosho qil.
Abu Bakru Umar, Usmon, Ali – domodi payg‘ambar,
Aningdek chor yori – soqii Kavsar, tamosho qil.
Agar bersa Xudoyim bandasiga davlatu nusrat,
Amir oldida yakson qal’ai Xaybar tamosho qil.

[Sadoiy Mirhasan. 2010: S. 57]

Sadoiy devonida manqabat mavzusida yozilgan uchta alohida g‘azal bor. Manqabat (ko‘pligi manoqib) hozirgi zamon adabiyotshunosligida ko‘pincha avliyolar va komil insonlar hayotiga oid biografik-memuar asarlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ammo mumtoz adabiyotshunoslikda mazkur atama xulafoyi roshidinning vasfiga bag‘ishlangan asarlarga nisbatan qo‘llanilganini Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari misolida yuqorida qayd qilib o‘tdik. Qolaversa, Alisher Navoiyning o‘zi ham mazkur atamani aynan shu ma’noda “Majolis un-nafois” tazkirasining uchinchi majlisida qo‘llagan: “Mir Hoj — sayid kishidur, tolibi ilmlik ham qilur. Yaxshi tab’i bor. Hamonoki, iltizom qilibturkim, ko‘proq qasidasi manqabat bo‘lg‘ay...” [Majolis un-nafoiy. 2011: S. 348] Mir Hoj forsiynavis shoir ekanini hisobga olsak, manqabat mavzusi keyinchalik o‘zbek shoirlari, ayniqsa, Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalari tomonidan rivojlanib, g‘azal tematikasining boyishi va kengayishiga sabab bo‘lgan, degan asosni yanada mustahkamlaydi.

Sadoiyning ta’kidiga ko‘ra, xulafoyi roshidinning hayot yo‘li oxirzamon payg‘ambarining yo‘lida sobit bo‘lganliklari sababli hamisha ummati muhammadiya uchun ibrat namunasi bo‘lgan. Choryori bosafoning axloqi bilan qalbni ziynatlash, hayot yo‘lini ularning shaxsiy ibratiga muvofiq tutish, bir lahza ham Haq taolo yodidan g‘ofil bo‘lmasdan, to‘g‘ri yo‘ldan og‘ishmaslik imonli kishilarning ikki olamdagi najot yo‘li hisoblangan. Ayni shu

ma’nolarni Sadoiy dunyoning bevafoligi haqida so‘z yuritiladigan bir g‘azalida quyidagicha ifodalagan:

Kishiga bandalik ul doimo zikri Xudo bo‘lsa,
Qo‘lungda tasbehingdin bo‘lg‘oli hamdu sano bo‘lsa...
Ko‘ngulni bermadi dunyoga hargiz sayyidi olam,
Qachon bergay ko‘ngulni payravi ul Mustafo bo‘lsa.
Hamisha yod etib ul chor yori bosafolarni,
Farog‘at birla yotmish kimki yori avliyo bo‘lsa.

[Sadoiy Mirhasan. 2010: S. 98]

Mazkur g‘azal o‘git-nasihat ohangida bitilgan bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda mav’iza she’rlar deb yuritiladi. G‘azal o‘zining rivojlanishining dastlabki bosqichida asosan ishq-muhabbat mavzusida bo‘lgani bilan keyingi asrlarda mavzu doirasi kengayib, hayotning turli jabhalarini qalamga olish uchun imkoniyatlar maydoniga aylangandi. Ayniqsa, Alisher Navoiy bu narsaga alohida ahamiyat berib, axloqiy jihati bo‘sh bo‘lgan she’r yozishni befoyda ish deb hisoblagan: “Yana bir bukim, go‘yiyo ba’zi el ash’or tahsilidin va devon takmilidin g‘araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriy xattu xol ta’rifidin o‘zga nima anglamaydururlar. Devon topilg‘aykim, anda ma’rifatomiz bir g‘azal topilmag‘ay va g‘azal bo‘lg‘aykim, anda mav’izatangiz bir bayt bo‘lmag‘ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoyi’ mashaqqat tortilg‘on bo‘lgay” [Badoye’ ul-bidoya. 1987: S. 21].

Alisher Navoiyning ijodxonasida kamol kasbi qilgan Mirhasan Sadoiyning devonida mav’iza g‘azallar va baytlar salmoqli qismni tashkil etadi. Umuman, Sadoiy tabiatan axloqiy-didaktik qarashlarni badiiy yo‘sinda ifodalashga moyil shoir.Uning deyarli har bir g‘azalida mav’iza ohangidagi baytlarni topish mumkin. Shu bilan birga, o‘n uchta g‘azalini aynan shu mavzu doirasida bitib, o‘zbek didaktikasini yangi asarlar va qarashlar bilan boyitgan ijodkor hisoblanadi.

Sadoiy insonning xulq-atvorini go‘zallashtirish, olamga teran naar bilan qarash, o‘zlikni anglash va ushbu anglash orqali Haqni tanish yo‘lida kitobni beminnat do‘st, hayot yo‘lini munavvar etuvchi qalb chirog‘i deb biladi. Uning fikriga ko‘ra, kitob – qog‘ozda yozilgan bitiklar emas, balki haqni botildan, chinni yolg‘ondan, ezgulikni yovuzlikdan ajratib berishga madad beruvchi xaloskor, donishmandlarning tafakkur hosilasi bo‘lmish hikmatlar xazinasidir.

Oxirzamon payg‘ambariga eng buyuk mo‘jiza sifatida Qur’oni karim nozil etilganida ham katta ilohiy hikmat bor. Bu orqali Alloh taolo to‘g‘ri yo‘lda bo‘lish uchun asosiy manba va tayanch nuqta ilohiy Kitob ekani, jannat ahli ham ma’rifatli insonlardan tarkib topishi, johil va xudbin, nodon kimsalar ilohiy rahmat va ma’rifatdan benasib qolishlarini qayta-qayta ta’kidlagan. Shu sababli, o‘zini insoniylik maqomida sazovor deb bilgan har bir aql egasi kitob bilan oshno tutinib, ma’rifat va tafakkur xazinalaridan bahramand bo‘lmog‘i zarur. Aytish kerakki, “kitob” radifli g‘azal o‘zbek mumtoz adabiyotida Sadoiygacha biror shoir devonida uchramaydi. Shuning uchun, ushbu g‘azalni Sadoiyning ijodiy kashfiyotlaridan hisoblash adolatli bo‘lar. Mazkur satrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas:

Demagin kog‘azga xolis bir xati xushxon kitob,
Fayzi asrori haqiqat, nur ham imon kitob.
Tilga yod ayla saropo, qil yuroking ichra jo,
Har nachuk odamni aylar, balki bearmon kitob...
Ey Sadoiy, har kitobni to‘tiyoi dida qil,
Bo‘lsa har mushkillaringni, aylagay oson kitob.
[Sadoiy Mirhasan. 2010: S. 25]

Mav’iza g‘azallarda bayon etilgan fikrlarning o‘qtomirini dunyo bebaqoligini anglash hamda o‘tkinchi umrni behuda narsalarga sarflamasdan, asl maqsadga yuz tutish tashkil etadi. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqa o‘zbek shoirlarining asarlarida ham foniy olamning o‘tkinchi hoy-u havaslariga ko‘ngil qo‘yib umrguzaronlik qilish oxir-oqibatda pushaymonlikdan o‘zga samar bermasligi qayta-qayta ta’kidlangan. Yuqoridan ta’kidlaganimizdek, dunyoning hoy-u havaslarga berilmaslik – Sadoiy da’vatlari va nasihatlarining asosini tashkil qiladi. Uning talqiniga ko‘ra, tarkidunyochilik faqat mol-dunyo sohibi bo‘lganlargamas, balki faqir-u miskinlarga ham zarur amallardan hisoblandi. Ko‘nglida dunyo muhabbati bo‘lmagan boy boylik ishtiyoqida bo‘lgan kambag‘aldan ustun turadi, chunki hadisi sharifda ta’kidlaganidek, barcha amallar niyatga bog‘liqdir. Sadoiy tarkidunyochilik deganda yo‘qsillikni targ‘ib etmaydi. Uning fikricha, Haq yodidan chalg‘itadigan har bir narsa dunyo hisoblanadi. Shuning uchun, jamiyatda qaysi mavqeyni egallashidan qat’i nazar, insonning ko‘nglida mol-dunyo to‘plash, nafsoniy istaklarga

ergashishga qarshi olijanob niyatlar va ulug‘vor fazilatlar muqim o‘rin egallashi lozim:

Ko‘ngulni bermasun dunyog‘a har kim beku xon bo‘lsa,
Faqiru notavon, xoh miskinu gado bo‘lsa.

[Sadoiy Mirhasan. 2010: S. 100]

Xullas, Sadoiy devonidagi g‘azallarning oltidan bir qismi hamd, na’t, munojot va mav’iza mavzularda bitilgan. Ayrim g‘azallarda ushbu mavzular qorishiq holda kelgani, boshqa g‘azallarida ham mazkur mavzuga daxldor fikrlar borligini hisobga olsak, bu tasnif nisbiy xarakter kasb etadi. Shoir mazkur g‘azallarda o‘zining e’tiqodiy qarashlari, olam va odam mohiyatiga bo‘lgan munosabati, Alloh va uning rasuli hamda roshid xalifalarga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati, islom dinining mangu va barhayot g‘oyalariga ixlos va sadoqatini turli poetik ifodalar orqali bayon etgan. Mazkur g‘azallarning yana bir xarakterli jihati shundaki, deyarli har bir bayt Qur’oni karim va hadisi sharifdagi hikmatlardan oziqlangan. Shoir iqtibos, talmeh, ishora va boshqa badiiy san’atlar orqali muqaddas manbalardagi g‘oyalarni badiiy talqin qilishga harakat qilgan va bu orqali hamd, na’t, munojot va manqabat mavzusidagi g‘azallarning o‘ziga xosligini ta’minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик. Т. 1. –Т.: Фан, 1987.

2. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 10-жилд. Мажолис ун-нафоис. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011. –Б.348.

3. Садоий Мирҳасан. Девон. Нашрга тайёрловчи Муҳитдинова Н. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.

4. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. Ўн жилд. Еттинчи жилд. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.

5. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Movaraunnahr – O‘zbekiston, 2009.

6. Ғаффорова З. Алишер Навоийнинг ҳамд ва наът ғазалларининг ғоявий-бадиий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) дисс. Самарқанд, 2020.

“HAYRATU-L-USHSHOQ” DEVONIDA NAVOIY G‘AZALLARIGA YOZILGAN MUXAMMASLAR

Shermuhammad AMONOV
ToshDO‘TAU

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ahmad Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi muxammas she’rlari haqida mulohazalar bayon qilingan. Devonning qo‘lyozma va toshbosma variantlari qiyosi asosida ilk bor Ahmad Tabibiyning mazkur devonidagi Alisher Navoiy g‘azallariga yozgan musammatlari haqida to‘liq ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, Ahmad Tabibiy, devon, qo‘lyozma, toshbosma, fond, manba, matn, shoir, g‘azal, muxammas, musaddas.*

Annotation

This article discusses Ahmad Tabibi’s mukhammas poems in the “Hayratu-l-ushshaq” divan. On the basis of the comparison of the manuscript and lithographic variants of the devon, for the first time, detailed information is given about the poems written by Ahmad Tabibi in the ghazals of Alisher Navoi in this devon.

Key words: *Alishir Navai, Akhmad Tabiby, divan, handwrite, lithography, fund, source, text, poet, gazel, mukhammas, musaddas.*

Ahmad Tabibiy mumtoz adabiy an’analarni munosib davom ettirgan ijodkordir. Shoir ijodida ayniqsa, adabiy ta’sir masalasi alohida bir mavzu. Negaki, Tabibiy lirikasi o‘ziga xos bo‘lib, bunda salaf ijodkorlarning ta’siri juda kuchli bo‘lgan. Zero, Tabibiy ko‘plab turkigo‘y va forsigo‘y so‘z san’atkorlari ijod namunalariga o‘xshatmalar bitganki, bu holni boshqa biror shoir ijodida uchratish mahol. To‘g‘ri, ijodda, ayniqsa, mumtoz she’riyatimizda barcha ijodkorlarning boshqa shoir ijod namunalariga o‘xshatmalar bitgani, shoirlarning boshqa biror ijodkor badiiy mahoratidan ilhomlangani kuzatiladi. Bu oddiy hol. Biroq Ahmad Tabibiy devonlaridagi lirik asarlarning tahlili, uning 80 dan ortiq shoirlar she’rlariga o‘xshatma

va muxammaslar yozganini ko‘rsatadi. Bu esa shoirning nechog‘li iste’dodli bo‘lgani, uning Sharq mumtoz adabiyotining ko‘plab vakillari ijodi bilan yaqindan tanish bo‘lganidan dalolatdir.

O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida №3460 inventar raqami bilan saqlanayotgan qo‘lyozma manbada Ahmadjon Tabibiy ijodiga mansub lirik asarlar jamlangan. Ushbu qo‘lyozma manba qalin moshrang muqovada bo‘lib, muqovalar unvonlangan. Qo‘lyozmaning 1[b]-sahifasi o‘rtasida *“Ikilanchi devoni Tabibiy turkiy musammo bahayratu-l-oshiqin”* deb qizil siyohda yozilgan. So‘ng qora siyohda *“Bismillohir-Rahmonir-Rahim”* deb yozilib, Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi lirik asarlari ko‘chirilgan.

Ushbu qo‘lyozma devonda Tabibiyning Lutfiy, Navoiy, Xusayniy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy kabi mashhur shoirlar qatorida ijodi bizga unchalik tanish bo‘lmagan Ulviy, Naf’iy, Nasib, G‘aribiy, Boqiy, Avniy, Noiliy, Laylo, Zevar, Fitnat, Sham’iy, Mohir, Muhibiy, Somiy, Quddusiy, Adliy kabi ijodkorlar g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari keltirilgan.

Tabibiy ijodiy merosini kuzatar ekanmiz, shoirning buyuk Navoiy ijodiga ixlosmand bo‘lgani yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu hol, ayniqsa, Tabibiy devonlarining tuzilishida, o‘xshash janrlardagi lirik asarlarning ijod etilishida yorqin namoyon bo‘ladi. Qolaversa, Tabibiyning aksar lirik asarlari hazrat Navoiy g‘azallariga o‘xshatmalar, muxammaslar tarzida bitilgan.

Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devonida ham shoirning Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari va ikkita musaddasi ko‘chirilgan. Jumladan, “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi Navoiy g‘azallariga bog‘langan birinchi muxammas *“muxammas g‘azali Navoiy”* degan sarlavha bilan keladi. Bu she’r “Navodir un-nihoya”dagi yetti baytli:

Ey mug‘anniy, chun nihon rozim bilursen soz tuz,
Tortibon munglug‘ navo sozing bila ovoz tuz –

matla’i bilan boshlanuvchi g‘azalga yozilgan muxammasdir. Tabibiyning ushbu g‘azalga yozgan muxammasi ham yetti banddan iborat bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

Mutribo majlisda emdi nag‘mai mumtoz tuz,

Gah Rahoviyu Iroq, gahi Chapandoz tuz,
Xoh tuzgil nag‘mai itnob, xoh ijoz tuz,
Ey mug‘anniy, chun nihon rozim bilursen soz tuz,
Tortibon munglug‘ navo sozing bila ovoz tuz.

Ma’lumki, ramali musammani maqsur mumtoz adabiyotda eng ko‘p qo‘llangan vaznlardan biridir. “Xazoyin ul-maoniy”dagi 2600 ta g‘azaldan 334 tasi shu vaznda yozilgani qayd etiladi [II.8.48]. Tabibiy muxammasi ham Navoiy g‘azali yozilgan aruzning *ramali musammani maqsur (foilotun, foilotun, foilotun, foilon)* vaznida yozilgan bo‘lib, bu muxammas:

Ki Tabibiydek chekar ohi fig‘on munglig‘ ko‘ngul,
Begumon bo‘lg‘usi rasvoi jahon munglig‘ ko‘ngul,
Nogahon dildoridin topsa nishon munglig‘ ko‘ngul,
Bazm aro o‘rtar Navoiyni nihon munglug‘ ko‘ngul,
Ey mug‘anniy, chun nihon rozim bilursen soz tuz – tarzida

yakunlanadi. Devondagi Navoiy g‘azaliga yozilgan ikkinchi taxmis ham sarlavhalangan (*“muxammasi g‘azali Navoiy”*). Bu muxammas ham “Navodir un-nihoya”dagi 266-g‘azalga yozilgan. Jumladan, Navoiyning bu g‘azali ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan:

Do‘stlar, olam eliga yoru hamdam bo‘lmangiz.
Yor ila hamdam demaykim, oshno ham bo‘lmangiz –
matla’i bilan boshlanib:
Gar Navoiy hajr aro bo‘ldi zalil, ey ahli vasl,
Emdi navbat sizgadur, muncha muazzam bo‘lmangiz – maqta’i

bilan tugallanuvchi to‘qqiz baytli g‘azaldir. Ushbu g‘azalga yozilgan Tabibiy muxammasining birinchi bandi esa:

Zinhor el g‘urbatin topib mukarram bo‘lmangiz,
So‘ng ko‘rub zillat alardin asru mulzam bo‘lmangiz,
Tortibon mehnatlarini rohati kam bo‘lmangiz,
Do‘stlar, olam eliga yoru hamdam bo‘lmangiz,
Yor ila hamdam demaykim, oshno ham bo‘lmangiz –
tarzida boshlanib,
Ishq aro chun bor Tabibiydek asil, ey ahli vasl,
G‘am emas, g‘am shomi bo‘lsa ham tavil, ey ahli vasl,
Sabr bo‘lg‘usi anga oxir dalil, ey ahli vasl,

Gar Navoiy hajr aro bo‘ldi zalil, ey ahli vasl,
Emdi navbat sizgadur, muncha muazzam bo‘lmangiz – tarzida yakunlanadi. Ma’lumki, Navoiyning bu g‘azali aruzning *ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun)* vaznida yozilgan. Ramal bahrining bu vaznida yozilgan she’rlar ham mumtoz adabiyotda keng ste’molda bo‘lgan. Tabibiy taxmisi ham shu vaznda bitilgan.

“Hayratu-l-ushshoq” devonidagi Navoiy g‘azaliga bog‘langan uchinchi muxammasga ham *“muxammas g‘azali Navoiy”* degan sarlavha qo‘yilib, bunda Tabibiy hazrat Navoiyning “hanuz” radifli g‘azaliga taxmis bog‘lagan. Ushbu she’r quyidagi band bilan boshlanadi:

Muddai xaylig‘a qatlim ittifoqidur hanuz,
Uylakim ko‘nglumda hijron ihtiroqidur hanuz,
Ko‘ksuma kirguvchi zulmining pichoqidur hanuz,
Yor mehri o‘zga bo‘ldi menda boqi(y)dur hanuz,
Notavon ko‘nglumda ul oy ishtiyoqidur hanuz.

Aruzga oid nazariy tadqiqotlarda, bu vazndagi she’rlarda qofiyalanuvchi misralarninggina ramali musammani maqsur vaznida bo‘lishi shartligi, qolgan misralar ko‘p hollarda ramali musammani mahzuf vaznida kelishi ta’kidlanadi[II.8.47]. Yetti baytli ushbu g‘azalga Tabibiy ham shu hajmda taxmis bog‘lagan. Tabibiyning ushbu muxammasi ham Navoiy g‘azali yozilgan aruzning *ramali musammani maqsur* vaznida bo‘lib, bu she’r quyidagi band bilan yakunlanadi:

To Tabibiydek ul oyning ishqig‘a bo‘ldim duchor,
Chekkamen tinmay dame hasrat bila afg‘onzor,
Bu sifat holimni ko‘rgan birla ham laylu nahor,
Ey Navoiy, garchi meni mehrsiz der erdi yor,
O‘zga bo‘ldi yoru mehri menda boqiydur hanuz.

Ahmad Tabibiy “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi keyingi muxammas “Badoe’ ul-vasat”dagi:

Ulki solg‘ay shu’la a’zosig‘a o‘tlig‘ ohlar,
Qayda bilgay kuymakin zarboft kiygan shohlar – deb boshlanuvchi g‘azalga yozilgan. Jumladan, ushbu muxammas:

Bilmagay himmat rusumin har nazar ko‘tohlar,

Aylakim ishq emas majmu'i chehragohlar,
Lek mundoq nuktaog'oz aytdilar ogohlar,
Ulki solg'ay shu'la a'zosig'a o'tlig' ohlar,
Qayda bilgay kuymakin zarboft kiygan shohlar –
bandi bilan boshlanib,
Komron el xotirida benavolar fikri yo'q,
Dardsizlarg'a atibbo davolar fikri yo'q,
Aqldin begonalarg'a oshnolar fikri yo'q,
Ey Navoiy, shohlarg'a chun gadolar fikri yo'q,
Aylagil ham tangri dargahig'a shay an lil-lohlar – tarzida yakunlanadi. Tabibiyning mazkur devonidagi beshinchi muxammasi Navoiyning *"Ishq jurmig'a meni, ey do'stlar, yozg'urmangiz, Begunah men xud kuyarmen, siz dag'i kuydurmangiz"* matla'si bilan boshlanadigan g'azaliga yozilgan. Tabibiyning taxmisi quyidagi band bilan boshlanadi:

Ta'na tiyg'ini dilu jonimg'a har dam urmangiz,
Ohu fig'onim o'tini charxdin oshurmangiz,
Hajr ranji ustiga kulfat manga yeturmangiz,
Ishq jurmig'a mani, ey do'stlar yozg'urmangiz,
Begunah men xud kuyarman, siz dag'i kuydurmangiz.

Bu she'r aruzning ramali musammani mahzuf vaznida bo'lib:

Har kishining bor esa ganji malomat maskani,
Bo'lg'usidur doim el ta'nini chekmaklik fani,
Aylab asbobi alam birla Tabibiyni g'ani,
Ishq olamidin surub soldi Navoiydek, mani
Kuyiga, ey ishq ahli, siz ham ondin surmangiz.

"Hayratu-l-ushshoq" devonidagi Navoiy g'azaliga yozilgan Tabibiyning navbatdagi oltinchi muxammasi *"Meni ushshoq jonbozi qatoridan hisob aylab"* misrasi bilan boshlanadi. Shoirning bu taxmisi "Navodir un-nihoya"dagi Navoiyning *"Tun oqshom keldi kulbam sari ul gulruh shitob aylab, Xiromi sur'atidin gul uza xo'ydin gulob aylab"* bayti bilan boshlanadigan g'azalga bitilgan. Devondagi Navoiyning to'qqiz baytli g'azaliga yozilgan Tabibiyning yettinchi muxammasi:

Husni yanglig' bo'lmag'usidur jahon oro quyosh,

Hosil etmay buyla faton ko‘z ila qosh to quyosh,
Emdi tong yo‘q g‘arq xijolat bo‘lsa sar to po quyosh,
Shomkim tun ***pardasida ayladi*** *ixfo quyosh,*
Parda olib yuzdin ul oy ayladi ifsho quyosh – bandi bilan boshlanadi. Tabibiy muxammasi ham to‘qqiz banddan iborat. Faqat Tabibiy muxammasi tarkibidagi Navoiyga tegishli *“pardasida ayladi”* birikmasi Navoiy g‘azalining nashr variantida *“pardasidin istadi”* tarzida berilgan. Bu she’r aruzning *ramali musammani maqsur* vaznida yozilgan bo‘lib, quyidagi band bilan yakunlanadi:

To Tabibiydek manga uchrashi bir ruxsori mah,
Boshim o‘lmushur tunu kun ko‘yi uzra hoki rah,
Aylagan chog‘da tasavvuf mandin orom gah,
Bil, Navoiykim, tafovutdur quyoshdin oyg‘acha,
Aylasang nazzora ul oy orazidin to quyosh.

Tabibiy “Hayratu-l-ushshoq” devonida Navoiy g‘azaliga yozilgan yana ikkita muxammas bo‘lib, sakkizinchi muxammas *“Kelib husni malohat ichra ul oy xo‘b a’losi, Hamisha ishq eli boshidadur ishq malolosi, Olib jon xalq jismidan nigoh chashmi shahlosi, O‘lukka jon berur chun nukta aytur la’li guesi, Masiho mimidin go‘yo chiqar jonbaxsh anfosi”* bandi bilan boshlanadi. Ko‘rinadiki, Tabibiyning ushbu she’ri Navoiyning hazaji musammani solim vaznida yozilgan *“O‘lukka jon berur chun nukta aytur la’li guesi, Masiho mimidin go‘yo chiqar jonbaxsh anfosi”* matla’i bilan boshlanadigan g‘azaliga taxmis sifatida bitilgan. Navoiyning:

Har gadokim, bo‘ryoyi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidin hojat emas xil’at anga –

matla’si bilan boshlanadigan ramali musammani mahzuf vaznidagi g‘azaliga yozilgan Tabibiyning to‘qqizinchi muxammas she’ri:

Odamikim gar tavakkul bor esa odat anga,
Iki olam ichra ham yetgusidur rohat anga,
Kimga himmatlig‘ esa bo‘lg‘usi amniyat anga,
Har gadokim, bo‘ryoyi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidin hojat emas xil’at anga – bandi bilan boshlanib, quyidagicha yakunlanadi:

Iltifoti shah bila hosil qilib ayshu tarab,
Jomi ishratni Tabibiydek ichib ham labbalab,

Buyla holatg‘a yetushgach shavq birla ro‘zi shab,
Gar Navoiy so‘z uzatti, faqrdin ermas demang ajab,
Bo‘lmag‘uncha hukm shahdin, qayda bu jur’at anga?

Xulosa qilib aytganda, Tabibiy qalamiga mansub yuqoridagi lirik asarlar ilk bor tadqiq etilayotgani bois ularning birinchi va oxirgi bandlari tabdili keltirildi. Bundan maqsad esa Ahmadjon Tabibiy ijodida Alisher Navoiy an’analari haqida dastlabki tasavvurlarni uyg‘otish edi. Bunday lirik asarlarni, avvalo, to‘liq tabdil etish, ularni badiiyat mezonlari asosida chuqurroq tadqiq qilish yechimini kutayotgan ilmiy muammolardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. Manbalar:

1. O‘zFA SHI 2662 inventar raqamli qo‘lyozma.
2. O‘zFA SHI 3460 inventar raqamli qo‘lyozma.
3. O‘zFA SHI 3461 inventar raqamli qo‘lyozma.
4. O‘zFA SHI 8989 inventar raqamli toshbosma.
5. O‘zFA SHI 1134 inventar raqamli qo‘lyozma.

II. Adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 1 jild. –T.: Fan, 1987.
2. Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 2 jild. –T.: Fan, 1987.
3. Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 3 jild. –T.: Fan, 1988.
4. Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 4 jild. –T.: Fan, 1989.
5. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 5 jild. –T.: Fan, 1990.
6. Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 6 jild. –T.: Fan, 1990.
7. G‘anixo‘jaev F. Ahmad Tabibiy. – Toshkent, Fan, 1978.
8. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Toshkent, Akademnashr, 2018.

NAVOIYNING OZAR TADQIQOTCHISI

Ozoda TOJIBOYEVA
ToshDO‘TAU

Annotatsiya

Mazkur maqolada ozar olimi Hamid Araslining navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiy ta’sir, adabiy aloqalar, an’ana va o‘ziga xoslik.*

Annotatsiya

This paper illustrates Azerbaijani scientist Hamid Arasly’s contibution to Navoi Studies.

Key words: *literary effect, literary connections, tazkira writing, tradition and individuality.*

Filologiya fanlari doktori, akademik, Ozarbayjon yozuvchilar uyushmasining muxbir a’zosi Hamid Arasli uzoq yillik ilmiy faoliyatini Ozarbayjon mumtoz adabiyoti namoyandalari – Hoqoniy, Nizomiy, Nasimiy, Fuzuliy, Tabriziy kabi ko‘plab adiblarning ijodini o‘rganishga bag‘ishladi. “Nizomiy asarlarida xalq ibora va maqollari”, “Nizomiy lirikasi”, “Nizomiy va folklor”, “Ulug‘ ozarbayjon shoiri Fuzuliy” nomli tadqiqotlari fan rivojida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Olim ijodkorlarning yangi qo‘lyozma manbalarini o‘rganish va iste’molga olib kirishda ham yetakchilardan biri bo‘lgan.

H.Araslining ilmiy faoliyati qamrov jihatiga ko‘ra keng ko‘lamga ega. Xalq og‘zaki ijodini puxta bilish, azaldan adabiy aloqalarda hammaslak bo‘lib, uzviy rivojlanishda bo‘lib kelgan Sharq xalqlari adabiyotini keng tasavvur va tahlil qila olish salohiyati olimni dunyo miqyosidagi zalvorli olim bo‘lishiga yetaklagan asosiy omil hisoblanadi. “Kitobi Dada Qo‘rqut” kitobining ilmiy-tanqidiy matni, “Ozarbayjon adabiyoti tarixining qisqacha ocherki” kitobining muallifi Hamid Arasli o‘z millati adiblarining suv ichgan chashmalarni aniq ko‘ra biladi.

Olimning ilmiy faoliyati sahifalarida Alisher Navoiy va ozarbayjon adabiyoti masalasi katta qismni tashkil etadi. 1940-yildan boshlab mazkur mavzudagi ma'ruza va maqolalari har ikki davlat matbuotlarida e'lon qilinib borilgan. Alisher Navoiy ijodi va shaxsiyatiga bo'lgan muhabbat rishtalari olimni O'zbekiston bilan doimiy aloqaga chorlagan. O'z navbatida bu hamkorlik natijasida Hamid Arasli O'zbekistonning V.Zohidov, V.Abdullayev, Oybek, G'afur G'ulom, H.Sulaymondek alp olimlari qatorida turib, navoiyshunoslikka munosib ulush qo'shdi. Yangi manbalar bilan dalillangan, chuqur tahlil qilingan maqolalari orqali Alisher Navoiyning noma'lum qirralarini o'zbek hamda ozar xalqiga taqdim etdi. Dunyo kutubxonlarida saqlanayotgan Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro asarlarining manbalarini o'rganib, yangiliklarni o'zbek xalqi bilan baham ko'rdi.

Hamid Arasli O'zbekistonda Alisher Navoiy tavalludi arafasida bo'lib o'tgan konferensiyalarning doimiy ishtirokchisi bo'lib kelgan. Shu o'rinda ularda olimning ishtiroki, ma'ruzaning dolzarbligiga e'tibor qaratsak: 1961-yil Navoiy tug'ilgan kunining 520 yilligi munosabati bilan O'zR FA til va adabiyot institutida bo'lib o'tgan konferensiyada Nizomiy va xalq og'zaki ijodi masalasi bo'yicha ma'ruza qilib, unda Nizomiy o'zining "Xamsa" dostonlarini yaratishda o'zbek xalq og'zaki ijodidan foydalanganini e'tirof etadi.

1962-yili bo'lib o'tgan an'naviy VI konferensiyada esa Hamid Arasli "Alisher Navoiy va Kishvariy" mavzusida ma'ruza qilgan. Ma'ruzaning ilmiy qimmati shundaki, o'sha yillarda yangi topilgan Kishvariy devonida Navoiy g'azaliga bog'langan 5ta muxammas borligini aytadi.

1966-yili 10-12-fevral kunlari O'zR FA Til va adabiyot institutida bo'lib o'tgan an'anaviy X ilmiy anjumanda kirish so'zni G'afur G'ulom ochib bergandan so'ng Oybekning nutqini o'qib berishadi. So'ngra Hamid Arasli Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan Husayn Boyqaroning 6 ta qo'lyozma asari Istanbul, London, Parij va yurtimizda saqlanayotganini aytib, ularda Navoiy bilan Husayn Boyqaro o'rtasidagi munosabatlarni yorituvchi muhim faktlar borligini qayd etadi. 1967-yili V.Zohidov boshchilik qilgan XI ilmiy konferensiyada Hamid Arasli Navoiy asarlarining

ilk tarjimalari haqida fikr yuritadi. 1968-yil navoiyshunoslarning an'anaviy XII konferensiyasi Samarqand shahrida bo'lib o'tgan. Navoiy tavalludining 525 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish 9 fevral kuni boshlanib, 13-fevral kuni SamDUda asosiy yalpi majlis boshlanadi. Mazkur majlisda H.Arasli "Gul" dostonining turkcha varianti va bu dostonga Navoiyning munosabati haqida ma'ruza qiladi. Yozma adabiyotdagi "Gul va Alisher" dostonida shoirnnig ma'naviy qiyofasi, fojiali muhabbati, fazilatlari haqida fikr yuritadi. 1969-yili Hamid Araslining 60 yoshga to'lishi munosabati bilan Abduqodir Hayitmetovning olim haqidagi maxsus maqolasi e'lon qilingan. 1971-yil Navoiy tavalludining 530 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan XV an'anaviy konferensiyada Hamid Arasli "Nasimiy va Navoiy" mavzusida ma'ruza qiladi. Ozarbayjon shoiri Nasimiy Shirvoniyga Navoiyning munosabati borasida fikr yuritadi. Navoiy "Majolis un-nafois", "Holoti Pahlavoni Muhammad" asarlarida Nasimiyga yuksak baho berganini aytadi.

Birlamchi manbalar ustida ishlash, ularni tahlil qilish jarayoni matn osti kengliklarini chuqurroq anglash, his qilish, qiyoslash imkoniyatini beradi. Bu borada olimning ilmiy kuzatishlari fundamental asosga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy adabiyotga – umumturkiy tilli adabiyotlarga bo'lgan qiziqish, intilish, umrining mazmuni deb bilish olimni keng tahlillar sari yetaklagani ayon haqiqat.

Hamid Arasli tomonidan muntazam ravishda yurtimiz matbuotida e'lon qilib borilgan ilmiy kuzatishlari muhim ilmiy qimmatga ega. Alisher Navoiy va ozarbayjon adabiyotiga tadqiqiga bag'ishlangan maqolalari "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1960-80-yillardagi sonlaridan o'rin olgan. Bu yillardagi H.Muhammadxo'jaevning "Alisher Navoiy va ozarbayjon adabiyoti", M.Shayxzodaning "Navoiyning bir Ozarbayjonlik xalafi haqida", J.Nagievaning "Navoiy ijodining Ozarbayjonda o'rganilishi" kabi mavzulardagi maqolalar har ikki xalqni birlashtirgan Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish yo'lidagi dadil qadamlar edi. Xususan, H.Muhammadxo'jaevning "Alisher Navoiy va ozarbayjon adabiyoti" maqolasida Hamid Araslining mehnatlari alohida e'tirof etiladi. Navoiyning zamondoshi, asarlaridan o'rin olgan ozar shoiri Kishvariyning qo'lyozma devoni

O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgani, H.Arasli shoir haqida maxsus maqola e’lon qilgani aytiladi. Ozarbayjonlik shoirlar doimo madaniy markazlar Hirot, Samarqandga intilgani ta’kidlanadi. Keyingi davr ozarbayjon tilining mustahkamlanishida ham Navoiy, Fuzuliyning o‘rni va ta’siri katta bo‘lganini ta’kidlaydi. Olim va ijodkorlarning har ikki xalq ilm-fani, madaniyati o‘rtasidagi zahmatli mehnatlari adabiyotshunoslik sohasiga, madaniy hamkorliklar rivojiga hissa qo‘shgani aniq.

Hamid Arasli tomonidan e’lon qilingan “Navoiy merosini o‘rganish tarixidan” nomli maqolasi diqqatga sazovor. Olim maqolada e’tiborini Navoiy ijodiy merosining ozarbayjon, rus va turk olimlari tomonidan o‘rganilishiga e’tibor qaratadi. Navoiy ijodini o‘rganish borasidagi quyidagi fikrlari olimning dunyoarashini ham anglatadi: “Navoiy merosini o‘rganish yolg‘iz o‘zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig‘i sifatida, Nizomiy kabi, bir necha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligidan uning ijodini o‘rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. Dunyo sharqshunoslari Navoiy merosini o‘zbek xalqining adabiyotini o‘rganish maqsadida tekshirsalar, Sharq xalqlari tadqiqotchilari butun hayotini xalqning baxt-saodatiga bag‘ishlagan bu dohiy san’atkorning hayoti va ijodini o‘z madaniyatlarini, o‘z adabiyotlari tarixini chuqurroq o‘rganish maqsadida tekshirmoqdalar. Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo‘lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o‘zining kuchli ta’siri bilan mashhurdir, shu tufayli ham ular Navoiyni o‘rganadilar”.

Maqolada olim Navoiy ijodini o‘rganish zaruratini ta’kidlaydi. Navoiy ijodini o‘rganish bo‘yicha kutiladigan natijalarni asoslari bilan dalillab ko‘rsatadilar:

1. Kishvariyning Navoiy bilan ijodiy aloqada bo‘lgani.

2. Fuzuliy adabiy maktabi takomilida Navoiy ijodining muhim rol o‘ynagani.

3. Sodiq Afshorning “Majmaul havos” tazkirasi “Majolis un-nafois” ta’sirida yozilganini dalillaydi.

Maqolada olim faqat ozarbayjon adabiyotiga Navoiy ijodining ta’siri, o‘rni bilan cheklanib qolmaydi. Navoiy ijodini o‘rganishga bel

bog‘lagan o‘zbek olimlari bilan teng mas’uliyatga ega olim sifatida tadqiq etadi. Mazkur maqolada olimning ana shunday keng qirrali faoliyati namoyon bo‘ladi. Ozarbayjon, rus, turk olimlari tomonidan o‘rganilishini alohida misollar asosida dalillab ko‘rsatadilar. Umuman olganda, olimning navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi muhim hisoblanadi, o‘zbek navoiyunos oimlari bilan olib borgan hamkorliklari, ilmiy izlanishlari qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арасли, Ҳамид. “Навоий меросини ўрганиш тарихидан”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 3 (1960): 3-8. Тошкент.
2. Арасли, Ҳамид. “Ҳусайн Бойқаро рисоласи ҳақида”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 3 (1966): 6-13. Тошкент.
3. Арасли, Ҳамид. “Навоий ва озарбайжон адабиёти”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 3 (1968): 43-43. Тошкент.
4. Арасли, Ҳамид. “Аҳдий Бағдодий Навоий ҳақида”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 4 (1977): 43-47. Тошкент.

ABDULLA ORIPOV BADIIY-ESTETIK TAFAKKURIDA ALISHER NAVOIY AN'ANALARINING SINTEZI

SYNTHESIS OF THE TRADITIONS OF ALISHER NAVOI IN THE ARTISTIC AND AESTHETIC THINKING OF ABDULLA ARIPOV

Oybarchin ABDULHAKIMOVA
ToshDO'TAU
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlari shakllanishi va takomilida Alisher Navoiy an'analarining o'rni masalasi tahlil etilgan. Ushbu ilmiy muammo ikki yo'shnalishda, birinchidan, ikki shoirning badiiy ijodga qo'ygan konseptual talablaridagi uyg'unlik, ikkinchidan, Alisher Navoiy ijodiga xos poetik tafakkurning Abdulla Oripov she'riyatida yangilanishi misolida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: *adabiy-estetik tafakkur, ijodiy an'ana, g'azal, ijodiy niyat, poetik shakl, qiyosiy tahlil.*

Abstract

The article analyzes the role of Alisher Navoi's traditions in the formation and development of Abdulla Aripov's literary and aesthetic views. This scientific problem has been studied in two directions, firstly, the harmony of the conceptual requirements of the two poets to the work of art, and secondly, the example of the renewal of the poetic thinking inherent in the work of Alisher Navoi in Abdulla Aripov's poetry.

Key words: *literary-aesthetic thinking, creative tradition, gazal, creative intention, poetic form, comparative analysis.*

O'zbek adabiyotining XV asrdan keyingi barcha davrlardagi, jumladan bugungi taraqqiyotini ham Alisher Navoiy an'analari ta'siridan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Barcha zamonlardagi

eng salohiyatli ijodkorlar bu benazir badiiyat sarchashmasidan bahramand bo‘lgani isbot talab qilmaydi. XX-XXI asrlar o‘zbek adabiyoti misolida ham buyuk shoir ijodiy an’analari yangilangani, ayrim obrazlar va timsollar poetik takomilga yetkazilgani ma’lum. Zamonamizning ulug‘ shoiri Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlari rivojida Alisher Navoiy an’analarining sintezi masalasini o‘rganish shu jihatdan dolzarb va ahamiyatlidir.

Abdulla Oripov ijodda buyuk Navoiyni ustoz deb bildi. Ijod konsepsiyasini belgilashda mezonni shundan kelib chiqib belgiladi. Badiiy yuksak she’rlari bilan buyuk salafiga munosib izdosh ekanini isbotladi. Shoir tasvirlagan besh asrdan buyon nazmiy saroyni titratib kelayotgan zanjirband sher obrazi hazrat Alisher Navoiyning buyuk xizmatlariga berilgan ohorli va yuksak baho ekani ayon. Abdulla Oripov:

Temur tig‘i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher [Oripov 2019: 102] –

deb yozar ekan, ulug‘ bobokalonimizning millat oldidagi beqiyos xizmatlariga alohida urg‘u beradi. Tig‘ning emas, qalamning kuchi bilan jahonni zabt etish – teran mazmunning go‘zal badiiy ifodasi. Ushbu ta’rif hazrat Alisher Navoiyning tarixiy missiyasiga berilgan munosib baho. Aslida, she’r muhiblari ko‘nglidan chuqur joy olgan ushbu satrlar hazrat Alisher Navoiyning mana bu misralarida ifodalangan poetik mazmunning badiiy yangilanishi sifatida baholanmog‘i zarur:

Olibmen tahti farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabriz –
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez...
Ne mulk ichra ki, bir farmon yibordim.
Aning zabtig‘a bir devon yibordim. [Navoiy 1991: 400-401].

Hazrat Alisher Navoiy Xitoydan Xurosongacha, undan Sherozu Tabrizgacha bo‘lgan hududlarni cherik chekmay, lashkar tortmay hukmiga bo‘ysundurganini, qay bir yurtga farmon yuborsa, zabt etmoq uchun devonini jo‘natishi kifoya qilganini faxriya usulida aytgan. Abdulla Oripov ana shu mazmunni yangicha badiiy shaklda, o‘zgacha uslubda badiiy talqin etgan. Buning uchun o‘z she’riga

Amir Temur obrazini olib kirgan. Fikrning ta'sirchanligini ta'minlash uchun "tig'" va "qalam" tazodidan foydalangan. Qalamning tig'dan ko'ra qudratliroq ekanini betakror ifodalagan.

Abdulla Oripov buyuk salafi Alisher Navoiy san'atxonasidan juda ko'p narsa o'rgangan. Lekin hatto Navoiyga ham taqlid qilmagan. Navoiyona obrazlarni yangicha talqin etish, ayrim poetik detallarni takomilga yetkazish, o'ziga xos ifoda uslubida suvratlantirish yo'lidan borgan. Maqolalaridan birida shoirning o'zi mana bunday e'tirofni yozgan: "Men Navoiydan masalaning mohiyatiga kirishni, she'rni sehrli tayoqchaday o'ynatishni o'rgandim. U kishi mazmun ifodasining ustasi, she'r aytish mumkin, lekin she'rni mazmun bilan faqat Navoiy aytgan" [Oripov 2001: 157]. Hazrat Alisher Navoiy "Xamsa"ni yozar ekan, o'z oldidagi badiiy-estetik mezonni quyidagicha belgilab oladi:

Ani nazm etki, tarhing toza bo'lg'ay,
Ulusg'a mayli beandoza bo'lg'ay.
Yo'q ersa, nazm qilg'onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq. [Navoiy 1991: 33].

Ya'ni ulug' shoir "tarhi toza" – buyuk xamsanavislar asarlaridan mutlaqo farq qiladigan, yangi uslubdagi asar yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Salaflari nazm qilganni takrorlamoqni o'ziga munosib ko'rmaydi. Buyuk mutafakkirning ushbu ijodiy niyati "Xamsa"da nechog'liq muvaffaqiyatli amalga oshgani ma'lum. Abdulla Oripovning o'z ijod yo'lini ana shu asosda belgilagani Alisher Navoiyning munosib izdoshi ekani isbotidir.

Men shoirman,
Istasangiz shu,
O'zimniki erur shu sozim,
Birovlardan olmadim tuyg'u,
O'zgaga ham bermam ovozim... [Oripov 2019: 77].

Haqiqatan, Abdulla Oripov o'zbek she'riyatiga o'z sozi, o'z ovozi bilan kirib keldi. O'zigacha bo'lgan badiiy kashfiyotlardan saboq olgani holda, ularni takrorlamadi. Poetik tafakkurni yangilashga erishdi. Ikki ulug' shoir ijodiy dasturini qiyosiy tahlil etgan professor Nurboy Jabborov mana bunday yozadi: "Ko'rinib turibdiki, har ikki ijodkor yakdil fikrda: she'riyatda o'zgalarni takrorlash ("mukarrar

aylamak") ayb. Haqiqiy shoir o‘z sozi bilan kuylashi lozim. Boshqalar ketidan ot surmoq, o‘zgalardan tuyg‘u olish haqiqiy ijodkor ishi emas. Taqlidchilik ijod tabiatiga zid... Chinakam ijod namunasi original bo‘lmog‘i zarur, toza tarh bilan bitilmog‘i kerak. Butun ijodiy faoliyati ana shunday yuksak e’tiqod, mustahkam tutum asosiga qurilgani bu ikki buyuk iste’dodning ijodkor sifatidagi prinsiplari nechog‘li uyg‘un ekani dalilidir" [Jabborov 2015: 114].

Hazrat Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida nazm – she’riyatga qo‘yiladigan muhim bir talabni quyidagicha ifoda etadi:

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsun aning surati harne durur.
Nazmki ma’ni anga marg‘ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo‘b emas [Navoiy 1991:52]

E’tibor berilsa, ulug‘ mutafakkir she’riyatda shakliy o‘zgarishlar, yangilanishlar bo‘lishini tabiiy deb biladi. Nazmning surati qanday bo‘lishidan qat’i nazar, uning asosini ma’no tashkil etishini alohida ta’kidlaydi. Ma’nodan yiroq so‘z ahamiyatga ega emasligini aytadi. Ahli maoniy – ma’no ahli bunday nazmni ma’qullamasligi haqida yozadi. Abdulla Oripovning quyidagi fikrlari buyuk salafi qarashlari bilan hamohang ekani jihatidan muhimdir: "Hozirgi she’riyatimizda shakldagi rang-baranglik qaror topayotgani meni quvontiradi. Rang-baranglik hech qachon eskirmaydi. Faqat uning zamirida betakror mazmun, go‘zal tashbeh, sirli ruh bo‘lsa, bas" [Oripov 2001: 121].

Demak, she’riyatdagi shakliy rang-baranglikni ma’qullagan shoir unga uch talabni qo‘ygan: 1) betakror mazmun; 2) go‘zal tashbeh; 3) sirli ruh. Diqqat qilinsa, ijodkor **betakror mazmun** degan talabni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Bu esa, o‘z navbatida, Alisher Navoiy va Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlaridagi uyg‘unlikni ko‘rsatadi. Tabiiyki, bunday mutanosiblik tasodifiy emas. Chunki Abdulla Oripov Alisher Navoiy ijodxonasidan saboq olgan, badiiy adabiyotning sir-sinoatini buyuk salafi asarlaridan o‘rgangan. Shoirning mana bu satrlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Hamdam bo‘lib sen bilan
"Xamsa"dan saboq oldim,
Yiroq-yiroq yulduzlar
Sehrini dilga soldim.

Mehmon emas, qasringda
Balki bir umr qoldim.
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she'riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she'riyat [Oripov 2019: 222].

Shoir "Xamsa"dan saboq olganini mamnuniyat bilan ta'kidlaydi. Yiroq-yiroq yulduzlar sehrini dilga solishining ham, she'riyat qasrida mehmon bo'lmay, bir umr qolishining ham asosiy sababi ana shu saboq ekanini aytadi. Buyuk Navoiy badiiy-estetik olamidan bahramandlik – Abdulla Oripovni ijod cho'qqisiga erishtirgan asosiy omillardan. Shoir ijodining asosiy mohiyatini Ilhom G'aniev va Nodira Afoqova mana bu tarzda izohlaydi: "Ijod – bu kashfiyot, yaratish zavqi, o'z-o'zini anglash, namoyish qila bilish, o'z haqiqatiga o'zgalarni ishontirish va ergashtirish, butun bir muhitni o'zgartirishga intilish qudrati, ilohiy ilm va zehn, olim va odamni ichdan chuqur bilish san'ati hamda mas'uliyati. Abdulla Oripovning o'z ta'biri bilan aytganda, "ehtiyoj farzandi" [G'aniev 2006: 5].

Abdulla Oripovning g'azallarida Alisher Navoiy g'azalnavisligi yutuqlarining poetik sintezlashgani kuzatiladi. Garchi shoir ijodiy merosida g'azallar ko'p bo'lmasa ham, ularda navoiyona falsafiy teranlik, buyuk bobokalonimiz she'riyatidagiga o'xshash betakror badiiyat va sirli ruh uyg'unligini kuzatish mumkin. Mana, shoirning mumtoz she'riyat talablari darajasida yozilgan "Emas" radifli g'azalining matla'i quyidagicha:

Sochlaring yoymay turib
Tushgan qorong'u tun emas,
Tishlaringni ko'rmayin
Tong ham oqargan kun emas [Oripov 2019: 571].

Abdulla Oripovning ushbu baytida Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob" devonidan o'rin olgan 46-g'azali matla'i bilan o'zaro uyg'unlik borligini ta'kidlash kerak:

Soching qorong'u tun, ey sarvqaddi shirinlab,
Yuzung tun o'rtasida jilva aylagan kavkab [Navoiy 1989: 30].

Ikki ulug' shoir – Alisher Navoiy va Abdulla Oripov g'azallarining matla' baytlarida bir-biriga mutanosib badiiy san'atlar qo'llangan.

Hazrat Navoiy ham yor sochini qorong‘u tunga, uning yuzini esa tun o‘rtasida jilva aylagan kavkab – yulduzga qiyoslaydi. Abdulla Oripov baytida tashbeh (sochning tunga, tishning kunga o‘xshatilishi) va tazod (qorong‘u tun – oqargan kun) singari badiiy san’atlar vositasida teran mazmun go‘zal badiiy shaklda tasvirlangan.

Ikki shoir she’riyatida hayot falsafasining teran badiiy talqini borasida ham o‘zaro uyg‘unlik borligi kuzatiladi. Mumtoz adabiyotda, jumladan hazrat Alisher Navoiy asarlarida nafs inson kamoloti yo‘lidagi eng katta g‘ov ekani teran badiiy talqin etilgan. Jumladan, “Badoe’ ul-vasat” devonidagi 288-g‘azal maqta’ida buyuk shoir mana bunday yozgan:

Nafs o‘lsa tobi’ing kishisen, yo‘qsa bo‘lmag‘ung
Hargiz kishi, bo‘lub sanga yuz ming kishi taba’ [Navoiy 1990: 181].

Shoir qarashicha, nafsni bo‘ysundirish – odamiylikning muhim sharti. Aks holda, yuz ming kishini tobe etgan bo‘lsa ham, inson degan nomga munosib bo‘lish imkonsiz. Bu fikrlarning shaxs kamoloti uchun ham, jamiyat ravnaqi uchun ham ahamiyatli ekanini ta’kidlash kerak. Abdulla Oripov g‘azalining quyidagi baytida ham shunga mutanosib falsafiy fikr poetik ifoda etilgan:

Men oddiy kimsaman, lekin
Boqib holingga yig‘larman,
Qul o‘lding nafsinga butkul,
Qolib iymon, ayo banda [Oripov 2019: 577].

Shoir iymon va nafs tushunchalarini zidlash, ya’ni tazod san’ati vositasida fikrning ta’sirli va ifodaning mumtoz she’riyatga xos fasohatli bo‘lishiga erisha olgan. Bu orqali misralar tag matnida nafsga qul bo‘lish odamni odamiylikdan judo qilishiga ishora qilgan. Ikki ulug‘ shoir she’riyatida falsafiy tafakkurning poetik talqinidagi uyg‘unlik Abdulla Oripovning mahorat sirlarini hazrat Alisher Navoiydan o‘rgangani isbotidir.

Xulosa qilib aytganda, hazrat Alisher Navoiy ijodiy an’analari zamonaviy o‘zbek she’riyati taraqqiyoti uchun ham asos-zamin vazifasini o‘tadi. Buyuk mutafakkir badiiy-estetik kashfiyotlari Abdulla Oripov she’riyatida yuksak darajada poetik sintez qilingani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Ushbu ilmiy muammoni yanada kengroq

miqyosda tadqiq qilish, bugungi poetik tafakkur yangilanishining genetik asoslarini aniqlash adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. МАТ. Йигирма томлик. Тўртинчи том. Тошкент: Фан, 1989.
2. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. МАТ, Йигирма томлик. Тўртинчи том. Тошкент: Фан, 1990.
3. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. МАТ. Йигирма томлик. Саккизинчи том. Тошкент: Фан, 1991.
4. Жабборов Нурбой. Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент: G‘афур G‘улом номидаги НМИУ, 2015.
5. Орипов Абдулла. ТА. Тўртинчи жилд. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001.
6. Орипов Абдулла. ТА Тошкент: Sharq, 2019.
7. Ғаниев Илҳом, Афоқова Нодира. Озод руҳ фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2006.

AFG‘ONISTONDA NAVOIYSHUNOSLIK
(Navoiy asarlarining nashr etilishi)

NAVOIYOLOGY IN AFGHANISTAN
(Publication of works of Navoi)

Hussamuddin TUYG‘UN
Juzijon davlat uneversititi
(Afg‘oniston)

Annotatsiya

Ushbu Maqolada Afg‘oniston O‘zbeklari tomonidan navoiy asalarining nashir etilishi va navoiyshunoslik masa’lalari haqida to‘xtalib, nashir bo‘lgan asarlardagi kamchiliklarni ko‘rsatishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, Navoiy, Ro‘yin, nashr, o‘zbek, yangi nasl asarlar, Kobul

Annotation

In this article, we will focus on the publication of Navoi books by the Uzbeks of Afghanistan and issues of Navoi studies, and try to point out the shortcomings in the published books.

Key words: *Afghanistan, Navoi, Royin, edition, Uzbek, new generation books, Kabul*

Turkiston madaniyatining beshiklaridan bo‘lgan hozirgi Afg‘onistonning shimoliy viloyatlarida istiqomat qiluvchi turk – o‘zbek xalqi azal-azaldan o‘z tillarida o‘lmas yodgorliklar yaratganlar. Atoiy, Homid Balxiy, Lutfiy, Hiravi kabi o‘nlab yetuk mumtoz shoirlar ijodining asosiy qismi aynan mana shu hududlarda yaratilganligini hech kim inkor qila olmaydi. Zahriddin Muhammad Bobur hazratlari hayotining katta qismi Afg‘onistonda o‘tgan. Bulardan tashqari, o‘zbek ulug‘ mutafakkiri, buyuk dahosi, amir-ul-kalom mir Nizomiddin Alisher Navoiy hazratlarining hayoti va ijodi, aynan, Afg‘onistonga qarashli Hirotda gullab yashnagan. Bu

bilan o‘zbek tili va adabiyoti dunyo bo‘ylab bo‘y cho‘zdi. Bugungi Afg‘oniston o‘zbeklari bilan O‘zbekiston o‘zbeklari orasidagi azaldan bino bo‘lgan qarindoshlik va tildoshlik munosabatlari asosida aloqalar davom etgan va bugungi kunda ham davom etmoqda. O‘zbek tilining buyuk dahosi Nizomiddin Alisher Navoiy hazratlarining ijodi O‘zbekistonda qanchlik sevilib, ulug‘lanib o‘qilsa, Afg‘onistonda ham shunchalik sevib ardoqlanadi.

Necha yil avval, hozirgi rasmiy maktab va madrasalar bo‘lmagan sharoitlarda xalq Navoiy va Mashrablar bilan savod chiqarganlar. Navoiyni bilmagan va tushunmagan din olimi bo‘lmagan edi, desak ham, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki Qur’on va hadisi sharifdan keyin Navoiy devonlarini o‘qish tolibi ilmlarga qo‘yilgan asosiy shartlardan bo‘lgan. Biroq yaqin o‘tmishga kelib, afg‘on hukumatining o‘zbek tiliga yomon munosabatda bo‘lgani va bu tilni yo‘qotish uchun amalga oshirayotgan siyosiy harakatlari, bizni o‘zligimizdan ancha uzoqlashtirib qo‘ygan edi. Xudoga ming marta shukurki, keyingi yillarda xalqni o‘zligi hamda o‘z tilini sevib va bu haqda bo‘lgan bir qator kurashlar natijasida, o‘zbek tili rasmiy til sifatida tan olinishi o‘zbek tili uchun katta yutuq bo‘ldi desak, yanglishmagan bo‘lamiz. O‘zbek tili ravnaqi uchun ish boshlanarkan bu, shubhasiz, Navoiy hazratlarining asralarini nashr etish va ularni xalqqa tanishtirish bilan amlga oshiriladi. Biz kichik maqolada, Afg‘onistonda navoiyshunoslik bosqichlari hamda, Navoiy hazratlari asarlarining nashr etilishi va mazkur asarlar nashrida yo‘l qo‘yilgan ba’zi kamchiliklar xususida fikr yuritmoqchimiz.

Navoiy asarlariga qiziqish. Afg‘onistonda Navoiy haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar barmoq bilan sanarli desak, mubolag‘a emas. Chunki bizning maktablarda o‘zbek tili hozirgacha o‘tilmaydi. Bu tilga qiziqqanlar uni mustaqil o‘rganishga harakat qiladilar. Bizda keyingi 20 yil jarayonida bir qator davlat bilim yurtlarida o‘zbek tili bo‘limlari ta’sis etilib, bu tilni qiziqib o‘rganadiganlar soni oshib bormoqda. Ana shu uchun bo‘lsa kerak Navoiy asarlarini nashrga berib, bosib chiqarish keyingi yillarda sezilarli darajada yaxshilalanganligiga shohid bo‘lib turibmiz. Navoiy asarlarini xalqqa yetkazish uchun bundan chamasi 40 yil oldin (1981 – 1991-yillar orasi) “Dahayi tahqiqi Navoiy” (Navoiyni o‘rganishga

o‘n yil) deb Afg‘oniston hukumati tomonidan targ‘ib qilingan edi. Bu yillarda Afg‘oniston bilimlar akademiyasi tomonidan “Xamsa” (Toshkent toshbosmasi asosida G‘affor Bayoniy tomonidan), “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, va Barto‘ld ning “Zindagoni siyosi Navoiy” nomli asarlari forschaga tarjima qilinib, xalqqa yetkazish uchun chop qilingan edi. Aynan shu yilda “Makorim ul-axloq” G‘affor Bayoniy tomonidan nashrga berilgan edi.

So‘nggi yigirma yil orasida o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabat yaxshilanarkan, Navoiy asarlari keng ko‘lamda bir qator olimlar tomonidan nashr etilib, uning asadrlariga qiziqish kun sayin oshib bormoqda. Har yili Afg‘oniston markazi Kobul va bir qator o‘zbeklar yashayotgan hududlarda Navoiy hazratlarining tug‘ilgan kuni tantanali tarzda nishonlanadi. Bunday tadbirlarda xalq o‘zgacha qiziqish bilan qatnashadilar. Ilmiy ma’ruzalar qilinadi, she’rlar kuyga solinadi.

Holbuki, bundan 30 yillar oldin xalq Navoiyni butunlay esdan chiqargan edi va bir nasl Navoiy kim ekanligini bilmay yashashga majbur etilgan edi desak, yolg‘on aytmagan bo‘lamiz. Afg‘oniston o‘zbeklari shunaday kunlarga ham guvoh bo‘lganlarki, markazdan tashrif buyurgan hukumat odamlariga “Xush keldingiz” so‘zini o‘zbekcha yozib, mehmonlarni qarshi olgan maktab mudirlaridan biri bir umr yurtidan junubiy viloyatlardan biriga surgun qilinadi.

Keyingi yigirma yil jarayonida Navoiy hazratlarning bir qator asarlari, jumladan, “Muhokamat ul-lug‘atayn” Sayed Tojuddin Toshqin Bahoyi tomonidan (2009-yilda), “G‘aroyib ul-sig‘ar” devoni Nurulla Oltoy tomonidan (2006-yilda), “Boqiy satrlar” Olim Ko‘hkan tomonidan, turkiyalik Yusuf Chetindog‘ning “Alisher Navoiy” asari Muhammad Hasan To‘lqin tomonidan (2016-yilda) lotin alifbosidan arab alifbosiga o‘girilib nashir etildi. Shular qatorida doktor Sayed Muhammad Olim Labibning yetti ilmiy maqolani o‘z ichiga olgan “Sayri dar simohoyi Navoiy” (Navoiy obrazlariga sayohat) nomli to‘plam (2011-yili) hamda Rahim Ibrohimning “Navoiy siyosat mador peshgom dar difo az huquqi bashar” (Navoiy insoniyat manfaatlarini himoya qiluvchi ilg‘or siyosatchi) (2012-yili) nomli asarlarning nashr etilishi navoiyshunoslikka bo‘lgan qiziqishlarni oshirib yubordi, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Mazkur shaxslarning qilgan ishlari va asarlari imkon qadar xatoliklardan xoli bo‘lib,

juda sinchkovlik bilan O‘zbekistonda nashr bo‘lgan eng ishonchli olimlar asarlari asosida yaratilganlar. Yuqorida ismlari zikir etilgan navoiyshunos olimlar, jumladan, Olim Labib, Toshqin Bahoyi, Rahim Ibrohim, Ishonch To‘ra, Nurulla Oltoylar kabilar Navoiy hazratlari haqida muntazam shaklda ilmiy maqolalarni gazetalarda nashr qilib kelganlar.

Aynan amir Nizomiddin Alisher Navoiy hazratlarining asarlarini to‘liq shaklda nashr qilishga muvaffaq bo‘lgan afg‘onistonlik o‘zbeklardan Abdulla Ro‘yin janoblari hisoblanadilar. Bu asarlar to‘liq nashr etilib, xalqqa yetgazilishi, biz uchun bobomiz merosiga ega chiqishda katta yutuq bo‘lishi bilan birga, unda ayrim xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligi, ushbu nashr ahamiyatini, nihoyatda kamaytirib qo‘ygan. Bu maqolaning asosiy qismi ana shu kishining qilgan ishlari haqidadir. Chunki bu kishi mening shaxsiy nazarimda, qilgan buyuk savob ishlari yonida katta kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yganlar. Bu kamchiliklarning hammasi bu maqolada sig‘maganligi uchun qisqa suratda eng mashhur va har saviyadagi o‘quvchi biladigan xatoliklar haqida to‘xtalib o‘taman.

Ro‘yin janoblarining birinchi ishi “Majolis ul-nafois” bilan boshlanadi. Bu asar milodiy 2008-yilda nashr bo‘lgan. Asarning katta kamchiliklaridan biri bu Afg‘oniston o‘zbeklari amalda qo‘llab keladigan arab-o‘zbek alifbosida yangidan yaratilgan alifbo hisoblanadi. Afg‘oniston o‘zbeklari arab alifbosida bo‘lmagan ikkita “o‘, e” unlilari o‘rnida ikkita “ۇ ،ې” harflarini 2005-yildan beri qo‘llab kelmoqdalar. Ro‘yin janoblari “Majolis un-nafois” asrining boshidan so‘ngiga qadar bu tovushlarni qo‘llamagan. Bu tovushlarni qo‘llamaslik, biz uchun katta qiyinchilik tug‘dirishi aniq. Qiyoslab ko‘ring:

Misol uchun:



Lotincha alifboda o‘qib ko‘ramiz: “Muning ustida ham suzlar aytildi, manzilig‘a borib tuhfa va tabaruk va sugo‘t yusuni bila yubordi va to anda irdi, doyim kilur irdi, shayx bila oshunolig‘ taqribi bu nav’ voqi’ buldi. Shayx Makkadin kelgandin so‘ngra Turbatda favt bo‘ldi va qabri ham andadur” [Alisher Navoi.1387: 51].

Ana shunaqa qilib kitobning bosh so‘zidan tutib, adog‘igacha “o‘” bilan “e” hammasi “u” bilan “i” shaklida berilgan. Demak, bu asarlarni o‘qigan har bir shaxs o‘zbek tilida 4 ta unli tovsush bor deb o‘ylaydi.

Na yolg‘iz bu asarda, balki barcha asarlarda mazkur kamchilikni bartaraf qilmaganlar. Bunga o‘xshgan kamchiliklar har bir asarda to‘lib-toshib yotgan, so‘zimiz isboti uchun bu yerda “Muhokamat ul-lug‘atayn”dan rasm keltiramiz:



Bilamizki, har bir asarni o‘quvchi uning muqovasidan nimaligini bilishi kerak. Ro‘yin janoblari bitta muqovada Navoiy hazratlarining “Nazm ul-javohir”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon” asarlarini to‘plam shaklida sig‘dirib, nashr qilgan. Kitob yuzida faqatgina “Navoiy asarlaridan, amir Nizomiddin Alisher Navoiy, 13 - 16 lug‘atnoma (2)” shaklida yozilgandir, xolos. O‘quvchi kitobni ochib mundarijalariga boqmay turib, qaysi asarlar ekanligini hargiz bilishi mumkin emas.







Bu kamchiliklardan tashqari, yozish va imloga ham unchalik e’tibor berilm agani shundayligicha ayon. Ko‘plik qo‘shimchasi -lar va boshqa barcha qo‘shimchalar asos so‘zlardan ayri shaklda yozilgan. Misol uchun


نوایی اثر لریدن — نسایم المحبت من شمایم الفتوت

خلق سنگه محتاج بولغی لر، موندغ بولغندین سونگره لا جرم سین غنی و پادشاه بولغی سین و دنیا ده موندغ بولغان آخرت ده هم پادشاه دور.

۷ - عبدالله مبارک قدس الله تعالی سره:

انی علما نینگ شهنشاهی دیر ایرمیش لر، وجود شجاعت ده زمان نینگ یگانه سی ایرمیش. و طریقت اصحابی نینگ محتشمی. و بو قوم نینگ مشایخی نینگ کوپی نینگ صحبتی غه مشرف بولوبدور. و مشهور تصانیفی بار.

بیر کون اول کیلور ایردی. سفیان ثوری و فضیل عیاض قدس سره حاضر ایردی لر. سفیان دیدی: کیل، ای مشرق اهلی ده ایرا فضیل دیدی: و مغرب اهلی ده و ایکی سی نینگ آره سیده.

انینگ توبه سی نینگ ابتداسی بو ایردی که، بیر کنیزک عشقی غه گرفتار بولدی. بیر قیش کیچه تانگ آتقونچه معشوق دیواری تویده تورووب ایردی و اوستیگه قار یاغه دور ایردی و اول خبر سیز. سحر نمازین آیتور ده اول خفتن ساغیندی. کوندوز بولغاتدین سونگره اول حالغه واقف بولدی، اوزیگه دیدی که، ای مبارک نینگ، تا مبارک اوغلی، اویات سنگه بو اوقاتینگ دین که، اگر امام نماز ده بیر سوره نی اوزون راق قرائت قیلسه، تاریقیب، تیله زرسین و مونونگ دیک کیچه نفسینگ هواسیغه تانگ آتقونچه موندغ عذاب تارتررسن که، صمویتی دین خبرینگ یوقتور. کونگلی بو درد دین بو زولدی و باری ایشی دین توبه قیلدی و سلوک که مشغول بولدی. ایشی اول بیرگه پیتی که، مکه دین مدینه غه دیگینچه محافه سین اشراف ایگین لریغه کوتریب ایلتور لر ایردی.

نزع حالتی ده هر نی بار و یوقین درویش لر گه اوله شیب ایردی. مرید لریدین بیری دیدی که، ای شیخ، اوچ قیزینگ قالدی لر و هیچ نیمه قالمه دی. الر فکریتی نی قیلدینگ؟ دیدی که، مین الر حدیثین دیب مین: وهو یتولی الصالحین (الاعراف سوره سی ۱۹۶ - آیت). [او صالح بنده لرگه یار بولور]. صلاح اهلی کارسازی اول دور. هر کیم که، انینگ کارسازی اول بولسه، بخشی راق که، عبدالله مبارک بولغی. و بارور زمانده کوز آچیب، کولوب آیتور ایردی: [عمل قیلوچی لر منه شوندی منگو بخت - سعادت اوچون عمل قیلسین لر]° و

۱۷

Shuningdek, imlo xatolari ham ko‘p uchraydi. Qiyoslab ko‘ramiz: ***ko‘ngil - kungl, so‘rdum- surdun, bermas - birmas, bo‘lg‘on – bulg‘on, ko‘k – kuk, o‘zin – uzun, o‘lturub – ulturub, ko‘z – kuz, bo‘lmay – bulmay, el – il, kelib- kilib, ermas – irmas, deb – dib, bo‘lsa – bulsa, mening – mining, yo‘q – yuq, ko‘rdum – kurdum,***

bo‘lur erdi – bulur irdi, dek- dik, keldi – kildi, bo‘lub – bulub, erdi – irdi, biti gay, ruq’a g‘a muqobila da, alfozi ning, kiltur gan kabi yuzlab hal qilishi sodda bo‘lgan xatoliklar oldini olish uchun hech qanday harakat bo‘lmagan shekilli. Kichik harakat bo‘lgan taqdirda, bu kabi xatoliklarga yo‘l qo‘yilmasligi mumkin edi.

Buncha xatoliklar bilan nashr bo‘lgan asarlar uchun shuncha mablag‘lar havoga ketganligiga har bir o‘quvchi qayg‘ulanishi ko‘rinib turgan gap. Ro‘yin janoblari hech shoshmasdan qunt bilan ish qilganliklarida edi, biz Afg‘onistonda Navoiy asarlari to‘liq shaklda nashr bo‘lganligini bayram qilsak ham bo‘lardi va shubhasiz, bayram ham tutilardi. Afsuski shunchalik ezgu ish puchga chiqib qolgan.

Afg‘onistonda navoiyshunoslik va Navoiy asarlari bilan qiziqish endigina kurtak otib kelmoqda. Yangi tizim kelishi va demokratiya shabadalari esishi bilan o‘zbek tili va adabiyoti yelkasiga shamol tegdi. Xudoga shukur, 7 bilim yurtda (uneversitit)da o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limlari mavjud. Mazkur bo‘limlardan har yili yuzlab kishi o‘zbek tilini o‘rganib chiqadi. Bu bilan Navoiy asarlariga qiziqish va Navoiyni sevib o‘qish kun sayin jonlanib bormoqda.

Shuningdek, biz yuqorida eslab o‘tgan asarlar nashr bo‘lishi bilan, bir qator yoshlarning bilimi oshib borishi ko‘rinib turgan gap. Biz, Xudo xohlasa, kelajakda Navoiy asarlarini yangidan to‘g‘irlab, kamchiliklarini yo‘qotib ularni yangi avlod ixtiyoriga qo‘ygan taqdirda, Navoiy bosib o‘tgan ko‘chalardan minglab yetuk navoiyshunoslar chiqishiga ishonchimiz komil.

Peshnihod o‘rnida. Bizga bu xususda katta yordam beradigan yagona o‘lka – bu buyuk O‘zbekiston o‘lkasi hisoblanadi. O‘zbekistondagi buyuk navoiyshunos olimlarining asarlarini arab alifbosida chop qilish yonida Navoiy asarlarini to‘liq shaklda chop qilish uchun bizga hozir va kelajakda yagona tayanch tog‘imiz ham mana shu jannatmakon O‘zbekiston o‘lkasi hisoblanadi. Hech bo‘lmaganda bizga yangi nasldan navoiyshunoslar tarbiyalab berishlarini kutub qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Nizomiddin Alisher. G‘aroyib-ul-sig‘ar. Nashrga tayyorlovchi: Nurullo Oltoy, Shibirg‘on, Afg‘oniston: (1385.h.sh.)

2. Navoiy Nizomiddin Alisher. Muhokamat ul-lug‘atayn. Nashrga tayyorlovchi: Toshqin BahoyiKobul, Afg‘oniston: . (1388.h.sh.)

3. Navoiy Nizomiddin Alisher. Navoiy asarlaridan, Abdullo Ro‘yin ihtimomi bilan. Mazorisharif, Afg‘oniston: (1388.h.sh.)

4. Navoiy Nizomiddin Alisher. Nasoyim ul-muhabbat. Abdullo Ro‘yin ihtimomi bilan. Mazorisharif. Afg‘oniston: (1391.h.sh.)

5. Navoiy Nizomiddin Alisher. Majolis ul-nafois. Abdullo Ro‘yin ihtimomi bilan. Mazorisharif, Afg‘oniston: (1387.h.sh.)

6. Yusuf Chetindog. Alisher Navoiy. Tarjimon: Alimardon Hayit. Alifbo o‘giruvchisi: Muhammad Hasan To‘lqin. Kobul, Afg‘oniston: (1395.h.sh.)

7. Labib Sayed Muhammadolim. Sayridar simohoyi Navoiy. Kobul. Afg‘oniston: 2011

8. Ibrohim, Rahim. Navoiy siyosat mador peshgom dar difo az huquqi bashar. Kobul, Afg‘oniston: (1390.h.sh.)

LAYLINING ZOHIRIY VA BOTINIY OLAMIGA BIR NAZAR

A LOOK AT THE OUTSIDE AND INSIDE WORLD OF LAYLI

Yulduz ABDULHAKIMOVA
ToshDO‘TAU
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonining bosh qahramoni Layli obrazi tahlil qilingan hamda ijodkorlarning badiiy mahorati qiyoslangan.

Kalit so‘z: *doston, xarakter, character adabiyot, mubolag‘a, so‘zlar.*

Annotation

The article provides a comporative analysis of the image of Layli, the protagonist of the epics “Layli and Majnun” by Alisher Navoi and Muhammad Fuzuli, and compares the artistic skills of the creators.

Key words: *poems, literature, words, mubolagha.*

O‘zining rang-barangligi, tasvirlarni badiiy jihatdan sayqallab, go‘zal tarzda ifoda etishi bilan ajralib turadigan Alisher Navoiy ijodida, xususan buyuk adibning “Layli va Majnun” dostonida portret va xarakter epik tasvirni ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Ijodkorning tasvir uslubi o‘ziga xos. Shoir mazkur dostonida portret va xarakterni shunday yoritib berganki, asar qahramonlari o‘quvchi tasavvurida o‘zining individual xususiyatlari bilan yaqqol namoyon bo‘ladi. Biz esa tahlilimiz davomida Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy “Layli va Majnun” dostonining asosiy qahramoni Layli obrazining ba’zi bir qiyoslarini keltirmoqchimiz. Masalan, Alisher Navoiy o‘z asarlarida ayol qahramonlarning zohiriy va botiniy go‘zalligini shu

qadar yuksak badiiy did va mahorat bilan tasvirlaydiki, shoir asarlari bilan tanishgan o‘quvchi buni chuqur idrok etadi. Ikki dostonda ham mualliflarning Layli portretiga bergan ta’rifini ko‘rib chiqamiz.

Hazrat Navoiy “Layli va Majnun” dostonining XI bobida Layli portretini yorqin tuyg‘ular va samimiy chizgilar orqali quyidagicha ifoda etadi:

Mujgon safining qaro balosi,
Ko‘zlar uza soyaning qarosi.
Yo‘q soyaki, to‘rt saf chekib zang,
Majmui libosi surmairang.
Ochquncha yumub ko‘z ul sipahtiz,
Bir biriga tegib qilurg‘a xunrez.
Dema bu sipahni haylu hindu,

Chin dashti kiyiklariga mundu. [Navoiy2006.] Ya’ni saflanib turgan kipriklari qora balodek, balki ko‘zlari uzra qora soyadek, soyadek ham emas balki surmarang libos kiygan lashkarlarning saf tortib turishidir. Ul pari ko‘zlarini har ochib yumganda bu lashkarlar qon to‘kmoq uchun bir birlariga tashlanadilar. Yo‘q ular hind lashkarlari emas. Chin dashtining ohulariga qo‘yilgan qopqondir. Muhammad Fuzuliy esa, Layli husni ta’rifini quyidagicha keltiradi:

Abrusi hami baloyi ushshoq,
Ham juft latofat ichra, ham toq.
Har kiprigi bir xadanggi xunrez,
Paykoni xadanggi g‘amzai tez. [Фузулий 1968].

Ya’ni uning kamon qoshlari oshiqlar uchun balodir. Uning har bir kiprigi qon to‘kuvchi kamon o‘qlaridek. Har boqishda u kamon o‘qlari paykonidan shiddat ila uziladi. Laylining otasi qizini nihoyatda sevganidan, uning kamolotga erishishini istaganidan o‘z qabilasida Layliga maktab ochib berdi. U maktabga Qays ham keldi. Ammo u vaqtda Layli betob bo‘lib yotgan bo‘ladi. Ma’lumki, betoblikda kishi husnida o‘zgarishlar bo‘ladi. Bu o‘rinda hazrat Navoiy Layli husniga quyidagicha ta’rif beradi.

Layli demay, ul buti parizod,
Bir oriza birla erdi noshod.
Tab’ida quyosh kibi harorat,
Ayshiga solib erdi marorat.

Layli demay, ul oy yuzli parizod jismiga quyosh kabi harorat aziyat berib, guldek taniga xastalik chang soldi. Shu sabab, uning oppoq yuzi qizil guldek tovlanadi. Uning jismidan oqqan ter ter emas, balki gulobdir. Shu sabab, ul oy yotgan xona gulobxonaga aylangan. Layli obrazini adabiyotshunos olim Aziz Qayumov quyidagicha tahlil etadi: “Laylining xush isli, oq va sarg‘ish tusli gul (jasmin) singari jismini isitma otashi gulgao‘xshatib qo‘ygan. Bu guldan taralgan ter qiz yotgan uyni gulobxonaga aylantirgan. Isitmao‘ti bu nafis pardalargao‘ralgan g‘unchadan zarra – zarratob paydo etmoqda. Mijozida harorat kamaygudek bo‘lsa, titratma kuchayadi. Oq terak tong shamolida silkinganidek qizning shamshod qomati bu titroqda qaltiraydi” [Қаюмов, 2008.]

Fuzuliy Laylining peshonasidan oqqan terni Chin daryosiga mengzaydi:

Daryoyi balo jabini poki,
Chin junbushi mavji sahmnoki.
Chashmi siyaxina surmadanor,
Hindusina surma ham giriftor.

Sanamning peshonasidan oqqan ter, Chin daryosi mavjlangani kabi dahshatlidir. Ko‘zlariga surma tortilgan. Ammo surma ham uning qaro xoliga asir bo‘lgan. Natan Mallaev o‘zining “So‘z san’atining gultoji” kitobida Laylining portretin quyidagicha tasvirlaydi: “Layli tashqi qiyofasi bilan ham, ma’naviy dunyosi va xulq atvori bilan ham nihoyatda go‘zal qiz. U g‘ayrat bilan o‘qiydi, bilim oladi, fazilatiga fazilat qo‘shilib boradi. Layli fazilatlari bilan muhiti saviyasidan yuqori ko‘tariladi. Sevgi uning ma’naviy dunyosini yanada boyitadi, to‘ldiradi” [Маллаев, 1991.]

La’lida yig‘ib zaxirai jon,
Og‘zi suyi anda shirai jon.
Jon topibon ulki o‘psa oni,
Mundin debon obi zindagoni.
Ham jon kelib ikki la’li maygun,
Ham tavqi zaqan kelib anga nun.

Ul parining lablari hayot berguvchidir. Yo‘q faqat hayot berguvchigina emas, ham jondan ayirib ham jon baxsh etguvchidir. Og‘zining suvi jon shirasi bo‘lib, undan kishi hayot topadi. Shu sababli u obihayotdir. Ikki qizil labi shu jon suvlarini quyib berguvchi qadah bo‘lsa, iyak ostidagi baqbaqalari “Jon” so‘zining

“nun” harfidir. Muhammad Fuzuliy:

Ruxsorina rangi g‘ozadan nang,
Hargiz anga g‘oza vermamish rang.
Ko‘z mardumagindano‘lsa holi,
Ko‘z mardmagi o‘lurdi holi.
La’lu duru go‘starardi har dam,
Avroqi gul ichra iqdi shabnam.

Uning uyatdan qizargan yuzi xuddi upa elik surgandek. Gulbarglari ichida shabnam marvarid donalari kabi sochilganidek, uning lablaridan ham shunday durlar sochiladi. Laylining go‘zalligi ko‘rgan ko‘zni qamashtiradi, dilni yayratadi. Boisi, uning yaratilishi ishq, asli ishqdir. Alisher Navoiy Laylining nafaqat jismi balki ismi ham nihoyatda go‘zal ekanligini ta’kidlaydi:

Yo‘q ikki sochi tuniga g‘oyat,
Ya’ni iki layli benihoyat.
Andin bo‘lib oti jilvaoroy,
Andoqki Barotu qadr aro oy.

Uning sochlari shu qadar uzun va qoraki, xuddi intihosiz qora tunga o‘xshaydi. Bu shunday tunki, (barot) qadr kechasidek qadrli va qutlug‘ tundir. “Barot u qadr (qadr ramazon oyi ichida bo‘lib, “Laylat ul qadr” [qadr kechasi] deb ataladi.) Bu ham barotga o‘xshash qutlug‘ tun hisoblanadi. Oylarning ikki qutlug‘ kunidir.” Kimki uning ismini aytishni istasa, Laylidan o‘zga so‘z deya olmasdi. Navoiy bu pok qalbli qizning ismi Layli ekanligini uning qora va uzun sochlari orqali ishora etadi. Layli husni bilan birga uning ma’naviy dunyosi ham naqadar go‘zal, bokira va sof vujud ekanligini anglaymiz:

Hazrat Navoiy Layli portretini chizishda har bir detalga alohida e’tibor qaratadi:

Aylab yuz o‘tin yoqarg‘a ta’jil,
Gugurt o‘ti yuzda har taraf nil.
O‘tdin gul ochib bu gulistong‘a,
Ul gul bila o‘t solib jahong‘a.
Ul la’l o‘tidin jahong‘a kuymak,
Yo‘q, yo‘q, ne jahonki, jong‘a kuymak.
O‘tlug‘ iki ko‘zi surmaolud
Ul o‘tg‘a dag‘i bu surmadin dud.

Ya’ni: har tomonga nildek tortilgan qora qoshlari yuzining o‘tini yoqmoqqa shay. Natijada, uning chehrasi gulistonida ochilgan olovrang gullar nafaqat jahonga balki, jonga o‘t soladi. Uning ikki ko‘zi surma yuqi. Yo‘q, surma yuqi ham emas balki, yuzidan taralgano‘tning tutunidir.

Fuzuliyda ham Laylining pok qalbi, shirinsuxan takallufini quyidagicha tasvir etadi:

La’lu duru go‘starardi har dam,

Avroqi gul ichra iqdi shabnam.

Gul barglari ichida shabnam, marvarid donalari kabi sochilganidek, uning lablaridan ham shunday durlar sochiladi.

Abvobi takallum etsa maftuh,

Amvoja verardi mujdai ruh.

U kitob o‘qisa uning so‘zlaridan hatto o‘liklarga jon kiradi. Bir so‘z bilan aytganda, Hazrat Alisher Navoiy ham, Muhammad Fuzuliy ham Layli portretini ifoda etishda nihoyatda go‘zal va yorqin tasvirlardan foydalanadi. Ikkala dostonda ham qahramonlarning nafaqat zoxiriy, balki botiniy go‘zalligi yetuk mahorat bilan tasvirlanadi. Layli tasvirida ilohiy mazharga xos sifatlar yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – T.: G‘afur G‘ulom, 2006.
2. Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. – Т.: G‘afur G‘ulom, 1968.
3. Маллаев Н. Сўз санъатининг гултожи. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.
4. Қаюмов А. Лайли ва Мажнун. – Асарлар. 1– жилд, 2–китоб. – Т.: Mumtoz so‘z, 2008.
5. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Т.: Mumtoz so‘z, 2011.
6. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013.
7. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
8. Навоий асарлари луғати. – Т., 1972.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING NAVOIYONA IFODASI

THE DESCRIPTION OF THE NATIONAL SPIRIT IN ERKIN VOHIDOV'S POETRY AS IN POEMS OF NAVOI

Halima YULDASHEVA
Qo'qon davlat pedagogika instituti
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy she'riyatidagi milliy ruh ifodasi Erkin Vohidov ijodida o'ziga xos tarzda davom ettirilgani masalasi tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *she'riyat, g'azal, milliy ruh, obraz, timsol, tasvir, talqin, poetik xulosa.*

Annotation

This article analyzed that the issue of the national spirit in the poems of Alisher Navoi is uniquely preserved in the poetry of Erkin Vahidov.

Key words: *poetry, ghazal, national spirit, image, emblem, portrayal, interpretation, poetic conclusion*

Milliy she'riyatimiz samosining quyoshi hazrat Alisher Navoiy g'azallariga ko'plab tatabbu – o'xshatmalar, naziralar, muxammaslar bog'langan. "Hazrat Navoiy – she'r ahlining tan olingan jahongiri. Ulug' mutafakkir, o'z ta'biri bilan aytganda, Xitodin to Xurosongacha, undan Sheroz-u Tabrizgacha bo'lgan hududni cherik chekmay turib, taxti farmoniga olgan, bo'ysundirgan. Buyuk shoirning fasohat va balog'atda tengsiz so'ziga nainki turk, hatto turkmon ham jonu ko'nglini bergan". Buyuk mutafakkirning nazmiy an'analari zamonaviy adabiyotimizda ham munosib davom ettirildi. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov g'azallari navoiyona an'ana munosib davom ettirilgani bilan alohida ahamiyatga ega. G'azalnavislikda ustoz shoir "panjasiga panja urmoq" (Navoiy), ul

zotga shogirdlik maqomini da’vo qilmoq oson emasligi ayon. Buning uchun teran bilim va zakodan tashqari, yuksak ijodiy salohiyat, ijod zahmatidan lazzat ola bilish tuyg‘usi ham zarur. *“Yosh deng-u ma’zur tuting sahv o‘lsa gar devonida…”,* deya o‘zini xokisor tutib, g‘azal bo‘stoniga kirgan shoir Erkin Vohidovning “Yoshlik” devoniga kiritilgan g‘azallarida ayni shu fazilatlar mujassam ekani sir emas.

Mana bu baytida buyuk “Xamsa”ning afsonaviy qahramonlari vositasida navoiyona ruh poetik ifodalanganini sezish qiyin emas:

Sevgi sahrosida qolmish necha Majnundan g‘ubor,
Necha Farhod gardi yotgay Bestunning tog‘ida.

Yoki

Tirilsa nogahon Farhod, yuzungni ko‘rsa ko‘zguda,
Kechib Shirinidan yuz yil, ko‘yingda darbadar bo‘lg‘ay.

Hazrat Navoiyning: *“Aylagin jondin judo, etguncha jonondin judo”,* tarzidagi shoh satridan ta’sirlangan Erkin Vohidov mana bu baytda hayot falsafasini teran ifodalaydi:

Men bo‘lay jondin judo, bo‘lguncha jonondin judo,
Ne kerak jon ezsa jonim bir umr armon yuki.

Baytda aruzning turkiy she’riyatda faol qo‘llangan vaznlaridan biri - ramali musaddasi mahzufda ko‘hna mavzu bo‘lgan jon va jonon talqini yangilangani kuzatiladi. Zamondosh shoir Navoiyning so‘z mulkiga yillar, asrlar changi daxl qilolmasligini isbot etib, o‘zining ulug‘ shoirga munosib izdosh ekanligini ko‘rsata olgan.

Erkin Vohidov hazrat Alisher Navoiyning she’riyatdagi munosib izdoshlaridandir. Buyuk salafining:

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglim pisand etmas –

baytiga falsafiy mazmunning poetik ifodasi jihatidan munosib satrlarni bita olgani shoirning Navoiy san’atxonasidan olgan saboqlari natijasi sifatida baholanmog‘i zarur:

Men sevarman jondan ortiq, sevganim suymas, netay?
Ham sevib, men sevmagan o‘z holima qo‘ymas, netay?

Ikki shoir g‘azallaridagi bunday mutanosiblik bejiz emas. Mazkur baytlardagi uyg‘unlikning asosi mumtoz she’riyatdagi oshiq, ma’shuqa va raqib obrazlari uchligining betakror talqini bilan

bog‘liq. Ushbu holat, bundan tashqari, XV asr turkiy she’riyatida tasvirlangan lirik kechinma XX – XXI asr o‘zbek adabiyotida ham uzviy davom etganiga yorqin bir misoldir. Navoiy g‘azali hazaji musammani solimda, Erkin Vohidov she’ri esa ramali musammani mahzufda bitilgan bo‘lsa ham, har ikki muallif ijodiy niyatidagi, baytlar mazmunidagi uyg‘unlik e’tiborga sazovordir. Bu hol ijodiy ta’sirning poetikaning biror unsuriga, jumladan vaznga ko‘p ham bog‘liq bo‘lmasligi mumkinligini ko‘rsatadi. Ishq va dard, mahzun kayfiyat va lirik kechinma mutanosibligi bu ikki g‘azalni bir-biriga yaqinlashtiradi.

“G‘azal sehri” deb nomlangan turkum maqolalarida shoir Erkin Vohidov “Erksizlik shunday alamli holatki, agar yuz yil o‘z erking bilan yashasang, bir lahza ixtiyorsizlik bu yuz yillik baxtdan nishon qoldirmaydi. Erksizlikning bir daqiqasi ham og‘ir ko‘rgilik ekan. Umrga tatigulik qayg‘u ekan”, deb yozgan edi. Alisher Navoiyning vatanparvarlik g‘oyasi ilgari surilgan mashhur ruboiysida “oltun qafasdagi qizil gulning bulbul uchun tikanchalik qadri yo‘qligi va unga oshyon bo‘lolmasligi” alamli iztirobga sabab bo‘lsa, Erkin Vohidovning

Naqshin qafas ichida bulbul tarona qilmas –

misrasida ana shu falsafiy mohiyat va poetik xulosa davom ettiriladi. “Oltin qafas” va “naqshin qafas” sifatlovchi-sifatlanmish munosabatlari ulug‘ iste’dodlar yashagan davr o‘rtasidagi masofa nechog‘liq uzoq bo‘lmasin, ular qalbidagi dardning o‘zaro uyg‘unligiga xalaqit bera olmasligiga dalil bo‘la oladi.

Erkin Vohidov milliy ruh tushunchasini singdirishda mumtoz she’riyatimizning yetakchi tizimi bo‘lgan aruzdan mohirona foydalandi va g‘azal janrida barakali ijod qildi. “Ulug‘ Navoiyning har biri bir jahon ma’no, bir olam his-tuyg‘u ifoda qilg‘uvchi baytlarini takror-takror o‘qib, har safar ko‘nglimiz surur va hayajon bilan to‘ladi, har safar bu buyuk olmos satrlarning yangi qirralarini kashf qilamiz, yangi-yangi ma’no tovlanishlarini ko‘rib hayratlanamiz”, deb yozadi shoir. Ana shunday hayratlar mahsuli o‘laroq yaratilgan qator durdonalar safida “Aylagach” radifli g‘azalga bog‘langan muxammas ham bor. Erkin Vohidov g‘azal janrida Navoiy ohanglarida mos pardalarni topa oldi va ustoz

shoirning fikrlariga hamohang misralar yaratishga erishdi. Erkin Vohidov g‘azalning vaznini va mazmunini to‘liq saqlagan holda mazmunga mos timsollar tanlaydi. G‘azalning birinchi bandidagi “yuz”, “zulf, “tor” lirik timsollari bilan muxammasning “gulshan“, ”g‘uncha”, “bulbul”, “oy”, “shabiston” timsollari mazmuniy birlik hosil qilib, tanosub san’atining mukammal namunasini yuzaga keltiradi:

Ko‘z ochar gulshanda g‘uncha, bulbul afg‘on aylagach,
Nega afg‘on aylay, ul gul yuzni tobon aylagach,
Misli oykim, ko‘rk ochur sayri shabiston aylagach,
Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,
Sham ravshanroq bo‘lur torin parishon aylagach.

G‘azalning 2-baytidagi

Yuzni gullardan bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach”

istioralar muxammas shaklida yanada mukammallik kasb etadi va hayot timsoli “qon” va “xino” poetik detallari uyg‘unligida o‘quvchi tasavvurini boyitadi:

Nega ul kun sochlaringni anbarafshon aylading?
Ro‘zgorim tiyra, ko‘zim kavkabiston aylading?
*Qo‘lga qo‘ygachmu **xino**lar yo dilim **qon** aylading*
Yuzni gullardan bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach”.

Yoki 4-banddagi

O‘lturur mahramni sulton, ganj pinhon aylagach –

misrali baytga bog‘langan uchlikda Erkin Vohidov g‘azalning nozik ma’nolarini, qochirimlarini chuqur anglab, “uzukka san’atkorona ko‘z qo‘ygan”ligini anglashimiz mumkin:

Men-ku sodiq mahram erdim: og‘zi mahkam, ko‘ngli pok,
Ishq sirin etmasdim oshkor bo‘lgunimcha toki xok,
Shafqat istab nola qildim, ont ichib yoqamni chok,
Jonda qo‘yg‘och naqdi ishqin qildi ko‘nglimni halok,
O‘lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Muxammasning so‘nggi bandidagi “**ishq zaxmi** bitmagan”i (Erkin Vohidov) hamda “Bas, nedinkim, **qon kelur** og‘zingdin afg‘on aylagach” (Navoiy) badiiy ifodasidagi mantiqiy izchillikka

asoslangan fikriy tugallik tasodifiy emas, balki ustoz maqsadini to‘g‘ri anglagan oqil shogird fasohatidan darak beradi.

Shoir she’riy devonlarida soch va parvona obrazlari alohida ajralib turadi. Ijodkor g‘azallari diqqat bilan mutolaa etilsa, ushbu ikki obraz g‘azalning badiiy qimmatini oshirishga, sharqona ruhni betakror tashbehlar bilan ifodalashga xizmat qilayotgani anglashiladi. **Soch** – mumtoz adabiyotimizda eng faol ishlatiladigan obraz. *“Sochingni boshdin oyoq chin ila shikan qilg‘il”, “belicha yo‘q tori gisuyi”, “ayoqingga tushar har lahza gisu”, “zulfi dominmu deyin, la’li kalominmu deyin”, “sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana”* kabi quyma misralar bu obrazning mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni naqadar mustahkam ekanini ko‘rsatadi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, soch – tasavvuf adabiyotida o‘ziga xos ramziy ma’noga ega timsollardan. Bu timsol tasavvufiy atama sifatida Allohning sirlariga yetishga bir ishora hisoblanadi. Erkin Vohidov mumtoz adabiyotni chuqur bilgan shoir sifatida buni inkor qilmaydi hamda bu timsolni Ollohning go‘zal yaratig‘i bo‘lgan bashar farzandiga nisbatan qo‘llaydi. Zero, ilohiy ishqqa olib boruvchi haq yo‘l – majoziy ishq, ya’ni yaralmishga bo‘lgan ishq orqali o‘tadi. Bu teran falsafani anglash borasida shoir e’tirof etadiki, “she’riyatda til va tarixiy xotira mujassam bo‘ladi. Navoiy zamonida har bir ilmli insonga ma’lum bo‘lgan Qur’on suralari, hadis so‘zlari, ma’lum va mashhur rivoyatlar, payg‘ambarlar qissalari, tasavvuf asoslarini bizlar o‘rganmaganmiz va Navoiy tilini lug‘atga qarab tushunsak-da, mazmun-mohiyatini, nozik san’atini anglashimiz mushkuldur. Mumtoz she’riyatni anglash mustaqil mamlakatimizda boshlangan qadriyatlarni tiklashdek ulkan, keng ko‘lamli ishning bir qismidir”.

Shoirning ”Saylanma”sidan o‘rin olgan qator she’rlarda “soch” timsoli ijodkor badiiy-estetik tafakkurining betakror namunalari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu satrlarda Erkin Vohidov buyuk salaflari nazmiy an’analarini munosib davom ettirish barobarida “soch” timsolini poetik jihatdan yangilashga harakat qiladi. Ahamiyatli jihati, buni uddalashga muvaffaq bo‘ladi. “*Bulutning orasidan quyosh kulib qaraydi, Majnuntolning yuvilgan sochlarini taraydi” (“Manzara”), “Sado deydi sochlarin yoyib...” (“Qubbon*

ko‘liga”), “Ro‘zgoring qora qilmay zulfini ko‘ksingga bos...” (“Uyquda topsang nigoring”), “Va tog‘larni taroq aylab, sochi zarrin taroqlabdur...”(“Tong g‘azali”), “Kipriklarimni tig‘ deb sochiga shona qilmas” (“Bahona qilmas”) kabi.

Mumtoz she’riyatimiz turkona ifodalarga boy. Ko‘p qo‘llanadigan timsollardan yana biri – parvona obrazi haqida ayni fikrni davom ettirib aytish mumkinki, shoir ruhiyatidagi kechinmalar parvona timsolida o‘zining bo‘y-bastini yanada yorqinroq aks ettiradi.

Uchrashuvga oshiqadi dugonang
Qalb orziqib yor oldiga shoshadi.
*Qaylardadir kutar seni **parvona**ng*
U, albatta, seni izlab topadi.
(“Uchrashuvga oshiqadi”)
*Boshi uzra bo‘lay **parvona** (“Kichik oy so‘zi”)*
Munajjim tasbehidan to‘kilgan donalardek
Osmon uzra sochilib yarqiraydi yulduzlar.
*Oy shami tegrasida uchgan **parvona**lardek*
To sahar javlon urib parpiraydi yulduzlar.
(“Samarqand kechasi”)
Oy fonusin ko‘tardi asta
*Yulduzchalar bo‘ldi **parvona…***
Asriy hayot kerakmas menga
Ishq zavqiga qonib yashasam.
***Parvona**ning umri bas menga*
Faqat yonib-yonib yashasam. (“Kosmonavt va shoir”)
Quyosh atrofida parvonasan, yer,
*Sening tegrangda men **parvona**dirman.*
(”Zamin va fazogir”)
*Ne uchun sham otashida o‘rtagay **parvona**ni.*
(Navoiy g‘azaliga muxammas)

Mumtoz adabiyotimiz namunalarida – doston, g‘azal yo kichik bir ruboiy bo‘ladimi – **parvona** hayoti dunyoga oshiq, yorug‘likka tashna obraz sifatida talqin qilinadi. Buyuk faylasuf shoir Pahlavon Mahmudning:

Dedim: ayt, umrning ma’nosi nima?
Dedi: chaqmoq yo sham yoki parvona.

Dedim: bu dunyoga bino qo‘ygan kim?
Dedi: yo go‘l, yo mast yoki devona –

ruboiysida inson umrining butun mohiyati ifodalangan. Ya’ni mumtoz adabiyotda dunyoning foniyligi parvona timsolida tasavvur qilingani kabi shoir misralarida ham aniqlik bilan qalamga olinadi. Bu misralar shoirning mumtoz she’riyat bulog‘idan obihayotni simirib, qonib ichgach, qalamidan to‘kilgan durlar misolidir.

Shoir to‘plamlarini varaqlaganda, turli shakl va turli mavzularda bitilgan she’rlarda o‘zbek nomining mangulik sahifalariga muhrlanganini kuzatish mumkin. Tilimizning, millatimizning fidoyi jonkuyarlaridan bo‘lgan Omonulla Madayev mana bunday yozadi: “Erkin Vohidov ijodi she’riyat muxlisi uchun favqulodda yangilik xazinasi hisoblanadi. Xususan, barg ostidan iboli g‘unchaning muloyim boqishi, gullar oshiq bulbulning she’r daftari ekani, quyosh etagiga oq bulut bog‘lab, o‘rik shoxlarida bodroq qovurishi, yana shu quyoshning o‘zi majnuntolning yuvilgan sochlarini tarashi, qo‘yingki, “inson o‘lmas va asta-asta boqiylikka o‘tadi, xolos”ligi faqat tug‘ma dilbar shoir kashfiyoti bo‘lishi mumkin. Muhimi, bu yangiliklarni aynan o‘zberning sinchkov ko‘zi ko‘rgani. Chunki shoirimiz butun vujudi, butun borlig‘i bilan, his-tuyg‘ulari bilan o‘zbekning farzandi edi”.

Haqiqatan, shoir butun borlig‘i bilan o‘zbekning, O‘zbekistonning farzandi. She’rlaridan birida samoga uchish taklif qilinsa, o‘zi bilan butun VATANini olib uchishini, uning tog‘lari-yu bog‘lari, bir kaft tuprog‘isiz, kuy-navosisiz, Hofizning munojoti-yu Navoiy va Fuzuliy she’rlarisiz uchmoqqa rozi emasligini ona yurtga muhabbati sifatida izhor etadi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov she’riyatda hazrat Alisher navoiy an’analarini davom ettirar ekan, buyuk salafidan milliy ruhni betakror ifodalash yo‘llarini o‘rgandi. Dunyoni millatning ko‘zi bilan ko‘rish, milliy tuyg‘ular orqali his etish, millat tafakkuri orqali anglash, teran falsafiy fikrlarini milliy obrazlar vositasida she’rga solish san’atini egalladi. Shoir she’riyati ana shu fazilatlari tufayli ham yashashga haqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. // G‘afur G‘ulom nashriyoti. T.: 2016.

2. N.Jabborov. Zamon. Mezon. She’riyat. // - T.: 2015.

3. Jabborov N. “O‘tkan kunlar”da milliy ruh ifodasi. //Filologiya masalalari, 2020. № 2.

4. Jabborov Nurboy. Millatning yangi kuni //Fidokor, 1999. 18-mart.

5. Erkin Vohidov. Yoshlik devoni. – T.: 1969.

6. Erkin Vohidov.Saylanma. // “Sharq” nashriyot-matbaa konserni. – T.:2000.

7. Erkin Vohidov. Asarlar. 4- jild. // -T.: 2016. – B. 380-409.

8. Omonulla Madayev.Insonni uyg‘otgan shoir // Ma’rifat, №97. - B.11.

MUSIQA ALISHER NAVOIY HAYOTIDA…

Dilshod AMONOV
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
(O‘zbekiston)

Har bir xalqning ma’naviy yuksalishi, avvalam bor, uning umumbashariy madaniyatiga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi. Ushbu nuqtai nazardan o‘zbek xalqi ham boshqa Sharq xalqlari bilan birgalikda jahon ilm-fani ma’naviy taraqqiyotiga benazir hissa qo‘shdi. O‘zbek yurtidan yetishib chiqqan buyuk mutafakirlar: Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy, Muso al-Xorazimiy, Abu Nasr Farobiy, Imom Motrudiy, Mirzo Ulug‘bek Alisher Navoiy kabi inson tafakkurini, diniy va dunyoviy fanlarni boyitishda alohida mavqega egadirlar.

O‘zbek adabiy tilining asoschisi, betakror tarixchi, mutaffakir olim, she’riyat mulkining sultoni, tengsiz faylasuf, davlat arbobi, benazir zabonshunos, yetuk olim Navoiy musiqiy olamning namoyandasidir.

O‘rta osiyo xalqlarining ma’naviy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etgan, O‘zbek milliy musiqa san’atining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Hazrat Navoiyning g‘azallari yurtimiz o‘tmishiga hurmat uyg‘otganini, buyuk ma’naviy ahamiyatga ega ekanligini his etamiz. Alisher Navoiyning g‘azallari asosida yaratilgan mumtoz ashulalar ezgulikni, go‘zalikni, muhabbatni tarannum etishi orqali barkamol avlodni har tamonlama ma’naviy tomonlama tarbiya topishida alohida e’tiborga sazovordir.

Navoiyning musiqa sohasidagi faoliyati hali yetarlicha o‘rganilmagan va bu borada chuqur va atroflicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi lozim deb bilamiz. Bu o‘rinda shoirning musiqa madaniyati taraqqiyoti tarixida o‘ynagan katta rolini hisobga olib, ba’zi mulohazalarni aytib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, Alisher Navoiy musiqa nazariyasi va amaliyoti masalalariga bag‘ishlab, maxsus asar yaratmagan. Uning “Mahbub ul qulub” asaridagi sozanda va xonandalarga bag‘ishlangan qism bundan mustasnodir. Ulug‘ san’atkorning musiqa tug‘risidagi fikrlari va musiqaviy-

estetik qarashlarini aks ettiruvchi faktlar uning adabiy, tarixiy va ilmiy xarakterdagi asarlarida sochilgan holdadir.Navoiyning asarlari bilan tanishar ekanmiz, musiqa san'atiga taalluqli qator masalalarga duch kelinadi. U yirik madaniyat arbobi sifatida, san'atning hamma sohalarini yuksak badiiy did bilan baholay olgan, shu bilan birga musiqa amaliyoti va nazariyasi masalalarida chuqur bilimdoni ham bo'lgan.

Quyidagi g'azalda **Mug'anniy**, **soz**, **navo**, **ovoz**, **ohang**, **og'oz**, **surud**, **nag'ma**, **tarona,nag'masoz, savt** kabi musiqiy atamalarni mohirona qo'llaydi.

*Ey **mug'anniy**, chun nihon rozim bilursen — **soz** tuz,*
*Tortibon munglug' **navo** sozing bila, **ovoz** tuz.*

*Navha **ohang**i tuzub, **og'oz** qil mahzun **surud**,*
Ul surud ichra hazin ko'nglumga maxfiy roz tuz.

Tuzma og'oz aylabon Farhodu Majnun qissasin,
Desang el kuysun, mening dardim qilib og'oz tuz.

*Istasangkim, **nag'ma**ng ichra ko'p xaloyiq o'lmagay,*
*Ul ikavdin ko'p, vale mendin **tarona** oz tuz.*

Gar mening holim desang tuz barcha dostoni niyoz,
*Dilbarimdin **nag'masoz** etsang, surudi noz tuz.*

Chun bu gulshanda nishiman qilg'ali qo'ymas hazon,
*Gul firoqi **savt**in, ey bulbul, qilib parvoz tuz.*

Bazm aro o'rtar Navoiyni nihon munglug' surud,
Ey mug'anniy, chun nihon rozim bilursen — soz tuz. [Navoiy,1963: 121].

So'z mulkining sultoni o'z asarlarida musiqiy masalalarini chuqur aks ettirib, musiqaga doir atamala rni ongli ravishda, tushungan holda ishlatadi. Bunday atamalar Navoiy davridagi musiqaning nazariy va amaliy masalalari bilan bog'liq bo'lib, zamonasining musiqiy hayotini yoritishda qimmatli manba hisoblanadi.

Navoiy tilga olgan boshqa masalalar ham borki, ularni musiqaga oid boshqa manbalar vositasi bilangina tushunish mumkin. Navoiyning asarlarida o'z ifodasini topgan eng muhim masalalardan biri musiqiy sozlar masalasidir.

*Zor ko'nglum tushkali hajr o'tidan g'am **chang**iga,*
*Ey Navoiy, o'xshashur ham **ud** anga, ham **tor** anga.*

Baytida chang, ud, tor, kabi musiqa asboblarining shakliy ko‘rinishlaridan tasbih yo‘li bilan foydalangan. Musiqa sozlari - musiqiy madaniyatning tarixiy shakllanish jarayonini aniqlashda, ushbu davrda qay darajada rivojlangani hal etuvchi omillardan hisoblanadi. Musiqiy sozlar turli tarixiy jarayonlarda musiqiy madaniyatining rivojlanish darajasini belgilab beruvchi manbalardandir. Navoiy davri musiqiy hayoti haqida gap borar ekan, o‘sha davrlarda iste’molda bo‘lgan sozlarni atroflicha, ilmiy asosda o‘rganilishi Xuroson xalqlarining musiqiy madaniyati taraqqiyoti darajasini aniqlashda ham katta yordam beradi. Navoiyning dostonlarida, devonlarida,”Mahbub ul-qulub”, “Majolisun-nafois” kabi asarlarida juda ko‘p sozlar nomi tilga olinadi. Ular orasida ud, nay, g‘ijjak, tanbur, chang, rubob, qo‘biz, qonun, rud, chag‘ona, daf, ya’ni doyira, nog‘ora kabi sozlarining nomi juda ko‘p uchraydi. Bularning ba’zilari bizgacha yetib kelmagan, bir turlari Sharqda iste’moldan chiqib ketgan: uchinichi bir xillarining shakli o‘zgarib ketib, nomigina saqlanib qolgan xolos.

Navoiy asarlarida sozlarning ayrim sado berish xususiyatlari zargarlik bilan, obrazli qilib chizib beriladi. Nay maftunkor, mayin sado beradi, g‘ijjakning sadosi yig‘loqi, tanburniki dilkash, ud va chang - yurakni ezuvchi, rubob yolboruvchi, qo‘biz - rohatbaxsh, qonun bilan chag‘onaning sadosi esa faryod-u fig‘onga o‘xshash yangraydi. “Sab‟ai sayyor”da changning sadosi kishini tinchlantiruvchi, hayotbaxsh ekani ta’kidlanadi. Hazrat Navoiy o‘z davrida juda ko‘p shoir, olim, ulamolar, musiqachi va boshqa san’atkorlarning ustozi va homiysi bo‘lgan uning sozlar haqidagi fikr mulohazalari musiqashunoslar uchun qimmatli manbalardandir. Ushbu manbalar Navoiy zamonasidagi miniatyuralarda tasvirlangan soz shakllari va boshqa yozma manbalarda keltirilgan materiallarni chuqur va atroflicha o‘rganish, tahlil etish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bundan salkam olti yuz yil oldin ijod etgan buyuk mutafakkirning musiqiy qarashlari, ijodida kuyning o‘rni kabi javoblarni “Mahbub ul-qulub” dan topish mumkin. Asraning Mutrib va mug‘anniylar qismida :

“Mutribi tarab afzo va mug‘anniyi g‘amzido —ikkalasiga xolu dard ahli jon qilurlar fido



Ulki ko‘rguzgay muloyim tarona-u nag‘am, agar eshituvchining hayoti naqdi anga fido bo‘lsa ne g‘am”, deb musiqaning inson ruhiga bevosita ta’siri haqida fikrini bildirib o‘tadi.

Kuy-ohang Navoiy ta’biricha, insonni tushkunlik va g‘amgin kayfiyatdan xalos etib, uni hayotni sevishga, e’zozlashga undab, qalbini shodlik, baxtiyorlik tuyg‘ulari bilan bezovchi vositadir. Mug‘anniy-sozandalar inson qalbidagi ruhiy kechinmalarini: zamon dardi va hijron alamlarini, visol ishtiyoqi va shodlik taronalarini ham mohirlik bilan ifodalovchi ajoyib san’atkorlardir

Bazm aro o‘rtar Navoiyni nihon munglig‘ surud,

Ey, mug‘anniy, chun nihon rozim bilursan-soz tuz.[Navoiy,1963: 121].

Yoki

Ey qalandarvash mug‘anniy, gar Navoiy ko‘nglini,

Istasang har lahza behol aylamak-tuzgul qo‘buz,

kabi misralarda ana shu ma’no ifodasini ko‘ramiz. Hazrat Navoiyning hofiz va sozandalarga bo‘lgan mehrini, olim va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining «Boburnoma» asarida quyidagicha ta’riflaydi:

«Musiqada yaxshi nimalar bog‘labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur».

«Boburnoma»da Navoiy olimlar, rassomlar qatori sozanda va xonandalarga ham har tomonlama homiylik qilib, ulardan yetuk san’atkorlar chiqishiga alohida e’tibor bergan deb ta’kidlangan. Alisher Navoiyning musiqa san’atini qanchalik e’zozlashi uning Navoiy, ya’ni kuy taxallusini (rivoyatlarga ko‘ra Alisher bolaligida xushovoz bulbulning navosiga mahliyo bo‘lib, o‘ziga Navoiy taxalusini tanlagan) qo‘llaganligidan ham bu san’atni sevishini anglatadi.

Navoiy san’at ahlidan yaxshi so‘zini, muhtoj bo‘lsa zarini ayamasdan sozanda, xonanda, bastakorlarga homiylik qilgan. Bu haqda Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da shunday yozadi: “Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum ermaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay. Ustoz Qulmuhammad, Shayxi Noiy va Husayn Udiykim, sozda saromat edilar. Bekning tarbiyat va taqviyati bilan muncha taraqqiy va shuhrat qildilar”

Xondamir “Xulosat-ul axbor” asarida yozganidek, “Oliy hazrat amir Alisher musiqa ilmida ham shu qadar mahorat hosil qilgan edilarki, agar muallimi soniy Abu Nasr Forobiy hayot bo‘lganlarida unga shogirdlik sirg‘asini qulog‘iga taqib olardi.Qonunu udda zo‘r ta’lim olgan.Binobarin, sozanda ahlining ko‘pchiligi hamisha oliyhazratning mulozamatida bo‘ladilar” Navoiy homiyligi ostida taraqqiy topgan ahli ilm orasida musiqa bilimdonlari o‘zgacha o‘rni egallagan. Ma’lumotlarga ko‘ra mashhur gijjakchilar Said Ahmad va Shohquli, nay chalishning ustasi Shayxiy Noiy, qonun chalishda tengi yo‘q sozanda Hofiz Qozoq Muhammad, hamda udchi Husayn Udiylar Navoiyning ham moddiy, ham ma’naviy ko‘magi bilan shuhrat qozonganlar.

Abdurauf Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobida “Qari Navo” yoki “Qari Navoiy” kuyi haqida yozadi:

“Bu kuyning juda eski bir kuy ekani har tomonda so‘ylanib turur. Eshitganimizga ko‘ra, Farg‘onada ham “Qari Navoiy” ismli eski bir kuy bor. Toshkent musiqachilari bu kuyni “Qari Navo” derlar. Biroq, bu ism yanglishdir. Alar shul “Qari Navoiy” ismini buzib olg‘anlar. Buxoroning eski musiqashunoslarining orasida bu kuy Navoiy asari bo‘lg‘oni so‘ylanadir. Mana shu ma’lumotlardan so‘ng “Qari Navoiy” kuyining Alisher Navoiy asari bo‘lg‘ani ehtimoli kuchlanib qoladir” [Fitrat, 1993: 41].

Umuman olganda shuni aytib o‘tish joizki, Alisher Navoiy musiqa san’atini puxta o‘zlashtirgan. Ulug‘ mutafakkir musiqiy ilmda ham safdoshlariga munosib shogird edi. U Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xisrav Dehlaviylarning musiqa sohasida amalga oshirgan ishlarining munosib davomchisi desak mubolag‘a bo‘lmas . Ustozi Abdurahmon Jomiydan musiqa ilmida bir musiqiy risola yozishini iltimos qildiki, bu bejiz emas, chunki, Navoiy musiqani she’riyatdan ayro holda tasavvur etishi amri mahol edi.

Shoirning fikricha, bu ikki san’at turi bir-birini taqozo etar, ularning alohida rivojlanishi mumkin emas deb hisoblagan. Abdurahmon Jomiy esa she’riyatda ham, musiqada ham zamonasining yetuk namoyandalardan edi. Tarixchi olim Xondamir va temuriyzoda olim Boburning bayon qilishlaricha, Navoiyning talab va taklifiga binoan musiqa sohasida yana to‘rt olim musiqiy risola yozganlar, ammo bu risolalardan shoirning ko‘ngli to‘lmagani bois ustozi Abdurahmon Jomiydan ham musiqiy risola yozishini so‘ragan. Zahiriddin Muhammad Boburning ta’biri bilan aytganda, Navoiy o‘z davrining bir qancha iste’dodli xonanda va sozandalariga ham moddiy, ham ma’naviy yordam bergan. Xususan, musiqadan mutlaqo bexabar Binoiyning shu sohada ilmiy asar yozishdek darajaga yetishishida ham Navoiyning hissasi benihoya bo‘lgan.

Umuman, Navoiy musiqaning inson ruhiyatiga bo‘lgan katta ta’sirini nozik his etgan. Shoirning bu boradagi estetik qarashlari ham nazmiy, ham nasriy asarlarida o‘z aksini topgan. Hazrat Navoiy musiqaning asl mohiyatini nozik idrok etish bilan bir qatorda bu nafis olamdan barchaning birdek bahramand bo‘lishini chin dildan istagan va shu yo‘lda xalqqa beminnat xizmat qilgan. Navoiyning

kuy-u navo qarashlari, uning nafosat olamini bir butun holda tasavvur etishga yordam beradi. Bu yondashuvlar shoir badiiyatida go‘zal mazmun va shakllarda o‘z izini qoldirgan. Navoiy dunyoni she’riyat va musiqasiz, tasavvur eta olmagan. Buyuk bobokalonimizning badiiy, falsafiy qarashlari uning nafosat olami bilan uyg‘unlashib ketgan desak mubolag‘a bo‘lmas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T.:1993. – B. 56.

2. Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” – “Badoye ul-vasat” o‘n besh tomlik, 3-tom. T. :1963. – B.121.

3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. - T.:2000.

V. SHO‘BA. ALISHER NAVOIY IJODINI O‘QITISH MUAMMOLARI. ALISHER NAVOIY IJODI VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

PANEL V. ALISHER NAVOI’S WORK AND MODERN EDUCATION. ALISHER NAVOI’S WORK AND LINGUISTICS

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNIDA ALISHER NAVOIY SHE’RIYATI NAMUNALARINI O‘RGANISH
(o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rganuvchi guruhlar misolida)

Beg‘am QARAYEVA
Moskva davlat lingvistika universiteti
(Rossiya)

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rganuvchi guruhlarda o‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk vakili Alisher Navoiy ijodidan namunalarining o‘rganilishi,bu jarayonning o‘ziga xosligi va murakkab jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili va adabiyoti, o‘zbek she’riyati, she’riy san’atlar, ruboiy, tuyuq.*

Annotation

The article analyzes the questions of studying the creativity of the great representative of the Uzbek classical literature Alisher Navoi, the specificity and the complexity of the study.

Key words: *Uzbek language and literature, Uzbek poetry, poetic art, ruboi, tuyug (quatrain built on pun, mostly homonyms).*

Dunyodagi nufuzli oliy ta’lim muassalarida o‘zbek tilining chet tili sifatida o‘rganilayotganligi til o‘rganuvchilarni o‘zbek xalqining boy madaniy merosi bilan yaqindan tanishtirishni taqazo etadi. Xalqimizning buyuk shoiri Alisher Navoiyning ijodi qariyb

olti asrga yaqin dunyo xalqlarining ma'naviy dunyosini boyitib kelmoqda.

Xorijlik talabalarni mumtoz adabiyotimiz namunalari bilan, jumladan, Alisher Navoiy asarlari bilan tanishtirishni boshlashda mashg'ulotlarni soddadan murakkabga qarab rejalashtirish zarur bo'ladi. O'zbek tilini o'rganishning dastlabki bosqichi davomida Alisher Navoiyning xalqimiz orasida, shuningdek, dunyoda e'tirof etilgan hikmatli so'zlarini o'zbek tilida o'raganishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda Moskva davlat lingvistika universitetining xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy fanlar instituti talabalari bilan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarda Alsher Navoiy ijodiga murojaat etamiz, talabalar dastlab shoir ijodidan hikmatli so'zlarni o'rganadilar, yod oladilar, o'zlari tayyorlagan kichik dasturlar bilan shoirning tavallud kuniga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etadilar. Navoiyxonlik kechalarida ishtirok etishning o'zi ham talabalarni shoir ijodi bilan tanishishga, mumtoz adabiyotimizdagi joziba, talaffuz musiqasini anglashga, o'zbek tilini chuqurroq o'rganishga yo'naltiradi.

MDH davlatlarida o'zbek tilini o'rganishga mo'ljallab nashr etilgan "O'zbek tili" darsligimizda shoirning hayoti va ijodi haqida matn berilgan, shuningdek, shoir ijodidan o'zlashtirilishi oson bo'lgan hikmatli so'zlar beriladi, ularni rus tiliga tajima qilish, keyin esa mavjud bo'lgan tarjima matnlari bilan solishtirish, aforizmlarga qisqa va kengaytirilgan sharhlar yozish bo'yicha topshiriqlar beriladi. [Бакиева Г. Х., 012: 210-211].

Quyida esa darslikda berilgan manbalardan tashqari talabalarning mustaqil ishlashlari uchun o'zbek va rus tillarida berilgan hikmatli so'zlarni tavsiya etamiz:

1)*Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar.*

Правдивость речи хороша и гладкость.

Но как прекрасна слов правдивых краткость [Alisher Navoiy, 2014:16].

2)*Er kishiga zeb-u ziynat hikmat va donishdur.*

Что ум и знанья красят человека –

Народы все на том сошлись от века [Alisher Navoiy, 2014:17].

3)Barcha lazzatni totdim,

Ofiyatdan chuchukroq sharbat topmadim.

Какие бы вы сладости не ели,

Нет лакомства вкусней, чем сила в теле [Alisher Navoiy, 2014:30].

4)*Yomon bila yaxshi orasida farqur,*

Ikki kemaning uchin tutgon g‘arqdur.

Хорошее к плохому не подгонишь,

Две лодки не настигнешь враз – потонешь [Alisher Navoiy, 2014:39].

She’riy misralar orqali berilgan hikmatli so‘zlar qayta-qayta tahlil qilinadi, har bir so‘zga tox’talib, asl matnni tarjima matnlari bilan qiyoslanadi, so‘zma-so‘z qilingan tarjima va mazmun saqlangan holda qilingan tarjimalar talabalarga bu she’riy misralar mazmunini tushunishga yordam beradi.

Bugungi kun avlod vakillariga, ayniqsa, chet ellik yoshlarga o‘zbek mumtoz adabiyotimiz namunalarini o‘rganish anchagina murakkablik tug‘diradi. Birinchidan, mumtoz adabiyotimiz namunalarini izohli lug‘atlarsiz o‘qish qiyinligi bu jarayonni susaytiradi, agar tilga doir bilimlarni o‘rganishi nuqtai nazaridan olib qarasak, bu jarayon nafaqat o‘zbek tili tarixiiy leksikasi, balki fors, arab, urdu, pushtu va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarning katta qatlamni tashkil etishi Alisher Navoiy asarlarini o‘qishni istagan chet ellik yoshlardan qunt, sabotni talab qiladi. Ikkinchi tomondan esa, o‘zbek mumtoz adabiyoti asarlarini o‘rganish uchun Sharq madaniyatlari Qur’on va Hadis ilmidan xabardor bo‘lish zarurligini ko‘rsatadi. Fikrimizni Alisher Navoiy “Xamsa” asarining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”dan olingan quyidagi parchani olib qaraylik:

...Ты – мудрый Сулейман в юдоли сей;

Хума парит над головой твоей.

Ты правишь там, где правил древний Джам.

Золотой фиал идет твоим перстам.

Но ты на перстне надпись не забудь,

Что «В справедливости – к спасенью путь»!

Молясь аят Корана повторяй:

«Правитель, справедливо управляй!»

Ты помни, что судья в твоих делах –
Сам возвеличивший тебя Аллах [Смятение пр., с.408]

Bu misralar mazmunini anglash uchun faqat so‘z boyligi yoki so‘zlarning ma’nosini tushunishning o‘zi kifoya qilmaydi. Yuqorida aytib o‘tilgan muqaddas kitoblarimiz mazmunidan xabardor bo‘lish, Sharq falsafasini anglash zarur bo‘ladi. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bilan tanishgach va “Alisher Navoiy” badiiy film namoyishidan so‘ng talabalarda shoir asarlari bilan tanishish istagi paydo bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan tarjima matni nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kunlarimizda ham bugungi tarjima maktabi uchun o‘rnak bo‘lib qolayotgan betakror va buyuk tarjimon V.V. Derjavin tomonidan bajarilgan. Aytish mumkinki, iste’dodli rus shoiri Alisher Navoiyni mukammal tushungan, shuning uchun bu qadar beqiyos tarjima matlarini yarata olgan. Ona tili rus tili bo‘lgan talabalar bu tarjimalar yordamida buyuk shoirimizni tushuna oladilar. Bu parcha bilan tanishayotgan talabalar nafaqat o‘zbek tilini, balki til o‘rganish mazmunida o‘zbek madaniyati, va tariximizni ham o‘rganayotgn talabalar bo‘lganligi uchun ham bu tarjima namunalarini o‘qib, o‘rganishni tavsiya etiladi.

Yuqorida shoir ijodini o‘rganish bo‘yicha o‘zbek va rus tillarida berilgan hikmatli so‘zlar, bir yoki ikki misradan iborat satrlarni o‘rganish, yod olish, keyin esa rus tilidagi berilgan parchalarni tushunish talabalarni mustaqil ravishda ishlashga undaydi, ularni o‘qish, talaffuz qilish, yod aytish singari topshiriqlar Alisher Navoiy ijodi bilan yana yaqinroq tanishish istagini paydo qiladi. Shundan so‘ng esa, dadillik bilan o‘zbek mumtoz adabiyotida yuzaga kelgan she’riy janrlardan biri ***tuyuq*** haqida ma’lumot beriladi, Alisher Navoiy yozgan tuyuqlarni o‘rganish juda qiziqarli va osonroq kechadi. Tuyuqlarda omonim so‘zlarning qo‘llanilishi she’riy san’at darajasiga ko‘tarilganligini ko‘ramiz, o‘ziga xos so‘z o‘yinining borligi, talaffuzi bir xil bo‘lishiga qaramasdan bir so‘zning bir necha ma’nolari borligini she’riy misralar orqali o‘rganish talabalar diqqatini jalb etadi. Bu esa Alisher Navoiy ijodi yordamida o‘zbek tilini o‘rganishga yanada ko‘proq qiziqtiradi. Tarjima san’tida omonim so‘zlar ishtirok etgan she’riy misralarni tarjima qilish nihoytda qiyin jarayon, deyarli tarjima qilib bo‘lmaydigan holat. Shunga

qaramasdan, XXasrning buyuk tarjimonlaridan biri, adabyotshunos olim S.N. Ivanov tomonidan rus tiliga o‘girilgan matnni tarjima san’atining eng muvaffaqiyatli namunasi deyish mumkin. Shunday tarjima namunasini o‘zbek tilini o‘rganish jarayonida Alisher Navoiy tuyuqlari misolida o‘raganish esa talabalarni so‘z bilish, o‘rganish, uni tahlil qilish orqali o‘zbek adabiyoti namunalarini alohida bir qiziqish bilan o‘rganishga undaydi:

Ey nigoro, ko‘zlaringdek, ko‘z qani,
Yig‘labon hajringda oqdi ko‘z qoni.
Termulibon yo‘lingga ey, bag‘ritosh,
Intizoringda oqibdur ko‘z qani [Шамухаммедов,1967: с.53]?
Никто таких, как у тебя, ввек не имел очей,
Мир без тебя исполнен слез, обид и мелочей,
Жестокая, когда в тоске я выплакал глаза,
Любимый образ пред собою ты имела чей [Шамухаммедов,1967: с.53]?

Talabalar bu tuyuqni o‘rganishdan oldin ushbu tuyuqning o‘zbek tilida va rus tilida o‘qilgan audiomatnlarni bir necha marta eshitadilar, albatta, o‘qituvchi tomonidan ham bir necha bor o‘qib eshittiriladi, keyin esa talabalar tuyuq matnini yozib oladilar. Tuyuq mazmuning rus tiliga qilingan tarjimasi bilan qiyoslaydilar, o‘zbek tilida tushunishga harakat qiladilar, qay darajada tushunganliklarini o‘z so‘zlari bilan izohlab beradilar. Keyingi bosqichda esa matnga qarab audiomatnni yana bir necha bor eshitadilar. Dars davomida esa talaffuz ustida ishlaydilar, uyga vazifa sifatida tuyuq matniga sharh yozish topshiriladi. Shu tariqa Alisher Navoiy ijodidan boshqa tuyuqlar ustida ishlash mumkin. Tuyuqlar talaffuzidagi musiqiylik o‘zbek tilida talaffuz qilishga yordam beradi, omonim so‘zlarning qo‘llanishi so‘zning har bir ma’nosini farqlash, tushunishga yordam beradi.

Chet tillarini o‘rganishda kompetensiyali yondashuv usuli bor, sodda qilib aytganda, talabalarning layoqati qay darajada ekanligiga qarab o‘quv materialini tanlashdan iborat. G‘azalni rus tilida o‘qish mumkin, bu ham yuqorida aytib o‘tganimizdek, alohida tayyorgarlikni talab qiladi, lekin o‘zbek tilida bir g‘azalni to‘liq o‘rganish, tahlil qilish o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitish metodikasida deyarli

amalga oshirib bo‘lmaydigan mashg‘ulot. Albatta, istisno holatlar bo‘lishi mumkin, tarjimonlik guruhlari yoki iqtidorli talabalarning qiziqishlari bo‘lgan holatlarda mumtoz adabiyotni tushunadigan o‘zbek tili o‘qituvchilari yordamida g‘azallarni o‘rganishga jur’at etish mumkin. Shuning uchun ham yuqorida tanlangan materiallar xalqaro munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

Bugungi kunda chet ellarda yoki O‘zbekistonga kelib o‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijlik talabalarning Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini qo‘llab-quvvatlash, ualarning o‘zbek adabiyoti namunalaridan bahramand bo‘lishlariga yordam berish esa bu guruhlarda dars beruvchi mutaxassislarning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навои. Афоризмы. – Т.: 2014. – С. 109.

2. Бакиева Г. Х., Караева Б. Х., Коршунова Е. Н., Краева И. А, Тешабаева Д. М., Фролова Г. М. Узбекский язык для стран СНГ. – М.: ФГБОУ ВПО МГЛУ, 2012 . С– 331.

3. Смятение праведных. // Фольклор и литературные памятники Узбекистана. − М.: Художественная литература, 2009.− 710с.

4. Шамухаммедов Ш. М. Художественный перевод и литературная критика. // Актуальные проблемы теории художественного перевода: в 2т.− Т.1.− М.: 1967.− С.155-165.

ALISHER NAVOIY IJODIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLAR

ETHNOGRAPHIC FOLKLORISM IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Darmonoy O‘RAYEVA
Ma’rifat RAJABOVA
Buxoro davlat universiteti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy ijodida turkiy xalqlarning hayot tarzi, turmush madaniyati, ijtimoiy-siyosiy, ilohiy-irfoniy dunyoqarashi, hatto qadimiy mifologik tasavvur-tushunchalari va ular bilan bog‘liqlikda kelib chiqqan ayrim urf-odatlari, marosimlari bilan bog‘liq lavhalar tasviri tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: *etnografiya, marosim, urf-odat, ishq, oshiq, lirik qahramon.*

Annotation

The article analises the works of Alisher Navai, depicting the way of life, culture, socio-political, divine and mystical worldview of the Turkic peoples, and even ancient mythological ideas and some of the customs and rituals associated with them.

Key words: *ethnography, ritual, tradition, love, lover, lyrical hero.*

Ma’lumki, turkiy xalqlarga tegishli urf-odatlar, an’analar, moddiy va ma’naviy boyliklar ulug‘ shoir A. Navoiyning o‘tkir zakovati va badiiy tafakkuri tufayli ma’naviyatimizning o‘lmas mulkiga aylandi. Shuning uchun ulug‘ shoir ijodiy merosi nafaqat badiiy asar, balki turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek millati turmush madaniyatining o‘ziga xos tarixiy - etnografik manbasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy asarlarida xalq turmush tarzi, urf-odatlari bilan bog‘liq qimmatli badiiy detallar borki, ular o‘sha davr kishilarining

turmush tarzi tarixini o‘rganishda muhim ma’lumotlar bera oladi. Shuning uchun shoirning lirik, liro-epik asarlari bag‘rida keltirilgan urf-odatlar turkiy xalqlarning tarixi va ma’naviy dunyosini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Navoiy asarlarida shoir yashagan davrga xos madaniy-maishiy turmush bilan bog‘liq juda ko‘p urf-odatlarga aloqador misollar uchraydi. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida xalqning davolash magiyasiga ishonchi aks etgan misralar ham uchraydi. Jumladan:

Navoyiyo, erur ortuq bu yemak-ichmakdin

Yilon etini yebon, zahrin aylamak oshom*!* [Navoiy, 1987:636].

Yoki:

Angladim kim sa’b emish bemori furkat ranji lek,

Sharbati zahr-y g‘izosi kon ekanni bilmadim [Navoiy, 1990:321].

Qadimdan xalq tabobatida ilon go‘shti va zahridan davolash ishlarida shifo maqsadida foydalanib kelingan. Shundan kelib chiqib, shoir ilon go‘shtini yeb, zahrini oshom etish, kezi kelganda bu **ye**mak-ichmakdan ortiq bo‘lishini ta’kidlayotir. Mutafakkir shoirning quyidagi misralarida xalqning badandagi yorilgan, zaxm chekkan joylarni tikan bosib davolash usuliga ishora qilingan:

Yo‘q ajab, ey gul, ko‘ngul zaxmi aro novaklaring,

Rasm erur: chun raxna bo‘lg‘an yerga qo‘ymog‘lig‘ tikan [Navoiy, 1988:370].

Shu xalqona rasm – xalqona davolash usuliga ishora qilish orqali shoir yorga istiora asosida bevosita “gul” deb murojaat qilib, undan ko‘ngil zaxmini novak (kiprik)lari bilan davolashini iltijo qilmoqda.

Navoiyning ba’zi misralarida ayrim kasalliklarning xalq orasidagi evfemizmga hamda tabuga asoslangan yashirin nomlari uchraydi:

Xadisi pok nutqi jon fizoingdin topib Iso,

Ki anfosi qilib **ibro** agar **abras** agar **akmah** [Navoiy, 1987:479].

Bu misrada qo‘llanilgan “abras” – badanga oq tushishi, “Akmah – tug‘ma ko‘rlik bilan bog‘liq kasallik nomlarini anglatadi. Ayni paytda bu so‘zlar tilimizdagi arxaizmlar (eskirgan so‘zlar) hisoblanadi. Shoirning quyidagi misralarida xalqning ko‘z tegishiga ishonch, undan saqlanish uchun ko‘z duosi yozilgan turli tumorlardan foydalanish bilan bog‘liq rasm-odatlariga ishora qilingan:

Ko‘z duosi chun bitirsiz, sadqasi aylab meni,

Tori jonim rishtasidin tortingiz tumorig‘a [Navoiy, 1987:493].

Navoiy ko‘z duosi bilan uchi xam ignaning ko‘z tegishidan saqlashdagi kuchi boshqacha ekanligini ham ta’kidlaydi:

Uchi xam igna birla **ko‘z duosi** boshqa osqondin,

Yomon ko‘z tegmasun, ul bo‘ldi men chekmakka qullobing [Navoiy, 1987:322].

Shoirning she’riy baytlarida xalq orasida nafaqat ko‘z duosi, balki yomg‘ir chaqirish duosi ham bo‘lganligi qayd qilinadi:

*Bordilar **yomg‘ur duosi**n qilg‘ali ahli riyo,*
Men niyoz ahli edim, da’vi kamitin so‘rmadim,
Yomg‘ur ikki dur: biri ma’hudu ul bir ko‘z yoshim,
Ko‘z yoshim yo‘q erdi, to ul oyg‘a ko‘z oldurmadim.
Tengri yomg‘ur bermadikim, so‘zsiz erdi talab,
Manga kulgu keldi, ashkim yomg‘urin yog‘durmadim [Navoiy, 1989:507].

Darhaqiqat, xalqimiz orasida yomg‘ir chaqirish marosimi va u bilan bog‘liq duo-olqishlar, qo‘shiqlar borligi aniqlangan [Sarimsoqov, 1986:216]. Shoir ham shu urf-odatga ishora qilgan. Faqat u yor hajrida o‘rtangan oshiqning ko‘z yoshini ham yomg‘irga mengzab, shu orqali har ikkalasini ham Olloh mo‘jizasi sifatida talqin etishni ko‘zda tutgan. “Yomg‘ur duosi qilg‘anlar ahvolikim ko‘z tutkan yog‘indin ashklardin o‘zga qatrae tommadi” degan xulosani ilgari surgan.

Quyidagi misra mazmunidan esa qadimda odamlar yirtqich jonzotlarni ov qilishda, qo‘lga o‘rgatishda afsun-duolardan foydalangani anglashiladi. Quyidagi baytlarda ilon bilan bog‘liq afsunlar mavjud bo‘lgani bilib olish mumkin:

Ilig zulfungg‘a eltur orzudin yova ayturmen
*Birovdekkim yilon tutmoq uchun **og‘zidadur afsun*** [Navoiy, 1988:345].

Yoki:

Soching af’ilaridin yo‘q ko‘zungga hech gazand.
*Sehr ila to bu **yilonlarg‘a ne afsun qildi*** [Navoiy, 1987:594].

Demak, Navoiy yorning zulfi (sochi)ni to‘lg‘anib yotgan ilonga o‘xshatar ekan, oshiq uni o‘ziniki qilish uchun yorga aytgan shirin so‘zlarini afsungarning shu ilonni avrash uchun aytgan afsunlariga

mengzagan. Shuning uchun shoir buni yanada ochiqroq quyidagicha bayon etgan:

Soching savdosidin aytur parishon so‘zlarim bordur,

Fusungar san’at aylarda yilong‘a qilg‘an afsundek [Navoiy, 1988:271].

Navoiy ilonni afsun aytib avrashni fusungarlik san’ati, afsungar esa fusungar yoki arbog‘i deb atagan. Zero, **arboqi** – ilon avraydigan kishi degani bo‘lib, **avroq, avrash** so‘zlaridan kelib chiqqan.

Zulfi savdosida bilmaslar Navoiy nuktasin

*Kim, junun guftoridur yoxud **yilonning arbog‘i*** [Navoiy, 1990:430].

Qadimda afsungarlik fan sifatida o‘rgatilgan, ammo keyinchalik bunga chek qo‘yilgan. Shoir quyidagi baytda ma’shuqaning raqibdan afsun bilan fan o‘rgangani haqida gapirar ekan, bevosita shuni nazarda tutgan:

Raqibdin ul oy afsun bila fan o‘rganmish,

Pariyg‘a dev ne ta’lim qildi ko‘r buzluk [Navoiy, 1990:232].

Ulug‘ shoir xalqning Oy bilan bog‘liq urf-odatlari talqiniga ham etnografik folklorizm sifatida ko‘plab murojaat qilgan. Masalan:

*Yangi oy ko‘rgach xaloyiq, **ko‘zni tutmoq rasm erur,***

Lekin ochildi ko‘rub mushkin hilolingdin ko‘zum [Navoiy, 1988:329].

Yoki yana:

*Qoshin ko‘rgach hasaddin istaram el **ko‘zi bog‘lang‘ay,***

Nechukkim ko‘z tutarlar el yangi oy oshkor o‘lg‘ach [Navoiy, 1988:96].

Ushbu misralar orqali qiziq bir fakt – ilgarilari odamlar yangi oy chiqqanini ko‘rganda, orqadan bildirmay kelib, bir-birining ko‘zini qo‘llari bilan bekitgancha, tilak-istagini, nima kutayotganini so‘rash odati bo‘lganidan darak beradi. Bu holat hozir ham bolalar o‘rtasida o‘yin sifatida saqlanib kelayotgan esa-da, yangi oy chiqqanda rasm sifatida amalga oshirilishi unutilgan.

Agar kishi yangi oy chiqqanini ko‘rganda yonida boshqa birov bo‘lmasa, o‘z ko‘zini o‘zi yumgancha, tilagini aytavergan. Shuning uchun A.Navoiy g‘azallarida yangi oyni ko‘rgach, “**ko‘zni tutmoq” yoki “ko‘zni yummoq”** rasm bo‘lgani bildirib o‘tiladi:

Yangi oy ko‘rgach ***xaloyiq ko‘zni yummoq rasm erur***
Lekin ochildi ko‘rub mushkin hilolingdin ko‘zum [Navoiy, 1987:389].

Umuman olganda, xalqning yangi oy bilan bog‘liq qarashlari, rasm-odatlari ko‘p. Ulardan yana biri shuki, yangi oy tik chiqsa, xayrli sanaladi. Mabodo egik chiqsa, notinchlikdan darak sifatida qaraladi. Shuning uchun xalq orasida “Tikka oyim – tinch oyim, yotiq oyim – botiq oyim” degan maqol ham paydo bo‘lgan. Ammo odamlar yangi oy qanday ko‘rinishda chiqqan bo‘lmasin, “Oyni ko‘rdik – omonlik, yanagi oyga ham o‘ynab-kulib yetaylik” deya olqish aytgancha, qo‘llarini yuzlariga tortib duo qilishgan. Shular haqida ma’lumotga ega bo‘lgan Navoiy ishqiy mazmundagi she’rlarida ma’shuqa-yor qoshini oyga (hilolga) o‘xshatar ekan, undan qoshini egmasligini tilaydi. Yorning egma qoshlari ta’sirida devona bo‘lib qolishdan cho‘chiydi:

Egma qoshin ko‘rguzub aylar manga man’i junun,
Yangi oy birla kerak *sog‘ etsa bu devonani* [Navoiy, 1988:458].

Musulmon xalqlarning Ramazon va Qurbon hayiti singari ulug‘ bayramlari ham yangi oyning chiqishiga qarab belgilanishi ma’lum. Shuning uchun Navoiy oy chiqqanda elga bayram bo‘lganini bejiz ta’kidlamaydi:

El yangi oy ko‘rdiyu men ko‘rmadim qoshing xamin,
Elga bayram bo‘ldi, ammo bizga bayram bo‘lmadi [Navoiy, 1989:446].

Mutafakkir shoirning quyidagi misralarida uy ichida dud (tutun) chiqarmaslik odati ifoda etilgan:

La’li ko‘nglum ichradur qilma tutun, ey tiyra oh,
Rasm emas *chun uyda dud etmak ayon kon o‘tig‘a.* [Navoiy, 1988:343].

Ko‘rinadiki, buyuk shoir Adisher Navoiy o‘z asarlarining mavzusi va g‘oyasi, syujeti va obrazlari, kompozitsion tuzilishi va badiiy tilini ishlashda nafaqat xalq og‘zaki ijodi janr, motiv va obrazlaridan, balki xalq e’tiqodiy qarashlari bilan bog‘liq tushunchalardan ham mahorat bilan foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул-бидоя. –Т.: Фан, 1987.
2. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. II жилд. Наводир ун-ниҳоя. – Т.: Фан, 1987.
3. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. III жилд. Ғаройиб ус-сиғар. –Т.: Фан, 1988.
4. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. IV жилд. Наводир уш-шабоб. – Т.: Фан, 1989.
5. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. V жилд. Бадоеъ ул-васат. –Т.: Фан, 1990
6. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. VI жилд. Фавойид ул-кибар. – Т.: Фан, 1990
7. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.

КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИДА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ НАВОИЙ ТАЛҚИНИДА

К.Р.Мамадалиев – *ТВЧДПИ катта ўқитувчиси*
Н.Д.Муқумжонова – *ТВЧДПИ талабаси*

Аннотация. Сўз мулкининг султони Алишер Навоий ўз ижодиётида комил инсон тарбияси билан боғлиқ таълимий-ахлоқий муаммони тирикликнинг туб моҳияти сифатида талқин этиши бежиз эмас. Ушбу мақолада Алишер Навоий ижодида комил инсон тарбияси ҳақида сўз юритилган.

Инсон маънавий камолотида замин вазифасини ўтовчи бошланғич таълимнинг ўрни ва аҳамияти барча замонларда ҳам юксак ақл эгаларининг диққат марказида бўлган. Шуниси характерлики, ҳар бир давр унга ўз муносабатини билдиради. Жумладан, Юсуф Хос Ҳожибнинг "Қутадғу билиг", Кайковуснинг "Қобуснома", Форобийнинг "Фозил одамлар шаҳри", Ибн Синонинг "Соломон ва Абсол", Маҳмуд Қошғарийнинг "Девону луғатит турк", Алишер Навоийнинг "Маҳбуб ул-қулуб", Ҳусайн Воиз Кошифийнинг Ҳусайн Бойқаронинг ўғли Абдулмуҳсин Мирзога бағишлаб ёзган "Ахлоқи Муҳсиний", "Ғутувватномаи Султоний" асарлари бунинг ёрқин далилидир. Мазмун-моҳиятига кўра уларнинг ҳар бирини ижтимоий одоблар қомуси деб баҳолаш мумкин. Академик В.Зоҳидов ўринли қайд қилганидек, "Навоий ижодининг, амалий фаолиятининг энг асосий, марказий масаласи, йўналиш нуқтаси ҳар нарсадан олдин инсон тақдири, бахт-у саодати, унинг яхши яшаши, бу учун зарур жамият масалаларидир"[1].

Алишер Навоийнинг бутун умри давомидаги инсон табиати ва маънавиятига оид кузатишлари, ахлоқий-таълимий хулосалари "Хамса", "Назмул жавоҳир", "Муножот", "Вақфия", "Мажолисун нафоис", "Арбаъийн" каби асарларида китобхон кўз ўнгидан қизил ип бўлиб ўтади.

[1] В.Зоҳидов. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т.: Ўзбекистон, 1970, 152-бет.

Буюк шоир “Маҳбуб ул-қулуб” асарида ўз кузатишлари хусусида қуйидагиларни ёзади: “Ҳар кўча-кўйда юрибман ва олам аҳлидин ҳар хил кишиларга ўзимни етказибман. Яхши ва ёмонликнинг аслини ҳам, заҳрини ҳам таътиб кўрдим. Гоҳ пасткаш ва бахил кишилар қошида хўрландим ва разил-нокаслар олдида эътиборсиз бўлдимюю. Кимки ҳар хил кишилар билан суҳбатлашиш ва яқинлашишни ҳавас қилса, каминанинг бу тажрибаси ёшлар учун етарлидир”[1].

Алишер Навоийнинг маънавий-ахлоқий қарашларида инсонийлик шаънини белгиловчи хислатлардан бири инсоф ва диёнат деб кўрсатади. “Лисон ут тайр” асарида инсофсиз кишини одам эмас деб эълон қилади.

Одамға яхши кўп авсоф эрур,
Лек аларнинг ашрофи инсоф эрур.
Кимгаким инсоф йўқ – инсон эмас,
Мунсиз атворида жуз нуқсон эмас.

Ҳусайн Воиз Кошифийнинг ахлоқ-одоб юзасидан келтирган қуйидаги таъриф-тавсифлари ҳам Алишер Навоий фикрларига ҳамоҳангдир. “Гўзал хулқ-атвор, яхши хулқ нишонаси ўнтадир: яхшилик қилиш, инсофли бўлиш, бошқа одамдан айб қидирмаслик, ножўя ҳаракат қилаётганни тўғри йўлга бошлаш, айбига иқрор бўлганнинг узрини қабул қилиш, бошқалар машаққатини зиммага олиш, фақат ўз манфаатини кўзламаслик, очиқ юзли ва ширин сўзли бўлиш, муҳтожлар ҳожатини чиқариш, мулойим ва тавозъели бўлиш”.

Алишер Навоий мазкур асарида кишиларни “муносиб кишилар”, “номуносиб кишилар” тарзида 2 гуруҳга ажратар экан, “номуносиб кишилар”дан эҳтиёткорликка чақиради.

Профессор С.Нишонованинг фикрича, Навоий тасаввуридаги комил инсонга хос бўлган чин инсоний фазилатлар ижодкорлик, ўзликни англашга кучли иштиёқ, илм-фанга муҳаббат каби хислатлар билан чамбарчас боғлиқ. Чунки бахтли ҳаётга интилган ижодкор, оқил, қобилиятли ҳар бир киши ўзининг куч-қуввати ва ақлу заковатига ишонади. Шунинг учун Навоий

[1] Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. 13-жилд. – Т.: Фан, 1967, 155-бет.

илм-фаннинг инсон тафаккури, маънавий камолотида тутган ўрни ва роли хусусида сўз юритар экан, илмни қоронғиликни ёритадиган чироқ, ҳаёт йўлини нурафшон этадиган қуёш, одамларнинг ҳақиқий қиёфасини кўрсатадиган омил сифатида таърифлайди.[1]

Илм олиб унга амал қилмаган кишини уруғ сочиб ҳосилидан баҳра олмаган кишига ўхшатади. Ёмғирнинг бир томчиси тупроққа жон бахш этгани каби, инсонга ҳам насл-насаби, бойлиги эмас, ҳаёси, илму одоби шон-шараф келтиришини қайта-қайта таъкидлайди. Ўзининг таълимий-ахлоқий ғояларини илм билан боғлиқликда деб тушунган шоир "Назмул жавоҳир" асарида шундай деб ёзади:

Ким олим эса нуқтада барҳақ де они,
Гар базм тузар беҳишти мутлақ де они.
Ҳар кимсаки йўқ илм анга ахмақ де они,
Мажлисдаки илм бўлса учмақ де они.

Буюк шоирнинг фикрича, илмли, оқил киши ҳар қандай машаққатни енгиб ўтади, ўз мақсади йўлида тўсиқлардан чўчимайди. Илмнинг вазифаси инсоннинг бахт-саодатига хизмат қилишдир.Аммо илм ўрганмоқ бойлик орттириш учун эмас, имон-эътиқодни мустаҳкамлаш учундир. Бу борада устозликни дунёда энг мураккаб, аммо хайрли, шарафли касб деган хулосага келади. Ҳақ йўлида ким сенга бир ҳарф ўқитмиш ранж ила Айламак бўлмас адо анинг ҳақин юз ганж ила. Агар шогирд вақти келиб шоҳ бўлса-да устози олдида қарздордир.

Илм эзгу амаллар, жамики фазилатлар манбаи сифатида ҳар бир кишининг инсоний бурчига айланади. Шу туфайли ўзликни англаш, комиллик одоби эгаллаш халқ бахт-саодати, фаровон турмуш кечириши, ватан равнақи йўлида камарбаста бўлишдек эзгу мақсадга қаратилади.

Алишер Навоийнинг маънавий-ахлоқий қарашларида илм-маърифатли бўлиш билан бирга сабр, тавозе, адаб, сахийлик, ҳиммат, тўғрилик, ростгўйлик, меҳр-мурувват, вафо, карам,

[1] Бу ҳақда қаранг: С.Нишонова. Комил инсон тарбияси. – Т.: Истиқлол, 2003, 195-бет.

юмшоқ кўнгиллик бўлиш каби чин инсоний фазилатлар тарғиботи ҳам алоҳида ўрин тутади. Мазкур хислатларни таъриф-тавсифлашдан ташқари мунофиқлик, зулмкорлик, алдоқчилик, ёлғончилик, бесабрлик каби уларнинг зидди бўлган иллатлардан қутулишга ҳам даъват этади. Шоир ёзади:

Уч феъл кишига эрур қотил,
Қотиллик аро заҳри ҳалохил охир.
Бу хил англа бирин, бирин ҳаво бил охир,
Қил ужбни ҳам аларга дохил охир.

Ёшларни юксак ахлоқ-одоблар руҳида тарбиялаш хусусида сўз юритар экан, қуйидагиларни қайд этади: “Адаб кичик ёшдагиларни улуғлар дуосига сазовор этади ва у дуо баракати билан умрбод баҳраманд бўлади. Адаб кичкиналар меҳрини улуғлар кўнглига солади ва у муҳаббат кўнглида адабий қолади. Кўринадики, Навоий таърифида одоб жамики инсоний фазилатлар бошида туради. Буюк шоир наздида қаноат баайни булоқдир. Унинг сувини олган билан қуримайди; баайни хазинадир – нақдисини сочган билан камаймайди; экинзордир – уруғи иззат ва шавкат мевасини беради; дарахтдир – шохи тортинчоқлик ва ҳурмат меваси етказади. Сабр – аччиқдир, аммо фойда бергувчи; қаттиқдир, аммо зарарни даф этувчи. Сабр шодликлар калити ва бандлар очқичидир. Сахийлик – инсонийликнинг ҳақиқий мезонидир, одамларнинг мушкулини осон қилади. Яхшилик, карам бир жабрланганнинг қаттиқчилик юкини кўтармоқ ва уни ўта қийинчиликлардан қутқармоқдир. Кимки бу хислатларни эгалласа, чексиз иззат ва ҳурматга сазовор бўлади.

Хулоса қилганда, буюк бобомиз Алишер Навоий ўз ижодиёти билан асрлар оша комил инсон тарбиясига беминнат хизмат қилиб келмоқда. “Энг катта бойлик,- деган эди Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев Олий мажлисга Мурожаатномасида,- бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир.

Шу сабабли ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётий эҳтиёжга айланиши керак”. Бу борада Алишер Навоий асарлари бебаҳо хазинадир.

ALISHER NAVOIYNING SO‘Z YASALISHIGA OID ILMIY TALQINLARI

Xo‘jamurod JABBOROV
Qarshi davlat universiteti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida turkiy va forsiy tillardagi so‘z yasalishi haqidagi qarashlari bayon etilgan. Unda shoir ikki tilni qiyoslash orqali turk (o‘zbek) tilida so‘z yasalishining imkoniyatlari cheklanmaganligi sart tilida bu imkoniyatlar yo‘qligi, “Ikki til muhokamasi” asaridan olingan misollar asosida yoritilgan.

***Kalit so‘zlar**: Alisher Navoiy, so‘z, so‘z yasalishi, so‘z yasovchi, fors tili, turkiy til, sart tili, imkoniyat.*

Annotation

The article describes the views of Alisher Navoi on word formation in the Turkish and Persian languages in Muhokamatu-l-lug‘atain.In it, the poet explains that the possibilities of word formation in the Turkish (Uzbek) language by comparing the two languages are not limited, in the Sart language there are no such possibilities, based on examples from the work “Discussion of two languages”.

***Key words:** Alisher Navoi, word, word formation, word builder, Persian, Turkish, Sart, opportunity.*

Buyuk shoir va zukko tilshunos Alisher Navoiy umrining oxirgi yillarida, ya’ni 1499-yilda yozib tamomlagan “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida ham so‘z yasalishi masalasiga alohida to‘xtalgan. Ammo o‘sha davr tilida so‘z yasalishining mustaqil va o‘ziga xos soha ekanligi, so‘zlar yasalib, tilni yangi so‘zlar bilan boyitishi, so‘z yasash tilning asosiy va boy fazilatlaridan biri ekanligini alohida asarda uqtirmasada, ikki tilni qiyoslash ehtiyojidan kelib chiqib,

turkiy va forsiy (sart) tillarda so‘zlarning yasalishi xususida o‘zining ayrim ilmiy talqinlari va qarashlarini bayon etgan. Albatta, shoir turkiy tildagi hamma so‘z yasovchi qo‘shimchalarni va so‘z yasash usullarini tilga olmagan.

Zahmatkash tilshunos Abulhamid Nurmonov fikricha, “U (Alisher Navoiy demoqchi – X.J.) garchi so‘z yasalish strukturasi bo‘yicha fikr bildirmasa ham lekin so‘z yasashga asos, yasovchi vosita va yasalma tushunchalari haqida ma’lumotga ega bo‘lgan [Nurmonov, 2002: 91].

Turkiy tilning so‘z yasash imkoniyatlarini forsiy tildan ustunroq ekanligini aniq misollar asosida ilmiy talqin qilgan. Atigi bir necha qo‘shimchalar haqida fikr yuritgan va ularning fors tilidagi muqobillari va ifodalanishi hamda so‘z yasalishi borasida ba’zi imkoniyatlar cheklanganligini ham bayon etgan. Ikki tilni qiyoslab turkiy tilining cheksiz imkoniyatlarga egaligini isbotlab bergan.

Alisher Navoiy “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida tilda yasalish bo‘lmasa, til boyimaydi, inson tafakkurida, moddiy va ma’naviy turmushida bo‘lgan o‘zgarishlarni so‘zlar orqali ifodalash qiyinlashishini ikki tilni qiyoslash asosida bayon etgan.

Endi Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning imkoniyatlaridan birini ko‘rsatuvchi so‘z yasalishi to‘g‘risidagi talqinlarini asarda berilgan misollar asosida ko‘rib chiqamiz.

“Yana bir adolari borki, ba’zi alfozning so‘ngida “ch”, “chi” lafzidur (qo‘shimchasidur -demoqchi), orttururlar, yo mansabning yo hunarning yo pesha egasining (hunar, ish, kasbning-demoqchi) izhori uchun, bu forsiyda yo‘qtur, balki alarham turkcha ayturlar.

Mansabda andoqki, *qurchi* va *suvchi* va *xizonachi* va *kerak-yarog‘chi* va *chavgonchi* va *nayzachi* va *shukurchi* va *yurtchi* va *shilonchi* va *axtachi* bu *yo‘sunlug‘* ko‘ptur.

Hunar va peshada andoqki, *qushchi* va *borschi* va *qo‘ruqchi* va *tamg‘achi* va *jibachi* va *yo‘rg‘achi* va *halvochi* va *kemachi* va qo‘ychi. Andoqki qush hunarida dog‘i bu istiloh bordur, andoqki *qozchi* va kuvchi va *turnachi* va *kiyikchi* va *tovushqonchiki* sort lafzida yo‘qtur. Va alar mazkur bo‘lg‘onlarning ko‘pini turkcha ayturlar [Ergashev, 2011: 524].

Yuqoridagi misollardan koʻrinadiki, Alisher Navoiy “Ikki til muhokamasi”da hozirgi oʻzbek tilida qoʻllanuvchi shaxs oti yasovchi -chi qoʻshimchasining ma’no va vazifalari haqida fikr yuritib, mansab, hunar egasini anglatuvchi, biron ishni bajaruvchi ma’nosidagi otlar yasalishini aniqlagan. Soʻz yasalishi boʻyicha oʻz fikrlarini isbotlash maqsadida oʻsha davr hayotida qoʻllanilgan –chi qoʻshimchasi vositasida yasalgan turkiy soʻzlardan misollar keltirgan. Bu soʻzlarning koʻpchiligi saroy hayoti va xonlik saltanati turmushi bilan bogʻliq soʻzlardir. Albatta, Alisher Navoiy -chi qoʻshimchasi bilan yasalgan barcha soʻzlar hakida fikr yuritmagan, faqat fors tilida boʻlmagan va fors tiliga oʻzlashgan soʻzlar hakida fikr yuritgan, lekin shu ishlarni bajaruvchi shaxs nomlari forslar saltanatida iste’molda boʻlganligini qayd etadi.

Turkiy tilining soʻz yasash tizimi haqida fikr yuritishni davom ettirib u *-vul* qoʻshimchasi va bu qoʻshimcha bilan yasalgan soʻzlar hakida ham oʻz kuzatishlarini yozib qoldirgan.

“Yana bir “vov” va “lom” ba’zi lafzga ilhoq qilib bir maxsus sifatqa ta’yin qilurlarki, salotining xoh razm asbobi uchun va xoh bazm jihoti uchun moʻtabardur, Andoqki, *hirovul, qarovul* va *chingdovul* va yankovul va *soʻzovul* va *patovul* va *kitpovul* va *yasovul* va *shigʻovul* va *dakavul*kim, alar mundin oriydurlar” [Ergashev, 2011: 524].

Til ilmidagi ma’lumotlardan ma’lumki, -vul qoʻshimchasi oʻzbek tilining eng qadimiy oʻtmishiga xos yasovchilardan biri hisoblanadi. Bu qoʻshimcha bilan yasalgan soʻzlar ham tilning uzoq oʻtmishida yasalgan va shaxs otlari hisoblanadi, ma’lum bir ishni bajaruvchi, hunar sohibi, mashgʻulot egasi ma’nosidagi otlar yasalgan. Koʻpchiligi harbiy ishlar bilan shugʻullanuvchi kishilarning nomlarini anglatuvchi otlardir. A.Navoiy bu soʻzlar fors tiliga oʻzlashgani uchun ularni “Muhokamatul lugʻatayn” asarida ataylab keltirgan va oʻzbek tilining soʻz yasash tizimidagi farqli belgilar sifatida ta’kidlab koʻrsatgan.

Bu soʻzlarning hozirgi oʻzbek tilida yasama ekanligi bilinar-bilinmas darajaga kelib qolgan. Soʻzlarning tarkibidan -vul qoʻshimchasini olib tashlab soʻz yasalishi uchun asos boʻlgan qismini kuzatsangiz mustaqil ma’no anglatmaydigan holatga kelib qolganligi

ma’lum bo‘ladi. Tarixiy yasalish nuqtai nazaridan olib qaralsa, yasalishga asos bo‘lgan qism qachonlardir ma’no anglatadigan va mustaqil qo‘llanadigan so‘zlar bo‘lganligi aniq bo‘ladi.

H. Dadaboev -*vul* qo‘shimchasi haqida fikr yuritib, “mo‘g‘ulcha so‘z yasovchi -vul va -l affikslari bilan yasalgan birikmalarning diqqatga molikligini ta’kidlaydi: bu affiks xususida jahon turkologlarining mushtarak dunyoqarashi mavjud bo‘lmay, bir guruh tilshunoslar -*vul* ni turkiy tillarga xos qo‘shimcha, deb muloxaza yuritsa, ikkinchi guruh olimlar uni mo‘g‘ul tilidan kirib kelgan affiks deb hisoblaydi. XI-XIII asr mo‘g‘ul tilida o‘ta sermahsul bo‘lgan ushbu fe’ldan ot yasovchi affiks turkiy tillarda nisbatan passiv qo‘llanishda bo‘lgan.

XIV-XV asrlarga kelib -vul yordamida ko‘plab so‘zlar yaratilganligini “Yusuf va Zulayho” va “Gul va Navro‘z”dostonlarida qo‘llangan matnlar asosida quyidagicha aniqlagan:

1.*Yasavul* – “intizom saqlovchi, soqchi”:

Surdы yasavullar ulusnы tamam,

Qыldы tavazi’ birla Yusuf salam (Yusuf va Zulayho),

2. *Qaravul* – “soqchi harbiy guruh (avanpost)”:

Qaravulga kelib edi Gul yozi,

Hamin kim bu cherikka to‘shti ko‘zi (Gul va Navro‘z),

3. *Bakavul* – “saroy oshpazi”

Bardы bakavul yasadы dar zaman,

Altun ayaqda barыsы altы xan (Yusuf va Zulayho),

4. *Shыg‘avul* – “hukmdor qabuli, saroyida o‘tadigan rasmiy tadbirlarni uyushtiruvchi mutasaddi”**:** Shыg‘avullar qoyub i’zaz birla**.** Ag‘ыrsы qыldы izzku naz birla (Gul va Navruz) singari yasalgan anchagina so‘zlar manbalarda faol qo‘llanishda bo‘lgan.

Atoqli nemis turkologi va sharqshunosi G. Dyorferning fikricha, chig‘atoy adabny tilida -vul qo‘shimchasi ishtirokidagi 100 dan ortiq leksemalar iste’molda bo‘lgan. Fikr bildirilayotgan affiks va uning ishtirokida hosil qilingan terminlar haqida turkologiyada birinchi bor Alisher Navoiy “Muhokamatul-lug‘atayn» asarida mulohaza yuritganligi yaxshi ma’lum. [Dadaboev , 2007: 19-20].

G‘.Abdurahmonov va Sh. Shukurovlar -vul qo‘shimchasining fe’llardan ot yasalishini quyidagicha qayd etishgan:

-*vul* affiksi ma’lum guruh fe’llardangina ot yasaydi. Navoiy bu affiks bilan harbiy va saroy lavozimlarini bildiruvchi ot yasalishini aytib, quyidagi misollarni keltirgan:

xirovul - oldinda boruvchi otryad.

qarovul - soqchi, qorovul.

chindovul - xarbiy yurishda asosiy kuchlardan keyinda boradigan kism.

yankavul - suv tashuvchi.

sazavul - ad’yutant.

patavul - kal’a soqchisi.

yasavul - boshliq, sardor.

bakavul - dasturxonchi.

shig‘ovul- elchini kuzatib boruvchi.

dakavul- xizmatkor, kuzatuvchi” [Abduraxmonov., Shukurov. 1973: 68].

A.Navoiy o‘zbek tilining yana bir qo‘shimchasi haqida fikr bildiradi. Bu qo‘shimcha ham ma’no va vazifa jihatidan -vul qo‘shimchasiga birmuncha yaqin turadi.

“Yana ba’zi lafzga bir “lom” ilxaq qilurlarkim, ul shay’ning ul sifatda rusuxiga dalolat qilur. Andoqki *qahol* va *yasol* va *qabol* va *tunqol* va *tarqol* va *to‘sqol* va *suyurg‘ol*” [Sodiqov, 2017, 70].

-l affiksi ham shaklan, ham mazmunan -vul affiksi bilan bog‘liq. Navoiy -l affiksi bilan yasalgan otlar haqida gapirib, quyidagi misollarni keltirgan:

yasal - qo‘shin safi,

kabal - qamal, o‘rab olish,

tutkal - xazinachi, qimmatbaxo narsalarni saqlovchi,

tuskal - soqchi, qorovul,

suyurg‘ol - xissa, in’om, mukofot”.

Alisher Navoiy o‘zbek tilining so‘z yasalish tizimida fors tilidan farq kiladigan xususiyatlar borligini ana shu 3 ta –chi, -vul, -l qo‘shimchalari misolida talqin qiladi. Bu qo‘shimchalar bilan yasalgan so‘zlar fors tiliga o‘zlashganini ta’kidlagan. Harbiy ish, lavozim, mansab, saroy hayoti bilan bog‘liq so‘zlar turkiy so‘zlar ekanligini ko‘rsatish uchun shu qiyoslarni keltirgan. Bu ma’lumotlar hozirgi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik uchun muhim manbalardir.

A.Navoiy turkiy va sart tillaridagi so‘z yasalishi sohasida yuqorida ko‘rsatilgan so‘z yasovchi qo‘shimchalarn tashqari quyidagi qo‘shimchalar va ularga misollar keltiradi:

-sh – turk tilida harakatning bir necha kishi tomonidan bajarilishini bildiradi: *chopishmoq, topishmoq, quchishmoq, o‘pishmak;*

-t – turk tilida orttirma nisbat yasaydi: *yugurt, yashurt, qildurt, chiqart;*

Alisher Navoiy fe’l asosga qo‘shilib, leksemaga gumon va shubha ma’nosini yuklovchi –gudek, -kudek qo‘shimchalari haqida ham ma’lumotlar beradiki, affiksatsiya usuli bilan bunday ma’no ifodalash imkoniyati sart (forsiy) tilida mavjud emasligini ta’kidlaydi: borg‘udek, yorg‘udek, kelgudek, bilgudek, aytqudek, urg‘udek, surg‘udek. Ravishdoshning –gach shakli ning fe’l ga qo‘shilib, uning ma’nosiga “sur’at yo‘sunluq” bir ma’no yuklashini aytadi: *aytgach, barg‘ach, topg‘ach, satqach,tegach, bog‘och,topqoch, sotqoch kabi.* Shuningdek, yetakchyai fe’lga ko‘makchi f’ellar qo‘shilib, unga qo‘shimcha ma’no yuklashini ko‘rsatadi: *bila ko‘r, qila ko‘r, keta ko‘r, yeta ko‘r kabi.*

Sifatlar shaklining yasalishi haqida A.Navoiy o‘zi «Muhokamat-ul lug‘atayn»da quyidagicha yozadi: «Va yana bir rang yo bir sifatning humuli holig‘a mubolag‘a uchun aning avvalida, avval harfiga bir «p» yo «mim» izofa qilib, ul shayg‘a zoid qilurlar; «p» misoli: *op-oq, qap-qars, qip-qizil, sap-sariq, yup-yumaloq, yap-yassi, op-ochiq, chup-chuqur,* bu nav hili ham topilur, «mim» misoli: *ko‘m-ko‘k va yam-yashil, bo‘m-bo‘z* va b. Hozirgi o‘zbek tilida esa kap-katta, tap-tayyor, dum-dumaloq, kuppa-kunduz, chippa-chin, up-uzun, jim-jimaloq kabilar ham shular jumlasidandir .

Xulosa sifatida Alisher Navoiyning turk va sart tillarining qiyosidagi so‘z yasalishi, leksik-morfologik, fonetik imkoniyatlari xususidagi fikrlarini muqoyasa qilib shuni aytish zarurki, shoir ushbu asarida turkiy (o‘zbek) tili ona tilimizning fidoyisi va jonkuyar tilshunosi sifatida turkiy tilning cheksiz imkoniyatlari bu tilning so‘z boyligi, so‘z yasash vositalarning ko‘pligi, fonetik, uslubiy bo‘yoqdorligi rang-barang ekanligini butun dunyoga namoyon etadi. Alisher Navoiyning so‘z yasalishi haqidagi ilmiy talqinlari tilshunos tadqiqotchilar uchun muhim manba va mayoqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Ўзбекистон, – Т.:2002. – Б.91-92.

2. Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик.Муҳокамат-ул луғатайн (нашрга тайёрловчи: Қ.Эргашев). Ўзбекистон матбуот ва ахборот агентлиги Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. , – Т.:2011. – Б. 512 -537.

3. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Қосимжон Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. – Т.: Академнашр, 2017. – 90 б

4. Дадабоев Ҳ.Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Т.: Фан, 2007. – Б. 39-40

5. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси– Т.: Фан, 2007.

ALISHER NAVOIYNING «XAMSA» ASARINI INTELLEKT XARITA (MIND MAP) YORDAMIDA O‘RGANISH

Abduqahhor G‘ANIYEV
Marvarid NURBAYEVA
Sarvar TOSHEV
Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’limda o‘quvchilarning tasavvur qilish va ijodiy fikrlashini rivojlantirish tamoyillari xususida fikrlar bayon etilgan. Odamlarning fikrlash qobiliyatlari, ya’ni intellektual imkoniyatlari turlicha bo‘lishi haqida alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. *Ijodiy fikrlash, tasavvur, intellekt xarita, o‘quvchi, “Xamsa”, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”.*

Annotation

In this article the principles of developing students’ imagination and creative thinking in education are discussed. Special emphasis is placed on the fact that people have different thinking abilities, intellectual abilities. The comments on creative thinking in the article are analyzed on the basis of the epics in the work “Khamsa” by the great thinker of Uzbek classical literature Alisher Navoi.

Key words. *Creative thinking, imagination, intellectual map, reader, “Khamsa”, “Hayrat ul-abror”, “Farhod and Shirin”, “Layli and Majnun”, “Sab’ai Sayyar”, “Saddi Iskandariy”*

Fan va texnikaning jadal taraqqiyoti ishlab chiqarishning yangi yo‘nalishlarini va bu yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatuvchi malakali mutaxassislarni tayyorlashni taqozo qiladi. Ularni tayyorlash va qayta tayyorlash ulkan mablag‘lar sarflanishiga olib keladi. Agar mutaxassisning o‘zi yangi texnologiyalarni yaratsa, sarflanadigan

mablag‘larni kamaytirish, yangi sohalar ehtiyojlarini qondira oladigan mutaxassislar tayyorlashning imkoni tug‘ilardi.

Buning uchun ular qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

- ulkan ma‘lumotlar oqimidan eng dolzarblarini ajrata bilish va unga aloqador bilimlarni egallash;
- bu bilimlarini yangi vaziyatga qo‘llay olish;
- egallagan bilimlariga tayanib eng muhim muammolarni ajratish;
- muammolarning yechimlarini topib ularni ishlab chiqarishga tadbiq eta olishlari kerak.

Bunday talablarga javob beradiganlarga «ijodiy fikrlovchi» mutaxassislar deyiladi [Meyerovich, 2003: 12-19].

«Ijodiy fikrlash»ga o‘rgatish esa ta‘lim jarayonida amalga oshiriladi.

«Ijodiy fikrlash» - muammoning yechimini topish uchun yangi narsani yaratish maqsadidagi fikrlash.

Ta‘limda ijodiy fikrlash-mavzuning ma‘nosini tushunishga yo‘naltirilgan, o‘quvchilarning tasavvur qilish va «ijodiy fikrlashini» rivojlantirishga undaydigan fikrlash. Odamlarning fikrlash qobiliyatlari ya‘ni intellektual imkoniyatlari turlicha. Bunga sabab nima? Genetikami (insonning biologik tabiati) yoki muhit va tarbiyami?

Umuman olganda avloddan olinadigan genetik kod kishi intellektining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi *[Nemov, 2005: 56-62]*. DNK miz qaytarilmas va noyob bo‘lib uni o‘zgartirish sohasida dastlabki qadamlar tashlanmoqda xolos. 2020-yil kimyo fani bo‘yicha Nobel mukofoti genomni tahrirlash bilan jonzotlar va o‘simliklar DNK sini o‘zgartirishga bag‘ishlangan kashfiyotlari uchun E. Sherpante va Dj. Dudnalarga berildi *[Sultan Kazinform, 2020]*. Shu bilan birga olimlar shaxsning shakllanishida ta‘lim va tarbiyaning o‘rni beqiyosligini e‘tirof etishadi. Ularning fikricha, innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash bilan o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va xotiralarini o‘nlab marta yaxshilash mumkin. Demak kishining intellektual potensiali uchun genetikaning o‘rni katta bo‘lsada u o‘sadigan muhitning ta‘siri ham salmoqlidir *[Bono, 2005: 23]*.

Ta‘lim davomida inson miyasida qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi? Neyrobiolog va bioximik Erek Kandel (2006-yilgi Nobel mikofoti sohibi) isbotlashicha ta‘lim jarayonida inson miyasining ma‘lumotlar “o‘tkazgichi” (neyron tolasi) o‘zgaradi. Hattoki eng kichik ma‘lumot ham neyron tuzilishida o‘zgarishlarga olib keladi *[Kandel, 2012: 524]*.

Odamlarning miyalari bir xilmi yoki farq qiladimi? Har bir odam miyasi gippokamp, gipofiz va dunyodagi eng yupqa elektrokimyoviy bilim saqlovchi – bosh miya po‘stlog‘idan tashkil topadi. Ularning istalgan miyadagi vazifalari bir xil. Unda har bir odam miyasining individualligi nimada?

Bosh miya po‘stlog‘i bosh miya o‘ng va chap yarimsharlarini yopib turadi. Ular insonning ma‘lum faoliyatlarini boshqaradi. Amerikalik neyrofiziolog **Sperri Rodjer –** 1981-yilda «bosh miya yarimsharlarining funksional mutaxassisliklariga aloqadorlik kashfiyoti» uchun yarim Nobel mukofoti olgan.

Bosh miyaning **chap yarimshari** tananing o‘ng qismini boshqaradi. Unda mantiqiy fikrlash mexanizmlari rivojlangan. **Bosh miyaning o‘ng yarimshari** tananing chap qismini boshqaradi. Unda obrazli fikrlash mexanizmi rivojlangan bo‘lib, nostandart fikrlarni vujudga keltiradi.

Odam miyasida ma‘lumotlar tashiydigan neyron tolalari o‘ziga xos harakat kanallarini ochadi. Bu kanallar «so‘qmoq yo‘llar» ga o‘xshab ketadi. Dunyoda aynan shu «so‘qmoq yo‘llari» bir xil bo‘lgan ikkita odam mavjud emas. Har bir odam miyasining turli qismlari turlicha rivojlangan bo‘ladi. Butun hayot davomida nima qilmaylik, nimani o‘rganmaylik u miyamizdagi neyron tolalarining shakliga va ko‘rinishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda uning «so‘qmoqlari» ni o‘zgartiradi *[Byuzen, 2019: 25]*.

«Ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi usullar ko‘p. Quyida zamonaviy usullardan biri «Intellekt xarita» bilan tanishamiz.

«Intellekt xarita» «ijodiy fikrlash» asosida istalgan muammoning yechimini topishning analitik vositasidir.

IX ning ustunliklari. Verbal ma‘lumotlarga vizual ko‘rinish berish ta‘limning samaradorligini bir necha marta oshiradi. Shu nuqtai nazardan «Intellekt xarita» «ijodiy fikrlash» ga o‘rgatishning ideal vositasidir.U nimalari bilan foydali:

- muammoga aniqlik kiritadi;
- muammoni yechishni rejalashtirish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni tartibga soladi;
- vaziyatni to‘la tasvirlashga yordam beradi;
- verbal ma‘lumotlarga vizual ko‘rinish beradi;
- barcha zarur ma‘lumotlarni saqlash vositasiga aylanadi;
- g‘ayrioddiy yechimlarni rag‘batlantiradi;
- fazoviy ko‘rish intellektini rivojlantiradi.

«Intellekt xarita» ma‘lumotlarni xotirada saqlashning sermahsul quroli bo‘lishi bilan birga:

- «ijodiy fikrlashni» rivojlantiradi va fikrlash jarayonini g‘ayrioddiy ifodalaydi. Yangi g‘oyalar tug‘ilishiga va ularning birlashuviga yordam beradi;
- muammoning eng maqbul yechimini topish uchun diqqat aniq mavzuga qaratishini taqozo etadi. Bu esa diqqatni jamlashni o‘rgatadi.
- ikkinchi darajali masalalarga e‘tibor bermay, muammoning asosiy yo‘nalishini aniqlab olishga o‘rgatadi.

Tajribalarning ko‘rsatishicha intellekt xarita inson miyasida ro‘y beradigan fikrlash jarayonining tabiiy aksidir. Boshqacha aytganda inson ichki intellekt xarita yordamida fikrlaydi.

Intellekt xaritada quyidagi uchta tarkibiy qism bo‘ladi:

1. Markaziy obraz. U o‘rganilayotgan mavzuni ifodalashi lozim.
2. Markaziy obrazdan chiquvchi qalin shoxlar. Bu shoxlar o‘rganilayotgan muammoning asosiy mavzularini tasvirlaydilar. O‘z navbatida asosiy shoxlar kichik temachalarni ifodalovchi shoxchalarga bo‘linib ketadi.
3. Har bir shoxda bitta kalit so‘z yoki tasvir bo‘lishi kerak. Chunki so‘z u yoki bu narsani ifodalab yangi g‘oyalarning tug‘ulishiga olib keladi.

Intellekt xarita -tuzishda quyidagilarga e‘tibor berish zarur:

Rang. Ko‘p ranglilik kishining xotirasining va ijodiy fikrlashining yaxshilanishiga yordam beradi. U tasvirni jonlantiradi va jozibadorligini oshiradi. Ma‘lumotlarning xotirada uzoq saqlanishiga yordam beradi.

Tasvir. Miya so‘zga nisbatan tasvirni tez qabul qiladi. Chunki u vizual ma‘lumotni verbal ma‘lumotga nisbatan 60 000 marta tez qayta ishlaydi. Tasvir tasavvurni rivojlantiradi va bosh miyaning o‘ng yarimsharini faol ishlashga undaydi.

Miya ma‘lumotlarni matn ko‘rinishidagi shaklda emas IX shaklidagisini yaxshi qabul qiladi. R.Xober tomonidan 1970 yilda “tasvirlarni tanish” bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaga muvofiq odamlarning bunday xotirasi amalda “fotografik” xotiradir. Eng oddiy odam o‘ziga ko‘rsatilgan 10000 fotosuratdan 98 foizdan ko‘prog‘ini eslab qola oladi. Bundan chiqdi rangli tasvirlardan iborat «Intellekt xarita» dan ma‘lumotlarni miyada saqlaydigan eng yaxshi vosita sifatida foydalanish mumkin.

So‘z. IXning shoxlarida alohida so‘zlar yoziladi. Bundan maqsad har bir so‘zning o‘z aloqalari mavjudligi. Bu esa o‘z navbatida yangi g‘oyalarning tug‘ilishiga olib keladi. Chunki keyingi shoxchalardagi so‘zlar narsaning mazmuni bilan qiziqish va masalaning mohiyatigacha borishni ta‘minlaydi. Boshqacha aytganda u miya uchun ilmoq vazifasini bajarib undan taassurotni osib qo‘yishda foydalanish mumkin. Demak, «intellekt xarita» ni tuzish tasavvurning rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida bosh miyani o‘ng yarim sharining faollashuviga va demak “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarining yaxshilanishiga sabab bo‘ladi. Bu esa «Intellekt xarita» ning ta’lim jarayonida keng qo‘llanilishiga olib kelmoqda. *[G‘aniyev, 2020]*.

«Intellekt xarita» dan istalgan jumladan ijtimoiy fanlar bo‘yicha ma’lumotlarni vizuallashda foydalanish mumkin. Quyida A. Navoiyning «Xamsa» asarini o‘rganishda intellekt xaritadan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz. «Xamsa» intellekt xaritasi asarida mavjud barcha qahramonlar haqida ma’lumotlarni mujassamlashtira oladi. Shuningdek bu qahramonlarning xulr-atvori,fazilatlari va qilgan ishlari haqida ma’lumot beradi. Eng asosiysi intellect xarita o‘quvchilarda asarda bayon etilgan voqealarni «tasavvur» qilishga va demak ularga bog‘liq syujetlar haqida «ijodiy fikrlash» ga undaydi. Bu esa bugungi ta’lim jarayonining eng dolzarb muammosidir. «Xamsa» intellekt xaritasida akslangan obrazlar haqidagi ma’lumotlarni keltiramiz.

Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi obrazlar

“Hayrat ul-abror” dostonidagi obrazlarni dostondagi masalalarning rivojlanishida, asarning kompozitsiyasida qanday o‘rin tutishiga qarab uchga bo‘lish mumkin:

1. Dostonning bosh qahramoni.
2. Maqolatlardagi tavsifiy obrazlar.
3. Hikoya va masallardagi epik obrazlar.

1. Dostonning bosh qahramoni – Navoiyning o‘zi. Asarning muqaddimasidan tortib xotimasiga qadar shoir obrazi kitobxonning doimiy hamrohidir.

2. Maqolatlardagi tavsifiy obrazlar: “Salotin” maqolatidagi zolim shohlar, “Xirqapo‘sh shayxlar” maqolatidagi riyokor shayxlar va badbin zohidlar, “Ilm sipehri” maqolatidagi musofir talabalar, “Qalam ahli” maqolatidagi johil amaldorlar, “Jahl mayining durdkashlari” maqolatidagi mayxo‘rlar, “Xudnamolar” maqolatidagi xudbin va mutakabbir amaldorlar obrazi.

3. Hikoya va masallardagi epik obrazlar: Shoh G‘oziy-adolatli shoh (Navoiy bu obrazda do‘sti Husayn Boyqaro siymosini gavdalantiradi); Hotam-saxiy, himmatli kishi; Mo‘ysafid-qanoatli va mehnatkash inson; Faxriddin Roziy-ilm-fan egasi.

“Farhod va Shirin” dostoni. Ijobiy obrazlar:

Farhod - nihoyatda kamtar, aqlli, zehnli, ilmli, hunarli, mehnatsevar, ijodkor xitoylik shahzoda, komil inson.

Shirin – ilmli, aqlli, iffatli arman qizi; komila, oqila, fozila ayol; sadoqatli, vafodor yor, tadbirli murabbiya, odil va donishmand davlat arbobi. Farhodning sevgilisi.

Mehinbonu – ilm-ma’rifat homiysi, adolatli hukmdor (kanal qazish ishlarida Farhodga rahnamolik qiladi), mehribon ayol. Shirinning ammasi.

Shopur – iste’dodli san’atkor-rassom va sayyoh, sofdil va samimiy kishi, sadoqat va do‘stlik bobida Benazir. Farhod va Shirinning bir-biriga yetishishida kuch-quvvatini ayamaydi.

Bahrom – mard, botir va adolatparvar shaxs. Farhodning yoshlikdagi do‘sti; Farhodni izlab Armanistonga kelganda, Farhod va Shirin vafot etishgan bo‘ladi. Bahrom bundan qattiq qayg‘uradi. U Armanistonni Sheruya qo‘lidan ozod qiladi.

Salbiy obrazlar:

Xisrav – xudbin, zolim, johil, kayf-safoga berilgan Eron podshosi. Shiringa uylanish bahonasi bilan Armanistonni egallamoqchi bo‘ladi, biroq yovuz niyati amalga oshmaydi. U o‘z o‘g‘li yovuz Sheruyaning qo‘li bilan halok bo‘ladi.

Sheruya – johil, insofsiz, razil, xudbin, mansabparast va badxulq Eron shahzodasi, ya’ni Xisravning o‘g‘li. Sheruya Shiringa oshiqlik niqobi ostida o‘z otasini o‘ldiradi. Aslida uning maqsadi otasining toj-taxtini egallash va Armanistonni qo‘lga kiritish edi. Ammo u maqsadiga erisha olmaydi. Farhodning do‘sti Bahromning odil hujumiga tob berolmay yengilib, sharmanda-yu sharmisor bo‘ladi.

“Layli va Majnun” dostoni. Ijobiy obrazlar:

Qays(Majnun) – dostonning bosh qahramoni. U samimiy oshiq, iste’dodli shoir va olijanob inson. O‘sha davrning vahshiyona urf-odat va qoidalari, Laylining otasidek xudbin va zo‘ravon kishilar uning boshiga kulfat va musibat toshlarini yog‘dirib, fojiali o‘limga mahkum etadilar.

Layli – tashqi va ichki dunyosi birdek nihoyatda go‘zal, ilmli qiz; katta qabila boshlig‘i, davlatmand oila farzandi. Qaysning maktabdoshi. U – vafodor yor. Qaysga bo‘lgan muhabbati bois o‘limga ham tik boqadi. Layli – mazluma qiz. Uning inon-ixtiyori o‘zida emas, muhit uning haq-huquqini poymol qilgan. U – olijanob inson. O‘z baxtidan ham Qaysning baxtli bo‘lishini chin dildan istaydi. Layli o‘limi oldida ham Qaysni unutmaydi.

Navfal – bahodir va olijanob odam. U hayotning achchiq-chuchugini totigan. Dashtda ov qilib yurganida Qaysni uchratadi. Qays unga ko‘nglidagi barcha so‘zlarini aytadi. Navfal Laylining otasi bilan uchrashib, Qaysning sof muhabbati haqida so‘zlab beradi, lekin johil otadan rad javobini oladi.

Salbiy obrazlar:

Laylining otasi – xudbin, razil, mushtumzo‘r, bosqinchi, el-yurt boshiga musibat soluvchi hukmdor. U qizi Layliga bir buyum deb qaraydi. U – qotil! Laylining g‘unchaligidayoq o‘lib ketishiga ham, Qaysning “Majnun” bo‘lishi va fojiali o‘limiga ham, Qays ota-onasining farzand dog‘ida qon yutib, murod-maqsadlariga erisholmay o‘lib ketishlariga ham sababchi bo‘ladi.

Ibn Salom – or-nomussiz, shafqatsiz, adolatsiz kishi, aysh-ishratga berilgan xudbin soxta oshiq. U mol-davlati tufayli Laylining otasiga manzur bo‘ladi. Mayparast Ibn Salom nikoh ayyomida ichkilikka berilib ketadi, zaharlanib sharmanda bo‘ladi, kasali tutadi. Layli undan qutuladi.

“Sab’ai sayyor” dostoni

Bahrom – dostonda keltirilgan Bahrom va Dilorom haqidagi qoliplovchi hikoyaning bosh qahramoni. U shoh va oshiq. Bahrom ziddiyatli xarakterga ega bo‘lgan murakkab obraz. Navoiy bu obraz qiyofasida bir-biriga qarama-qarshi ikki shaxsni: odil podsho va vafodor oshiqni hamda o‘z huzur-halovati va shaxsiy kayfiyatlariga berilib, el-yurtning ahvoli va davlat ishlaridan chetlashgan o‘z ehtiroslariga asir bo‘lgan shuhratparast podsho va xudbin oshiqni tasvirlaydi. Bahrom ilk taxtga o‘tirgan paytlarida mamlakatni adolat bilan boshqaradi, uni obod va elni shod qiladi, biroq u tez orada aysh-ishratga, ovga berilib, aql-iroda jilovini his va ehtiros qo‘liga topshirib qo‘yadi. Ana shu aqlsizlik tufayli uni yer yutadi.

Dilorom – husni latofatda tengsiz. U juda iste’dodli san’atkor; olijanob qalbli, musaffo xulq-atvorli ayol, sadoqatli yor. Biroq Dilorom erksiz, tutqun. U go‘daklik chog‘ida Xitoydagi ikki xonning urushi tufayli asira bo‘ladi. Bu asirani Xojaga – savdogarga sotadilar. Befarzand Xoja avval uni farzand qilib asrasa, Diloromga xaridorlar ko‘paygandan so‘ng uni katta pulga sotmoqchi bo‘ladi. Nihoyat, Xitoy xoqonining Bahromga to‘laydigan bir yillik xiroji badaliga uni Bahromga sotadi.

Moniy – rassom. Bahrom bilan ovda uchrashadi va uning qo‘lida Dilormning suratini ko‘rgan Bahrom Diloromga oshiq bo‘lib qoladi.

Xitoy savdogari – Diloromni go‘dakligidayoq asrab olib katta qiladi va oxir-oqibat katta pulga kanizak qilib Bahromga sotib yuboradi.

“Sab’ai sayyor” dostonining g‘oyaviy-badiiy to‘qimasida yetti hikoya nihoyatda keng va katta o‘rin tutadi. Shohlik xudbinligi va qahr-u g‘azabi sevgisidan ham ustun bo‘lgan Bahrom Diloromning “ov mahorati - mashqning samarasi” degan gapi uchun uni sochi bilan qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, kimsasiz cho‘l-biyobonga – o‘lim

qa’riga tashlab ketadi. Ushbu hikoyalar Bahromning Diloromdan ayrilgan kezlari uni topish maqsadida, yetti qasr qurdirib, yetti kechada yetti musofir bilan uchrashishi va ular tilidan hikoyalar tinglashi asosida keltiriladi.

“Saddi Iskandariy” dostoni

Iskandar – adolatli va ma’rifatparvar ideal podsho obrazi. U shoh va olim. Dostonda Iskandarning tug‘ilishi, yoshlik yillari, ta’lim-tarbiyasi, Faylaqusning vafoti va Iskandarning taxtga chiqishi, Iskandarning Doro bilan to‘qnashuvi, Eronni egallab olib, u yerda adolat o‘rnatishi, Kashmirga yurish qilib, zolim Malluni yengishi, Hind shohi va Chin xoqoni bilan do‘stona bitishuvi, Mag‘ribda vahshiylarga qarshi jangi, Qirvon o‘lkasida ya’juj va ma’jujlarning yo‘lini to‘sish uchun sad barpo etishi hamda dengiz sayohati Iskandar sarguzashtlarining asosini tashkil etadi.

Olimlar obrazi

Naqumojis (Nikomaxos-Arastuning otasi) – Iskandarning murabbiysi va ustozi. Arastu (Aristotel), Filotun – Aflotun (Platon), Suqrot (Sokrat), Asqalinus (Iskilinus), Buqrot (Gippokrat), Hurmus (Germes) va Faysog‘urs (Pifagor)lar.

Dostonning xotimasida yetti olim tilidan aytilgan so‘zlar doston mazmunini takomillashtiradi: podsho elga mushfiq va marhamatli bo‘lishi - Arastu (Aristotel); sipohni lutfi bilan shod, raiyatni adli bilan obod qilishi - Filotun – Aflotun (Platon); ulusning osoyishtaligi uchun kurashmog‘i - Suqrot (Sokrat); yaramas kishilarga nisbatan siyosat qo‘llashi, qattiqqo‘l bo‘lishi - Buqrot (Gippokrat); og‘zi, so‘zi, ko‘ngli va ko‘zi pok - Faysog‘urs (Pifagor); himmatli va saxovatli bo‘lishi - Hurmus (Germes), lutfli, adolatli bo‘lishi kerak - Asqalinus (Iskilinus).

Bonu – mushfiq va mehribon ona, tadbirli va tajribali davlat arbobi hamda zakovatli olima. Suyukli farzandi Iskanfdarning o‘limidan qattiq iztirob chekadi. Iskandarning ishlarini davom ettirib, adolat bilan Rumni boshqaradi.

Lu’bati Chin – mislsiz jasoratli qiz. Iskandar qo‘shinlari Mag‘ribda vahshiylar boshlig‘i bilan yakkama-yakka jang qilishga botinolmay turganda, niqoblangan Lu’bati Chin maydonga kiradi , jasorati, chaqqonligi va kuch-quvvati bilan vahshiylar boshlig‘ini yengadi,

shu bilan u Iskandar qo‘shinini mag‘lubiyat va sharmandalikdan qutqarib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Р. С. Немов «Психология» книга 3. Москва. Владос. 2005 г. 56-62 стр.
2. 2020 йил кимё фанидан Нобель мукофоти лауриятлари Nur-Sultan.Kazinform 2020 yil.
3. Э.де Боно Серьезное творческое мышление. Мн. ооо. «Попурри» 2005 г. 20-80 стр.
4. Э.Р. Кандель.В поисках памяти/пер П. Петрова-М. Астрель. 2012. 736 стр.
5. Т. Бюзен «Интеллект карты» Москва. « Манн. Иванв и Фервер» 2019 г. 25-90 стр.
6. G‘aniyev Abduqahhor Gadayevich - Shakhrisabz branch of Tashkent

NAVOIY NUTQNING SALBIY OMILLARI HAQIDA

O‘tkurjon ISLAMOV
O‘zDSMI
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning nutq madaniyati va odobi haqidagi qarashlari xususida fikr yuritilgan. ***Kalit so‘zlar:*** *til, so‘z, nutq, nutq odobi, nutq madaniyati, fikr, salbiy.*

Annotation

This article discusses Alisher Navoi’s views on speech culture and etiquette.

Key words: *language, word, speech, speech etiquette, speech culture, thought, negative.*

O‘zbek tilshunosligida Alisher Navoiy badiiy ijodi, uning mazmun va mundarijasi, badiiyati yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ayniqsa, shoirning lingvistik merosi [1] hamda o‘zbek tilining rivojidagi o‘rni va roli haqida bir qancha ilmiy tadqiqotlar va bu tadqiqotlarga oid turli munosabatlar mavjud. Alisher Navoiyga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar va tadqiqotlarda uning til, nutq va nutq odobiga oid mulohazalari ham tahlil etilgan bo‘lib, mazkur qarashlar navoiyshunoslik fanining asosiy qismini tashkil etadi. Chunki adibning har bir asarida, ayniqsa, “Xamsa”ning barcha dostonlaridan so‘zga bag‘ishlangan maxsus boblar o‘rin olgan bo‘lib, bu ham shoirning so‘zga, tilga naqadar e’tirborli ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Alisher Navoiyning lingvistik merosi, asarlari tili va uning badiiyati, lingvopoetika va lingvostilistikasi fundamental ravishda qoniqarli tadqiq qilingan, deb bo‘lmaydi. R.Qo‘ng‘urov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Alisher Navoiyning til haqidagi mulohazalari bir qator maqolalarda turli yo‘nalishda talqin qilingan. Ammo “Ushbu maqolalarda buyuk mutafakkirning tilga olingan mavzularga oid fikri

u yoki bu darajada talqin qilinsa-da, ular muayyan sistemaga ega bo‘lgan yo‘nalish atrofiga birlashtirilmagan, fundamental ravishda umumlashtirilgan emas” [2].

Til va nutqning mazmun va mohiyati, kommunikativ xususiyatlari yuzasidan Alisher Navoiy bildirgan ilmiy mulohazalar sof lingvistik ta’limot, sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvostilistika, lingvopoetika, til falsafasi, nutqiy etika va estetika, umumiy tilshunoslik, til tarixi va qiyosiy tilshunoslik, tarixiy matnshunoslik fanlari nuqtai nazaridan tadqiq qilishni talab qiladi. Alisher Navoiyning nutq madaniyati va odobiga oid qarashlarini o‘rganish orqali jamiyatda namunali nutqning turli talablari va me’yorlari mavjud ekanligi, lekin hamma ham bu talablarga javob bera olmasligi haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Ushbu talablar orqali shoirning nutq madaniyati va muloqot odobini buzadigan salbiy omillar haqidagi qarashlari yuzasidan bildirgan fikrlari nutqdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda asosiy manba hisoblanadi. Chunki Navoiy davri misolida aytilgan ushbu qarashlarga oid fikrlar bugungi kun kishilari orasida ham uchrab turadi. Demak, nutq madaniyati va odobi masalasi har bir davrda o‘ziga xos tarzda hal etib kelingan.

Alisher Navoiy tilning sofligi, yetukligi haqida qayg‘urar ekan, tilga bepisandlardan nafratlanadi. Bundaylarni “Tilga e’tiborsiz – elga e’tiborsiz” deya qoralaydi. Navoiy tilga bepisandlarni, tilni ataylab buzuvchilarni (yolg‘onchi, chaqimchi, qo‘pol tillilarni) hatto jamoadan quvib chiqarib, qattiq jazolash lozim, deb hisoblaydi. Navoiy fikricha, kimki tilga bepisan, o‘z nutqiga e’tiborsiz va ixtiyorsiz bo‘lsa, u til tizimiga noo‘rin iboralarni, qo‘pol so‘zlar va ifodalarni, qo‘rs ohangni olib kiradi. Suhbatdoshni til yordamida aldaydi, chin fikrni yashiradi. Yomoni shundaki, bunday odamlar suhbatdoshini mana shunday salbiy tomonlarga o‘rgatadi, hatto uni muloqot chog‘ida bunday xatoga majbur qiladi. O‘zidan o‘rnak olishga undaydi.

Yuqoridagi qarashlar bo‘yicha Alisher Navoiy Abu Abdulloh Sijziy (q.r) haqida shunday fikrini keltiradi: *“Abu Abdulloh Sijziy q.r. Ikkinchi tabaqadindur. Abu Hafz bila suhbat tutubdur. Ul debdurki, voizki, tavongar aning majlisidin muflis va muflis, aning majlisidin*

tavongar chiqmag‘ay ul voiz ermas”. (Nasoyim ul-muhabbat, 82-bet).

Navoiy Mavlono Ayoziy ismli shoir she’rlarining mazmuni sayoz, yuzaki, ma’lum fikrlardan iborat ekanligini tanqid qilib yozadi: *“Mavlono Ayoziy – g‘arib shakllik kishi erdi. Atvori va so‘zi xoh nazm, xoh nasrda g‘arib erdi. Faqir bir majlisda Puli Molonda ani ko‘rdum, bir anjumanda bir qasidasin o‘quydur erdi. Har bayt bunyod qilsa, so‘z uslubidin, qofiyasin ayta berur erdim”.* (Majolis un-nafois, 54-bet)

Alisher Navoiyning nutq madaniyatini buzadigan salbiy omillar haqidagi qarashlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, ushbu talablarga zid keladigan omillar xususida bildirgan fikrlarini nutqning sifatlari bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish imkonini berdi.

Puxta o‘ylamay so‘zlash, sayoz fikrlilik, sovuq nafaslilik. Bu o‘rinda Navoiy “nomaqbul so‘zlar aytuvchi, sovuq nafasli” ma’nosini beruvchi ***damsard*** (درس مد) so‘zini qo‘llagan:

*Sovug‘ damlar bila ul zoli **damsard**,*
Chiqordi ul ko‘kka tufrog‘din gard. (Farhod va Shirin, 402-bet)

Navoiyning ta’kidlashicha, nimadandir xabardor bo‘lib yoki ko‘zga ko‘ringan har qanday voqea-hodisani so‘zlayverish (tilga keltirish) to‘g‘ri emasligini, inson doimo kerakli narsa haqida so‘zlashi lozimligini quyidagi misralarda ko‘rishmiz mumkin:

Til bori ul debki, demak xo‘b emas,
Ko‘z ko‘rubon oniki, matlub emas. (Hayratul-abror, 126-bet)

Navoiyning har bir asaridan uning o‘zbek tiliga daxldorlik hissi sezilib turadi. Navoiyning yozishicha, kishi umuman ona tili oldidagi mas’uliyatini sezmas ekan, demak, nutqi oldidagi mas’uliyatni ham his qilmaydi. Demak, kishining o‘z nutqiga e’tiborli bo‘lishi uning o‘ziga e’tiborli bo‘lishi demakdir:

Sen o‘zungni tonimas ermishsen,
O‘z so‘zungni tonimas ermishsen. (Sab’ai sayyor, 406-bet)

Demak, insonning kim ekanligi uning so‘zi orqali namoyon bo‘ladi. Mana shu fikrni adib: “Tilga e’tiborsiz – elga e’tiborsiz” deya kengroq ma’noda ifoda etgan va bu hikmatli gap endilikda xalq orasida maqol, hikmatli so‘z darajasida yaxshi ma’lum.

Nutq madaniyatini buzadigan xususiyatlardan biri nutqning keraksiz ravishda cho‘ziq bo‘lishidir. Bunda Navoiy *daroznafas,*

purgo‘, purgo‘yluq so‘zlaridan foydalangan va keltirilgan tushunchalarni quyidagicha talqin qilgan:

Daroznafas **(**سفـنزارد**)** – gapni cho‘zuvchi, ezma:

Kel Navoiy, fasonani qil bas,
Kim, emishsen ajab ***daroznafas****.* (Sab’ai sayyor, 410-bet)

Purgo‘ **(**وگـروپ**)** – sergap, ezma; nutqni bemaqsad cho‘zuvchi:

Navoiyo, chu emas nasya naqd birlan teng,
Bexisht voizi ***purgo‘g‘avu****, Hirot manga.*
(Navodir ush-shabob, 15-bet)

Purgo‘yluq (قول ی وگـروپ) – sergaplik, ezmalik: *“Mavlono Humoiy bir majlisda anga bir ayoq bersalar, ul arbada va* ***purgo‘yluqkim****, andin zohir bo‘lur, aning sharhi mutaazzirdur”.* (Majolis-un nafois, 159-bet) Nutqiy faoliyatdagi salbiy holatlardan birini og‘iz ko‘pirtirib, oshirib gapirish, lof tashkil qiladi:

Lafzlari bemaza, tarkibi sust,
Nosaro ma’niyu ado nodurust. (Hayratul-abror, 64-bet)
Og‘ziki bir nukta demay juz xilof,
Borcha binoyi zanaxu o‘zga lof. (Hayratul-abror, 268-bet)

O‘rinsiz takror. Nutq madaniyatini buzadigan holatlardan biri nutq jarayonida biror fikr, uni ifoda etuvchi so‘z, gapni o‘rinsiz takrorlashdir. Navoiy ushbuni quyidagi misralarda aniq va ravshan ta’kidlagan:

Bir deganni ikki demak xush emas,
So‘z chu takror topti dilkash emas. (Sab’ai sayyor, 73-bet)

Navoiyning fikricha, beo‘rin takror nutqning yoqimli, dilkash, dilga yaqin, samimiy bo‘lishiga zarar yetkazadi.

Nutq jarayonida qo‘pol, beadabona so‘zlardan foydalanish. Alisher Navoiy so‘zlash jarayonida beadabona, qo‘pol, uyatli ma’noga ega so‘zlarni qo‘llashni qoralaydi va nutqning bunday sifatini *beodobona* (ی بانابادآ), uning egasini esa *badzabon* (نابزدب) so‘zlari bilan nomlaydi. Chunki bunday so‘zlarni qo‘llash nutqni va uning egasini odob doirasidan chiqaradi, suhbatdoshga hurmatsizlikni anglatadi, nutqning mazmuniy va shakliy nafosatiga zarar yetkazadi. Navoiy mana shu fikrlarni quyidagicha talqin qilgan:

Badzabon (نابزدب) – achchiq tillilik, yomon til (nutqdir): *"Ali Karmol, bag'oyat, safih va* ***badzabon*** *kishi erdi"*. (Majolis un-nafois, 118-bet); *"Mavlono Darvesh Mashhadiy – safih va* ***badzabon*** *kishidur"*. (Majolis un-nafois, 77-bet).

Beodobona (یب انابادآ) – odobsiz, hurmatsizlik bilan odobsizlarcha so'zlar aytmoq: *"Mavlono Yaqiniy ... oxir damida* ***beodobona*** *so'zlaridin tavba qilib, ahli saloh tariyqi bila kechti..."* (Majolis un-nafois, 62-bet)

Beodobona harzalar demoq (انا بادآ یب رال هزره) – o'rinsiz odobsiz so'zlar aytish: *"Tuno kun devonai abtariyi usruk alarg'a yo'luqub ko'p* ***beodobona harzalar deb****, og'zig'a kelgan safohat qilg'on erkandur"*. (Xamsat ul-mutahayyirin, 74-bet)

Durushtgo'y (یوگ شورد) – dag'al muomalali, qo'pol so'zli: *"Agar fanida mohir bo'lsa, ammo badxo'y va beparvo va* ***durushgo'y****, marizga, agarchi, bir jonibdin iloj yetkurur"*. (Mahbub ul-qulub, 24-bet); *"Aksari fosih va badxo'y va qolg'oni kajtab'u* ***durushtgo'y****"*. (Mahbub ul-qulub, 31-bet)

Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da qo'pol nutq so'zlovchilarning aksi bo'lgan nutq haqida quyidagi fikrlarni aytadi: *"Yana bovujudi shariat rioyati va tariqat odobidurkim, bu toifa mar'iy tutarlar. Ul adabdurki, yaxshiyu yomong'a va ulug'u kichikka bajo keltirurlar. Andoqki, borcha xaloyiqdin* ***o'zlarin kichik va kamroq tutarlar*** *va barchag'a xizmat huzurida bo'lurlar. Hattoki, o'z farzandlarig'a va xodimu mamluklarig'aki, har necha alardin beqoidalig' ko'rsalar, xushunat birla alarg'a so'z demaslar, balki nasihatni* ***yumshog' va chuchuk til*** *bila qilurlar, hattoki o'g'rig'acha"*. (Nasoyim ul-muhabbat, 18-bet).

Yoqimsiz, jozibasiz ohangda so'zlash. Gapirganda nutqiy jarayonda ovozga alohida e'tibor berish lozim. Ovoz sharoitga qarab asta, mayin, baland bo'lishi mumkin. Kattalar oldida ovoz baland bo'lmasligi, tinglovchilarga eshitiladigan darajada bo'lmog'i kerak. Ovozning yoqimli emasligi, xunukligi, bo'g'iq yoki chiyillab chiqishi, tinglovchilarga xush kelmaydi, ular asabiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli Navoiy xunuk ovozni nutqning ijobiy fazilatlarini yo'qqa chiqaruvchi salbiy omillardan biri deb hisoblaydi va bu holatni *badovoz* (زاوآ دب) – ovozi xunuk, tovushi yoqimsiz deb

baholaydi: *“Agar muqriy lavanddur* ***badovozu*** *kulg‘undidur, lahniy nosoz badani vuzu’ qaydidin nopok va xush vaqt rioyatidin bebok”*. (Mahbub ul-qulub, 29-bet)

“Demakki, tilda bir fikrni bir qancha shaklu shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shaklni tanlash, muayyan fikr va muloqot vaziyati uchun eng uyg‘un ifodani topa bilish nutq egasining tilga sohiblik darajasi, mahoratu malakasi, ma’rifatu ma’naviyatiga bog‘liq. Muloqot vaziyatini yetarlicha baholamasdan turib, fikr ifodasi uchun tanlangan lisoniy libos, har qancha to‘g‘ri va go‘zal bo‘lmasin, maqsad nishoniga yetib bora olmaydi. Bunday ifoda hatto boshga balo keltirishi ham mumkin.

Go‘zal va nafis nutq sezgisi hamda unga azaliy ixlosu e’tiqod an’anasining ibtidosi, ayniqsa, ko‘hna Sharqda juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ayni vazifaning bizning kunlarimizga qadar ham o‘sha mohiyatini yo‘qotmay kelayotganligi har qanday jamiyat hayotida til va nutq nufuzining nechog‘li muhtasham o‘rin tutishining shahodatidir” [3].

Jamiyatda yaxshilik va yomonlik degan tushuncha har doimo bor tushuncha bo‘lib, bu nutq idrok etish jarayonlarida ham sezilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Усманов А. Мухакамат ал-лугатайн Алишера Навои. – Ташкент: АНУзССР, 1948 – Б. 34.

2. Қўнғуров Р. Алишер Навоий тилнинг ижтимоий функцияси тўғрисида / Ўзбек тилининг грамматик қўлланиши ва стилистикаси. – Самарқанд, 1992. – Б.17.

3. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009 – Б. 5.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING ADABIYOT DARSLIKLARIDA G‘AZAL JANRINING AKS ETISHI

Dilfuza Tuxliyeva
TDPU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining adabiyot fani dastur va darsliklarida aks etgan g‘azal janrining mavjud holati o‘rganilgan va ularni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiyot, maktab, dars, dastur, darslik, g‘azal.*

Annotation

This article examines the current state of the ghazal genre in general secondary school literature curriculum and textbooks and provides recommendations for their improvement.

Key words: *literature, school, lesson, program, textbook, poem.*

Mumtoz adabiyotimizning salmoqli qismini g‘azal janridagi she’rlar tashkil etadi. O‘z navbatida, g‘azal maktab-madrasalarda ham muntazam o‘qitilgan adabiy janrlar sirasiga kirgan. Maktabxona ва madrasalarda “Haftiyak” (Qur’oni Karimning yettidan biri), “Qur’on”, “Chor kitob”dan so‘ng Xoja Hofiz Sheroziy (1326-1389), Alisher Navoiy (1441-1501), Muhammad Fuzuliy (1498-1556), Mirzo Bedil (1644-1721), So‘fi Olloyor, Mashrab (1640-1711) g‘azallari joy olgan devonlar o‘z davri uchun darslik vazifasini ham bajargan [3, 412]. Ammo eski maktablar uchun maxsus darsliklar mavjud bo‘lmagan.

Bugungi kunda davlat ta’lim standartlari asosida yozilgan, zamonaviy talablarga javob beradigan, fanning so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan, o‘quvchining yoshi va rivojlanish xususiyatlari e’tiborga olingan adabiyot darsliklarining bir necha avlodi yaratildi va ular takomillashtirilib borilmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining amaldagi adabiyot darsliklarida lirik turning mumtoz janrlariga oid xilma-xil asarlar o‘rganiladi. Xususan, “g‘azal she’riyatimizning yuragi. G‘azal lirikaning o‘nlab janrlari orasida eng

mumtozi” [2, 53]. Shu sabab joriy dastur va adabiyot darsliklarida mumtoz lirik asarlarning eng katta o‘rinni g‘azal egallagan. Dasturga ko‘ra, muayyan ijodkorlarning g‘azallari 6-sinfdan 11-sinfga qadar bo‘lgan oraliqda o‘qitiladi. Amaldagi darsliklarda 13ta ijodkorning 35ta g‘azali o‘rganish uchun taqdim etilgan.

Mazkur g‘azallarni sinflar kesimida taqsimlasak, 6-sinfga uchta, 7-sinfga ikkita, 8-, 9-, 10-sinflarga 8tadan, 11-sinfga esa 6ta g‘azal to‘g‘ri keladi. Bizningcha, g‘azallar sonini sinflar kesimida taqsimlashda tartibga amal qilish, sinfdan-sinfga g‘azallar miqdorini ko‘paytirib borishi lozim. Masalan, 6-sinfda ikkita, 7-sinfda to‘rtta, 8-sinfda oltita, 9-sinfda yettita, 10-sinfda sakkizta va 11-sinfda o‘nta tarzida.

Ularning yaratilish davriga e’tibor qaratsak, XIII asr oxiri XIV asrdan to XX asr boshlariga qadar yaratilgan g‘azallardan namunalar jamlanganiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbek adabiyotida yaratilgan ilk g‘azal ham XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yashab ijod etgan Rabg‘uziyning “Kun hamalga kirdi…” misralari bilan boshlanuvchi g‘azali bo‘lib, uning darslikdan o‘rin olishi juda o‘rinli. Chunki turkiy g‘azalning ilk namunasi sifatida uni tanishtirish va keyinchalik mazkur janrning takomil yo‘lini yaxshi anglash uchun o‘quvchilarga uni o‘rgatish muhim. To‘g‘ri, XIV asrdan XX asrgacha adabiyotimiz tarixida katta o‘rin tutuvchi shoirlarning sara g‘azallari dastur va darsliklardan o‘rin olgan. Lekin bularga qo‘shimcha ravishda XX asr o‘rtalari va XXI asr boshlarida yaratilgan g‘azallardan ham namunalar berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Xususan, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid va boshqa ijodkorlarning bugungi kun nafasi bilan yozilgan, o‘zida tarixiylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan she’rlarini ta’lim bosqichlarida maxsus o‘rganish lozim deb hisoblaymiz. Shundagina o‘quvchilarda g‘azal X asrdan ko‘proq tarixga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani, aksincha, asrlar osha shaklan va mazmunan qay tarzda yashab kelayotgani haqida muayyan tasavvur paydo bo‘lishi mumkin.

Dastur va darslikdan o‘rin olgan g‘azallarning har bir muallifga nisbati inobatga olinsa, bu borada Ogahiy va Furqat g‘azallari ko‘p ekani ma’lum bo‘ladi. 9-sinf dasrligida har ikki ijodkorning to‘rttadan g‘azali joy olgan. Qolgan ijodkorlarning 1 tadan (Rabg‘uziy), 2 tadan (Uvaysiy, Fuzuliy, Turdi, Mashrab) va 3 tadan (Avaz O‘tar, Lutfiy,

Nodira, Atoiy, Navoiy, Bobur) g‘azali tegishli sinf darsliklarida o‘z ifodasini topgan. Ushbu ijodkorlarning to‘rttagacha g‘azalini o‘qib-o‘rganish umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchisi uchun yetarli bo‘lishi mumkin. Lekin “g‘azal mulkining sultoni” sifatida nom qozongan Alisher Navoiyning faqat uchta g‘azalining berilishi taajjublanarli. Bizningcha, Alisher Navoiy g‘azallarini sonini ham, ularni o‘rganish uchun ajratilgan soatlarni ham ko‘paytirishga ehtiyoj mavjud.

Darslikdagi g‘azallarning hajmi ham ushbu janrni o‘rgatishda ahamiyatli. Ularning 17tasi yetti baytli, 7tasi 9 baytli, 6tasi 5 baytli, 3tasi 6 baytli, 1tasi uch baytli g‘azallar. Ma’lumki, g‘azal hajman 3 baytdan 19 baytgacha (ba’zan 27 baytgacha) bo‘ladi, ular orasida 7, 9, 11 baytli g‘azallar keng tarqalgan. Bu jihatdan dastur va darsliklarda berilgan g‘azallarning hajmining rang-barangligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunga qaramay, g‘azallarni tanlashda quyi sinflarda nisbatan baytlari kamroq (3 baytdan 6 baytgacha), yuqori sinflarda esa hajman katta g‘azallar (7 baytdan 11 baytgacha) berilsa, she’rni ifodali o‘qish, yodlash va tahlil qilishga qulaylik yaratiladi.

G‘azallarni tushunish, ifodali o‘qish va yod olishda uning vazni ham muhim. Shu sababli o‘rganish uchun tanlab olingan g‘azallar vazniga ham e’tibor qaratish kerak. Darsliklardagi g‘azallarning salmoqli qismi hazaj va ramal bahrining asl va tarmoq ruknlarida yozilgan. Aslida, g‘azalning qaysi vaznda bitilgani uni dastur uchun tanlashda asosiy mezon deb qaralmasa-da, ammo bu jihatni ham alohida nazarda tutish, imkoni boricha mumtoz adabiyotdagi yetakchi bahrlarning asl ruknlari asosida bitilgan g‘azallarni tanlash (hech bo‘lmaganda 5-8 sinflarda) lozim. Shunda, dastlab, o‘qituvchi yordamida g‘azal vaznini aniqlagan o‘quvchi, asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da mustaqil tarzda o‘zi g‘azal vaznini to‘g‘ri aniqlashga o‘rganadi va mumtoz asarlarga bo‘lgan qiziqishini bir muncha oshiradi.

Adabiyot fani dasturida biror material tanlashdagi eng asosiy mezon – uning mavzusidir. Darslikdagi har qanday asar o‘quvchini tarbiyalashi, komil insonga xos bo‘lgan sifatlar bilan ta’minlashi darkor. Ayni shu jihatga ko‘ra g‘azallarni mavzu doirasiga e’tibor qaratganimizda mavjud g‘azallarning 7tasi axloqiy-ta’limiy, 2tasi hasb-u hol, 3 tasi orifona, 5tasi peyzaj va 18tasi oshiqona yo‘nalishda ekanligi aniqlandi. Demak, darsliklardagi 60% ga yaqin g‘azal oshiqona mavzuda. To‘g‘ri, g‘azalni yetakchi mavzusi

ishq-muhabbat, lekin adabiyotni o‘qitishdagi asosiy maqsad nazarda tutilsa, maktabda ko‘proq axloqiy-ta’limiy yo‘nalishdagi g‘azallar miqdorini oshirish kerak. Shuningdek, o‘rni bilan ma’lum ijodkorlarning publisistik, hajviy g‘azallaridan ham namunalar kiritilsa, g‘azal janrining imkoniyatlarini o‘quvchilarga to‘laroq yetkazish imkoni paydo bo‘ladi, qolaversa, tahlillarda ham rang-baranglik yuzaga keladi. Shuningdek, darslikdan o‘rin olgan barcha g‘azallar shakliy jihatdan bir turga mansub, ya’ni oddiy g‘azallar. Mazkur janrning g‘azali mushoira, g‘azali qit’a, g‘azali chiston kabi turlaridan foydalanish yuqorida qayd etilgan bir xilllikni oldini olishda yordamchi vosita bo‘la oladi.

G‘azallarning poetik jihatlari ham g‘azal mazmunini ochuvchi va shoir mahoratini ko‘rsatib beruvchi asosiy vositadir. Bunda she’riy san’atlarning alohida o‘rni bor. Maktab darsliklaridan joy olgan g‘azallarda eng ko‘p qo‘llangan va yetakchi badiiy san’atlarga tashbeh, istiora, mubolag‘a, husni ta’lil, tansiq as-sifat, iyhom, tashxis, talmeh, tajnis, tazod, irsoli masal, kitobat, tanosub, ishtiqoq, tardu aks, jam va taqsim, savol-javob, nido, ta’did kabilar kiradi. 8-sinf adabiyot darsligida “G‘azalda badiiy tasvir vositalarining o‘rni” mavzusi ostida tazod, tashxis, talmeh, ishtiqoq, husni ta’lil, mubolag‘a haqida, 10-sinf adabiyot darsligida “She’riy san’atlardan namunalar” mavzusi ostida 14ta badiiy san’at haqida atroflicha ma’lumot berilgan. Bu nazariy ma’lumotlar o‘qituvchi va o‘quvchi uchun birdek kerakli va foydali. Faqat nazariy ma’lumotlarni 6 – 7-sinf adabiyot darsliklaridan boshlab berib borilsa, g‘azallarning keyingi tahlilida ko‘proq as qotgan bo‘lar edi. Yoki tahlillar davomida g‘azallarda qo‘llangan yetakchi badiiy san’atlar haqida ma’lumot berish lozim.

O‘quvchilarning mavzu yuzasidan egallangan bilimlarini tek-shirish va mustahkamlashda savol va topshiriqlarning ahamiyati katta. Darsliklarimizda g‘azallar yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlarni qoniqarli darajada deb bo‘lmaydi. Birinchidan, ular miqdor jihatidan nihoyatda kam. 10 – 11-sinf adabiyot darsliklarida har bir g‘azalga o‘rtacha 7-8 tadan savol tuzilgan bo‘lsa, 6– 9-sinflarda ularning soni, asosan, 3-4ta atrofida. Ularning ham aksariyati umumiy xarakterda. Darsliklarga kirgan ba’zi g‘azallar yuzasidan esa birorta ham savol va topshiriqlar ishlab chiqilmaganiga ham guvoh bo‘lamiz. G‘azal tahliliga yo‘naltirilgan savollarni son jihatidan ham, sifat jihatdan

ham takomillashtirish zarur.

O‘zbek adabiyoti xazinasida minglab g‘azal janriga mansub she’rlar mavjud. Ularning har biri o‘ziga xos yo‘nalish, shakl va badiiyatga ega. Shu sababli ularning orasidan umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilari uchun har tomonlama munosiblarini tanlay bilish va tahlil qilish mushkul vazifa. Shuning uchun ham har bir darslikka qo‘yiladigan umumiy talablar qatorida adabiyot fani doirasida o‘rganiladigan har bir janrga, xususan, g‘azallarga ularni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘rganish uchun tanlash mezon va tamoyillarini ishlab chiqish bugungi kun metodistlarining oldida turgan muhim vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Olim S. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. – T.: Ma’naviyat, 2017. – 160 b.

2. Ҳаққул Иброҳим. Ғазал гулшани (адабий суҳбатлар). – Т.: Фан, 1991. – 72

3. Мактабхона – // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, – 412 б.

4. Olimov S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot 8; darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 352b.

5. To‘xliyev B. Karimov B., Usmonova K. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.

6. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

7. Yo‘ldoshev Q, Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. – T.: Sharq, 2017. – 368 b.

8. Yo‘ldoshev Q, Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019. – 368 b.

ALISHER NAVOIY BADIIY MEROSIDA YOSHLAR ESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Nafisa EGAMBERDIYEVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy badiiy merosining yoshlar estetik tafakkurini rivojlantirish va uning jamiyatdagi ma’naviy jihatlari falsafiy qarashlar asosida tahlil etilgan. Unda yurtimizda shoir ijodini o‘rganish va uni targ‘ib etishga oid amalga oshirilayotgan ishlarning mohiyati, milliy merosimizda Navoiyning tutgan o‘rni masalalari o‘zining ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, estetik tafakkur, badiiy meros, milliy qadriyatlar, yoshlar, inson, jamiyat, estetik munosabatlar.*

Annotation

This article analyzes the development of youth aesthetic thinking of Alisher Navoi’s artistic heritage and its spiritual aspects in society on the basis of philosophical views. It reflects the essence of the work being done in our country to study and promote the work of the poet, the role of Navoi in our national heritage.

Key words: *Alisher Navoi, aesthetic thinking, artistic heritage, national values, youth, man, society, aesthetic relations.*

O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllanib kelgan badiiy-estetik merosi buyuk mutafakkirlar tomonidan yaratilgan boy asarlar va ma’naviyat durdonalari orqali kelajak avlodlarga yetib kelmoqda. Shunday mutafakkir, xalqparvar shoir, mehnatsevar va yuksak ma’naviyat namunasi bo‘lgan Alisher Navoiy ijodiyoti barchaning qalbidan chuqur joy olgan. Uning ko‘plab asarlari o‘zidan keyingi avlodlarga ma’naviyat va ma’rifat nurlarini taratib, badiiy-estetik meros sifatida xalqimizning qalbida yashab kelmoqda. Uning

yaratgan bebaho falsafiy dunyoqarashi va adabiy meros durdonalari bugungi kunda yosh avlodning estetik dunyoqarashi rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Alisher Navoiyning har bir so‘zi, inson va bashariyat, ijtimoiy hayot va jamiyat uchun qilgan xizmatlari, go‘zallik dunyosi, nafosat olamiga doir qarashlari doimo yoshlarning bilim va ijod dunyosi rivojiga yo‘l ochgan. Shoirning zukko aql va yuksak tafakkur sohibi ekanligi uning badiiy-estetik merosi orqali namoyon bo‘ladi. Shoirning tarixiy shaxs sifatida qalam tebratishi forsiy va turkiy adabiyot rivojiga xizmat qildi. Uning badiiy timsollarida xilma-xil millat vakillari, ularning go‘zallikka oshno qalblari, milliy tuyg‘u bilan sug‘orilgan estetik dunyoqarashi adabiyot, madaniyat va san’at yutuqlarini tadqiq qilishga, yoshlarda she’riyatga munosabatning kamol topishiga, forsiy va turkiy adabiyot orasidagi aloqalarni mustahkamlash va ayni vaqtda turkiy tilda ijod qiladiganlarni har tomonlama rag‘batlantirishga, kuch-g‘ayrat sarflashga undagan. “Qadimiy turkiy tilda barakali ijod qilib, uni adabiy til, madaniyat va saltanat tili darajasiga ko‘targan, barcha asarlari umumbashariy gumanistik g‘oyalar bilan sug‘orilgan Alisher Navoiyni shuning uchun ham barcha turkiy xalqlar o‘z shoiri sifatida alohida mehr bilan o‘qib-o‘rganadi va u bilan faxrlanadi”. Shuning uchun Navoiyning badiiy asarlarida ham, ilmiy qarashlari va tadqiqotlarida ham, hamma-hammasida yosh avlodni tarbiyalashning an’anaviy jihatlari ko‘rinib turadi.

Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari uning badiiy asarlarida, «Majolisun-nafois», «Muhokamatul-lug‘atayn», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Nasoimul-muhabbat» kabi ilmiy asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. U adabiyot va san’atning tub nazariy asoslarini tahlil qilib, zamondoshlarini qiziqtirgan muammolarga javob qidiradi, adabiyotning ijtimoiy vazifasini eng muhim masalalardan biri sifatida ta’kidlaydi. Badiiy-estetik meros masalasi Navoiy qarashlarida asosiy o‘rinni egallagan. Bunda u talabchan ustoz va xayrixoh, ham odil kitobxon sifatida ish ko‘radi. Navoiyning estetik olami keng va rang-barang. Unda an’anaviy janrlar, badiiy san’atlar, vazn, qofiya va hokazolar xususida qiziqarli, ibratomiz fikrlar talaygina. Shoir faqat she’r va shoirlar haqidagina emas, balki san’at va san’atkorlar to‘g‘risida ham talay diqqatga molik fikrlar bayon etgan. Me’morlar,

musiqachilar, naqqosh-musavvirlar, hunarmandlardan Navoiyning ustoz va shogirdlari, do‘stlari ko‘p bo‘lgan. Navoiy o‘z asarlarida san’at ahlining iste’dodini qadrlab, ularning mahorati xususida to‘lqinlanib gapiradi, san’atning inson kamoloti yo‘lidagi muqaddas o‘rnini ta’kidlab ko‘rsatadi. “Alisher Navoiyiing badiiy-estetik qarashlari ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Biroq shoirning estetik olami badiiy ijodi kabi cheksiz va bepoyondir. Biz uning go‘zallik, ijod jarayoni, ilhom va nafosat haqidagi qarashlari, fikrlarini ko‘zdan kechirganimizda hali qator masalalar yoritilmaganligi, ulug‘ mutafakkirning salohiyati va tafakkuriy qudratini belgilovchi xizmatlari yetarli bahosini olmaganiga ko‘ramiz. Uning asarlaridagi estetik qarashlarida ayrim mulohaza va fikrlar ham yangi davr, yangicha fikrlash talabi bilan o‘zgarishga uchradi”.

Navoiy badiiy-estetik merosi yosh avlod uchun zarurligini uning yaratgan asarlaridagi falsafiy mushohadalar orqali ham anglab yetish mumkin. Uning fikricha, insonning go‘zalligi uning tili orqali namoyon bo‘ladi. Ana insonda til bo‘lmaganda edi u o‘lik odamdan farqlanmas edi. Ana shu tilgina insonga tiriklik baxsh etdi, shu orqali ezgulik, adolat yo‘liga kirdi.

XXI asrga kelib O‘zbekiston yoshlari estetik ongida ajdodlar merosiga yuksak ixlosmandlikni shaklantirish va jamiyatda komil inson shaxsini tarbiyalash dolzarb masalaga aylandi. Bu borada o‘tmish hayotning nozik qirralari, uning sermahsul manzaralarini qaytadan tahlil etib, yoshlar estetik ongini zamonaviy ruhida kamol topishi lozim. Bu borada buyuk ma’rifatparvar va mutafakkirlar ijodi noyob ilmiy maktab vazifasini bajaradi.

XX asr boshida buyuk ma’rifatparvar Abdulla Qodiriy “Moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlidur” degan edi. Endigina hayotning achchiq-chuchuklari, sir-sinoatlari, estetik olami sari talpinayotgan yoshlar estetik tafakkurida moziy haqiqati, ajdodlar ma’naviy merosini qaror toptirish, undan xolisona o‘tmishga baho berish, beg‘ubor yuraklarni badiiy olam sari chorlaydi. Ayniqsa, Navoiydek mutafakkir hayotining yoshlar ma’naviyati, estetik tarbiyasi, axloqiy ongiga ta’sir kuchi juda kattadir.

O‘z estetik dunyoqarashini xalq dardi, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi bilan bog‘lagan bobokalonimiz Hazrat Mir Alisher Navoiy

ijodi bugungi yoshlar badiiy-estetik hayotida yorug‘ nur sochib turadi. Bu nurdan bahramand bo‘lish, uning beg‘ubor va musoffo nazmlaridan sof go‘zallik olamini yaratish zamonamiz yoshlarining qo‘lidadir. Ularning zamon bilan hamnafas bo‘lgan falsafiy tafakkur durdonalarini Navoiy ijodi orqali chuqur tadqiq etishi, ajdodlarimiz yuksak ma’naviyat olamini buyuk bobomiz ijodida idrok etishlari biz uchun ulkan imkoniyatdir.

Yosh avlod ongida mustaqillik bergan ne’matlarni xolisona qaror toptirishda adabiyotimiz tarixida durdona asarlar yaratib qoldirgan, qolaversa, jahon adabiyotini yuksak cho‘qqiga ko‘targan Alisher Navoiy estetik tafakkuri o‘zining hayotiyligi va ulug‘vorligi bilan ajralib turadi. Bu borada davlatimiz rahbari o‘zining nutqlarida doimiy ravishda fikrlar bildirib, yoshlarni Navoiy bilan yaqindan tanishishga chorlab kelmoqda.

Navoiy faqatgina odamlar orasidagi umumiy munosabat til orqali emas, balki jamiyatdagi o‘zaro insoniylikka, o‘zlikni chuqur anglab yetishga, uni ishlatishga ehtiyotkor bo‘lishga, shu til tufayli yaratilgan badiiy-estetik asarni idrok etishga chorlaydi. Yosh avlodni tarbiyalash jarayonida shunday g‘oyalar ham mavjudki, bu shak-shubhasiz davr kishilarini tarbiyalash, ularda adabiy-estetik zavqni oshirishda ma’lum rol o‘ynaydi. Navoiy asarlarida yorga vafo, sevgi, muhabbat mazmunidagi g‘oyalar ko‘p uchraydi. Bu, bir tomondan, axloqiy xarakterdagi fikrlarning bayoni sifatida ifodalansa, ikkinchi tomondan, odamning psixologik xususiyatlari ichki kechinmalari, ruhiy holati, xatti-harakatining bayonida o‘z ifodasini topgan. Navoiy kishining va’dasiga vafo qilishini, aytgan so‘zining ustidan chiqishi kerakligini asosi deb biladi.

Navoiyning badiiy-estetik qarashlari yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashga qaratilgan falsafiy dunyoqarash bilan uyg‘unlashgan. Uning asarlarida aks etgan qahramonlarning obrazlari yoshlarni Vatanga muhabbat, yorga sadoqat, yurtga sodiq, o‘z tanlagan kasbiga fidoyi qilib tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Navoiy nazdida badiiy-ilmiy meros Ollohdan inson qalbiga nuzul etadigan juda nafislik nur irmog‘i bo‘lib, u tafakkurdan behad yuksakdir. Ayni paytda u inson qalbiga ortiqcha zo‘riqishsiz, sodda va ravon oqib kiradi. Alisher Navoiy o‘z ijodida har bir fuqaroning, ayniqsa, o‘sib kelayotgan

yosh avlodning ongida yuksak estetik bilimlarni shakllantirish, ilmiy ijod jarayonida ularga badiiy asarning mohiyatini singdirish yo‘llarini o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy badiiy merosining yoshlar tomonidan o‘rganilishi bevosita ularning adabiyot va san’atga bo‘lgan ixlosmandligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda har bir inson avvalo adabiyotning badiiy tafakkur jarayonini chuqur anglab yetishi, har bir faoliyatda undan oqilona foydalanish yo‘llarini bilishi kerak. Bugungi kunda yoshlarimizning yuksak estetik didi va bilimini yuksaltirishda shoirning yaratgan asarlari, she’rlari, ruboiy va g‘azallarining mohiyatini chuqur anglab yetish, ularning falsafiy ma’nosini yaxshi bilib olish, jamiyatda komil insonni voyaga yetkazishda talabachanlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qudratullayev H. Navoiyning adabiy-estetik olami. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. B. - 11.

NAVOIY IJODIDA USTOZLARGA EHTIROM TALQINI

Obodon ADIZOVA
Buxoro davlat universiteti
(O‘zbekiston)

Alisher Navoiy hayotida uning o‘lmas asarlari, boqiy merosi, yetuk ijodkor bo‘lib yetishishida u tug‘ilib voyaga yetgan, tarbiyalangan oila muhitining ta’siri beqiyosdir. Navoiy haqida yozilgan manbalar uning shaxs sifatida himmatli ,inson sifatida hurmatli, ustozlarga sadoqatli shogird bo‘lganini oshkor etadi. Uning himmatliligi, avvalo, iste’dodli insonlarni iqtisodiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlaganida namoyon bo‘ladi. Ustozlarga hurmatini “Nasoyim ul-muhabbat”da Navoiy o‘zi uchun qadrli va hurmatli bo‘lgan juda ko‘p insonlarni ehtirom bilan yodga olib o‘tganida ko‘rishimiz mumkin. Ular haqida o‘z bilganlarini bayon etgan. Bobo Piriy, Bobo Xokiy, Mavlono Sharafiddin Yazdiy va boshqalar ana shunday kishilardan edi. Masalan, Navoiy o‘zining bolalik chog‘ida mashhur tarixchi Sharafiddin Yazdiy bilan uchrashgani to‘g‘risidagi hikoyani keltirib: “Bu haqir sig‘arisinda ul buqhada alar xizmatlariga musharraf bo‘lub, mening boramda fotihalar o‘qudilar” (165), – deydi va uni “donishmand va sohibjamol kishi”, deb ta’riflaydi. Shunday qilib, “Nasoyim ul-muxabbat” kitobida Navoiyning tarjimai holi, uning atrofidagi kishilar, do‘stlari va ustozlari to‘g‘risida qo‘shimcha muhim ma’lumotlar mavjud. A.Qayumov ta’kidlab o‘tganidek, bu ma’lumotlarning aniqlanishi va o‘rganilishi Navoiy hayoti va ijodini to‘laroq tadqiq qilishda alohida ahamiyat kasb etmog‘i shubhasizdir.

Navoiyning ustozlari e’tirofi borasida yozgan asarlari, fikr-mulohazalari ham alohida e’tiborni tortadi. 1492-1494-yili Navoiy o‘zining eng yaqin do‘stlari va maslakdoshlaridan biri bo‘lgan ustozi Abdurahmon Jomiy xotirasiga bag‘ishlangan “Xamsat ul-

mutahayyiriyn” asarini yozganligi ma’lum. U Navoiy va Jomiy o‘rtasidagi ustoz va shogirdlik, ijodiy hamkorlik to‘g‘risida ma’lumot yetkaza olishi bilan diqqatga sazovordir.

Hirot fozillaridan Xoja Abdulaziz Jomiy ham Navoiyga iltifotli bo‘lgan muhtaram zotlardan bo‘lgan. Bu haqida Navoiy shunday deb yozadi: “Va bu faqir borasida iltifotlari ko‘p erdi va ko‘p qatla fotiha bilan duoi xayr qilibturlar, umid ulki, mustajob o‘lmish bo‘lg‘ay” (160). Xoja Abdulaziz Jomiy sakson ikki yoshida 902 (1496-97) yilda dunyodan o‘tgan.

Adabiyotshunos olim Aziz Qayumov: “Navoiy o‘z o‘quvchisining yurak sirlarini ham bayon etadi” deya ogohlantirib o‘tadi. To‘g‘rirog‘i, Navoiy she’rlarini faqat shoir qalbidagi kechinmalar in’ikosi deb qabul qilmay, balki umuminsoniy tuyg‘ularning umumbashariy qonuniyatlar asosida ko‘rsatilmog‘i deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Ayni damda shoir ta’maga qarshi kurashish zaruriyatini ham o‘z asarlarida bildirib o‘tgan. Hatto ta’magirlikni qoralash shoirning ta’lim-tarbiya ishidagi asosiy prinsiplaridan bo‘lgan. “Lison ut-tayr”da Navoiyning boshqa dostonlarida bo‘lgani kabi shoir hayoti, kundalik turmushida sodir bo‘lgan ayrim ko‘rinishlarning tasvirini topamiz. Bu ma’lumot Navoiyning o‘zi tomonidan keltirilayotgani uchun ham g‘oyat ishonarli va muhimdir”. Darhaqiqat, “Lison ut-tayr”ning oxirida “Bu kitob nazmida o‘z munosabatining taqribi” sarlavhali bob bo‘lib, unda Navoiyning maktabda o‘qib yurgan paytida Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonini qanchalar berilib o‘qigani to‘g‘risidagi ma’lumot bor. Shu ma’lumot asosida yana Navoiy bolalikda tahsil olgan maktabda o‘qish-o‘qitish jarayoni qanday uyushtirilgan ekanligidan xabar topish, o‘sha maktabdagi o‘quv dasturi to‘g‘risida tushuncha hosil qilish, o‘qish jarayoni va o‘qitish usuli bilan tanishish mumkin. Chunki shoir bu o‘rinda o‘zi bolalik chog‘ida o‘qigan maktabda o‘qishning qanday uyushtirilganligini esga olib o‘tadi. “Lison ut-tayr” dostonida Navoiyning bolalik yillaridan she’r yoza boshlagani, bu she’rlar turkiy (eski o‘zbek) tilida yozilgan ekani, o‘z she’rlarida Navoiy va Foniy taxalluslarini ishlatgani to‘g‘risidagi ma’lumotlar uchraydi. Dostonda shu tariqa Navoiyning ijod tajribasiga nigoh tashlab, juda ko‘p tarixiy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Shuningdek, Navoiy asarlarida uchraydigan abjad hisobiga

aloqador satrlar uning tarjimai holiga oid ma’lumotlarni yanada oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Navoiy ijodida shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibidan o‘rin olgan to‘rtinchi “Favoyid ul-kibar” devonidagi turlicha hajmli 32 bo‘limlik “Soqiynoma”si ayricha e’tiborni tortadi. Chunki bu asar mazmuni Navoiy mansub bo‘lgan muhit, undagi ijtimoiy kayfiyat, Navoiyning hurmat va e’tiborini qozongan kishilar, ustozlari, uning do‘stlari, shuningdek, shoirning o‘z shaxsiy hayotiga oid lavhalar, fikr-o‘ylari bayonidan tashkil topgan. Shoir unda dunyodan o‘tgan ayrim yaqinlari, ularning “Biri hamsuhbatu hamdardu rafiq, tuqqanimdan dag‘i yuz qatla shafiq” bo‘lib, hayotini yo eng yaqin do‘st, yo yor, yo farzand kabi to‘ldirganini aytib o‘tadi. Ayniqsa, ular orasida Mirzobek, Mir Darvesh, Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammadlar nomini alohida tilga olib o‘tadi. Ularning vafot etganini aytib, nurli xotirasiga hurmatini bayon qiladi va ruhidan o‘ziga madad tilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қаюмов А. Асарлар. 2-жилд. Навоийнинг “Қуш тили” достони. Гўзалликлар ва нодирликлар (Навоийнинг “Бадойиъ ул-бидоя” ва “Наводир ун-ниҳоя” девонлари тўғрисида). – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2008.

2. Қаюмов А. Асарлар. 2-жилд. Навоийнинг “Қуш тили” достони. Гўзалликлар ва нодирликлар (Навоийнинг “Бадойиъ ул-бидоя” ва “Наводир ун-ниҳоя” девонлари тўғрисида). – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2008.

NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV: MUMTOZ SHE'RIYAT AN'ANASINING YANGILANISHI

Hurriyat ABDULLAYEVA
ToshDO'TAU

Bugungi o'zbek she'riyatining asosiy vazni barmoqdir. She'riyatimizning, umuman, o'zbek adabiyotining zabardast vakili Abdulla Oripov ijodi ham buni tasdiqlaydi. Ammo u aruz vaznida ham mahorat bilan ijod qildi. Buni ijod jarayoni uchun tabiiy hol sifatida qabul qilish kerak. Shu bois fitratida she'r dardi va zavqi bo'lgan Abdulla Oripov o'zini barmoq vaznidagi she'rlar bilan chegaralamadi, yuksak iste'dodi ijodiy izlanishlari ufqlarini yanada kengaytirishni taqozo etdi. Aruzdek «sharif fan» (Alisher Navoiy) zamonaviy shoir uchun bir imtihon vazifasini o'tadi. O'zini bu imtihonda sinab ko'rganlar, ular orasida esa havas qilarli natijaga erishganlar ko'p emas.

Abdulla Oripov aruzda g'azallar va bir necha ruboiylar yozdi. Uning birinchi g'azali 1965-yilda, 24 yoshida yozilgan. Mazkur «Etgali» radifli g'azal an'anaviy ishqiy mavzuda bitilgan. U Alisher Navoiyning «Tun oqshom keldi, kulbam sori ul gulrux shitob aylab», «Havo xush erdiyu, ollimda bir qadah mayi nob» kabi voqeaband g'azallarini esga soladi. She'rning har bir baytida mumtoz adabiyot ruhi ufurib turibdi: ishq mashaqqati, ma'shuqaning jafokashligi, kokillarining dorligi, Hofiz obrazi, lirik qahramonga achinib, uni ogoh etib so'zlayotgan gullar...

To'lg'anib gul ochilar bog'larni gulzor etgali,
Bog' sari dildor chiqar oshiqlarin zor etgali.
Bog' sari chiqmas edi, chiqdi bu kun u qasd ila:
Yo'lida mushtoqlarin yo yo'g'u yo bor etgali [Oripov, 2018:38].

G'azal maqtasida Abdulla Oripov aruzga muhabbatini oshkor etadi, boshqa shoirlarni ushbu vaznda bellashuvga chorlaydi:

Ne ajab, maydon topilsa men uchun ham deb edim,
O'zga bir dildor bilan aruzda bozor etgali.

Ilk g'azalidanoq shoir aruzda mumtoz she'riyat talablari darajasida ijod qilgan. Mumtoz she'riyatimizni Navoiy g'aza-

liyotidan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Abdulla Oripov aytganidek, «Navoiygacha bo‘lgan davrning g‘azalchiligi – o‘zi bitta qoya. Navoiy birdaniga o‘rtaga Pomirday chiqib qoldi». Abdulla Oripovning ijodiy kamolotida ham Navoiyning boy an’analari bo‘rtib turadi. Biroq faqat an’ana doirasida qolish taqlidga olib keladi. Shoir esa taqlidni qoralaydi. Go‘yoki «taqlid – butun mahalla biladigan oqsoqolning choponini boshqa birov kiyib yurganday gap» [Oripov, 2001:29].

Shu o‘rinda ikki buyuk shoir ijodida radiflari aynan o‘xshash ikki g‘azalga e’tibor qaratsak. Xalq orasida Navoiyning «Kelmadi» radifli g‘azali mashhur. Mazkur g‘azal «Ilk devon»ga kiritilgan bo‘lib, Navoiy uni taxminan 24-25 yoshlarida yozgan. Shundan kelib chiqilsa, g‘azalda majoziy ishq ustuvor. Abdulla Oripovning «Kelmading» radifli g‘azali poetik mazmuniga ko‘ra ham, badiiy shakl jihatdan ham Navoiy g‘azali darajasida yozilgan. Alisher Navoiy g‘azalida mana bunday satrlarni o‘qish mumkin:

Lahza-lahza chiqdimu chekdim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘ayu ul sho‘xi badho‘ kelmadi [Navoiy, 1990:].

Abdulla Oripov g‘azalining matlai quyidagicha:

Subhidamda uchdi ohim kavkabistonga qadar,
Keldiyu tubsiz falaklardan sado bir kelmading [Oripov, 1989:49].

G‘azalda turkiy so‘zning oltin davri nafasini beruvchi so‘zlar aynan ishtirok etsa-da, Cho‘lpon ta’biridek, endi ular «bir xil, bir xil, bir xil» emas. Masalan, Navoiy «Kelmadi» radifli g‘azalida ishlatgan «sho‘xi badxo‘» birikmasini Abdulla Oripov «Yozajakman» radifli g‘azalida quyidagicha ishlatadi:

Soldi dilima qancha alam ul sho‘xi badxo‘,
Bilmamki, axir qay biri qurbon, yozajakman [Oripov, 1984:186].

Yana Abdulla Oripov mumtoz badiiy san’atlardan ham g‘azallarida ustalik bilan foydalangan. «Bu kun» radifli g‘azali matlaida tillarda doston Majnun nomi talmeh vositasida keltiriladi:

Vahki, ishq sahrosida qoldim beishq tanho bu kun,
Chiqma, Qays, ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun [Oripov, 2018:38].

«Etgali» radifli g‘azalda esa:

Nogahoniy sahni bog‘dan hayqirib chiqdi Hofiz,
Ul dedi, yoydi pari kokillarin dor etgali, –

deya Sharq g‘azaliyotining darg‘alaridan hisoblangan buyuk Hofiz Sheroziy nomini tilga oladi. Talmeh san’atini qo‘llab, ifodalanayotgan fikrning teranligini, badiiyatning go‘zalligini ta’minlaydi.

Ishq mavzusi har bir shoir she’riyatining jon tomiridir. Ayniqsa, Navoiyda hech bir bayt yo‘qki, ishq, oshiqlik tarannum etilmagan bo‘lsin. Uning «Xamsa» dostoni markazida ham aynan ishq mavzusi turadi. «Xamsa»ning ochqich dostoni «Hayrat ul-abror»dagi to‘qqizinchi maqolat ishq ta’rifiga bag‘ishlangan. Quyidagi misralarni esa «Xamsa» dostonining bosh konsepsiyasi desak ham bo‘ladi:

Bo‘lmasa ishq, ikki jahon bo‘lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo‘lmasun [Navoiy, 1991:191].

Navoiyni ko‘p mutolaa qilgan, undan ta’sirlangan, zamonaviy she’riyatda buyuk salafi an’analarini yangilash sharafiga erisha olgan Abdulla Oripov ham ishqni jon ozig‘i, quyosh deb biladi:

Faqat muhabbatga topingil, ey qalb,
Sen mehr ko‘rgaysan o‘shal quyoshdan.
Axir bobolar ham demishlar qadim:
Muhabbat yaratgan dunyoni boshdan [Oripov, 2018:91].

Ushbu misralar qiyosi ikkala shoirning ishq haqidagi qarashlari uyg‘un ekani ko‘rinadi. Tabiiyki, obrazli tasvir va ifoda har bir shoirda o‘ziga xos.

Matbuotdagi suhbatlaridan birida Abdulla Oripov «G‘azallarin-gizda nima kuchli: taqlidmi, ta’sirmi?» degan savolga quyidagicha javob bergan edi: «Men yovvoyiroq o‘sgan meva daraxtiga o‘x-shayman. Issiqxonada o‘smaganman... Sharoit taqozo qilmagan. Ta’sirlanish bor, buni rad qilmayman. Taqlid yo‘q».

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov mumtoz she’riyat, xususan, buyuk Alisher Navoiy g‘azaliyotiga xos an’analarni munosib davom ettirdi. Taqlidni ijodiy tafakkur rivoji yo‘lidagi to‘siq deb bildi, undan saqlandi. Mumtoz g‘azal janrida ijod qilar ekan, poetik mazmun va shaklda yangiliklar qildi. Ma’lum bir obrazlar talqinini takomilga yetkazdi. Bu esa, o‘z navbatida, shoir lirik merosida mumtoz poetik

an’ana va uning takomili masalalarini yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: Fan, 1987.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. Uchinchi jild. – Toshkent: Fan, 1988.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. Yettinchi jild. – Toshkent: Fan, 1991.
4. Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. To‘rtinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
5. Oripov Abdulla. Yillar armoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984.
6. Oripov Abdulla. Ishonch ko‘priklari. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1989.
7. Oripov Abdulla. Birinchi muhabbatim. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2018
8. G‘aniyev Ilhom, Afoqova Nodira. Ozod ruh falsafasi. – Toshkent: Fan, 2006.
9. Zamon, shoir va g‘azal (Abdulla Oripov bilan suhbat). “Sharq yulduzi” jurnali, 2015.

HIKMAT JANRI XUSUSIYATLARI

Marg‘uba ABDULLAYEVA

Adabiy-tarixiy asarlarda tarixiy voqealarni bayon qilishda an’anaviy ravishda epik va lirik turning kichik janrlaridan samarali foydalanib kelingan. Shunday kichik janrlardan biri *hikmat* janridir. Hikmat janrining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida 13 nafar hakimlar haqida ma’lumot beradi. Ma’lumot berish jarayonida ularning hikmatlaridan eng mashhur, xalq tilida e’tirof etilganlaridan namunalar keltiradi. Asarning “Hakimlar zikri” deb nomlangan ikkinchi qismida ma’lumotlarni Luqmoni hakimdan boshlaydi. Navoiy Luqmoni hakimning aksar el nabiy hisoblashini inobatga olib, anbiyolar qismida ham qayd etganini e’tirof etadi. Luqmoni hakimning barcha yukni tortdim, lekin burchdan og‘irroq yuk ko‘rmadim, barcha lazzatdan totdim, biroq ofiyatdan (sog‘lik, tinchlik ma’nosida) chuchukroq sharbat totmaganligini ta’kidlab o‘tadi. Luqmoni hakimdan so‘radilar: “Ne nimadurkim, foydasi borcha xaloyiqqa teyar? Dedikim, yomonlarning yo‘qligi”. Navoiy Luqmoni hakimni uzoq umr ko‘rganligini ikki misra she’r bilan ta’riflab o‘tadi.

Yoshing Luqmondin ar xud bo‘lmasa kam,
Chu borg‘ungdur borur damdur hamul dam. [1; 598]

Fisoqurs hakim Luqmoni hakimning shogirdi. U Gushtosb zamonida yashagan. Musiqiy ilmning asoschisi. Musiqa ilmi bo‘yicha undan oldin kim shug‘ullangani ma’lum emasligini qayd etadi. Soz ham uning ixtirosi ekanligini ta’kidlaydi. Va yana ikki misra she’r keltiradi:

Andaki so‘zi safar o‘ldi anga,
Sozlari navhagar o‘ldi anga [1; 598].

Navoiy shu tarzda hakimlar to‘g‘risida qisqa-qisqa ma’lumotlar berib, bu ma’lumotlarni kichik she’riy parchalar bilan quvvatlantiradi. Lirik chekinish she’riy parchalar tarixiy shaxs (hakim)lar haqidagi

ma’lumotlarga badiiy tus berish bilan birga, o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatish vazifasini bajaradi. She’riy parchalar har bir hakim haqidagi ma’lumotda mavjud. Asardagi barcha she’rlarning muallifi Navoiyning o‘zidir. Keltirilgan hikmatlarning har biriga she’riy yo‘l bilan ta’rif beradi. Bu ta’riflar hikmat mazmuni bilan hamohang bo‘lib, asarning badiiy qimmatini boyitgan.

Hikmat janri Rabg‘uziy qissalari tarkibida ham uchraydi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, adabiy-tarixiy asarlarda an’anaviy ravishda kichik janrlar – maqol, hikmat, latifa, foyda, she’r kabilardan unumli foydalanilgan. Navoiyning hikmat va kichik she’rlardan foydalanishi o‘ziga xos. Uning hikmatlari aynan hakimlar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Ba’zi asarlarda mualliflar hikmatlardan badiiy tasvir vositasi sifatida foydalansa, Navoiy hakimlar haqidagi ma’lumotlarni asoslash va boyitishda bu janrdan foydalanadi.

N. Rahmonovning ta’kidlashicha, “Rabg‘uziy hikmatga o‘z asarida alohida urg‘u beradi va hikmatni qissa janrining kaliti sifatida talqin qiladi – qissadagi ma’lum bir voqeaning sabab va natijasini ochish, uning mohiyatini kitobxonga yetkazish uchun hikmat keltiradi. [2; 250]. Navoiyning hikmatlarni keltirishi tarixiy shaxslarning sifatlarini uyg‘unlashtirish, hakimlarning alomati haqida so‘z yuritish bilan bog‘liq. Bu jihat Rabg‘uziyda ham kuzatiladi. Masalan, Luqmoni hakim hikmatlarini Muhammad a.s. hayotiga bog‘laydi. Navoiy keltirgan hikmatlar shakl jihatdan qisqa, mazmunan boy. Hikmatlarning nasriy bayoni va she’riy talqini Navoiyning o‘ziga xos yondashuvi hisoblanadi. Navoiydan oldin ham hikmatlar she’riy usulda Ahmad Yassaviy, Sulaymon Baqirg‘oniy tomonidan ijodiy ishlangan. Ular ijodidagi she’riy hikmatlarda Olloh, (Tangri) payg‘ambarlar, soqiy kabi obrazlar ko‘zga tashlanib turadi.

“Tarixi anbiyo va hukamo”da Fisoqursning shogirdi “Fusuli Buqrot” asarining muallifi Buqrot hikmatlari mo‘tabar ekanligini ta’kidlab, namunalar keltiradi. Jumladan, “*...umr qisqadur, ish uzun. Oqil uldurkim bu qisqa umrni bir nimag‘a sarf qilg‘aykim, zaruratroqdur, ya’ni oxirat maslahati va Tengri taolo rizosi”* – deya, shu mazmunni she’riy usulda mahorat bilan tasvirlaydi:

Kishi qildi amal Tengrining rizosi bila,
Haq yetti oxiratin komu muddaosi bila (1; 598).

"...Navoiydek fikr dunyosi keng va mushohada quvvati zabardast shoirning asarda payg'ambarlar va hukamo-donishmandlar to'g'risidagi ma'lumotlarni birga berishi bejiz emas, albatta. Ilm ahlini qadrlab, parvarishlab kelgan Navoiy asarda "anbiyolar" qatorida "hakimlar" bayonini bergan, bu esa adibning ilm ahlini anbiyolar kabi ulug'langanligining isbotidir [3; 14]. No'shiravonning vaziri Buzurjmehr so'zlaridan keltirib, yigitlikda ilm kasb qilmoqlik, qarilikda esa uni sarf etmoqlik yaxshidir, – deydi:

Yigitlig'da yig' ilmning maxzani,
Qarilig' chog'i xarj qilg'il ani [1; 600].

Xulosa qilib aytganda, "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida keltirilgan kichik janrlar – hikmat, she'r (masnaviy)lar asardagi tarixiy shaxslar (hakimlar)ning sifatini aniqlash, ularning faoliyatini o'rganish, qolaversa, o'quvchini ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Nasriy asarlardagi kichik janrlarni o'rganish – o'sha davr adabiyotida kichik janrlarga xos xususiyatlarni aniqlash, ularning shakllanish genezisi, taraqqiy etishini ilmiy asoslash imkonini beradi. Shuni ta'kidlash mumkinki, "Tarixi anbiyo va hukamo"da berilgan kichik hikmatlar bir paytning o'zida ham nasriy, ham nazmiy bayon etilishi, Navoiyning bu janrdan ikki usulda foydalanganligini ko'rsatadi.

Kichik nasriy janrning qadimiy ildizlari turkiy qavmlar, xususan, o'zbeklarning burungi urug'-ajdodlari, dunyoqarashi, marosim, urf-odat, e'tiqodlariga munosabatidan boshlangan. Har bir nasriy asarga asos solgan dastlabki real voqelik, subyektiv hodisalar, islomgacha yuz bergan mifologiya, marosim, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy-maishiy munosabat kabi tarixiy haqiqatning poetik transformatsiyasi alohida ahamiyat kasb etgan. Aytish mumkinki, poetik munosabatga obyekt bo'lgan ibtidoiy ideal hodisalar turli xil syujet yaratuvchi motivlar shaklida tashkil topgan.

Yozma nasriy asarlarning sinkretik xarakterga ega bo'lgan namunalarini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu narsa janrlararo munosabat masalasini tekshirish obyekti qilib olish zarurligini ko'rsatadi. Bu ish, avvalo, u yoki bu janrning tafovutlanishi,

o‘ziga xos xususiyati va aniq chegarasini oydinlashtiradi. Qolaversa, har bir janrning tashkil topib shakllanishida, ikkinchi bir janrning ta’sirini tadqiq etish o‘zaro munosabat doirasini aniqlaydi, qolaversa, janrlar taqdirini belgilaydi.

Hikmat nasriy turning alohida janri sifatida qadimiy bo‘lib, juda keng tarqalgan. Uning ta’limiy, estetik nuqtalari ahamiyatlidir. Shuning uchun tarixiy nasrdagi hikmatlarni to‘plash, tarixi va taqdirini o‘rganish janriy belgilari, o‘ziga xos xususiyatlari, nihoyat, badiiylik darajasi, o‘ziga xos tasvir vositalarini aniqlash zarurligini taqozo etadi. Bu nasriy asarning noma’lum tomonlarini belgilash, ular haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Sakkizinchi jild. Tarixi anbiyo va hukamo. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent: 2013. –B. 598.

2. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2017. – B. 250.

3. Pardayeva I. Alisher Navoiy tarixiy asarlarining badiiyati. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand: 2018. – B. 14.

ALISHER NAVOIYNING “MEZON UL-AVZON” ASARI VA HENRI BLOSHMANNING ARUZGA DOIR ERKIN TARJIMALARI QIYOSI

Shohsanam ABDUMANNAPOVA

Jahon adabiyotshunosligida har qanday hodisa bugungi kunda adabiyotning eng nozik nuqtalarigacha tahlilga tortilar ekan, fanda aniqlanmagan yoinki aniqlanishi kutilayotgan ko‘plab savollarga javob topilishiga imkon yaratmoqda. Xususan, biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan Sharq xalqlari adabiyoti dunyo adabiyotshunosligining serjilo durdonasi desak xato bo‘lmaydi. Uning tarkibidagi she’riyat ilmlari har mahal olimlarimiz e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Avvalo, qadimda she’riyat masalalari qay holda tahlilga tortilgan va uning mezonlari nimalardan iborat ekanligiga to‘xtalib o‘tsak.

Mumtoz poetikaning, asosan, she’riyat masalalari bilan ish ko‘ruvchi tarmog‘i – “ilmlar uchligi” (ilmhoyi segona) deb ataladi va shu bilan birgalikda ushbu tarmoq uchta mustaqil sohada birlashadi, ya’ni:

1. ilmi aruz – she’rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalari haqida bahs yurituvchi soha;

2. ilmi qofiya – qofiya qonuniyatlari va turlari haqida ma’lumot beruvchi soha;

3. ilmi badi’ – nutqqa bezak beruvchi san’atlar, ularning o‘ziga xos jihatlari, fikrni go‘zal va mazmunli ifodalash usullarini o‘rganuvchi soha.

Biz mazkur ilmlarning aruz va qofiya masalalariga alohida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Negaki, mazkur ilmlar nafaqat Sharq adabiyoti, balki Yevropa olimlari nigohidan ham chetda qolmagan. Xususan, nemis olimi Henri Bloshman fors tilining yuksak bilimdoni sifatida e’tirof etilgani holda aruz va qofiya ilmlariga doir adabiyotlarni o‘rgangan. Bloshman Jomiy hamda Sayfiy Buxoriy asarlarini ingliz tiliga ijodiy tarjima qilgan va undan o‘zi dars berayotgan Kalkutta madrasasida qo‘llanma tarzida foydalangan. Bloshman *“The Prosody the Persians according to Saifi, Jami and other wiriters”* nomli asarini ikki marta: 1867 va 1872 yillarda sharh va izohlar bilan nashr qildirgan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: Bloshman nega aynan Sayfiy Buxoriy asarini tanlagan? Umuman olganda,

aruzga doir ma’lumotlarni Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ijodkorlardan ham olish mumkin-ku. Demak, Bloshmanning Sayfiy Buxoriy risolasiga tayanganligi ham, albatta, o‘ziga xos sabablarga ega. Bloshman tomonidan amalga oshirilgan ijodiy tarjimaning so‘zboshida shunday jumlalar mavjud: *“Saffi’s treatise, on the other hand, and a few others, commence, as is natural, with the rules of scaning, introduce technical terms gradually, and only such as are absolutely required, and treat the “circles” as redundant, though perhaps necessary for a systematic work. Hence, for the purpose of teaching, Saifi’s work has always been preffered to other treatises, and has for nearly four centuries been studied in the Madrasahs of the East”*. [Blochmann Henry, 1970: 6]

Tarjimasi: *“Boshqa jihatdan qaralganda Sayfiy va boshqalarning risolasi tabiiy ravishda fanni tadqiq etish qoidalari bilan boshlanadi. Sohaga oid atamalarni ham bosqichma-bosqich kiritar ekan, ularni ham faqatgina eng muhimlarini keltiradi hamda ma’lum qolipga solingan tizimli baytlar uchun doiralarni keraksiz deb hisoblaydi. Shu sababli ham o‘qitish maqsadida Sayfiy asarlari boshqa risolalardan afzalroq bo‘lib, deyarli to‘rt asr davomida ular Sharq madrasasida o‘rganilib kelinmoqda”*.

Bloshmanning fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, ayni shu jihatlar bilan Sayfiyning risolasi ingliz tiliga tarjima qilingan va undan foydalanilgan. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari 1492–1493 yillarda yaratilgan bo‘lib, Jomiy risolasi singari muxtasar uslubdagi risola sifatida yuritiladi. Asar Husayn Boyqaro topshirig‘iga ko‘ra yaratilgan hamda risolada misollar uchun asosan turkiy tildagi (muallifning o‘z ijodi hamda Xoja Ismat Buxoriy, Husayniy qalamiga mansub) baytlar keltirilgan. Asar o‘z davridayoq zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan, temuriy shahzodalar uchun aruz ilmini o‘rganishda qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan. [D.Yusupova va b., 2018: 208-209]

“Mezon ul-avzon”nning tarkibiy tuzilishiga diqqat qaratadigan bo‘lsak, asar muqaddima, asosiy qism va kichik xotimadan tarkib topadi. Asar muqaddimasida Navoiyning ushbu mavzuga qo‘l urishiga Husayn Boyqaro ilhomlantirganligi haqida so‘z borar ekan, unga ko‘ra, Husayn Boyqaro Amir Xusrav Dehlaviyning 18 ming baytdan iborat g‘azallarini yig‘diradi. Shoirning baytlari murakkablik kasb etganligi bois, ayrim shoirlar baytlarni aniqlashda qiyinchilikka

duch keladilar. Husayn Boyqaroning topshirig‘i bilan aruzshunoslar Xusrav Dehlaviyning har bir baytlari ustiga shu she’rning vaznini yozadilar. Ayni shu hodisadan so‘ng devon tuzishda har bir she’rning vaznini qayd etib qo‘yish odatga aylanadi.

Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy” asari hijriy 896, milodiy 1490–1491-yillarda yaratilgan bo‘lib, muqaddima va turli hajmdagi 112 fasldan iborat. Asar qo‘llanma xarakterida deyish mumkin, chunki unda aruzga doir istilohlar lug‘aviy ma’nolari bilan ancha batafsil sharhlangan. Risolada har bir bahrga doir baytlar berib boriladi. G‘azallarning ko‘p qismini Sayfiy Buxoriy o‘z baytlaridan olgan. Bundan tashqari zamondosh shoirlar ijodidan ham namunalar keltiriladi.

Sayfiy Buxoriyning risolasi qismlarga ajratilmaydi, ya’ni undan muqaddima, asosiy qism va xotima ko‘rinishlarini uchratmaymiz. Yuqirida ta’kidlanganidek, asar aruz ilmini endigina o‘rganib kelayotgan izlanuvchilar uchun eng yaxshi qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Bu asar ham Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari singari aruz ilmining kelib chiqishi hamda undagi aruziy istilohlarning lug‘aviy ma’nolarini izohlash bilan boshlanadi. Sayfiy Buxoriy asarida aruz ilmining kelib chiqishiga doir Navoiy asarida uchramaydigan bir hikoyat keltiriladi: *“Aruz ilmining rivojlanishi Xalil ibn Ahmad nomi bilan bog‘liq. Hikoyada aytilishicha, u bir marta ustaxona yonidan o‘tib ketayotganda bolg‘adan chiqayotgan tovushlarni eshitadi. U bu jaranglar nimanidir anglatadi deb o‘ylaydi va ularning uyg‘un holda ohangdoshlik hosil qilishini tushunadi hamda “Bu ovozlar, albatta, bir narsani keltirib chiqaradi”, - deb aytadi. Bu esa aruz ilmining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi”*. [Blochmann Henry, 1970: 19]

Navoiyda ham aruzning kelib chiqishiga doir fikrlar keltiriladi, so‘ng fanning nazariy qoidalariga to‘xtlalib o‘tiladi. Unga ko‘ra, aruzdagi eng kichik birlik - juzvlar haqida ma‘lumot beriladi. Navoiy ularni rukn istilohi bilan ataydi. Bundan so‘ng esa Navoiy asl ruknlarga ta’rif beradi. Risolada aruziy istilohlarga alohida to‘xtalib o‘tiladi va ular nazariy jihatdan ham izohlanadi. Navoiyda doirlar keltirilgan bo‘lsa, Sayfiy doiralarni keraksiz deb hisoblaydi.

Bahrlar tarkibi xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari tarkibidagi bahrlarni filologiya fanlari doktori D.Yusupova tomonidan aniqlangan jadval bilan solishtirishni lozim topdik. [D.Yusupova va b., 2018: 212-213]

Navoiy va Sayfiy risolalaridagi bahrlarning tarkibini quyidagi jadval orqali izohlamoqchimiz:

Navoiy:

№	Bahr nomi	Vaznlar soni			
		Musamman vaznlar	**Musaddas vaznlar**	**Murabba' vaznlar**	**Jami**
1	*Hazaj*	11/24 (ruboiy vaznlari)	10	1	46
2	*Rajaz*	6	6	1	13
3	*Ramal*	7	4	2	13
4	*Munsarih*	8	3	2	13
5	*Muzori'*	8	5	–	13
6	*Muqtazab*	2	1	4	7
7	*Mujtass*	7	1	2	10
8	*Sari'*	–	6	–	6
9	*Jadid*	–	2	–	2
10	*Qarib*	–	4	–	4
11	*Xafif*	–	6	–	6
12	*Mushokil*	1	2	2	6
13	*Mutaqorib*	8	2	–/ Mutatavval	10
14	*Mutadorik*	4	3	–	7
15	*Komil*	1	–	–	1
16	*Vofir*	1	–	–	1
17	*Tavil*	1	–	–	1
18	*Madid*	1	–	–	1
19	*Basit*	1	–	–	1
	Jami	**91**	**55**	**14**	**160**

Sayfiy Buxoriy:

№	Bahr nomi	Vaznlar soni		Jami
		Musamman vaznlar	**Musaddas vaznlar**	
1	*Hazaj*	10	9	19
2	*Ramal*	12	7	19
3	*Mutaqorib*	5	3	8
4	*Rajaz*	5	3	8
5	*Mutadorik*	4	–	4
6	*Muzori'*	7	2	9
7	*Sari'*	–	2	2

8	*Xafif*	–	6	6
9	*Mujtass*	6	–	6
10	*Munsarih*	4	2	6
11	*Qarib*	–	3	3
12	*Jadid*	–	1	1
13	*Mushokil*	–	1	1
	Jami	**53**	**49**	**102**

Yuqoridagi jadval orqali ikki risoladagi bahrlar qiyosi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rish mumkin.

Umuman olganda, har ikki ijodkor ham o‘ziga xos tarzda ushbu ilmga doir qarashlarini izohlaganlar va bu turli tabaqa vakillari uchun mo‘ljallangan deyish mumkin. Ijodkorlarning bu kabi yondashuvlari aruz ilmini o‘rgatishda va bu ilmga doir ma’lumotlarni yetkazishda o‘ziga xos usul bo‘lsa kerak deb o‘ylaymiz. Tadqiqotlarimiz davomida bu masalani atroflicha o‘rganish va tahlil etish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. Назм ул-жавоҳир. Насойим ул-муҳаббат. Муҳокамат ул-луғатайн. Мезон ул-авзон. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.10. – 692 б.

2. Blochmann Henry Ferdinand. Prosody of the Persians according to Saifi, Jami and other writers. Reprint 1970 of the edition Calcutta 1872 printed in the Netherlands (Amsterdam philo press).

3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.:Шарқ,1990.– 240 б.

4. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – T.: “TAMADDUN”, 2018. – 520 b.

5. D.Yusupova. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. –T.: “AKADEMNASHR”, 2020.– 304 b.

ALISHER NAVOIY “HAYRAT UL-ABROR” VA TASHLIJALI YAHYOBEY “GULSHAN UL-ANVOR” DOSTONLARI MUQADDIMALARINING QIYOSI

Diyora ABDUJALILOVA

Turkiy adabiyotda “Xamsa” yaratib, uni novatorlik darajasigacha olib chiqqan shoirlar sanoqlidir. Alisher Navoiyning “Xamsa” asari bunda alohida o‘rin egallaydi. Navoiydan so‘ng o‘z “Xamsa”si bilan turkiy adabiyotda nom qozongan shoirlardan biri Tashlijali Yahyobeydir. Yahyobey Tashlijali XVI asr Usmonli she’riyatining yetakchi vakillaridan biri. U “Xamsa” va devon sohibi hisoblanadi. Ishimizda Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” hamda Yahyobey Tashlijali “Xamsa”sining dostonlaridan biri “Gulshan ul-anvor”ning muqaddimalari qiyoslanadi. Tashlijali “Xamsa”sining oxirgi dostoni diniy-tasavvufiy asar hisoblanadi. Ikki ming to‘qqiz yuz o‘n to‘rt baytdan iborat bo‘lgan ushbu asar muqaddimasi uchta basmala, uchta hamd, uchta munojot hamda biri Me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlangan uchta Na’t, Sulton Sulaymonga bag‘ishlangan maqtov qismi hamda asarning yozish sabablaridan iborat.

Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi birinchi doston – «Hayrat ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi») 1483-yilda yaratilgan edi. Doston 3988 baytdan iborat bo‘lib, 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Shundan muqaddima 21 bobni o‘z ichiga oladi.

Dostonning birinchi bobi «Bismillahir rohmanir rohim» («Mehribon va rahmli Olloh nomi bilan boshlayman») oyatining shoirona talqiniga bag‘ishlanganligi uchun «basmala bobi» deb ham ataladi. Bu bob nafaqat «Hayrat ul-abror» uchun, balki, umuman, «Xamsa» uchun ham kirish vazifasini o‘taydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlani uchratmaymiz.

Umuman, salaflarda «Xamsa»ni «bismilloh» oyati bilan boshlash an’ana tusiga kirgan bo‘lib, Nizomiydan boshlab barcha xamsanavislar o‘z so‘zlarini ana shu oyat bilan boshlaganlar. Faqat Navoiyga kelibgina bu bob mustaqil basmala bobiga aylandi, ya’ni

ushbu bob to‘lig‘icha «bismilloh» oyati asosida qurildi. [D.Yusupova. 2016: 98]

Ushbu an’anani saqlagan holda Tashlijali Yahyo ham “Gulshan ul-anvor” dostonini “Bismillahir rohmanir rohim” oyatini talqin qilish bilan boshlaydi.

Basmalaning o‘zi va uni tashkil etuvchi harflar va motivlar haqida bir qancha o‘xshashliklarni keltirgan. “Ha” saxovat eshigining halqasiga, “ra”lari jazba yetgan solikka, “nun” harfini kavsar suvi to‘lgan qadahga va nuqtasini Ka’baning Hajar ul-avsad toshiga qiyoslaydi.[Ayşe Sağlam, 2016: 511] Shoir ikkinchi va uchinchi basmalada ham go‘zal o‘xshatishlar bilan davom etadi.

Shu bilan “Gulshan ul-anvor” dostonining “Basmala” bobi uch qismdan iborat. Hamda har bir qismi “Bismillahir Rohmanir Rohim” oyati bilan boshlanadi.

Birinchi basmala:

Bısmıllahir rahmanir rahim

Kafile-i ilmi alim ü hakim

Ikkinchi basmala:

Bısmıllahir rahmanir rahim

Serv-i gülistān-ı kelām-ı ḳadįm.

Uchinchi basmala:

Bısmıllahir rahmanir rahim

Sünbül-i gülzār-ı kelām-ı ḳadįm

“Hayrat ul-abror”ning ikkinchi bobi Xoliq, ya’ni Olloh hamdiga bag‘ishlanadi. Mazkur bobda shoir hamma narsani yaratgan Xoliqning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o‘simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini bir-biriga bog‘lab harakatlantirib turishini cheksiz hayrat bilan tasvirlaydi. Alisher Navoiy «Uning zoti lutf va safodan iborat, lekin vafo isi unga begona» degan fikrlarni ilgari surar ekan, bu o‘rinda tasavvuf ta’limoti asosida fikr yuritilayotganligi ma’lum bo‘ladi.

“Gulshan ul-anvor”ning 4 – 6 boblari Alloh hamdiga bag‘ishlanadi. Birinchi hamdda koinot va insonning aratilishi haqida so‘z boradi. Ikkinchi hamdda esa shoir o‘quvchini Allohning qudrati haqida fikr yuritishga undaydi. Unga ko‘ra, to‘rt fasl almashinuvi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Ularning hammasi Allohning irodasi

bilan sodir bo‘lur. Yahyo bey uchinchi tavhidda Allohning jamoliga e’tibor qaratadi. Sevgi, muhabbat faqat ilohiy va Allohga bo‘lsagina go‘zal bo‘lishini ta’kidlaydi. Alloh insonlarni mehr bilan yaratgani, kimni istasa aziz qilishi, kimni istasa pastroq darajaga tushirishi mumkinligini aytadi.

“Hayrat ul-abror” dostonining 3 – 6-boblari (to‘rt bob) munojotlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi munojotda Alloh taoloning Bir-u Borligi, jamiyki maxluqot unga sano aytsalar ham, uning hamdini ado etolmasliklari, Haq taolo o‘z Zotiga mazhar – ko‘zgu yaratish maqsadida olamni yo‘qdan bor qilgani haqida so‘z yuritiladi. Olamning go‘zalligi va mukammal yaratilganligini vasf etish orqali mutafakkir shoir Parvardigori olamning benazir yaratuvchi ekanligini chin e’tiqod sohiblariga xos bo‘lgan jo‘shqinlik bilan vasf etadi. Shu bilan birga, Borliqni yaratishdan asosiy maqsad, olamning hikmati va gultoji, koinotning mohiyati inson ekanligini alohida iftixor va shukronalik bilan qayd qilib o‘tadi:

Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g‘araz inson edi. [Navoiy,]

Ikkinchi munojotda esa Alloh olamdagi jamiyki mavjudotning yaralish va foniylikka yuz tutish jarayoni davomida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan jamiyki voqea va hodisalarni o‘z ilmi, irodasi va qudrati bilan tasarruf etishi, azaliylik va abadiylik faqat Xudoga xos ekanligi, haqiqiy iloh faqat Alloh taoloning O‘zi bo‘lib, olamdagi jamiyki mavjudot faqat Unga sajda va itoat qilishlari lozimligini bayon etib, o‘z iltijolarida ilohiy g‘azabdan qo‘rqib, rahmatidan umidvor holda yashayotganini, imon gavharidan ayru qoldirmaslikni yolvorib so‘raydi:

Yo Rab, agar yetsam o‘shul kunga jazm
Yoki burun aylasam ul yonga azm,
Ul nafas imon manga hamroh qil,
Ko‘nglum aro mahvi sivalloh qil.

Uchinchi munojotda olam ahlining qiyomat kunidagi ahvoli tasvirga tortilib, o‘sha kuni oxirzamon payg‘ambari – Muhammad Mustafo (s.a.v.) Haq taolo izni bilan musulmon ummatini shafoat qilishi, Navoiy ham bu shafoatdan umidvor ekanligi haqida so‘z yuritiladi. To‘rtinchi munojotda esa Alloh taoloning karami kengligi,

jamiyki bandalariga mehribon va rahmli ekanligi haqida so‘z yuritiladi. Navoiy talqini bo‘yicha:

Har kishi osiy-u gunahkorroq,
Afv ila rahmatqa sazovorroq.

“Gulshan ul-anvor” dostonining 7-9 boblari munojotlardan iborat. Dastlabki munojotda shoir o‘ziga boshqa insonlarga Yaratganning rahmatini tiladi. O‘zini gunohkor sanagan shoir ibodatlari yetarli emasligini bilsa-da, Allohning marhamatidan umid uzmaganini aytadi. Allohdan o‘zi va boshqalarning gunohlarini kechirishini so‘ragan shoir oxirat saodati uchun Allohga yolvoradi. Uning birgina orzusi ilohiy ishq bilan yashamoq va Alloh jamoliga erishmoq ekanini bayon qiladi.

Yahyo bey Allohning azamati va qudratini ikkinchi munojotda bayon etar ekan, bunda ham faqat o‘zi uchun emas butun insonlar uchun duo qiladi. Allohdan gunohlarini kechirilishini yolvorib duo qiladi. Uchinchi munojot valiy zotlarning Allohga qanday ibodat qilishlarini tushuntirishdan boshlanadi. Shoir ushbu munojotda ham Allohdan yordam so‘rab yolvoradi.

“Hayrat ul-abror” dostonida munojotdan so‘ng payg‘ambar madhiga, ya’ni na’tga o‘tiladi. Dostonda 5 ta na’t keltirilgan. Ushbu na’tlarning dastlabki to‘rttasi vasf yo‘nalishida bo‘lsa, beshinchi na’t me’roj haqida. Dostonda Navoiy Payg‘ambar (s.a.v.)ni komil inson deb talqin etadi, ul Zotning insoniyat taqdiridagi o‘rnini – bu dunyoning yaratilishidan maqsad Rasulullohdek komil inson ekanligini ta’kidlaydi, u Zotni alohida mehr-muhabbat bilan madh etadi.

An’anani davom ettirgan holda Tashlijali dostonida ham Payg‘ambar madhiga o‘tiladi. Dostonda 3 na’t keltirilgan bo‘lib, birinchi va ikkinchi na’tlarda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning go‘zal axloqi, adolati, din yo‘lidagi matonati, janglardagi mahorati haqida so‘z boradi. Uchunchi na’t esa Me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlanadi.

“Hayrat ul-abror” dostonining 12-bobida ulug‘ salaflar – Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy haqida so‘z boradi. Dastlab Nizomiy, so‘ngra Xusrav Dehlaviy madhi keltiriladi

13-bob Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhini o‘z ichiga oladi. Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni bir bobda ta’riflagani holda ustozi

va do‘sti Abdurahmon Jomiyga alohida bob bag‘ishlaydi. Uni o‘sha davrning «qutbi tariqati» deb atar ekan, o‘zining unga nisbatan ojiz va muhtojligini g‘oyat kamtarlik bilan bayon qilsa, Jomiyning yangi yozgan biror asarini o‘zidan oldin hech kim ko‘rmasligini faxr bilan ta’kidlaydi:

Nomag‘akim roqim etib xomasin,
Ko‘rmadi men ko‘rmayin el nomasin.

«Hayrat ul-abror» dostonining yozilishida aynan Jomiyning «Tuhfat ul-ahror» dostoni turtki bo‘lganligini aytiladi:

Boshtin ayoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar, «Tuhfat ul-ahror» edi...
Chun o‘qimoq zamzamasi bo‘ldi bas,
Ko‘nglum aro dag‘dag‘a soldi havas
Kim, bu yo‘l ichraki alar soldi gom,
Bir necha gom o‘lsa manga ham xirom.

Tashlijali Yahyo esa dostonning navbatdagi bobini Qonuniy Sulton Sulaymonga madhiga bag‘ishlaydi. Uning adolati, jangovor qobiliyati, go‘zal axloqi haqida so‘z boradi.

Keyingi boblarda esa Tashlijali “Xamsa”sining yozilish sabablariga to‘xtalar ekan, Usmonlilar saltanatiga xizmati, u yerga qanday kelib qolgani, jangdagi mahorati, yomon niyatli kishilar tarafidan mansabidan uzoqlashtirilgani, Allohning inoyati ila tariqatga kirgani haqida so‘zlaydi.

“Hayrat ul-abror”ning 14 – 15-boblari so‘z ta’rifiga bag‘ishlangan. Shoir ushbu boblarda so‘zni tavsif etar ekan, nazmning qimmati, so‘zdagi ma’no, uning shaklga muvofiqligi, shakl va mazmun masalasi, umuman, ijod haqidagi masalalarga e’tibor qaratadi.

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda turkiy tilda she’r aytishga kuchli ishtiyoq sezishini va bu yo‘lda ancha yuqori darajaga erishganini faxr bilan bayon qiladi. Mazkur bobda Navoiy shoirlar axloqi, shoirlik rutbasi, ayrim zamondosh shoirlar bilan bog‘liq «adabiy sirqat» (plagiat, boshqa shoirlardan ma’no yo mazmun o‘g‘irlash) haqida ham fikr yuritganki, bu fikrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Dostonning 16-bobi zamona sultoni Husayn Boyqaro madhini o‘z ichiga oladi. Alisher Navoiy bu bobda talmeh san’ati vositasida Husayn

Boyqaroni kuch-qudratda Firdavsiy qahramoni Rustamga, adolat va fazl-u kamolda Eronning afsonaviy podshosi Jamshidga o‘xshatadi.

17-bob «Ko‘ngul ta’rifida» deb nomlanadi. Bobning ilk baytlarida shoir Xudoni dehqonga, inson vujudini gulistonga qiyoslaydi. Uning fikricha, Xudoning inson vujudini yaratishdan asosiy maqsad-muddaosi inson vujudining eng sharif a’zosi – ko‘ngil hisoblanadi:

Ermas edi anda g‘araz hech gul,

G‘ayri ko‘ngulkim, g‘araz erdi ko‘ngul.

Shu bilan birga, shoir ko‘ngulni inson ko‘ksining chap tomonida joylashgan a’zo – yurak bilan adashtirmaslikka chaqiradi. Yaratganning yodi bilan yashaydigan insondagina haqiqiy ko‘ngul bo‘ladi va ugina «ahli dil» sanalishi mumkin. Shuningdek, Navoiy ko‘ngulni olami kubro, Ka’badan-da ulug‘ joy deb ataydi.

Muqaddimaning qolgan uch bobi (18 – 20-boblar) hayrat ta’rifiga bag‘ishlangan. Bu boblarda Xoja, ya’ni ko‘ngulning avval mulk (narsalar) olamiga, keyin malakut (farishtalar) olamiga va, nihoyat, so‘ngida «ajoyib bir shahar» (inson tanasi)ga sayohati bayoni keltiriladi va bu sayohat ko‘ngulning o‘zligini tanib, inson tanasiga kirgani tasviri bilan yakunlanadi.

Navbatdagi bobda Tashlijali Muhammad Dede haqida yozadi. U zot bilan uchrashuvini bayon qiladi. Muqaddima so‘nggida esa nom qozongan “Xamsa” mualliflarini sanab o‘tar ekan, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy haqida so‘z boradi. Va ularni o‘ziga ustoz deb bilishini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1991. 7-жилд

2. Дилнавоз Юсупова. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Навоий даври). T.:TAMADDUN – 2016

3. Taşlıcalı Yahya. Gulşan ul-anvar. Ayşe Sağlam. – Diyarbakir – 2016.

4. Ayşe Sağlam. Taşlıcalı Yahya Bey ve Hemsesı. Doctora Tezı. – 2016.

5. Афсахзод А. Лирика Абд Ар-Рахмана Джами.– М.:Наука, 1988.

NAVOIYNING BE“BISMILLOH” BOSHLANGAN ASARI “DEBOCHA”SINING TADQIQI

Ozodbek ALIMOV
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

Ma’lumki, Alisher Navoiyning *“Xamsat ul-mutahayyiriyn”* asari maxsus muqaddima bilan ta’minlangan. Ularga bir vaqtlar mafkuraviy nuqtai nazardan qaralib bu mazmundagi boblar, muqaddimalar ongli ravishda nashrlardan tushirib qoldirilgan. Natijada o‘quvchi shoirning o‘sha davrdagi holati, vaziyati, ilmiy-falsafiy dunyoqarashi borasida muhim dalil beruvchi debochalar, ayrim an’anaviy va maxsus boblardan bexabar bo‘lib qolgan. Vaholanki, ularga muallifning falsafiy, siyosiy-ijtimoiy va axloqiy fikrlari singdirilgan bo‘lib, uning dunyoqarashini o‘rganishda ilk va muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Avvalo an’anaviy muqaddima haqida shuni aytib o‘tish joizki, muqaddimalarning asosiy mohiyatini hamd-u sanolar tashkil qiladi. Ammo ular mag‘zida inson, Bani Odam deb ataluvchi ulug‘ mavjudot bilan bog‘liq falsafiy mushohadalar ham yotadiki, ularni o‘rganish muallif ijodidagi ilg‘or qarashlarni, ezgu maqsadlarni anglashga yordam beradi.

Alisher Navoiyning *“Xamsat ul-mutahayyiriyn”* asari ham Sharq adabiyoti an’analariga muvofiq yaratuvchi buyuk Zot Alloh subhanahu va taolo hamda Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ning sha’nlariga aytilgan hamd-u na’t bilan boshlanadi.

Asar muqaddimasi uncha katta bo‘lmasa-da, undan avval **“So‘zboshi”** maqolasi o‘rin olgan. Bu qismni hozircha shartli ravishda shunday nomlashimizga sabab mazkur asarning marhum atoqli olimimiz, akademik Azizxon Qayumov va falsafa fanlari doktori, prof. Dinora Azimova (Davrona) tomonlaridan amalga oshirilgan rus tilidagi tarjimasi turtki bo‘ldi. Unda ham ushbu qism **“Предисловие”** deb nomlangan [Алишер Навои. 2015:7].

F. Olimov o‘zining Alisher Navoiyning *“Xamsat ul-mutahayyirin” asari badiiyati”* nomli tadqiqotining “Asarning badiiy-estetik xususiyatlari” nomli 3-bobining 1-faslida mazkur qismni **“Bismillo”** (so‘z tadqiqotchi tomonidan shunday yozilgan) deya nomlaydi. F. Olimov bobda yoritilgan masalalarni davom ettirar ekan: “Asarning

“Bismillo...”sida muallif Jomiyning tug‘ilishi, nasabi, bolalik va yigitlik davri, o‘qigan joyi, ustozlari, pirlari, zohiriy hamda botiniy ilmlarda erishgan darajasi va nihoyat o‘zi bilan uchrashgan davrlarini izchil tasvirlashga kirishganini bildiradi. **“Muqaddima”**da shularni ketma-ketlik bilan hikoya qilib o‘tadi”, degan fikrlarni bayon qiladi [F.Olimov, 2018: 14].

F. Olimovning asar debocha qismini “Bismillo” deb nomlab, uni “Muqaddima” qismiga qo‘shib yuborishiga bir tomondan qo‘shilish mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan asarning “Muqaddima” qismi Navoiy tomonidan aniq va ravshan belgilab berilgani bois qo‘shilib bo‘lmaydi.

Asarning bu **debocha** qismining nomlanishi haqida biroz fikr yuritish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Chunonchi, Movarounnahr hududi, Erondan to Arabiston hududlarida ilmiy ijod faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lgan olim-u fuzalolar tomonidan yozilgan asarlarning deyarli aksariyati “Basmala”, “hamdu na’t”, ashoblarga salom va kitob yozilish sababi bilan boshlangan. Ana shu yozilish sabablarida muallif o‘zini o‘ta kamtar tutib o‘z ismini, asarning nima sababdan yozilgani, u qaysidir asarga sharh yoki takmilami yo boshqa, batafsil aytganidan so‘ng “asarga falon deya ism qo‘yildi” degan iborani qo‘llagan. Bu fikrni birgina misol, ya’ni yuqorida zikr qilingan manzil hududlarida mutasavvif shoir So‘fi Olloyorning eng ko‘p tarqalgan *“Sabot ul-ojiziyn”* asari bilan quvvatlasak:

Yozildi forsiy til birla maktub,
Aqidoti furuhi qurbi mahbub.
Anikim, ko‘rdilar turkiy yoronlar,
Dedilar: «Gar duo qilsa eranlar.
Bitilsa turkiy til birla aqida,
Ko‘ngillar bo‘lsa andin oramida»...
Aqida so‘zlarini qildim isbot,
Anga qo‘ydum «Sabot ul-ojiziyn» ot.

Bu parcha *“Sabot ul-ojiziyn”*da “Sababi tahlifi kitob” faslida keltirilgan [Sayyid Habibulloh ibn Sayyid Yahyohon al-Farg‘oniy al-Kobuliy, 2009: 40-41].

*“Xamsat ul-mutahayyiriyn”*da ham hamd-u na’tdan so‘ng Navoiy o‘zi haqida (ya’ni asar muallifini ekanini), asar bag‘ishlanib yozilayotgan shaxs (ya’ni Jomiy) haqida, uning yozilish sababi va unga nom berish haqida aniq bayon qiladi. Demak, bu qismni

shartli ravishda **“Sababi ta’lifi kitob”** deb atasa ham bo‘ladi va bu fikrimizcha to‘g‘riroq. Hadisning ma’nosi: *“Kishining ehtiborga molik har bir ishiki, Allohning muborak nomi bilan boshlanmasa, u ishning oxiri kesik, natijasi yo‘qdir”*. Negadir bu holat *“Xamsat ul-mutahayyiriyn”*ning biz tadqiq qilgan qo‘lyozma manbalarining hech birida uchramaydi. Tadqiqot doirasiga jalb qilingan 5 ta qo‘lyozmaning 3 tasi *“Kulliyot”* tarkibidan o‘rin olgan (Oltinchi manba To‘pqopi Revan kutubxonasida saqlanayotgan 808-raqamli qo‘lyozmaning bizda mavjud bo‘lgan fotokopiyasining avvali bo‘lmagani uchun undagi holat bizga noma’lum). Bu *“Kulliyot”*lardagi barcha asarlarning avvalida go‘zal unvonlar naqsh qilingan. Ulardan o‘rin olgan har bir asar avvalida “Basmala” qayd qilingan. *“Xamsat ul-mutahayyiriyn”* bundan mustasno. 4-5-manba bo‘lib xizmat qilgan Toshkent nusxalarida esa hatto ulardan birida alohida bitta asar, ya’ni *“Xamsat ul-mutahayyiriyn”*ning o‘zigina kitobat qilingan bo‘lsa-da, ularda ham ushbu holat takrorlangan. Biz bu bilan muallif yoki kotiblarni bu ulug‘ kalimaga bee’tiborlikda bo‘lganlar, deyish fikrini xayolimizga keltirishga ham jur’at qila olmaymiz va bu fikrdan yiroqmiz.

Hadisda vorid bo‘lgan xabarga muvofiq biz tanqidiy matnda “Basmala”ni zikr etishni lozim topdik. Besh nodir qo‘lyozma manbalarning barchasida bu holat bir xil bo‘lganligini e’tiborga olsak, demakki, Navoiyning avtografida ham “Basmala” qayd qilinmagandir, degan xulosaga kelish mumkin bo‘ladi. Tadqiqot asnosida To‘pqopi nusxasining mavjud sahifalari Parij “Kulliyot”i matni bilan solishtirilganda deyarli bir xil ekanini inobatga olgan holda, To‘pqopi nusxasida ham shunday holat bo‘lsa ajab emas, degan xulosaga keldik.

Nima uchun Alisher Navoiy *“Xamsat ul-mutahayyiriyn”*ni be“bismilloh” boshlagan? Bunga nima sabab bo‘lgan?, – degan savollar bizni uzoq vaqt o‘ylantirdi. Yuqoridagi hadisi sharif chuqur tahlil qilish natijasida shunday xulosaga keldikki, xabarda “*ehtiborga molik har bir ishiki*” degan lafz kelmoqda. Navoiy o‘z oldida pir-u ustozining ulug‘ xotirasi turganini va bu yozilgan xotira asar bu shaxs xotirasi oldida **ehtiborga loyiq ish emas** deb hisoblab, asarni “Basmala”siz boshlagan bo‘lishi bu – birinchi ehtimol. Bu holat bizni qiziqtirdi va tadqiqotlar natijasida ko‘plab mashhur manbalarda ham “Basmala” zikr qilinmaganining guvohi

bo‘ldik. Masalan, Imom al-Buxoriyning *“al-Jomi’as-sahih”* hadislar to‘plamida ham “basmala” yozilmagan. “Basmala”ning yozilmagani uni aytilmaganiga dalil bo‘la olmaydi. Bu borada mazkur mo‘tabar manbaga yozilgan alloma Badruddin Abu Muhammad Mahmud ibn Ahmad al-Ayniyning *“Umdat ul-qoriy sharhu Sahih il-Buxoriy”* nomli asarida bir qancha dalillar sharhlar bilan keltirilgan [Badruddin al-Ayniy, 1426/2005: 33-36]. Hadis lafzida ham ushbu muborak kalomning zikri haqida gap bormoqda, yozish haqida emas.

Ikkinchi ehtimol – yuqoridagi hadis lafzining quyidagicha matni ham hadis kitoblarida zikr qilinadi:

“Kishining ehtiborga molik har bir ishiki, Allohga hamd aytish bilan boshlanmasa, u ishning oxiri kesik, (natijasi yo‘q)dir”.

Navoiy biz taxmin qilayotgan birinchi ehtimoldan so‘ng ikkinchi ehtimolga dalil sifatida keltirilgan mazkur hadisga amal qilgan bo‘lishi mumkin. Mazkur hadisdagi xabarda vorid bo‘lgan Allohga hamd aytish, ya’ni hamd qismi Navoiy tomonidan mukammal aks ettirilganki, quyida uni tahlil qilishga harakat qilamiz.

An’anaviy tarzda buyuk Alloh subhanahu va taologa hamd-u sano hamda ikki olam sarvari Muhammad Mustafo (s.a.v.) ga go‘zal va betakror na’t keltiriladi:

Ul olimi allomg‘a yuz hamdu sano
Kim, Odam ila tuzdi chu bu dayri fano.
Ilmig‘a malak surmadi bir harf yano,
Juz nuktai “Subha..naka la.. ilma lana..”.

Zoti va sifatida tanho, azamatu kibriyo, beniyozlikda yagona, barcha nuqson-u ayblardan pok, beshibh, bemisl-u benazir bo‘lgan, yer-u ko‘kni nihoyatda mukammal yaratgan, osmonlarni sobit sayyoralar va yulduzlar bilan bezatib, uni o‘z qudrati bilan beustun ko‘tarib qo‘ygan hamda yerni tog‘lar bilan sobit qilib, unda har tarafdan chashma va anhorlar, dengiz-u ummonlarni joriy qilib, unda rang-barang gul-u rayhonlarni va turli mevalarni ziynat qilib o‘z amazatu qudratini, ilmi azaliysini ko‘rsatgan ul OLIMI ALLOMga hamdi behad (Navoiy “yuz” sanog‘ini zikr qilgan bo‘lsa-da, bu yerda ko‘p, beadad ma’nosi ixtiyor qilingan) va sanoyi beadad bo‘lsin–

Chunki Alloh subhanahu va taolo Hazrati Odam (a.s.)ni o‘z qudrat qo‘li bilan yaratar ekan, unga barcha mavjudot-u mahluqotning ismini, ilmini bildirdiki, bu holni, ya’ni insonning Yaratganning xalifasi deyilgan nomga loyiq zot ekanini farishtalariga Odam (a.s.)

ning so‘ralgan narsalarning barchasini nomma-nom aytib berishi orqali namoyon qildi.

Yuz na’t ongakim, xulqi karim aylab ani,
Ya’niki, karam koni rasuli madaniy,
Mundoq dedi ilm ahlini aylarga g‘ani,
“Man akrama a..liman faqod akramani..”.

Alisher Navoiy Payg‘ambar (s.a.v.) vafslarini shunday go‘zal bayon qiladiki, unda quyidagi ma’nolar o‘z aksini topgan: Yuz na’t va salavotu salom yuksak xulq egasi bo‘lgan Rasulullo (s.a.v.)ga bo‘lsinki, Alloh taolo u Zotni yer yuzida chiroyli xulq egasi qilib жу ЕцдшуЯу буЪубм ОхбхЮт ЪуЩцнгт *(“Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz”)*, deya madh etganiga ishora qiladi. U Zot (Muhammad s.a.v.) madinalik chiroyli xulq va saxovat koni bo‘lgan Allohning rasulidirlar.

Bu yerda Navoiyning so‘z tanlashdagi o‘ta daqiq nuktadonligini sezish mumkin. U ham bo‘lsa “madaniy” lafzida ko‘rinadi. Ma‘lumki, “yo”yi nisbat qo‘yishgan so‘z, shaxsning qaysi joyga mansubligini ifoda qiladi. Masalan, Toshkandiy – toshkentlik, Samarqandiy – samarqandlik va hokazo. Ma’lumki, Muhammad (s.a.v.) Hijozning Makka shahrida tug‘ilganlar. 40 yoshlarida u kishiga Yaratganning ulug‘ ne’mati ato qilingan. 13 yil Makkada shahar ahlini hidoyatga, Allohga iymon keltirishga da’vat qildilar. So‘ng 10 yil Madinada yashadilar. “Rasuli madaniy” iborasi bilan ushbu tarix voqealariga ishora bo‘lsa, yana bir jihati, “rasuli madaniy” iborasi bilan Navoiy Rasulullo (s.a.v.) ni o‘ta madaniyatli Zot bo‘lganligiga ishora qilmoqda.

Shundan so‘ng Hazrat Navoiy o‘zini xos shaxslar ichida ham, oddiy insonlari orasida ham shuhratparast, nafs quli deya ta’riflash bilan birga, kitobni ta’lif qilgan shaxs, ya‘ni o‘zining nomini Navoiy taxallusli Alisher deya zikr etib, avliyolarning oliysi, ilohiy ilm – ilmi ladun sohibi, Payg‘ambar (s.a.v.) merosxo‘rlari hisoblangan olimlarning o‘nta olamiga barobar bo‘lganlardan-da chandon ortiqrog‘i Abdurrahmon Jomiy vasfini bayon qilib quyidagi misralarni keltiradi:

Kim gunbadi gardandai oliy bunyod,
To davrida ta’jilg‘a bo‘lg‘ay mo‘tod,
Odamki bo‘lub xalifa yoydi avlod,
Avlodida bir uyla xalaf bermas yod”.

Ma’nosi:

Oliy holda bunyod qilingan aylanib turuvchi gumbaz,

Toki falakda shoshilishga odat qilib aylanar ekan,

Odam Yaratganning yerdagi xalifasi bo‘lib shu qadar zurriyot yoydiki,

Avlodida Jomiy kabi zurriyoti bo‘lganligini yod qila olmaydi.

Navoiy bu misralarni qog‘ozga tushirar ekan, Jomiyning bu dunyodan boqiy dunyoga safar qilgani uning qalbida hali-hanuz og‘riqli bir dard sifatida turganini, u Zotni qo‘msayotganini sezish mushkul emas.

Nihoyat Navoiy kitobning **“Sababi ta’lif”**ini yuqorida zikr qilingandek so‘nggi shartini, ya’ni asarning nomlanishi haqidagi jumlalar bilan yakunlaydi:

“... chun bu risola xayolg‘a keldi, binosin bir muqaddima va uch maqola va bir xotimag‘a qo‘yuldi va bu besh daf’a so‘zgakim, o‘qug‘uchilarg‘a mujibi ko‘p hayrat erdi “Xamsat ul-mutahayyiriyn” tasmiya qilildi” – deb asardagi besh bo‘lim nomi va ularda bayon qilinadigan mavzular tartibini aniq va ravshan zikr qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навои. *Пятеритса изумлений*. Перевод на русский язык: А.Каюмова, Д.Азимова (Даврона). – Ташкент: Изд-во Натсионалгъной библиотеки Узбекистана им. Алишера Навои, 2015.

2. Mansur A. *Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri*. – T.: Toshkent islom universiteti, 2001.

3. Olimov F. *Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin” asari badiiyati”*. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2018.

4. Shayx Muhammad ibn Muhammad as-Sabzavoriy. *Jomih ul-axbor*. – Najaf: “Matbaa al-Xaydariyya”. Tarixsiz. 37-39.

YO‘LOVCHI OBRAZI TAQDIRIDA BADIIY TUSHNING O‘RNI
(“Layli va Majnun” dostoni misolida)

Odiljon AVAZNAZAROV
Qarshi davlat universiteti

Tush murakkab hodisa bo‘lib, u psixologiya, tasavvufshunoslik kabi ilmlarda atroflicha tahlilga tortilgan. Folklor hamda yozma adabiyotda ham tushning badiiy talqinlarini ko‘plab uchratish mumkin. Shu jihatdan badiiy tushlar adabiyotshunoslikning ham tadqiq obyektiga aylanadi.

Navoiy dostonlaridagi asosiy obrazlardan biri yo‘lovchi bo‘lib, uning harakatlanishida badiiy tushlar muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif tushlarni shakllantirishda, albatta, tasavvufiy-irfoniy manbalarga ham tayangan. Tasavvuf manbalarida keltirilishicha, tush uch xil: ilohiy, malakiy, shaytoniy. Birinchisi ochiq bo‘lganidan uni ta’bir qilishga ehtiyoj yo‘q. Ikkinchisi ro‘yoyi sodiqa bo‘lib, ta’birga muhtoj. Uchinchisi aloq-chaloq tushlardir [S.Uludag‘, 1995:443-444]. Shundan kelib chiqib, “Layli va Majnun” dostonining ikki o‘rnida keltirilgan tushlarni ta’bir qilishga muhtoj bo‘lgan va bo‘lmagan tushlarga ajratish mumkin.

XXIII bobdagi tush ochiq axborot tarzida kelsa-da, ramziylikdan ham xoli emas. Bu ramziylik esa asarning yaxlit mazmuni, g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi asosida yuzaga chiqadi. Bob voqealariga ko‘ra, Laylining otasi o‘z qo‘shinlarini Navfal qo‘shinlari qarshisida ojiz qolganligini ko‘rgach, dushmanlik tig‘ini o‘z qiziga urmoqchi bo‘ladi, ya’ni qo‘shinlari jangda yutqazib butunlay chorasiz qolsa, Laylini halok qilib o‘z nomusini saqlab qolmoqni niyat qiladi. Bu vaziyatda voqealar rivojining o‘zgarishiga, ya’ni yuz berishi mumkin bo‘lgan halokatga tush tasviri orqali yechim topiladi. Majnunning tushida Layli paydo bo‘lib, unga ertangi bo‘ladigan mudhish hodisaning xabarini beradi:

Ishqingda otam yaroq qilmish,
El ham bori ittifoq qilmish
Kim, qatlima tongla aylab ohang,

Qonim bila yerni aylagay rang.
...Tushti mening ollima ajab yo‘l,
Sen yaxshi qol emdiyu tirik bo‘l [Navoiy, 2012:148].

Bu so‘zlarni eshitgach, Majnun seskanib uyg‘onadi va Navfal qoshiga borib qo‘shinni ortga qaytarishni iltimos qiladi:

Tengri uchun emdi chekmagil tig‘,
Qo‘y, kinayu razm qilmog‘il big‘! [Navoiy, 2012:149]

Navfal: “bu qaziya chindur, Majnun tushi begumon yaqindur”, deya o‘ylaydi va qo‘shinni ortga qaytaradi. Shunday qilib tush yordamida Majnunning Layli timsolidagi ishqi Navfal timsolidagi nafsidan ustun keladi hamda muqarrar halokatning oldi olinadi.

G‘azzoliy tushning mohiyatini mukoshifaning nozik sirlaridan hisoblaydi. Unga ko‘ra, “...qalb arboblari malakut sirlarini gohida ilhom yo‘li bilan, gohida sodiq tush ko‘rish bilan, gohida esa, tushda bo‘lgani kabi masalalarni mushohada qilish bilan kashf qilishadi” [G‘azzoliy, 2007:133]. Shu jihatdan, dostondagi tasavvufiy obraz – Majnunning mavjud muammoga yechim va chorani sodiq tush orqali topgani ma’lum bo‘ladi.

Nazariyotchi Baxtin ta’kidlaganidek, “ba’zan tushlar zamonga hukm o‘tkazadi” [Baxtin, 2015:131]. “Layli va Majnun”dagi ushbu tush tasvirida ayrizamonda, ya’ni kelgusida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan badiiy voqelik aynizamonda sodir bo‘ladi. Buni dostondagi ikkinchi tush tasvirida ham kuzatish mumkin. Unda o‘tgan zamondagi voqelik qahramonning aynizamondagi tasviri fonida ko‘rsatiladi.

Dostondagi ikkinchi, ya’ni timsol va ramzlarga yo‘g‘rilgan xabar shaklidagi tush XXXIII bobda kelib, u asar voqeligiga chambarchas bog‘lanadi. Unda Najd tog‘ida yurgan Majnunning ko‘zi uyquga ketib tush ko‘radi:

Kim, ikki kabutari yagona,
Bir uyda chiqordilar javona.
Chun chiqti javonag‘a par-u bol.
Charx ayladi oni muztaribhol.
Oshufta bo‘lub dimog‘-u royi,
Bo‘lmish edi muddate havoyi.
Ato-anodin tamom uzuldi,
Sahroyi xiyal aro qo‘shuldi.

Ul ikkisi keltururga oni,
Parvoz ila tuttilar havoni.
Toptilar-u rom bo‘lmadi hech,
Jo‘yoyi maqom bo‘lmadi hech.
Yondilar alar ikovla navmid
Kim, bo‘ldi ayon baloyi jovid:
Yuqoridin indi ikki burgut,
Qildilar iki hamomani qut [Navoiy, 2012:227-228].

Uyg‘ongach, Majnun qonli ko‘z yosh to‘kadi. Chunki u ko‘rgan tushini o‘z kechmishiga bog‘liq ta’bir qiladi, ota-onasining vafot etganliklarini anglaydi. Nola chekib ularning qabriga boradi.

Mazkur tushning qushlar timsolida ramzlashtirilgani bejiz emas, albatta. Chunki, tanadagi jonni qushga o‘xshatadilar. Tilimizdagi “jon qushi” birikmasi shundan. Tushga diqqat bilan e’tibor berilsa, ikki kabutar – Majnunning ota-onasi, uchib ketib uyiga qaytmagani – Majnun, ikki juft kabutarni halok qilgan burgut – yovuzlik va o‘lim timsoli ekani ravshanlashadi.

Bundan tashqari, yuqoridagi har ikki tush badiiy makonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ya’ni dastlabki tush natijasida Majnun hamrohligidagi Navfal qo‘shini o‘zi yuzlangan Layli qabilasi tomon bormay, ortga chekingan bo‘lsa, ikkinchi tush ta’sirida Majnun tog‘dan ota-ona qabri tomon yuzlanadi. Oqibatda badiiy voqelik yuz berishi kutilgan makon biridan boshqasiga ko‘chadi.

Tushlarning badiiy talqinini juda qadimgi, aniqrog‘i, antik davr yunon adabiyotidayoq kuzatish mumkin. Baxtin antik yunon romanlaridagi tushning odamlar taqdir zarbalariga bardoshli bo‘lishlari, chora izlashlari, “iztiroblarini yengilroq o‘tkazishlari” uchun emas, ularga mabudlar hukmidan xabar berishga xizmat qilganini, antik romanning “avantyur-maishiy roman” deb nomlangan ikkinchi tipida esa qahramonlarga hayotlarini o‘zgartirish uchun nima qilish, qanday qarorga kelish xususida yo‘l ko‘rsatish, ularni aniq harakatga, faollikka undashini ta’kidlaydi [Baxtin, 2015:83-84]. Shu jihatdan “Layli va Majnun”dagi ushbu ikki tushning dastlabkisini “qahramonlarga hayotlarini o‘zgartirish uchun nima qilish, qanday qarorga kelish xususida yo‘l ko‘rsatish, ularni aniq harakatga, faollikka undash” vazifasini bajaruvchi, ikkinchi, ya’ni

ota-ona vafotidan darak beruvchisini esa Ollohning hukmidan xabar beruvchi tushlar sifatida talqin qilish mumkin.

Dostonining ikki o‘rnida keltirilgan tushlar ham o‘lim haqida xabar beradi. Bu bejiz emas. Tasavvuf manbalariga ko‘ra, tush o‘limning qardoshidir. O‘lim bilan ma’lum bo‘lgan masalalarning ba’zilari tush bilan ham ayon bo‘ladi. Tasavvufiy hikoyalarning ko‘pi tushga tayanadi. Shayxlar tush orqali o‘lgan insonlarning oxiratdagi maqomlari haqida ham belgi beradilar [S.Uludag‘, 1995:443-444]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, dastlabki bobda tush oraqali o‘limning oldi olinsa, navbatdagi holatda uning vositasida ota-onaning maqomidan belgi beriladi.

Masalaning yana bir jihati bor. Inson uchun eng og‘ir, eng qayg‘uli xabar o‘lim haqidagi xabardir. Bu xabarni birovga yetkazish esa undanda mashaqqatli ish. Shu jihatdan qaraganda ham, dostonning har ikki o‘rnida tush motividan foydalanish eng maqbul poetik usul ekani oydinlashadi.

Xulosa shuki, “Layli va Majnun” dostonidagi badiiy tushlar yo‘lovchi – Majnun taqdirida muhim o‘rin tutgan holda asardagi badiiy zamon va makon konseptsiyalari bilan uzviy aloqador bo‘lib, bu usul asar badiiyatini yuksaltirish, muallif g‘oyalarini o‘ziga xos ifodalash, asar syujetidagi voqealar tizmasini harakatlantirish hamda kompozitsion butunlikni ta’minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Homid al-G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din: Ilm kitobi. – Toshkent: Movarounnahr, 2007. – 148 b.

2. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari (Tarjimon, so‘zboshi, izoh va sharhlar muallifi: U.Jo‘raqulov). – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 288 b.

3. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. VII jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 696 b.

4. Uludağ S. Tasavvuf terımleri sözlüğü. – Istanbul: Marifet, 1995. – 604 s.

G‘AZALDA PEYZAJNING POETIK VAZIFASI

Muxsina ALMARDONOVA
ToshDO‘TAU
(O‘zbekiston)

Alisher Navoiy lirikasida turli mavzular singari peyzaj mavzusi ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Umuman olganda tabiat tasviri, uning inson hayoti bilan chambarchas bog‘liqligi Navoiy ijodida muntazam aks etgan. Tabiat va inson masalasi shoir ijodida san’at asari darajasiga ko‘tarildi. Uning deyarli har bir asarida tabiat bilan bog‘liq elementlarni uchratamiz. Har bir asardagi tabiat tasviri o‘zgacha ma’no anglatishga xizmat qilgan. Epik asarlarda ayri ma’no kasb etsa, lirikada umuman boshqa ifodalarni ko‘ramiz.

Xuddi epik asarlar singari Navoiyning lirik asarlarida ham peyzaj lirikasi bilan bog‘liq elementlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Tabiat lirikasi detallari xuddi boshqa detallar singari ma’lum mazmun-mohiyat kasb etishga xizmat qiladi. Ya’ni har qanday asarda ishtirok etuvchi elementlar faqat asarning shaklan emas, balki mazmunan ham boyitishga, unda ifodalanayotgan fikrni o‘quvchiga singdirishga xizmat qiladi.

Tabiat tasviri bilan bog‘liq detallarning epik, lirik asarlarda ishtirok etishi Navoiygacha ham yangilik emas edi. Bungacha xalq og‘zaki ijodi hamda boshqa turkigo‘y, arab, fors-tojik shoirlar ijodida ham mavjud edi. Lirik janrlar sifatida eng mashhurlaridan hisoblangan g‘azal va qasida janrlarining ilk ko‘rinishlarida ham tabiat tasviri yetakchilik qilgan. Turkiy adabiyotda ilk g‘azal yozgan ijodkor bo‘lmish Nosiruddin Rabg‘uziy g‘azalining mavzu ham tabiat tasviri haqida bo‘lgan:

Kun hamalga kirdi ersa keldi olam navro‘zi,
Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori,buzi.

Rabg‘uziyning bu g‘azali to‘laqonli tabiat lirikasi, bahor tasviriga bag‘ishlangan. Shu misolning o‘ziyoq dastlabki g‘azal namunalari, asosan, tabiat tasviri mavzusida bo‘lganligini anglatadi. Aslida shunday bo‘lishi ham tabiiy holat. Tabiatning go‘zalligidan ilhomlangan shoir uni qalamga olgisi keladi, natijada tabiat vasf

etilgan g‘azallar yoziladi.

Navoiy she’riyatida qo‘llanilgan bahor, gul, gulzor, bulbul,shamol,suv, sahro,tabiat hodisalari, osmon jismlari, ranglar kabi detallar peyzaj lirikasi elementlarini tashkil qiladi. Navoiy she’riyatida aynan tabiat mavzusiga bag‘ishlangan g‘azallar unchalik ko‘p emas, lekin peyzaj elementlari shoirning aksariyat g‘azallarida uchraydi. Bu kabi detallarni shoir o‘z g‘azalida juda ko‘p qo‘llaydi. Ular g‘azalda ma’lum poetik vazifani o‘tashga xizmat qiladi. Misol tariqasida birgina shamol obrazini olaylik. Navoiy o‘z g‘azallarida shamol obraziga juda ko‘p murojaat qiladi. Ijodkorning hatto epik asarlarida ham shamol obrazi ma’lum poetik vazifani bajaradi (bunda birgina ”Farhod va Shirin” dostonida Farhod vafoti oldidan sabo orqali yaqinlariga so‘nggi maktubinini yo‘llaganini eslash kifoya).

Bu o‘rinda Navoiyning so‘z qo‘llash mahorati haqida gapirmay ilojimiz yo‘q. Shoir o‘z g‘azallarida bitta tavsir vositasining o‘zidangina emas uning sinonimlaridan ham mahorat bilan foydalanadi. Biz g‘azallarda birgina shamol so‘zining yel, sabo, nasim,samum, dovul kabi variantlarini qo‘llaganini ko‘rishimiz mumkin. Shamol timsoli g‘azallarda, asosan, 2 xil poetik vazifani bajaradi:

1. Lirik qahramon shamol orqali o‘z ma’shuqasini ahvolidan xabardor qilmoqchi bo‘ladi. Ko‘pincha bu murojaatlar nido san’ati vositasida yuzaga chiqarilgan bo‘lib, lirik qahramon(ya’ni shoirning o‘zi) shamoldan ma’shuqasi haqida so‘raydi, undan xabar kutadi:

Ey sabo, sharh ayla avval dilsitonimdin xabar,

So‘ngra degil ko‘ngul otlig notavonimdin xabar,

Ishq-muhabat mavzusida bitilgan bu g‘azalda lirik qahramon saboga murojaat qilib undan ma’shuqasi haqida xabar so‘raydi. Ey sabo, menga eng avval dilni oluvchi ma’shuqamdan xabar ber, shundan keyin ko‘ngil deb ataluvchi bir notavon haqida so‘zlagin. Oshiq o‘z yori ishqida shu qadar kuyganki, u hatto o‘z ko‘nglidan ham seviklisi haqidagi xabarni ustun qo‘ymoqda. Ko‘ngilning u yor hajrida qanchalik nochor ahvolga tushgani bilan shoir zarracha qiziqayotgani yo‘q. Uning faqat birgina o‘tinchi bor- yoridan xabar aytishsa bo‘lgani. Bu vazifa esa g‘azalda saboga yuklatilgan.

Ey sabo, *jonim halokin ayla jononimg‘a arz,*

Yo‘qki jismi notavon ahvolni et jonimg‘a arz,

Bu g‘azalda esa yuqoridagi g‘azalning aks holatini ko‘rish mumkin. Yor ma’shuqa hajrida shu darajaga borib yetganki, endi u hattoki o‘z holi haqida yoriga arz qilishga ham qodir emas, sababi uning joni halokat yoqasida. Shu sabab jononga oshiqning ayanchli holati haqida arz qilish saboga topshirilmoqda.Birinchi guruhga mansub g‘azallarning aksariyatida shamol obrazi matla’da kelgan holatini ko‘rishimiz mumkin.

2. Shamol obrazi g‘azalda lirik qahramonlarni tasvirlash uchun xizmat qiladi:

Sunbulin Layli ochibtur, **yel** *abiroso emas,*

Dog‘ini Majnun qonatmish, lolayi humro emas.

Alisher Navoiyning bu g‘azalda qo‘llagan so‘zlari ma’nosini izlaydigan bo‘lsak, yel- bu yoqimli tong shamoli. Erta tongda esgan mayin tong yeli inson dimog‘iga yoqimli hidlarni keltiradi. Abir esa xushbo‘y modda, anbar. Layli o‘z sunbulin (sochlari) yoyganda shunchalar xushbo‘y hidlar taraladiki, tong yeli ham uningdek yoqimli hid taratolmaydi. Loladagi qizillik belgisi esa Layli ishqida devona holiga kelgan Majnun sababdir. Uning bag‘ridan oqqan qon lolani qizartirgan. Hayotda uchraydigan oddiy holatlarga bu qadar chiroyli tamsil qo‘llash holatlarini Navoiyda juda ko‘p uchratishimiz mumkin. Shamol so‘zining sinonimi sifatida qo‘llangan yana bir misol ko‘rsak:

Umid nahlini ashkim bila ne toza qilaykim,

Samumi hajr oni qul aylamish demayki, qurutmish,

”Qading niholiki bog‘i hayot tarfini tutmish...” dey boshlanuvchi bu g‘azalning maqta’dan oldingi baytida muallif samum so‘zini qo‘llaydi. Bilamizki, samum, asosan, cho‘llarda esadigan quruq, issiq shamol. Samum kuchli qumli bo‘ron, ba’zida momaqaldiroq bilan birga kuzatilishi ham mumkin. Muallif tabiatda uchraydigan bu holatni tasvir vositasiga misol sifatida g‘azalda ustalik bilan qo‘llaydi. Oshiq umidi daraxtini ko‘z yoshlari bilan qanchalik parvarish qilmasin, yor hajrining bu qadar issiq, bo‘ronli shamoli bu daraxtni unishiga qo‘ymay quritmoqda. Demak, yor hajri oshiq qalbidagi umid ildizlarini-da quritib tugatmoqda.

Alisher Navoiy ijodini o‘rganish davomida bu kabi chiroyli tamsillari juda ko‘plab uchratishimiz mumkin.

ALISHER NAVOIY “XAMSA”SIDA POETIK SHAKL VA MAZMUN UYG‘UNLIGI

Sadoqat BAHRONOVA
Navoiy davlat pedagogika instituti

Turkiy adabiyotning yirik vakili, turkiy xalqlarning eng buyuk shoiri Alisher Navoiy “Xito (y) dan to Xuroson” gacha bo‘lgan turkiy qavmlarni bir adabiy til bayrog‘i ostida birlashtirgan mutafakkirdir. Alisher Navoiy turkiy adabiyotda o‘zining dilbar lirik she’rlari bilangina emas, balki takrorlanmas nasriy asarlari bilan ham o‘lmas iz qoldirgan adibdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Alisher Navoiy bobomizning “Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat, falsafa bor. Ya’ni, bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o‘ylab yashash –odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, deb ta’kidlamoqda bobomiz. Bu o‘lmas satrlar bugungi hayotimiz, orzu-intilish va amaliy harakatlarimiz bilan naqadar hamohang ekani odamni hayratga soladi”[2] .Navoiyning nasriy asarlari tarixiy, tarixiy-memuar, ilmiy, diniy, tasavvufiy hamda axloqiy-ta’limiy mavzularga bag‘ishlangan. Shoirlik qudratining mezoniga aylanib qolgan “Xamsa” asarini yaratish Navoiyning buyuk orzusi edi. Hatto shoir Samarqandga yo‘l olar chog‘ida ustozi va yaqin hamkori Sayyid Hasan Ardasherga bag‘ishlangan “Masnaviy” sida “Xamsa” yaratish uchun 2-3-yil kifoya ekanligini, ammo bunga imkoni yo‘qligini yozgan edi. 1483-yilda shoir ushbu buyuk ishga qo‘l uradi va 1,5-yil davomida 50 ming misradan ortiq besh dostondan iborat asarni nihoyasiga yetkazadi. “Xamsa” – beshlik- 5 ta mustaqil dostondan iborat bo‘lgan yaxlit asar sanalib, har bir doston ma’lum bir mavzu voqealarni atroflicha va keng usulda masnaviy yo‘lida yoritib beradi.

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishoni anga iymon erur.

Navoiy tafakkurining mahsuli bo‘lmish “Xamsa” ning ilk dostoni-“Hayrat ul-abror” dan olingan bu betakror misralarni o‘qib,

inson va iymon haqida mushohada yuritamiz. Olloh taolo o‘zining buyuk qudrati-la insonni yaratibdi. Odamzod har tomonlama barkamol bo‘lishi uchun uning diliga iymon degan tuyg‘uni ato etibdi. Shuning uchun inson yaratgan jismiga ato etgan ne’matga har lahza-yu har nafas shukrona aytib, uni pok saqlashi lozim. Shoirning o‘zi ta’kidlaganidek, ahli odamzodni hayvondan ajratib turuvchi belgi uni so‘zlay olish qobiliyati emas, balki yuragining tub-tubidan joy olgan iymonida hisoblanadi. Qolaversa, “Hayrat ul-abror” ning adolat mavzusida so‘z yuritilgan uchinchi maqtovi va karam-u saxovat singari yuksak fazilatlar aks etgan beshinchi maqoloti insoniylik tarannumiga bag‘ishlanadi. “Xamsa”dan o‘rin olgan yana bir doston –“Sab’ayi sayyor”ga yuzalanadigan bo‘lsak, unda haqiqatni so‘zlash, bu naqadar ulug‘lanishi, yolg‘onchilik va kishining boshini egik qiishi qalamga olingan. Shoir yolg‘onchi do‘stlarini tark aylab, ulardan ko‘ra o‘limni ustun bo‘lganini aytib o‘tgan. Bu fikrlarning isbotini quyidagi parchani o‘qib, bilib olamiz:

Buki, yolg‘on demakni tark ettim,
Yo‘q ersa irtikobi marg ettim.

Insonparvarlik talqini Navoiy uchun “Shavq dostoni” sanalmish “Farhod va Shirin”da ham tilga olingan. Unda Farhod komil inson timsoli sifatida tasvirlangan. Bu dostonni o‘qigan kishi nafsning yo‘rig‘iga kirmaslik, uni o‘ziga “do‘st” qilmaslik kerakligini anglab yetadi. Farhodni nomidan yangragan “Hunarni asrabon netkumdir oxir?! Olib tuproqami ketgumdir oxir?!” - degan satrlar kishini barkamollikka da’vat etadi. Qolaversa, bu fikrlarni “Layli va Majnun” dostonida keltirilgan quyidagi otashin bayt kasb-hunarning foydasi to‘g‘risida so‘zlaydi”

Donish anga kasb-u jud pesha,
Donish bila jud etib hamesha.

Komil inson faqatgina ruhan pok, qalban ulg‘aygan bo‘lishdan tashqari jismonan yetuk bo‘lmog‘I lozim. Sababi komillik har qanday illatlar zanjirini parchalashga qodir. Navoiy dahosining mahsuli sanalmish “Xamsa” ning so‘nggi durdonasi – “Saddi Iskandariy” dan joy olgan quyidagi parcha mening e’tiborimni tortdi:

Dedi: “Shahki adl olsa oyin anga,
Musaxxardurur dunyo-yu din anga.

Darhaqiqat, adolat-insoniy fazilatlarning gultoji. Adl hukmron bo‘lsagina jamiyat yuksaladi. Ayni mana shunday adolat mezonlariga yo‘g‘rilgan beshlikning yaratilganiga salkam besh asrdan oshsa hamki, hanuzgacha o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Navoiyga kelsak, bu iqtiqdor egasining nomi haligacha turkiy adabiyot olamida barilla kuylab kelinmoqda. Insoniylik ildizidan suv ichgan Navoiy ijodi hamon to‘la kashf qilinmagan jihatlarga boy. Bunday ulug‘ zotning nomi asrlar oshsa hamki, zamon ahli hurmat-la tilga oladi, ijodidan ma’naviy oziq olmoqqa intiladi. Ular yozib qoldirgan durdonalarning har sahifasida olam qadar mazmun, mohiyat mujassamki, ular yetuk inson tarbiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qilajak. Navoiy ijodi asrlar savdosidan yangraydigan, o‘tmish va kelajakni bog‘lovchi ko‘prik. Shu sababdan, har on ularning ijodidan bahramand bo‘lib turish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” Asarlar. 6-tom-T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nahriyoti”: 1965.-B155

2. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. K.1.-T.: O‘qituvchi, 1976.

NAVOIY IJODIDA SO‘Z FASOHATI MASALASI

G‘ulom BOBOJONOV
ToshDO‘TAU

“Balog‘at ilmi”ga oid qoidalar “fasohat” tushunchasi bilan boshlanadi. Buning boisi, fasohatning “balog‘at ilmi”ni bilish, uning ta’rifi yuzaga kelishi, qoidalari uchun asos-poydevor bo‘lishidir [Bomiyoniy, 2008: 89].

“Fasohat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi xususida bahs yuritgan olimlar uni “zuhur” va “bayon” ekanini ta’kidlashgan. U so‘z, gap va mutakallim uchun taalluqli hodisa bo‘lib, “yetarli darajada ifoda etish”, “namoyon bo‘lish” kabi ma’nolarga dalolat qiladi.

Balog‘at ilmi qoidalarini turkiy til aspektida tadqiq qilgan Ahmad Javdat Posho (Ahmed Cevdat Paşa) fasohatga “so‘zning talaffuzi va eshitilishi qulay, ma’nosi ravshan, ya’ni talaffuz qilinishi bilan idrok etiladigan, zehnga o‘rnashadigan bo‘lishidir” [Cevdat Paşa, 2017: 23], deb ta’rif bergan. Bunda so‘zning asosan akustik-artikulyasion, leksik-semantik nuqsonlardan xoli bo‘lishi nazarda tutilgan.

“Balog‘at ilmi” olimlari fikricha, so‘zning fasih bo‘lishi u uch jihatdan xoliligi bilan xarakterlanadi. Ulardan birinchisi–so‘zning fonologik-struktur qurilishi bilan bog‘liq. Bunda so‘z tarkibidagi birliklar orasida o‘zaro nomuvofiqliklarning yuzaga kelmasligiga alohida e’tibor qaratiladi. So‘z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga nomuvofiqligini ifoda etuvchi bu hodisa “tanofurul huruf” deb yuritiladi. Jaloliddin Qazviniyga ko‘ra, “Tanofur bir so‘z tarkibidagi harflar nomuvofiqligi sababli tilga og‘irlik hamda talaffuzda qiyinlik (murakkablik)ning yuzaga kelishidir” [Qazviniy, 2003: 17]. Bir so‘z tarkibidagi tovushlarda o‘zaro muvofiqlikning buzilishi so‘zning talaffuzida g‘alizlikni yuzaga keltiradi. So‘z tarkibidagi tovush bilan bog‘liq bu kabi akustik va fiziologik-artikulyasion nuqsonlar so‘zning fasih bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi.

Mazkur ilmga oid qoidalar boshqa tillarga ham tadbiq etilishi mumkinligini balog‘at olimlari e’tirof etishgan. O‘zlashgan va internatsional so‘zlarni ham ayni aspektda o‘rganish olimlarning shunday xulosaga kelishga undagan bo‘lishi mumkin. Qolaversa,

balog‘at qoidalari faqat bir til (arab tili) uchungina xos bo‘lgan dogmatik qolip emas, u harf va tovushlarga ega bo‘lgan barcha til, sheva va lahjalardagi matn xususiyatlarini o‘zida ifoda eta oluvchi universal tizim tarzida qaralsa, to‘g‘ri bo‘ladi. So‘zdagi tovushlarning o‘zaro uyg‘un-muvofiqligi so‘z fasohati uchun asos vazifasini bajargan. Shu sababli bu hodisani istalgan tildagi so‘zning fasihligini aniqlash uchun qo‘llash o‘rinlidir.

Mazkur hodisa boshqa tillardagi so‘zlarda ham o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi. Xususan, uning turkiy til doirasidagi tadqiqini o‘rgangan Ahmad Javdat Posho (Ahmed Cevdat Paşa) shunday xulosaga kelgan: “Tanofuri huruf so‘zning tilga og‘ir hamda talaffuzga qiyinligini ifodalovchi bir hodisa bo‘lib, his va zavq bilan aniqlanadi. “Murtafi” ma’nosidagi “mustashzir” va “istatistik” so‘zlari kabi” [Cevdat Paşa, 2017: 24]. Ahmad Javdat Posho turk tilidagi “işsiz”, “guçsuz” so‘zlarida ham shunday nomuvofiqlik kuzatilishini keltirib o‘tgan [Cevdat Paşa, 2017: 24]. Bu ushbu hodisani turkiy tildagi so‘zlar vositasida ham kuzatish mumkinligiga yana bir dalildir.

Alisher Navoiy istifoda etgan so‘zlarga e’tibor berilsa, ularda turkiy til fasohatining barcha jihatlari namoyon ekanining guvohi bo‘lish mumkin. Xususan, so‘z fasohatidagi asosiy illat sanalgan talaffuzda bir-biriga yaqin maxrajlardan chiquvchi har xil undoshlarning bir so‘z tarkibida uchramasligi hodisasi Navoiy ijodida alohida e’tiborda bo‘lgani kuzatiladi.

Til oldi portlovchi “t” tovushi hamda uning jarangli jufti “d” bir so‘z tarkibida ketma-ket kelishi talaffuzni qiyinlashtirgani, ravon nutq jarayonida ularni aynan talaffuz qilish imkonsizligi natijasida ko‘pgina turkiy matnlarda so‘z tarkibidagi “td” mos ravishda “tt” tarzida ifoda etilgan. Bu esa jonli til qoidalarini saqlash bilan birga, so‘z fasohatini ta’minlash uchun ham zarur bo‘lgan.

Misollarga e’tibor qaratamiz.

“...Ul gavhari yakto ashi’asi lam’a ko‘rguzdi va durjdin durjg‘a intiqol ***etti*** to Safiyullohdin Abdullohg‘a ***yetti***”. “***O‘tti*** chu alqissa bir oy, ikki oy / Bir kun o‘lub, baxtu xirad rahnamoy”. “Emdiki may zoyil etib hushni, / Shah yonig‘a ***tortti*** chovushni”. “Yo bo‘lubon borchasi azm ***ettilar***, / Bazmg‘a men yetmas ekach ***kettilar***” [Navoiy, 1970].

Ushbu misollarda keltirilgan “etti”, “yetti”, “o‘tti”, “tortti”, “ketti” so‘zlari bugungi nutqimizda “etdi”, “yetdi”, “o‘tdi”, “tortdi”, “ketdi” tarzida ishlatilishida bir so‘zda ketma-ket kelgan har xil undoshlarning yaqin maxrajdan chiqayotgani sababli talaffuzga og‘irligini kuzatish mumkin. Bu holat zamonaviy tilshunoslikda nazariy ravishda “progressiv assimilyasiya” hodisasi tarzida o‘rganiladi.

Turkiy tildagi aksar matnlarda bir so‘z tarkibidagi qisqa “u” unlisidan keyin “v” undoshi kelishi hodisasi kuzatilmaydi. Bu mazkur harflar maxrajlarining bir-biridan uzoqligi sababli talaffuzda noqulaylik keltirishi bilan bog‘liq. Alisher Navoiy asarlarida ayni xususiyatga to‘la rioya qilinganining guvohi bo‘lish mumkin. Quvvat, muruvvat, nubuvvat, futuvvat, huviyyat, muvofiq, aduv, lojuvard, huvaydo, suvar, ubuvvat, duvoj, kabi arab, xushguvor, guvoh, juvonmard, chobuksuvor kabi fors tiliga mansub so‘zlarda bu ikki harfning bir so‘z tarkibida ketma-ket kelishi kuzatilsada, asli turkiy tilga mansub bo‘lgan suv, yuv, o‘quv kabi so‘zlar fasohat qoidasiga muvofiq su, yu, o‘qu tarzida ishlatilgan. “Rost xazon barglari ***su*** aro, / Yoki aduv chehrasi ko‘zgu aro”, “Nukta ***su*** yanglig‘ eritur toshni, / Topsa haqiqat o‘tidin choshni”, “To agar o‘t solsa jaloliyati, /Lutf ila urg‘ay ***su*** jamoliyati”.

Ushbu hodisani, asosan, “u” va “v” tovushlari bir so‘z tarkibida yopiq bo‘g‘in hosil qilib kelganda uchratish mumkin. Agar ular alohida bo‘g‘inlarda kelsa, bunday nomuvofiqlik kuzatilmaydi. Quyidagi baytda yuqorida ta’kidlangan har ikki holatni ko‘ramiz: “Ev ***suvamog‘ning*** kuchi ham qolmadi,/ Balki bu ish ***qilg‘uchi*** ham qolmadi”.

Ba’zi o‘rinlarda “u” va “v” bilan tugagan so‘zga egalik qo‘shimchasi qo‘shish uchun bir “y” orttirilgan holda “tanofurul huruf”ga yo‘l qo‘ymasdan so‘z fasohati saqlab qolingan: “Bal arig‘yedurki oqar jon ***suyi***,/ Yo‘q, demakim jon ***suyi***, hayvon ***suyi***”.

“U” tovushi qisqa unli tarzida kelgan ayrim o‘rinlarda hatto yopiq bo‘g‘inda ham “v” undoshi tushirib qoldirilgan holatlar ham uchraydi: “Makkani chun qildi judo dayrdin, / Tig‘ suyi birla ***yudi*** g‘ayrdin”, “Shar’i tili noma bayozin o‘qub, / Tig‘i suyi kufr savodini ***yub***”, “Tanni ***yumog‘liqqa*** mahorat berib, / Jong‘a dog‘i bo‘yli tahorat berib”...

Navoiy asarlarida uchraydigan bunday misollar turkiy tilda so‘z fasohatini ta’minlash uchun alohida e’tibor qaratilgani hamda ijodiy

izlanishlar qilinganidan dalolat beradi.

Arab balog‘atchilari “muxolifatul huruf” sifatida o‘rgangan hamda faqat arab tiliga oid so‘zlar vositasida tadqiq etgan ushbu hodisa boshqa tillar, xususan, turkiy til uchun ham xarakterli ekani ma’lum bo‘ladi.

Alisher Navoiy asarlari tili so‘zga boyligi, so‘z yasalishi, ishlatilishi, qoliplarining tuzilishi, o‘zlashgan so‘zlarning muvofiqlashtirilishi, xalqning iste’moldagi jonli tilidan unumli istifoda etilishi, hozirda “sheva unsuri” deb qaraladigan, aslida qipchoq, o‘g‘uz, qorluq kabi turkiy tilning turli lahjalariga mansub so‘zlardan faol foydalanishi bilan ajralib turadi. Navoiy asarlarida qo‘llaniladigan bir qancha so‘zlarni muallifning turkiy til imkoniyatlaridan kelib chiqib, yangi so‘z yaratishdagi ilmiy-ijodiy izlanishlari mahsuli sifatida qabul qilish o‘rinli. Tabiiyki, bu kabi so‘zlarga bugungi kun nuqtai nazaridan baho berish ba’zi o‘rinlarda ob’ektiv munosabat bo‘lmasligi mumkin. Lekin Navoiy asarlari tili hamda undagi so‘zlarning o‘z davri tilshunosligi tizimidagi o‘rni borasida biron nomuvofiqlik kuzatilmagani uning asarlariga o‘z davridan tortib hozirgacha berilayotgan xolis baho va nuqtai nazarlarda aniq ifoda etilgan. Navoiy asarlari matnida yoki ular haqida bildirilgan fikr-mulohazalarda tilshunoslik nuqtai nazaridan nomuvofiqlikka yo‘l qo‘yilgani haqida ma’lumot uchramaydi. Bu hazrat Navoiyning nafaqat turkiy til qonuniyatlari, balki o‘z davrida iste’molda bo‘lgan barcha til va lahjalardan fasohat va balog‘at tamoyillari asosida yuksak mahorat bilan foydalanganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

لايشيرنواي. خمسه. حيرت الابرار . علمى تنقيدى متن. تاشكينت. فن. ١٩٧٠. 1.

الشيخ محمدي البابمايانين. دروس في البلاغة (شرح مختصرالمعاني للتفتازانين). الجزء الاول. بيروت. مؤسسة البلاغ. ٢٠٠٨م. 2.

محمد. حاضر العلمية الكتب داد. بيروت. البلاغة علوم في الايضاح. ٢٠٠٣. 3. بن عبد الرحمن جلال الدين الخطيب

فروشي. تلخيص مفتاح. گزرجان. كتاب سعد الدين رن التفتازانين. شرح المختصر على 4.

5. Ahmed Cevdat Paşa. Belâgatı Osmâniye. Ankara, Akçag, 2017.

“…NAVOIY KIRMAGAN UYLAR QORONG‘U…”
(Jigarrang kitob yoxud Halima Ahmedova ijodida hazrat Navoiyning o‘rni xususida)

Madina VAHOBOVA
ToshDO‘TAU magistranti

Yangi o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos ovozga ega bo‘lgan shoira Halima Ahmedovadir. U o‘tganlardan, bugundan minnatdor, kelajakka umid bilan yozadi. Halima Ahmedova ijodi ajib sirli olamga o‘xshaydi. Bu olamda sohir qushlari xabar keltiradi. Undagi daryodan bardosh suv ichadi. Bu olamda maysalar e’zozlanadi, sadoqat timsoli daraxtlar gapiradi, eshitadi. Shamollar taqdir bitiklarini o‘qiydi. Bu olam shunday mo‘jizakorki, uning darvozasidan haqiqiy oshiqlargina o‘ta oladilar. Yo bunda shaydo bo‘lganlar axiri oshiqqa aylanadilar. Bu olamga osmondan yomg‘ir emas, mujdalar yog‘adi, uzoq yog‘adi. Shoiraning ko‘p yozishiga, uzundan uzoq yozishiga ham balki shu sababdir ehtimol.

So‘zda Haq jamoli bor, deydilar. Halima Ahmedova ham shuni anglagan ko‘yi so‘zni qadrlaydi. Balki bu fazilat unga Navoiyshunos bobosidan ko‘chgan bo‘lsa ajab emas. Yaqinda Halima Ahmedovaning “Jigarrang kitob” va “Ko‘ngil derazalari quyoshga qaragan el” nomli ikki badialarini o‘qib, rosti ixlosimiz yana-da ortdi. Sababi u faqat shoira sifatida emas, balki ajoyib nosir sifatida ham o‘zini tanitgan edi. “Jigarrang kitob” ning fevral oyida qorlar naqshlagan deraza yonida o‘tirib yozilgani yaqqol sezilib turadi. Badiada muallif qiroatxon bobosini uzoq eslaydi va bobosi orqali hazrat Navoiyni ham sog‘inadi. Muallif xazon-u qorlar ko‘mib ketgan xotira darichasini ochar ekan, ichkaridan Navoiyxon bobosining yig‘ili ovozi eshitiladi:

“Istaganlar bizni sahroyi baloda istangiz,
Vodiyi hijron ila dashti fanoda istangiz.”

Uning bobosi adabiyotni bilgan, dildan his qilgan odam bo‘lgan. Bunga birgina misol: Kichik qizaloq bobosidan Navoiy kim va u qayerda yashaydi? degan savollariga ko‘ksini ko‘rsatib: “U juda katta shoir, mana bu yerda yashaydi, deb javob beradi. Dostonni

varaqlarkan, qizaloq qalbida Majnun oyog‘idagi zanjirlar halqasining nuri nogahon ko‘ksiga ko‘chganini sezadi. Demak, Halima Ahmedova ruhiyatidagi jununbaxshlik, she’rlaridagi harorat bobosi bilan o‘tkan kunlaridan meros. Demak, Halima Ahmedova oshiq shoir! U o‘z badiasida bobosining o‘sha jigarrang kitobi (Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostoni) ni shunday e’tirof etadi: *“Agar shoir bo‘lsam, meni shu kitob shoir qildi. Agar shoir bo‘lmasam, ishqning ko‘zidagi iztirobni, munavvar qayg‘uni ko‘rsatib meni odam qildi shu kitob…”*

Shoira “Navoiyni sog‘inaman” she’rida, avvalo, dillarni shod aylagan Navoiy nazmi haqqi - ishq ahli haq so‘zga mahtal bo‘lganda buyuk ko‘ngil egasini dunyoga keltirgan fevralga ehtiromini aytadi. So‘ng, o‘z-o‘zini anglamoqqa chog‘langanlarga:

...Hirot bog‘larida kezgan xayolning
Qalbidan taralgay o‘zbekona his…
To hanuz o‘zini izlab yurganlar-
Siz ham Navoiyni sog‘inganmisiz?

Halima Ahmedova she’riyatidan beixtiyor tasavvufning bo‘ylari taraladi. Chunki shoira Navoiyni anglagan qalam egasi. O‘zini izlab yurganlar kimlar? Ular, avvalo, solik – yo‘lovchi, o‘zini-o‘zligini anglamoq uchun, topmoq maqsadiga yo‘lga chiqqanlardir. Bu yo‘l qanday yo‘l? – Kamolot yo‘li! Demak, ular komillik sari intilganlar. She’rning lirik qahramoni esa shoiraning o‘zi! Va muallifning o‘zi ham soliklarga yo‘ldosh-yo‘lovchi!... U Navoiy haqida o‘y surar ekan, hazrat yashagan Hirot bog‘larida xayolan kezadi va qalbida o‘zbekona go‘zal bir hisni tuyadi. Bu qanday his ediki, muallifni Hirot bog‘larigada olib bora oldi? Bu his, bizning nazarimizda, Navoiyga dahldorlik hissi edi. Xo‘sh, kamolot yo‘li sari chiqqan solik nega Navoiyni sog‘inadi? Sababi, komil inson Navoiyning orzusi edi. Navoiy bu haqda o‘z “Xamsa” sida yozadi, adolatni orzulagan xalq uchun jasoratli Farhod timsolida tasvirlaydi. Buni qarangki, tahlil jarayonida to‘g‘ri yo‘ldan ketayotganga o‘xshaymiz. Sababi, keyingi band o‘z-o‘zidan “Farhod na’rasi” ila boshlangan:

Farhod na’rasidan uyg‘onganmisiz
Vijdon kengliklarin bosganida is.

Mol-dunyo janggidan g‘olib chiqqanlar-
Siz ham Navoiyni sog‘inganmisiz?

Uy ancha vaqt yig‘ishtirilmasa, shiftni va jihozlarni is bosadi. Ammo vijdon kengliklarini ham is bosadimi? Agar inson yomon illatlarga yo‘l bersa, asl vazifasini bajarmay qo‘ysa, vijdonini is bosibdi, deydilar. Misrada “is bosmoq” vijdonning kirlanishiga ishora bo‘lib, o‘rinli tashbeh sifatida qo‘llanilgan. Farhod na’rasi esa g‘aflat uyqusida qolganlarni, ishqdan bebahra kimsalarni uyg‘otadi. Mol-dunyo janggidan g‘olib chiqqanlarchi, ular oriflar – o‘z nafsi ustidan g‘olib kelganlardir. Oriflik tasavvufda eng yuksak maqom hisoblanadi. Sababi ular faqat Olloh ishqi bilan yashaydilar. She’rning keyingi misralarida Navoiyning so‘zi kirmagan uylar zulmatga, Navoiy ishqi kirmagan ko‘ngillar esa zindonga qiyoslanadi. Endi she’r ilmini o‘yin qilayotganlarga og‘rinib yuzlanadi:

Navoiy kirmagan uylar qorong‘u,
Navoiy kirmagan ko‘ngillar zindon.
O‘ziga mahliyo, ey nazmbozlar-
Ko‘ring Navoiydan mast bo‘ldi jahon.

Halima Ahmedova jahonga boqing, ular sizdan emas Navoiy nazmidan mast, deya qaysidir ma’noda istehzoli kuladi, shu bilan birga ulardan muqaddas she’riyatni o‘yin bilganlari uchun xafa ham bo‘ladi. Ularni to‘g‘ri yo‘lga chorlamoqchidek tuyiladi. Haqiqatan ham Navoiy nazmidan mast bo‘lganlar ozmi dunyoda?! Navoiydek she’riyat sultonlari qayta dunyoga keladilarmi? Bu savolimizga shoiraning o‘zi keyingi bandda javob beradi:

Sham torin parishon aylangizlar bot,
Toki yorug‘ bo‘lsin botinning azmi.
Ming yilda ham balki qaytib kelmaydi,
Navoiydek shoir va uning nazmi.

Demak, bu o‘rinda sham – Hazratning o‘zi, undan taralgan nur uning nazmiga ishoradir. Qachonki, sham yoqilsagina, uning nurlari ko‘ngil kengliklarini yorita oladi. Shoir bunday ramzlar asosida, aslida, she’rxonni Navoiyni o‘qimoqqa chorlaydi. Bu chorlovni ishqdan bebahra ko‘ngillar bot-bot eshitsinlar, eshitsinlar:

Ishq gavhari pinhon erur jon ichra,
Ushshoq hajr tuni cho‘kmagaydir tiz.

Ey, oshiqlik dardin ermak bilganlar –
Hali Navoiyni o‘qimagansiz…

Ishqni ermak qilib bo‘lmaydi. Sababi u – inson jonidanda azizroq. Sababi inson ishqqa talpinib yashaydi. Ishq esa rost, u komillikka olib boruvchi, Haq jamoliga yetaklovchi yagona yo‘ldir. Haqiqiy oshiq hijronlarga-da bardosh bera oladi.

Ey dolg‘ali asr, qo‘rqmasman sendan
Qancha turlanmagin, bo‘lma shiddatkor.
Ko‘ksimdagi ishqning alangasida
Sening shiddatingdan baland junun bor.

Halima Ahmedova she’rining har bir bandida kimgadir murojaat qiladi, uni so‘roqqa tutadi, nelargadir chorlaydi. Ko‘ngillarni uyg‘otmoqqa urinadi, dahldorlik hissini bo‘lishmoqchi bo‘ladi. U bu yo‘lda yaxshini ham, yomonni ham tinch qo‘ymaydi. Quruq nazmbozlarga haqiqat dastagidan oyna tutib ular ustidan istehzoli kuladi, balki ularga achinadi. O‘z nafsi ustidan g‘olib chiqqan juvonmardlar ham, albatta, Navoiyni sog‘insalar kerak, degan xayolga boradi. O‘zini, o‘zligini izlab yurganlarga-da najot Navoiyda ekanini anglatadi. Navoiyni bilmaganni asl oshiq emas deb hisoblaydi. Va oxiri, shoira o‘z qalbida ham Navoiy dahosidan tushgan junun borligini, bu ishq – bugungi shiddatkor va dolg‘ali asrdan ham anchayin baland ekanini oshkor etadi:

Navoiy baxsh etdi menga bu ishqni,
Toki tomirimda oqib turar qon.
Bu ishq O‘zbekiston bo‘lib boqadi
Yarmida zamin-u yarmida osmon.

Shoiraga Navoiy haqida, O‘zbekiston haqida yozib nima zarur. O‘zining orzu-armonlari haqida yozsa bo‘lmaydimi, dardi ozgina arirdi, ko‘ngli yengil tortardi. Yo‘q, Halima Ahmedova unday qilolmaydi. Sababi u o‘zini tamomila ona vataniga, xalqiga, muqaddas meros bo‘lgan adabiyotga, ijodga berganiga ancha yillar bo‘lgan. Uning nazarida, bu ishq – O‘zbekiston bo‘lib boqadi unga, tomirlariga hayot baxsh etib yugiradi go‘yo. Shoira bu vatan ishqini unga Navoiy baxsh etgan deb biladi. Olis-olis o‘y-u xayollardan so‘ng yana tabarruk fevralga murojaat qiladi:

...Fevral, yuragimga qo‘ygin boshingni,
Shunda nur oqadi jismimda sim-sim.
Nogoh qush tilida sayraydi jonim:
Navoiy, Navoiy, sizni sog‘indim!

Shoira birgina Navoiy tavallud topgan oyni shu qadar e’zoz etar ekan, demak, uning qalbida Navoiyga bo‘lgan ehtirom beqiyos. Muallif fevralga nima sababdan – kel, yuragimga boshingni qo‘y, deyapti? Chunki san yuragimga boshingni qo‘ysang, manga Hazrat yaqin bo‘ladilar va jism-u jonimga sen bilan nur keladi, demoqchi qaysidir ma’noda. So‘ngra jonim nogahon sayrab yuboradi qushlar tilida: “Navoiy, Navoiy, sizni sog‘indim!” Balki bu shoiraning joniga o‘rnashgan qush tili- “Lison – ut tayr” bo‘lsa ajab emas.

Halima Ahmedova – mohir she’r musavviri hamda keng tafakkur sohibi, haqiqiy nosirdir. Ko‘zimizga maftunkor va jozibali ko‘rinadigan bu ijod yo‘li, aslida, o‘ta mashaqqatli va sinovlidir. U yashash evaziga o‘zidagi barcha tiriklikdan katta narsa – fidolik talab qiladi. Halima Ahmedova shundayin bir shoir, shundayin bir nosir, shundayin bir inson, shundayin bir bandaki, u – o‘zidan kechib o‘zini topgan, u – haqiqatga o‘zini bergan, doimo vijdoni bilan mashvaratda bo‘lgan kamyobdir. Qaysidir ma’noda, u – hozirgi zamon orifiga o‘xshab ketadi. Unda tasavvuf adabiyotidan ilhomlanish juda kuchli, yozg‘ichlari orqali har kuni biz ko‘rib turgan borliqning tirikligini, bari inson bilan bog‘liq ekanini, qolaversa, butun olamlarning Robbisi – Yaratuvchisi borligini baralla aytadi. U o‘z she’rlari va hikoyalarida hayotni asl ranglarida mahorat bilan tasvirlaydiki, o‘qiguvchi beixtiyor unga oshno bo‘ladi. Aytaylik, she’rni o‘qib ta’sirlanmasangiz, qo‘shiqni eshitib o‘ynamasangiz, kitobni o‘qib yig‘lamasangiz, u nimaga kerak. Demak, u – she’r emas. Demak, u – qo‘shiq emas. Demak, u – kitob emas. Unda siz ham hech narsa qilmagan bo‘lasiz. Halima Ahmedovaning esa she’r-u hikoyalari o‘qilganda o‘quvchini yig‘latadi, kuldiradi, o‘ynatadi, o‘ylatadi. Haqiqiy asar, haqiqiy ijod na’munasi ana shunday bo‘ladi.

O‘z zamonamizda yashab, ijod qilayotgan Halima Ahmedova hayqirmaydi, ammo qalbiga botirib yozadigan siyohidan to‘kilgan sohir mujdalar rangini ko‘rolganlar uning naqadar keng tafakkur

va pokiza qalb egasi, Navoiyga haqiqiy murid – Uvays shogird va chinakam ilohiy in'om sohibasi ekaniga amin bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova H. Jigarrang kitob(badia). O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2014-yil, 7-fevral. 6-son

2. Ahmedova H. Ko'ngil derazalari quyoshga qaragan el. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2013-yil 18-yanvar, 13-son.

3. Ahmedova H. Yosuman gulining soyasi. Toshkent: Akademnashr, 2013.

YORMUHAMMAD YORIY MUXAMMASLARI
(Yoriyning Alisher Navoiyga izdoshligi masalasiga doir)

Muhammadrizo Djurayev
QDPI

Muxammas musammat turlaridan biri bo‘lib, besh misrali bandlardan tarkib topuvchi she’r shakli hisoblanadi. Yoxud mumtoz she’riyatda besh misrali bandlarga muxammas deb aytiladi. Muxammas she’r shaklida dastlabki band misralari o‘zaro qofiyalanadi (a-a-a-a-a), keyingi bandlarning o‘zaro to‘rt misrasi, oxirgi misrasi esa birinchi band bilan qofiyalanadi (b-b-b-b-a, v-v-v-v-a). [Quronov, 2010, 196] Muxammas izdoshlikning muhim ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mumtoz she’riyatda izdoshlik masalasini bir shoir g‘azallariga bog‘langan muxammaslar misolida ko‘rib chiqilsa, bu masala mohiyati yanada oydinlashadi.

Mumtoz she’riyatning boy xazinasidan ma’lumki, biror shoirning g‘azaliga bog‘lanayotgan muxammas ikki shoirning mahorat bobida o‘zaro musobaqasi, she’r bobida bellashayotgan vaziyatini namoyon qilganidek taassurot uyg‘otadi. Aslini olganda, muxammasning ikki ko‘rinishi mavjud. Birinchi ko‘rinishida taxmis bandlaridagi barcha misralar muxammas yozayotgan muallif qalamiga mansub bo‘ladi va bunday taxmislar tab’i xud muxammas hisoblanadi. Uning ikkinchi turida esa muxammas biror boshqa shoirning g‘azaliga bog‘lanadi. Bunda g‘azalning har bayti oldidan shu mazmun, shu vazn, shu qofiya, radifi bo‘lsa, shu radifga muvofiq keluvchi uch misradan qo‘shib boriladi. Muxammasning har ikkala turi ham shoirdan katta mahoratni talab qiladi. Biroq boshqa shoir g‘azaliga bog‘langan taxmisda muxammas bog‘layotgan shoir g‘azal muallifining “chizgan chizig‘idan chiqa olmaydi”. Taxmis qilayotgan shoir tanlangan g‘azal muallifi darajasiga chiqishga sa’y qiladi; bu jarayonda g‘azal muallifi qo‘llagan mazmun va shakl unsurlarini benihoya o‘tkir zehn va o‘ta nazokat bilan o‘zi bitgan misralar bilan bog‘lay bilishi talab etiladi. Aks holda, g‘azalning emas, balki taxmisning tanqiddan tuban bo‘lishiga olib keladi va taxmis bog‘lovchining shoirlik sha’niga ham jiddiy putur yetadi.

Qo‘qon adabiy muhitining yetuk shoirlaridan biri bo‘lgan Yormuhammad Yoriyning devonida Navoiy, Fuzuliy, Amiriy va boshqa shoir g‘azallariga o‘zbek tilida, Abdurahmoni Jomiy va Xo‘ja Hofiz g‘azallariga fors-tojik tilida bitgan bir necha muxammaslari uchraydi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning “Qaro ko‘zim”, “Mubtalo bo‘ldim sango”, “Ey nasimiy subh ahvolim”, “Ko‘runur otashin la’ling dilafro‘z” g‘azallariga bitgan muxammaslarida Yoriy mahoratining bir qator o‘ziga xos qirralari ko‘zga tashlanadiki, shoir bu muxammaslar misolida Alisher Navoiyga izdoshligi anchayin chuqur bo‘lganligi, o‘z muxammaslarini navoiyona mazmun bilan boyita olganligini dalillashga erishgan. To‘g‘ri, Alisher Navoiyga izdoshlik, xususan, uning g‘azallariga muxammas bog‘lash deyarli barcha mumtoz shoirlarda uchraydi. Aytish mumkinki, bu muxammaslarning barchasining ham saviyasini yuqori deb bo‘lmaydi. Biroq bular Alisher Navoiyga izdoshlikning o‘ziga xos maqbul bir ko‘rinishi sifatida e’tiborlidir. Zero Navoiyga ergashish natijasida paydo bo‘lgan bu she’rlar ikki tamonlama ahamiyat zuhr etadi: bir tomondan ulug‘ shoirning ayrim she’rlarining mazmun mohiyatini takroran o‘rganishga ko‘mak bersa, boshqa tamondan, Alisher Navoiy g‘azaliyoti va unda ko‘tarilgan mavzuning umrboqiy ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Yoriyning Alisher Navoiy g‘azalaridan biriga bog‘lagan muxammaslaridan birining dastlabki bandi quyidagicha:

Qaydanam tushdi ko‘zum sohibi duo bo‘ldum sango,
Bo‘lsun iqboling baland ahli vafo bo‘ldum sango.
Qayrilib bir boqmasang ham jon fido bo‘ldum sango,
Ko‘rgali husningni zoru mubtalo bo‘ldum sango,
Ne balolig‘ kun edikim oshno bo‘ldum sango. [Yoriy, 2]

Muxammasning oxirgi bandi esa tubandagi misralar bilan yakunlanadi:

Soldi oshiqlarg‘a qonuni azal bu mojaro,
Oshiq ahlin ko‘ksi qaro, o‘q yosidin yaro,
Yoriy g‘am mashshoqidin chekti alam ko‘ngli qaro,
G‘ussa changidin Navoiy topmadi ushshoq aro,
To Navoiydek asiru benavo bo‘ldum sango.[Yoriy, 2]

Yoriyning muxammaslari ichida Navoiyning “Ko‘rgali husning zoru mubtalo bo‘ldim sango” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga bog‘langan bu muxammasini maromiga yetkazib bog‘langan muxammaslar qatoriga qo‘shish birmuncha qiyin esa-da, unda shoir mahoratining ayrim bir qirralari namoyon bo‘lganligining o‘ziyoq shoirning Navoiy she’riyatiga ixlosi, ayni chog‘da uning ash’oridan ilhomlanishi sifatida baholashga arziydi. Muxammasni ayrim tomonlarini tahlilga tortib ko‘raylik. Alisher Navoiy g‘azali matlasi har jihatdan pishiq bo‘lib, unda hajrda kuygan oshiqning dardu xasratlari borasida so‘z yuritilgan. Shuning uchun “Husningni ko‘ray deb senga zoru asir bo‘lib qoldim. Senga oshno bo‘lgan kunim qanday baloli kun ekan?” deydi shoir, ya’ni oshiq ma’shuqaga oshno bo‘lgan kunni “balolik kun” deb ataydi va bu bilan oshiqlikning azob ekani, muhabbat dilni ohanraboday tortib, tinch qo‘ymasligi, ma’shuqa o‘zini qancha olib qochsa, oshiq shuncha telbalarcha unga talpinishi tasvirlanadi.[To‘xliev, 2017, 37] Oshiq esa buni pisand qilmay, hamma balolar, jabr-zulmlarga chidaydi ishqida sodiq ekanligini isbotlab boraveradi. [Komilov, 2012, 31]

Yoriy esa g‘azal matlasiga singdirilgan bu mazmunga sal boshqacharoq yondashadi, ya’ni oshiq ma’shuqaga ko‘zi tushishi bilanoq, uni duo qilishga o‘tadi; ahli vafo sifatida ma’shuqaning iqboli baland bo‘lishini tilaydi. Hatto ma’shuqa oshiqqa bir qayrilib boqmasa ham, jonini fido qilishga tayyor ekanini bayon qiladi:

Qaydanam tushti ko‘zim sohib duo bo‘ldim sango,
Bo‘lsin iqboling baland ahli vafo bo‘ldim sango,

Qayrilib bir boqmasang ham jon fido bo‘ldim sango. [Yoriy, 2] Lekin muxammasning ikkinchi bandida Yoriy Alisher Navoiy baytida ko‘tarilgan masalaga chuqurroq kirib borganday bo‘ladi. Navoiy yozadi: “Har necha dedimki, kun-kundin uzay sandin ko‘ngil, Vahki kun-kundin batarrak mubtalo bo‘ldim sango”. [Navoiy, 2011, 37] Biroq Yoriy misrasida ayrim so‘zlar almashgan. Natijada, Yoriy qofiyalari ham shunga monand tanlangan. Navoiy bayti Yoriyda bunday shakllangan:

Har necha dedimki kun kundin uzay umid,
Vahki, kun kundin batarak mubtalo bo‘ldim sango.

Yoriyda esa mana bunday:

Ishqing bozoridan dardi alam qildim harid,
Ishq vijdoni qurilsa ayturam "xal min mazid".
Vasl ayyomi manga yetmaslig'idindur navid.

Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiyda shu baytning birinchi misrasi oxiridagi so'z "ko'ngul" bo'lib kelgan. Yoriy devonida esa "umid" so'zi berilgan. Shunga ko'ra, Yoriy "xarid", "mazid", "navid" so'zlarini qofiyaga olib chiqqan. Shu bilan birga, Yoriy ijod etgan misralarda har ikki shoirning lirik qahramonining kayfiyati birmuncha uyg'unlik kasb etgan.

Alisher Navoiy g'azalining uchinchi bayti diolog ko'rinishida bunday shakllangan:

Men qachon dedim: vafo qilg'il, manga zulm aylading,
Sen qachon deding fido bo'lg'il menga, bo'ldim sango.

Yoriy muxammasida:

Xomtama'lik aylading, o'rtada ishni loylading,
Ey tama', solding judolig' so'zini san joylading.
Boqmadi qilsam tazarru'larni korim naylading,
Men qachon dedim vafo qilg'il, menga zulm aylading,
Sen qachon deding: fido bo'lg'il, fido bo'ldum sango.

Ko'rinib turibdiki, Yoriy qo'shgan misralar va Navoiy g'azalining uchinchi bayti ko'chirmasida ayrim bir nuqsonlar uchraydi. Navoiy "Sen qachon deding: fido bo'lg'il menga, bo'ldim sango" deb yozgan va xattot shunday ko'chirgan holda, Yoriy bu misrani sal o'zgartirish bilan istifoda etadi: "Sen qachon deding: fido bo'lg'il, fido bo'ldum sango". Shu bilan birga Alisher Navoiy g'azali tilida o'n beshinchi asr poetik tilining ta'siri aniq sezilib turadi. Shundanmi, Navoiyninig mazkur g'azali tilida yozma adabiy til unsurlari oldinga chiqib, xalq tiliga yaqinlik u qadar sezilmaydi. Yoriy bo'lsa, ana shu adabiy til xususiyatlarini XX asr adabiy tiliga bir qadar yaqinlashtira olgan. Ayrim o'rinlarda esa xalq tili unsurlari ko'proq istifoda etgan. Chunonchi, muxammasning biz ko'rayotgan uchinchi bandida oshiq tilida kelgan "Xomtama'lik aylading - o'rtada ishni loylading" misrasining qo'shilganining o'ziyoq bu fikrni tasdiqlaydi. Yoki muxammasning 4-bandda "Bo'ldi bag'rim g'am zamburi birla qatma-qat, Davlati iqbol istab oxirida yetti lat..." misralarini

keltirib she’r tilini xalq tiliga yanada yaqinlashtiradi (“lat” so‘zi bu o‘rinda “jarohat” ma’nosida ishlatilgan). Muxammasning keyingi bandlarida Yoriyning Navoiyga izdoshligi yaqqol ko‘zga tashlanib, g‘azal muallifi uslubiga birmuncha yaqinlashib borgandek taassurot qoldiradi:

Ishq xomunida yo‘qtur manzilu ham to‘g‘ri yo‘l,
Boshi yo‘q bemuntaho yo‘lni kezarsan cho‘lu ko‘l,
Ozg‘urib solding ko‘ngil bul yo‘lg‘a emdi sobir o‘l,
Ey gul, ko‘ngil tarki nasihat ayladim ovora bo‘l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo‘ldum sango.

Navoiy g‘azalining bu baytida ham o‘zgarish bor. Navoiy yozadi “Ey ko‘ngil tarki nasihat aylading ovvora bo‘l, Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo‘ldim sango”. [Navoiy, 2011,37] Yoriyda esa g‘azalning birinchi misrasi “Ey gul, ko‘ngil tarki nasihat ayladim ovora bo‘l”[Yoriy, 2] shaklida kelgan. Keyingi bandlarda bu kabi nuqsonlar ko‘rinmaydi.

Keltirilgan bu dalillar bog‘langan muxammasning nuqsoni emas, balki Yoriy uslubi va mahoratining o‘ziga xos bir ko‘rinishi, xolos. Bunday holat Yoriy boshqa muxammaslarida kamroq ko‘zga tashlanadi. Shu jihatdan qaraganda Yoriyning Alisher Navoiyning “Qaro ko‘zim” g‘azaliga bog‘lagan muxammasi o‘zining poetik mukammalligi bilan e’tiborga loyiq muxammaslar qatorida turadi. Muxammasning birinchi bandida ma’shuqaga murojaat navoiyona usulda beriladi. Navoiy ma’shuqaga iltijo qilib, odamgarchilikni odat qilgan holda oshiq ko‘zining qarosida panoh topishni istasa, Yoriy ma’shuqa la’li labini Yaman xuqqasi qilish, sochining chigalini xuddi arqondek zunnor qilib beliga bog‘lashini, shu orqali oshiqning vujudida paydo bo‘lgan ishqning kuydiruvchi, telbavor qiluvchi bedavo dardiga shifo topishga intilishiga undaydi:

Aqiqi la’li labing huqqai Yaman qilg‘il,
Soching chigali chu zunnor, bog‘i rasan qilg‘il,
Marizi ishqinga boq parvarishi tan qilg‘il,
Qaro ko‘zim kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zim qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Muxammasning keyingi bandlarida, xususan, uchinchi bandida ham Yoriyning Navoiy mahoratidan mutaassir bo‘lgani u bog‘lagan

misralarda aniq sezilib turadi. Alisher Navoiy baytida ma’shuqa mingan otiga oshiqning bag‘ir qonidan xino bog‘lashi, itiga esa oshiq jonining rishtalaridan arqon yasashi iltijo qilinsa, Yoriy to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zini ma’shuqaning itlari qatorida ko‘radi va ma’shuqadan oshiq ko‘ksiga jafo o‘qini otib yurakni dog‘lashi va ko‘ngul jarohatini qon oqquncha tirnoqlashini iltijo qilish bilan Navoiy baytidagi mazmunni yanada kuchaytiradi:

Iting qatorida oshiqlaringni solmog‘la,
Jafo o‘qini otib ko‘ksima, yurak dog‘la,
Ko‘ngul jarohatini qon oqquncha tirnog‘la,
Takovaringg‘a bag‘ir qonidan xino bog‘la,
Itinga g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il.

Bunday holatni muxammasning keyingi baytlarida ham ko‘rish mumkin. Modomiki, muxammas bog‘lash biror shoirning g‘azalidan ilhomlanish yoki mutaassir bo‘lishning o‘zi emas. Ayni shu ma’noda shoir Yoriyning Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari yuksak ijodning bir namunasi sifatida e’tiborga loyiq. Negaki, shoir Yoriyning Navoiydek bir ulug‘ ijodkor, mutafakkir bilan she’r bahsida bellashmoqni niyat qilibdimi, shuning o‘zi tadqiq va tahlilga arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildik. 1-jild. G‘aroyib us-sig‘ar. - T.: NMI ijodiy uyi, 2011.

2. Yoriy. Девон // Toshkent Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Qo‘lyozmalar instituti fondi.inv № 93/58.

3. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. – T.: Tamaddun, 2012.

4. To‘xliev B. Navoiy g‘azallari (nasriy bayon, sharh ва izohlar). – T.: Bayoz, 2017.

5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralіnеva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ISTILOHLAR

Laylo DJURAYEVA
Yunus Rajabiy nomidagi
O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti,

Alisher Navoiy ijodiy merosining barcha qatlamlarida musiqa san’ati bilan bog‘liq bo‘lgan atamalarni yuzlab uchratish mumkin. Shoirning ilmiy va badiiy asarlari nafaqat uning mutafakkir yoki o‘zbek adabiy tili asoschisi, faylasuf va ilohiyotshunos sifatida, balki aynan musiqa san’ati sir-asrorlarini teran idroklaganligini namoyon etadi. Uning musiqaga xos murakkab istilohlarni deyarli barcha asarlarida ma’nan hamda mazmunan qo‘llagan, tom va majoziy jihatlarda mohirona ifodalagan musiqashunos deyish mumkin. Navoiy musiqiy iboralarni baytlarining qofiyalashuvi uchungina emas, musiqa san’atining nozik ilmiy jihatlarini, ayniqsa, kuylarning inson ruhiyatiga kuchli ta’sirini teran chizgilar bilan ishonarli darajada ifodalaydi.

Musiqa atamalari uzoq va yaqin o‘tmish hamda hozirgi davrda sohani chuqur o‘rganish, aynan xususiyatlarini atroflicha idroklashni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan Navoiy – musiqiy ijodiyot, soha ilmi va amaliyotini qay darajada to‘liq anglaganligini bevosita uning merosidan bilib olish mumkin.

Alisher Navoiyning badiiy, ilmiy-badiiy va sof ilmiy ijodida keltirilgan musiqa ijodiyoti, ilmi va amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan atamalar xususida musiqashunos olim T. G‘ofurbekov o‘zining “Hazrat Navoiyning musiqiy tafakkuri” maqolasida [G‘ofurbekov, 2002: 3], Sharq taronalari” VII Xalqaro musiqa festivali (2009 yil) doirasida o‘tkazilgan ilmiy konferensiyada adabiyotshunos Z. Hamidov “Navoiy asarlari lug‘atida musiqiy atamalar” mavzusidagi ma’ruzasida ma’lumot berib o‘tgan. Shuningdek, maqomlarning Hazrat Navoiy asarlaridagi ma’no semantikasi to‘g‘risida musiqashunos olim O.Ibrohimovning bir qator maqolalarida [Ibrohimov, 1997: 20-30; 2002: 53-64; 2011] qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Musiqa ilmida mavjud atamalar san’at namoyandalari uchun tushunarli hamda doimo iste’molda bo‘lib, sohaning asosi va

mazmunini anglatuvchi tushunchalardir. Bular – muayyan musiqiy janrlar, cholg‘ular, bastakorlik, xalq ijodiyoti, ijrochilik, maqomlarga oid iboralardir. Navoiy musiqa nazariyasi yoxud amaliyotiga doir atamalarni aniq ma’nolar tizimiga mos holda ishlatganligini ko‘ramiz. Jumladan, lirik bayonlarini o‘zida jamlagan “Xazoyin ul-maoniy”da, liro-epik merosi bo‘lgan dostonlarida (o‘zbek (turkiy) tildagi ilk besh doston – “Xamsa”), axloqiy, ta’limiy, ilmiy-tarixiy, falsafiy asarlari – “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Mahbub ul-qulub”da izchil uchratish mumkin. Zero, uning ijodida musiqashunoslik, kengroq qamrovda – san’atshunoslikka xos iboralar, teran fikrlar va bevosita yondashuvlar o‘rinli ifodalangan.

Alloma qo‘llagan musiqiy istilohlarni quyichagicha tasniflash mumkin: *ijrochilar va ijodkorlar*: mutrib/mutriba, mug‘anniy/mug‘anniya, hofiz, xonanda, sozanda, go‘yanda, Zuhra, g‘ino ahli, barbatzan, navosoz, nag‘masoz, musannif, mulahhin, cholg‘uvchi va h.k; *ijro etishga da’vat etuvchi:* chol, soz tuz, ko‘ki chek, ohang ayla, nag‘ma tuz, Husayniy ko‘rguz, maqoming bog‘la, tasnif qil, lahn ko‘rguz va b.; *musiqiy janrlar va shakllar:* nag‘ma, naqsh, tarona, surud, chorzarb, so‘fiya, chinga (yor-yor), qo‘uq, advor, ayolg‘u, savt, amal, lahn (alhon), arg‘ushtak, turkiy, tuyug‘, ko‘k, navo, yir/jir va h.k.; *cholg‘ular:* nay, chang, g‘ijjak, tanbur, ud, rubob, qo‘buz, daf (dafak), arg‘anun, chag‘ona, rud, musiqor, ayolg‘u, naqqora (nog‘ora), barbat, qonun, yotug‘on, shohrud va *cholg‘u qismlari:* avtor (cholg‘u torlari), go‘shatob (cholg‘u qulog‘i), jalojil (doyraning xalqalari), bam (eng yo‘g‘on tor), zir (eng ingichka tor), mizrob/mezrob (nohun) va b.; bastakorlar, musiqashunoslar, sozandalar: Mavlono Sohib Balxiy, Mavlono Riyoziy, Mavlono Solimiy, Xoja Yusuf Burhon, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad Kushtigirlar, Mavlono Binoiy, Ustod Qulmuhammad, Xoja Kamoliddin Husayn, Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy, Mavlono Qadimiy, Muhammad Jomiy, Muhammad Ali G‘aribiy, Mavlono Shayxiy, Hofiz Sharbatiy, Xoja Kamoliddin Udiy, Ali Karmol, Hofiz Muhammad Sultonshoh, Xoja Abdulloh Sadr, Mir Habibulloh, Boysung‘ur Mirzo va b.; *maqom va maqom sho‘balari nomlari:* Hijoz, Iroq, Ushshoq, Rost, Navo, Ajam, Chohargoh (Chorgoh), Segoh, Husayniy, nayrez/nerez, Isfahon va b.

Quyida Hazrat Navoiy merosidan ayrim lavhalarni koʻrib chiqamiz:

Soqiyo, may tut, mugʻanniy navha ohangini chol

Kim, sipohi umrum oʻlmish koʻsi rihlat cholgʻudek. [Navoiy, 1988: 270]

Manbalardan *koʻs* nogʻora cholgʻusining oʻrtachasi boʻlganligi maʼlum. Mazkur baytda daʼvat etilayotgan soʻz *chol,* musiqiy ijrochilikning sozandalik amaliyotiga murojaat qilingan va *navha ohangini* deb, bu tarona yigʻi kuyi ekanligiga ochiq ishora qilingan. Shu oʻrinda aytib oʻtish oʻrinliki, biz musiqiy asboblarni "cholgʻu" deymiz, ammo ijro etdi feʼlini koʻpincha "chaldi" soʻzi bilan ifodalaymiz. Aslida bu choldi, boʻlib, oʻzbek tilining asoschisi Navoiy matnlarida shunday qoʻllanilgan.

Dedim taronayi jonbaxsh mutribo, sen xud

Firoq sozi tuzub oʻlturur koʻki cholding. [Navoiy, 1988: 290]

Navoiy ijodidan bunday baytlarni yuzlab keltirish mumkin. Eʼtiborlisi shuki, shoir ijodining har bir oʻrnida musiqiy jarayonga, ijrochilikka, cholgʻularga, musiqiy janrlarga, ilmiy-nazariy masalalarga murojaat qilgan. Lirik janrlar sheʼriyatning nozik qirralarini namoyon etuvchi boʻlganligi uchun ham biz Chordevondagi gʻazallar misolida koʻproq musiqaning ruhiyatga taʼsiri, tuygʻular ifodasi kabi xususiyatlarini anglayapmiz.

Mutafakkir ishlatgan quyidagi iboralarni hozirgi oʻzbek tili lugʻatimizga kiritish mumkin: *mutrib, mugʻanniy* – ham sozanda, ham xonandalik qoʻsh isteʼdodiga ega, oʻz ijro talqini va uslubini namoyon eta olgan ijodkor; *mulahhin, musannif* – bastakor soʻziga maʼnodosh tushuncha; ijro etmoq soʻzini *nagʻma koʻrgizdi, navo chekti,* hazin, mungli taronalar ijrosini *navha ayladi* kabi atamalar bilan ifodalash tilimizni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Bir mugʻanniydin navo topmoq tilarsen, changdek

Egri qad birla ishing faryod-u afgʻon boʻldi tut. [Navoiy, 1988: 77]

Chang cholgʻusi Navoiy lirikasining juda koʻp oʻrinlarida qoʻllanilgan cholgʻudir. Cholgʻuning qaddi egikligiga tashbeh sanʼati orqali koʻplab oʻrinlarda murojaat qilgan shoir uni taʼriflashda Zuhro yulduzi obrazidan ham foydalanadi. Oʻtmish Sharq adabiyotida sayyora va yulduzlar maʼlum sohalarning homiylari sifatida tasvirlangan.

Otashin may birla, ey soqiy, qizitqil bazmni,
Mutribo, ul o‘tni tez etmakka ol og‘zingg‘a nay. [Navoiy, 1987: 521]

Mazkur baytda Alisher Navoiy soqiy deb ustoz, pirga ishora qilgan bo‘lsa, uning olovdek mayi zaminida ilm (ilohiyot)ni, bazm deganda esa jamoat bilan o‘rganilayotgan ilm yoxud so‘fiylarning sa’mo majlisi yoki jamoa bo‘lib qilinayotgan ibodatini nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas. Zero, qadimgi afsona va rivoyatlarga ko‘ra nay cholg‘usi ilohiy soz bo‘lib, uni nafas bilan puflab cholinishi tasavvufda payg‘ambarlar bilan bog‘lanadi. (Yaratgan Odam Atoga dastlab ruhni puflaganidan).

Alisher Navoiy asarlarida ifodalangan soz nomlari, ularning ohang xususiyatlari, tashqi qiyofasiga berilgan ta’riflar cholg‘ushunoslik tarixini yangi ma’lumotlar bilan boyitadi. Binobarin, cholg‘u asboblarning Navoiy asarlarida qo‘llanilishi statistikasi 15-asrda *ud, chang, nay, daf (doyra), nog‘ora* eng keng tarqalgan sozlar bo‘lganligini ko‘rsatadi. Karnay *kannora*, nog‘ora *naqqora, kovurgo* shaklida ifodalangan. Shuningdek, *chag‘ona, musiqor, ayolg‘u, rud, sur* kabi sozlar ham amaliyotda ishlatilgan. Navoiy o‘z ta’riflarida cholg‘ularning barcha xususiyatlarini, jumladan tuzilishi, ovozi, ruhiyatga ta’siri, o‘sha davrdagi iste’mol darajasi, cholg‘uning qismlari va umuman musiqaning ilhom manbai ekanligini musiqashunoslik nuqtai nazaridan talqin etadi. Eng muhimi cholg‘ularni ilohiylik darajasiga ko‘taradi.

“Bu *amal*da base *maqomot* va *shaabote* darj qilib erdikim, ta’rifdin mustag‘nidur va asru dilpazir va bag‘oyat benazir *bog‘lanib*, yana ishlar ham misli: “*qavl*” va “*g‘azal*” va “*chorzarb*”dek va “*savt*” va “*naqsh*” xud behaddu add *bog‘lab*durki, xaloyiq orasida mashhurdurki, borchasin darj qililsa mujibi itnob bo‘lur. [Navoiy, 1997: 83]

Ma’lumki, XV asrda sultonlar sha’niga qasida, doston, turkum asarlar yozish shoirlar orasida an’ana va sharafli ish sanalgan. Pahlavon Muhammad Husayn Bayqaroga bag‘ishlab yozgan she’riga o‘zi musiqa bastalagan va bu asarni maqtab Navoiy “dilpazir va benazir bog‘langan”ini hamda shu qatori qavl, g‘azal, chorzarb, savt va naqsh kabilari son-sanoqsiz ekanligini qayd etadi.

“Ul jumladin *advor* va *musiqiy* ilmidurkim, chun lahjasi va husni *savti* xo‘b ekandur va *usuli* mazbut va harakoti va sakanoti marg‘ub.

Ul daqiq fanda ko‘shish va sa’y ko‘rguzub, dahli tom va mahorati molokalom topib erdi va dilkash *naqshlar* va *amallar* va dilpisand *qavllar* va *g‘azallar tasnif qilur erdi va xo‘b aytur erdi.* Andoqki, eshitgan xavos va avom xushhol bo‘lmoqda beixtiyor va o‘rganmoqda beqaror erdilar”. [Navoiy, 1997: 82]

Shoir zamonasi bastakorlik ijodiyotining “oltin” davriga to‘g‘ri kelib, o‘nlab yetuk va usta bastakorlar yetishib chiqqanlar. Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” tazkirasida ularning iste’dodiga o‘zining munosib bahosini bergan. Navoiy o‘z asarlarida bastakor atamasidan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanmasada, bu istilohning asl mohiyatini davrining bastakorlariga bergan bahosi va ta’riflari bilan ochib bergan. Navoiy nazdida “bog‘labdur” iborasi eng yetuk bastakorlargagina nisbatan qo‘llanilgan. Shoir ular ijodini kuzatib, birini tahlil, birini tanqid, birini e’tirof etarkan o‘zining ham bu sohaning bilimdoni, yaxshigina musiqiy munaqqidi ekanligini namoyon etadi. Yuqoridagi parcha shoirning 40 yillik do‘sti va maslakdoshi Pahlavon Muhammadning musiqiy iste’dodiga bergan ta’riflaridan edi. Navoiyning ta’riflaridan anglanadiki, yetuk bastakor avvalo iste’dodli sozanda, mahoratli ijrochi bo‘lishi zarur.

Navoiyning asarlarida o‘tmish va shoir davrida musiqiy amaliyotda iste’molda bo‘lgan istilohlarning ayrimlari keltiriladi. Mazkur atamalarning ayrimlari shakl, mazmun, janr ichki qonuniyatlari, vazifalariga ko‘ra o‘zgarib bo‘lsada, yetib kelgan. Bulardan – naqsh, tarona, chorzarb, savt, navo, qo‘shiq kabilar – o‘zbek musiqamizda; lahn, amal, kor, so‘fiya, qavl/qavalli, yir/jir –tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar, arablar, hind, uyg‘ur va boshqa sharq xalqlarida amaliyotda qo‘llanilmoqda. Ba’zi atamalar esa ta’riflarga ko‘ra hozirgi boshqa iboraga to‘g‘ri kelishi kuzatiladi: nag‘ma – musiqiy tovush; Navoiyda musiqiy asar (ko‘proq aytim yo‘lidagi), hozirda amaliyotda asl shakli qo‘llanilmasada, ton, lad, tovushqator ma’nolariga to‘g‘ri keladi. Chinga – hozirda esa yor-yor. Ayrim janr va shakllar zamonaviy musiqashunoslikda umuman uchramaydi: tuyug‘, turkiy, aruzvoriy, arg‘ushtak, budi-budoyi, muhabbatnoma va h.k.

Alisher Navoiy o‘zbek tilining asoschisi, mutafakkir shoir bo‘lish bilan birga san’atshunoslik – musiqashunoslik sohasining sof ilmiy

masalalari – janrlar, o‘tmish musiqiy shakllari, cholg‘ushunoslik, ijrochilik mezonlari, maqomlar, bastakorlik ijodiyoti kabilarni anglab, xos atamalar va istilohlarni musiqiy ma’nosiga ko‘ra ifoda etgan. Navoiy merosida o‘tmish va XV asrda musiqiy amaliyotda iste’molda bo‘lgan istilohlarning ayrimlari keltiriladi. Bu atamalar o‘z mazmuniga ko‘ra ishlatilganligidan, biz Navoiyning musiqashunoslikda ham yetuk bilimdon bo‘lganligini anglaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 1, 3, 15 tomlar. .– T.: FAN. 1988-92 y.

2. Ibrohimov O. Maqomlarning ma’nolar tizimiga doir. // Musiqa ijodiyoti masalalari.1-kitob.– T.: Qatortol - Kamoloti. 1997. – B. 20-30.

3. Ibrohimov O. Hazrat Navoiy va maqom. // Musiqa ijodiyoti masalalari. .– T.: Yangi asr avlodi, 2002. – B. 53-64

4. Ibrohimov O. Alisher Navoiyning musiqiy-estetik qarashlari. // “Alisher Navoiy ijodiy va ma’naviy merosining olamshumul ahamiyati” mavzuidagi Xalqaro ilmiy-nazariy konfrensiya materiallari. .– T.: 2011.

5. G‘ofurbekov T. Hazrat Navoiyning musiqiy tafakkuri // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2002. 3-may.

РОЛЬ АЛИШЕРА НАВОИ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ В СРЕДНЕЙ АЗИИ

Гульнора ГУЛЯМОВА
Ташкентского государственного технического университета

Эпоха Возрождения выработала величайшие художественно-эстетические ценности, которые нашли яркое отражение в искусстве и литературе выдающихся деятелей культуры - Джами, Навои, Бабур, Бехзод, Бинои, Наккош, Васифи, Махмуд Хусайни. Алишер Навои был одним из великих людей, оказавших сильное воздействие на формирование духовности своего народа. Биография этого талантливейшего поэта и выдающегося мыслителя издавна привлекала внимание многих историков-востоковедов и литературоведов.

Духовная культура у каждого народа имеет сугубо национальное своеобразие, национальную специфику. Каждый народ имеет самобытную духовную культуру, моральные нормы и этико-эстетические идеи; каждый народ вносит определенный вклад в сокровищницу мировой культуры. [Киященко, Лейзеров, 1993:11]. Но в разные исторические периоды происходит смена типов духовности, смена типов культуры. Искусство остро реагирует на изменения в духовном климате эпохи. В каждую эпоху возникают ценностные ориентиры, которые формируют духовную жизнь общества. Более того, в каждую эпоху выдвигаются на первый план те или иные формы духовного творчества, те или иные виды искусства как выразители ценностных ориентаций духовной культуры.

Итак, культура подразумевает отдельное состояние духовной жизни общества. Изучение богатой национальной культуры, глубокое освоение истории духовной жизни узбекского народа и среднеазиатского народа в целом позволит нам использовать всё то ценное и лучшее, что было накоплено в культуре прошлого. Не претендуя на освещение всех проблем, попытаемся выяснить культурно-исторический аспект эпохи позднего Возрождения,

выявить общие закономерности развития духовной культуры народов Средней Азии.

Творчество Алишера Навои, по признанию историков литературы, знаменует важный этап формирования общетюркского культурогенеза Центральной Азии Х1У-ХУ вв. Он совершенствовал классическую художественную словесность тюркских народов, племен и родов, практически став основоположником не только узбекской литературы, но и ряда современных тюркских народов края [Негматов, 2001: 14].

Алишер Навои прекрасно владел арабским, персидским языками. Многие произведения им написаны на персидском языке «Девони Фони». Но основной труд - «Пятерицу» («Хамса») - он написал на родном, узбекском языке («Смятение праведных», «Лейли и Меджнун», «Фархад и Ширин», «Семь планет», «Стена Искандара»). Его перу принадлежит философская поэма «Язык птиц», в которой отчетливо проступают суфийские идеи. Им написаны трактаты «Тяжба двух языков», «Собрание избранных» и много других произведений, получивших мировую известность.

Благотворное влияние Алишера Навои на Султана Хусейна Байкара сказалось в оживлении литературной и культурной жизни Герата. При дворе правителя и в домах знатных людей постоянно устраивались поэтические и музыкальные вечера, на которых принимали участие ученые, поэты и писатели, музыканты и певцы, каллиграфы и художники.

Алишер Навои был меценатом науки, искусства и литературы. Он стремился всячески поддерживать талантливую молодежь, начинающих ученых и поэтов, оказывать им материальную помощь, ибо многие из них приехали из разных городов и областей, чтобы получить знания. Из-за отсутствия средств к существованию, они обращались постоянно к Джами и Навои. Благодаря Навои стали известными учеными и знатоками поэтического искусства Мавлона Бадахши, Абу ал-Мумин, Мавлона Абутохир и др. Навои покровительствовал Али Кушчи, историку Мирхонду, а затем и Хондемиру. В своем трактате «Собрание избранных» Навои упоминает наиболее

ярких представителей культуры, искусства и литературы, дает характеристику современным ему поэтам, писателям, музыкантам, певцам и композиторам. Он приводит сведения о 459 поэтах. Эта цифра дает возможность представить, какие широкие масштабы принимает духовная жизнь Герата. Видное место среди поэтов, творивших в этот период, занимает Камолиддин Бинои. Навои дал высокую оценку его поэтическому и музыкальному дару в «Собрании избранных».

В ХУ веке жанр классической хвалебной оды – касыды - уступает ведущее место другим поэтическим жанрам - газели, рубаи и муамма.

Возможно, повсеместное увлечение бессодержательной стихотворной формой, муамма, стало причиной резко критического отношения к поэзии этого времени видного литературоведа Е.Э.Бертельса, который утверждал, что литература ХУ-ХУ1 вв. переживала не подъем, а упадок. Стремление многих поэтов прибегать к усложненному стилю, изощренной поэтической форме в ущерб идейному содержанию и чрезмерное увлечение жанром «муамма» привело к тому, что в этот период не было создано оригинальных новаторских произведений. Исключение Е.Э.Бертельс сделал лишь для Джами и Навои, творчество которых имеет непреходящее идейно- эстетическое значение [Бертельс, 1988: 288].

Давая характеристику литературе ХУ-ХУ1 в., Е.Э.Бертельс утверждает, что культура, литература и искусство предшествующего периода были достоянием правящей верхушки, аристократического феодального общества, то в период правления Тимуридов интерес к художественному слову, спрос на литературную продукцию достигает небывалого ранее размаха. Но подлинного расцвета Герат достиг в середине ХУ века во время правления Султан Хусейн Байкары. Бабур дал яркую характеристику Герата: «Время Султан Хусейна было удивительным временем. Хорасан, и в особенности Герат, были наполнены людьми выдающимися и несравненными». [Бабур-наме,1993: 185]. Сам Султан Хусейн Байкара был образованным человеком, прекрасно разбирался в теории музыки, поэзии. Писал

неплохие стихи. У Алишера Навои в «Собрании избранных» восьмой маджлис посвящен его поэтическому творчеству. «У его величества имеется очень много хороших стихов и любезных сердцу бейтов, которые он собрал в диван» [Алишер Навои: 1970]. Навои дает тонкий критический анализ газелей и рубаи правителя Герата. В известной мере его хвалебная характеристика бейтов Султан Хусейна Байкары несколько преувеличена, ибо речь идет о носителе высшей власти, государе, тем не менее, не вызывает сомнений, что Алишер Навои высоко ценил его поэтическое творчество. Убеждает нас в искренности его суждений и то обстоятельство, что и Бабур в своих «Записках» пишет о том, что у Султан Хусейна был «дар к стихотворству». Султан Хусейн Байкара, став правителем Герата, так же, как и Шахрух, развернул строительство престижных зданий: медресе, ханака, мечети, библиотеки. Для процветания и благоустройства Герата многое сделал и Алишер Навои. Он построил комплекс архитектурных сооружений – ханака «Халасия», медресе «Ихласия», больницу «Шафаия», мечеть и мавзолей «Кудсия», а также жилые дома «Унсия», бани. Бабур рассказал в своих мемуарах о 20-ти дневном пребывании в Герате. Он перечисляет все достопримечательности города, которые он осмотрел. Он вспоминает, что побывал на берегу канала Инджил, в доме, где жил Алишер бек, называемый Унсия, его могилу и соборную мечеть, которую называют Кудсия, медресе и ханаку, называемые Халасия и Ихласия, баню и больницу, называемые Сафаия и Шифаия [Бабур-наме, 1993:199]. Навои не ограничивался строительством зданий в городе Герате, он возвел более 380 построек в разных областях. Историки литературы справедливо считают, что с этой эпохой связаны имена трех гениальных личностей – Абдурахмана Джами, Алишера Навои и Камолиддина Бехзода.

На середину ХУ века приходится в основном общественно-политическая и творческая деятельность Джами. Он никогда не имел реальной власти, подобно Алишеру Навои, который был сначала хранителем печати у Султана Хусейна Байкары, а потом и визирем. Тем не менее, заслуги Джами в развитии

духовной культуры в Средней Азии велики. Джами поистине обладал энциклопедическими знаниями, кажется нет ни одного жанра литературы, которые бы не нашли отражение в творчестве великого поэта – газели, касыды, рубаи, муамма. Им были созданы диваны, в которые вошло 16 тысяч двустиший. Его перу принадлежит «Семерица: семь поэм, в которых он продолжил традиции Низами Ганджеви и Хусрава Дехлеви, создавшие «Пятерицу». Джами было написано нравственно-дидактическое произведение «Бахаристан» («Весенний сад») - лучший образец прозы XУ в. Он выступил и как теоретик, автор трактата о муамма, о стихосложении, трактата о музыке и т.д. Творчество и общественная деятельность Джами оказали огромное влияние не только на современных ему поэтов и писателей, но и на последующее поколение художественной интеллигенции. Будучи младшим современником и другом Джами, Алишер Навои был его муридом, воспринял суфийские идеи своего учителя.

Большое место в жизни городского люда Герата занимал театр кукол и площадный театр - маскара. О выступлениях уличных актеров рассказал А.Навои в философско-дидактической поэме «Смятение праведных». Они разыгрывали различные сцены сказочного, мифологического содержания и даже сценки из произведений известных авторов, тем самым прививали им эстетический вкус.

Особое место занимали культовые, религиозного характера музыкальные произведения. Многие чтецы «Корана» - хафизы были певцами, знатоками музыкального искусства. Видные религиозные деятели выступали против музыки развлекательного, светского характера, они стремились подчинить музыкальное искусство нуждам религии. Такие музыкальные формы, как «садж» и «рихта» были широко распространены среди мусульман. В них воспевались пророк и двенадцать имамов.

Среди выдающихся людей эпохи Джами и Навои следует выделить блестящего художника-миниатюриста Камолиддина Бехзода, который создал школу книжной миниатюры,

каллиграфии не только в Герате, но и других городах. Бехзоду принадлежат иллюстрации к «Хамсе» Низами, портреты Джами и Навои, Абдуллаха Хотифи, Султана Хусейна Байкары и др. Его учениками и последователями были Султан Али Машхади, Дусти Девона, Мулло Дарвеш Мухаммад, Касим Али Чехра Кушои и др. В Герате было очень много общественных библиотек. Одна из них «Китабхонаи салтанати Хирот» стала не только хранилищем редких книг, но в библиотеке трудились каллиграфы, художники, переплетчики книг. Велась здесь и текстологическая работа. В этой библиотеке был составлен сводный текст «Шах-наме» Фирдоуси. В этой же библиотеке работал над своими миниатюрами Камолиддин Бехзод.

Характерной особенностью эпохи ХУ-ХУ1 в. является борьба двух тенденций, которая началась еще Х11 в. между философами - перипатетиками и религиозными деятелями суфийского толка, которая завершилась победой последних. К началу ХУ в. суфийские идеи становятся определяющими в духовной жизни общества. Видными идеологами суфизма в ХУ в. становятся Ходжа Ахрор, Джами, Навои.

Роль суфизма в ХУ в. особенно велика. Поэзия Алишера Навои – великая художественная школа [2, 155-157]. Чем глубже и глубже знание о Навои у молодого поколения, тем больше секретов просвещения, добра и процветания. Человек, привыкший к словам Навои, признает достоинство и силу человечества, если пожелает. Человек, который следует урокам Навои, самопроизвольно стремится ослабить беспокойства нации и использует эту идею как оружие против неграмотности, знаний и просвещения – невежества. Знание Навои означает убеждение в силе справедливости, благочестия и веры.

Творчество Навои и по сегодняшний день вызывает интерес во всем мире, о чем свидетельствуют переводы произведений великого поэта на английский, французский, немецкий и многие другие языки. Поклонников литературы привлекают глубокая философия его творчества, богатые метафоры, разнообразие поэтических образов. Иными словами, секрет немеркнущей славы произведений Навои заключается именно в их высоком

художественном уровне. Пусть в наш век атома и космоса снова прозвучит не подвластное времени и пространству бессмертное слово бессмертного поэта – великого Алишера Навои.

Литература:

1. Киященко Н.И., Лейзеров Н.Л. Искусство и духовный мир человека. – М.: «Знание» 1993. 11.

2. Негматов Н. Эпоха Камолиддина Бехзода (Историко-культурологический анализ) - В сб: Камолиддин Бехзод и актуальные проблемы культуры Центральной Азии. – Душанбе: «Ирфон», 2001. 14

3. Бертельс Е.Э. Избранные труды. История литературы и культуры Ирана, - М.:1988. 288.

4. Бабур-наме. Записки Бабура. – Ташкент: Главная редакция энциклопедий. 1993. 185.

5. Алишер Навои. Сочинения в 10-ти томах. Том1Х, Ташкент: «Фан», 1970.

OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI TARIXIY-BIOGRAFIK ROMAN JANRINING BIRINCHI NODIR NAMUNASI

Mirhojiddin JAMOLIDDINOV
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

XX asr o‘zbek adabiyotida Oybek lirik shoir va ulkan adib sifatida o‘lmas iz qoldirgan. Ayniqsa, Navoiyshunoslik fanida Navoiyning ilmiy biografiyasini yaratgan adabiyotshunos va sharqshunos olimlar V.V.Bartold, Bertels, O.Sharafiddinov, Sadriddin Ayniy, V.Zohidov, V.Abdullaev, I.Sultonov, A.Hayitmetov, A.Qayumov va boshqa ko‘plab Navoiyshunoslar qatoridan o‘rin olish bilan birga badiiy adabiyotda Navoiy davri zamondoshlari xotiralari va Navoiy asarlarini sinchiklab o‘rganib, 1944-yilda “Navoiy” romanini yaratdi.

Navoiy ijodini ilmiy o‘rganish jarayoni tarixini kuzatar ekanmiz, folklorshunos olim Xodi Zarif o‘zining safdoshlari haqida so‘z ketganda taniqli adabiyotshunos, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi muxbir azosi Olim Sharafiddinov (1903-1943)ni 1938-yilda Alisher Navoiy 500 yilligini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish qo‘mitasida birga ishlaganligini Olim aka urushga ketgunga qadar “Alisher Navoiy haqida ayrim maqolalarni hisobga olmaganda, yaxlit tasavvur bera oladigan biror kitob yo‘q edi. Hatto shoir asarlarining tuzukroq bir nashriga ham ega emasdik. Olim Sharafiddinov birinchi bo‘lib Navoiy hayoti va ijodi haqida qo‘lyozma manbaalar asosida ajoyib kitob yaratdi. Birinchi bo‘lish qiyin. Men bugungi navoiyshunoslar avlodi Olim Sharafiddinovning 1939-yili chop qilingan va 1947-yili Izzat Sulton tomonidan qayta nashr etilgan kitobi hamda, 30-yillar oxiri 40-yillarda olib borilgan ulkan tekstologik va tadqiqotchilik ishlari tasirida voyaga yetdi desam, hech qanday mubolag‘a qilmagan bo‘laman... bu qo‘mitaga Sadriddin Ayniy, Oybek, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, Shayxzoda, Uyg‘un, Amin Umariy kabi yozuvchi va shoirlar jalb etildi” deb yozadi.

Roman voqeasi 18 yoshli yigit Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi hamda bahor faslida Hirotning “Gavharshod” madrasasidagi tolibiy ilmlarning o‘qish tasviri bilan boshlanadi.

Navoiyning “Umr quyoshining shomga kirayotgan vaqtlaridagi tasviri bilan tugaydi (37-bob, hijriy 706-yil, 12-jumodil oxir-tarixda ulug‘ motam kuni bo‘ldi)”. Romanda Navoiy portreti va uning xarakteri badiiy jihatdan mukammal yaratilgan. Ayniqsa, asarda aks etgan Mavoraunnahrni turli shaharlarini tabiat tasviri, odamlari, hunarmandchiligi, urf-odat, qadriyatlari to‘la yoritib berilgan. Navoiy asarda vatanparvar, insonparvar, millatparvar, o‘zbek tili va adabiyotining jonkuyar targ‘ibotchisi, amaliyotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Turkiy tilini arab va forsiy tillarini kamsitmagan holda “Asrlarcha shoirlar quruq tikonzor deb bilgan turkiy tilda ajoyib chamanzorlar ko‘ra olgan va ulardan xirmon-xirmon toza, yorqin guldastalar yasagan va maqsad yo‘lining toshliqlarida temir iroda bilan odim otgan ham turli qobiliyatlarini o‘z shaxsiyatida g‘oyat ko‘rkam jam qilgan ikki tilli” shoirni to‘la harakteri buyuk manaviyat egasi Jomiy bilan bo‘lgan munosabatlari orqali ochib beriladi. Jomiy Navoiyni ayni fazilatlari uchun sevadi. Shunday zamondosh do‘sti bilan faxrlanadi. Navoiy va Jomiy munosabatlarida o‘zbek va tojik xalqlarining azaliy do‘st, qadrdon ekanliklarini ularni urf-odat qadriyatlari bir ekanligi, millatlar o‘rtasidagi qadimiy do‘stlikni o‘z otasi tenglik shoirni yoshlikdan ixlos bilan sevishi, ustoz deb hurmat qilish jarayonidagi epizodlarda xalqchillik ruhi bilan ochib beriladi.

O‘zbek tili go‘zalliklarini ko‘rolmagan, millatchilik ruhi bilan tarbiyalangan forsiyparast ”Istedodli shoir, lekin ruhi fitna fasodchi, tili achchiq, o‘jar hayotda halol haromni farq qilmaydigan” mavlono Binoiyga bo‘lgan munosabatlarda turkiy tilni taraqqiyoti, kelajagi haqidagi ichki kechinma, iztiroblarini Oybek o‘z ichki kechinmalari bilan uygunlashgan holatda bayon etadi. “...fors ashshori elimizning zavqi uchun begonaroqdir. Endi otalarimiz, bobolarimiz, enalarimiz tiliga nazar solsak, uning forsdan bag‘oyat baland darajada ekani bir haqiqatdir. Qadim shuarosi bu tilni tatabbu etmabdur. Tilimizda daqoyiq ko‘p (ingichka manolar). Ammo bu kungacha hech kishi uning haqiqatiga nazar tashlamabdur” deb javob beradi.

O‘zbek romanchiligida yaratilgan asarlardagi obrazlarni tahlil qilsak, undagi qahramonlar ko‘pincha to‘qima obrazlar orqali

syujeti ochib beriladi. “Navoiy” romanida esa Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, Xadichabegim, Muzaffarmirzo, Badiuzzamon, Mo‘minmirzo, Darveshali, Binoiy, Majiddiddin, Mirxond, Bekzod, Xondamir va boshqa tarixiy shaxslar obrazi berilgan. Mazkur obrazlar asar g‘oyasini, shuningdek, bosh qahramon Navoiy harakterini ochishda muhim o‘rin tutadi. Roman 37 bobdan iborat. Har bir bobdagi syujetlar chizig‘i, voqealar rivoji, qahramonlar o‘rtasidagi konfliktlar, kulminatsiya va yechimlar nazariy jihatdan mukammal ishlangan, badiiy jihatdan puxta yaratilgan.

NAVOIY IJODIDA RUHIY KAMOLOT MASALASINING BOLALAR SHE'RIYATIGA TA'SIRI

Gulnoza JO'RAYEVA
ToshDO'TAU

Inson turmush tarzida turfa xil voqea-hodisalar mujassam: jiddiy, fojiaviy, hajviy va hokazo. Badiiy adabiyot inson borligini dard-u alamini, quvonch va tashvishlarini turli obrazlar vositasida aks ettiradi. Shu bilan birga adabiyot insonni to'g'ri yo'lga boshlaydigan, komillik sari yetaklaydigan tarbiya vositasi ham hisoblanadi. Adabiyot istilohining o'zi ham arabchadan tarjima qilinganda "odoblar yig'indisi" degan ma'noni anglatadi. Tarbiya, odob-axloq esa insonga bolaligidan o'rgatiladi. Demak, insonni to'g'ri yo'lga boshlovchi, o'zida ezgulik, odob-axloq, tarbiya masalalarini mujassam etgan har qanday asar bolalar adabiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan asardir.

Alisher Navoiyning deyarli har bir asari, har bir misrasi badiiyati, poetikasi, strukturasi, g'oyaviy xususiyatlari bilan adabiyotshunos olimlar uchun muhim tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Xo'sh, Navoiy ijodining bolalar adabiyoti bilan qanday bog'liqlik jihati bor?

Hazrat Navoiyning deyarli har bir asarida komil inson g'oyasi yotadi. Ayniqsa, "Hayrat ul-abror" dostonida ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari juda sodda va obrazli qilib keltirilgan. Bola esa o'zi samimiy bo'lgani uchun samimiyat bila sug'orilgan asarlarga intiladi.

"Hayrat ul-abror"ning o'ninchi maqolati rostlik (to'g'rilik) ta'rifida. Muallifning o'zi bu haqida yozar ekan: "Rostlik ta'rifidakim, borliq uyi shu to'g'ri ustun bilan tik, ul uyning yotoqxansi burchagida bu nur (rostlik) sha'mi majlisni bezatadi; egrilikni esa rad etish haqdakim, agar egri odam kumush badan go'zallar yuzidan zulfdek joy olsa ham (baribir oxirida) boshi kesiladi; egri odam agar xazina ustida ajdahodek halqa bo'lib yotgan bo'lsa ham uni o'ldirish zarur", - deydi.

Maqolat haqida berilgan ushbu fikrlarning o'zidayoq to'g'rilik va egrilik haqida tasavvurlar, to'g'rilik hamisha zarurligi, egrilik esa oxiri yaxshilik bilan tugamaydigan yo'l ekani haqidagi xulosaga

kelish mumkin. Ammo shoir bu bilan chegaralanib qolmaydi. U maqolat bayonida juda aniq bo‘lgan dalillar bilan fikrini asoslab beradi.

“Yo‘l qancha tog‘ri bo‘lsa, maqsad shuncha yaqin, yo‘l egri bo‘lsa, maqsad uzoqlashganiga ajablanish o‘rinsiz. Nay to‘g‘ri bo‘lgani uchun so‘fiyalar uni yaxshi ko‘rishadi, chang to‘g‘ri bo‘lmagani uchun qulog‘i buraladi ”, - deydi ijodkor.

Bu tasvirlar bolaning tasavvuriga, tafakkuriga mos bo‘lgan chizgilardir. Bola nimanidir anglashi, xulosa qilishi uchun o‘sha narsani tasavvur eta olishi lozim. Navoiy esa egrilik va to‘g‘rilik haqida uzundan uzun nasihatlarni aytib o‘tirmaydi va uni biz ko‘rib turgan, atrofda mavjud bo‘lgan oddiy narsalar obrazida asoslab beradi. Yo‘l qanchalik to‘g‘ri bo‘lsa, manzilga yetish shunchalik oson bo‘lishi, yo‘l egri bo‘lgani sayin manzil uzoqlashib borishi yosh bolalar ham anglay oladigan haqiqatdir. Nay to‘g‘ri bo‘lgani uchun uni insonlar yaxshi ko‘rishi va chang egri bo‘lgani uchun qulog‘i buralishi bola uchun qiziqarli bo‘lgan misoldir. Bu odat, ya’ni bola nimadir ayb qilib qo‘ysa, uning qulog‘ini “burab qo‘yish” hayotimizda ham uchraydi. Demak, bu tasvirlarni bola qiziqish bilan o‘qishiga kafolat bor.

Alisher Navoiy to‘g‘rilik va egrilik haqida hamma aytgan, oddiylashib ketgan gaplarni aytmaydi. Maqolatda shunday kutilmagan xulosalar beradiki, hali bu asarni o‘qimagan bola uchun, nafaqat bola, balki katta yoshli inson uchun ham bu xulosalar juda qiziqarli tuyulishi aniq.

“Kimki to‘g‘rilik yoyini bilmoqchi bo‘lsa, bilsinki, bu ikki xil bo‘ladi. Biri shuki, kishining so‘zi to‘g‘ri bo‘lsa, uning so‘zi bilan birga o‘zi ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Yana biri shuki, yolg‘on gapni ba’zilar taassuf bilan, uyalganidan “to‘g‘ri!” deydi. Oldingisi, hech shubhasiz, yaxshi, lekin ikkinchisi ham yomon emas. Kishi yolg‘onni gapirsa ham, kam gapirsa!”, - deydi. Albatta, ushbu fikrlarning bola tarbiyasidagi ahamiyati katta.

Orazin yopqoch ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh.

Mazkur bayt mazmuniga bir nazar tashlaylik. Shoir quyosh nihon, pinhon bo‘lganidan keyin yulduzlar chiqishini go‘zal tasvirlab,

yulduzlarni ko‘zyoshga o‘xshatadi. Yulduz shunday paydo bo‘ladi, quyosh g‘oyib bo‘lgach, demoqda Navoiy. Qanday go‘zal tasvir. Ushbu misralar bola tafakurrini boyitadi, unga yangi ijodiy olam hadya etadi. Tasavvur dunyosi kengayib boradi bolakayning. Endi u yulduzni, oyni boshqacha ko‘ra boshlaydi.

Boshni fido ayla ato boshig‘a,

Jismni qil sadqa ano qoshig‘a... deb boshlanuvchi go‘zal misralarni yod olmagan inson bo‘lmasa kerak. Yoki har bir bolaning tilidan tushmaydigan “Oltin qafas ichra”ni olaylik. Pand-nasihat ruhida yozilgan ushbu misralar har bir bolaning yodida qolgan. Mazmunan hali to‘la anglab yetmagan bo‘lsa-da, lekin uning mohiyatini yod olgancha xotirasida qolgan misralar bilan tushunib oladi. Navoiyning har bir asarini yuqorida ta’kidlangandek, komil inson g‘oyasini ilgari suradi. U bola yoki katta inson uchun yozmaydi, balki inson uchun va inson komil bo‘lmog‘i uchun bir mayoqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n ikkinchi tom. Lisonut-tayr. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” , 1996

2. Sirojiddinov Sh, Yusupova D. Navoiyshunoslik. Toshkent: Tamaddun, 2018.

3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. To‘qqizinchi jild. – T.: Fan, 2011.

MUQIMIYNING NAVOIY G‘AZALIGA BOG‘LAGAN BIR MUXAMMASI XUSUSIDA

Jo‘rayeva RAMZIYA
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
(O‘zbekiston)

Ma’lumki, Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari ijodida tatabbu’navislik o‘ziga xos o‘rin egallagan. Bunda shoir tatabbu’ uchun tanlagan g‘azalning mazmun-mohiyati, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlaridan kelib chiqib, vazn ko‘rsatkichlarini saqlagan holda yangi misralar qo‘shadi. Tatabbu’lar ko‘proq musammatlar ko‘rinishida bo‘ladi. Muqimiy, asosan muxammas ko‘rinishida bir qator shoirlarning g‘azallariga tatabbu’lar bog‘lagan. Salaflari qatori Muqimiy ham buyuk ijodkor Alisher Navoiyning “Gul”, “Kerak”, “O‘lturg’usi”, “Qilmading”, “Deb”, “Topmadim” radifli hamda “Ey jamoling lolazoru ko‘zlaring ohu bara” deb boshlanuvchi yettita g‘azaliga tatabbu’ bog’lagan. Mazkur tatabbu’larning beshtasi shoirning “Asarlar”(Nashrga tayyorlovchi G‘.Karimov) to‘plamining birinchi jildida, ikkitasi esa “Biz bilmagan Muqimiy” (Nashrga tayyorlovchi Q.Pardayev) to‘plamidan o‘rin olgan. Biz mazkur maqolada filologiya fanlari doktori (DSc) Q.Pardayev tomonidan aniqlanib, jamoatchilikka taqdim etilgan “Topmadim” radifli g‘azalga bog‘langan muxammasini tahlil qilishga harakat qildik. Muxammasning mazmuni Navoiy g‘azali baytlariga mos keluvchi jumlalardan tuzilganligi o‘quvchiga yaxlit bir asardek taassurot uyg‘otadi:

Dahr bo‘stoni aro sarvi ravoni topmadim,
Aytura rozi nihonim rozdoni topmadim,
Ko‘ksumi qildim nishon abri kamoni topmadim,
Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim,
Jon base qildim fido oromi joni topmadim.

Navoiy mazkur birinchi baytda “mehr” hamda “mehribon” kabi asosdosh so‘zlarini qo‘llash orqali ishtiqoq badiiy san’atini hosil qilgan bo’lsa, Muqimiy “rozi nihonim” va “rozdon” so‘zlari orqali o‘ziga xos tarzda badiiylikni yanada to‘ldiradi.

Ongladim bir harf qolmay davri gardun qissasin,
Yak ba yak takror qildim olami dun qissasin,
Ko‘p eshitdim Layliyu Uzro u Shirin qissasin,
Ko‘p o‘qudim Vomiqu Farhod, Majnun qissasin,
O‘z ishimdan bulajabroq dostoni topmadim.

To‘rtinchi bandda g‘azalning toq misrasidagi “qissasin” so‘zini qofiya qilib emas, radif sifatida qo‘llaydiki, bu Muqimiyning mazkur so‘z qofiyadoshlarining mazmuni she’rning umumiy mazmunidan uzoq ekanligini anglaganidan dalolat beradi. Bandning qofiyasi sifatida “Majnun” so‘ziga mos ravishda “gardun”, “olami dun”, “Shirin” kabi lug‘aviy birliklar tanlangan. “Shirin” qofiyasi ohang tomondan biroz nomuvofiqroq ko‘rinsa-da, Navoiy keltirgan adabiy qahramonlar nomi bilan uzviy bog‘lanib, “laffu nashr” badiiy san’atini hosil qilganligi, bu orqali ma’no mukammalligini ta’min etgani bilan ahamiyatli.

Juz jafoni sandin, ey to‘ti maqolim ko‘rmadim,
Va’da qilding bir vafo, ey navniholim ko‘rmadim,
G‘ayri bedodu sitam neku fiolim ko‘rmadim,
Husni mulki ichra sandek shohi zolim ko‘rmadim,
Ishq kuyida o‘zimdek notovoni topmadim.

Keyingi bandda ham toq misra oxiridagi “ko‘rmadim” so’zi radif sifatida olingan. Navoiy ta’riflagan “shohi zolim” obrazi haqidagi bayt Muqimiy tomonidan “g‘ayri bedodu sitam” ko‘rgan oshiq ahvolini bayon etish bilan izohlanadi.

Umrlardur yor vaslining gadoyigacha men,
Ko‘rmadim g’ayr oz jafo mehri vafoyi garchi men,
Bo‘lmadim hargiz Muqim g‘amdin rohoyi garchi men,
Ul omon ichida bo‘lsun, ey Navoiy, garchi men,
Bir omone bor, mehnatdin omone topmadim.

Navoiy tomonidan ma’shuqaning omonligidan oshiqning mamnunligi, unga boshqa huzur-halovat kerak emasligi ta’kidlanadi. Muqimiy esa, oshiqning ma’shuqa vaslini gadosi ekani, mehr-u vafo ko‘rmagani bilan she’r mazmuni to‘ldiriladi. Shoir Navoiy taxallusidan keyin qo‘llangan “garchi men” ifodasini radif sifatida qo‘llab, Navoiy so‘ziga qofiyadosh “gadoyi”, “vafoyi”, “rohoyi” kabi original qofiya tizmasidan foydalanadi. Joriy nashrda mazkur

bandning birinchi misrasi “Umrlardur yor vaslining gadoyigacha men” tarzida qo‘llanilishi vazn saktaligiga hamda mazmunning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Ushbu misra “Umrlardur yor vaslining gadoyi garchi men” sifatida o‘zgartirilsa, band ohangdorligi hamda mazmunning to‘liq tushunilishini ta’minlagan bo‘lar edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, so‘z san’atkori Alisher Navoiy g‘azalida ilgari surilgan fikr Muqimiy misralari bilan boyitilgan. Imkon qadar g‘oyaviy-badiiy tomondan ergashilgan. Navoiy o‘z davrininggina emas, balki o‘zidan keyingi barcha ijodkorlarning ustozi bo‘lganligini ta’kidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muqimiy. Asarlar to‘plami. (Nashrga tayyorlovchi: G‘.Karimov). – T.: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, I tom, 1960.

2. Qobilova Z. Muqimiy va Amiriy. Monografiya. Farg‘ona: “Farg‘ona”, 2020.

3. Pardayev Q. U. Muqimiy she’riyatining matn tarixi, tahriri va talqini: Filol. fan. d-ri ... diss.– T., 2020.

4. Pardayev Q. U. Biz bilmagan Muqimiy . – T., 2019.

“G‘AMDIN AYLARLAR ERANLAR SHODLIG‘...”

Nasiba JO‘RAQULOVA
ToshDO‘TAU

O‘zbek mumtoz adabiyotidagi komil inson obraziga xos bo‘lgan insoniylik xislatlarini er va eran istilohlari sharhida berilgan xususiyatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Asli turkiy so‘z bo‘lgan er va eran tushunchalari badiiy adabiyotda betakror obraz bo‘lishi barobarida ilmiy asarlarda ham o‘ziga xos izohga ega. Hazrat Navoiyning bebaho merosi, xususan, “Lison ut-tayr” tadqiqi o‘laroq, er va eran obrazlarining ibratomuz jihatlariga duch kelishimiz mumkin. Er va eran istilohlarining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratilganda, eran er so‘zining ko‘plik shakli degan ta’riflarga duch kelamiz. Mahmud Qoshg‘ariy “Eran-erlar, erkaklar. Ba’zan ko‘plik shaklida shunday qo‘llanadi ”[Qoshg‘ariy,2017:43], deb aytib o‘tadi, ammo bu holning qoidaga xilofligiga ham e’tibor qaratadi. Tasavvufshunos turk olimi, professor Suleyman Uludag‘ “Tasavvuf terimleri so‘zlug‘u” asarida eran kalomiga avliyo, yo‘l oxiriga yetgan, komil inson, ahli vusul, deya ta’rif beradi.[Uludag‘,1995:45]. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida eranlik sifatlari haqida shunday yozadi: “Eranlar hollari suratin yoshurubturlar va malomat suratida na’li bozguna urubturlar va zohirlari binosin buzubturlar va botinlari asosin tuzubturlar. Qazodin ne kelsa o‘zlarin rizog‘a yosobturlar va olam ahlining qotig‘ ranj irik malomatig‘a chidabdurlar ”. [Navoiy,1998:46].

Alisher Navoiy ijodida har qanday umuminsoniy masala asosli yechimini topganidek, bu tushunchalar ham insoni komillik g‘oyalari mukammalligini o‘zida jamlagan timsol vazifasini o‘tagan:

Yo‘l g‘ami kelmish eranlarning ishi,
Yo‘lda g‘amsizni kishi demas kishi.
G‘amdin aylarlar eranlar shodlig‘,
Bu muqayyadlig‘ durur ozodlig‘ [Navoiy, 1991:157].

“Lison ut-tayr” da eranlik fazilatlari qushlar ma’nan yo‘l tadorigida qat’iy turib, ilmu irfon talabiga ehtiyoj sezganlaridagina bayon qilina boshlaydi. Sababki, Eranlar shu yo‘l fidoiylari, ibratga

loyiq fazilat sohiblari. Ularning irfoniy idrok talabidagi qarashlarida asosiy o‘rinni g‘am-g‘ussa, iztirobli dard egallaydi. Zamon bilan hamnafas umr kechirgan, faol ijtimoiy hayot tarafdori bo‘lgan, har bir ilhomi zamirida to‘g‘ri yashash qonun-qoidalarini mujassam aylagan hazrat Navoiy inson kechmishining asosini kishi yelkasini og‘ir yukdek bosib turuvchi, mukarramlik darajasini tuproq bilan qorishtiruvchi hislar tashkil qiladi, degan fikrda bo‘lganmikin? Chunki ichki dard, surunkali bezovtalik inson ko‘nglini xiralashtirib, maishiy turmush tashvishlari bilan andarmon qilib qo‘yadi. Unda yuqoridagi bayt qanday mazmun-mohiyat kasb etadi?

“Boshig‘a quyub hidoyat tojini, qismati aylab sharaf me’rojini” [Navoiy,1991:19], deya insonning azizu mukarramligini tasdiq etgan Navoiy odamiylikni toj qilgan eranlar g‘amini ta’rifu tavsif qilib beradi. Bu dunyo asli g‘am maskani, lekin uning turlari bisyor. Har bir kishining o‘z mushohada darajasiga ko‘ra iztirob deb hisoblaydigan hislari mavjud. Kimdir boylik qayg‘usida, kimdir obro‘-e’tibor, amalga minish tashvishi bilan band. Omonat qilib berilgan umr yo‘llarida faqatgina bir g‘ussa borki, u mangulikka dahldor, ko‘ngil xotirjamligiyu, o‘zlikni anglash mohiyati bilan egizak. Bu g‘am inson nomiga loyiq sanalish muddaosi tomon olib boradigan, ma’nan yetuklik sari intilish uchun zarur bo‘lgan iztirobdir, Allohni tanish yo‘lidagi harakatdir. Umr mazmuni aslida shu emasmi? Havoyi nafs bandasiga aylanib, sinov uchun berilgan hayotni kunpayakun qiladigan tutqunlik aynan shu g‘am-g‘ussadan uzoqlashish natijasida paydo bo‘lishi bor gap-ku. Eranlar bu olamdagi har qanday bandilikdan uzila olgan, ozodlikni Alloh Taologa itoatda deya fikr yuritadigan piri komildir. Shu ma’noda ulug‘vor xislatlarni o‘zida mujassam qilgan Eran obrazini chuqur tadqiq qilish bugungi kun uchun g‘oyatda muhim.

Eran er so‘zining shunchaki shakliy ko‘pligi emas, mardlik, jasorat, himmat, tavozu, rizo, sidq, sabr-qanoat, hilm va muruvvat kabi xislatlarni o‘zida mujassam aylagan mo‘min inson er, sayri suluk yo‘liga kirib, darajama-daraja yuksalib, ilohiy maqomga erishgan, faqru fano jomidan may sipqorgan foniy inson esa eranlardir. Bu bilan er va eranlik ayricha ma’no kasb etadi degan fikrdan umuman yiroqmiz. Bu ikki istilohning asosi bir, faqatgina

er yuksalish asnosida eranlik darajasiga erishadi. Hazrat Navoiyning ushbu fikrlari ham shu to‘xtam uchun asos vazifasini o‘taydi: “Eranlar xizmatig‘a ulki umrin sarf etar, agarchi umri ketar, ammo jovid umrig‘a yetar. O‘zungni bu zumradin yiroq tutma, boshing borsa bu muddaoni unutma. Umr foniydur bevafo, ul boqiy hayot mujibi baqo.

Eranlar xizmatidin chekmagil bosh,
Agar boshingga gardundin yog‘ar tosh.
Ki, gar ul tosh bila boshing ushalg‘ay,
Saodat xattidur gar zaxmi qolg‘ay ”. [Navoiy,1998:87].

Aytmoqchi bo‘lganimiz, Er va Eranlik xislatlari, ayniqsa, bugungi yoshlar tarbiyasi uchun ham nihoyatda ibratli. Zero atoqli navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul ta’rifi bilan aytganda: “Eranlarning ma’naviy-axloqiy harakati va holatlari odamni xomlik, g‘ofillik hamda katta-kichik gumrohliklardan qutqazadi”.[www.kh-davron.uz.]. Biz yosh avlod ongiga, avvalo, jasorat, O‘zidan o‘zgaga muhtoj bo‘lmaslik tuyg‘ularini singdira olsak, o‘ylaymanki, fe’li qusurlik, maddohlik illatlariga, yengil-yelpi hayot kechirish fojeasiga biroz chegara qo‘ygan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. G‘afur G‘ulom.- T.: 1991.
2. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘ati-t-turk. G‘afur G‘ulom.- 2017.
3. Uludag‘ S. Tasavvuf terimleri so‘zlug‘u. Marifet.-I.:1995.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Mahbub ul-qulub. Fan.-T.:1998.-B.302.
5. www.kh-davron.uz. Haqqulov I. Navoiy she’riyatida Er va Eran obrazi. 22.03.2019.

NAVOIY AN’ANALARI CHARXIY IJODIDA

Mahliyo JO‘RAYEVA
ToshDO‘TAU

Ulug‘ mutafakkir, shoirlar shohi Nizomiddin mir Alisher Navoiy o‘zining shoh asarlari orqali dunyo xalqlari, xususan, turkiy xalqlar adabiyotida yuksak pog‘onaga ega. Ko‘plab ijodkorlar Navoiy dahosiga bo‘lgan hurmat va muhabbatini ulug‘ shoirga atab yozgan nazmiy va nasriy asarlari orqali ifodalab kelgan. Xuddi shunday ijodkorlardan biri XX asr o‘zbek she’riyatining yorqin namoyondasi Asqarali Hamroali o‘g‘lidir. Charxiy taxallusi bilan asarlar yaratgan ijodkor 1900–1979-yillarda yashab ijod etgan. Shoirning “Shirin va achchiq”, “She’rlar”, “Alixo‘ja va Xo‘jaali”, “Devon” nomli kitoblari chop etilgan. Shoir Charxiyning “Qalam mustazodi”, “Navoiyga” mustazodlari mavjud bo‘lib, 1972-yilda nashrdan chiqqan “Devon”idan o‘rin olgan. Uning ustoz shoir Navoiyga atab yozgan mustazodi quyidagi baylar bilan boshlanadi:

Ey, muhtaram ustoz Navoiy, dilu jonsiz,
Maqbuli zamonsiz.
Siz ko‘zu ko‘ngullarga ziyobaxsh chu xurshid,
olamga ayonsiz.

Navoiy o‘zining “Mezon ul-avzon” asarida mustazodning vazni haqida quyidagicha fikr yuritadi: Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt boshlab bitib, aning misraidin so‘ngra, hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag‘amotig‘a rost keltirurlar emish va ani “mustazod” derlar ermish. Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, mustazod *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* vaznida yozilishi lozim. Charxiy mustazodi ham ushbu talabga amal qilgan holda *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf*da bitilgan. Ya’ni:

Ey, muhtaram ustoz Navoiy, dilu jonsiz, (a)
– – ∨/∨ – – ∨/∨ – – ∨/∨ – –
Maf’uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun
Maqbuli zamonsiz.(a)
– – ∨/∨ – –

Maf'uvlu fauvlun

Siz ko'zu ko'ngullarga ziyobaxsh[i] chu xurshid,(b)

– – ∨/ ∨ – – ∨/ ∨ – – ∨/ ∨ – –

Maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun

Olamga ayonsiz.(a)

– – ∨/ ∨ – –

Maf'uvlu fauvlun

Yoqubjon Is'hoqov "So'z san'ati so'zligi" kitobida mustazodda so'zlarning o'zaro qofiyalanishi xususida shunday deydi: "Birinchi baytda misra bilan misra va orttirma qismlar o'zaro qofiyalangan. Keyingi baytlarning ikkinchi misralari matla'dagi misralar bilan, orttirilgan qismlar esa orttirmalar bilan qofiyalanib boradi". *Navoiyga* mustazodida esa ushbu qoidaga rioya qilinmagan. Matla'da birinchi misra bilan orttirmalar qofiyadosh, ikkinchi misrada qofiyadosh so'z keltirilmaydi (jonsiz, zamonsiz, xurshid, ayonsiz). Qolgan baytlarda misralar turli xilda qofiyalangan. Har bir baytda ikkinchi misra orttirmalari matla'dagi orttirmalar bilan qofiyadosh. Mustazodda Charxiy Navoiyni ulug' ustoz deb ko'klarga ko'taradi. Navoiy "Xamsa"sidagi qahramonlar: Farhod, Shirin, Layli va Majnun, shuningdek, "Lison ut-tayr" dostonlari tilga oladi. Ularni yaratishdagi shoir mahoratiga tahsinlar o'qiydi. Va nihoyat, maqta'da shoir Navoiyga biz kabi izdoshlaringiz bor ekan, butun jahon bor ekan, siz ham bor va omonsiz deb ta'kidlaydi.

Buyuk shoir Alisher Navoiy an'anlarini davom ettirib, u yaratgan g'azallarga o'z zamonasida ham, keyingi asrlarda ham juda ko'plab ijod ahllari taxmis bog'lab, muxammaslar yaratgan. Zamondoshlari qatorida Charxiy ham, Navoiyning ikkita g'azaliga muxammas bog'lagan. **Muxammas** (ar.:"beshlik") – har bandi besh misradan iborat she'r shakli, qofiyalanishi: a-a-a-a-a, b-b-b-b-a,… tarzda bo'ladi. Muxammas yaratilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) *tab'i xud* – mustaqil muxammas: mustaqil yaratilgan beshlik (dastlabki namunasi Hofiz Xorazmiy devonida uchraydi); 2) *taxmis* – g'azal baytlarining oldidan uch misradan orttirish orqali hosil qilingan muxammas. Ushbu muxammas turida taxmis muallifi o'zga, ba'zan o'z g'azalini asos qilib oladi va g'azalning mavzusi, vazni, qofiya va radifini saqlab qolgan holda, taxmis bog'langan g'azal muallifi

ijodiy an’analarini davom ettirib, muxammas yaratadi. Quyida Asqarali Charxiy tomonidan Navoiyning *mubtalo* radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmisi birinchi bandini ko‘rib chiqamiz:

Charxiy:

Zor[i] ko‘nglum naylayin bir mahliqog‘a mubtalo,
Ko‘zˆuning husnig‘a-yu, ko‘ksim yarog‘a mubtalo,
Tongˆemaskim, nay kabi bo‘lsam navog‘a mubtalo,

Navoiy:

Vahki, bo‘ldim ishqˆaro bir bevafog‘a mubtalo,
Bo‘lmasin ahli vafo bundoq balog‘a mubtalo.

Ushbu muxammas Charxiyning 1972-yilda chop etilgan *“Devon”*idan o‘rin olgan. 128–129-sahifalarda joylashgan. G‘azal esa Navoiyning *“Favoyid ul-kibar”* devoni tarkibida 32-raqam ostida joylashtirilgan. ***Mubtalo*** radifli g‘azali *ramali musammani mahzuf (−∨− −/ −∨− −/−∨− −/−∨−)* vaznida bitilgan bo‘lib, Charxiy ham muxammasida aynan g‘azal vaznini saqlab qolgan. Shuningdek, Muxammas yaratishda XX asr ikkinchi yarmi shoirlari ijodida ramal bahri faol hisoblanadi. Ramal bahri o‘lchovlari orasida esa *ramali musammani mahzuf (maqsur) (−∨− −/ −∨− −/−∨− −/−∨−(~))* vazni muxammas yozishda yetakchilik qiladi. Navoiy g‘azali to‘qqiz bayt, Charxiy muxammasi sakkiz banddan iborat. Qofiyalanishi a-a-a-a-a, b-b-b-b-a… tarzda. Matla’da radif “mubtalo” so‘zi bo‘lib, dastlabki olti bandda radif qo‘llangan, yettinchi va sakkizinchi bandlarda radif qo‘llanmaydi. Qofiyadosh so‘zlar *mahliqog‘a, yarog‘a, navog‘a, bevafog‘a, balog‘a.* Raviy ***“o”*** cho‘ziq unlisidir. Asqarali Charxiyning ustoz Navoiy an’anasini davom ettirganini shunda ko‘rish mumkinki, g‘azalda Navoiy mujarrad qofiyaning birinchi ko‘rinishidan foydalangan, ya’ni raviy cho‘ziq unlidan iborat va ochiq bo‘g‘in bilan tugaydi: *bevaf**o**g‘a, bal**o**g‘a,* muxammasda ham *mahliq**o**g‘a, yar**o**g‘a, nav**o**g‘a,* qofiyadosh so‘zlari orqali bu an’ana davom etirilgan. G‘azal mavzusi orifona bo‘lib, mavzu muxammasda ham davom etgan.

Charxiy Navoiyning “O‘n sakiz ming olam” deb boshlanuvchi g‘azaliga ham taxmis bog‘lagan. Muxammas to‘rt banddan iborat, g‘azal esa yetti baytdan tashkil topgan. Charxiy o‘z muxammasida g‘azalning dastlabki uch baytidan hamda maqta’sidan foydalangan.

Birinchi bandda g‘azal matla’sidagi misralar o‘rnini almashtirib qo‘llagan, ikkinchi baytning birinchi misrasiga o‘zgartirish kiritgan, qolgan ikki bayt o‘z holicha qo‘llangan. Muxammas vazni g‘azalniki kabi *ramali musammani mahzuf (maqsur) foilotun/foilotun/foilotun/foilun(foilon) (−∨− −/ −∨− −/−∨− −/−∨−(~))*. Oxirgi bandi *ramali musammani maqsur*da. Qofiyalanishi: a-a-a-a-a, b-b-b-b-a…. Har bir misra qofiyadosh so‘zlar bilan tugagan, radif keltirilmagan. G‘azal mavzusi oshiqona va muxammasda ham mavzu davom ettirilgan. Quyida muxammasning birinchi bandini misol tariqasida keltiramiz:

Charxiy:

Baxtu tole to abad bu dilbarim qoshindadir,
Ko‘zu ko‘ngul hayrati ham husnu naqqoshindadir,
Yor[i] vasli istamak ishq[ˆ] ahli bardoshindadir,

Navoiy:

Ne ajabkim sarvinozim o‘n sakkiz yoshindadir,
O‘n sakkiz ming olam[ˆ] oshubi aning boshindadir.

Ushbu banddagi qofiyadosh so‘zlar: *qoshindadir, naqqoshindadir, bardoshindadir, yoshindadir, boshindadir*. Raviy ***“sh”*** undoshi. Yuqorida keltirilgan muxammas Charxiyning 1972-yilda chop etilgan “Devon”idan o‘rin olgan bo‘lib, 132-sahifada joylashgan. Sarlavhasi “Bardoshindadir”. Taxmis bog‘langan g‘azal esa hazrat Navoiyning *Badoye ul-vasat* devonidagi 156-g‘azal. Muxammasning birinchi bandini tahlilga tortsak: bandda shoir yor vasfini keltiradi. Dastlabki uch misrada shoir baxt va omad bul go‘zalga doim yor ekanligi, yorning shu qadar go‘zalligidan ko‘zlar-u ko‘ngillar hayratda ekanligini va yor vasliga yetmoqlik uchun ishq ahli bardoshli bo‘lmog‘i lozimligini aytib, o‘ziga ham bardoshliroq bo‘lishni tilaydi. Ijodkorning to‘rtinchi va beshinchi misralar o‘rni almashtirib qo‘llashi ham bejiz emas. Misralarda bu go‘zal sarvinoz ne tongki, o‘n sakkiz yoshda va shuncha yosh bo‘lishiga qaramay butun o‘n sakkiz ming olamning oshublari – g‘avg‘olari haqidagi tasavvurga ega ekanligi shoirni hayratga soladi. Alisher Navoiy idealidagi insonning, mumtoz mahbubaning yetukligi shu darajadaki, uning boshida nafaqat mazkur ”o‘n sakkiz ming olam oshubi” haqidagi tasavvur, balki ana shu oshub, ana shu g‘alayon

bor. Ushbu ikki misra birinchi bandga xulosa yasab berishi bilan birga butun muxammasga debocha hamdir.

Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan muxammaslar Charxiy “Devon”ining 1972-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyotida chop etilgan nusxasida mavjud, ammo 2010-yilda “Akademnashr”da chop etilgan nusxasida keltirilmagan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan, shoirning hayot yo‘llarini va ijodiy olamini o‘rgangan, shoirga atab she’riy va nasriy asarlar yaratgan, uning g‘azaliyot an’anasiga ergashib g‘azallariga taxmis bog‘lagan ijodkorlar har bir davrda uchraydi. Asqarali Hamroali o‘gli (Charxiy) ham ana shunday ijodkorlardan biri edi. Charxiyning Navoiyga bag‘ishlab yozgan mustazodi va ustoz shoir g‘azallariga taxmis bog‘lab yaratgan muxammaslari bilan qisqacha tanishib chiqdik. Navoiy merosi bir ummon bo‘lsa, ana shu ummonga sho‘ng‘ib, ulkan xazinalar izlagan ijodkorlar ichida Asqarali Charxiy ijodi ham sir-sinoatlarga boy va o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzulardan biridir.

ALISHER NAVOIY ISKANDARNING YOSHI HAQIDA

Ilyos ISMOILOV
ToshDO‘TAU

Alisher Navoiy o‘z ijodida Iskandar Zulqarnayn obrazining imkon qadar tarixiy ildizlariga yaqin borishga intilgan. Navoiy Iskandar obrazini turli rakurslarda talqin etar ekan hamisha yanglishishlardan ehtiyot bo‘lishga harakat qiladi va imkon qadar tasvirlayotgan obraziga oid badiiy talqinlarining tarixiy haqiqat bilan muvofiq bo‘lishiga erishgan. Navoiy o‘z asarlarida Iskandarning nasabi masalasidan so‘ng qaharamon hayotining yana bir muhim jihati – yoshi haqida ham to‘xtalgan.

Alisher Navoiyning fikricha, Iskandar 36 yil yashab, 13 yil hukmronlik qilgan *[Tarxdan ma’lumki, Aleksandr Makedonskiy (356-yil 20 (21)iyul —323-yil 10 -iyun) ham juda qisqa – 33 yil umr ko‘rgan va 20 yoshida taxtga chiqib, qisqa davr (13 yilda) juda katta ishlarni amalga oshiradi]*. Nizomiy Ganjaviy Iskandarning podsholik davrini aniq ikki qarn desa, Xusrav Dehlaviy Iskandar hukmronligi davrini 500 yildan ortiqroq ekanini aytgan. Navoiy “Saddi Iskandariy”da Ajam shohlarining to‘rt sulolasi jami 4336-yil-u 10 oy hukmron bo‘lgani, biroq Iskandarning oz vaqtda (!) ulardan ko‘proq ish qilganini aytadi [1, 1262]. Bu haqida “Tarixi muluki Ajam”da shunday deydi: *ammo maholdurkim, o‘n uch yilda ul qilg‘an ishcha qilsa bo‘lg‘ay... Va faqir «Saddi Iskandariy»da ul iki buzurgvor (Nizomiy va Dehlaviy – I.I.) qavlini soyir muarrixlar aqvolig‘a tarjih qilib, nazm adosig‘a qaror beribmen. Har taqdir bila Iskandar podshohe erdikim, andin burung‘i va so‘ngg‘i salotin bu kungacha ul qilg‘on ishni qilmadilar* [2, 618]. Yuqorida Navoiyning Nizomiy va Dehlaviy so‘zlarini tarixchilar bergan ma’lumotlarga solishtirib, doston tasvirida haqiqatga yaqinini tanlashi e’tiborga molik. Bu Navoiy “Saddi Iskandariy”ni yozishda Nizomiy, Dehlaviylarning dostonlari bilan batafsil tanishish, Jomiy bilan shaxsan maslahatlashishidan tashqari ular bergan ma’lumotlarni tarixiy asarlar bilan solishtirib chiqqani, ularni haqiqatga yaqinlik darajalariga ko‘ra saralab, ana shu asosda dostonga kiritganini

tasdiqlaydi. Demak, u bu borada hech qanday masalaga ko‘r-ko‘rona yondashmagan, aksincha, zarur deb hisoblagan o‘rinlarini o‘zgartirgani, ularni tarixiy-hayotiy hamda adabiy mantiq asosida yangilab borgan.

Ma’lumki, “Farhod va Shirin” dostonining xotimasida shahzoda Abulfavoris Shohg‘aribga nasihatlari mavjud. Unda Iskandarning yoshiga oid qiziq ma’lumot qayd etiladi*:* *Sikandar topti chun ilm-u hunarni,*

Ne yanglig‘ oldi ko‘rgil bahr-u barni...

Iki ming yil o‘tub yuz ming xiradmand,

Bo‘lub hikmatlari birla barumand [3, 629].

Ikkinchidan, baytdagi “2000 yil”ni aniq fakt sifatida qabul qilsak, bizga Navoiyning 1441 – 1503-yillar oralig‘ida yashagani ma’lum, “Farhod va Shirin” dostoni esa 1483-yil yozilgan. Navoiy agar o‘zi yashagan davrni nazarda tutib, yuqoridagi ma’lumotni bayon qilgan bo‘lsa, Iskandarni milloddan avvalgi IV – V asrlarda yashagan deb bilishi ma’lum bo‘ladi. Tarixdan ma’lumki, Aleksandr Makedonskiy millodan avvalgi 356 – 323-yillarda yashagan, bu IV asrga to‘g‘ri keladi va Navoiyning XV asrda yashagani inobatga olinsa, mutafakkirning Aleksandrdan to o‘ziga qadar o‘tgan davr – ikki ming yilni to‘g‘ri ko‘rsatgani ayonlashadi. Demak, mazkur dalil Navoiy tasvirlagan Iskandarning tarixiy Aleksandr Makedonskiy bilan bevosita bog‘liqligi va bunga Navoiyning ongli yondashganini ko‘rsatadi. Shu bois Navoiyni Aleksandr haqida bilmagan deyish u qadar to‘g‘ri emasga o‘xshaydi. Muhimi, Navoiy Sharqdagi Iskandarga oid asl manba va manshalarning tarixiy Aleksandrga olib borishini yaxshi bilgan, ammo bu fikrga tayanib Aleksandr va Iskandarni aynan bir shaxs sifatida tushunish o‘zini oqlamaydi. Zero, Sharqdagi Iskandar g‘arbdagi Aleksandrning tegishli tarixiy-adabiy o‘zgarishlarga – transfarmatsiyaga uchragan obrazi bo‘lib, ularni o‘zaro qiyoslash tarixiy Aleksandrning qanday qilib Iskandarga aylangani, bu jarayondagi shakliy va mazmuniy o‘zgarishlar darajasi hamda ko‘lami, maqsad va vazifalarini belgilash, turli xalqlar mafkuralari sintezini aniqlash nuqtayi nazaridangina to‘g‘ri bo‘ladi.

Zero, iskandarnomalar qaysi xalqda mavjud bo‘lsa, o‘sha xalqning milliy tafakkurini o‘zida tashigan va qaysi davrda mavjud

bo‘lsa, o‘sha davrning yetakchi mafkurasini o‘zida mujassam qilgan. Shu ma’noda Firdavsiy iskandarnomasini Firdavsiy zamoni, makonidan alohida tadqiq qilish va tekshirish to‘g‘ri talqinga imkon bermagani kabi, Nizomiy, Dehlaviy va Navoiylarni ham mazkur nuqtayi nazardan kelib chiqib o‘rganish maqsadga muvofiq. Masalan, Firdavsiyda Iskandar obrazining tasavvufiy talqini, tasavvufiy masalalar tasviriga deyarli duch kelmaymiz. Bu hol “Shohnoma”ni yozishda ko‘zlangan ijodkor mafkurasi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Biroq Dehlaviy tasavvufning klassik davrida ijodi qildi, Ahmadiy, Jomiy va Navoiylar tasavvufning ta’sir doirasi kuchli bo‘lgan adabiy muhit vakillari edi, shu bois ularning iskandarnomalarida davrning mazkur mafkurasi kuchli aks etgan, balki yetakchi mavqe qozongan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий Алишер. Садди Искандарий. – Т.: ФАН, 1958.
2. Навоий Алишер. Тарихи мулуки Ажам. 10 жилдлик. 8-ж. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2011.
3. Навоий Алишер. Фарҳод ва Ширин. – Т.: ФАН, 1958.

ALISHER NAVOIY ASARLARINI TUSHUNISH SARI

Fayzulla ISKANDAROV
ToshDO‘TAU

Buyuk bobomiz asarlarini o’rganishda, tadqiq etish va talqin qilishda butunlay yangicha yondashuvlar davr talabiga aylandi. O’tgan yillardagi qilingan ishlar samarasi o’laroq, shoir ijodini faqat duyoviylik yoki qanaqadur g’arbona adabiy oqimlar vositasida o’rganib asl maqsadga, haqiqiy mohiyatga yetib bo’lmasligiga bugun hammamiz amin bo’layapmiz. Shoir asarlarini asosini islom ta’limoti va falsafasi, manbasini Qur’oni karim va Hadislar asosida o’rganish, asarlarining talqin etishda tasavvuf ta’limotiga tayanish lozimligi isbotsiz teoremaga aylandi. Bu o’z navbatida shoir asarlaridagi zulma’nolikni har xil rakursda ochishga xizmat qilish bilan birga, Navoiyni tushunish sari qo’yilgan eng to’g’ri yo’l ekanligi olimlarimizning so’nggi tadqiqotlarida o’z tasdig’ini topyapti.

Navoiyshunoslik tarixiga nazar soladigan bo’lsak, XX asrning yigirmanchi yillaridan boshlab Navoiy ijodiy merosiga bag’ishlangan ko’plab ilmiy maqolalar e’lon qilingan, tadqiqotlar amalga oshirilgan. Abdurauf Fitrat, Ye.E.Bertels, O.Sharafiddinov, S.Ayniy, Oybek, M.Shayxzoda, H.Sulaymon, P.Shamsiev, V.Zohidov, Izzat Sulton, V.Abdullaev, N.Mallaev, A.Qayumov, E.Rustamov, A.Rustamov, A.Hayitmetov va B.Valixo’jaevlarning ilmiy ishlari navoiyshunoslikning maxsus yo’nalish sifatida qaror topishida poydevor bo’lib xizmat qilgan bo’lsa, A.Abdug’afurov, S.G’anieva, Yo.Is’hoqov, R.Vohidov, M.Hakimov, E.Shodiyev, B.Akramov singari olimlarimiz shoir ijodini yanada chuqurroq o’rganishga, yangi-yangi qirralarini kashf etishga intildilar. Ammo Navoiyning diniy adabiyotga munosabati, diniy adabiyotlar, xususan “Qur’on” va hadislar shoir ijodining doimiy va muhim manbalari bo‘lgani, o‘z davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’naviy masalalarini ulug‘ shoir ko‘p vaqt shu asarlarga suyanib hal etganligi shu paytgacha deyarli o‘rganilmadi. Navoiy “Nazmul-javohir” asaridagi ruboiylaridan birida “Qur’on”, uni o‘qishning foydasi haqida quyidagi hayajonli satrlarni bitgan edi:

“Qur’on”ki erur mujdai joni o‘qumoq,
Yo‘q, yo‘qki, hayoti jovidoniy o‘qumoq.
Bil ko‘ngulga istasang shifoni o‘qumoq,
Kim keldi ko‘ngul shifosi oni o‘qumoq [Navoiy, 2013:61].

Istiqloldan keyingi yillarda shoir ijodining zohiriy va botiniy ma’nolar uyg’unligida o’rganila boshlanishi, tasavvuf ta’limoti asosida ijodkorning tasavvufiy qarashlarining tadqiq etilishi N.Komilov, I.Haqqul, A.Abduqodirov, Dilorom Salohiy, S.Olim, Sh.Sirojiddinov, K.Mullaxo’jayeva va boshqa olimlar ilmiy ishlarida o’z tasdig’ini topdi. Bugungi kunda bu masala maxsus o’rganilmoqda.

XV asr adabiyotimiz tarixida oltin davr hisoblansa, Navoiy ijodi shu davrning eng yuksak cho’qqisidir. “Xamsa” beshligi esa, shubhasiz, Navoiy ijodining gultojidir. Unda ijodkor butun umri davomida intilgan, hayotining mazmun-mohiyatiga aylangan maqsadlarini, ezgu intilishlari, orzu-istaklarini, “ushoq” she’rlariga sig’magan axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarini epik planda talqin etadi. Navoiy ijodida shunday masalalar ko’tarilganki, ular barcha asarlar mazmun-mohiyatiga singib ketgan. Ana shulardan biri komillik masalasidir. Aynan komillik va komil inson masalalari shoir ijodining jon tomirlaridan biri ekanligiga amin bo’lamiz. Chindan ham, nima uchun?

Komil inson masalasi qadimgi davrdan bashariyatni qiziqtirib, u haqidagi ma’lumotlar va qarashlar og’zaki va yozma manbalarda, mifologiyaga bag’ishlangan asarlarda, mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy merosi va badiiy adabiyotda saqlanib kelgan. Komil inson g’oyasi o’z mohiyat-e’tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o’zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarni to’plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Shuning uchun komillik, komil inson va mukammal jamiyat masalalari insoniyat tarixining uzoq-uzoq davrlariga borib taqaladi. Ular to’g’risidagi tushuncha va tasavvurlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Komillik va komil inson to’g’risidagi fikrlarning evolyutsiyasi, takomillashuvi, uning qanday bo’lishi har bir davrning mahsuli sifatida tuzumning xarakteri, ishlab chiqarish darajasi, davlatni boshqarish uslubi, ilm-

fan va madaniyatning rivojiga bog'liq bo'lgan holda hamisha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Insoniyat o'rta asrlarda har tomonlama har sohada rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bir qancha madaniyatlar rivojlandi, davlatlar paydo bo'ldi, shaharsozlik, ilm-fan yuksak darajada taraqqiy etdi. Ammo insoniyat komillik va komil insonga hamisha ehtiyoj sezib keldi. Ana shunday ehtiyojlar o'laroq dunyo ahli donishlari ushbu masalaga e'tibor qaratib minglab shoh asarlar bitdi. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni ham ana shunday asarlar saralaridandur.

"Alisher Navoiy o'zining o'lmas asarlari bilan o'zbek xalq klassik adabiyotini jahon adabiyoti va umumbashar madaniyati miqyosiga olib chiqqan buyuk shoirdir. Navoiyning "Xamsa"si uning ijodidagi yana bir porloq cho'qqidirki, u yolg'iz o'zbek adabiyotini emas, balki butun Sharq adabiyotining bebaho bezagidir. Shoir bu besh dostonini ikki yilcha qisqa vaqt mobaynida yaratadi. Asarda inson, insoniylik belgilari, "odamiylar odamiysi", ya'ni bugunning tili bilan aytganda, komil shaxs haqida ko'pgina fikrlar uchraydi"[Zohidov, 1960:7].

Ushbu asar XV asrdagi xalqimiz ma'naviy taraqqiyotining ko'zgusi bo'lib, unda o'sha davr turmushi, xalq hayoti, din va diyonat, odob va axloq haqidagi qarashlar o'z ifodasini topgan va o'z navbatida boshqa "Xamsa" lardan farq qilgan alohida xususiyatlardan biri - komillik va komil inson masalasining ustivorligi, badiiy talqindagi novatorlik va poetikadagi navoiyona badiiy mahorat mo''jizasini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning fikricha, "Navoiyning komillik haqidagi qarashlari to'rt ustuvor asosga ya'ni Axloq go'zalligi, qalb tasfiyasi, Ruhiyat qudrati va tafakkur balog'atiga tayanadi". Mutafakkir payg'ambarlar, avliyo va oriflarni, yirik karomat sohiblarini komil insonlar qatoriga qo'shadi. Bunday zotlar doimo xalq g'amida yashaydilar, atrofdagilarga mehr-muruvvat ko'rsatib, beva-bechoralarga yordam beradilar. Butun umr poklanish va Haq yo'lini ixtiyor qilgan kishilar - Barkamol zotlar, insonlarning eng a'losi hisoblanadi. Navoiy uchun insonlarning eng a'losi, komillar komili payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamdir.

"E'tibor berilsa, hazrat Navoiy "Xamsa"ning tarkibidagi har bir asarni Alloh taolloga hamdu sano va munojat bilan boshlab,

keyingi ikki-uch bobni Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning na’tu tavsiflariga, mo’’jizalarining bayoniga bag’ishlagan” [Abdulmajidov, 2015:15]. Ayniqsa, ushbu jarayonga dastlab “Xamsa” muqaddimotlarida duch kelamiz. Dostonning debocha qismini ko’zdan kechirar ekanmiz, an’anaviy hamd va na’tlardan so’ng shoir o’z salaflari – xamsanivislar, shu jumladan, rahnamosi va ustozi hazrat Abdurahmon Jomiyni vasf etadi. Bundan ko’rinadiki, inson uchun o’z idealida intilgan, unga o’xshashga harakat qilgan yohud taqlid qilgani, o’ziga nisbatan komil insonlar bo’ladi. Navoiy uchun ideal inson – komillar komili payg’ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamdir. Bu zot insoniyatni to’g’ri – haq yo’lga da’vat etarkan, avvalo, o’zi o’zgalarga namuna bo’ldi, husn-u xulqdagi go’zalligi, muomala odobi, din-u diyonati, hadislari va surat-u siyrati bilan barchani chin yo’lga boshladi. Bunday zotlarni ulug’lash, uning vasfini bitish bir tomondan, kitob bitish, uni tartiblash bilan bog’liq talablar bo’lsa, ikkinchi tomondan, bu vasflarni yozish jarayonida ijodkor o’zini, dunyoni mukammalroq anglay boshlaydi va bu holatni boshdan kechirishni kitobxonga ham o’tkazadi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Navoiydan chu topqaylar navoe. Hilol-nashr.-T.: 2014.
2. Alisher Navoiy. 10 tomlik, 10-tom. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi. –T.: 2013.
3. Zahidov V. Alisher Navoiy ijodining g‘oya va obrazlar olami. -T.: “Fan”, 1960.
4. Ibrohim Haqqul. Taqdir va Tafakkur. “Sharq”-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. – T.: 2007.

ALISHER NAVOIY HAYOTINI O‘RGANISHDA MANBALARDAN UNUMLI FOYDALANISH

Iroda ISHONXANOVA
ToshDO‘TAU
(O‘zbekiston)

Alisher Navoiy hayot yo‘li barchamiz uchun ibrat maktabi hisoblanadi. Bobokalonimizga hurmat va ehtirom, ta’lim tizimi nuqtayi nazaridan olsak, kichik maktab yoshidan boshlanishi kerak deb o‘ylaymiz. Xo‘sh, umumiy o‘rta ta’lim muassasasi darsliklarida Alisher Navoiy hayot yo‘li haqida qanday ma’lumotlar berilgan? Bu ma’lumotlar buyuk ajdodimiz hayotini nechog‘liq to‘g‘ri va o‘rinli yoritib bera oladi? Kelajak avlod bobokalonimiz haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lishlari uchun yana qanday tarixiy asarlardan va parchalardan foydalansak to‘g‘ri yo‘l tutgan bo‘lamiz? Shu maqsadda maktab darsliklarini ko‘rib chiqdik.

1-sinf “O‘qish” kitobida Alisher Navoiy haqida hikoya qiluvchi “Non isi” rivoyati keltirilgan. Dunyodagi eng xushbo‘y narsani istayotgan Husayn Boyqaroga Alisher Navoiyning maslahati bilan bir savat issiq non keltirishadi, podsho do‘stidan minnatdor bo‘ladi. Bu o‘rinda Navoiyning donoligi va hushyorligi o‘quvchilarga namuna sifatida keltiriladi.

2-sinf “O‘qish” kitobida “El desa Navoiyni” kitobida keltirilgan “Tandir” (“Tandir qurolmagan uy qurolarmidi?”) rivoyati berilgan. O‘z uyini sotmoqchi bo‘lgan yigitni Alisher Navoiy tandir qurish bahonasi bilan fikridan qaytarib, hunar o‘rganishga yo‘llaydi. Bu rivoyat o‘quvchilarga birovning mehnatini va o‘z mol-mulkini qadrlash, barcha ishlarni reja asosida yuritishning foydali tomonlari haqida ma’lumot beradi. Yana ushbu darslikka kiritilgan Abdulla Oripovning “Alisherning onasi” va Xurshid Davronning “Alisher Navoiy” she’rlari ham o‘quvchilarga Navoiy shaxsining naqadar buyukligini isbotlashga xizmat qiladi. Zamira Ibrohimovaning “Kichkina Alisher” hikoyasida Alisherning maktabga borishi va Hirotga qaytishda adashib qolsa ham, yo‘lni topib kelgani voqeasi bayon qilingan.

3-sinf “O‘qish” kitobida adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetovning “Donolarning donosi” matni berilgan. Matnda Alisher Navoiy hayoti haqida ma’lumot keltirish bilan birga, bobokalonimizning “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”, “Harf o‘rgatgan o‘qituvchingni hurmat qilib, haqini uzmoqchi bo‘lsang, xazinalardagi barcha oltinlar bilan ham uzolmaysan”, “Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim…” degan nasihatlari berilgan. Matndan so‘ng Navoiy va uning hikmatlari haqida savol va topshiriqlar berilgan.

4-sinf “O‘qish” kitobida Oybekning “Alisherning bolaligi” asaridan parcha keltirilgan. Unda Alisher jonivorlarga mehribon, harakatchan va zehnli bola sifatida tasvirlangan. Ayniqsa, uning nomidan aytilgan “Ov qilmoq, merganlik – ermak narsa, lekin eng zo‘r zaruriyat maktabdir. Turmushning ko‘p sirlarini maktab o‘rgatadi” yoki “…otam hamisha “Olim odam xor bo‘lmaydi”, – deydilar” singari gaplar yosh Alisherning fazilatlarini ochiq ko‘rsatib beradi. Bu, shubhasiz, 4-sinf o‘quvchilari uchun namuna vazifasini o‘tay oladi. Yana bu darslikda “El desa Navoiyni” kitobidan joy olgan “Yaxshidan bog‘ qoladi” hikoyati ham bor. Hikoyatda kelajak avlod uchun meva beradigan bog‘ barpo qilishga bel bog‘lagan Alisher Navoiy tasvirlangan, uning bu tashabbusi do‘sti Husayn Boyqaro tomonidan munosib taqdirlanadi. Matnda hayotda har kim o‘zidan yaxshi nom qoldirishi kerak degan g‘oya yetakchilik qiladi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy asarlari maktab darsliklariga, asosan, 5-sinfdan boshlab kiritilgan. Buyuk ajdodimiz hayot yo‘lini o‘rganilishi uchun esa 5-, 7-, 11-sinflarda alohida soatlar ajratilgan. Ushbu sinflarda Alisher Navoiy haqida ma’lumot berilgan tarixiy asarlardan parchalar keltirilgan. Masalan, 5-sinf “Adabiyot” darsligida Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridagi mavlono Lutfiyning yosh Alisherga bergan yuksak bahosi e’tirof etilgan parcha keltirilgan.

7-sinf “Adabiyot” darsligida “Vaqfiya” asaridan quyidagi parcha keltirilgan: “Ilgimdin kelganicha zulm tig‘in ushotib (sindirib), mazlum jarohatig‘a intiqom marhamini (qasos malhamini) qo‘ydum. Va ilgimdin kelmaganni ul Hazrat(Husayn Boyqaro) arzig‘a yetkurdim”.[“Adabiyot” 7-sinf uchun darslik, 170-bet] Ushbu parcha aynan asliyatdan keltirilgani ayni muddao deb hisoblaymiz. Chunki

ushbu parchada Alisher Navoiyning davlat ishiga mas'uliyat bilan yondashishi va xalq uchun qanchalik mehribon ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

10-sinf "Adabiyot" darsligida Alisher Navoiy hayoti haqida ma'lumot berilmasa ham, XV asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida ko‘plab ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari Alisher Navoiyning zamondoshlari Zahiriddin Muhammad Bobur, Xondamir, Abdurahmon Jomiy, Rashidiy, Hakimshoh Qazviniylarning fikrlari keltirilgan. Ulug‘larning berilgan fikrlari maktab tizimi uchun yangilik hisoblanadi, chunki bu sitatalar avval uchramagan. 10-sinf "Adabiyot" darsligining yana bir e'tiborli tomoni – Navoiy bobomizning maktab darsliklariga kiritilmagan bir necha asarlari haqida ma'lumotlar berilgan. "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Mufradot", "Muhokamat ul-lug‘atayn", "Sab'ati abhur", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", "Nasoyim ul-muhabbat", "Nazm ul-javohir", "Munshaot" kabilar shular jumlasidandir.

11-sinf "Adabiyot" darsligida Xondamirning "Makorim ul-axloq" asaridan parchalar keltirilgan. Ularda "Xusraviya", "Ixlosiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi qurilishi haqida so‘z yuritiladi, mavlono Lutfiyning e'tiroflari aks etgan parcha ham beriladi. Bu voqeadan 5-sinfda boxabar bo‘lgan o‘quvchi yosh Alisherga ustozi tomonidan berilgan ushbu yuksak bahoni endi bir umr unutmaydi.

Shu o‘rinda yana ikki hikoyat keltirilgan. Birida chumoliga ham ozor berishni istamaydigan Amir(Alisher Navoiy) tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchi hikoyatda o‘z omboridagi bor g‘allasini hech bir g‘arazsiz xalqqa tortiq qilib yuborgan Amir haqida so‘z boradi.

"Hidoyatga erishgan Amir bolalik chog‘laridan umrining oxirlarigacha o‘z barakali vaqtining ko‘p qismini ilm egallash va kamolotga erishish ishiga sarflab, bir lahza bo‘lsa-da turli bilimlarni o‘rganish va har xil ko‘nikmalarni egallashdan tinmadi." ["Adabiyot" 11-sinf uchun darslik, 1-qism, 118-bet]

"… agar ilgarigi davrlarda yashab o‘tgan shoirlar ul hazratning muborak zamonlarigacha yetib kelishganida [va ushbu saodatli zamonni ko‘rishganida] edi, she'r yozadigan daftarlarini yopib, (ya'ni she'r yozishni yig‘ishtirib), dunyoning turli tomonlaridan

uning fazilat makoni bo‘lgan ostonasi tomon shoshilgan bo‘lardilar.” [“Adabiyot” 11-sinf uchun darslik, 1-qism, 119-bet]

Yuqorida keltirilgan fikrlar Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridan olingan. Parchada Alisher Navoiyning naqadar buyuk insonligi va unga nisbatan muallifning cheksiz hurmati aks etgan. O‘rta umumta’lim maktabi “O‘qish” va “Adabiyot” darsliklari tahlilidan shu narsa aniq bo‘ldiki, Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati haqida ko‘plab tarixiy va zamonaviy manbalardan foydalanar ekanmiz. Bu manbalar bizga ulug‘ shoirimiz shaxsiyati haqida mukammalroq ma’lumot olishimizga yordam beradi. Shu o‘rinda ba’zi mulohazalarni ham birdirib o‘tmoqchimiz:

1. Alisher Navoiy hayot yo‘lining o‘qitilishida “El desa Navoiyni” kitobi, shubhasiz, muhim o‘rin tutadi. Biz bu to‘plamdan unumli foydalanishimiz kerak. Masalan, 1-sinf “O‘qish” darsligiga “Alisher va bulbul” rivoyatini kiritish kerak. Navoiy taxallusi tanlanishiga ko‘rsatilgan bu sabab kelajakda ulug‘ shoir ijodini o‘rganish uchun kalit vazifasini o‘tasa, ne ajab? 5-7-sinf o‘quvchilari uchun, nazarimizda “Olib keling!” rivoyati mos tushadi. Rivoyatdagi shoirning topqirligi va do‘stining fe’lini yaxshi bilishi o‘quvchilarni e’tiborli va ziyrak bo‘lishlariga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun “Bosh va til”, “Sharafli burch”, “Haddingdan oshsang mozorga bor!” rivoyatlarining kiritilishi ma’qul tadbirlardan biri bo‘ladi, chunki aynan yuqori sinflarda o‘quvchilar kelajak hayotlari haqida jiddiyroq o‘ylashadi, ularga ibrat bo‘luvchi hikoyatlar qiziqarli va foydalidir. 9-sinf “Adabiyot” darsligiga esa “Shoir jilovdori” rivoyatini kiritish juda zarur, negaki bu sinfda “Xamsa” va xamsachilik an’analari borasida so‘z boradi. Turkiy tildagi “Xamsa”ni tamomlab, taqdim etgan ijodkorni adolatli va adabiyotga chin muxlis bo‘lgan hukmdor o‘z otiga mindirib, jilovdor sifatida shahar ko‘chalarini aylantirgani tinglovchining Alisher Navoiyga va “Xamsa”ga bo‘lgan hayratini oshiradi. O‘quvchi “Farhod va Shirin” dostonidan olingan parcha mutolaasiga jiddiy kirishadi.

2. 10-sinf “Adabiyot” darsligida Alisher Navoiy asarlari haqida juda ko‘p ma’lumot berilgan, ko‘plab zamondoshlarning fikrlari keltirilgan. Masalan, “yig‘lamoq” fe’lining “yig‘lamsinmoq”,

“ingramoq”, “singramoq”, “siqtamoq”, “o‘kurmak” kabi ma’nodoshlari izohlangan. Darslikda yana 3 g‘azal, 4 qit’a va 4 ruboiy matni va tahlillari borligini e’tiborga olsak, Alisher Navoiy hayoti va ijodi uchun 4 soat vaqt ajratilgan 10-sinf o‘quvchisi uchun og‘irlik qilishini his qilamiz. Bizningcha, o‘quvchilarga beriladigan ma’lumotlar ixchamlashtirilsa yoki soatlar miqdori ko‘paytirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

3. Alisher Navoiy hayot yo‘li mavzusidagi darslarda o‘qituvchilar, nazarimizda, faqat darlik bilan cheklanib qolmasliklari kerak. G‘azal mulkining sultoni haqida ma’lumot beruvchi ko‘plab qo‘shimcha adabiyotlardan faol foydalanish mumkin. Masalan, “Navoiy zamondoshlari xotirasida” kitobi. Unda Alisher Navoiyni o‘z hayotida ko‘rib, suhbatlashgan insonlarning fikrlari berilgan. Bu o‘quvchilar uchun juda qimmatli ma’lumot hisoblanadi. Yana bir adabiyot – ustoz Omonulla Madayevning “Navoiy suhbatlari” kitobi. Qo‘llanma aynan o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Alisher Navoiy shaxsi haqida qanday tushuncha berish masalasiga javob berilgan. Shu o‘rinda bir manbani tavsiya qilmasdan o‘tib ketolmayman: Boqijon To‘xliyev va Dilfuza To‘xliyevaning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan albomlari. Unda zaruriy ma’lumotlar va ko‘rgazmalar berilgan. Suratlar ichida eng diqqatga sazovori Navoiy chizgan zanjirband sher rasmi. O‘qituvchi unga, albatta, izoh berishi kerak deb o‘ylayman. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro yozishmalari asosida dunyoga kelgan

“Sarvning soyasida so‘ldi gul, netmoq kerak?
Sarvdin tobut yasab, guldan kafan etmoq kerak”

baytining tarixi yoki Pahlavon Muhammad nomi bilan bog‘liq

“Har qayon boqsam, yuzumga ul quyoshdin nur erur,
Har sori qilsam nazar, ul oy manga manzur erur”

matla’li g‘azali voqeasi, shubhasiz, o‘quvchilarning Navoiy shaxsi va ijodiga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Fikrlarimizga xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy hayot yo‘lini o‘qitishda tarixiy manbalarga qanchalik ko‘p va o‘z o‘rnida murojaat qilsak, kelajak navoiyshunoslarini yetishtirishga o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

NAVOLARDA NAVOIY

Latofat MO‘MINOVA
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
Navfal BOLTAYEV
O‘zbekiston davlat jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Alisher Navoiy “majolis un-nafois”da Pahlavon Muhammad, Hoja Abdulvafoiy Xorazmiy, Hofiz Sharbatiy, Kamoliddin Udiy kabi musiqada ham o‘z iqtidorini namoyon etgan o‘nlab fozillarga xayrixoh bo‘lganini bildiradi. Hazrat Alisher Navoiyning o‘zlari ham musiqa amaliyotida ijod etganlari ba’zi manbalarda yoziladi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da shunday yozadi: “(Alisherbek) yana musiqiyda yaxshi nimalar bog‘labdur. Yaxshi naqshlari va peshravlari bordir. Ham vokal musiqa (naqsh) va ham cholg‘u musiqa (peshrav) bo‘yicha kuylar yaratgan” deb ta’kidlanayotgan Alisher Navoiyning musiqa asarlaridan ba’zilari bizning davrgacha yetib kelgan degan tahmin bor. Jumladan, Abdurauf Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobida “Qari Navo” yoki “Qadri Navoiy” kuyi haqida yozadi: “Bu kuyning juda eski bir kuy ekani har tomonda so‘ylanib turur. Eshitganimizga ko‘ra, Farg‘onada ham “Qari Navoiy” ismli eski bir kuy bor. Toshkent musiqachilari bu kuyni “Qari Navo” derlar. Biroq bu ism yanglishdir. Alar shul “Qari Navoiy” ismini buzib olg‘anlar. Buxoroning eski musiqashunoslarining orasida bu kuy Navoiy asari bo‘lg‘ani so‘ylanadur. Mana shu ma’lumotlardan so‘ng “Qari Navoiy” kuyining Alisher Navoiy asari bo‘lg‘ani ehtimoli kuchlanib qoladur”. Xulosa shuki, “Qari Navo” kuyini Alisher Navoiy bastalagan bo‘lishi ehtimolga yaqinroq. Yana shu kitobda “Alisher Navoiy musiqachilarning nazariy ma’lumotini orttirmoq uchun to‘rt buyuk ustozga to‘rtta musiqiy risola yozdirg‘ani, risolalarni fanning ta’lim yog‘idan yaraliq topmag‘ani uchun, eng so‘ng Mullo Jomiydan so‘rab, “Risolai musiqiy” nomli beshinchi risolani yozdirg‘anini xabar beradi” deb Navoiyning musiqani mukammal tushunishga intilgani, nazariy ma’lumotlarni aynan

mutaxassislardan yoritishini talab qilgandek ko‘rindi nazarimizda. Shu o‘rinda Abdurahmon Jomiy “Risolai musiqiy”da “Hurmatli, mukarram, aziz do‘st (Alisher Navoiy) da’vati” bilan bu asarni yozmoqqa kirishganini va “shu vajdan ushbu nazm”ni keltirishini aytadi:

“Nafs, tan, ilmu jon berding xudovand
Jonlarni tanlar bilan qilib payvand
Agar aytuvchi beparvo desa “tan, tan”,
Ko‘yida ushbu tanlar ayri jondan.
Tani bejonga joy hok bolgani yaxshi,
Tiriklar ulardan pok bo‘lgani yaxshi”

Bu risolaning oxirgi boblari ritm masalalaridan bahs etadi. Jomiyning bu asarida musiqa bilan she’riyatning ritmik asosi bir – biri bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlab o‘tiladi.

Navoiy va Jomiyning ko‘tarib chiqqan masalalari, ularning o‘zlari tomonidan amaliyotda ham ko‘rsatilib, tasdiqlab berilgan edi. Natijada ular she’riyat bilan musiqaning aloqalarini nazariy jihatdan mustahkamlovchi butun bir maktab yaratib berdilar. Bu maktab Navoiy zamonidan boshlab, to bizning kungacha aruzda ijod etgan shoirlar, sozanda, xonanda va bastakorlar uchun muhim maktab bo‘ldi va ulaning badiiy – estetik qobiliyatini tarbiyalashda hal etuvchi ahamiyat kasb etdi.

O‘zbek xalqining sevimli ashulalarini, maqom aytish yo‘llarini hazrat Navoiyning shifobaxsh dardi bilan sug‘orilgan g‘azallarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki Navoiy nazmi o‘zining chuqur ma’nosi va ohangdorligi bilan tinglovchi qalbidagi go‘zal ichki his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, ruhiy olamiga cheksiz quvvat bag‘ishlaydi. Navoiyning g‘azallari maqomlarda yo‘g‘rilgan “Ishq” mavzusi eng adog‘iga yetib bo‘lmas, takror o‘rganging kelaveradigan mavzudir. Uning oshiqona g‘azallari lirik qahramoni, ishq alangasida toblangan shaxs – chinakam oshiq. U goh o‘z ma’shuqasidan mamnun, gohida esa uning harakatlarini bevafolikka yo‘yib, undan noliydi. U ma’shuqasini ta’riflab turib, ayni vaqtda o‘z ahvolini, ruhiyatini turli bo‘yoqlarda yonma-yon holda keltiradi. Navoiy g‘azallaridagi oshiq sof muhabbat egasi. U sevadi. Sevgi yo‘lida turli tuman musibatlarga mubtalo bo‘ladi. Ayriliq azoblariga chidaydi. U o‘z ma’shuqasini

qattiq e’zozlaydi: o‘zini yor yo‘lida fido etmoqqa tayyor… Buni esa sharq she’riyatining ajralmas qismi bo‘lgan musiqiylik orqali yoritib berish, Alisher Navoiy asarlarining siymoliy-hissiy tizimida alohida o‘rin tutadi. Bunda har bir so‘z, jumla, misralarni musiqiy tovush, nola yoki kuylar orqali his qilamiz.

Shuning uchun ham Navoiy asarlarining maqom janrida tutgan o‘rni haqida gapirib o‘tishimiz joiz. Oqilxon Ibrohimov “Maqom asoslari” o‘quv qo‘llanmasida maqom atamasiga bir necha izohlar keltirgan. Birinchidan, maqom – bu sadolarda in’ikos etgan hikmatlardir. Insonning ruhiy-ma’naviy kamoloti sari yuksalishi va shu tariqa chin Haqiqatga erishuvi bu hikmatlar o‘zagini tashkil etadi. Ikkinchidan, Maqom - bu tariqat bosqichlarining o‘ziga xos musiqiy ifodasi bo‘lgan mukammal pardalar uyushmasi va shu asosda berilgan kuy mavzusini ma’lum yo‘sinda (quyidan yuqoriga qarab izchil) rivojlantirish uslubidir.

Maqom borasidagi ushbu qo‘shimcha izoh nafaqat O‘n ikki maqom, balki Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llariga ham bevosita dahldordir. Ma’no jihatidan esa Navoiyning falsafiy qarashlarini keltirib chiqaradi. Bu o‘rinda, ularning tarkibiy qismlarida “maqom” so‘zi bilan birga, yana “samo”, “gardun”, “qalandar”, “samandar”, “girya”, “nola”, “charx”, “faryod”, “soqiynoma” kabi ko‘plab tasavvufiy islohotlarning qo‘llanishi, shuningdek, asosiy aytim yo‘llarida Navoiyning yuksak “ishq” mazmunidagi g‘azallari kuylanib kelinishi, “sof” musiqiy jihatdan esa, mukammal parda yo‘llari asosida (tariqat jarayonlarining badiiy aksi o‘laroq) kuy mavzularini bir tartibda izchil rivojlantirib, ularning avj sifatlarini namoyon etish tamoyili kabi omillarni dalillar qatorida keltirish mumkin. Lekin eng muhim dalil, bu buyuk ishq dardi bilan yo‘g‘rilgan Navoiy, Hofiz, Jomiy, Sakkokiy, Lutfiy, Mashrab, Bedil va boshqa adiblar g‘azallari bilan kuylanuvchi maqomlar musiqasidir. Chunki, bu musiqa mazmunida pok ruhiyatning asl Go‘zallik, chin Haqiqat sari ma’naviy huruji o‘z ifodasini topdi. Binobarin, maqomlarning asrlar osha o‘z badiiy qiymatini yo‘qotmasligi va ayni paytda, millionlab odamlar qalbidan o‘rin olganligining asl sabablaridan biri ham ularning teran ma’nolarga yo‘g‘rilgan go‘zal navolari hamda beqiyos shakl-

shamoyillari bilan izohlanadi. Zero, maqomlar insonlardagi pokiza tuyg‘ularni uyg‘otuvchi, ruhiyatni nafs to‘siqlari osha asl maqomlar sari yuksalishga da’vat etuvchi ma’naviy navolardir.

Misol sifatida, Shashmaqomning “Buzruk” turkumidagi “Nasrulloyi” sho‘basini tahliliy nazardan o‘tkazamiz. Xususan, “Nasrulloyi” sho‘basi ma’lum qadar hazin, lekin botinan rivojlanish quvvatiga ega cholg‘u kuy (muqaddima) bilan boshlanadi. Quyi pardalardan sadolana boshlagan ushbu kuyda yonmayon joylashgan tovushlarning tejamkorlik bilan to‘lqinsimon tarzda o‘zaro mantiqiy ulanib kelishi va pog‘onama-pog‘ona maqsadli yuksalib borishi tinglovchiga dastlabki tug‘yonli huzurni hadya etadi. Shundan so‘ng maqomdon hofizning ovoz tarovati va ishq dardining ifodasi bo‘lgan nolali honishi o‘laroq bu holat yangi sifat bosqichiga yuksaladi. Bunda, Hazrat Navoiyning “Etmish” radifli g‘azali “Nasrulloyi”ga ko‘charkan, uning “Hazaji musammani solim” aruz bahri kuyning 6/4 o‘lchovli “Nasr” doira usuliga payvasta bo‘lgani holda, to‘qqiz baytdan iborat misralari ashulaning IX xatiga she’riy asos bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, ashulaning birinchi va ikkinchi xatlari (baytlari) cholg‘u muqaddimasida kelgan kuy tuzilmasi negizida o‘qiladi:

“Parizodiki mushkin zulfi jonim mustamand etmish,
Maloik qushlarin ul halqa mo‘lar birla band etmish.
Samandingkim yolindek tez erur, yuz shukrkim gardun,
Anga birni samandarvash, munga birni samand etmish”.

Ashula qahramonining ishq dog‘i birla joni bahramand ekanligi, bog‘ ichra sarv va ozodavash yor visoliga erishish istagida kuyib yonishlari-yu, devona ko‘nglining azizu arjumand sari mudom intilishlari ana shu xat (ikki bayt)ning mantiqiy rivoji o‘laroq unib chiqadi. Inchunin, uchinchi va to‘rtinchi xatlar o‘rta pardalarda (miyonxat), beshinchi xat esa, bir oktava yuqorida joylashgan (dunasr) pardalari asosida o‘qilib, “o”, “hay jonimo” so‘zlarida kelgan nolali honishlarga ulanib ketadi. Navbatdagi uch xat (VI–VIII)ga kuy asosi bo‘lib kelgan “Turk avji”ning uch bosqichli to‘lqinlari davomida eng yuqori “cho‘qqi” (“sol”, “lya”) tovushlariga erishiladi. Shu asnoda g‘azalning haroratli so‘z ohanglari “Turk avji” ohanglariga uyg‘un qovushgani holda, tinglovchi qalbiga g‘alayon solib, to‘qqizinchi xat bilan bunga xotima yasaladi:

Navoiy, kech visol umididinkim,
Haq seni behad Zalilu zor, yoringni azizu arjumand etmish.

Binobarin, “Turk avji”ning “Nasrulloyi” kuyiga “uzukka ko‘z qo‘ygandek” bog‘lanishi – ruhiyat zavqining ta’rifga so‘z ojiz nodir holatlarini yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Qolaversa, “Nasrulloyi”ning daromadida kelgan bosh kuy mavzuyi ham maqom sho‘balarida shu kabi avj (“Nasrulloyi” namudi) vazifasida namoyon bo‘lib turadi. Hozirda ko‘rib o‘tilgan “Nasrulloyi” sho‘basining shu ko‘rinishda yuzaga kelishida, albatta, keyingi davrlarda faoliyat ko‘rsatgan hofiz-bastakorlarning ham xizmatlari bor. Jumladan, akademik Yunus Rajabiyning bastakorlik dahosi ila Hazrat Navoiyning g‘azali mazkur kuyga har jihatdan juda o‘rinli bog‘langan, balki “Nasrulloyi” asari shu g‘azal bilan birga tug‘ilgandek taassurot uyg‘otishi bilan ham tahsinga sazovordir. Maqomdon ustoz aynan shu g‘azal bilan “Nasrulloyi”ni o‘zi ijro etgan holda notaga olgan edi. Shuningdek, mazkur ashulaning betakror talqinlari xalq hofizlari – Ochilxon Otaxonov, Orifxon Hotamov (Fuzuliy g‘azali), Mahmud Tojiboyev, Shavkat Matyoqubovlar ijrosida yuzaga kelganligi muxlislarga yaxshi ma’lum.

Maqom ohanglari asosida yaratilgan mumtoz ashulalarda ham Navoiy sheriyatidan unumli foydalaniladi. Bulardan “Guluzorim”, “Qaro Ko‘zum”, “Koshki”, “Jonim mening”, “Munojot”, “Cho‘li Iroq”, “Suvoriylar”, “Ko‘rmadim”, “Ey sabo”, “Topmadim”, “Nazzora qil”, “Istadim”, “Kezarman”, “Mubtalo bo‘ldum sanga”, “O‘lmasun”, “Qoshi yosinmu deyin”, “Bo‘lmish”, “Qaro bo‘libdur”, “Aylagach” kabi mumtoz ashulalarda Navoiy g‘azallaridan qo‘llanilgan. Hattoki bu asarlar respublika ko‘rik tanlovlarida shartli asar sifatida qo‘llanilgan va yosh ijrochilar ham o‘z iqtidorlarini shu ashulalar orqali yoritib berganlar.

Alisher Navoiyning ishq bilan bog‘liq tasvirlari rang-barang va boy bo‘lib, biz unda inson hayoti va holatining cheksiz ko‘p qirralarini - shodlikni ham, xafachilikni ham, takrorlanmaydigan lahzalarni ham, har kun, har soatda yuz beruvchi ko‘ngilsizliklarni ham ko‘ramiz. Zotan, o‘zbek she’riyatida inson dardi va

hasratlarini, o‘z sevgilisiga talpinishlarini Navoiydanda yorqinroq ifodalagan shoirni topish qiyin.

Shuningdek, “Cho‘li Iroq” mumtoz kuyi asosida atoqli bastakor Imomjon Ikromov bu kuyni Hazrat Navoiyning

“Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg‘a ayt,

Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimg‘a ayt”

bayti bilan boshlanuvchi g‘azaliga bog‘lab, ashula yo‘lini ijod qildi. Mazkur ashula Akmalxon va Boboxon So‘fixonovlar ijrosida Ilyos Akbarov tomonidan notaga olinib, 1949-yili “Navoiy so‘ziga musiqalar” to‘plamida nashr qilingan. Cholg‘u yo‘li esa, akademik Yunus Rajabiy notaga olib bosmadan chiqargan “O‘zbek xalq musiqasi” to‘plamining ikkinchi jildi (1957-y.) va Shashmaqom turkumli nashrining oltinchi jild (1975-y.)laridan o‘rin olgan.

Yunus Rajabiy bastakorlik jabhasida xalqchil milliy uslubni ilgari surgan ijodiy namunalaridan hamkorliklar natijasida yaralgan “Farhod va Shirin”, “Muqanna”, “Navoiy Astrobodda” musiqali dramalari ko‘p asrlik badiiy an’analar zamon ruhi ila qayta jonalandi.

Shoir g‘azaliyotining ko‘lami va yo‘nalishi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun uning maqom ohanglari asosida yaratilgan “Ko‘rgali husnungni zor-u mubtalo bo‘ldum sango” satri bilan boshlanadigan g‘azali alohida ahamiyat kasb etadi. Navoiy bu g‘azalni Nizomiy-al-Ganjaviyning “Hamsa”sini mutolaa qilish davrida, Gulijon ishqi bilan yonib, uni ko‘rish dardida yurgan pallasida bitadi, Alloh bergan ishqning isxorini o‘z iste’dodi orqali namoyon qiladi. Bu haqda Qo‘ldosh Mirzo o‘zining “Mubtalo bo‘ldim senga” deb nomlangan qissasida bayon qiladi.

“Ko‘rgali husnungni zor-u mubtalo boldum sango,

Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldum sango”.

Ko‘rinadiki, g‘azal ishqiy mavzuda. Unda iztirob va tasalli ajib bir uyg‘unlikda tasvirlangan. She’r an’anaviy, oshiqning ma’shuqaga dil izhori bilan boshlanadi: oshiq - yor husnini ko‘rishga zor. U ishq deb atalgan dardga mubtalo bo‘lgan. Shu sababli, u yor bilan oshno bo‘lgan kunni “balolig‘” (balo keltirgan kun) deb hisoblaydi. Baytdagi so‘zlarni tushunish qiyin emas. Ularning ko‘pchiligi bugungi kunda ham tez-tez ishlatiladi. Shoir, bir tomondan, yor husnini ko‘rishga zor bo‘lganini aytadi. Ikkinchi tomondan, unga yo‘liqqan kunini “balolig‘ kun” (balo keltirgan, baxtsiz kun) deydi. Buni qanday tushunish kerak? Bu yerda tazod bor. Bu tazodni birinchi

satrdagi “mubtalo” (oshiqlik, bog‘lanib qolish) va ikkinchi qatordagi “balo” so‘zlari ta’kidlab turibdi. “Mubtalo”likka esa, chindan ham “oshno”lik sabab bo‘lgan. Shu bois yorga oshno bo‘lgan kun “balolig‘”dir. Baytning mazmuni asosan “zor-u mubtalo”, “balo”, “oshno” so‘zlari orqali berilgan.

Musiqashunos professor Botir Matyoqubovning aytishlaricha, bu g‘azalga kuyni Komiljon Jabborov bastalagan. U O‘zbekiston xalq artisti, Andijonlik sozanda, bastakor. “Dugohi Xusayniy”, “Iroq”, “Navo”, va boshqa kuylarni g‘ijjakda, “Nolish”, “Nimcho‘poniy”, “Kurd” va boshqa asarlarni dutorda, “Samarqand ushshog‘i”, “Gulyor” va “Shaxnoz”dek ashula yo‘llarini tanburda katta mahorat bilan ijro etgan. “Gulsara” (Komil Yashin, 1936), “Layli va Majnun” (Xurshid, N.Salixov bilan birgalikda, 1938), spektakllarini musiqalashtirishda qatnashgan hamda bir qator musiqali dramalar yaratgan. 100 dan ortiq – “Diyorimsan”, “Nazzora qil”, “Mubtalo bo‘ldim senga”, “Toshkent piyolasi”, “Shifokorlar” kabi ashula, qo‘shiq va qator cholg‘u kuylar muallifi. Komiljon Jabborovning ijopdiy uslubi tez yodda qoluvchi, jozibali ohanglarga boyligi, an’anaviy peshrav, ashula va qo‘shiq shakllarining erkin uyg‘unlashishiga asoslangan.

Xorazmlik doirachi Ollanazar Xasanov, Komiljon Jabborovni g‘oyibona ustozi deb bilgan ekan. Kuylarni Komiljon ustozning ijrolaridan, cholg‘ulardagi mohirona zarblaridan o‘rgangan ekan. Uning aytishicha, K.Jabborov aynan “mubtalo bo‘ldim senga” ashulasi kuyini kelib chiqishini - ko‘chadan o‘tib ketayotgan janonning qadam tashlashiga moslab yozgan ekan.

G‘azal kuyi “bak-bum” zarblarida keluvchi zarbul qadim usulida yozilgan va ritmga hamohang taktoldi boshlanuvchi kuy esa ashulani ijroga tayyorlayotgandek yana tonikaga olib keladi. Bu asar Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida maromiga yetkazib ijro etilgan.

Oshiq bu mubtalolikdan qutulishga urinadi. Har kun uni o‘ziga mubtalo qilgan yordan ko‘ngil uzishga harakat qiladi. Lekin kundan kun yordan uzilish o‘rniga, aksincha, unga batarroq bog‘lanib boradi:

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,
Vahki, kun-kundin battarroq mubtalo bo‘ldum sango.

Tersiyadan boshlanuvchi ikkinchi xati miyonxat asarning mavjiga, kulminatsiyasiga tayyorlayotgandek tuyuladi. Yana tonikaga qaytib avjga olib chiquvchi cholg‘u kuyi bilan davom ettiriladi

Shoir yordan vafo qilmog‘ini so‘raydi, biroq jafo ko‘radi. ,.Sen menga fido bo‘lgil, deganingda bo‘lmadimmi?!” - deya undan gina ham qiladi. Ma’shuqa esa, vafo o‘rniga zulm qilishda davom etadi:

Men qachon dedim vafo qilg‘il. manga zulm aylading,

Sen qachon deding, fido bo‘lg‘il mango, bo‘ldum sango.

Avj sifatida kelayotgan bu qismi oktavadan boshlanadi va uchunchi xat sifatida gavdalanadi. Bu qismi ham ma’no jihatdan ham kuy jihatdan ijrochidan kuchli ehtiros va iste’dod talab qiladi. Avjdan to tonikaga tushguncha bo‘lgan aylanmalar ijrochidan kuchli mahorat talab etadi.

Yor - juda beparvo. U beparvogina emas, o‘zini bilmaslikka solib, „bu qadar telbalarcha sevib qolgan pari paykaring kim o‘zi?” - deb o‘yin ham qiladi. Betoqat oshiq o‘zini tamom unutib, “U - sen! Seni deb telba bo‘ldim!” - deya hayqiradigan holatga keladi:

Qay paripaykarga, dersen, telbabo‘ldung bu sifat,

Ey, paripaykar, ne qilsang, qil mango, bo‘ldum sango.

Oshiq sevgisi uchun rag‘batdan umid qilmaydi, jazolanmog‘i mumkinligini ham biladi. Shu bois: „...ne qilsang, qil...”, - deya xitob aylaydi. Har bir insonning asl hamdami - ko‘ngli. Keyingi baytda shoir shu bois o‘z ko‘ngli bilan muloqotga kirishib, o‘zining qaysarligidan, nasihatga quloq osmaganidan noliydi. Uning ishqi sabab sanoqsiz Ozorlar tortgan ko‘ngilga yordam bcrish o‘rniga, necha yuz ranj-u balo ustiga o‘zi ham qo‘shimcha “bir balo” bo‘lganidan o‘ksinadi:

Ey ko‘ngul, tarki nasihat ayladim ovora bo‘l,

Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo‘ldum sango.

Miyonxat sifatida kelgan ikkinchi xatining takrori shu satrlarda qayta ijro etiladi va e’tibor beradigan bo‘lsak, asarda hech qanday “hang” vositalaridan foydalanilmagan. Chunki g‘azalning kuyga hamohang bo‘lgani va bir biriga shu qadar uyg‘unligini, “O”, “yoray” kabi “hang”lar ishlatilmaganidan ham bilishimiz mumkin.

Oltinchi baytda jomi Jam va Xizr suvi haqida gap ketadi. Ishqdagi dunyoviy belgi yo‘qolib, ilohiy-tasavvufiy mazmun namoyon bo‘la

boshlaydi. Shoir soqiyga murojaat etib, mol-dunyodan kechib huzuringga kelganimdan buyon nasibam „Jomi Jam birla Xizr suyidir", - deydi:

Jomi Jam birla Xizr suvi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sango.

Ilohiy ishqga mubtalo bo'lgan oshiq soqiyga murojaat qilib, Jamshid jomi bilan Xizr suvi doimiy nasibim, mansabimdan kechib senga gado bo'ldim deydi. Soqiy tasavvufiy timsol bo'lib, u ilohiy ishqni ulashadi. Jamshid - Eronning qadimgi podshohlaridan biri. Jamshid jomi - Jamshid yasattirgan tilsimli jom. Jamshid hakimlarga buyurib, ikkita jom yasattirgan, birining oti Jomi ishratfizoy - bu jomdagi may ichgan bilan tugamas, to'liq turaverar va qiyshaytirilsa ham to'kilmas ekan. Ikkinchisining oti Jomi getiynamo - bu jomda dunyoda yuz bergan hodisalar ko'rinib turar ekan. Bu jomni - Jomi jahonbin ham deydilar. Bu baytda jomi ishratfizoy nazarda tutilgan bo'lib, u tuganmas ishqni bildiradi. Xizr suvi esa, fikrimizcha, Allohga nisbatan oshiq ishqining abadiyligini anglatadi. Yani, oshiqning ishqi tuganmas. U ishq yo'lida gadoga aylangan.

Ashulada bu qismning tushib qolgani spektaklning ko'rinishi bilan bog'liq holat. Kuyda A-B-C-B-C shakli kelayotgan bo'lsa, g'azalning bu satrlari kuyning cho'zilib, spektakldagi tinglovchini bezdiradigan va ijrochini charchatib qo'yadigan holatlarini vujudga keltirishi mumkin.

G'azalning so'nggi bayti - maqta'da so'fiyona fikr yanada kuchayadi. Navoiy yorga "asir-u benavo" bo'lganidan buyon ishq ahli (ushshoq) orasida "g'ussa changidan navo", ya'ni g'am - qayg'udan zarracha ham asar topmaganini ma'lum qiladi:

G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sango.

G'azalda "bo'ldum sango" birikmasi qofiyadan so'ng takrorlanib, radif vazifasini bajargan. Matla'dagi qofiya (mubtalo—oshno) g'azalning butun mazmuniga yo'nalish berib turibdi. She'rda tazod, tajnis, talmeh san'atlaridan samarali foydalanilgan. G'azalning ramal bahrida yozilganligi musiqiy jihatdan bog'lash uchun juda qulay. Ramali musammani mahzuf bahri – "foilotun foilotun foilotun foilun, foilotun foilotun foilotun foilun" ifodasi bilan kelishi ritmik

jihatdan musiqiyda ham talaffuz qilish, ham kuyga solish milliy ashulalarni mukammal ko‘rinishga olib keladi

Navoiyning g‘azallari asrlar davomida shakllangan mumtoz musiqa janri hisoblanmish maqomlarning ashula yo‘llarida, hofizlar ijrolarida yangrab, avloddan – avlodga, ustozdan – shogirdga sayqallanib o‘tib kelmoqda. Ayniqsa, XIX – XX asrlarda yashab ijod etgan hofiz-u sozandalar, bastakorlar ijodidagi asarlarni tinglaganimizda bunga amin bo‘lamiz. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To‘ychi Hofiz, Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Hojixon Boltayev, Doni Zokirov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov, Faxriddin Sodiqov, Jo‘raxon Sultonov, Komiljon Otaniyozov, Orifxon Xotamov, Fattoxxon Mamadaliyev, Matnazar Xudoynazarov, Mahmujon Tojiboyev, Shavkat Matyoqubov kabi zabardast ustozlar maqom g‘azallari ma’no mazmunini yoritib berishda bor iqtidorini ishga solgan holda, shoir va bastakorning ichki tug‘yonlarini, dardini, quvonchini, muhabbatini, falsaviy qarashlarini ijrolarida ifoda etib bera olganlar. Hozirgi davrimizda ham, Navoiy g‘azallariga tez-tez murojaat etishlik odatiy tusga aylangan. Navoiyning nazmiy ijodi va bebaho ma’naviy merosi oldin ham o‘rganilgan va bundan keyin ham keng va mukammal o‘rganishni taqozo etadi.

Bugungi kunda mutaxassis ustozlar, yosh ijrochilar, qolaversa yosh estrada xonandalari tomonidan Navoiy g‘azallariga bog‘lab qo‘shiq ijro etilayotgani quvonarli hol. Sal oldin bu yo‘nalishni bachkanalashtirgan ayrim xonandalarga musiqashunoslar e’tiroz fikri bilan qarashardi. Ammo zamonaviy estrada va she’riy nasr uyg‘unligining oltin o‘rtalig‘ini topgan ijodkorlar ham kam emas. Jumladan, Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoidova, Ziyoda, Ulug‘bek Rahmatullayev kabilar. Hattoki, jahon estrada xonandasi Joss Stone O‘zbekistonga kelib Navoiy g‘azali bilan kuylangan “Yo labmudur” tuyug‘ini ashula tarzida dotsent Shavkat Matyoqubov bilan birgalikda duet qilib kuylashdi. Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz joiz, Shavkat Matyoqubov Shashmaqomdagi barcha maqomlarni kuylagan professional ustozoda ijrochi hisoblanadi va o‘zbek musiqa va ashulalarini, xususan maqomlarini butun dunyoga tanitishda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Mamlakatimizda tarixga e’tibor, o‘tmishni o‘rganish asosiy ahamiyat kasb etuvchi, avlodlar ma’naviyatini yuksaltirishning muhim bosqichi hisoblanadi.

Ko‘zlangan rejalar isboti sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yildan beri qurilishi rejalashtirilayotgan Milliy bog‘ ochilish marosimiga 2020-yilning 20 may kuni shaxsan tashrif buyurdi. Bu maskanning Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i Adiblar xiyoboni deb atalishini yurtboshimiz izohlab o‘tdi: “– Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”.

“AYNUL HAYOT” QASIDASIDA ME’ROJ TASVIRI

Shohista Mulloqulova
ToshDO‘TAU

Ma’lumki, qasida sharq mumtoz poeziyasida asosiy o‘rinni egallaydi. Qasida dastlab arab adabiyotida vujudga kelgan va o‘z rivojlanish bosqichida turli maktablarga, mazmunga ega bo‘lgan. Qasida (ar. “maqsad”, “niyat”) – biror tarixiy shaxs yoki voqeaga bag‘ishlab yoziladigan katta hajmli baytli she’r shakli bo‘lib, hajman 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo‘lishi mumkin. Qasidalar mavzusiga ko‘ra vasfiy (bahoriya, holiya, ishqiya, xamriya-may bilan bog‘liq), madh (madhiya, faxriya, hamd, na’t), hajv, marsiya, munojot va falsafiy (orifona yoki tasavvufiy) kabi turlarga bo‘linadi [2.56]. Ikki tilda barobar ijod qilib, benazir san’at ko‘rsatgan Alisher Navoiy ham teran ma’nolar jamlanmasi bilan qasida janrini bir pog‘ona ulug‘vor qilgan edi. Uning ,,Foniy” taxallusi bilan yaratgan g‘azal, qasida, ruboiy va marsiyalari nafaqat badiiy so‘z ustalari, shoir-u fozillar, balki forsiyzabon xalq orasida ham shuhrat qozongan. Shu bois Navoiy bu she’rlarni yig‘ib, ,,Devoni Foniy” nomi bilan alohida kitob qilib tuzgan edi. Navoiyning so‘z durlaridan tizilgan forsiy qasidalari ham bu to‘plamdan o‘rin olgan. Bu qasidalarning har biri o‘ziga xos nomlanishga ega. ,,Sittayi zaruriya”dagi ikkinchi qasida haqida to‘xtaladigan bo‘lsak,qasida Muhammad Mustafo(s.a.v.)na’tiga bag‘ishlangan bo‘lib, u ,,Aynul hayot”(,,Hayot chashmasi” yoki ,,Hayot manbai”) deb nomlangan. Ma’lumki, Navoiy ijodida Payg‘ambar(s.a.v.)ga bag‘ishlangan na’tlar ko‘p. Har bir devon avvalida Parvardigor hamdidan keyin Payg‘ambari Akramga atalgan na’t g‘azallar keltiriladi. Xuddi shu singari ,,Sittai zaruriya” yaxlit bir asar deb qaralgani uchun birinchi qasida tavhidi Buyuk Ruh egasini talqin etsa, ikkinchi qasida Payg‘ambar Me’roji tasviriga bag‘ishlangan.

Payg‘ambar alayhis-salom Madinaga hijrat qilishlaridan oldin Olloh u kishini Isro va Me’roj martabasiga erishtirdi.Rasulullohning Makkadagi Masjidi Haromdan Baytulmuqaddasga bir kechada borib kelishlari Isro deb,shu kuni kechasi osmonga chiqib,ruhiy

olam bilan tanishib qaytganlari esa Me’roj deb ataladi.Isro voqeasi Qur’ondagi Isro surasining 1-oyatida bunday bayon etilgan: ,,Bandasiga o‘z qudratining nishonalarini namoyon etish uchun uni bir kechada Masjidi Haromdan tevarak-atrofi barokatli Masjidi Aqsoga olib brogan Olloh pokdir.U hamma narsani ko‘rib,bilib turguvchi zotdir.” Qur’ondagi Najm surasining 1-13-oyatlarida esa payg‘ambarimizning Me’rojga ko‘tarilishlari bayon etilgan:,,Mirrat egasi.Bas ko‘tarildi.Va u oliy ufqda edi”[3.250]. Shu bois Me’roj kechasi Rasuli Akramning Koinot bo‘ylab sayri, Buroq otida Jabroil (a.s,) jilovdorligida yetti qavat osmondan oshishi va Arshga yaqinlashib, Olloh bilan suhbatlashishi katta shavq-u zavq, qaynoq ilhom bilan tasvirlanadi. Navoiy dostonlari, xoh g‘azal, xoh qasidalarda bo‘lsin, har gal ushbu mavzuni yangi tasvirlar bilan yoritadi, aynan takrorlamay, yangi usullar qo‘llaydi. ,,Aynul hayot” qasidasida ham asosan, Me’roj tuni tasvirlangan va alohida yo‘l tanlangan, ya’ni Rasulullоh yo‘lga chiqqunlarigacha bo‘lgan osmon holati, sobit va sayyora yulduzlar, yer ashyolari bir-bir tasvirlanadi. Go‘yo butun Koinot, falak, Muhammad Mustafo(s.a.v.)ning Me’rojiga tayyorgarlik ko‘rayotgani, rostlanib, bezanib, shukuhlanib, intizorlik bilan kutayotgani bayon etilgan. Zero, bu alohida Tun, Parvardigor o‘z Rasuli, habibi bilan diydor ko‘rishgan fayzli, jozibali Tun edi. Buni asarning birinchi baytidayoq sezish mumkin.

Hochiboni shab chu shodurvoni savdo afganand,
Jilva dar xayli butoni mohsiymo afganand [1.226].

(Tun hojib-pardadorlari savdo chodirlarini ko‘rganda, oy yuzli go‘zallar xayoliga jilva-nur tushiradilar) Bu baytdagi har bir istiora bir necha ma’noni ifoda etadi. “Tun hojiblari” istiorasi qo‘riqchi farishtalar ma’nosini ifodalaydi. ,,Savdo” so‘zi qoralik ma’nosidan tashqari, ,,muhabbat, shaydolik, tayyorgarlik, faol harakat” ma’nolarini ham ifodalaydi. ,,Butoni mohsiymo” – osmondagi sobit-u sayyoralar. Demak, tun farishtalari Payg‘ambarimiz (s.a.v.) me’rojining taraddudiga muhabbat bilan kirishib, osmonga qora chodir tushirdilar, oy tal’atli sayyoralarni bezatdilar, demoqchi shoir. Shu tariqa, 40 bayt davomida tashxis, istiora, tashbeh, iyhom kabi mushtarak va ma’naviy san’atlar vositasida me’roj kechasi tasvirga tortiladi. Bu baytlarda osmon jismlari va tungi manzara ham badiiy

obraz, ham moddiy mavjud ashyo kabi taassurot uyg‘otadi. Qasidada osmon faqat sayyora va yulduzlar makoni emas, balki farishtalar maskani, ruhlar olami, pok va ulug‘vor manzil, tiriklik sarchashmasi, hayot ko‘zgusi sifatida tasvirlangan. Me’roj kechasining tasviriga bag‘ishlangan yana bir xususiyat – baytlar yuqori ko‘tarinki ruh, farahbaxshlik bag‘ishlovchi, ohangdor so‘zlar tizimidan tarkib topgan.

Nasr-u fathi ezidi boshad qarini chayshi tu,
Bar safash gar chash chun satri “Izojo” afganand.
Ra’yati jayshi tu chun do‘zand xayyotoni sun,
Shuqqaashro ziynati “Inno fatahno” afganand [1.226].

Lashkaring safidagi “izo joa” (oyatlari) satriga ko‘zlari tushganda, ularga ilohiy fath-u nusratning yaqinligini ko‘radilar. Bu bayt orqali Nasr surasining 1-oyatiga ishora qilingan.,, Vaqtiki, Allohning nusrati va fath kelsa…” Keyingi baytimizda esa Fath surasining 1-oyatiga ishora qilinganligini ko‘ramiz. ,, Albatta, Biz senga ravshan fathni berdik”. Ya’nikim, qudrat tikuvchilari qo‘shinning bayrog‘ini tiksalar, unga bog‘lanadigan parchasiga fath-u zafar berdik”[5] deya ushbu oyatga nisbat berilgan. Qasidaning har bayti ilohiy sarchashmalardan oziqlantirilgan.Muso,Yahyo,Yusuf payg‘ambarlarga xos sifatlarga shoirona qarash qilingan.Qasidada Navoiyning san’atkorligi, keng qamrovli shoirona nigoh bilan qalam surishi kishini lol qoldiradi va u qalbga huzur bag‘ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. – Т.: Фан, 2003

2. Қуръони карим (таржима ва тафсирлар муаллифи Абдулазиз Мансур), Тошкент ислом университети’’нашриёт-матба бирлашмаси,2014

FITRAT “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONINING ILK TADQIQOTCHISI

Xurshidabonu MUHITDINOVA
ToshDO‘TAU

Ma’lumki, Sharq adabiyoti tarixining ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida adabiy an’ana muhim o‘rin egallaydi. Shoirlar salaflari ijodiga murojaat qilar ekan, avvalo, o‘z estetik qarashlariga mos, ko‘ngillariga yaqin asarlarni maqbul ko‘rishgan. Ammo bu Sharq adabiyoti originallikdan holi, adabiy an’analar doirasida degan xulosani bermasligi kerak. Zotan, har bir ijodkor ko‘hna mavzuga murojaat etar ekan, uni ma’lum darajada bo‘lsa-da, zamonasi bilan bog‘lashga harakat qiladi, muayyan g‘oyani ilgari suradi. Aynan shu sababli bir mavzu doirasidagi asarlarni qiyosiy tahlil etishda har ikki ijodkorning mushtarak yoxud xos jihatlarini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek mumtoz adabiyotining tadqiq etilishi ming yillik tarixga ega bo‘lsa-da, XX asrning boshlariga kelib uni ilmiy o‘rganishga, qo‘lyozma va bosma matnlar asosida o‘zbek adabiyoti tarixini yaratishga jiddiy kirishildi. Abdurauf Fitrat, O. Sharafiddinov, P. Shamsiyev, H. Sulaymonov, Oybek, N. Mallayev, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton kabi olimlar bu borada qator tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Ayniqsa, Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti bahsi navoiyshunoslikning muhim bahslaridan biriga aylandi. Navoiy siymosini o‘rganish, Navoiy haqidagi xalq afsonalari va ertaklarini yozib olish, ommalashtirish hamda “Farhod va Shirin”ning xalq variantlarini tadqiq etish, umuman, “Xamsa” qahramonlarining xalq ijodidagi ildizlarini yoritish bo‘yicha qator ishlar qilindi.

Alisher Navoiy ijodi, xususan, “Xamsa”si Sharq adabiyotining boy adabiy an’analari zaminida maydonga keldi va o‘z navbatida keyingi davr adabiyoti rivojiga samarali ta’sir ko‘rsata oldi. XV asrdan keyin yaratilgan turkiy xalqlar adabiyotida Farhod va Shirin nomlari bilan bog‘langan dostonchilikka Navoiyning shu nomdagi asari o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatdi. Navoiyning ushbu betakror dostoniidan Buning yorqin namunasi o‘laroq, XIX asrda yashab ijod

qilgan Mahzun qalamiga mansub “Qissai Farhod va Shirin” asarini aytishimiz mumkin. Ushbu asar aynan nasriy bayon emas, balki Nizomiy, Dehlaviy va Navoiy asarlaridan bahramand bo‘lgan holda dostonning xalq og‘zaki ijodidagi variantiga yaqinroq shaklidir. Bu manba bilan ilk bor tanishgan va tadqiq etgan adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat “Farhod-u Shirin” dostoni to‘g‘risida”gi maqolasida shunday deydi: “Buning sevimli bir hikoya shakliga kirishi adib Alisher Navoiy kabi usta yozuvchilarning fabrikasida ishlanib, qimmatbaho bir mol holig‘a qo‘yilishidir. “Farhod-u Shirin” o‘zining ona cho‘pchagi bo‘lib, har bir o‘zbekning yoshlig‘ chog‘idan miyalarig‘a o‘rnashib qolg‘an bir hikoyadir”. Darhaqiqat, asrlar osha og‘izdan-og‘izga o‘tib, murakkab kompozitsion tarkibga aylanib, sayqallanib kelayotgan “Xisrav va Shirin” yoxud “Farhod-u Shirin” hanuz o‘zining qadr-u qimmatini, qiymatini yo‘qotgan emas. Bunga sabab esa ularda kuylangan mavzularning, olg‘a surilgan g‘oyalarning zamon va makon tanlamasligi, barhayotligidir.

Xalq orasida “Farhod-u Shirin” nomi bilan atalib keluvchi turli afsona-rivoyatlar, qissalar, dostonlar keng tarqalgan va ulardagi qahramonlarning haqiqatan tarixda mavjud shaxs sifatida yashab o‘tgani, bu afsona-rivoyatlarning paydo bo‘lish o‘rni, qahramonlarning aniq geografik manzili borasidagi muammolar olimlar orasida, xususan, Fitratda ham bir qancha e’tirozli fikrlarni uyg‘otgan. Buni biz olimning “Farhod-u Shirin” dostoni to‘g‘risida”gi maqolasini tahlil qilish orqali bilib olamiz. Olimning bu maqolani yozishdan maqsadi “dostonning asl yurtini tayinlash, voqealarning qayerda deb tushunilg‘ani, dostonning bizning adabiyotdag‘i o‘rni va o‘zgarishlarini aniqlash” edi. Fitrat o‘z maqolasida “Xusrav va Shirin” nomli Firdavsiygacha mavjud bo‘lgan bir doston, Firdavsiy “Shohnomasi”dagi “Xusrav va Shirin”, Nizomiy va Dehlaviyning “Xusrav va Shirin”i, Navoiy “Farhod va Shirin”i, va u asosida yaratilgan Umar Boqiy, Mahzunning “Farhod-u va Shirin”i haqida, bu asarlarning o‘zaro farqli va aynan o‘xshash jihatlarini tadqiq qiladi. Fitratning fikricha, Firdavsiy “Shohnoma”ga o‘zigacha mavjud bo‘lgan “Xusrav va Shirin”ni to‘lig‘icha olmagan. Dostonning to‘liq variantini va Farhod obrazini ham ilk bor Nizomiy “Xamsa”sida ko‘ramiz. Firdavsiy “Shohnoma”sida Farhod haqida hech narsa

deyilmagan. Ammo Nizomiyda ham u bosh qahramon darajasiga chiqmagan, ya'ni ikkinchi darajali epizodik rol sifatida kiritilgan. Shuningdek, Nizomiy zamon va davr muhitidan kelib chiqib, "o'z zamonidag'i podsho(h)larig'a "axloq darsi" bermak uchun" yosh shahzoda Xusravning kayf-u safoga berilishi, bir begunoh dehqonga qilgan zulmi uchun otasi tomonidan jazolanishi haqida bir faslni orttiradi. Dehlaviyda Xusrav tomonidan Rumo imperatoriga yuborilgan safarot hay'ati orasida bo'lgan, ammo doston voqealariga aralashmaydigan Shopur obrazi Nizomiyda usta rassom va hiylagar sayyoh sifatida gavdalantiriladi. Dostonga an'anaviy obrazlardan tashqari kiritilgan yangi – Farhod obrazi "Farhod – Ko'hkan" afsonasiga tayanib yaratilgan obraz hisoblanadi. Ammo asarda u bilan bog'liq voqealar asosiy o'rin tutmagani sababli o'limidan so'ng ham Xusrav, Shirin voqealari davom etadi va asar bosh qahramonlarning o'limi bilan yakun topadi.

Nizomiyning o'tkir qalami bilan dostonning yanada boyigan, qiziqarli syujeti boshqa ijodkorlarning ham e'tiborini tortmay qo'ymadi. Nizomiy bilan bo'ylashmoqchi bo'lganlar birin-ketin o'z variantlarini taqdim eta boshlashdi. Shunday "da'vogar"lardan biri, mashhur hind shoiri, Nizomiy "Xamsa"siga javob yozish bilan xamsanavislik an'anasini boshlab bergan Amir Xusrav Dehlaviydir. Uning "Xusrav va Shirin"i Nizomiynikidan ko'p ham farq qilmagan holda ayrim o'zgartirishlar bilan yozilgan. Masalan, Nizomiyda chinlik oddiy usta yigit sifatida keltirilgan Farhodni Dehlaviy Chin xoqonining yakka-yu yolg'iz farzandi deya tasvirlagan. Undan so'ng bu adabiy an'anani ulug' mutafakkir Alisher Navoiy davom ettirishga ahd qiladi. Ammo uning maqsadi shunchaki o'xshatma yozmoq emas, balki salaflari ijodiga tanqidiy yondoshib, o'zgacha bir asar yaratmoq edi. Buni asarning boshlanishidayoq ko'rishimiz mumkin. O'zigacha o'tgan, "Xusrav va Shirin" dostonini yozgan barcha shoirlardan farqli o'laroq, Navoiy Farhodni mukammal, ideal obraz, bosh qahramon sifatida tasvirlaydi. Bundan tashqari asarning boshqa qahramonlarining ham asardagi o'rni va ahamiyati sezilarli darajada o'zgaradi. Shu paytgacha faqat go'zallik timsoli bo'lib kelgan Shirin Navoiyda oliyjanoblik, aql-zakovat sohibasi sifatida tasvirlanadi. Bu o'zgarishlardan so'ng asar nomi ham o'zgarishi

tabiiy edi. Xusrav obrazi ikkinchi darajaga tushib, Farhod va Shirin bosh qahramonga aylanadi va shoir asarini "Farhod va Shirin" deb nomlaydi. Fitratning fikricha, Farhoddek ilmli, har jihatdan yetuk shaxsning oddiy xalq orasidan chiqishi Navoiyga ma'qul kelmaydi va u "Dehlaviydan ilhom olib, Farhod dostonini Xitoy xoqonining saroyida boshlaydi". Shuningdek, u ham Nizomiy kabi o'z davri muhitiga moslashib, "Husayn Boyqaro o'g'illari bo'lmish shahzodalarg'a "axloqiy bir dars bermak uchun" Farhodning otasi taklif qilgan toj-u taxtdan voz kechishi"i faslini orttiradi. Navoiy Nizomiyga aynan tarjimachi bo'lishni istamaganini Xusrav va Farhod munozarasida ham, Bahromning Sheruya ustiga qo'shin tortib kelishida ham ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, tarixga tayansak, bu urush Bahrom Cho'bin va Xusrav o'rtasida kechgan edi. "Navoiy asarini Nizomiynikidan boshqacha shaklga qo'ymoq uchun tarixiy asarlarga emas, xayolig'a tayanadir".

Turkiy xalqlar orasida Navoiygacha bo'lgan davrda bu doston qanchalik mashhur bo'lgan, bu bizga noma'lum. Ammo Navoiydan keyin juda shuhrat topganini keyingi davr adabiyoti o'z namunalari bilan tasdiqlaydi. Oradan asrlar o'tib "Navoiy "tili" onglashilmas bir holg'a kirgani" ham asarning unutilishiga sabab bo'lolmadi, aksincha, xalqqa yaqin, sodda til va uslubda qayta bayon etishga ehtiyoj ortib bordi va buning natijasi o'laroq nasriy yoki nazmiy bayonni o'z ichiga olgan turli variantlar – xalq kitoblari vujudga kela boshladi. Shunday xalq kitoblaridan birining muallifi Umar Boqiy, yana biriniki Mahzundir. Ikkisida ham maqsad bir: Navoiy dostonini soddalashtirib xalqqa yetkazish bo'lgan, ammo bir-biridan farqli jihati Umar Boqiy Navoiy "Farhod va Shirin"ining qisqartirilgan nasriy bayonini bersa, Mahzun dostonga ijodkorona yondoshadi, Nizomiy va Dehlaviy asarlaridan ham ilhomlanadi. Masalan, Farhodning toshchilikni o'rganishidan otasining qattiq qayg'uga tushishi Dehlaviydan olingan bo'lsa, "sut oqizmoq uchun ariq qazdirish", Shopurning qochib Parvez xizmatiga kirishi, u orqali Parvez Shirindan xabar topishi, Rum imperatori qizi Mayramga uylanishi, Farhod va Shirinning sevgisidan xabar topib Xusravning Farhodni o'ldirishi – bu voqealar barchasi Nizomiy dostoni bo'yicha, Farhod va Shirinning o'limi esa Navoiy dostoni bo'yicha

tasvirlanadi, ammo asar oxirida Xusrav haqida ham, uning o‘g‘li Sheruya haqida ham hech narsa deyilmaydi, asar bosh qahramonlar o‘limi bilan nihoya topadi.

Xisrav va Shirin tarixdan xalq afsona va rivoyatlariga o‘tib, yanada yangi afsona va rivoyatlar bilan qo‘shilib, murakkab syujet va kompozitsiyaga aylanib, kata obrazlar majmuasiga ega yirik qissa, dostonlar yaratilishiga sabab bo‘ldi va bular yozma adabiyotda “Xisrav va Shirin” (yoki “Farhod va Shirin”) haqidagi o‘lmas va noyob asarlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Nizomiy dostoni bilan u xamsachilikning an’anaviy asariga aylangan bo‘lsa, Navoiyning “Farhod va Shirin”i ko‘p asrlik adabiy tajriba va an’analar takomilida yangi, yirik hodisa bo‘ldi va o‘zidan keyingi davr adabiyotida Umar Boqiy, Mahzun kabi ijodkorlar tomonidan shu asosda yaratilgan “xalq kitoblari”ning salmoqli o‘rin egallashida muhim rol o‘ynadi.

OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI VA XALQ OG‘ZAKI IJODI

Muxlisa MUXITDINOVA
Umida AZIMOVA
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti

Romanda xalq og’zaki ijodi ruhi dastavval, Navoiy va xalq, qahramon va omma o’rtasidagi uzviy bog’lanishda ko’rinadi. Eposimizda o’lim bilmas qahramonlar el - yurt baxti va tinchligi uchun jonidan kechadilar, uning taqdiri bilan o’z taqdirlarini e’tiqoddek birikib ketgan deb tushunadilar.

Romanda Navoiy xalqning fidoiy farzandi, o’z davrining ilg’or kishisi sifatida tasvirlanadi. Uning har bir harakati, fikr-o’yi, xoh shoh, xoh oddiy kishilar, el-yurt dushmanlari, mansabparastlar, g’iybatchilar bilan bo’lgan munosabatida har qanday xolatda, hamma joyda mamlakat va xalk, taqdiri uchun qayg’uradi. Oybek ana shunday olijanob, ma’naviy pok ulug’’ siymoning obrazini yaratadi.

“Navoiy” romanida xalq og‘zaki ijodi manbalarini yozuvchi mutlaqo ijodiy o’zlashtirgani va yondashgani uchun xam ular o’z-o’zicha ajralib turmaydi. Adib roman yozishdan oldin o’sha davr ijtimoiy voqealari, aniqrog’i Alisher Navoiy ilmiy biografiyasi va ijodiy faoliyati bilan bog’liq bo’lgan barcha rivoyatlar, tarixiy kitoblar, hujjatlar, ma’lumotlarni sinchiklab o’rgangan. Bular va buyuk shoirning badiiy asarlari xatlari va boshqa ko’pgina yodgorliklar, ayniqsa, Alisher Navoiyning insonparvarligi, hamiyatli, olijanob, ulug zotligini gavdalantiruvchi elimiz orasida qadimdan ancha keng tarqalgan, og’izdan-og’izga, kitoblardan - kitoblarga o’tib kelayotgan “Navoiy va yamoqchining o’g’li”, “Navoiy va mardikor yigit”, “Navoiy kimni yomon ko’rgan” kabi rivoyatlar adib uchun ma’naviy oziq bergan. Asarda Navoiyning hikmatli so’zlarini, ayrim obrazlarni o’zlashtirgan holda shoir timsoli o’rinli foydalanilganligi juda tabiiy chiqqan. Masalan, Navoiyning mamlakatda jaholat, zulm avj olganligi, bebosh va qo’poruvchi mutaassiblar hukmron bo’lib turgan bir davrda xalq baxt - saodatini o’ylab, insoniylikni ulug’lab :

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami,-

singari aforizmlar hayotining mazmuni, ijodining bosh mavzusi, birdan bir maqsadi va amaliyotiga aylanganligini yuzlab tarixiy faktlar to'la tasdiqlaydi.

Oybek shoir siymosini huddi mana shu insonparvarlik sifatlari bilan gavdalantirishni asosiy maqsad qilib oladi. Bu fazilat asarda allaqachon shakllangan yetuk xarakter sifatida ko'rinadi. Shoirning mamlakatda adolat o'rnatish, tinchlik, farovonlik, obodlik uchun olib borgan barcha ishlari, adolatsizlikka qarshi kurashlari yuqoridagi dono fikrdan kelib chiqadi va u bilan mantiqan chambarchas bog'langandir. ‘

Yozuvchi romanda Husayn Boyqaro tomonidan Alisher Navoiyni saroyda muhrdorlik vazifasiga tayin etilganidan so'ng shoirning bu masalaga munosabati qanday bo'lganligini tasvirlar ekan, uning maqsadlarining aniqligi - aforizmlardagi xalqchil g'oyani ilgari surganligi diqqat markazida turadi. Shoir inisi Darveshali bilan suhbatlasharkan, unga shunday deydi: “Yolg'iz el va ulus manfaatini nazarga olib, mansabni qabul etdim. Bu muborak yurtda qilinadigan ishlar benihoyat ko'pdir. Bu ishlarning xar biriga elimiz asrlardan beri tashnadir”. Navoiy yaxshi biladiki, el - yurt uchun xizmat qilishda “mazhablardan birini o'zgasidan afzat ko'rmaydi”. U inisiga “dorug'ayi kutubxonayi Xumoyun” (podsho kutubxonasining boshlig'i) vazifasini topshirarkan, yuqoridagi fikrni ta'kidlab, shunday nasihat kiladi. “Darveshali, ko'nglingiz xar choq el muhabbati bilan labolab to'lsin, xar ishga bel bog‘lar ekansiz, elning manfaat va zaruriyatini o'zingiz uchun bir mezon deb biling....” Darveshalining akasiga javobi ham shoir fikrlarining nechoqli to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi va oydinlashtiradi. “Albatta shunday bo'lmoq kerak, - dedi Darveshali siyrakroq soqolini qashib qo'yib, - elga xizmat qilgan kishining e'tibori, qadr - qiymati oshar...”. Shu suhbatda Navoiy inisiga inson hayotining ma'nosi haqidagi umumbashariy fazilatni targ'ib qiladi; bu bilan el - yurtga xizmat qilishdan kuzatilgan maqsadni ifodalaydi. “Yaxshilik bilan nom qoldirmoqning o'zi ulug' mukofotdir” - deydi u. Yaxshidan ot, yomondan dod qoladi, degan xalq maqolidagi fikr Alisher Navoiy aforizmlarining birida shunday talqin etilgan edi:

Bu gulshan ichraki yo'qdir baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.

"...Hayotning zangini oltinga aylantirmoq" likdek ezgu ishda eng muxim masala - yurt boshliqlarining adalat bilan ish ko'rishidir. Xamma narsa faqat unga bog'liq. Navoiy asarlari xalqning tinch, yaxshi yashamoqligi uchun podishoning adolatli, insofli bo'lishi zarur va aksincha ularda davlat boshlig'ining adalatsizligi, zolimligi el - yurt ishidan yuz o'girib maishatga berilishi xalq boshiga qanday fojia va falokatlar keltirishi mumkinligi juda ko'p ibratli misollarda tasvirlanganligi ma'lum.

Shohki ish adl ila bunyod etar
Adli buzuq mulkin barbod etar.

kabi aforizmlaridagi xalqchil fikrga xamisha amal qilinganligini bo'rttirib tasvirlaganida katta haqiqat bor. Chunki "bu mamlakatda mansabdorlar toifasining xalqqa jabr-zulm qilmog'i bir odat va an'ana holiga kirib qolgan". Yurtdagi hukmron odatlarga, shoirning do'sti Ho'ja Afzal aytganidek, "zo'r balo"ga Navoiy adolatli, insonparvarligi qarama-qarshi qo'yiladi. "Podsho hazratlari,-nazokat bilan murojaat etdi Navoiy: Bizning fikrimizcha har bir ishda aqlni rahnamo qilmoq lozimdur. Zeroki insonlar haq yo'lni hamisha aqlning nuri bilan topmishlar. Har turli mushkilotlarni ham aql bilan hal etmishlar". Bu dono fikrlarda. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhodning o'z tajribasida o'tkazgan hulosasini ustalik bilan Navoiyning yuqoridagi nutqiga singdirib yuborganligini sezish qiyin emas. Farhod shunday degan edi:

Dedi: har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.

Xalqning dinga bo'lgan to'g'ri munosabatidan kelib chiqqan "bir soat tafakkur bir yillik toatdan afzal" degan hulosali fikrni Oybek Alisher Navoiy ko'p vaqt takrorlashni sevganligini aytishida ham insonning aql-zakovatiga, qobiliyatiga katta ishonch bilan qaraganini ko'rsatadi. Umuman, "inson aqli - olmos", "dono aytsa, el aytgani, elning g'amini yeb aytgani", "aqlli ish - qanotli qush", "oy tunda kerak, aql kunda kerak" kabi xalq maqollarida xam mehnatkash inson zakovatining beqiyos kuchi va mohiyati ochilgan. Agar Xusayn odatdagidek qilich bilan chora ko'rishni ep bilsa Navoiy

hayajon bilan “masala adolat va haqiqat masalasi” ekanligi, bunday nozik paytlarda hoqon ko’ngillarning yarasi uchun “hakimi g’oziq” - bilimdon, usta tabib bo’lishi zarurligi, “bu dardini tahqiqlamoq, adl suvi bilan yuvmoq, davolamoq lozimligini uqtirib hukmdorga butun bir qat’iyatlik bilan shunday deydi: “Haqiqat olomon tarafidadur. Haq so’zni aytgan og’izlarni tosh bilan qonatmoq emas, haqiqat tamalini qulatmoqqa ko’tarilgan qo’llarni kesmoq zarur”. Navoiyning shu o’rinda g’alayonchi olomon bilan yaqindan aloqa bog’lashi, umumiy til topishi “arz - dod qilg’ali eshikda to’plangan kambag’al aholini qabul qilishga kirish”ganida - xalqning talab va ehtiyojlarini qondirishdek eng hayotiy, zaruriy vazifani bajarganida ko’rinadi. “Yoshmi, keksami, ayolmi, tojik, o’zbek - har kimning shikoyatini sabot - matonat bilan tinglaydi”. Shikoyatchilarning hol - ahvollariga doir savollar beradi, ularni yupantiradi, da’volarini hal qiladi. Shoirning qoshiga yig’lab kirganlar tabassum bilan, bukchayganlar adolat kuchi bilan ruhlanib, qadlarini rostlab chiqdilar”. Mana shu yo’l bilan shoir jafokash xalq ko’ngliga yo’l topa oladi, dardiga malham qo’yadi, o’z qilgan ishidan g’oyat mamnun bo’ladi.

Oybek Arslonqul xarakterini yaratganda, xalq dostonlaridagi ijobiy qahramonlarning haqiqat izlash uchun kurashish usulidan foydalanadi, yana shu narsa muhimki, dostonlarimizda qahramonlarning haqiqat uchun kurashi ko’pincha sevikli yorga yetishish yulida ruyobga chiqadi.

Arslonqul Dildordan nogahoniy ayrilganidan keyin iztirobga tushadi, sevgi uchqunlari alangaga aylanadi - oshiq yigit sabot va matonat bilan qizni qidirishga tushadi. Oybek dostonlardagidek Arslonqulning Dildorni izlab Astrobodga borgani, undan Balhga o’tgani, yullarda chekkan mashaqqati, xilma-xil to’siqlarga duch kelishi va ularni yengishi va boshaa folklornamo detallar va tafsilotlarni bayon qilib o’tirmaydi, balki, uning “o’z dardi bilan qovirilib”, “uzun qissasini Sultonmurodga so’zlaganini aytadi, qizning podshoga tortiq qilinganini eshitganda: “Ey sho’r peshonam! - deydi u titroq, xazin ovoz bilan. - Dildordan hamishaliqqa ayrilibman-da...” Arslonqul shunday og’ir ahvolda qolganida ham qizdan umidini uzmaydi. Arslonqul va Dildorning bir-birlariga

bo’lgan sevgi sadoqati va vafodorligi ularni umidsiz, loqayd qilib qo’ymaydi, balki sevishganlarni borgan sari irodali, faol, yengilmas qiladi. Olijanoblikka va qahramonlikka undovchi bu sevgi har ikkala qalbga kuch, g’ayrat va jasorat bag’ishlaydi, ayriliq hijron ularni bir-biriga yanada yaqinlashtiradiki, bu qahramonga ko’tarinki ruh bag’ishlab turadi.

Arslonqul qiyofasida Navoiy o’tli - epchil, bahodir yigitni ko’radi. Endi uning o’z kuchini yurt uchun bag’ishlashga da’vat etib Navoiy xalqimizning “mard maydonda sinaladi” maqolini o’zlashtirgan tarzda qo’llaydi.

Oybek Alisher Navoiy timsolini buyuk mutaffakir, odil davlat arbobi sifatida keng va chuqurroq tasvirlay borib, nixoyat uning xalqning otasi bo’lib qolganiga alohida urg’u beradi. Shoirning fikri, so’zi xalqning so’zi bulib tuyuladi, Xirotga Badiuzzamon bostirib kelayotganda shahar qo’rg’onlarini mustahkamlash zarurligini maslahat beradi. “Xalq har yoqdan qichqirib, suyukli shoirning, mehribon otaning fikrini ma’qulladi”. Navoiy lashkar va podsho o’rtasidagi munosabatlar haqida gapirganda ham “ota” so’zini xuddi shu ma’noda qo’llaydi. Navoiy vafotidan keyin Sultonmurod Arslonqulga “aziz ota”ning fikrini, aqlini davom ettirish zarurligini uqtiradi. Go’ro’gli turkumidagi dostonlarda xalk o’zining eng ishongan, suyukli, adolatparvar, mard yurt boshlig’i Go’ro’gliga va ba’zan, Avazga nisbatan ham elning otasi, cho’pon, karamli, sulton kabi iboralarni atayin ishlatadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, maqol va iboralardan Oybek obrazlarning o‘zlariga xos xususiyatlarini ochishda ham foydalanadi. Yodgor Mirzoga qarshi kurashda dushmanlarning yovuzliklari ularning o’z boshlariga yetishi muqarrarligi Navoiy nutqida “birovga choh qazisang o’zing tushasan, degan xalqning dono maqoli keltirilib, “hiyonatkorlar o’z chuqurlariga o’zlari yiqilurlar” shaklida qo’llanadi. Yana shuni ta’kidlab o’tish mumkinki, Navoiy o’zining lirik g’azallarida ham xalq boshiga tushgan gam - alamni o’z boshiga kelgan musibat deb biladi, his etadi. U “Aylaram” radifli bir g’azalida ulug’ insonga xos xalqparvarlik g’oyasini kuyidagicha ifodalagan edi:

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamam,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.

Ko’ramizki, shoir boshidan o’tgan hayotiy voqealar “Navoiy” romanida yozuvchinnng o’z badiiy niyatiga moslashtirilgan holda foydalanilgan. Natijada asar muallifi xalqparvar Navoiy timsolini tarixiy haqiqatga juda yaqin qilib tasvirlab, ulug’ shoirning o’lmas siymosini yaratishga muvaffaq bo’lgan. Sevikli adibimiz Oybek “Navoiy” romanida xalq tilining rango - rang boyliklari va bo’yoqlaridan mohirlik bilan foydalanib, Navoiy qiyofasida xalq baxti - saodati uchun kurashgan zotning go’zal ma’naviy dunyosini, uning qilgan ajoyib ishlarini bir butun holda gavdalantirdi. Bunda u xalq og’zaki ijodining boy imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti . T-2004
2. Umarov H.Adabiyot nazariyasi. T-2004
3. Boboyev T.Adabiyotshunoslik asoslari. T-2002
4. Oybek .Navoiy romani. T-1963
5. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali .2005-yil sonlari
6. O‘zbek milliy enseklopediyasi. T-2000, 5-tom.

NAVOIY FALSAFASIDAGI ONTOLOGIYAGA OID ISTILOHLAR IZOHI

Norov T.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Shu kunlarda yurtimizda va butun dunyoda ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy tavalludini nishonlash bilan bog‘liq shukuhli muhit hukm surmoqda. Yaqinda e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” Qarori ana shunday mas’uliyatli va ulug‘vor vazifani amalga oshirishda, muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Alisher Navoiy faqatgina badiiy san’at darg‘asi bo‘libgina qolmay, uning merosi teran falsafiy g‘oyalarning badiiy-majoziy talqinidir. Lekin uning falsafiy merosi falsafa ixtisosligi bo‘yicha tadqiqotlar doirasidan chetda qolib kelmoqda.

Hozirgi falsafaga oid darslik, o‘quv qo‘llanma, lug‘atlar va boshqa o‘quv, ilmiy manbaalarda asosan, qadimgi Yunoniston, G‘arbiy Yevropa falsafiy maktablarida shakllangan ilmiy-falsafiy terminlar, tushunchalar, qonuniyat va kategoriyalar qo‘llanib kelinmoqda. Bu istisnosiz, o‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarga ham taalluqli. Xususan, borliq so‘zi va u bilan bog‘liq tushuncha, tamoyil, istilohlar (terminlar), qonuniyat, kategoriyalar – ontologiya va uning qonuniyatlari tarzida ifodalanib kelinmoqda. Masalan: umuman, falsafaning o‘zi, panteizm, substantsiya, materiya, logika, atom, materializm, idealizm, liberal, dialektika kabi terminlar.

Navoiy asarlarida ham shunday falsafiy istilohlar, tushunchalar, ularning mazmunini anglatuvchi shunday so‘zlar ishlatilganki, ular, umuman falsafaga oid, aynan ontologiyaning, ya’ni borliq falsafasini hali o‘zbek tilidagi falsafaga oid manbalarda keng istifoda etilmagan so‘zlardir. To‘g‘ri, Navoiy asarlaridagi so‘zlar va istilohlar etimologik jihatdan asli arabiy, forsiy, mo‘g‘ulcha, qadimgi o‘zbek (turkiy) tilidagi, qadimgi Hind va aynan hozirgi Yevropa umuman G‘arb falsafasining tamal toshi hisoblangan Yunon falsafasiga oid so‘z va istilohlar bo‘lib, bu hol Navoiyning o‘z davrigacha bo‘lgan falsafiy ta’limotlardan chuqur bahramand bo‘lganligini anglatadi. Navoiy asarlarining tili juda murakkab bo‘lib, u turli tillar

qorishmasidan iboratligi, ayniqsa uning davrida iste'fodada bo‘lgan so‘zlar va istilohlar hozir kundalik iste'molda bo‘lmaganligi, ularni hozir tushunish, tub mohiyatiga yetish bilan bog‘liq qiyinchiliklar tug‘diradi. Lekin tilshunoslar ta'biri bilan aytganda, biz bu so‘zlar, atamalar, iboralarni "eskirgan so‘zlar" qatoriga qo‘shib qo‘ysak, haqiqiy ma'naviy va xususan falsafiy merosimizdan o‘zimiz va keyingi avlodlarni bebahra qolishiga sababchi bo‘lamiz. Afsuski, oldingi e'tiborsizlik tufayli, hozir ham ularning asosiy qismi asosiy mazmunidan bebahramiz. Albatta, tushunib bo‘lmaydi deb tashlab qo‘yilaversa, keyingi bosqichda umuman tushunolmaydigan bo‘lib qolishimiz aniq. Chunki Navoiy va uning davri merosini asl manbalardan o‘qib tushunadiganlar oramizda tobora kamayib borayotganligi tashvishli hol. Biz ushbu maqolada ayrim-ayrim shunday istilohlar tahlil qilishga harakat qilamiz.

Misollar:

Bidoyat [ANATIL, 1 jild.1983:288] - ya'ni ibtido, boshlanish xususan, olamning ibtidosi masalasi;

Navoiyda ibtido, xususan olamning yaralish ibtidosi garchi ko‘p o‘rinlarda ibtido tarzida istifoda etilsada, biroq uning ontologik – ya'ni olamning yaralishi ibtidosi masalasi "bidoyat" tarzida ifodalangan.

"Saddi Iskandariy "da
Birov hamdidadir bidoyat anga,
Ki yo‘q ibtidou nihoyat anga [Navoiy, 1993:14].

Ya'ni, Allohning hamdiga bag‘ishlangan bu baytda, olamning ibtidosi va nihoyasi Uning irodasiga bog‘liq, deyilyapti.

"Hayrat ul-abror"da
Ne bo‘lib avvalda bidoyat sanga,
Ne kelib oxirda nihoyat sanga [Navoiy, 1991:24].

Ya'ni, olamning ibtidosi va nihoyasi, oxiri, tugashi, intihosi Sensan va butun borliq va vaqt Senga tegishli, ularning taqdiri Sening irodangga bog‘liq.

Bu ikki joyda ham Navoiy olamning ibtidosini Allohga ishorat tarzida ilohiy talqinda ifoda etib, bu sir-sinoat uchun faqat Yaratganga hamd aytish lozim, chunki olamning ibtidosi va intihosini faqat Ugina biladi, umuman borlik va yo‘qlikning hukmi Uning irodasiga bog‘liqligi e'tirof etilgan.

Bu yerda Allohning bidoyatini, borliqning bidoyati, Allohning

azaliyligi va abadiyligini hech kim aytib bera olmasligi uqtirilmoqda. Bidoyat ham ibtido, olamni ibtidosi asli Alloh ekanligiga ishora. Shundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, ayrim kunlik iste’foda etadigan so‘zlarimizning tub mohiyatini unchalik ham tushunib yetmasligimiz ko‘rinib qoladi. Xususan, “mohiyat” so‘zi, asl kelib chiqish ma’nosini berib, alohida bir voqe’lik emas, aslda borliqni ilk yaralishi bilan bog‘liq teran ma’noni berar ekan. Biz bu so‘zni “mazmun-mohiyat” tarzida aytamiz. Agar mantiqan qaralganda mohiyat-mazmun deyish to‘g‘riroqdir. Zero, narsalar avval yaraladi keyin uning mazmuni bayon qilinadi. Navoiy asarlari, umuman mumtoz Sharq falsafasida mohiyat, javhar istilohi – G‘arb falsafasidagi subtantsiyani anglatadi.

Adam – yo‘qlik; hali olam va olamdagi hech narsa yo‘q bo‘lgan vaqt.

Olam yaralishidan oldingi, Alloh olamni yaratmasidan ilgarigi davr va holatni anglatadi [ANATIL, 1 jild.1983:36-37]. Ya’ni adam – yo‘qlik, hali Allohdan boshqa hech narsa bo‘lmagan vaqt. Navoiy falsafiy qarashlarida ham ungacha bo‘lgan ayrim falsafiy ta’limotlarning olamni yaralishi, ibtidosiga shu tarzda javob izlangan va Qur’oni Karim oyatlari asosida olamni Alloh yaratgan, undan ilgari ya’ni azalda, adam – yo‘qlik bo‘lgan, Alloh yaral dedi, olam yaraldi. degan panteistik, ontologik falsafiy yondoshuv bor. Bu hol aslda Qur’oni Karimning birinchi surasi “Fotiha” surasida “Olamni yaratgan rahmli va mehribon Rabbiyga hamdlar bo‘lsin” deb boshlangan oyati kalima va boshqa bir nechta oyatlar misolida tahlil qilingan.

“Xazoyinul-maoniy”da

Ishq ila topdim adam sahrosidin mulki vujud,

Oshiq o‘ldum, dard qilg‘uncha vujudimni adam [Navoiy, 4 t.1989:402]

deyilgan bayt bor. Biz bu yerda, adamni ham azalda yo‘qlik mazmuni bilan birga, uning keyin yo‘qlikka mahkum bo‘lish, ya’ni bordan yo‘qqa aylanish ma’nosida ham qo‘llanganini ko‘ramiz.

Katmi adamdin neki mavjud o‘lub,

Sojid o‘lub, sen anga masjud o‘lub [Navoiy, 1989:402],

Katmi adam iborasi, yo‘qlik siri, azal yoki adam maxfiyligi tarzida tushuniladi. Ya’ni ma’nosi, olamning yaralishi aqldan tashqari, aql bilan anglab bo‘lmaydigan bir maxfiylik, sir, uni faqat bandalar sajdagohi bo‘lgan zotga, Allohga ayon degan fikr chiqadi.

Yana “Mahbub ul-qulub”da “Har kim adam nihonxonasidin vujud anjumanig‘a qadam urubtur va bu baqosiz oromgohda bir nafas o‘lturubdir” [Navoiy, 1998:150]

Abad- cheksizlik, davomiylik, nihoyasizlik, so‘ngi yo‘q zamon (azalning ziddi). Navoiyda bu vaqt kategoriyasiga daxldor istiloh bo‘lib, uning bayonida olamdagi vaqt ana shu adam, azal va abad orasidagi umumiy vaqt bo‘lib, u inson irodasidan tashqarida, uning egasi ham Alloh deb qaraladi. Misol uchun “Xazoyin-ul maoniyda”da

Zihi inoyatin oxir kelib abad avval,

Vale xabar bera olmay bidoyatinga azal [Navoiy, 1989:326].

Navoiyda adam, adamda, adam chohi – yo‘qlik jari, g‘ori tarzida qo‘llanilgan. Bu yunon falsafasidagi makonga daxldor - utopiyadan farq qiladi. Unga yaqinroq lomakon istilohsi qo‘llaniladi, lekin, u ham utopiya bilan aynan ma’nodosh emas.

Azal – eng avval boshlanish, ibtidosiz, qadim ma’nosini anglatadi.

“Hayrat-ul abror”da:

Ey sanga mabdoda abaddek azal,

Zoti qadiming abadiy lam yazal [Navoiy, 1991:21], deydi Navoiy.

Mabdo yoki mabda’ ham boshlanish, asl asos, asl mohiyat ma’nolarida qo‘llaniladi [ANATIL, 1 jild.1983:212].

Lam yazal ham doimiy abadiy ma’nosini beradi[1:165-166].

Araz – biror narsaning asli bo‘lmay, keyin paydo bo‘lgan vaqtli sifati [1:212].

“Saddi Iskandariy”da

Qolmayin to‘rt javhar, olti araz

Olti-yu to‘rtdin bir anga g‘araz [Navoiy, 1993:343]

Qayyum – doimiy, abadiy borliq [ANATIL, 4 jild.1983:23]

“Hayrat ul-abror”da

Har neki qoyim, o‘zi qayyum o‘lub,

Bo‘lg‘usi ul, borchasi ma’dum o‘lib [Navoiy, 1991:75]

“Farhod va Shirin”da esa: qayyum mutlaq, - Xudoning sifati; barqaror turuvchi; qayyum mutlaq sifatida mu’arro deb ta’riflangan [6:78].

Olamning yaralishi, ya’ni ibtidosi falsafa uning negizida paydo bo‘lib alohida, mustaqil fanlar: fizika, kimyo, biologiya, astronomiya, matematika kabi aniq fanlarning asosiy va muhim muammosi bo‘lgan, bo‘lib turibdi va bo‘lib qoladi ham. Bu maslada ham ilmiy bilimlarga asoslangan moddiyunlik (materialistik)

va ilohiy (teologik, panteistik) asosga qo‘yilgan diniy talqin va tajriba takrorlanish qonuniyatlari va ilmiy yondoshuvga tayanuvchi dunyoviy yondoshuvlar namoyondalari o‘z nuqtai nazarlarini ilgari surib kelishadi. Aslida falsafaning oldidagi dunyodagi, ya’ni yerdagi yechimsiz savollar, olamning yaralishi ibtidosi bilan bog‘liq global va muammo oldida hech qanday aktuallikka ega emasdek tuyuladi. Shu sababdan, islom falsafasi, mumtoz falsafada bu dunyo bir chaqaga arzimaydi degan teran qarash bor. Lekin ularning darajasi va o‘rni bor.

Musulmon sharqi, musulmon odobiga ko‘ra, biror masalaning tub mohiyati, yoki biror savolning yechimida aniq isbotlovchi dalil, hujjat, shuningdek, biror voqe’likni ko‘rmasdan turib guvohlik berish hollari to‘g‘ri kelsa, Vallohu a’lam, ya’ni Alloh bilguchiroqdir, deyish savobli, to‘g‘ri yo‘l ekanligi uqtirilgan. Xalqimiz tilida “Xudo biladi” iborasi.

“Farhod va Shirinda”:

Ikkisi balki ayni ishq, fafham!

Tugondi borcha so‘z, vallohu a’lam! [Navoiy, 8 t. 1991:10]

Bu yerda birinchi satrdagi jumlaning ma’nosi, - bu yerda gap ikki olam siri haqida borib, odam Ollohni qancha oshiqlik (ishqi ilohiy, siddiqlik) kuyiga berilib anglashga harakat qilmasin, odam, o‘qib o‘rganib, tafakkur bilan tushunib, anglab ham ko‘p narsani biladi. Lekin olamda, dunyoda shunday masalalar borki, ularga inson tafakkuri yetmaydi. Ikkinchi satrda, aql yetmagan masalalarda, hujjat, dalil bo‘lmasa, bunday holda gapni qisqa qilib, Vallohu a’lam degan yaxshiroq, to‘g‘riroq, deyilgan.

Bu masalada agar alohida olingan insonning yaralish ibtidosi ona embrionidagi urug‘lanishidan boshlanishi deb qarasak, vaholanki, uning ota onasining ibtidosi ham insonni aqli yetishi mumkin bo‘lmagan ibtidolar va jarayonlar tarixidir. Yoki biror daraxtni paydo bo‘lishida ibtido danak yoki urug‘ni nam tuproqqa tushishi va uni unib chiqishi uchun zarur tabiiy sharoit va boshqa holatlar tarzida qaralsa, danakni o‘zini paydo bo‘lishi ibtidosi ham aql yetishi qiyin masala. Bunday murakkab masalalarga hozircha zamonaviy fan ham ojiz. Vaholanki, olamni va odamzodni ibtidosi haqida gap borar ekan bu juda mas’uliyatli masala ekanligi namoyon bo‘ladi. Zero falsafadagi “porodoks”, ya’ni yechimsiz muammolar tushunchasi ham shunda.

Navoiy “Xazoyin-ul maoniy”da
Bahona ummahot o‘ldiyu obo yo‘qsa sun’ingdin,
Ato birla anog‘a ne atovu ne ano paydo [Navoiy, 1989:10], deydi.

Ya’ni agar Sen mo‘jizali qalaming bilan, bobo-momolarni olamga keltirmaganingda edi, keyingi tug‘ilajak bolalarni ota-onasi qanday paydo bo‘lar edi, degan ma’no chiqadi.

Shu sababdan ham musulmon falsafasida odat darajasiga ko‘tarilgan “Vallohu a’lam” iborasi iqrorlik belgisidir.

Lo-u naam birla xato yo savob,
Yozib anga vallohu a’lam bissavob [ANATIL, 1 jild.1983:356].
Chun Navoiydin uzulding yor savol o‘lmoq anga,
Jonidin mahjur o‘lar vallohu a’lam bissavob [ANATIL, 1 jild.1983:356].

Kabi istilohlar uchraydi va ular chuqur tadqiqotlar talab qiladi. Bularni tadqiq qilib, xulosalarini xalqimizga, yosh avlodga taqdim qilish biz ziyolilarning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 jildlik. 1 jild. – T.: Fan, 1983.
3. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy. 20 jildlik MAT. 11 jild. – T.: Fan, 1993.
4. Navoiy. MA– T.: 20 tomlik. T.7. Xamsa: Hayrat ul-abror . – T.: Fan, 1991.
5. Navoiy. MA– T.: 20 tomlik. 2 t.Navodir un-nihoya . – T.: Fan, 1987. 6. Navoiy. MAT:20 tomlik.10 t. Xamsa: Sab’ai sayyor . – T.: Fan, 1992. 7. Navoiy. MA– T.: 20 tomlik. 8 t. Xamsa: Farhod va Shirin . – T.: Fan, 1991.
8. Navoiy Alisher. Xazoyin ul-maoniy. 20 jildlik MAT. – T.: Fan, 1991.
9. Navoiy. A. MA– T.: 20 tomlik. 14 t. Mahbub ul-qulub . – T.: Fan, 1998.
10. Navoiy. A. MA– T.: 20 tomlik. 4t. Xazoyin ul-maoniy: Navodir ush-shabob . – T.: Fan, 1989.

ALISHER NAVOIYNING “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” HAMDA MUSONING “IBTIDO” KITOBI QIYOSIY TAHLILI

Oybek NORMURODOV
Guliston davlat universiteti

Ma’lumki, tarixda yashagan payg‘ambarlar va ularning hayoti bilan bog‘liq afsona hamda rivoyatlar uzoq yillardan buyon takror-takror qalamga olinmoqda. Payg‘ambarlar tarixiga oid asarlar yaratish uchun Berkaxon hukmronligi davridan boshlab Oltin O‘rda hukmdorlari astaoydil harakat qildilar. “Qisasi Rabg‘uziy” shunday asarlardan biridir. [Rahmonov, 1997:231]. Bu kitob agiografik asardir. Keyinchalik turkiy adabiyotda yana bir xuddi shu yo‘nalishda yozilgan Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari din tarixiga bag‘ishlangan muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan manba bo‘lishi bilan birga ilmiy nasrning yorqin namunasi bo‘lib, mualif asarda din tarixi hamda yunon falsafasi bilimdoni sifatida namoyon bo‘ladi. [Sirojiddinov, Yusupova, Davlatov, 2018:221]. U o‘zining badiiy yuksakligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Har ikki asar uchun ham Qur’oni karim asosiy tayanch manba vazifasini bajargan. Yuqoridagilar qatori Tavrotning birinchi kitobi “Ibtido” ham Odam alayhissalomdan to Yusuf alayhissalomgacha yashagan payg‘ambarlar haqidagi qissalardan iborat. Bu kitob muqaddas kitoblardan biri bo‘lib, eramizdan avvalgi 1400-yilda Muso alayhissalomga nozil bo‘lgan. Bu asarlarning har biri jahon adabiyotining durdona manbalari bo‘lib, ularda hikoya qilingan payg‘ambarlar hayoti bir-biridan turli xil uslubda qalamga olinishi bilan farqlansa ham, ular bilan bog‘liq voqealar mazmunan umumiylikni tashkil qiladi. Ana shunday jihatni Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari hamda Musoning “Ibtido” kitobida yozilgan “Qobil va Hobil qissasi” misolida ko‘rishimiz mumkin. Qissaning har ikki asarda ma’lum o‘xshash va farqli jihatlar talay. Jumladan, “Ibtido”ning birinchi bobi “Dunyoning yaratilishi” rivoyati bilan boshlanadi. Kitobning ikkinchi bobi “Yaratilishning yettinchi kuni”, “Odam va jannat”, “Momo Havoning yaratilishi”, uchinchi bobi

esa “Odam Ato va Momo Havoning gunoh qilishi”, “Jannatdan quvilish” kabi afsonalarni o‘z ichiga oladi. “Hobil bilan Qobil” qissasi kitobning to‘rtinchi bobidan o‘rin olgan. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari bob yoki fasllarga bo‘linmaydi. Asar Odam alayhissalomning yaratilishidan to No‘shiravonning odil vaziri Buzurjmehrgacha bo‘gan voqealardan iborat. Bu asarda Odam Ato va Momo Havoning jannatdan haydalish voqeasidan so‘ng “Hobil va Qobil” qissasi boshlanib, Odam Ato bilan bog‘liq rivoyatning ichida uning davomi sifatida so‘z yuritilgan. “Ibtido”da esa ayni shu rivoyat mustaqil bo‘lib, Odam Ato va Momo Havo rivoyatiga mazmunan aloqador hisoblanadi. Har ikki asarda Qobil va Hobil ismlari bir xil bo‘lib, ularda hech qanday o‘zgarish kuzatilmaydi. Hobil va Qobil ismining ma’nosi “Tarixi anbiyo va hukamo”da aytilmagan, “Ibtido”da esa Qobil ismi Havo tomonidan aytilgan quyidagi jumla orqali izohlab ketilgan: *“Xudovand bergan qobillik bilan bir kishini qo‘lga kiritdim”*. [Muqaddas kitob. Ibtido, 1992: 7].Hobil ismining ma’nosi har ikki asarda ham izohlanmagan. Navoiy asarda Qobilning qaysi kasb egasi ekanligi haqida fikr yuritmaydi, Musoning kitobida esa *“Hobil qo‘ychivon, Qobil esa dehqon bo‘l”*ganligi aytilgan [Muqaddas kitob. Ibtido, 1992: 7].

“Tarixi anbiyo va hukamo”dan olingan quyidagi parchani o‘qiymiz *“Va Havo odamdin har qachon homila bo‘lsa erdi, iki farzand kelturur erdi: bir o‘g‘ul, bir qiz. Bu o‘g‘ilg‘a yana bir qorindin kelgan qizni berurlar erdi va bu qizni yana bir qorindin kelgan o‘g‘ilg‘a berurlar erdikim, aroda farqe bo‘lg‘ay. Qobil bila tuqg‘on qiznikim oti Iqlimo debdurlar. Tiladikim, Hobilg‘a berg‘ay.”* [Navoiy, 2013: 540]. Bu yerda bir qancha tasvirlar jamlangan. Ularning birortasi “Ibtido”ning “Hobil va Qobil” qissasi matnida uchramaydi.

Har ikkala asarda ham qurbonlik voqeasi mavjud bo‘lib, bu qurbonlikning sababi “Tarixi anbiyo va hukamo”da keltiriladi: *“Qobil o‘z singlining husni jihatdin anga moyil erdi, unomadikim Hobilg‘a bergaylar. Odam alayhissalom ikisiga qurbon buyurdikim, har qaysining qurboni qabul tushsa, anga bergay. Hobilni qurboni qabul tushub, Odam alayhissalom Iqlimoni anga berdi.”* [Navoiy, 2013: 540]. Ushbu voqeadan so‘ng Qobil ukasiga xusumat qilib

uni o‘ldiradi. Bu tasvir har ikki asarda ham kuzatiladi. Lekin Qobilning qurbonligi uning dehqonchiligidan olgan foydasidan ekanligi “Ibtido”da izohlangan: *“Bir muddatdan keyin Qobil yerning mahsulidan Xudovandga hadya taqdim etdi”*. [Muqaddas kitob. Ibtido, 1992: 7]. Demak, qurbonlikdan maqsad Odam Ato Iqlimoni kimga nikohlab berish ekanligini aniqlash bo‘lgan, bu hodisa “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ochiq aytilgan. Shu bilan birga bu voqea mazmun jihatdan har ikki asarda birdir. Har ikki kitobda Hobilning qurbonligi qabul qilinishining o‘zi buni ko‘rsatib turibdi. “Tarixi anbiyo va hukamo”da Hobilning o‘limiga sabab bo‘lgan jarayon quyidagicha keltiriladi: *“Odam alayhissalom Iqlimoni anga(Hobilga) berdi. Qobil* ***xusumat jihatdin*** *Hobildek qarindoshikim, suvari jamol va ma’naviy kamol bila orasta erdi Odam alayhissalom ani bag‘oyat sevar erdi, halok qilib, Odam alayhissalomni aning firoqida mubtalo qildi. Avval kishikim, nohaq qon qildi Qobil erdi. Chun andin burun hech kishi o‘lukni ko‘rmaydur erdi.”* [Navoiy, 2013: 540]. “Ibtido”da Qobilning qurbonligi(hadyasi) qabul bo‘lmagach u qattiq ranjiydi. *Xudovand Qobilga: – Nima uchun sen ranjiding? Nega qovoq solib o‘tiribsan? Agar yaxshilikni niyat qilganingda, unda bosh ko‘tarib yurmasmiding? Agar niyating yaxshi bo‘lmasa, ostonangda gunoh poylab turib, seni o‘ziga jalb qiladi. Sen esa, aksincha unga hokim bo‘l! – dedi.* [Muqaddas kitob. Ibtido, 1992: 7]. Bu o‘rinda Qobilning ranjishi, qovoq solishi, uni gunoh poylab turishi kabi tasvirlar “Tarixi anbiyo va hukamo”da uchramaydi. “Ibtido”da mana shu suhbatdan so‘ng Qobil ukasi Hobilni o‘ldiradi. Har ikki asarda ham Qobilning qurbonligi qabul bo‘lmagach ukasining o‘limi voqeasi yuz beradi.

Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo”da: *“Qobil mutahayyir bo‘lub, Hobilni ko‘tarib yurur erdi. Bori taolo hikmati munga mutaalliq bo‘ldikim, odamizod mayyitning madafanin bilgay. Iki malakni iki qarg‘a surati bila Qobil qoshig‘a yibordikim, biri-biri bila urushub, biri yana birin o‘ldurdi va qotil qarg‘a yerni tirnab, minqori bila qozib maqtulni dafn qildi. Qobil dag‘i bu ta’limni olg‘och Hobilni g‘or qazib, dafn qildikim, Bori taolo Qobil tilidinkim”,* deydi [Navoiy, 2013: 540] va Qur’oni karimdan olingan “Moida” surasining *“Mana shu qarg‘achalik bo‘la olmadimmi”* [Qur’oni, 2007: 87] oyatini keltiradi. “Ibtido”da esa Xudo Qobildan ukasining o‘limidan so‘ng

uning qayerda ekanligini so‘raydi. Qobil: “Uning soqchisi emasman”, deya qo‘rs javob beradi. Shunda Xudo Qobilga: *“Sen nima ish qilb qo‘yding? Ukangning qoni tuproqdan menga qarab faryod etmoqda. ... yerga ishlov berganingda ham, u o‘z quvvatini boshqa senga bermas. Yer yuzida sarson-sargardon bo‘lgaysan”* [Muqaddas kitob. Ibtido, 1992: 7]. Bu voqea ham “Tarixi anbiyo va hukamo”da qayd etilmagan. “Ibtido” kitobidan kim Qobilni o‘ldirsa, undan yetti karra o‘ch olinishi, uning la’natlanganligi sababli hech kim uni urmasligi uchun nishoni borligi, farzandi Hano‘xning tug‘ilishi, Qobilning o‘zi binokor bo‘lishi, o‘g‘li nomini shahar qurishi kabi tasvirlar o‘rin olgan va bu voqealarni Navoiy qayd etmaydi. “Tarixi anbiyo va hukamo”da esa Qobilning otashparast bo‘lib ketganligin aytiladi. Bu voqea ham Muso kitobida yozilmagan. Shu bilan birga Navoiy Hobilg‘a atab Odam alayhissalomning quyidagi marsiyasini keltiradi:

Odamniki, Haq lutf ila mavjud etti,
Majmu’i malak xaylig‘a masjud etti.
Oxir tanidin ruhni mafqud etti,
Ul nav’ki, nobud edi, nobud etti. [Navoiy, 2013: 541].

Shundan so‘ng Shis alayhissalom qissasi boshlanadi. “Ibtido”da ham “Hobil va Qobil” qissasi tugagach “Qobilning nasl-nasabi” qissasidan so‘ng Shit(Shis) alayhissalom bilan bog‘liq rivoyatga o‘tiladi.

Umuman olganda, har ikki kitobdagi qissa mazmunan bir xil. Ularda juziy tafovutlar ham kuzatiladi. Tahlildan shu ma’lum bo‘ldiki, “Hobil va Qobil” haqidagi qissa dunyo adabiyotidagi mifologik dunyoqarashning mushtarakligni ko‘rsatadi.

SODIRXON ERKINOV - NAVOIYSHUNOS

Orifjon OLIMJANOV
(ToshDO‘TAU)

O‘zbekistondagi XX asr navoiyshunosligiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri Sodir Erkinov (1930–2009) bo‘lgan. Olimning ilmiy faoliyati serqirra bo‘lgan. Shular ichida S.Erkinovning navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi o‘ziga xos o‘ringa ega.

S.Erkinov 1930-yil 30 yanvarda Farg‘ona viloyatining Rishton tumanida tug‘ilgan 2009-yil, 27 noyabr kuni Toshkent vafot etgan. U filologiya fanlari doktori (1977 yil), professor (1995). S Erkinovning ilmiy faoliyati, har qanday olimda bo‘lganidek, hayot yo‘li bilan bog‘langan. Sodir Erkinov xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Otasi Abduhakim (1938 y. vafot etgan) ijodkor inson bo‘lib, “Erkin” taxallusi bilan she’rlar yozgan. Sodir Erkinovning bolaligi urush yillariga to‘g‘ri kelgan: ikkinchi jahon urushi davrida pochtachilik qilgan. Farg‘ona viloyati Rishton tumanidagi 1-o‘rta maktabni 1948-yili tamomlagan. 1948–1952- yillar Ulug‘bek nomidagi Farg‘ona davlat pedagogika institutining (hozirgi Farg‘ona Davlat universiteti) o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida o‘qib, uni imtiyozli diplom bilan tugatgan. Talabalik yillarida she’r yozishga qiziqqan: dastlabki she’rlari Farg‘ona viloyati gazetalarida chop etilgan. O‘sha yillarni eslaganda Sodir Erkinov shunday deb yozadi “Men ustoz – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi Mirzaabdulla Bokiy – Nasriddinovdan, To‘xtasin Zohidovdan she’riyat va ilm sirlarini o‘rgana boshladim. Institutda o‘qib yurgan kezlarim keksa dotsent Akram Ibrohimov menga o‘ta mehribon edi. Qo‘qon pedagogika institutiga kelganim va Muqimiy uy-muzeyiga rahbar bo‘lgan kezlarimda Inom Rasulov hamda shoir Charxiy bilan hamkorlikda she’rlar yozishimiz esimda”.

Sodir Erkinov dastlabki faoliyatini badiiy ijoddan boshlagan, she’rlar yozgan. Dastlabki she’rlarida Shota Rustavelining (1172–1216) “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonidagi bosh qarhramonlardan biri – Avtandil (o‘zbekchalashtirilgan varianti – Aftondil) nomini o‘ziga taxallaus sifatida tanlagan. Shu taxallus

ostida she’rlari nashr bo‘lgan. Keyinchalik bu ism – taxallusni S.Erkinov uchinchi o‘g‘il farzandiga ism qilib qo‘ygan.

Sodir Erkinov 1952-yili Muqimiy nomidagi Qo‘qon pedagogika institutiga ishga taklif qilingan. 1953–1956-yillarda V.M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining aspiranturasini o‘tadi. Aspiranturada taniqli adabiyotshunos, O‘zSSR Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi Izzat Sulton (1910–2001) rahbarligida, SSSR Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi Yevgeniy Eduardovich Bertels (1890–1957), professor Emir Nadjipovich Najip (1899–1991) va SSSR xalqlari adabiyoti kafedrasining mudiri, mashhur olima Medina Iskanderovna Bogdanova (1906–1962) yordamida chuqur filologik ta’lim oldi. 1958 yili Toshkentda “Lutfiy va uning “Gul va Navro‘z” dostoni” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1952–1962- yillarda S.Erkinov Qo‘qon pedagogika institutining katta o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Aziz Qayumov (1926–2018) tashabbusi bilan ochilgan Qo‘qon Adabiyot muzeyi mudiri, 1962 yildan boshlab esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti o‘zbek adabiyoti bo‘limi katta ilmiy xodimi, 1976–1986-yillarda institut huzuridagi Matnshunoslik bo‘limi mudiri bo‘lib ishladi. U 1986–1995-yillarda esa o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘limining yetakchi ilmiy xodimi sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

S.Erkinovning ilmiy faoliyati 1950-yillardan boshlanib, bu davrda o‘zbek va tojik adabiyoti bo‘yicha qator maqolalar e’lon qiladi.

Olim 1959, 1960, 1965, 1988 va 2013-yillarda o‘zbek adabiyotiniyg yirik namoyandasi Mavlono Lutfiy asarlarini o‘zbek va rus tillarida nashrga tayyorlab, keng kitobxonlarga yetkazdi. Ushbu nashrlar uchun yozilgan so‘zboshilarda va ilmiy to‘plam, jurnallarda bosilib chiqqan maqolalarida olim Lutfiy tarjimai holini ma’lumotlar bilan to‘ldirdi, asarlari mazmunini yanada chuqur badiiy tahlillar vositasida ochib, shoirning ijodiy konsepsiyasi shakllanishi, kamol topish bosqichlarini belgilab berdi. Shu ishlarniig natijasi o‘laroq, 1965- yilda uning “Lutfiy” monografiyasi bosilib chiqdi.

S.Erkinov Til va adabiyot instituti nashr ettirgan besh tomlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” (1978–1980-yillari nashr bo‘lgan) mualliflaridan biridir. 1987–1989- yillarda nashr etilgan rus tilidagi

ikki tomlik O‘zbek adabiyoti tarixi kitobi uchun mualliflar jamoasi bilan birgalikda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Olim ko‘p yillar davomida Sharqda “Farhod va Shirin” qissasining shakllanishi, uning o‘zbek, tojik, ozarbayjon, hind, turk va boshqa xalqlar adabiyotida ishlanishi masalasi ustida jiddiy ilmiy ish olib bordi. 1971 yili “Fan” nashriyotida uning “Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili” nomli katta tadqiqoti chop etildi. Kitob nashrdan chiqqandan keyin o‘zbek va Sharq adabiyotining mutaxassislari bildirgan xolis fikr tavsiyalari asosida o‘z tadqiqotini to‘ldirib, 1974-yili “Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni va uning qiyosiy o‘rganishning ba’zi masalalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Olimning bu mavzudagi ilmiy ishini akademik Vohid Zohidov, Izzat Sultonov, Aziz Qayumov, prof. Abduqodir Hayitmetov kabi yirik mutaxassislar, shuningdek, ozarbayjonlik mashhur olim, Ozarbayjon va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor Hamid Arasli yuqori baholadilar.

S.Erkinovning ilmiy faoliyatida o‘zbek adabiyotining Sharq xalqlari adabiyotlari bilan aloqalarini tadqiq etish muhim yo‘nalishni tashkil qiladi. Olim Sharqda mashhur xamsachilik an’anasining Navoiygacha bo‘lgan tarixi, Navoiy “Xamsa”si an’analarining keyingi Sharq adabiyotida davom ettirilishi masalalari bo‘yicha sistemali ravishda shug‘ullanib keldi. Tadqiqotchining 1977-yilda bosmadan chiqqan “Asrlar osha mushoira”, 1985-yilda nashr etilgan “Sharq adabiyotida Farhod qissasi” kitoblari ham masalalarning ko‘yilishi va ularni hal etishdagi ilmiy tahlilning o‘ziga xosligi, asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Ilmda doim izlanishda bo‘lgan kamtarin olim S.Erkinov 1976–1986- yillarda Til va adabiyot institutida Matnshunoslik bo‘limini boshqarib, Hamza Hakimzoda Niyoziy (to‘rt tomlik), Hamid Olimjon (o‘n tomlik) va G‘afur G‘ulom (o‘n ikki tomlik) “Mukammal asarlar to‘plami” akademik nashrlarida ham noshir, ham muharrir, ham tahrir a’zosi sifatida faol qatnashdi.

S. Erkinovning nafaqat ilmiy-tashkiliy, balki jamoatchilik faoliyati ham diqqatga sazovor. U uzoq yillar mobaynida, ya’ni 1960- yildan to 2007 -yilgacha O‘zR FA Til va adabiyot instituti huzuridagi

doktorlik dissertatsiyalari ximoyasi bo‘yicha Ixtisoslashgan ilmiy kengash a’zosi edi. S.Erkinov Til va adabiyot institutining ilmiy, ijtimoiy faoliyatida faol qatnashib, o‘n aspirantga ilmiy rahbar va ikki doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalarida rasmiy opponentlik qildi. Olim o‘zining kamtarligi, ilmdagi izlanishlardan charchamasligi, yosh olimlarga samimiy xayrixohligi va tashkilotchiligi bilan hammaning hurmatiga sazovordir.

S.Erkinov navoiyshunoslik sohasida boshlagan yo‘lni uning farzandi – filologiya fanlari doktor Aftondil Erkinov davom ettirib kelmoqda. U otasi izidan borib, Alisher Navoiy ijodi bilan shug‘ullanmoqda. 1998-yili “Alisher Navoiy “Xamsa”si talqini manbalari (XV – XX asr boshi)” mavzuida doktorlik dissertatsiyasi himoya qildi va 2018 yili shu nomdagi kitobini chop ettirdi.

Adabiyotlar:

1. Lutfiy. Devon. Nashrga tayyorlovchi S.Erkinov. Toshkent, 2013.
2. Lutfiy. Sensan sevarim. G‘azallar, ruboiylar, qit’alar, tuyuqlar, «Gul va Navro‘z» dostoni. Nashrga tayyorlovchilar S.Erkinov, E.Fozilov, E.Ahmadxo‘jaev. Toshkent, 1987.
3. Rishtonlik olimlar. Birinchi kitob (bibliografik ma’lumotlar). Nashrga tayyorlovchi T.Zohidov. Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2018.
4. Erkinov S. Lutfiy. Toshkent, 1965.
5. Erkinov S. Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili. Toshkent: Fan, 1971; Erkinov S. Asrlar osha mushoira. Toshkent, 1977.
6. Erkinov S., M.G‘anixonov. Nizomiy Ganjaviy. Toshkent: Fan, 1992.
7. Erkinov. Sharq adabiyotida Farhod qissasi. Toshkent, 1985.

NAVOIY VA MUQIMIY ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Qo‘ldosh PARDAYEV
TDO‘TAU

Alisher Navoiy asarlari mazmun-mohiyati, poetik mukammalligi hamisha Muqimiyni rom etib kelgan. Muqimiy hajviy asarlarida ham Navoiy ijodidagi satirik asarlardan ta’sirlanganini ko‘rish mumkin. Masalan, Navoiy “Hayrat ul- abror” dostonining “Riyoyi hirqapo‘shlar” bobida riyokor shayxlarning barcha kirdikorlarini ayovsiz fosh etib, bu obrazlar orqali jamiyatdagi salbiy illatlarni tasvirlaydi. “Navoiy qalamining satirik kuchi bu bobda ayniqsa yorqin ranglar bilan tovlanadi. Bunda har bir so‘z tig‘day o‘tkir, har bir chiziq benihoya jonli va lo‘ndadir” [1.160]. Qahramonning boshdan-oyog‘igacha tasvir jarayoni zaharxanda kulgi bilan yo‘g‘rilgan: yamoqlari riyo iplari bilan tikilgan aftoda jandasi, egrilikdan pech-pech o‘ralgan sallasi, beo‘xshov soqoli, odamlarga ermak katta kalishi, hiyla uyiga ustun – hassasi, xullas har bitta detalni ko‘zdan qochirmagan shoir satirada tengsiz tasvir yaratadi:

Turfa soqolin osibon kulgudek,
Egri yig‘och uzra chiqib o‘chkudek.
O‘chkucha ham yo‘q ishida to‘g‘riliq,
Ul tutib o‘g‘ri, bu qilib o‘g‘riliq [2.167].

Xuddi bunday holni Muqimiy satirik ijodida ham ko‘rish mumkin. Masalan, shoirning “Avliyo” radifli hajviy asarini olaylik. She’rda o‘z manfaatlarini ko‘zlab, hech qanday ishdan qaytmaydigan, o‘zini “avliyo” ko‘rsatib, bemani axloqsizliklar bilan mashg‘ul kimsalar obrazini shoir quyidagicha tasvirlaydi:

Boshlarida shapka gohe, goh dastor “avliyo”,
Qo‘llarida subhayu bo‘ynida zinnor “avliyo”...
Shul erur kashfu karomatiki bo‘ylab subhu shom,
Chiqsa har yerdin bir is hozir xabardor “avliyo”.
Doimo beparda so‘z xalq ichra aytur beibo,
Bo‘lmagay deb qo‘rqaman nogoh sangsor “avliyo”... [3.382].

Muqimiy Alisher Navoiy merosidan kuchli ta’sirlanganligi

haqida, jumladan, “Tanobchilar”da Navoiy satirasining yaqqol ta’siri kuzatiladi. “Tanobchilar”dagi mana bu misralar:

Sulton Ali Xo‘ja, Hakimjon ikov,
Biri – xotun, birisi bo‘ldi kuyov.
Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq,
Guyo xayol aylaki, qilmay nifoq.

Osh yesalar o‘rtada sarson ilik,
Xo‘ja – chirog‘ yog‘i, Xakimjon – pilik.

Hayrat ul-abror”ning 12-bobidagi qishloq amaldorlaring o‘zaro do‘stligi to‘g‘risidagi misralarni eslatadi:

Bir-biri birla bo‘lishib o‘yla do‘st,
Har kishikim ko‘rsa degay mag‘zu po‘st…[4.204].

Navoiyda ham xuddi shunday mazmun satirik tahlil etilgan: “zulmda” amaldorlarning biri “hoji”, biri esa “pahlavon”, ular “mag‘zu po‘st”dek biri-biri bilan do‘st. Navoiy jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, amaldorlarning adolatsizligi, xalqqa o‘tkazayotgan zulmlari xususida quyidagicha yozadi:

Zulm etib ul kosibu dehqong‘a ham,
Kosibu dehqon neki, sultong‘a ham.
Qaysi viloyatg‘aki, azm aylabon,
El haramu bog‘ida bazm aylabon.
Gar xud ul uy sohibi hofi erur,
Istari avval mayi sofi erur.
May bila buzg‘och qorining holini,
Shohid uchun ham yuborur zolini.... [4.204].

Muqimiy “Tanobchilar” satirasida ham zolim amaldorlar kirdikorlari qattiq tanqid ostiga olinadi. Adolatsizliklarni xolisona baholashga, dehqonlarning dunyoqarashi, kechinmalari, ruhiyatini ochishga harakat qiladi. Ularning axloqsizliklari, pastkashliklari, kambag‘al dehqonlarga o‘tkazayotgan zulmi, poraxo‘rliklari shoir tomonidan quyidagicha tasvirlangan:

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,
Arz etayin emdi yozib nomalar.
Adl qulog‘ila eshit holimi,
Zulm qilur, baski, menga zolimi.

O‘n ikki oyda keladur bir tanob,
O‘zgalara rohatu menga azob... [5.343].

Ko‘rinib turibdiki, Navoiy va Muqimiy satirasining vazni, uslubi, mavzusi, tili, tasviriy ifodalari o‘zaro hamohang. Ikki shoir satirasi xususida adabiyotshunos Abdurashid Abdug‘afurov ham quyidagicha mulohaza bildirgan edi: “Masalan, Alisher Navoiyning “Hayratu-l-abror” dostonidagi zo‘ravon shohning, zulmkor amaldorlarning qishloqdagi faoliyatini tasvirlovchi epizod bilan Muqimiyning “Tanobchilar” satirasidagi qishloqqa chiqqan chor chinovniklari faoliyatini ifodalovchi misralar ana shunday namunalardan biridir. Har ikki shoir epizodlari qiyoslanganda mavzuning o‘xshashligi, ob’ektlarga munosabatning, satirik ruhning umumiyligi, hatto situatsiya va fosh etuvchi detallarning biri ikkinchisiga juda yaqinligi yuzaga chiqadi” [6.7].

Umuman, Muqimiy satiralarida Navoiy ijodining ta’siri kuchli ekanini yuqoridagi turkum asarlar ko‘rsatib turibdi. Muqimiy va Navoiy asarlarini qiyoslaganda, ular ijodida mushtarak jihatlar ko‘p ekani kuzatiladi. Xususan, mavzular mutanosibligi, qofiya va radif, obraz va timsollar, an’anaviy badiiy san’atlar takomili buning dalilidir. Bu xususiyatlar, o‘z navbatida, Muqimiy ijodiy kamolotida buyuk Navoiy san’atxonasining ta’siri katta bo‘lganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oybek “Xamsa”ning asosiy obrazlari. // MAT. O‘n to‘qqiz tomlik. O‘n to‘qqizinchi tom. – T.: 1979.
2. Sharipova N. Alisher Navoiyning “Hayratu-l-abror” dostonida hajv uslubi. – “O‘zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari” mavzuidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – T.: “Mumtoz so‘z”, 2014.
3. Karimov G‘. Muqimiy. Asarlar to‘plami. – T.: G‘afu G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.
4. Alisher Navoiy . MAT. Xamsa. Yigirma tomlik. yettinchi tom. – T.: Fan, 1991.
5. Karimov G‘. Muqimiy. Asarlar to‘plami. – T.: G‘afu G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.
6. Abdug‘afurov A. Muqimiy satirasi. – T.: Fan, 1976.

ALISHER NAVOIY DAVLATNI IDORA ETISHDA ILM-FAN VA OLIMU FUZALOLARNING O‘RNI HAQIDA

Mamlakatxon SULTANOVA
Toshkent davlat texnika universiteti.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida davlatni idora qilishda ilm-fan va olimlarning o‘rniga muhim e’tibor beradi. Navoiy shohlarni din peshvolariga nisbatan ko‘proq ilm-fanga va olimlarga tayanib siyosat olib borishini, hukmdor doimo olimlar maslahatiga suyanib, ilmli kishilarni himoya qilishga, ilm-fan taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratib berishga da’vat etadi. Chunki, Navoiyning o‘zi taniqli va mashhur olim bo‘lib, ilm-u fanning davlat siyosati uchun o‘ta muhim amiyat kasb etishini chuqur va teran anglagan alloma edi.

Navoiy o‘z davrida minglab olim-u fuzalolarni o‘z bag‘riga olgan, ularning ijodi uchun keng imkoniyatlar yaratib berishga harakat qilgan mutafakkir edi. Navoiyga doir ilmiy izlanishlarni o‘rganish shundan dalolat beradiki, sharqu g‘arbda hech kim fanga uningchalik homiylik va metsenatlik (o‘z mablag‘i hisobidan homiylik) qila olgan emas. Shu bilan birga, u xalq ichidan iqtidorli va iste’dodli yoshlarni bilimli qilish uchun o‘z yonidan yuzlab xonaqolar, madrasalar, kutubxonalar, maktablar qurdirdi.

Navoiy ilm-u fanni davlatni idora etishning asosiy manbalaridan biriga aylantirishga intiladi. Shohlarni bu yo‘lga o‘zining barcha imkoniyatlarini ishga solgan holda da’vat etadi. Uning asarlarini bosh qahramonlari ilmga tashna, olimlar bilan do‘st, ilmu fan bilan bilan amaliyotni uyg‘unlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslardir. Navoiy o‘zining “Saddi Iskandariy” dostonida ilm-fanning davlatni boshqarishdagi o‘rniga yuksak baho bergan. Mutafakkir dostonda Iskandarning bolalikdagi tarbiyasidan boshlab davlatni idora qilish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab masalalarini ilmu hikmat va olimlar yordamida echimini topganligini mohirona bir tarzda ifodalab beradi. Iskandarning otasi uning tug‘ilgan davridan tarbiya qilishni din peshvolariga emas, balki o‘z zamonasining eng mashhur olimlari – Naqumohis va uning o‘g‘li Arastu qo‘liga topshiradi.

Iskandar shohlik faoliyatini boshlaganidan keyin esa Arastu va Suqrot kabi mashhur olimlardan iborat ilmiy kengash tuzadi. U muhim

va davlat ahamiyatiga ega qarorlar qabul qilishni hamda boshqa turli murakkab masalalarni ilmiy kengash muhokamasi hamda olimlar maslahatlaridan kelib chiqib amalga oshira boshlaydi. Shuningdek, Iskandar boshqa davlatlar bilan urush va sulh masalalarida, muhim tadbirlarni amalga oshirishga qaror qilmasdan turib ularni hal qilishni ustozi Arastu bilan muhokama qilishni o‘z odatiga aylantirgan edi.

Iskandar bilan Arastu o‘rtasidagi ilmiy muloqotlar, savol-javoblar shu qadar teran va hayotiyki, ularning qadr-qimmati hozirgi davr uchun ham juda yuksakdir. Jumladan, Iskandar jahondor Eron podshosi Doro bilan urushga kirishdan avval ustozi Arastudan “bir ish yuzasidan ikki kimsa o‘rtasida yuz bergan nizoni yo‘qotish mumkinmi?” degan savolga quyidagicha javob oladi: “Nizodan foyda ham, zarar ham chiqishi mumkin. Modomiki bu ishning janjalsiz hal bo‘lish imkoniyati yo‘q ekan, shunday shartga rioya qilmoq lozim. U ham bo‘lsa, dushman bilan olishishga o‘zi qodirmi-yo‘qmi? Agar uning ustidan g‘alaba qozonishga ko‘zi etsa, u paytda olishishga bel bog‘lasa durust. Agar quvvatini u bilan barobar hisoblasa, mojaro chiqazib o‘tirishning hojati yo‘q. ...Nizoning har xil bosqichlarini bilish va qila olish mumkin bo‘lgan ishnigina qilish lozim. Kishi hamma ishda aqlni ishga solib, o‘z maqsadiga erishmog‘i lozim. Agar birovga aql yo‘lboshchilik qiladigan bo‘lsa, bu ishlarda mag‘lub bo‘lmaydi”[Alisher Navoiy, 1991: 638].

Bu savol-javobning zamirida Doro bilan Iskandar o‘rtasida kelib chiqqan nizo turar edi. Iskandar ustozi Arastu fikridan kelib chiqib Doro bilan urushishga qaror qiladi. Chunki, bu o‘rtada paydo bo‘lgan nizoni urushsiz hal qilib bo‘lmas edi. Urushning oldini olish uchun Iskandar har yili Doroga soliq tariqasida mingta tuxum holiga keltirilgan quyma oltini berib turishi lozim edi. Bu butunlay Iskandarga nisbatan adolatsizlik edi. Iskandarning asl talabi YUnon davlatining mustaqil bo‘lishi edi. Shuning uchun ham Doroga qarshi qilinadigan urush adolatli urush edi. Bu o‘rinda Navoiyning Arastu tilida adolatli va adolatsiz urushlar haqida fikr yuritishi mutafakkirning nihoyatda bilimdonligidan darak beradi. Qolaversa, Navoiy shohlarga Iskandarni olimlar bilan maslahatlashib ish ko‘rishini namuna sifatida tarannum etadi.

Navoiy davlatni idora qilishda, mamlakat salohiyatini yuksaltirishda ilm-fan natijalarini qo‘llashga muhim ahamiyat

beradi. Masalan, mutafakkirning tasvirlashicha, Iskandar askarlar kuchi bilan amalga oshirib bo‘lmas ishlarni, turli muammolarni olimlar tomonidan kashf etilgan qurollar yordamida amalga oshirishga erishadi. Jumladan, Kashmir podshosi Mallu Iskandarga bo‘ysunishdan bosh tortib, mustahkam qal’asi ichida berkinib olgan paytda Iskandar olimlari tomonidan ixtiro qilingan qurollar vositasida uni tezlik bilan egallaydi.«Ular boshlab yulduzlarning holatini ko‘zdan kechirib, ularning tabiati o‘zlarining bu ishlariga qanchalik mos kelishini qiyos qilib ko‘rdilar. Keyin bir qancha qo‘ra va damlarni tayyorlab, ma’danlardan birmunchasini hozirlab, simob, qalayi va mis aralashmasidan katta koptokka o‘xshash bir qurol yasadilar. U to‘p falak singari dumaloq bo‘lib, ichi osmon gumbaziga o‘xshash bo‘sh edi. Uning ichini turli dori va moddalar bilan to‘latdilar. Keyin bu to‘pdan ikki teshik qo‘yib, teshiklardan to‘p ichiga ikkita pilik kirgizdilar. Dushmanning boshiga o‘xshagan, yo‘q, chaqmoq toshiga o‘xshagan bu koptokning piliklariga o‘t qo‘yib, uni chaqmoq yoyiga o‘rnatib, sehrgarlarning o‘sha bir butun toshdan iborat bo‘lgan qo‘rg‘oni tomon otib, kashmiriylar ustiga osmondan balodek tushiradigan bo‘ldilar. Bu to‘pning piligi havoda yonsa, ichidagi portlovchi moddaga o‘t tegib, bu tilsim to‘p mo‘ljallangan erga tushadi va qattiq portlab yonishidan undan to‘rt narsa: bahaybat sado, o‘t-alanga, qora tutun va badbo‘y hid hosil bo‘ladi. Bu to‘pning portlagan sadosidan u sehrgarlarning asboblari buziladi; o‘t-alangasidan qal’aning davrvozalari ochiladi; u duddan sehrgarlarning yuzi qorayadi; hidi kimning dimog‘iga kirsa, jodugarlik ilmini tamoman esidan chiqarib yuboradi. Bu to‘lin oy kabi dumaloq tilsim tayyor bo‘lgach, har biri salobatda osmondan ulug‘ bo‘lmish olimlar jam bo‘lib, shavkatda shoh Dorodan ustun Iskandar huzuriga kelib, maxfiy tayyorlangan tilsimni ko‘rsatdilar va uning butun sirlarini bayon qildilar…»[Alisher Navoiy, 1991: 639]. Yuqoridagi misoldan qo‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy astronomiya fanini rivojlanganligini ko‘rsatish bilan birga hozirgi zamonaviy qurollarni o‘sha paytdayoq ko‘z oldiga keltirib, ilm-fanni rivoji jamiyatni yuksalishi, davlatni mustahkam bo‘lishi uchun naqadar kerakligini ko‘rsatib bermoqda.

Navoiy yaratgan ideal shoh o‘zida haqiqiy insoniy sifatlarni va fazilatlarni mujassam etgan shaxsdir. Navoiy adolatli shoh obrazini insonlarni baxtli qiladigan aniq va tabiiy fanlarni (matematika,

handasa, hikmat, tarix, tabbiyot, falakkiyotshunoslik kabi) egallagan, kishilik jamiyatining yashash va tashkil etish ilmini bilgan, qanday ishlar insoniyatga foydali, qaysilari zararli ekanligani anglab etgan shaxs sifatida yaratadi.

Alisher Navoiyning mutloq monarxiya tuzumiga qarashlari ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Uningcha, davlat tuzumi monarxiya bo‘lsa ham monarx-shoh ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishning barcha tizginlarini o‘z qo‘lida egallab olmagan bo‘lishi, aksariyat vakolatlar boshqaruvning quyi tizimiga va xalqqa berilishi zarurligi bilan ajralib turadi. Shoh o‘z atrofiga mashhur olimlarni to‘plashi, barcha davlatga tegishli qarorlarni olimlar bilan maslahatlashgan holda qabul qilishi zarur. Alisher Navoiy shohning davlat boshqaruvi faoliyatida asosiy yo‘l ko‘rsatuvchilar olimlardan iborat kengash bo‘lishi lozim deb hisoblaydi.

Navoiy saltanatni boshqarishda turli kengashlarni (mashvarat) o‘rnini yuqori ko‘taradi. Navoiyning fikricha, Iskandarning eng manzur sifatlaridan biri shu ediki, u doimo olimlar fikriga suyanar edi. Mutafakkir yaratgan namunali shoh rahbarligidagi davlat mamlakatda adolat o‘rnatishga, xalq orasida ilmu fanni yoyishga, madaniyat nurlari bilan mamlakatni, xalq hayotini yoritishga intiladi, zulmat va jaholatni yo‘qotish chora-tadbirlarini ko‘radi.

Navoiy mamlakatning ravnaq topishida, xalqning farovonligini oshirishda, mansabdorlarning va hokimlarning aqlli, insofli, tadbirli, adolatli bo‘lishida olim-u fuzalolarning hamda ilmu fanning ahamiyatini juda yuksaklikka ko‘taradi. U aytadiki, agar hokimlar haqiqiy hayotiy fanlar bilan shug‘ullanib, ularni hayotga qo‘llashsagina yaxshini yomondan ajrata olishga qobil bo‘ladilar, zararli narsalarni bilib olishga erishib, ularga barham beradilar, xalq farovonligi va davlat ravnaqi uchun foydali ishlar qilishga harakat qiladilar.

Navoiy shohning ilm olishga qiziqishi uning obro‘-martabasini oshirishiga ishora qilib, quyidagi fikrlarni bildiradi: Masalan, podshoh tarix fanini o‘rgansa va uning ko‘zgusidan o‘tgan vaqtlarga qarasa, qaysi mamlakatlar qaysi podshohning qanday harakatidan, qanday tadbirlaridan obod bo‘ldi va xalq shod bo‘ldi-yu, davlat mustahkamlandi, qaysilari, ya’ni, nimalar natijasida, qaysi podshohning qanday tadbirlari, harakatlari natijasida mamlakat barbod va uning xalqi baxtsiz bo‘ldi, davlati tarqaldi, mamlakat

parchalandi, - shularni yaxshi anglab oladi, kechmishning achchiq tajribalaridan o‘rnak olib, falokatlarning oldini ola biladi. Bu haqda Navoiy quyidagilarni yozadi:

Vagar tarix sari aylagung mayl,
Muni bilgachki ne ish qildi har xayl.
Salotinki bo‘ldilar jahongir,
Ne yanglig‘ qildilar har ishda tadbir.
Qayu zulm ayladi, qay bir adolat,
Ne ishga ayladi har bir dalolat.

Ne ishdan mamlakat obod bo‘ldi,
Qayu ishdin ulus barbod bo‘ldi.
Ne ish har shohning bo‘ldi sifoti,
Ki qoldi olam ichra yaxshi oti [Navoiy Alisher. Xamsa.-B.332]

Umuman olganda, Navoiy fikricha, ilm-fan bir tomondan, shohlar qo‘lida shunday bir quyoshki, uning yordami bilan shohlar har tomonni yoritadilar, obod qiladilar va ikkinchi tomondan, o‘zlarining nomlarini kelajakda adabiy qiladilar.

Shahikim, ilm nuri topti zoti,
Aning to hashr qoldi yaxshi oti. [Navoiy Alisher. Xamsa.-B.330]

Alisher Navoiy o‘zining “Saddi Iskandariy” asarida davlat va jamiyatning dunyoviy bo‘lishi g‘oyasini ilgari surdi, hukmdorni ilohiy zot emas, balki uning ham oddiy insonligi, uning xalqqa xizmat qilishi lozimligi kabi g‘oyalarni singdirishga intildi. U shohlar, hokimlar va boshqa davlat mansabdorlarini ilm olishga, fanlarni egallashga da’vat qilar ekan, bu bilan u davlat boshqaruvida adolat tamoyillarini ta’minlanishiga erishishni ko‘zlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy: (Nasriy bayoni bilan) / Tahrir hay’ati A.Qayumov va boshq.; Mas.muharrir Q.Tohirov. -T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birl., 1991.
2. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy: (Nasriy bayoni bilan) / Tahrir hay’ati A.Qayumov va boshq.; Mas.muharrir Q.Tohirov.-T.:G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birl., 1991.

ALISHER NAVOIYNING “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA MUVOZANA VA TARSI’ SHE’RIY SAN’ATLARINING QO‘LLANILISHI

Maftuna SAPAROVA
ToshDO‘TAU

Sharq mumtoz adabiyotini o‘rganar ekanmiz, bunda Layli va Majnun muhabbatiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarni uchratamiz. Bu yo‘nalishda qalam tebratgan Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy kabi ustoz shoirlar bilan bir qatorda hazrati Navoiy ham o‘zining durdona asarini meros qoldirgan. Boshqalardan farqli ravishda Alisher Navoiyning “Layli va Majnun”i turkiyda bitilgani bilan ajralib turadi. Asarning vazni ham turkiy adabiyot uchun yangi ohang kasb etgan bo‘lib, hazaj bahrining *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (afoili va taqti’si: maf’uvlu mafoilun fauvlun – – V / V – V – / V – –)*da yozilgani bilan e’tiborli. Asarni o‘rganar ekanmiz, uning qator she’riy san’atlar bilan boy ekanini kuzatamiz. Biz kichik tadqiqotimizda adibning ushbu asarida qo‘llanilgan muvozana va tarsi’ she’riy san’atlarini tadqiq etishni maqsad qildik.

Ma’lumki, tarsi’ she’riy san’ati ilmi badi’ning lafziy turiga mansub. Bu haqda olim Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi’ ” asarida shunday ma’lumot keltiriladi: “Tarsi’ – aksar arab fusahosining qavlig‘a ko‘ra andin iboratturkim, ikki bo‘lak kalomning, xoh nazm bo‘lsun, xoh nasr, har bo‘lagidag‘i har bir lafz ikkinchi bo‘lagidag‘i anga muqobil lafz bila vaznda teng bo‘lg‘ay va oxirg‘i harfta muvofiq yoki yaqin bo‘lg‘ay. Ba’zilar yaqinliqni ham shart qilmapturlar. Ammo ajam shuarosi nazdida lafzlarning oxirg‘i harfta muvofiq kelmagi sharttur. Oxirg‘i harftin murod raviy va aning nasrdag‘i o‘xshashlaridur” [A. Husayniy, 1981: 35].

Mumtoz adabiyot tadriji davomida tarsi’ bilan birgalikda shu san’atga bir qarashda o‘xshash bo‘lgan muvozana ham qo‘llanila boshlangani sir emas. Tadqiqotlarda bu ikki san’at bilan bog‘liq ba’zi chalkashliklarni uchratish mumkin. Muvozana she’riy san’ati haqida shunday ma’lumot keltiriladi: “Tarsi’ san’atini muvozanadan

farqlash lozim. Muvozanada bir qarashda barcha so‘zlar o‘zaro qofiyadosh bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida so‘zlar tengligi va o‘zaro vazndoshligi hisobiga ritm hosil qilinadi” [D. Yusupova, 2019: 156]. Demak, tarsi’dan farqli, muvozanada ohangdosh so‘zlar orasida umumiy raviy ishtirok etmaydi. Uyg‘unlik, yuqorida aytilganidek, so‘zlarning tengligi va o‘zaro vazndoshligi hisobiga hosil qilinadi. Quyida shoirning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan muvozana va tarsi’ she’riy san’atlarini tadrijiy tamoyilda ko‘rib o‘tamiz.

Dostonni tadqiq etish davomida tarsi’ga nisbatan muvozana she’riy san’ati ko‘proq qo‘llanilganining guvohi bo‘lamiz. Asarning XIX bobida, ibn Salom xohishini eshitgan Layli ahvolining zabunlashuvi qismida, shunday bayt keltiriladi:

Ishqim o‘tida yonarmu erkin,

Hajrim g‘amida chidarmu erkin? [A. Navoiy, 1991: 40 / 1992: 142]

Ma’lumki, *“erkin”* so‘zi radif bo‘lib kelgan. Baytda so‘zlar o‘zaro teng va vazndosh bo‘lsa-da, mumtoz adabiyot bo‘yicha qofiyadoshlikni kasb etmaydi. Jumladan, *ishqim - hajrim* so‘zlarida *“q”* va *“r”, o‘tida - g‘amida* jumlalarida *“t”* va *“m”* harflari raviy bo‘lib kelgan. *Yonarmu - chidarmu* so‘zlarida esa *“n”* hamda *“d”* tirgak tovush vazifasini bajargan. Bundan kelib chiqadiki, baytda muvozana she’riy san’ati qo‘llanilgan.

Navbatdagi Layli bilan bog‘ sayrida uchrashib, ishq haroratidan hushsizlangan Qaysning otasi uni o‘z qabilasiga olib ketishi tasvirlangan XIII bobdagi baytda ham shunga o‘xshash hodisani uchratamiz.

Oldingda sening visoldin bog‘

Bag‘rimda mening firoqdin dog‘ [A. Navoiy, 1991: 19 / 1992: 94].

Baytda *bog‘ - dog‘* hamda *sening - mening* so‘zlari qofiyalanib kelgan. *Oldingda - bag‘rimda* va *visoldin - firoqdin* so‘zlarida esa ilmi badi’ qoidalariga ko‘ra qofiyadoshlik kuzatilmaydi. Birinchi juftlikda *“d”* va *“r”*, ikkinchi juftlikda *“l”* hamda *“q”* harflari raviy bo‘lmoqda. So‘zlar teng va vazndosh bo‘lsa-da, o‘zaro qofiyadoshlik kasb etmagan. Demak, ushbu baytda ham muvozana she’riy san’ati qo‘llanilgan.

Asarning XX bobida shunday bayt keltiriladi:

So‘zdek topibon asosi mahkam,

Ko‘zdek kiyibon libosi motam [A. Navoiy, 1991: 43 / 1992: 147].

Baytda bir qarashda tarsi’ san’ati qo‘llanilgan, degan xulosaga kelish mumkin. *So‘zdek - ko‘zdek, asosi - libosi, mahkam - motam* so‘zlari o‘zaro qofiyalangan bo‘lib, *“z”, “s”* va *“m”* tovushlari raviy hisoblanadi. Lekin *topibon - kiyibon* so‘zlarida umumiy qofiyalanish mavjud emas. Birinchi so‘zda *“p”*, ikkinchi so‘zda esa *“y”* harfi raviy bo‘lib kelgan. Shu sababdan baytda muvozana san’ati qo‘llanilgan deyishimiz o‘rinli. Yoki quyidagi baytda ham shunday hodisani kuzatish mumkin:

Layli ishqin tanimda jon qil,

Layli shavqin ragimda qon qil [A. Navoiy, 1991: 45 / 1992: 151].

Baytdagi *ishqin - shavqin* hamda *jon - qon* so‘zlari o‘zaro vazndosh, qofiyadosh bo‘lib, *“q”* va *”n”* tovushlari raviyni ifodalamoqda. Lekin *tanimda - ragimda* so‘zlariga e’tibor qaratganimizda ularning qofiyadosh emasligini kuzatamiz. Birinchi so‘zda *“n”* harfi raviyni ifodalagan bo‘lsa, ikkinchisida *“g”*ning tirgak tovush ekanligi anglashiladi. Shu sababli baytda muvozana san’ati qo‘llanilgan deyishimiz o‘rinli.

Dostonda haqiqiy tarsi’ she’riy san’ati qo‘llanilgan baytlar ham mavjud. Buni XXX bobda bitilgan ushbu bayt misolida ko‘rishimiz mumkin:

Majnunki futuvvat ahli erdi,

Ehsonu muruvvat ahli erdi [A. Navoiy, 1991: 79 / 1992: 242].

Baytda so‘zlar o‘zaro teng. *Majnunki - ehsonu* hamda *futuvvat - muruvvat* so‘zlari vazndosh bo‘lishi bilan bir qatorda qofiyadosh bo‘lib, *“n”* va *“t”* raviyni ifodalagan. Ushbu baytda tom ma’noda tarsi’ she’riy san’ati qo‘llanilgan deya olamiz.

Asarni o‘rganish davomida quyidagi bayt alohida e’tiborimizni tortdi.

Ruxsorida lam’ai malohat,

Guftorida nash’ai fasohat [A. Navoiy, 1991: 7 / 1992: 62].

Baytga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, *ruxsorida - guftorida* hamda *malohat - fasohat* so‘zlarining qofiyadoshligini kuzatamiz. *Lam’ai - nash’ai* so‘zlari haqida fikr bildirish uchun bizdan arab

imlosi asosidagi eski o‘zbek yozuvidan xabardor bo‘lish talab etiladi. Ma’lumki, arab yozuvida bitilgan asarlardagi undosh harf bo‘lmish *“ayn” (ع)*, aksariyat hollarda, lotin imlosi bo‘yicha tutuq belgisi bilan ifodalanadi. Ushbu so‘zlarda raviy *“m”* va *“sh”* undoshlari emas, balki tutuq belgisi bilan ifodalangan *“ayn” (ع)* harfi hisoblanadi. Shu jihatdan bu so‘zlar o‘zaro vazndosh bo‘lishi bilan bir qatorda qofiyadoshlikka ham ega. Baytda tarsi’ san’ati qo‘llanilgan.

Asarda misli ipga tizilgan marjon kabi bitilgan quyidagi baytda ham tarsi’ san’atining yorqin namunasini kuzatish mumkin:

Razm aylasa azm qilg‘umizdur,

Azm aylasa razm qilg‘umizdur [A. Navoiy, 1991: 55 / 1992: 168].

Baytda *razm - azm* va *azm - razm* so‘zlari o‘zaro qofiyalangan bo‘lib, tirgak tovush vazifasini *“m”* harfi bajarmoqda. Baytdagi so‘zlar teng hamda vazndosh va qofiyadosh hisoblanadi.

Fikrimizni xulosalaydigan bo‘lsak, ushbu kichik tadqiqotimizda Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan muvozana va tarsi’ she’riy san’atlarini ko‘rib chiqdik. Izlanishimiz davomida asarda, asosan, muvozana she’riy san’ati qo‘llanilganining guvohi bo‘ldik. Hazrati Navoiy asarlarida qo‘llanilgan she’riy san’atlarni tahlil etish biz yosh tadqiqotchilar tab’ining noziklashuvida dasturulamal vazifasini o‘tashi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.

2. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: “Ta’lim-media” nashriyoti, 2019. – 184 b.

3. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. / Масъул муҳаррир А. Қаюмов. – Тошкент: ЎКМҚ нашриёти, 1991. – 128 б.

4. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1992. – 377 б.

5. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.

АЛИШЕР НАВОИ – НЕПОВТОРИМЫЙ ПОЭТ И МЫСЛИТЕЛЬ

Комилжон СУЛТАНОВ
Российского государственного университета нефти и газа имени И.М. Губкина

С каждым годом на небосклоне мировой литературы яркая звезда Алишер Навои светит всё ярче, а его литературно - духовное наследие приобретает для нас всё большую ценность, являясь нравственным уроком для нынешнего поколения. Он был первым выдающимся представителем узбекской литературы, открывшим читателю красочный, необычайно образный мир своего народа. Этот мир был запечатлен в немалом наследии поэта и мыслителя - почти 30 поэтических сборниках, крупных поэмах, прозе, научных трактатах. Деятельность и творчество великого поэта и мыслителя Алишера Навои — это уникальный образец служения народу, стране, человечеству и просветительству. Его произведения переведены на многие языки и издаются во многих странах мира. .

Низамеддин Мир Алишер - уникальная личность в истории мировой литературы. Аналогов мало ни по величию и глубине таланта поэта и мыслителя, ни по занимаемому общественному положению в стране как государственного деятеля, бескорыстного мецената, покровителя науки, литературы и искусства, поддерживавшего многих поэтов, историков, ученых, ремесленников. А какой он был созидатель! По сведениям историка Хондамира, в Герате и других городах страны поэтом на свои сбережения воздвигнуто свыше ста объектов, в том числе медресе, мечети, бани, мосты, ханаки, больницы, базары, обустроены многие улицы.Алишер Навои был достаточно состоятельным человеком. Ему принадлежали медресе, мечети, вакуфные места, включающие порой целые селения. Историк Хондамир в своей книге «Макорим ул-ахлок» («Красота нравственности»), посвященной жизни и деятельности Алишера Навои, пишет, что ежедневный доход от

земель и другого имущества поэта составлял 75 000 динаров, расход - 15 000. Поразительный факт - поэт брал для себя сумму, едва покрывающую самые необходимые нужды, остальные средства шли на благотворительные цели.

Навои высоко ценил человеческий разум и науку: «Знания и мудрость – украшение человека». Он подчеркивает, что старание получения знания является самым необходимым достоинством при воспитании всесторонне развитого человека. Он определяет, что знание является фактором спасения человечества и народа от невежества и гнева. С помощью идей выдвинутых в своих произведениях, ученый призывает людей быть умными и образованными. Мыслитель утверждает, что получение знания каждого человека является обязанностью. Причиной всякого дискомфорта является не гармоничность, наиболее важная вещь, которую нужно сообщать сейчас при обучении это чувство гармонии. Видно, что все творческие произведения Алишера Навои наполнены мудростью, гуманизмом, проницательностью, обращены к человеческим ценностям с изысканностью восточного колорита в передаче образов. Главными, среди которых является призыв к учению, получению разносторонних знаний и применение их на практике, развитие ума, совершенствование нравственности с опорой на духовное учение и получение знаний. Ученый на основе практик и наблюдений ,происходившие в течении всей своей жизни, создает произведение «Махбуб-ул-кулуб» («Возлюбленный сердец»). В этом произведении ученый использует и обогащает по смыслу те нравственные взгляды, которые были использованы в произведениях «Пятерицы» в «Смятение праведных» , и в «Жемчужных строф» Алишер Навои отразил вечные темы: жизни и смерти, любви, природы, красоты . Назначения поэзии, молодости, старости, бессмертия. Он всегда выступает против зла и насилия , клеймит междоусобные войны, разоблачает жестокость и косность правителей, а также алчность определённой части духовенства. В его произведениях вместе с этим излагается пути избавления отрицательных недомоганий. Поэт считает, что воспитанность является главным

фактором нравственности. Так как, воспитанность помогает человеку найти своё место в обществе, стать уважаемым среди других. Алишер Навои дорог нам всем, потому что его творчества раскрывает душу и мировоззрение нашего народа, а также открывает их для всего мира. Навои считал: «Кто посвятит свою жизнь служению науке, того имя и после смерти останется бессмертным». Память о Навои как о прекрасном многогранном ученом и незаурядном государственном деятеле прошла сквозь века, обессмертив его имя, на мой взгляд, очень красноречиво свидетельствует о правдивости сказанных слов.

Великий поэт и мыслитель Алишер Навои всю свою жизнь посвятил творчеству, созиданию, служению народу и Отечеству в истинном смысле этого слова. Земное благо, счастье он видел в процветании родной литературы, богатого родного языка, в поддержке народного духа, который был возрожден великим Сахибкираном Амиром Темуром после сто пятидесятилетнего иноземного ига. И если Амир Темур претворил в жизнь эту национальную идею в политическом смысле, то Алишеру Навои суждено было реализовать ее в духовной сфере. Поэт, как точно определил Первый Президент Республики Узбекистан Ислам Каримов, совершил настоящий духовный подвиг! Выполнил долг перед Родиной и народом - вывел свою родную литературу на мировой уровень и по праву занял место в ряду таких корифеев культуры, как Гомер, Низами, Фирдоуси, Данте, Шекспир, Гете, Байрон, Пушкин, Бальзак, Толстой…

Из истории нашего государства известно, что в 1469 году к власти в Хорасане пришел молодой, энергичный Темурид - султан Хусейн Байкара, впоследствии правивший страной тридцать семь лет. Это было золотое время расцвета литературы. Немало способствовал этому правитель, который сам был поэтом, автором интересных талантливых газелей. Алишер Навои и султан Хусейн с детства росли вместе. Позднее их объединила великая поэзия, которая и сыграла решающую роль в становлении большой и искренней дружбы. Раньше их взаимоотношения интерпретировались, к сожалению, однобоко, прямолинейно, хотя исторические факты говорят совершенно

об ином. Рассказывают, что, когда Алишер и Хусейн Байкара учились в школе, их устоз однажды показал им два рисунка. На одном была изображена голова, на другом - меч. Учитель сказал: «Каждый выберите себе рисунок и сочините газель о нем». Султан Хусейн выбрал меч. Алишеру был по душе второй рисунок, и он написал о нем.

- Ты - Темурид, - обратился к юному султану учитель, - покрепче держись за меч, ибо будешь править большим государством!

Алишеру же рек:

- В твоих строках я вижу божественные искры, со временем они разгорятся и охватят весь мир!..

Султан Хусейн Байкара был верным и чутким другом. Он знал, что Алишер Навои - необыкновенная творческая личность, поэтический размах которой необъятен, а полет высок, очень ценил их дружбу и искренне гордился этим. Они часто беседовали о поэзии, читали друг другу новые газели, рассуждали о будущем страны, родной литературы. Специально для Алишера Навои был установлен высокий благородный чин - мукарраби султан (близкий друг султана), который считался выше всех прочих чинов при дворе. Поэт принимал активное участие в устранении всяких разладов и междоусобных войн в стране, усмирял мятежных царевичей (у царя было четырнадцать сыновей), особенно старшего сына Бадиуззаман Мирзу, снискав тем самым всенародную любовь. Поэт и султан очень дорожили этой дружбой и гордились ею. Это подтверждают высказывания в сочинениях Алишера Навои, в «Диване» и книге «Трактат» Хусейна Байкары.

Творческое наследие Алишера Навои огромно и глубоко, это своеобразная энциклопедия жизни: море изречений, мудрых мыслей, бесчисленное множество газелей, ежедневно исполняемых известнейшими певцами по радио, на концертах, огромное количество афоризмов, многие из которых стали пословицами, так что уже и не различишь, кому они принадлежат - поэту или народу. В общей сложности Алишер Навои создал шесть крупных философско-дидактических и

любовных романтических поэм, четыре дивана газелей на родном языке, мухаммасов, од, рубаи, а в «Дивани Фани» собраны исключительно газели, созданные на персидском языке. Обширно и его прозаическое наследие. Такие книги, как «Возлюбленный сердец» («Махбуб ул-кулуб»), «Ветры любви» («Насоим ул-мухаббат»), «История царей и пророков» («Тарихи хукамо ва анбиё»), «История иранских стран» («Тарихи мулуки Аджам»), «Мерило ритмов» («Мезон ул-авзон»), «Спор двух языков» («Мухокамат ул-лугатайн»), «Вакуфная книга» («Вакфия») хорошо известны читателям.

Народ Узбекистана гордится великим поэтом и мыслителем, его именем названы город и область, Государственный академический Большой театр, Национальный парке в центре столицы, в названном в его честь, создана Аллея литераторов, а также университеты, библиотеки, улицы, станция метро и институт Академии наук. Во многих городах мира - Ташкенте, Москве, Токио и Баку установлены памятники поэту. И это не случайно, ведь поэзия Алишера Навои, пропитанная пронзительной любовью к человеку, светлой стороне жизни, процветающему миру, принадлежит всему человечеству.

Надо подчеркнуть, что в последние годы в нашей стране проводится масштабная работа по глубокому изучению и популяризации уникального творческого наследия царя поэтов, по увековечению памяти Алишера Навои. Ярким примером этого является Постановление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева « **О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои**» который был подписан 19 октября 2020 года. Этим документом предусмотрено проведение ряда крупных научно-просветительских мероприятий, направленных на всестороннее изучение произведений Алишера Навои, популяризацию его творчества среди молодёжи Узбекистана. С этой целью в филиале Российского государственного университета нефти газа имени И.М Губкина в городе Ташкенте проводятся ряд духовно - просветительских мероприятий посвящённой этому грандиозному событию. Среди студентов было проведено

конкурс на лучшее видео на тему « Жизнь и творчество Алишера Навои и творческий конкурс Эссе и выразительного чтения произведений Алишера Навои. А также конкурс плакатов и рисунков посвящённой жизни и творчеству Алишера Навои. Конечно, целью проведения этих мероприятии направлены на увековечение памяти нашего знаменитого предка.

Заключение хочется сказать, что сегодня, когда наша страна вступила в новый этап своего развития на основе главного принципа «От национального возрождения — к национальному прогрессу», формируется фундамент новой эпохи Возрождения — Третьего Ренессанса, как никогда важное значение приобретает бесценное литературное наследие Алишера Навои. Он – как основатель узбекской классической литературы и узбекского литературного языка, оставил потомкам богатое литературное наследие. По этому каждый из нас, особенно наша молодежь, непременно должны гордиться такими великими предшественниками, как Алишер Навои. А также должны изучать деятельность и творчества Алишера Навои для того, чтобы понять и осознать художественное могущество и огромную человеческую силу этого неповторимого поэта и мыслителя.

Использованная литература:

1. Навои, А. Избр. произведения. Т. 3. Ташкент, 1948.
2. http://bht-tour.uz/ru/strani/uzbekistan/velikie_lyudi_uzbekistana
3. http://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/istoriya/2339-alisher-navoi-dukhovnyj-podvig-vo-imya-rodiny.html

“FARHOD VA SHIRIN”, “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONLARIDA MAVZU VA RITM MASALASI

Shahzodbek RUZMETOV
ToshDO‘TAU

Ritm va poetik unsurlar haqidagi ilk qarashlar yozma shaklda antik adabiyotida vujudga keldi. Xususan, Aristotelning “Poetika” asari bunga dalil bo‘lib xizmat qiladi. Sharq she’riyatida bo‘lgani kabi antik davr adabiyoti, sanskrit tilidagi qadimgi hind adabiyotida ham ritmni o‘zida mujassam etgan o‘lchovlar mavjud edi. Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida hindlardagi aruz tizimiga o‘xshash maxsus belgilar, tovushlarning uzun va qisqaligi haqida so‘z yuritadi. Yunon adabiyotida ham maxsus she’riy vaznlar mavjud bo‘lgan, ammo qofiya tizimi shakllanmagan. Shuning uchun poetik fikrni ifodalashda asosiy vosita ohang bo‘lgan [Тронский И.М, 1988 :47]

Ustozimiz Dilnavoz Yusupovaning *“Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi”* ilmiy tadqiqotlarini o‘rganar ekanmiz, unda she’riy ritmni hosil qiluvchi unsurlardan biri ritm ekanligi, shuningdek shakl va mazmun bir-biriga bevosita dahldor ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

She’riy ritmni hosil qiluvchi unsurlardan biri ritm bo‘lib, u “nazmdagi satrlarda yagona usul (ritm) bag‘ishlaydi”. [Рустамов 1972: 3] Mumtoz adabiyotimiz asarlarining ritm-marom xususiyatlarini tadqiq etish shoirlarimizning har bir she’rdagi g‘oya va obrazga muvofiq vazn tanlaganlaridan dalolat beradi. “Chunonchi, hayot va jamiyat, inson va muhabbat, shoir taqdiri, hijron alamlari haqidagi teran falsafiy mushohadalar vazmin, salobatli vaznlar vositasida ifodalansa, muhabbat tavsifi, oshiqning ehtirosli kechinmalari yengilroq, jozibador ohangdagi baytlarda mujassamlantiriladi, vafo va sadoqat tantanasi esa sho‘x va o‘ynoqi ritmga asoslangan misralarda tarannum etiladi”. Uzun hijolarning ko‘proq bo‘lishi – voqeaning ulug‘vorligini, harakatning salmoqdorligini ta’minlaydi; qisqa hijolarning ko‘pligi esa harakatga tezlik, yengillik, uyg‘unlik bag‘ishlaydi [Алимуҳаммедов 1975: 71].

Chunki, ritm she’riy asardagi misralarning ma’lum bir ohang asosida takrorlanib kelishi bo‘lib, asar mazmuni bilan munosabatga kirishadi.

Sharq adabiyotida azaldan ishq mavzusi va muhabbat mojarolariga asoslangan sujetlar salmoqli o‘rin egallagan. G‘arb va sharq adabiyotida ishq mavzusiga o‘ziga xos yondashilgan. G‘arb adabiyotida realizm ustunlik qilsa, sharq adabiyotida tasavvufiy qarashlar hamda majoziy obrazlar o‘ziga xos xarakterga ega. Qadimgi Yunonistonda Xudolarga atab yozilgan gimnlar tarkibida uchrovchi dastlabki ishqiy asarlar bunga misol bo‘la oladi. Sharq adabiyotida esa arab xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lgan “Layli va Majnun” asari ahamiyatlidir. Har ikkala adabiyot namunasida ham o‘ziga xos ritm uyg‘unligi mavjud.

Biz quyida ishq tarannumiga bag‘ishlangan Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” hamda “Farhod va Shirin” dostonlaridagi mavzu, g‘oyalar, ritm va ohang uyg‘unligi, vaznlar aro munosabat xususida so‘z yuritamiz.

Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy ilk “Xamsa” muallifidir. Undan keyin xamsanavistlik an’anasini Xusrav Dehlaviy boshlab berdi. U o‘z “Xamsa”sida Nizomiy an’analarini to‘liq davom ettirdi. Vazn va qofiya tizimini saqlab qoldi. Nizomiy va Dehlaviy o‘z “Xamsa”laridagi ikki dostonni ishqiy mavzuda bitgan bo‘lib ular: “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun” yoki “Shirin va Xusrav”, “Majnun va Layli” dostonlari hisoblanadi.

Nizomiy doston uchun ishqiy mavzuda yozilgan Faxriddin Gurgoniyning “Vis va Romin” dostoni vaznini asos qilib oldi [Дилнавоз Юсупова. 2011: 28]. Asar hazaji musaddasi mahzuf *(rukn va taqti’i: mafoiylun, mafoiylun, fauvlun V— — —/ V— — —/V— —)* vaznida yozilgan. Aynan Nizomiydan keyin ushbu vazn ishqiy dostonlar uchun asosiy vazn vazifasini o‘tay boshladi. Turkiy adabiyotda bu vazn ilk bora Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarida uchraydi. Alisher Navoiy “Xamsa” siga kirgan “Farhod va Shirin” dostoniga aynan mana shu vazn asos qilib olingan. Hozirda to‘liq va ishonchli manbaa sifatida qaralayotgan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademyasi Sharqshunoslik instituti nodir qo‘lyozmalar bo‘limida maxsus saqlanayotgan Abduljamil, Sultonali Mashhadiy

tomonidan Navoiy tirikligida, asar yozilganidan 8 yil o‘tib ko‘chirilgan qo‘lyozmada “Farhod va Shirin” dostoni 54 bob, 5782 bayt bo‘lib, shulardan 999 baytda radif qo‘llanilgan.

Ushbu vaznda ritmik variatsiyalar mavjud emas, shuning uchun asar oxirigacha bu vazn bir xil tarzda takrorlanadi. Ustozimiz D. Yusupovaning tadqiqotlaridan shu narsa ko‘rinadiki, hazaji mahzuf vazni qo‘shimcha urg‘u olish xususiyatiga ega. Urg‘u asosan ochiq bo‘g‘inlarga tushganligi uchun, dostondagi ritmik ohang urg‘u hisobiga biroz o‘zgarishi mumkin ekan

Meni zo̲r-u zai̲fu po shikasta
V— — —/ V— — —/V— —
Boshimdin to ayoq a’zo shikasta
V— — —/ V— — —/V— —

Asarni tahlilga tortar ekanmiz, badiiy san’atlar ham ritmik zarb yaratilishida muhim ahamiyatga egadir.

Dedi: qay chog‘din o‘ldung ishq aro mast?.
V— — —/ V— — —/V— —
Dedi: ruh ermas erdi tang‘a payvast
V— — —/ V— — —/V— —

Ushbu dostonni mavzu va g‘oyaviy jihatdan tahlilga tortadigan bo‘lsak asar g‘oyasi sof tasavvufiy ma’no kasb etadi. Navoiy o‘z asarida salaflar an’anasini davom ettirsa ham biroz g‘oyaviy va sujet chizgilariga oid o‘zgartirishlar kiritib o‘tgan. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonida bosh obraz sifatida Xusrav emas, Farhod yetakchilikka chiqqan. Navoiy, ishqiy dostonlarida ishqning ato etilishiga, majoziy misollar keltirib o‘tadi. Farhodni komil inson sifatida tasvirlashga harakat qiladi. Tasavvufdagi majzubi solikni aynan Farhod timsoli orqali yoritib beradi. Unda pir ko‘magida haqiqatga erishish, Yaratganni tanishning usullari, nafsni yengish yo‘llari o‘ziga xos tasvirlangan. Bunda unga Boniy, Moniy, Qoran, Suqrotlar ko‘mak berishadi. Doston yakunida vahdat-ul vujud ta’limotining asosi ko‘zga tashlanadi.

Nizomiy “Xamsa” sining uchinchi dostoni “Layli va Majnun” dostoni bo‘lib, shoir o‘z dostoni uchun Xoqoni Shervoniyning “Tuhfat ul-Iroqayn” masnaviysining vaznini asos qilib olgan. Doston hazaj bahrining hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf

(rukn va taqti'i: maf'ulu, mafoilun, fauvlun — —V V—V — V— —) vaznida yozilgan. "Bu o'lchov juda ravon bo'lib, ohang imkoniyatlari nihoyatda keng. Uni voqealar mohiyati va xarakteriga qarab tez sur'atlarda ham, ohista, sustlashgan holatda ham o'qish mumkin"[Дилнавоз Юсупова. 2011: 24]. Nizomiy ushbu o'lchov haqida ungacha istifoda etilgan bo'lsada, lekin uning kabi keng imkoniyat va mohirlik bilan qo'llanilmaganini yozadi [Дилнавоз Юсупова. 2011: 30]. Turkiy adabiyotda Navoiygacha "Layli va Majnun" muhabbatiga bag'ishlangan asar mavjud emas edi. Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi ushbu doston "Layli va Majnun" mavzusidagi ilk masnaviy bo'ldi. Porso Shamsiyev tomonidan tadqiq etilgan Sultonali Mashhadiy qo'lyozmasida doston 38 bob, 3622 bayt bo'lib, shulardan 595 tasida radif qo'llanilgan. "Layli va Majnun" dostoni "Xamsa" dostonlari ichida eng kam radif qo'llanilgani ekan.

Hazaj bahri o'z ritmik variatsiyalariga ega bo'lib, dostonda hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf*(rukn va taqti'i: maf'ulu, mafoilun, fauvlun — —V V—V — V— —)* vazni bilan barobar hazaji musaddasi axrabmi ashtari mahzuf *(rukn va taqti'i: maf'ulun, foilun, fauvlun — — — — V—V — —)* vaznlari barobar qo'llaniladi.

Jonin Majnun so'zida berdi
— — — — V—V — —
Hargiz Layli degil yo'q erdi
— — — — V—V — —

Bundan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, Navoiyning iztirobli tuyg'ularni ifodalashda uchta cho'ziq bo'g'in bilan boshlanuvchi ritmik variatsiyaga murajaat qilayapti, misralardagi urg'uli bo'g'inlarning yonma-yon qo'llanilishi esa hazn ritmning vujudga kelishini ta'minlayapti va bularning barchasi ritmik variatsiya, urg'u va mazmun o'zaro bir-birini taqazo etuvchi poetik unsurlar ekanligini ko'rsatayapti.

Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi ushbu doston "Layli va Majnun" mavzusidagi ilk masnaviy bo'ldi, buning natijasida ishqiy mavzudagi dostonlar uchun mo'ljallangan yana bir xafifi musaddasi solimi mahbuni mahzuf vazni turkiy she'riyatga kirib keldi.

Mavzu jihatidan nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu dostonda ishq

tasvirining tasavvufiy asoslari bo‘lgan soliki majzub ko‘rinishi tilga olingan. Navoiy ishqni ta’riflar ekan shunday deydi:

Ey, ishq, g‘arib kimiyosen
Bal oyinayi jahonnamosen.

Qaysning ilohiy jazba bilan dunyoga kelishi, haqiqatga erishishning Tangri tomonidan in’om etilgani. Ishq bilan dunyoga kelish, Layli majozi orqali Yaratganni sevish kabi g‘oyalar o‘z ifodasini topadi. Bunda arab xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lgan “Layli va Majnun” dostoni sujeti yordamga kelgan. Ushbu dostonning “Farhod va Shirin” dostonidan farqi shundaki, Farhod pir ko‘magida haqiqatga erishgan bo‘lsa, Qays haqiqat bilan, Yaratganga bo‘lgan muhabbat bilan dunyoga kelgan. Unda bunga pir ko‘magi lozim bo‘lmagan. Haqiqiy ishq tarannumi bu doston orqali yetkazib berilgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, jahon xalqlari adabiyotidagi she’riy mezonlar va sharq adabiyot bir xil tarixiy taraqqiyotni boshdan o‘tkazgan. Ulardagi she’riy o‘lchovlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar buning dalili sifatida yuzaga chiqadi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlari Navoiy salaflarinikidan shakl nuqtayi nazaridan farq qilmasa ham, mavzu va sujet jihatdan ancha farq qiladi. Navoiy ishq tarannumida majoziy timsollar orqali haqiqiy muhabbatni, Yaratganni iddaosiz sevish, majzubi solik va soliki majzubning betakror timosli va komil inson g‘oyasini husni ta’lil asosida yorita olgan. Bu nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Dostonlardagi she’riy ritmni hosil qiluvchi asosiy unsur hisoblangan vazn va urg‘u xususida so‘z yuritadigan bo‘lsak, Navoiy vazn va urg‘uga o‘ziga xos yondashgan hamda yangi usul va vaznlarni turkiy adabiyotga olib kirgan. Ularning o‘ziga xosliklarini o‘rganish, Navoiy dahosini anglab yetish esa oldimizda turgan asosiy vazifalardan desak yanglishmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алимуҳаммедов А. Антик адабиёт тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975.

2. Мелетинский Е.М. Средневековый роман. Происхождение и класссические формы. – М.: Наука, 1983.

3. Тронский И.М. История античной литературы. – М.: Высшая школа, 1988.

4. Форобий Абу Наср. Шеър санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. Форобий Абу Наср. Шеър санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.

5. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Ритм // Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

6. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z” , 2011.

7. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: Фан,1985

8. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан,2006

NAVOIY ADABIY MEROSINING SUYUNDIK MUSTAFO NUROTOIY IJODIGA TA'SIRI ("HAVAS VA HASAD" ASARI MISOLIDA)

Faxriddin Rajabov
Navoiy davlat pedagogika instituti

Nurotolik ijodkor Suyundik Mustafo Nurotoiy ijodida Alisher Navoiy ijodining ta'siri yaqqol seziladi. Yozuvchi Navoiy adabiy merosining mazmun mohiyatini chuqur biladigan, yozuvchining maqsadini aniq anglay oladigan diniy, axloqiy, ilmiy, ijodiy faoliyatini teran his qila oladigan hamda kitobxonga axloqiy jihatdan fikrlar mazmunini aniq o'rganish yo'lini ko'rsata oladigan olimdir. Ijodkor adabiy merosida mavjud asarlarning mazmuni zamirida ham inson ma'naviy takomili rivojlanishi muhim ahamiyatga egaligidir. Yozuvchi adabiy merosi keng qamrovli ekanligi xususidagi mulohazalarimizni avvalgi ilmiy nashrlarimizda ham ta'kidlab o'tgan edik [Rajabov F, 2019: 4 b; Rajabov F, 2019: 3 b; Rajabov F, 2019: 2 b].

Biz bilamizki, Navoiy ijodining o'ziga xosligi va mavzular xilma-xilligi ijodkor borki o'ziga jalb etadi. Lekin qaysi olimni, ijodkorni, yozuvchini kuzatsak Navoiydan keragicha olib kitobxonni, axloqiy jihatdan barkamol bo'lishga undaydi. Bu borada Suyundik Mustafo Nurotoiyning Navoiyni anglashdagi qarashlarini alohida ta'kidlash joiz.

Yozuvchi Suyundik Mustafo Nurotoiy adabiy merosini o'ttizga yaqin asarlar tashkil etadi [Suyundik Mustafo Nurotoiy, 2017: 248b; 2013: 120b; 2009: 138b; 2013: 48b; 2015: 72b; 2016: 352b; 2015: 260b; 2012:112b]. Yaratgan ijod namunalari ma'no va mazmun jihatdan ajralib turadi. Ijodkorning ijod namunalarini badiiy barkamolligi ulug' allomalar merosiga murojaat qilib, unumli va o'z o'rnida foydalanganligi kitobxonni fikrlashga mushohada qilishga chorlaydi. Yozuvchi ijodida o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turuvchi asarlaridan biri "Hasad va havas [Suyundik Mustafo Nurotoiy, 2017: 248]" asaridir.

Yozuvchi asarda dastlab hasadning manbalari va uning sabablarini diniy manbalar orqali yoritishga harakat qilib, Yaratganning

ta’qiqlariga amal qilmay Odam Atoning jannatdan quvilishi va yerda Momo Havo bilan farzandlar ko‘rishi voqyealari yoritilgan. Odam Ato va Momo Havoning farzandlari Qobil (dehqonchilik bilan shug‘illanar edi) va Hobil (chorvachilik bilan shug‘illanar edi)ning kasb-kor egalari bo‘lib, shuning orqasidan yiqqan mol-mulkning shukronasini qilish uchun ular mehnat qilib yiqqan mol-davlatlaridan ma’lum bir qismini tog‘ning tepasiga etib qo‘yishini otasi aytganida Hobilning bu masalaga nisbatan qalbida hosil bo‘lgan e’tirozi lekin otasining fikrini qaytarolmay mol-mulkidan bir qismini Qobil esa hyech bir e’tirozlarsiz mol- davlatidan tog‘ning tepasiga etishi tasvirlanadi. Bu holatda Hobilning ehsoni ko‘ngli ochiqlik bilan qilingani uchun qabul bo‘lishi, Qobilning qalbida norozilik bilan qilingan hadyasi qabul bo‘lmagani Qobil ko‘nglida hasadning paydo bo‘lishi va buning oqibati ayanchli yakun topishi bilan tugashi voqyealari tasvirlangan. Yozuvchi shu o‘rinda Qobilning Hobilga nisbatan hasadgo‘yligini keltiradi va bu boradagi fikr mulohazalarini asoslash uchun hadislardagi haqiqatlarga tayanadi.

Shuningdek asar davomida Yusuf Alayhissalom qissasini keltiradi. Qissadagi e’tiborni yozuvchi Yusufning akalari otamizga bizdan ko‘ra Yusuf sevimliroq bo‘lib, otamiz bezga bee’tibor bo‘lmoqda deya gumonlanib uni quduqqa tashlab kelish voqyealari orqali ularning hasadgo‘yligini, “Zumrad va Qimmat” ertagidagi “besh barmog‘i hunar, zuvalasi pishiq, mehri daryo. Uni ko‘rgan qushlar maftun bo‘lishib, zavq bilan sayraydi, gullar poyiga poyondoz bo‘lib to‘shaladi, buloqlar oromli jimir bilan ko‘ngil izhor etadi, odamlar mehr to‘kadigan Zumradga bu himmat va marhamatdan mosuvo O‘gay ona va qizi Qimmat[Suyundik Mustafo Nurotoiy, 2017: 51b]”ning hasadgo‘yligini, Xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan “Alpomish” dostonidagi Boybo‘ri va Boysari o‘rtasidagi kelishmovchilik hamda Boysarining tafakkursizligi sabab kin hasadga aylanishi qarindoshlik rishtasini uzadi. Bu noxushliklarga barham berish uchun va Barchin umidida Qalmoqqa borgan Alpomish og‘ir sinovlarga, hasadga duch kelishini, tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan “Shiroq” afsonasidagi hasadga mubtalo bo‘lgan bosqinchilarni, “O‘tkan kunlar” romanidagi Homidning Kumushga erishish yo‘lidagi yomonliklari va Zaynabning Kumushga nisbatan

hasadgo‘yliklarini, Mirzo Ulug‘bekning o‘g‘li Abdullatif tomonidan toju-taxt saltanatga ega bo‘lish maqsadida o‘z otasining o‘ldirish tafsilotlari va sabablarini ko‘rsatadi.

Yozuvchi asarni mavzu va savol doirasida yoritishga harakat qilib: Qur’oni Karim, Hadislarga tayangan holda xalqimizning boy tarixiy, badiiy, ma’naviy meroslariga murojaat qilib, ularda o‘z aksini topgan haqiqatlar vositasida hasad va hasadgo‘ydan ogohlantirish hamda ulardan saqlanishning diniy va dunyoviy jihatlarini esga soladi. Aslida hasadni davolaydigan dorisi yo‘q, ammo insonda aqlu farosat bor. O‘zini insoniy farosat bilan tanigan shaxs bunday salbiy illatdan hazar qiladi [Suyundik Mustafo Nurotoiy, 2017: 4-5b]. “Ey oqil, baxillikni o‘zingga shior qilib, mol-pul topishning payidan bo‘lma. Hasad va baxillik ko‘chasidan qoch. O‘zgalarga doimo madad qo‘lini cho‘z. Hasad va rashkdan hyech kim foyda ko‘rmagan. Aksincha el orasida xoru zalil bo‘lib, e’tibordan chetda qolgan. Mol mulkingni bekorga saqlama. Uni el foyda ko‘radigan narsalarga sarfla. Faqat ahmoq odamlargina yuz mehnatu alam bilan boylik to‘playdilar. Undan na o‘zi foyda topadiyu, na o‘zgalar manfaat ko‘radi! Bunday johil kishilar ko‘rib bilib turib, ko‘rganlaridan ibrat olishmaydi. Nafsi ammora ko‘yiga kirib, ranj va kulfat ko‘radilar! [Hasaniy.1994: 154]”. Ijodkor shu nuqta-nazardan bizning tariximizda mavjud bo‘lgan mashhur adabiy asarlar va manbalardan misollar keltirish va uni tahlil qilish orqali asar mohiyati va mazmunini anglashga chorlaydi.

Suyundik Mustafo Nurotoiy Havas va hasad asarida Alisher Navoiy ijodiga murojaat qiladi. Avvalo hasad va havas tushunchalarining izohiga diqqat qilaylik. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “havas arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, aqlni yo‘qotish; ehtiros; mayl ishtiyoq; biror narsaga g‘oyatda berilganlik, kuchli istak [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, www. ziyouz. com kutubxonasi, 467]”, “Hasad arabcha rashk; ko‘rolmaslik qizg‘anish; suq [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, www. ziyouz. com kutubxonasi, 513]” degan ma’nolarni bildiradi. Suyundik Mustafo Nurotoiy ushbu doston mohiyatini asar sarlavhasidagi ikki qarama-qarshi tushunchalar bilan izohlaydi. Hasad-dard. U ko‘rolmaslik, ichi qoralik negizida kundan-kun og‘irlashib boradi. G‘arazli nigoh, fikr, gumon, shubha vujudni

kemiradi. Insof va hazarni unittiradi. Oqibatda, tubanlikning barcha so‘qmoqlariga boshlab, johil va nodonga aylantiradi. Bu illatning boshi, ko‘rolmaslikdan, g‘iybatdan boshlanadi. Afsuslar bo‘lsinki, hasad xastaligi qondosh-u jondoshlar, qardoshlar, mashhurlar, kasbdoshlar, tengdoshlar, qo‘shni-yu safdoshlar o‘rtasida ko‘proq uchraydi, hatto undan payg‘ambarlar zot-u zurriyodlari, shoh-u gado biror zot xavfsiz emas.

Hasadning ta’rifi ko‘p, ammo ommaviy tushunchadagi hasadgo‘y haqidagi ta’rif ma’nosini ochib beradi. Hasadgo‘y kimgadir nasib etgan baxtga, omadga, davlatga, talantga, hayotga erisholmay, alamidan ichi kuygan kimsadir [Suyundik Mustafo Nurotoiy, 2017: 3-4b].

Navoiy ijodidagi inson uchun xos bo‘lgan bunday salbiy illat ijodkorning adabiyot tarixidagi boshqa shu kabi holatlarga umumuiy yondoshilgan va har birida o‘ziga xos jihat bilan talqin qilingan. Suyundik Mustafo Nurotoiy Navoiydagi aynan shu holatni “Xamsa” asari tarkibiga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostonidagi Xusrav Parvezning Farhodga nisbatan fojeaga aylangan hayotini alam bilan qalamga oladi. Ochko‘z va xudbin, zolim Xusrav shoh va uning badbaxtona nayrangiga o‘ynagan jirkanch kimsalar timsolida inson nomiga zid illatlarni fosh etadi. Shirin diyori Mehinbonu mamlakatini obod etishdek ezgu ishga bel bog‘lagan Farhod va Xusrav obrazlarini qarama-qarshi qo‘yib, inson nomiga nomunosib kimsalarga nafrat uyg‘otadi.

Yozuvchi Arman diyori Mehinbonu mamlakati, Shirin yurtiga kelgan Farhodni qilgan ishlari, oqko‘ngilliligi, insonparvarligi, yurtparvarligi, mehnatkashligini mahorat bilan ta’riflaydi [Navoiy, 1989: 462]. Shuning bilan birga sof muhabbat tuyg‘usini Farhod qalbida qanday kechayotganligi va bu dardga mubtalolik holatlari keltiriladi [Navoiy,1989: 481]. Uning yurtni obod qilishdagi ishlari, xalq orasida obro‘ – e’tiborga ega bo‘lishi alohida diqqatga sazovor. Ikkichi tomondan esa Arab va Ajam mulkining Xisrav degan hukmdori bo‘lib, Madoyin shahri uning poytaxti edi. Uning xotini ham o‘g‘li ham bor edi-yu, Xisrav bu farzandni taxtga munosib ko‘rmasdi. U o‘z taxtini yaxshi bir farzandga topshirishni istab, bu maqsadga yetishish uchun o‘ziga munosib qizni qidirishga tushgan edi. O‘z mamlakatida

qancha qidirtirsa ham, ko‘ngliga yoqadigan go‘zal topilmadi. Bu paytda Shirinning ovozasi, uning husni, odobi haqidagi gaplar Xisravga ham yetib borgan edi. Bu sohibjamol qizga tosh kesuvchi bir yigit shaydo bo‘lib, uning ishqi yo‘lida ajoyib ishlar qilganidan ham u xabardor edi. “Xusrav-xudbin, zolim, johil podsho. Uning butun qilmishi xalqni talab boylik orttirishga, kayf-safo surishga qaratilgan. U Shirinning go‘zalligini eshitib “oshiq” bo‘ladi, uni xotin qilib olish bahonasi bilan Armanistonni egallamoqchi, xalqning mol-mulkini talon-taroj qilmoqchi bo‘ladi. Farhod tili bilan aytganda, u “sevgi” so‘zini ham boshqalardan eshitib olgan. Bu “oshiq” podsho o‘zining yovuz niyatlarini qurol kuchi bilan amalga oshirmoqchi bo‘ladi. Qurol kor qilmagach, makr-hiylani ishga soladi. Eronda xalqqa qattiq jabr qilgan Xisrav Armanistonda yanada qattiqroq zulm qila boshlaydi, ko‘p obod joylarni xarob qiladi, kishilarni qirib tashlaydi. Biroq bu zolim maqsadiga erisha olmaydi. Bu yovuz ikkinchi bir yovuzning, o‘z o‘g‘li Sheruyaning qo‘li bilan halok qilinadi”[Mallaev,1976: 452]. Lekin shunday bo‘lishiga qaramasdan Xisravning mavjud baxtga qanoat qilmay boshqa kishining sevgilisini o‘ziniki qilish maqsadida ochiq maydonda qilgan hujumi Farhodga kor qilmagach hiyla yo‘liga o‘tadi va Buzrug Ummid bilan maslahatlashib, makkor afsungarni topib, hisobsiz oltin evaziga Farhodni aldab qo‘lga oladi [Erkinov,1985: 53]. Bundan ko‘rinib turibdiki yozuvchi kishidagi ichi qarolik, hasad illatini kishi qalbida rivojlangandan keyin uni amalga oshirish uchun har qanday razillik bo‘lmasin maqsad uni amalga oshirish bo‘ladi.

Yozuvchi shu mavzudagi fikrlarini yanada rivojlantirib Navoiyning “Arba’iyn”dan ham misollar keltiradi. Ijodkor Yusuf alayhissalom haqidagi qissani keltirib, Har qanday insoniy nayrang yaqinidan sodir bo‘ladimi yoki begonadanmi, Yaratgan irodasi oldida ojizligini ifodalaydi. Halollikning mukofati yaxshilik ekanligini eslatadi [Suyundik Mustafo Nurotoiy, 2017: 46 b] uning xulosasi sifatida “Arba’iyn” dan quyidagi hadisni keltiradi:

Anas ibn molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollollohu alayhi vasallam: Birortangiz o‘zingizga ravo ko‘rgan narsani birodariga ham ravo ko‘rmagunicha mo‘min bo‘la olmaydi”, dedilar.

Mo‘min ermastur, ulki imondin,
Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay,
Toki qardoshig‘a ravo ko‘rmas-
Har nekim o‘ziga ravo ko‘rgay [Navoiy, 1991: 7 b]

“Zumrad va Qimmat” ertagini keltirib, baxillik va badxo‘ylikni qoralab, “Agar mo‘min bo‘lsang, durlaringni-boyliklaringni sochib, xalq o‘rtasida xuddi shamdek ravshan-porloq bo‘l. Chunki Tangri hyech bir mo‘minda baxillik va badxo‘ylikni jam qilmagan [Suyundik Mustafo Nurotoiy, 2017: 53 b]”

Mo‘min ersang, qilib duringni nisor,
El birla ravshan o‘l nechukkim sham.
Negakim, Tengri hyech mo‘minda,
Buxlu badxo‘yliqni qilmadi jam [Navoiy, 1991: 8 b]

Yozuvchining bu kabi mavzularni yoritishi bugungi kunda odamlar orasida aynan shu kabi illatlarning ko‘payib borayotganligi achinarli hol ekanligidir.

Umuman olganda Suyundik Mustafo Nurotoiy o‘zining ushbu asarida Navoiy ijodidagi ushbu mavzu zo‘r mahorat bilan qalamga olgan faktlarni o‘z o‘rnida voqyealarni esa aniq ko‘rsata olganligi bilan e’tiborga molik. Shuning uchun ham yozuvchining bu mahoratini oddiy kitobxon ham yaqqol sezadi, tushinadi.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. T.; G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989. 592 b
2. Alisher Navoiy. Arba’iyn. T.; “Meros ” nashriyoti. 1991. 32 b
3. Erkinov S. Sharq adabiyotida Farhod qissasi. T.; “Fan” nashriyoti. 1985. 64 b
4. Hasaniy M. Odob bo‘stoni va axloq gulistoni. T.; “Fan” nashriyoti. 1994. 154 b
5. Mallaev N. O‘zbek adabiyoti tarixi.T.; “O‘qituvchi” nashriyoti. 1976. 664 b
6. Rajabov F. Alisher Navoiy adabiy merosining “G‘aroyibat” asari badiiyatining shakllanishidagi o‘rni. “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzuidagi Xalqaro ilmiy- nazariy anjumani materiallari

Toshkent, 2019-yil, 28-fevral 458-460 bet;

7. Rajabov F. Suyundik Mustafo Nurotoiy ijodida Naqshband naqllarining o‘ziga xosligi. “Jahon madaniy sivilizatsiyasi kontekstida Xojagon, Naqshbandiya tasavvufiy ta’limotlari ilmiy-ma’naviy merosining umumbashariy ahamiyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiya. 2-kitob 27-28-may 2019-yil 106-107 bet

8. Suyundik Mustafo Nurotoiy. Havas va hasad. T.; “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti. 2015. 248 b

9. Suyundik Mustafo Nurotoiy. Avazsoy sadolari. T.;“Sano – standart “ nashriyoti. 2013. 120b

10. Suyundik Mustafo Nurotoiy. Shomurod va shomurodchorbog‘liklar. T.; “Voris-Nashriyoti”. 2009. 138b

11. Suyundik Mustafo Nurotoiy. Nurota ziyoratgohlari. T.;“Turon zamin ziyo”. 2015. 72 b

NAVOIY TARKIBBANDI CHUSTIY UCHUN ILHOM MANBAI SIFATIDA

Shaxnoza RAHMONOVA
ToshDO‘TAU

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida, jumladan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida ham masnaviy, tarji’band, tarkibband janrlarida yozilgan she’r namunalari uchraydi. “Ushbu janrlar tarkibiga ko‘ra ham bayt (g‘azal asosidagi qofiyalanish tizimini o‘z ichiga olganligi yoki baytlardan iborat bo‘lganligi uchun) ham band (tarkiband davomiylikni taqozo qilganligi va bandlarni vujudga keltirganligi uchun)ga asoslangan she’r shakllari hisoblanadi” [Yusupova, 2019: 147]. Mazkur janrlar davr she’riyatida aruz tizimining *ramal, hazaj, mutaqorib* bahri vaznlarida yaratilgan.

Bandga asoslangan janr tarkibband bo‘lib, “u (tarkib – arabcha tuzilish; band – forscha bog‘lash) g‘azal tarzida (taxallussiz) qofiyalangan, har bir bandi oxiridagi bayt juft (a-a tarzida alohida) qofiyalanib boruvchi, har bir bandining misra soni teng bo‘lgan, ammo turli shoirlar yozgan tarkibbandlarning har bir bandidagi misralar soni o‘ziga xos belgilangan, murakkab lirik janr [To‘ychiyev, 1992: 201].

Mumtoz adabiyotshunoslikda tarkibband haqidagi ilk ma’lumot Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida keltirilgan. Shayx Ahmad Taroziy tarkibbandni tarji’ning bir turi sifatida sanab o‘tadi. “Va beshinchi qismi ulkim, har bandning qofiyasi har tariqa bo‘lur va tarje’ baytlari taqi har biri alohida qofiya birla kelur va mukarrar qilmaslar. Va bu qismda marsiya va madh ayturlar”, – deb misol keltiradi [Shayx Ahmad Taroziy, 1996: 128]. Adabiyotshunos Y.Is’hoqov: “Tarkibband shakl va tuzilish tarzi tarji’bandga monand. Oradagi tafovut shundaki, tarji’bandda vosila bayt aynan takrorlanadi, tarkibbandda esa g‘azalga o‘xshash har bir band oxirida mustaqil qofiyalangan yangi baytlar keladi”, – deb ta’kidlaydi [Is’hoqov, 2014: 219].

Ushbu ta’riflardan tarkibband ham yirik hajmli bandli she’r shakllaridan biri hisoblanishi ma’lum bo‘ladi. Turkiy (o‘zbek)

adabiyotda dastlab (XV asr) Hofiz Xorazmiy she'riyatida uchraydi, "uning devonida to'rt band (har bandi 8 bayt) tarkib topgan bitta tarkibbandi mavjud [Is'hoqov, 2014: 219]. Darhaqiqat, mumtoz adabiyotimizda yaratilgan aksariyat tarkibbandlar mavzu jihatidan marsiya shaklda ekanligini ko'ramiz. Alisher Navoiyning "Devoni Foniy"dagi Abdurahmon Jomiyga, "Navodir ush-shabob" devonidagi Sayyid Hasan Ardasherga bag'ishlab yozilgan tarkibband-marsiyalari bunga misol bo'loladi. Lekin zamonaviy XX asr adabiyotiga kelganda bu qonuniyat biroz o'zgargan bo'lib, bu davr tarkibbandlari, asosan, ishqiy mavzuda yozilganligini kuzatamiz.

Bu davr she'riyatida Chustiyning "To abad dunyoda qol" she'ri tarkibband janriga misol bo'la oladi. Mazkur tarkibband "Ko'ngil tilagi" devonidan o'rin olgan. Tahririyat devonda tarkibbandning ba'zi satrlari tushib qolganligini ta'kidlaydi. Shuning uchun biz asl matndan foydalandik. Tarkibband matni Chustiyning boshqa devonlarida bo'lmaganligi uchun she'r vaznini aniqlashda asl matndan tayanildi. She'r quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Har kun oy ishqila uyg'ondi quyosh,
O'z ko'zidan oyni qizg'ondi quyosh [Chustiy, 1994: 245].

Bandning matla'si *ramali musaddasi maqsur (ruknlari va taqti'i foilotun foilotun foilon:* –V – –/–V – –/–V –(~)*)* (tuyuq vazni) o'lchovida yozilgan bo'lib, a-a, b-a, v-a -a, d-a, a-a tarzida alohida qofiyalangan. Chustiy tarkibbandining 1-bandi 6 bayt, 2-bandi 7 bayt, 3- va 4-bandi esa 5 baytdan iborat. Jami 36 misra. Muallif she'rda quyosh va oy ramzlaridan foydalangan holda ishq-muhabbatni kuylaydi. Quyosh chiqishi, oy botishi kabi tabiat hodisalari tasvirini tarkibbandga syujet sifatida olib kiradi. Birinchi bandning xotimasi:

Bo'sa olsa na quyosh, na oy qolur,
Tog'u cho'l, daryoyu qir, na soy qolur.

2-band oxiridagi bayt:

Sabrdan topgay ikov mangu hayot,
Aylagaylar xalqu yurti iltifot.

3-band oxiridagi bayt:

Ushbu fanda yaxshilardan o'rnak ol,
Garchi o'lsang ham jahonda mangu qol.

4-band oxiridagi bayt:

Sendan oshiqlikni Chustiy o‘rganur,
Pok ishqingdan unga baxsh ayla nur.

tarzida kelgan. Demak, ushbu tarkibbandning mumtoz adabiyotdagi tarkibbandlardan farq qilib, oshiqona mavzuda bitilganligi ma’lum bo‘ladi.

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida tarkibband janrida yagona she’r yaratilgan bo‘lib, Chustiy qalamiga mansubdir. She’r *ramali musaddasi maqsur (mahzuf)* vaznida bitilgan. Tarkibband mumtoz tarkibbandlardan farq qilib, marsiya yo‘nalishida emas, balki ishqiy mavzudadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O‘zbekiston, 2014.
3. Чустий. Кўнгил тилаги. – Т.: Фан, 1994.
4. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун-ул балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. Т., Хазина. 1996.
5. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA’LIM-MEDIA, 2019.

ALISHER NAVOIY IJODIDA SOQIY-MURSHID OBRAZI

Zulayho RAHMONOVA
OzR FA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Fors va arab so‘fiyona she’riyatining paydo bo‘lishi va tadrijiy bir shaklda mukammallikka erishuvi Bobo Tohir (vaf. 1010), Abu Said Abul Xayr (vaf. 1049), Xoja Abdulloh Ansoriy (vaf. 1088), Hakim Sanoiy (vaf. 1131), Umar Al-Foriz (vaf. 1235) nomlari bilan bog‘liq. Ular tasavvufiy tushunchalarning she’riyatdan o‘rin egallashida boshlovchilardan bo‘ldi. Turkiy adabiyotdagi ilk ma’rifiy doston “Qutadg‘u bilig” zuhdiy g‘oyalarni aks ettirsa-da, chinakam turkiy tariqat asoschisi va turkiy so‘fiyona she’riyatning boshlovchisi Xoja Ahmad Yassaviydir. Yassaviyshunos Ibrohim Haqqul bu haqiqatni “Ahmad Yassaviy” risolasida ilmiy asoslab: “Ahmad Yassaviy o‘z ona tilini birinchi bo‘lib tariqat tili maqomiga ko‘tardi. Shuning uchun she’rlaridagi har bir so‘z va har bir ibora islom haqiqatlari qadar muqaddas, nurli va ilohiydir” [Haqqulov, 2001:3], – degan edi. Ta’kidlash joizki, Ahmad Yassaviy asarlari asrlar osha xalq tili, xalq ohangiga yaqinligi bilan butun turkiy xalqlar qalbidan chuqur o‘rin egallagan. Turkiy tasavvuf adabiyotining paydo bo‘lishi va rivojlanishi Yassaviy nomi bilan bog‘liq. U ham turk tariqati, ham turk adabiyoti yo‘lboshchisi sifatida o‘zining qo‘llanmasi, odobu arkoniga ega tasavvuf maktablari haqida taassurot uyg‘otuvchi Qalb “Hikmat”larini va faqat Yaratgan bilan ma’naviy aloqasi aks etgan “Faqrnoma”sini yaratdi. Darhaqiqat, turk piridan boshlangan va uning izdoshlari tomonidan davom ettirilgan adabiyot namunalari tasavvuf ramz va ishoratlarining mohiyatidir. Yassaviydan boshlangan adabiyotdagi mazmun va shakl uyg‘unligi tariqat va adabiyotda yonma-yon yuksaldi. Tariqat maktablarida ikki asosiy shaxsiya: Haq yo‘lchisi – murid va uning yo‘lboshchisi – murshid adabiyotda ham xuddi shunday mavqeni egalladi. Ular adabiyotda shunchalar ko‘p ramz va timsollar bilan jonlantirildiki, o‘z-o‘zidan boshqa obrazlarni birlashtiruvchi, adabiyotdagi g‘oyaviy-badiiylikni ta’minlovchi eng asosiy obrazga aylandi, desa, mubolag‘a bo‘lmaydi. Murid qalbiga inadigan tajallilar har xil, shu bois uning hol bayonlaridagi ramz

va timsollar ham turlichadir. Alloh ba'zan ism, ba'zan sifat, goho fe'l va nihoyat, zoti ila tajalli etadi. Adabiyot ham shunga munosib uning hol va maqom darajasini ko'rsatuvchi, eng yorqin tasavvurni beruvchi obraz, ramz, timsollar tanladi. Murshid obrazi tarixi, ma'no qirralariga nazar solinsa, vaqt o'tishi va davr kechishi bilan ularga muqobil yoki yondosh atamalar bilan mazmunan boyishi va kengayishlariga ham guvoh bo'linadi. To'g'ri, murshid va murid dunyoga kelishidan to tariqatlar faoliyatiga chek qo'yilguncha tarixiy mavqeyini boy bermagan. Lekin vaqt hamda sharoit ularni boshqa nom va istilohlar bilan qo'llashga ham to'siq qo'ymagan. Xuddi shu narsa murshid va murid obrazining mohiyat e'tibori bilan boyishi, davr ko'zgusidagi o'zgarishlaridan so'z yuritishga imkon beradi. Biz mana shu zaruratni inobatga olib muxtasar tarzda bo'lsa hamki, Alisher Navoiy ijodida murshidga yondosh timsollardan soqiyga to'xtalib o'tdik.

Darhaqiqat, murshid o'rnida eng ko'p qo'llaniladigan, oshiq qalblar piri komili – ***Soqiy*** hisoblanadi. Adabiyotshunos Ergash Ochilov maqolalaridan birida yozadi: "Ma'lumki, soqiy deganda so'fiylar Allohni, Muhammad alayhissalomni, ma'shuqani, pir yoki komil insonni nazarda tutadilar. Soqiy davraga may ulashgani kabi Alloh, payg'ambar va komil insonlar odamlar qalbiga ilohiy fayz bag'ishlaydilar, haqiqiy ishq o'tini soladilar, g'ayb ma'rifatidan bahramand etadilar"[1]. [Ochilov, 2001:11].

Haqiqatan, qator baytlarda soqiyga murojaatga duch kelish barobarida "Soqiynoma"lar ham yaratilgan. Soqiy oshiq qalblarga malham beruvchi ruh tabibi ekanini chuqurroq anglash uchun u ulashadigan may sifatlashlariga e'tibor qaratmoq lozim, ana shundagina muriddagi ruhoniy huzur tushuniladi. Butun borliqning

[1] O'zbek adabiyotshunosligida A.Hayitmetov, Y.Ishoqov, I.Haqqul, E.Ochilovlar soqiy obrazi va may mavzusida to'xtalishgan. Adabiyotshunos M.Asadov tomonidan mazkur mavzu monografik tadqiqot sifatida izchil o'rganildi. Mayning hayotsevarlik ramzi haqida: "May qadimiy davrlardan boshlab Sharq adabiyotida hayot tayanchi, dunyoning qayg'u va alamlaridan xalos etadigan buyuk hayotiy ne'mat timsoli bo'lib kelgan. Qolaversa, soqiynomalarda may yuksak estetik xususiyatga ega bo'lib, hayotsevarlik ramzi hamdir " kabi xulosalari e'tiborga molik. (*qarang:* Asadov M. O'zbek mumtoz adabiyotida soqiynoma (genezisi, taraqqiyot bosqichlari, poetik xususiyatlari: F.f.d. diss. – Toshkent, 2020. – B. 39).

yaratilishi so‘z bilan bog‘liqligi, qalbni junbushga keltiruvchi so‘zdan ta’sirliroq vosita yo‘qligi hammaga ma’lum. Shu ma’noda murshiddan fayz olish aslida uning ma’rifat, hikmat to‘la so‘zlaridan bahramand bo‘lish, u bilan musohiblik darajasiga yetish ekan, eng ta’sirlantiruvchi may – ***“so‘z mayi”***dir:

So‘z mayi*ni ul kishi oshom etib,*
Kim duri ma’ni sadafin jom etib.
Menki bu may nash’asidin mast men,
Dayri fano ahlig‘a hamdast men. [Navoiy,1991:62].

Daho shoir Alisher Navoiy o‘zining dayri fano ahliga hamdastligini “so‘z mayi”dan mastligi bilan izohlamoqda. Zotan, dunyoi dunda undan ko‘ra kuchliroq may yo‘q. Oshiqning istagi ma’shuqni tinglash, uning suhbatidan mast bo‘lish. Soqiyning talabgorga in’omi – may, sharob, rahdir. Tasavvufiy lug‘atlarda murshidi komilning fayzli nafasi ma’nosida izohlanadigan bu istilohlar, insonning ruhiyatiga tegishli ozuqadir. Chunonchi, bu “Alast”dagi mastlik bilan bog‘liq bo‘lib, orif-oshiq ruhlarga juda tanishdir. Chunki may istilohi haqida o‘ylashimiz hamon xayolimizga, avvalo, ruh lafzi keladi. Zero, may – mastlik, behushlik, sarxushlikka olib kelar ekan, bu ruhga tegishli bo‘lib, insonning ilk va oliy huzuri Odami xokiyga ruhning kirishi onlarida bo‘lgan. Alastdagi mastlikning sog‘inchi, adabiyotdagi hijron asosini tashkil etadi. Navoiy ham:

Odami xokiyni chu subhi alast,
Ayladilar ***ruh mayi*** *birla mast,– [Navoiy,1991:188].*

deya, ruhoniy mayning kuchiga alohida urg‘u bergan edi. Komil murshidni tamsil etgan soqiy tutadigan may ruhoniy fayzdir. Daf’atan, Alloh taoloning “Bas, qachon uni rostlab, unga O‘z ruhimdan puflab kirgizganimdan so‘ng unga sajda qilgan hollaringizda yiqilinglar (Sod: 38/72)” oyati karimasi eslanadi. Bu esa Yaratgan va bandalari o‘rtasida yaqinlik bo‘lib, so‘fiyona she’riyatda ***Soqiyi azal, Alast soqiysi*** esa Alloh taolodir.

Soqiyo, piri mug‘on tokim bo‘lubdur pirimiz,
Boda ichmakdin o‘ngin yo‘q fikru ham tadbirimiz.
Ketmagay boshdin havoyi boda bo‘lsak xok ham,
Chun azalda qildilar boda bila taxmirimiz.
O‘zligimiz birla bu mayxonag‘a biz kelmaduk,

Kelturubturur qazoyi Haq bila taqdirimiz,– [Xorazmiy,1981:80].

misralarida shoir ma'rifat va muhabbat ahlining "mayxona"ga kelishini qazoi qadar, taqdiri azal bilan bog'lagan. Chunonchi, yaratilishdagi asos "boda" bilan aloqador edi. Bu holni anglaganlarning murshidi soqiy yoki piri mug'on ekan, ularning mayparastlikdan boshqa yana qanday maqsadi bo'lishi mumkin? Ma'rifat murid ko'nglining zavq va farahidir. Modomiki, irfon tashnaligi sharob bilan qondirilar ekan, oshiq qullar soqiydan o'zga kimga murojaat qilishardi?! Ba'zan soqiydan may, sharob emas, oddiy, ramzu timsollardan yiroq ***"jon suyi"*** so'ralishi ham uning ma'naviy darajasini ko'rsatadi:

Ishq seni qilsa, Navoiy, halok,
Pok esa ul ishq o'lumdin ne bok.
Soqiy, o'lubmen, menga tut jon suyi,
Sofiyu pok, o'ylaki hayvon suyi. [Navoiy,1991:200].

Sayri suluk – ishq yo'lidir. Ushbu yo'lda oshiqqa darmon dardu balo, uning ma'shuqiga tuhfasi esa jondir. Mana shunday qurbonlikdan so'nggina vahdat mayi nasib etadi. Maqomi tavhidda inson o'z holiga muhayyir. Uni maxmur etgan esa Azal soqiysi tutgan "xamri alast"dir:

*Xojaki **hayrat mayi**din mast edi,*
Mastliq uyqusig'a hamdast edi.[Navoiy,1991:90].

Alast xamrin kimga bersa, o'shal soqiy,
***"Balo" mayin** mudom ichib yurur mangu boqiy. [Navoiy,1991:310].*

Muhabbat sharobini to'la sipqorgan oshiqqa Vahdat va Sir sharobi in'om etiladi. Ishqda zavq, jazba qanchalar ortsa, soqiy va u ulashgan mayning ramz va timsollarida ham o'shancha aniqlik, yuksalish bo'ladi. Qalb o'z tug'yoniga mos imon sharobini istaydi, uning soqiysi Payg'ambar va nihoyat, Azal bazmida ruh mayin tutgan Yaratgandir. Murshid va murid, soqiy va rind, dayr piri va oshiq muvofiqligi aslida ustod va shogird o'rtasidagi ilmu ma'rifat, ishqu muhabbat, holu maqomning darajasidir. Bu tasavvufdagi sakr va sahv holi bilan ham bevosita aloqador. Sakr almashib turuvchi hollar, turli shatahotlar aytiladigan lahzalarni bildiradi. Murid ishq sharobi va mushohada mayini ichgachgina sakr holiga tushishi aytiladi. Tajalliyoti zavqiyaning to'rtinchi darajasi sukr deyilgan.

Ilk zavq totish, ikkinchisi shurb, ya'ni ichishdir, uchinchisi qonmoq bo'lsa, to'rtinchsi sakrdir. Bu hol qanchalar oshsa, Allohga yaqinlik ham shuncha ziyoda bo'ladi. Mana shu zavqni tuygan, talvin hollarini yashagan murid eslagan may – imon mayidir:

Soqiy, o'lubmen, mayi imon ketur,
Jismima imon mayidin jon ketur.
Quyma bu kun jomima davron mayi,
Jonim ol, og'zimg'a quy ***imon mayi****. [Navoiy,1991:110].*

Alisher Navoiy ham hol shoiri sifatida soqiyga murojaat qilib, jismiga jon baxsh etuvchi imon mayidan berishini yolvormoqda. Soqiyning ahli abrorga sunadigan mayi imon mayidir.

Dayr piri qo'ldabon, tirguzdi maydin mug'bacha,
Ey, Navoiy, bu ikkavni qil gumon Xizru Masih,–[Navoiy,1987:103].

deydi Navoiy g'azallaridan birida. Ma'lumki, "dayr piri" (butxona piri, mayxonachi) qo'llab, ***"mug'bacha"*** (may tashuvchi) tutgan may tolibga tiriklik baxsh etmoqda. Irfoniy adabiyotda tiriklik ramzlari turli-tuman: goh zulmat qa'rida yashiringan obi hayot, goh butxona ahli qo'lidagi may, goh yor labi va hokazo. Binobarin, yagona maqsad ruh tarbiyasi va yuksalishi ekan, albatta, Xizru Masih singari bir pirning madadi shart. Murshid-soqiy muridlariga tutadigan may ruhlarga zavq-u shavq uyg'otadi. "Shavq sharobi", "sir sharobi", "vahdat mayi" – bularning barini izohlash aslida "Balo mayi"dan totgan murid hol maqomlari bilan bog'liq sharhlarni talab etadi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, bunday maydan mast bo'lgan tariqat murshidlari o'zlarini soqiy, hatto toliblar – zavq ahli uchun mul, ya'ni ishq va irfon ulashuvchi may deb atagan hollar ham uchraydi:

Qul Xoja Ahmad qul bo'lg'an, yo'l ustida kul bo'lg'on,
Toliblarg'a mul bo'lg'on, andin ibrat olingla[1]. [Yassaviy,2011:205]

[1] Ta'kidlash joizki, xalq og'zaki ijodida жоизки, ham soqiy obrazini uchratamiz. Uning eng mukammal ko'rinishi Soqibulbul bo'lib, u qahramonning piri va otining sayisi hisoblanadi. Xizr bobosi Go'ro'g'liga shunday pandi nasihat qiladi: "Soqibulbul senga ham ustod bo'ladi, ham G'irko'k otning sayisligini qiladi. Shu kuni, shaharning ichida bir majlisxona bino bo'ladi, odamlar yig'iladi, majlis bo'ladi. Soqibulbul so'zni aytib, sozni chaladi, soqiy bo'lib mayni hammaga beradi; qo'rg'oningga ot qo'yiladi. Soqibulbul nima deb ot qo'ysa, o'sha bo'ladi. Soqibulbulning aytgani-aytgan, bilgani-bilgan, qilgani-qilgan, – bo'ladi deb" (qarang*:* Go'ro'g'lining tug'ilishi. – Toshkent, G'afur G'ulom, 1967, –B. 135).

Ahmad Yassaviy qalblarning ochilish sababi pir ostonasiga bosh urishda, uning fayzi ma'rifatidan bahra olishda ekanligini aytib, ***fano fish-shayx*** maqomida bir qancha hikmatlar bitgan. Bu hol barcha tariqat arboblari ijodida ko'rinadi. Mutasavvif Navoiy ijodida esa eng oliy rutbaga ko'tarilgan. Bunday misralarda rahnamo pirdir. ***Fano fir-rasul*** maqomida yozilgan she'rlardagi pir, soqiy, hodiy, rahbar, murshid va boshqalar Rasulullоh (s.a.v.) ekanligi shubhasiz. ***Fanofilloh*** maqomi aks etgan hol ifodalarida soqiy – irshod etuvchi Ar-Rashid Alloh taolodir. Alisher Navoiyda bu haqiqat go'zal betakror ifodalarda keladi:

Tutub sanga chu mayi lutf ***soqiyi rahmat,***
Shafoating urub ikki jahon eliga salo.

"Soqiyi rahmat" deyilishi bilan kitobxon tasavvuri tiniqlashadi. Va bu ifodadagi maqsadni to'la anglaydi. Navoiy ijodiy merosida soqiy takror-takror murojaat qilinadigan bosh obrazlardandir. Biroq har gal yangi bir ifoda, o'zga bir talqinga guvoh bo'linadi. Natijada boshqa bir zavq, boshqa bir hol dunyoga keladi.

Soqiy – bir komil murshidki, u nafs tarbiyachisi. Soqiy-murshid nafs o'zligidan qutqazib, ruh o'zligiga yetkazadi. Ishq va irfon ne'matini ulashuvchi may, shoir ta'kidlaganidek, kofir nafsni musulmon aylaydi. Bu xususida "Hayrat ul-abror"da o'qiymiz:

Lek jihod ichra bu asg'ar durur,
Nafs bila aylagan akbar durur.
Tengri Navoiyg'a yeturgay jazo,
Kofiri nafsi bila qilsa g'azo.

Soqiy, olib kel qadah el jonidek,
To sumuray dushmani din qonidek,

Xisravi g'oziy kafidin ber nabid,
Ichmogidin aylay o'zumni shahid.

Irshod yo'lidagi Navoiy "jihodi akbar" sanalgan nafs mujodalasida o'zligini shahid etishni istaydi. Uning soqiyga iltijosi mana shundandir. Navoiy – hol shoiri. Uning asarlaridagi barcha haqiqatlarni anglash, his qilish imkonsizdir. Biroq aytish mumkinki, soqiy timsolining mazmun-mohiyati Haq yo'lchisining ma'naviy

maqomi bilan uyg‘unlikda to‘la tushuniladi. Alisher Navoiy ijodida Soqiy dastlab komil murshid, keyin shafoatchi Rasulullоh (s.a.v.) va nihoyat haqiqiy murabbiy Robbul olamin, bir so‘z bilan aytganda irshod etuvchidir.

Ta’kidlash joizki, murshid bahsida adabiyotdagi ranginlik o‘quvchini hayratga soladi. Tazkiralarida “...nubuvvat davomchilari hisoblanmish murshidi komil”, dostonlarida mashaqqatli manzil so‘ngiga yetkazuvchi ruhoniy rahnamo, lirikasida esa “bazmi balo”ni eslatuvchi dayr piridan tortib, shayxi koziblar tasvirini jamuljam etgan muhtasham bir merosga ega o‘zbek adabiyoti. Albatta, Haq yo‘lovchisi ***murid*** bo‘lganda rahnamosi ***murshid, oshiqu rind*** bo‘lganda ***soqiyu ma’shuq***, ***ma’naviy farzand*** bo‘lganda ***bobo, ota, bulbulda gul, shamda parvona, tomchida daryo, zarrada oftob, qul*** bo‘lganda esa ***Haq***dir. Tahlil va talqinda mana shu ma’rufiy juftlikni har doim inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar kulliyoti.– T.: O‘zbekiston, 2011. – B. 205.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom.– T.: Fan, 1991.– B. 62.
3. Alisher Navoiy. Badoe’ ul-bidoya. MAT. 1-tom.– T.: Fan, 1987. – B. 103.
4. Hofiz Xorazmiy. Devon. Ikki kitobda. I kitob. Nashrga tayyorlovchilar H.Sulaymon, F.Sulaymonova. –T., 1981. – B. 80.
5. Haqqul I. Ahmad Yassaviy. – T.: G‘afur G‘ulom NMIU, 2001. – B. 3.
6. Ochilov E. Navoiy asarlarida komil inson timsollari // O‘TA.2001.№1.– B. 11.

SHARQ ADABIYOTIDA XAMSANAVISLIK AN'ANASI

Tojixon SABITOVA
Chirchiq pedagogika instituti

Jahon sivilizatsiyasi tarixida ayniqsa, Sharqda alohida o'rin tutadigan xamsachilik an'anasi va Alisher Navoiy "Xamsa" si o'zbek mumtoz adabiyotining rivojlanishida yuksak ahamiyatga egadir. Sharq epik poeziyasining gultoji hisoblangan "Xamsa" ga kirgan dostonlar musulmonlar Sharqi xalqlarini har doim qiziqtirib kelgan. Ana shuning uchun ham Sharq Renessansi davrida juda ko'p insonlar "Xamsa" yozishga harakat qilganlar. Bu davrlarda 300 ga yaqin ijodkorlar Nizomiy beshligiga muayyan tarzda javob yozganlarini Ozarbayjon olimi, filologiya fanlari doktori G'azanfar Aliyev aniqlab, o'zining "Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока" nomli monografiyasini yaratgan edi.[Yusupova, 2013: 83]

Xamsanavislik tarixida XIV-XV asr Hirot adabiy muhiti alohida o'rin egallaydi. Shu davr muhitida 20 ga yaqin ijodkorlar xamsanavislikda o'z kuchini sinab ko'rganlar. Vaholanki, bu ijodkorlar barchasi to'liq "Xamsa" yaratmagan bo'lsalarda, lekin beshlikning u yoki bu dostoniga javob yozish bilan mazkur an'anaga o'z munosabatini bildirganlar.

Xamsanavislik tarixida to'liq "Xamsa" yaratganlar oltita adib bo'lib, dastavval Ozarbayjon shoiri, Sharq mumtoz adabiyotining beshigini tebratgan xamsachilik kashshofi Nizomiy Ganjaviydir (1141-1209). Uning to'liq nomi Abdulhamid Ilyos ibn Yusuf ibn Zakiy Muayyad bo'lib, Ganja shahrida tug'ilgan. Uning "Xamsa" siga kirgan dostonlar 1170-1204-yillarda yaratilib, ular quyidagilardir: "Mahzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi"), "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar" ("Yetti go'zal") va "Iskandarnoma" .

Nizomiy Ganjaviy nomi qadimdan xalqimiz orasida mashhur bo'lib u o'zbekning o'z shoiriga aylanib ketgan. Alisher Navoiydan tortib barcha mumtoz shoirlarimiz uni o'zlariga ustoz deb bilishgan.

XIV asr o'rtalaridayoq Qutb Xorazmiy uning eng mashhur dostoni «Xusrav va Shirin»ni tilimizga mahorat bilan tarjima qilgan edi.

Oradan bir asr o‘tgach, Haydar Xorazmiy “Xamsa” asoschisining «Mahzan ul-asror» dostoniga javoban «Gulshan ul-asror» asarini yaratadi. Zabardast shoir va mohir mutarjim Muhammadrizo Ogahiy «Haft paykar»ni erkin nasriy tarjima qiladi. «Shohnoma» tarjimoni, shoir va adib Shohi Hijron «Qissai Doroi Zarrinkamar» asarida «Iqbolnoma»ning muxtasar mazmunini bayon etgan. Nurmuhammad Buxoriy, Mulla Fozil Xomushiylar ham Nizomiy «Xamsa»sini sharhlar ekanlar, «Iskandarnoma»ni batafsilroq tahlil etishga harakat qilishgan». [Xomidiy, 2002:31]

Shoir «Xamsa»si dostonlari tarjimasida namunalar «Xusrav va Shirin» (Qutb tarjimasi), «Mahzan ul-asror» (Haydar Xorazmiy tarjimasi), «Haft paykar» (Ogahiy tarjimasi) hamda «Layli va Majnun» (N.Oxundiy, Xislat va Muhammadjonovlar tarjimasi) dan parchalar Maqsud Shayxzoda so‘zboshisi bilan alohida to‘plam holida nashr qilindi.

Shoirning «Panj ganj»iga kiruvchi «Layli va Majnun» hamda «Xusrav va Shirin» dostonlari ham o‘zbekchalashtirilgan. Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” si yaratilgandan keyin oradan bir asr vaqt o‘tib Amir Xusrav Dehlaviy Nizomiy asariga javob yozish bilan xamsanavislik an’anasini boshlab berdi. [Donishmandlar tuhfasi, 2009: 97]

Dehlaviyning 1299 – 1302-yillarda yozilib, Alouddin Xiljiyga bag‘ishlangan “Xamsa” si quyidagi dostonlarni o‘z ichiga oladi: «Matla’ ul-anvor» («Nurlarning chiqish joyi»), «Shirin va Xusrav», «Majnun va Layli», «Oyinai Iskandariy» («Iskandar oyinasi»), «Hasht bihisht» («Sakkiz jannat»). U Nizomiy dostonlarining shakli va syujeti, obrazlar silsilasini saqlagan holda, ularni o‘ziga xos talqin etdi va yangi mazmun bilan boyitdi. Nizomiy dostonlari shoir dunyoqarashining kengligi va bilimining teranligini namoyish etsa, Xusrav Dehlaviy “Xamsa” si ruhiyat teranligi va qalb boyligini ko‘z-ko‘z qiladi. Nizomiy dostonlarida tafakkur va tuyg‘u nisbatini ko‘rsak, Xusrav Dehlaviy “Xamsa” sida inson qalbining nozik tebranishlari va badiiyat uyg‘unligining hassos va go‘zal tasvirlariga duch kelamiz. Aynan san’atkorona ishlanganligi uchun ham Xusrav Dehlaviy “Xamsa” si o‘zidan keyingi shoirlarga kuchli ta’sir ko‘rsatdi, Xalaflari g‘oya va mazmunda Nizomiyga ergashsalar ham,

shakl va badiiyatda Xusrav Dehlaviyga izdoshlik qildilar. Jomiyning «Bahoriston»da e'tirof etishicha, hech kim Nizomiy «Xamsa»siga Xusrav Dehlaviydan o'tkazib javob yozolmagan. [Donishmandlar tuhfasi, 2009: 235]

Navoiy o'z "Xamsa" sini yaratishda Nizomiy bilan bir qatorda, Xusrav Dehlaviydan ham kuchli ta'sirlangan, har bir dostoni muqaddimasida uni ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga olib, ijodiga yuksak baho bergan.

Temur va Shohruh zamonida yashagan Jamoliyning tavalludi, vafot yillari haqida aniq ma'lumot yo'q. Faqat G'. Aliyev o'zining «Теми и сюжети Низами в литературах народов Востока» nomli monografiyasida uning beshligi 1402 – 1417-yillar oralig'ida yaratilgan degan fikrni bildiradi. Jamoliy "Xamsa" si quyidagi dostonlardan ibora– T.: «Tuhfat ul-abror» («Mahzan ul-asror»ga javob),«Mehru Nigor» («Xusrav va Shirin»ga tatabbu'), «Mahzun va Mahbub» («Layli va Majnun»ga tatabbu'), «Haft avrang» («Haft paykar»ga tatabbu'). Doston nomi aniq emas. Lekin voqealar mazmuni va qo'llanilgan vazn Nizomiy «Iskandarnoma»sini eslatgani uchun, uni Nizomiy beshligidagi so'nggi dostonga javob tarzida yozilgan deb hisoblash mumkin.

Ashraf - Abu Ali Husayn ibni Hasan Marog'iy. Darvesh Hasan Xiyoboniy (tug', noma'lum - vaf. 1460) nomi bilan tanilgan. 1436-1440-yillar mobaynida "Xamsa" an'anasini davom ettirgan. «Minhoj ul-abror» (Taqvodorlarning yo'li), «Riyoz ul oshiqayn» (Ikki oshiqning mashaqqatlari), «Shirin va Xusrav», «Ishqnoma» yoki «Layli va Majnun», «Haft avrang» (Yetti taxt) va «Zafarnoma» nomli "Xamsa" tarkibidagi dostonlarni yozgan. Shoirning she'rlar devoni va «Sad pandi Ali» (Alining yuz pandi) nomli Hazrat Ali hikmatlarining tarjimasi bo'lgan manzumasi ham mavjud. Aftidan, bu oxirgi asari Navoiyning «Nazm ul-javohir» nomli asariga o'xshash ko'rinadi. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Ashraf haqida yozadi va Hirotda bo'lganini ta'kidlaydi. Shoir "Xamsa" ustida uzoq yillar mehnat qilgani va nihoyat uni tugallashga noil bo'lgani xususida Navoiy Ashrafning quyidagi baytini keltiradi:

Az sharafi vasli tu Ashraf shudem,
Davlati mo bud musharraf shudem.

(Tarj.: Sening vasling sharafi bilan Ashraf (ya'ni sharafli) bo'ldik, bu biz uchun davlat edi musharraf bo'ldik).[Navoiy, 1997:219]

Fors-tojik adabiyotining oltin davrini yakunlagan zabardast so'z san'atkori, ulug' mutafakkir, naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy Nishopur yaqinidagi Jom shahrida ruhoniy oilasida tug'ilib, Hirotda yashagan hamda shu yerda mashhur shoir va mutafakkir bo'lib yetishgan. U Hirotda Xoja Alouddin Ali Samarqandiy, Shahobiddin Muhammad Jojarmiy kabi allomalar qo'lida tahsil oladi. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi qomusiy olimlar ma'ruzalarini eshitishga muyassar bo'ladi. Mashhur mudarris Fazlulloh Abullaysdan fiqh, Qur'on, hadis va arab tili bo'yicha saboq oladi.

Alisher Navoiyning yozishicha, Jomiy garchi zohir yuzidan Sa'diddin Koshg'ariy muridi bo'lsa-da, aslida uvaysiy bo'lib, Bahouddin Naqshband ruhoniyatidan tarbiya topgan, zamona mashoyixi Xoja Muhammad Porso nazariga tushgan, Xoja Abu Nasr Porso, Xoja Muhammad Kusaviy, Mavlono Boyazid Puroniy, Mavlono Muhammad Asar, Mavlono Muhammad Tabodgoniy, Shayx Shoh Ziyoratgohiy va Mavlono Muhammad Amin Ko'histoniy kabi o'z davrining ulug' shayxlari bilan muloqot qilgan. Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lgan.

1476 yili Alisher Navoiy unga murid tushib, rasman naqshbandiya tariqatiga kiradi. Jomiy 7 ta doston yozib, ularni «Haft avrang» («Etti taxt») nomi bilan atagan: «Silsilat uz-zahab» («Oltin zanjirlar»), «Tuhfat ul-ahror» («Yaxshilar tuhfasi»), «Sibhat ul-abror» («Taqvodorlar tasbehi»), «Yusuf va Zulayxo», «Layli va Majnun», «Salomon va Absol», «Xiradnomai Iskandar» («Iskandar pandnomasi»).

Navoiy «Xamsa» si uch yuz yillik tajriba va an'anaga ega bo'lgan xamsachilik taraqqiyotida yangi va yirik voqea bo'ldi. Navoiy ustoz xamsanavislarning yuksak san'atkorligini e'tirof qiladi va sharaflaydi, ularning adabiy tajribasidan ta'lim oladi. Dostonlarining muqaddima qismida Nizomiy va Xusrav Dehlaviyga hamda o'zi bilan deyarli bir vaqtda "Xamsa" yaratgan Abdurahmon Jomiyga bag'ishlab maxsus boblar yozib, ularni ulug'laydi. U:

Yo‘ldasa bu yo‘lda Nizomiy yo‘lum,
Qo‘ldasa Xusrav bila Jomiy qo‘lum, -

deb ulardan madad tilaydi. Biroq Navoiy hech qachon xamsanavis salaflarining dostonlarini takrorlashga yoki ularga tobelarcha taqlid qilishga intilmaydi. U o‘z oldiga yangi va original xamsa yaratish vazifasini qo‘yadi. Buni Navoiy bot-bot ta’kidlaydi. Xamsanavis salaflarining ijodiy yutuqlarini e’tirof qilgan va sharaflagan Navoiy ularning dostonlaridagi nuqsonlarga befarq qaramaydi. U salaflarining juz’iy kamchiliklarini emas, balki jiddiyroq kamchiliklarini topadi va xolisona tanqid qiladi.

Navoiy «Xamsa» ni yaratishda tarixiy manbalardan va xususan xalq og‘zaki ijodi boyliklaridan, xalq afsonalari, ertaklari, qo‘shiqlari, maqol va hikmatli so‘zlari hamda xalq asarlarining badiiy uslubidan mohirlik bilan foydalandi.

Navoiy juda og‘ir va juda mas’uliyatli ishga kirishgan edi. U Yaqin va O‘rta Sharq o‘lkalarida ustoz so‘z san’atkori sifatida shuhrat topgan Nizomiy va Xusrav Dehlaviy bilan ijodiy bahslashdi. Bu juda katta bilim va yuksak adabiy didni, iste’dod va qobiliyatni talab etar edi. U og‘ir va mas’uliyatli bu vazifani sharaf bilan bajardi, adabiyot maydonida sher bilan olishgan sher bo‘lib chiqdi. Navoiy xamsanavis salaflariga ijodiy yondashdi, dostonlarida yashagan tarixiy sharoitning aktual masalalarini mavzu qilib oldi, el-yurt uchun muhim ahamiyatga molik masalalar haqida fikr yuritdi, uning aql-zakovati kelajakka parvoz etib, insonning istiqboliga katta umid bilan boqdi, hayot haqiqati romantik orzu-armonlari bilan chatishdi, qahramonlari umumbashariy xislatlar bilan kamol topdi, yangi-yangi situatsiya, syujet va kompozitsiya, obraz va xarakterlar yaratdi, badiiy so‘z takomilida yangi boblar kashf etdi, o‘zbek adabiy tili istiqboli uchun kurash bayrog‘ini yuksak ko‘tardi. Navoiy “Xamsa”sining ulug‘vorligi, shon-shuhrati va olamshumulligi ham shunda.

XIV-XV asrlarda “Xamsa” ning ba’zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar haqida fikr yuritamiz.

Abdullo Xotafiy. Bu shoirning dostonlari avvalgilarnikidan mashhurroq. U to‘rt dostonni yozib tamomlagan, bulardan ba’zilari nashr etilgan. U “Xamsa” boshlashdan oldin tog‘asi Abdurahmon Jomiy yoniga borib, undan fotiha so‘raydi. Jomiy unga Firdavsiyning

«bir she’rini berib, shunga nazira yozib kel», - deydi. Xotafiy bu sinovdan yaxshi o‘tadi, Shundagina Jomiy unga fotiha beradi. U «Laylo va Majnun», «Haft manzar», «Temurnoma» dostonlarinn yozgan. Hayotining oxirida shoh Ismoil Safoviyning harbiy yurishlariga bag‘ishlangan «Shohnoma» yoza boshlagan, ammo bu asar tamomlanmay qolgan. Shoir 1521 yilda vafot etgan.

Kotibiy Turshiziy. Bu shoir haqida ham Alisher Navoiy ancha qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Navoiy uni: “o‘z zamonnning benaziri”, deb yuksak baho beradi. Uning masnaviylaridan ko‘ra, g‘azaliyot va qasidalar devoni mashhurroq, deydi. U tajnislar nshlatishda, qo‘sh qofiyali va qo‘sh vaznli she’rlar yozishda mohir bo‘lgan. Shoir umrining oxirida “Xamsa” yozishga kirishgan, ammo tugatolmagan. Uning «Gulshani abror» va «Layli va Majnun» dostonlari qolgan. Bu shoir umrining oxirida Astrobodda vabo kasalidan vafot etgan. O‘limi oldidan quyidagi qit’ani aytib ketgan:

Zi otashin qahri vabo gardid nogahon xarob,
Astrobodiki xokosh buvad xushbo‘tar zi mushk,
Andaru az piru barno hech kas boqi namond,
Otash andar besha chun aftad na tar monand na xo‘shk,
(Tuprogi mushkdan ham xush bo‘yli Astrobod,
Qahrli vabo o‘tida birdan xarob bo‘ldi.
Unda qari-yu yoshdan hech kim qolmadi,
Chunki to‘qayga o‘t tushsa, ho‘lu quruq barobar yonadi.)

Badriddin Hiloliy asli Astrobodli bo‘lgan bu ijodkor XV asrning 70 yillarida tug‘ilgan bo‘lib 1529 yilda qatl etilgan. “Xamsa” dostonlariga javoban yozilgan 2ta dostoni bor: “Sifat ul-oshiqin”(“Mahzan ul-asror”) ga javob, “Layli va Majnun”.

Mavlono Ali Ohiy. Mashhadlik bu shoir haqida Alisher Navoiy «Majolis-un nafois»da quyidagi xabarni beradi: «Mavlono Ali Ohiy - Mashhaddindur, “Xamsa” muqobalasida necha masnaviy aytibdurkim, chun muqobolag‘a keltursa, go‘yoki bo‘lmas, ul jihatdan shuhrat tutmaydur. «Xayol va visol» otlig‘ kitobida bir bayti bor, magarkim mulhimi g‘ayb oning tiliga she’ri bobida solg‘ondirkim (ya’ni g‘aybdan ilhom beruvchi bu baytni uning o‘z she’ri haqida tiliga solgan):

Sheri ki, buvad en nuqta soda,
Monad hama umr yak sovoda»
(She'rda koziklik bo'lmasa,
Butun umrga qoralama bo'lib qoladi.) [Shomuhamedov, 1981, 229]

Navoiy uning xamsadan necha doston aytmaydi, faqat she'rlari haqida uning o'z asaridan olgan bayt bilan baho berib qo'ya qoladi.

Mavlono Fasih Rumiy. Alisher bu kishi haqida ham qisqa ma'lumot berib, uni: «donishmand kishi erdi… Xoja Salmonning masnu' qasidasiga tatabbu' qilibdur… hazrat shayxning (ya'ni Nizomiyning - Sh. Sh.) «Mahzan-ul asror» ig'a javob aytibdur», deydi-da, undan bir bayt misol keltiradi:

Har nafase kaz tu kase bishnavad,
Beshak azu hamnafase bishnavad.
(Sendan kim nimani eshitarkan,
Beshak undan hamdamlikni eshitadi.)

Navoiy bu shoir haqidagi ma'lumotini: «uning qabri Hirotda»,- deb tugatadi. Demak, u o'sha davrda vafot etgan va, ehtimol boshlagan «Xamsa»sini tamom qilolmagandir.

Xoja Imod. Uning «Laylo va Majnun» dostoniga Navoiy baho berib: «masnaviysida hiyla rang va ziynat bor»,- deydi va g'azalida ham iste'dodi borligini aytib, quyidagi matla'ni keltiradi:

Burd suyi lab zabonu shu'la zaddor joni man,
Qard zohir lam'ai u otashi pinhoni man.
(Lablariga til urib jonimga o'tlar yoqdi ul,
Yoshirin dil o'tidan olamga uchqun choqdi ul.)

Amir Shayx Suhayliy - Alisher Navonyning do'stlaridan. Navoiy uning tojik va o'zbek tillarida yozgan she'rlariga yuqori baho beradi: «ash'ori el orasida shuhrat tutti», deydi.

Uning «Laylo va Majnun» dostoni borligini aytib, undan Layloning ozib ketganligini chiroyli ta'rif etgan bir baytni keltirardi:

Go'yi zamahash zi hol gashta,
Monandan sebi sol tashta.
(Iyagi shunday holga tushib qolganki,
Go'yo bir yil turib qolgan olmaga aylangan,
Ya'ni ozib qurishib qolgan)

Shahobiddin Jomiyning tug‘ilgan va vafot etgan yillari haqida aniq ma’lumot yo‘q. Faqat Xondamirning “Makorim ul-axloq” ida Shahobiddin Jomiyning Alisher Navoiy maslahatiga ko‘ra “Layli va Majnun” va “Xusrav va Shirin” dostonlarini yozgan.[Yusupova, 2013:85]

Filologiya fanlari doktori Dilnavoz Yusupovaning qo‘llanmasida ko‘rsatilishicha bitta dostonga javob yozgan mualliflar quyidagilar:

“Mahzan ul-asror” tipida doston yozgan mualliflar: Osafi Hiraviy, Nargisiy, G‘iyosiddin Sabzavoriy, Fosih Rumiy, Sayyid Qosimiy.

“Layli va Majnun” tipida doston yozgan mualliflar: Shayxim Suhayliy, Ali Ohiy, Xoja Imod Loriy, Xoja Xasan Xizrshoh, Zave Qozisi.

Demak, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, XIV-XV asrlarda Hirot adabiy muhitida xamsachilik an’anasi kuchli bo‘lgan, har bir talant egasi ozmi-ko‘pmi darajada elga tanilgan har bir shoir “Xamsa” ga qo‘l urib o‘z iste’dodini sinab ko‘rishga, o‘z mahoratini xalqqa ko‘z-ko‘z qilishga, adiblar orasida shuhrat qozonishga harakat qilgan. Ammo ularning ko‘pchiligi buyuk Nizomiy Ganjaviyning o‘lmas asarlariga nazira qilib yozar ekanlar bu mavzuni yangi mazmun bilan boyitishga ojizlik qildi. Ularning dostonlarini xalq qabul qilmadi. Ko‘pchiligi unutilib ketdi. Bundan ikki buyuk inson - Jomiy bilan Navoiy “Xamsa” si mustasnodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova D. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri), . –T.: Akademnashr, 2013. – B.83,85.

2. Xomidiy X. Ganjalik pir //Sino . 2002. №7. . – B.31.

3. Donishmandlar tuhfasi. –T.: O‘zbekiston. 2009. . – B.97-235.

4. Navoiy M.A.T . –T.: Fan .1997. – B..219.

5. Shomuhamedov M., Xazinalar jilosi. –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B.229.

NAVOIY ADABIY MEROSIDAN INSONPARVARLIKNI SINGDIRISHDA FOYDALANISH

Mahbuba SOBIROVA
Namangan davlat universiteti

Mustaqillik yillarida va aynan bugun mamlakatimizda yoshlarning faolligiga katta e'tibor qaratildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" nomida belgilangan sohalarni tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni Oliy Majlisga hamda O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida aytib o'tdi. [Mirziyoyev, 2020]

Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala [Mirziyoyev, 2019] ekanini nazarda tutgan holda ta'limga, xususan, ona tili ta'limiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu fanning ijtimoiy hayot to'g'risidagi bilimlarni kuchaytiruvchi, mustahkamlovchi fan ekanligini nazarda tutib, yangi yaratilayotgan ona tili dasturi va darsliklari mazmuniga buyuk ajdodlarimizning boy merosini yanada kengroq tarzda singdirish maqsadga muvofiqdir.

Odamlarni, millatlarni, mamlakatlarni, madaniyatlarni birlashtiruvchi boshlang'ich asos - insoniylik bo'lganligidan ta'lim va tarbiya mazmunini insonparvarlashtirish bugungi kunimizning asosiy vazifalaridandir. [Sobirova, 1997: 36] Asrlar davomida madaniyatlararo munosabatlarda ham insonparvarlik ulug'langan.

Milliy tilni chuqur o'zlashtirish ta'lim-tarbiyaning asosiy jihatlaridan sanalar ekan, o'quv fanlarining asosi hisoblangan ona tilini o'rgatish jarayonida dasturga kiritilgan, darsliklarda berilgan materiallar bilan cheklanmay, o'rganiladigan nazariy qoida-ta'riflarni asoslashda amaliy misollarning o'rni bilan Alisher Navoiyga taalluqli bo'lishiga erishish mumkin. Chunki grammatik atamalarni o'zlashtirish jarayonida Navoiy bobomizning boy ijodiy merosiga [Navoiy, 1998] oid ish usullarini tashkil qilish o'quvchilarning

axloqiga ijobiy ta’sir qiladi. Bu o‘rinda quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

“So‘zlar zanjiri tuzish” usuli.

Navoiy o‘z asarlarida sanab o‘tgan insoniy va ijobiy sifatlar asosida so‘z zanjiri tuzdirish mumkin. Masalan: *muruvvat-tavoze’-e’tiborli; saxovatpesha-ahli ilm-ma’rifat va hokazo.*

1. “Suhbat” usuli. Suhbatda o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi ma’lumotlarni beradi:

Navoiy bobomiz asarlar yozishda faqatgina o‘zbek tili imkoniyatlari bilan chegaralanib qolmay, boshqa tillardan ham unumli foydalanganlar. Yozuvchi O‘tkir Hoshimovning qayd etishicha, Pushkin o‘z asarlarida 21 ming, Servantes 18 mingga yaqin, Shekspir salkam 20 mingta, Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta so‘z ishlatgan. Bunda donishmand bobomiz faqat turkiy emas, arabiy, forsiy, urdu, xitoy, mo‘g‘ul va boshqa tillardagi so‘zlardan ham mahorat bilan foydalangan. [Hoshimov, 1985:102]

“Uyushiq bo‘laklar” mavzusini o‘tish jarayonida keltirilgan quyidagi misollardan uyushiq bo‘laklarni toptirish bilan birga o‘tkazilgan kichik-kichik suhbatlar o‘quvchilar axloqiga ijobiy ta’sir qiladi:

1. *Ustoz nafaqat davlat arbobi, tarjimon, shu bilan birga, tilshunos olim sifatida ham tarixda katta iz qoldirgan.*

2. *Navoiyning maqsadi o‘z zamonasining barcha olim-u shoir, bastakor-u rassom, me’mor-u duradgorlarini yurtni obod etishga jalb qilish edi.*

3. “Misol keltirish” usuli. Undalmali, kirish so‘zli, turg‘un birikmali, uyushiq bo‘lakli gaplardan hamda ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplardan to‘g‘ri, o‘rinli foydalana olishga o‘rgatishda quyidagi misolardan foydalanish mumkin: Undalmali gapga:

Jondin seni ko‘p sevarman, ey umri aziz,

Sondin seni ko‘p sevarman, ey umri aziz.

Uyushiq bo‘lakli gapga:

Ko‘nglim ichra sarv o‘qdur, g‘uncha paykon, gul tikon,

Dahr bog‘i ichra mundoq gulistone topmadim.

4. “Test” usuli. Til ta’limini berish jarayonida Navoiy hayoti va ijodi misolida tarbiyalash imkoniyatlari, o‘tilgan mavzularni test

vositasida takrorlashda ham, o‘quvchilar bilimini sinash-tekshirishda ham mavjud. Masalan: 1. Qaysi qatorda omonim so‘zlar berilgan?

a) Birovkim, qilsa olimlarga ta’lim,
Qilur go‘yoki payg‘ambarg‘a ta’zim.
b) Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q:
Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo‘q.
s) Tig‘i ishqing yorasidur butmag‘on,
Dardini har kimga aytib butmag‘on.
d) Jondin seni ko‘p sevarman, ey umri aziz,
Sondin seni ko‘p sevarman, ey umri aziz.
e) Erursen shoh-agar ogohsen,
Agar ogohsen, sen-shohsen, sen.

2. Qaysi qatordagi so‘zlarda sirg‘aluvchi «j» tovushi berilgan?
a) Jomiy, mujda, g‘ijda; b) Layli va Majnun, Majolisun-nafois;
s) ajdahosifat, ijtimoiy tabaqa; d) Siroj ul-muslimiyn, Jamshid;
e) Tarixi muluki Ajam, Nazmul-javohir.

5. “Tarqatmalar berish” usuli. Insonparvarlik tarbiyasini singdirishda tarqatmalar bilan ishlash ham samarali vosita sanaladi. Hazrat Navoiyga mehr-muhabbat uyg‘otishda tarqatmalar uchun quyidagicha jumlalarni olish mumkin:

1-tarqatma

«Navoiyxonlik» so‘zida nechta morfema (ma’noli qism) bor?

a) 2 ta; v) 3 ta; s) 4 ta; d) 5 ta; e) 6 ta.

2-tarqatma

Navoiy satrlaridan sifatlovchi vazifasida kelgan ravishni belgilang.

a) Oz so‘z demakning manfaatida va ko‘p so‘zning mazarratida;

b) Temurxon naslidan sulton Ulug‘bek, Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek;

s) Dedi: Har ishni qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod.

d) Men turkcha boshlabon rivoyat, Qildim bu afsonani hikoyat;

e) Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq.

3-tarqatma

Sifatning sintaktik vazifasini aniqlang.

Ko‘z bila qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi, Yuz bila so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi.

a) ega; v) kesim; s) to‘ldiruvchi; d) aniqlovchi; e) hol.

6. **“Yozma nazorat” usuli.** Alisher Navoiyning shaxsi g‘oyat serqirraligi, ijodi cheksiz ummonligiga doir quyidagi matnni yozma nazorat ishi sifatida olib, so‘ng nazorat ishi tahlili mashg‘ulotida matnga doir kichik suhbat tashkil qilish, hazrat asarlaridagi xalqchillik, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat, majoziylik, botiniy va zohiriy ma’nolar haqida fikrlashish o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi.

Diktant matni

Ulug‘ mutafakkir o‘z asarlari orqali ayrim zamondoshlarida uchraydigan salbiy qusurlarni ham ta’sirli tasvirlab, ulardan qochishga, yaxshi sifatlarni egallashga undaydi. U insoniy sifatlarni ikkiga bo‘ladi. Ijobiy sifatlar - tavba, muruvvat, vafo, hayo, iymon, jon do‘sti bo‘la olish; sabrlilik, tavoze’, odob saqlash, hokisorlik, qanoat va boshqalar bo‘lsa, salbiy sifatlar - xasislik, birovlarni kamsitish, yengiltaklik, razillik, ta’magirlik, takabburlik, badnafslik, o‘ziga bino qo‘ymoq, xudbinlik, himmatsizlik, maqtanchoqlik, isrofgarchilik, chaqimchilik, ikkiyuzlamachilik, hasad, ichkilikbozlik, nashavandlik, g‘iybatchilik, bachkanalik va hokazolarga ajratadi.

Ushbu matn asosida kichik suhbat uchun o‘quvchilar o‘rtasiga quyidagi savollar tashlanadi:

Mutafakkir bobomiz qanday sifatlarni insonning ijobiy sifatlariga kiritganlar?

Biz qaysi yomon odatlardan qochishimiz kerak ekan?

7.“Ijodiy matnlar yaratish” usuli. Davlat tili ta’limining ilmiy-nazariy, amaliy muammolaridan biri mazmunli va bog‘lanishli matn yaratish, uni tahlil qilishdir. Metodist olima T. Ziyodova fikricha, “O‘quvchilarning matn ustida ishlash faoliyatini tashkil qilishda o‘qituvchi faqat darslik bilan chegaralanib qolmasdan, ilmiy va badiiy adabiyot, davriy matbuotdan tanlab olingan matnlar, audio-videolavhalardan ham unumli foydalanishi, mazkur mashg‘ulotning mahsuldorligini, o‘quvchilar uchun qiziqarli va zavqli kechishini ta’minlaydi.”[Ziyodova, 2018:35] Ijodiy matnlar yozdirish orqali

Navoiy asarlarida ifodalangan insonparvarlik g‘oyalarini singdirish mumkin. O‘z fikrlarini erkin, mantiqli, ta’sirchan, to‘g‘ri shaklda bayon eta olish malakalarini shakllantirish maqsadida boshlanishi berilgan mantlarni davom ettirish, ijodiy matn yaratish topshiriq qilinishi mumkin. Masalan, “Hayrat ul-abror” dostonidagi “Shoh G‘oziy hikoyati” asosida “Bir kampir bor edi...” deb yozilgan fikrni davom ettirish, yaxlit ijodiy matn hosil qilish; “Sher bilan Durroj” masali asosida “To‘qayda bir yirtqich sher yashardi...”, “Hotam Toyi hikoyati” asosida “Hotami Toyiga bir ko‘ngli ochiq odam dedi: ...” deb yozilgan fikrlarni davom ettirish va shu asosda ijodiy matn yaratishlari topshiriq qilib beriladi.

Demak, yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda Navoiy merosidan foydalanish kelajak avlodning mulohaza yuritish, yaxshi-yomon odatlarni farqlay olish malakalarini oshiradi. Ta’lim jarayonida insoniyat to‘plagan bilimlar bilan birga yuksak insoniy fazilatlarni ham o‘zlashtiradi. Har birimiz o‘zimizda buyuk Navoiyga muhabbat tuyg‘usini to‘la-to‘kis tarbiyalamagunimizcha o‘zimizni to‘laqonli inson deb his qilishimiz behad darajada qiyindir. Navoiyda insonparvarlik, millatparvarlik bulog‘i qaynab yotadi va bu hech qachon qurimaydigan hamda zamon hodisalaridan bulg‘anmaydigan buloqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnoma. 2020 yil, 29 dekabr.

2. Qarang: www.lex.uz/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 4 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4479-sonli qarori.

3. Sobirova M. Dars samaradorligini oshirish. Ilmiy va metodik ishlar to‘plami. –Namangan. 1997. –B.36-43.

4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 14 tom. Toshkent:1998.

5. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar.– T.: O‘qituvchi. 1985. –B.102-103.

6. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi.– T.: Fan. 2018. . –B.157.

HAYDAR XORAZMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA IFODALANGAN METAFORALAR

TASHMATOVA Nilufar
ToshDO‘TAU

Mumtoz adabiyotimizning nodir manbalarida mushtarak fikrlar, umumiy qarashlar, o‘xshash talqinlar ko‘p. Bu holat mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat, iqtisodiy munosabatlar, mutafakkirlarning ezgu maqsadlari, voqelikni idrok qilish imkoniyatlari, qobiliyatlari bilan belgilanadi. XIV-XV asrlarda yaratilgan sermahsul asarlarning o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitish bilan bir qatorda, o‘zbek adabiy tili taraqqiyoti uchun ham munosib xizmat qilib kelayotganligini alohida qayd etish joiz. Zero, mumtoz adabiyot namoyondalari o‘z hayoti davomida o‘zbek tilning keng imkoniyatlarini ko‘rsatish, uni yanada sayqallab, kelajak avlodga to‘la-to‘kisligicha yetkazib berish uchun tinmay mehnat qilishganligi barchaga ayon. Haydar Xorazmiy va Alisher Navoiy asarlarida ifodalangan fikrlar, g‘oyalarning bir-biriga o‘xshashligi, qarashlarning mutanosibligini kuzatishimiz mumkin. Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida va Alisher Navoiyning asarida mavjud metaforalar matnning badiiy xususiyatlarini ta’minlashda, ifodada nutqiy ta’sirchanlikka erishishda alohida ahamiyatga ega.

Til tashqi olamga ma’no orqali bog‘lanadi. Til belgilari ortida turuvchi hodisalarni o‘rganish inson kognitiv faoliyati va nutqiy faoliyat aloqasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.O‘xshatish va qiyos, ko‘plab tadqiqotchilar e’tirof etganidek, inson tafakkurida eng ko‘p qo‘llanuvchi usullardan bo‘lib, uning verbal ifodasi til nominatsiyasining serqirra hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, konseptual metaforaning verbal bosqichga o‘tishi o‘zida murakkab kognitiv-semantik jarayonni namoyon etadi.

Nom ko‘chishi so‘zlarning o‘zaro munosabati natijasida semantik qurilishning o‘zgarishi, semantik vazifalarning so‘z birikmasi a’zolari o‘rtasida qayta taqsimoti va buning natijasida a’zolardan biriga yangi ma’no berilishidir. Metaforalar ana shunday nom ko‘chishi usullaridan biridir. “Metafora asosida ma’nosi ko‘chgan

birliklar “kognitiv aysberg” (Fakkoniyer)ning yuza qismi bo‘lib, uning asosiy qismi bizning lisoniy ongimiz tubida yashirin holda mavjud bo‘ladi” [Худойберганова, 2012: 36].

Aytilishicha, metaforada yolg‘on va haqiqat o‘zaro birlashadi. Metafora nafaqat qisqargan o‘xshatish shu bilan birga, qisqargan qarama-qarshilik hamdir [Арутюнова, 1990:5-3]Darhaqiqat, metaforik ma’noda qo‘llangan so‘z o‘zida ikki xil tushunchaning qiyosi bilan birga ularning o‘zaro qarama-qarshiligini ham namoyon etadi.

Metaforik ma’noli birlik matn tarkibida asosan quyidagi holatlarda voqe bo‘ladi: 1) tushuncha ifodasi sifatida; 2) vaziyat ifodasi sifatida; 3) vaziyatlar yigindisi ifodasi sifatida[Худойберганова, 2013:102].

Metafora tushunchani ifodalab kelganida matn tarkibida so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida reallashadi. Ma’lumki, so‘z-metafora matnda qo‘llangan biror jumla tarkibidagi predmet, belgi yoki harakat-holat denotatining boshqa bir predmet, belgi yoki harakat-holat denotati bilan qiyosiy munosabatini implitsit tarzda ifodalaydi. Shu boisdan so‘z-metaforalarning aksariyati o‘xshatish qurilmasining qisqargan shakli sifatida voqelanadi. Ayrim hollarda so‘z-metaforalar o‘zi ishtirok etgan gapda obrazlilikni yuzaga keltirsa- da, matnning umumiy semantikasida hal qiluvchi So‘z shaklidagi metaforalarning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari tilshunosligimizda yetarli darajada o‘rganilgan, deyish mumkin. Ularning psixolingvistik va kognitiv jihatlari esa o‘z tadqiqini kutmoqda. So‘z - metaforalar asosan harakat va belgi bildiruvchi so‘zlar semantikasidan anglashilib, o‘zida qiyoslanayotgan predmet, hodisa haqidagi tushun chani implisit tarzda ifodalaydi. Metaforik ifoda tadqiqi uchun nafaqat zamonaviy adabiy manbalar, balki mumtoz badiiy matnlar ham material sifatida birdek ahamiyatlidir.

O‘zbek mumtoz adabiyotida ko‘chma ma’no hosil qiluvchi vositalardan fodalanib she’r bitmagan, g‘azallarda metaforalarni o‘xshatishning qisqargan shakli, yoki murojaat shaklidan foydalanmagan ijodkorni uchratish qiyin. Adabiyotlarning ko‘pchiligida nom ko‘chishining turli shakllarini ko‘rishimiz mumkin. Ijodkorlarning deyarli har bir asarlarida metaforalarning boshqa ko‘chim turlariga nisbatan salmog‘i ortiqroq.

.Xususan,Haydar Xorazmiyning “Guishan ul-asror” masnaviysi va Alisher Navoiy g‘azallarida metaforalar asosan so‘z va birikma shaklida qo‘llanishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, bu usuldan g‘azallarda ma’no ko‘chirishning eng samarali usuli sifatida foydalanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror’’ masnaviysida so‘z shaklida ifodalangan metaforalar asar matnini ta’sirchan va jozibali qilishga xizmat qilgan.

Ko‘z yoshidin-boda, bag‘irdin-kabob,

Dardi dilim-nuqlu, fig‘onim-rubob. (№37,3B-sahifa,1-misra)

Sharbati – xunoba, g‘izo – dardu ranj,

Suvrati vayrona-u ma’nisi ganj (№37,18B-sahifa,7-misra)

Alisher Navoiyning 1988 yilda nashr etilgan “G‘aroyibus–sig‘ar” devonidagi g‘azallarda qo‘llangan metaforalarning so‘z shakliga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

Tish qadabmen la’linga uzmasmen andin bu tama’...(G‘S:№ 417,330-b.);

Xazon birla bahorin dahrning naylay, chu yoshurdi (G‘S: №421,333-b.); ..

So‘z birikmasi holida ifodalangan metaforalar mumtoz adabiyotimizda sermahsul hisoblanib, adiblarimiz ulardan o‘z asarlarida unumli foydalanganlar.Shu jumladan , Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida ham so‘z birikmasi shaklidagi metaforalar unumli ifodalangan.

Tobti ko‘ngul kulbasi nuru safo,

Berdi hunar taxtina nash’u namo. (№37,9B-sahifa, 2-misra)

Nuqta bila nuqta topib imtizoj,

Qo‘ydi alif farqina shohona toj. (№37,2A-sahifa, 11-misra)

Alisher Navoiy asarlarida so‘z birikmasi shaklidagi metaforalar g‘azallarda so‘zlarning bir necha nozik ma’no qirralarini ochishga xizmat qilgan.

Tiyra kulbam ichra o‘t soldi firoqing, voykim

,Yorudi kuymak o‘ti birla qorong‘u maskanim(G‘S:№397, 316-b.);

Ey malohat sham’I har soat meni kuydurmakim...(G‘S: № 404,321-b.)

Ishva ko‘rgan dahr bog‘ining guli ra’nosidin(G‘S: № 438, 344-b.)

Gap shaklida ifodalanadigan metaforalar kammahsul hisoblansada, Haydar Xorazmiy masnaviysida adibning so‘z tanlash mahoratini ifodalab bergan.

Gul yuzini qilma tikon birla nesh,
Kafsh kiyu qilma taboningni resh. (№37,19B-sahifa,2-misra)
Jon tishi birla qozib ul konni,
Qildim o‘zum g‘avs bu ummonni. (№37,5B-sahifa,8-misra)

Metaforalar matnning badiiy xususiyatlarini ta’minlash, ifodada nutqiy ta’sirchanlikka erishish uchun xizmat qilish bilan birga shoir mahoratini ochib berishga ham xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotimizning buyuk vakillari Haydar Xorazmiy va Alisher Navoiy iste’dodli so‘z san’atkori sifatida har bir asarning umumiy mazmuni, undagi baytlarning estetik mohiyatiga muvofiq metaforalarni yuksak poetik mahorat bilan tanlab, o‘z ijodini yuqori cho‘qqilarga ko‘tarishga erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Худойберганова Д. Матннинг мазмуний таркибида метафоралар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2012, 1-сон. 36-б.

2. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс / Теория метафоры. - М.: Прогресс, 1990. - С. 5-32.

3. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Т.: Фан, 2013,102-б

4. Ҳайдар Хоразмий. “Гулшан ул-асрор” (Маҳзан ул-асрор) қўлёзмаси. ЎзРФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи. № 37.

5. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. /Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. – Т.: Фан, 1988

ALISHER NAVOIY VA MUHAMMAD FUZULIY: ADABIY IZDOSHLIK VA BADIIY TA'SIR MASALALARI

Rustam TURSUNOV
Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti

Muhammad Fuzuliy benazir ijodi bilan o'zidan keyingi turkiy adabiyot vakillari, shuningdek, o'zbek mumtoz she'riyati namoyandalariga katta ta'sir ko'rsatganining "sir"i – uning o'zigacha bo'lgan so'z daholari: Jaloddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy, Nasimiy, Lutfiy, xususan, Alisher Navoiy adabiy merosini chuqur bilganligi, asrlar silsilasida kelayotgan adabiy an'analarga noyob iste'dodi bilan sayqal berib, o'ziga xos tarzda davom ettirganligidadir.

"Ma'lumki, XV asrda o'zbek madaniyati gullab yashnagan, buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy boshchilik qilgan adabiy maktabning shuhrati Yaqin Sharqqa keng yoyilgan davrda ozarbayjon shoirlarining bir guruhi Hirot shahriga ko'chib kelgan edi. Ular o'zlarining dilrabo asarlari bilan Husayn Boqaro va Alisher Navoiylarning majlislarida bir necha bor tahsinga sazovor bo'lgan edilar". [RH,1968:8] Manbalarga ko'ra, XVI asrda Ismoil Safaviy davlati tashkil topgandan keyin, Hirotda yashagan bir qancha iste'dodli shoirlar o'z vatanlariga qaytib ketadilar. "Masalan, Hirotdan o'z vataniga qaytgan so'z ustalari Xulqiy, Ollohiy, Ziyoiy kabi shoirlar ijodda Navoiy an'analarini davom ettirib, ozarbayjon adabiyotiga ma'lum darajada o'zbek adabiyotining ta'sirini singdirdilar". [R/H,1968:8] Bu davrda yashagan yana bir yetuk shoirlardan Kishvariy Alisher Navoiyga taqlid qilib, badiiy so'zning ajoyib namunalarini yaratgan. "U bir g'azalida shunday deydi:

Navoiy himmatingdan Kishvariy ahli nazar bo'ldi,
Jahon mulkin tutar she'ri, nazar bo'lsa Navoiyning". [R/H,1968:8]

Darhaqiqat, Navoiy maktabidan ta'lim olgan va uning an'analarini davom ettirgan shoir Kishvariy ijodi ozarbayjon she'riyatining rivojlanishida katta rol o'ynagan. Misol uchun, "Sururiy, Shohiy, Motamiy, Qosimiy, Habibiy kabi shoirlar Kishvariy ijodidan ruhlanib katta yutuqlarga erishdilar. Bu shoirlardan biri, ozarbayjon

adabiyotining atoqli namoyandasi Habibiy esa Fuzuliyning ustozidir.

Demak, Fuzuliy, Habibiy va Kishvariylar singari Navoiy maktabining shogirdi va davomchisidir. Uning "Layli va Majnun" dostonida Navoiyni hurmat bilan tilga olishi bejiz emas:

Turku arabu ajamda ayyom,
Har shoira vermishidi bir kom...
O'lmish edi Navoiy suxandon
Manzuri shahanshohi Xuroson". [R/H,1968:8]

Xo'sh, Navoiyni "Manzuri shahanshohi Xuroson" deb e'tirof etgan Fuzuliyning aynan qaysi g'azallarida taqlid unsurlari ko'rinadi? Mazkur savolga javob olish uchun Navoiy va Fuzuliy devonlariga murojaat qilamiz.

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti o'sha mashhur g'azali:

"Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvorul-xudo,
"Yor aksin mayda ko'r" deb, jomdin chiqdi sado" [N/A, G'/S,2011:22] bayti bilan boshlansa, Fuzuliyning devonidagi birinchi g'azal:

"Qad anor al-ishqa lil-ushshoqi minhoj al-xudo,
Soliki rohi haqiqat ishqa aylar iqtido" [O/E,2014:23] bayti bilan boshlanishida, shuningdek, yana bir g'azali:

"Ashriqat min falakil behjati shamsun va biho,
Malaal olama nuran va sururan va baho" matla'sida qo'llanilgan arabiy so'zlar, qofiyalarni ishlatishda Navoiyga ergashish yaqqol ko'rinib turibdi.

Alisher Navoiyning hamd, ya'ni Alloh sifatlari tarannum etilgan ikkinchi g'azali shunday boshlanadi:

"Ne sun'ungdin ajab yuz ming jahon bo'lmoq yana paydo,
Ne mulkingga halal yuz ming jahondek bo'lsa nopaydo". [N/A, B/V,2011:7]

Fuzuliy ham huddi shu qofiya bilan quyidagi:

"Zihi zoting nihonu ul nihondan mosivo paydo,
Bihori sun'unga amvoj paydo, qa'r no paydo" [R/H,1968:30] – mabdali hamd g'azalini bitgani shunchaki tasodif emas, deb o'ylaymiz.

Mumtoz adabiyotda "sabo" – oshiq va ma'shuq o'rtasida xabar

yetkazuvchi vosita obrazida ko‘p va xo‘b qo‘llanilgan. Masalan, Navoiyning lirik qahramoni:

“Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,

Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt”, [N/A, N/SH,2011:90] deb yolborsa, Fuzuliy lirik qahramoni:

“Sabo, ag‘yordin pinhon g‘amim dildora izhor et,

Xabarsiz yorimi holi xarobimdin xabardor et”, [R/H,1968:70] deya yuqorida zikr etilgan hamdardiga hamohang arzi hol qiladi.

Yoki Navoiyning yor yuzida silkinib turgan zulfni - suv bilan o‘ynab turgan hindubachaga o‘xshatib, tamsil san’ati usulida yozgan go‘zal g‘azali bor:

“Zulfing ochilib orazi diljo‘ bila o‘ynar,

Xindubachaye sho‘xdurur, suv bila o‘ynar”. [N/A, B/V,2011:171]

Mazkur o‘ynoqi g‘azaldan ilhomlangan Fuzuliy:

“Sabodan gul yuzingda sunbuli pur pechu tob o‘ynar,

Sonarsan par ochib, gulshanda bir mushkin g‘urob o‘ynar” [R/H,1968:105] – degan baytda radif va obraz tanlashda ustoziga g‘oyibona taqlid qilgani kunday ravshan.

Fuzuliy Navoiyga nainki so‘z, qofiya, radif tanlashda, balki:

Dahr sudidin tama’ uzkim, ziyone besh emas,

Umrni tutqil g‘animatkim, zamone besh emas [N/A, G‘/S,2011:244] – mat’ai bilan boshlangan purma’no, falsafiy g‘azaliga o‘zining:

Dahr bir manzil, xaloyiq korboni besh emas,

So‘z g‘amu afsona, el afsonaxoni besh emas, [R/H,1968:152] g‘azali bilan tatabbu bog‘lagani ilmiy jamoatchilik uchun yangilik bo‘lsa, ajab emas. Shu bois, biz kelgusi tadqiqotlarimizda mazkur mavzuga alohida to‘xtalishni lozim topdik.

Xulosa qilib aytganda, Fuzuliy turkiy g‘azal dunyosida kamolotga erishuvida Navoiy mahorat maktabini o‘tagani, badiiyat sirlarini inkishof etib, o‘z ijodiga tatbiq etgani yuqorida keltirgan misollarimizdan anglashiladi. Zero, bu borada Vadud Mahmud: «Navoiy asrida chig‘atoycha g‘arb turklari ustiga ko‘b ta’sir qoldirg‘on edi. Ahmad va Oshiq Posholar va hatto Fuzuliyga ham Navoiyning ta’siri kuchlidir» deb fikrimizni tasdiqlaydi o‘zining «Fuzuliy Bog‘dodiy» maqolasida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. – G‘afur G‘ulom, 2011.
2. A. Navoiy. Navodir ush-shabob. – G‘afur G‘ulom, 2011.
3. A. Navoiy. Badoye ul-vasat. – G‘afur G‘ulom, 2011.
4. X. Rasul. Fuzuliy M. Asarlar. Ikki jildlik birinchi jild devon. – Toshkent. G‘afur G‘ulom, 1968.
5. E. Ochilov. Fuzuliy qalb gavhari. – Toshkent. 2014.
6. Mahmud V. Fuzuliy Bag‘dodiy (Yubiley munosabati-la) // Maorif va o‘qitg‘uvchi, 1925, - № 4.

ALISHER NAVOIYNING IKKI QIT'ASI TAHLILI

Dilobar TURSUNMURODOVA
ToshDO'TAU
(O'zbekiston)

Alisher Navoiy ijodida har bir obraz o'ziga xos bir shaklda namoyon bo'ladiki, bu ijodkorning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Hazratning maqsadi shundan iborat ediki, qaysi bir obrazni yaratsa, qaysi bir mavzu haqida mushohada qilsa, barcha-barchasida insonning komillik sifatlari ila tarbiya topmoqligini, qalb va ruh tarbiyasini asosiy maqsad qilib olgan. Mazkur kichik bir tadqiqotda "Xazoyin ul-maoniy" devoniga kiritilgan ikki qit'a haqida o'z fikrlarimizni bayon etmoqchimiz.

Hazrat Alisher Navoiyning zuhd maqomi, zohid obrazi haqidagi qarashlar mazkur qit'alarda o'z aksini topgan:

Ko'rsang, ey zohid, muqomirvash qalandarpeshaye,
Bo'lma ko'p mashg'ul-u dunyo sho'g'lidin qil ijtinob.
Dona o'ynab vahjin isor etsam andin yaxshikim,
Everub tasbih-u yormoq sudni etkaysan hisob. [Navoiy,2012: 711]

Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" devoniga kiritilgan quyidagi qit'asida zohid obrazining xususiyatlari yanada yorqinroq ochib berilgan. Bu misralarda zohidning dunyoning yumushlari bilan mashg'ul bo'lganligi, undan saqlanish lozimligini, tasbeh ag'darib o'z savob-gunohni hisob qilgandan ko'ra dona sochib o'ynashi yaxshiroq ekanligi tanqid qiladi. Bizningcha, Hazrat Navoiy bu misralarida zohid tasbeh ag'darganda Ollohning nomini zikr etib, unga hamd-u sano aytmaydi, balki o'z savob-u gunohlarini hisob-kitob qiladi demoqchidek. Bu misralarda zohid dunyo hoy-u havaslariga berilgan, o'z foydasini o'yladigan, faqat savob-gunohlarini hisob-kitob qilib yuradi, deb ta'rif beradi. Xo'sh, bundan ko'rinadiki, Navoiy nazdida zohid obrazi illatlar egasi deya tasvirlanmoqda. Aslo xulosa chiqarishga shoshilmaylik. Tasavvuf maqomotlaridan biri bo'lgan zuhd yo'li, unga kirgan solik – zohid shu sifatlarlar bilan ta'riflanishi mantiqqa to'g'ri keladimi?

Zohid (arab. yuz o‘giruvchi, tark etuvchi) -tarkidunyo qilgan kishi. Zohidlar musulmonlarni bu dunyo rohat-farog‘atidan voz kechishga, Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etishga undaydilar. Bektosh Valiyning “Maqolot” kitobida “Ibodat, umid, qo‘rquv va “ilma’l-yaqin zohidlarga xosdir”, - deya aytadi. [Bektosh Vali, 2000: 10] Xoja Muhammad Porso Imom G‘azzoliy aytadiki: “Tariqat o‘z nafsi chegaralaridan chiqib, Haqqa yetmoq, dunyodan kechib oxiratga qo‘shilmoqdir. Buning uchun o‘z nafsidan Haqqa, dunyodan oxiratga yuz burmoq lozim bo‘ladi. Bu esa faqr va zuhd demakdir”. [Komilov,2009:26]

Yuqoridagi fikrdan shu narsa ayonki, zuhd yo‘liga kirgan solik toat-ibodatda sobitqadam, jism va ruhni nafsdan holi qilgan, jannat umidida yashaydigan, Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etgan kishi.

“Favoyid ul-kibar” devoniga kiritilgan “O‘z holining yigitligida fisq bila tabohlig‘i va qariliqda sharmandalig‘din ro‘siyohlig‘ida aytur” sarlavhali qit’asiga e’tibor qarataylik:

Yigitligimdaki, taqvo-yu zuhd vaqti edi,
Fujur-u fisq bila zoye’ ayladim avqot.
O‘tub yigitlik, uyla menga keldi chun qarilig‘,
Maosh odati ma’hud ila kechursam, uyot.
Desamki, toat etib, sajdadin ko‘tarmay bosh,
Boshimg‘a urg‘ali loyiq ko‘runub ul toot.
Qazodin ulcha manga keldi, zikri hojat emas,
Bilur chu shiddati holimni Qoziyul-hojot. [Navoiy, 2012: 739]

Mazkur qit’ada yigitlik paytda kuch-quvvat yetarli bo‘lgan vaqtda axloqsizlik, buzuqlik, yaramaslik bilan ko‘p vaqtlarimni behuda o‘tkazmay, zuhd va taqvo bilan shug‘llanmoq lozimligini aytadi. Yigitlik vaqti o‘tib, qarilik keldi. Tirikchilik odatini ahd qilsam, uyat bo‘ladi. Sajdadan boshim ko‘tarmay, toat etsam, Toat-ibodatda boshimni urg‘ali joy loyiq ko‘rsam. Qazoyim yaqinlashdi. Holimni “Qoziyul hojot”, ya’ni xojatlarimni chiqaruvchi, Alloh shiddatli holimni bilguvchidir. Ko‘rinadiki, Navoiy yoshlik paytida kuch-quvvat borida toat-ibodat bilan shug‘ullanish lozimligini, qarilik o‘z kuchini ko‘rsatganda, afsus-nadomat qilmaslik lozimligini uqtiradi. Kuch-quvvat bor ekanligida zuhd yo‘liga kirmoqlikni aytib o‘tadi.

Zuhd yo‘liga kirishish uchun uning shartlarini a’lo darajada bajarmoq lozim. Bunda toat-ibodatni o‘z vaqtida ado etmoq, dunyo ne’matlariga mehr qo‘ymaslik, nafsni jilovlash, oxirat uchun yashamoq, do‘zaxiy har qanday ishdan o‘zini tiymoq, Alloh zikri, Alloh man qilgan narsalardan o‘zini forig‘ etmoq, qanoat ila yashamoqdir. Alisher Navoiy zohid obrazini salbiy ma’noda yoritgan degan fikr aytishdan oldin o‘ylaylikki, biz zohid bo‘la olamizmi degan savolni o‘zimizga beraylik. Hazrat Navoiy shaxsiyatida tasavvuf maqomotlarida ancha yuqoriga ko‘tarilgan solikni ko‘ramiz. Shu boisdan Navoiy ijodida zohid malomat qilingandek. Yana bir jihatdan Navoiyning zuhd va zohidlikni tanqid qilishida malomatiylik va naqshbandiylikning ta’siri yaqqol seziladi. Malomatiylar Haq yo‘liga kirgan kishi hech bir jihati bilan odamlar diqqatini o‘ziga jalb qilmasligi, tashqi tomondan odamlardan ajralib turmasligi kerak, deb hisoblanganlar. Ular haq yo‘liga kirgan solik o‘z “men”i, o‘zligi, o‘z vujudini Haq vujudida mahv etishi lozimligini, ko‘proq shu mashg‘ulot bilan shug‘ullanishi kerakligini alohida uqtirganlar. Shuni ham ta’kidlash joizki, Navoiy zuhdni hol o‘laroq inkor etmaydi, balki u zuhdni kasb qilib olishni, zohidlik orqali shon-shuhratga intilishni tanqid qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hazoyin ul - maoniy. G‘aroyib – us sig‘ar. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2012.

2. Alisher Navoiy. Xazoyin ul - maoniy. Favoyid ul-kibar. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2012.

3. Hoja Bektosh Vali. Maqolat – Toshkent:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.

4. Najmiddin Komilov. Tasavvuf – Toshkent:”Movorounnahr” – “O‘zbekiston”, 2009.

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA IKKI BUYUK SIYMO MADHI

Marhabo Turapova
ToshDO'TAU

Alisher Navoiyning she'riyati behad boy va chersiz ekanligi ma'lum haqiqat. Hassos shoir lirik turning xilma-xil janrlarda yozilgan she'rlarida insonning murakkab his-tuyg'usi va ruhiy kechinmalarini,uning shuuri va orzu intilishlarini, hayot va tabiat lavhalarini g'oyat yuksak san'atkorlik mahorati bilan badiiy mujassamlashtirdi. Alisher Navoiy siymosini O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ijodida yuqori o'rinda baholanganligi "To Navoiy bor" she'rida yaqqol ko'zga tashlanadi:

Biz Navoiy bog'ining bog'bonimiz,
Bog'bondirmiz,vale' mehmonimiz.
Bul – "Nasoyim ul - muhabbat" bog 'idir,
Besh asrkim biz bu bog' hayronimiz.

Ma'lumki, Hazrat Alisher Navoiyning "Nasoyim ul- muhabbat" asari turkiy xalqlar adabiyotining eng nodir na'munalaridan biri hisoblanadi. Navoiying bu asari "Nasoyim ul - muhabbat fi shamoyimul futuvvat"("Mardlik hushboyliklarini taratuvchi sevgi shabbodalari") deb ataladi. Navoiy bu asarga uzoq asrlar davomida butun sharq xalqlari tarixida muhim o'rin tutgan mutafakkirlar va turkiy xalqlar ichidan chiqqan azizlarni ham kiritgan.Unda shayxlar va ulug' avliyolar hayoti, mashaqqatli va sharafli umr yo'llari haqida go'zal hikoyalar keltirilgan."Nasoyim ul - muhabbat" asarida Navoiy yozadiki, Muhammad alayhissalom vafotidan so'ng nabilar eshigi yopildi. Ya'ni endi boshqa payg'ambar chiqmaydi.Ammo el o'rtasida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchilar bo'lmog'i kerak. Bu vazifa ummatlar orasidagi komil va olim zotlar zimmasiga yuklanadi. Olimlar,payg'ambarlarning vorisidurlar,degan hadis shuni bildiradi.

Shoir Sirojiddin Sayyid she'rida bu asar nomi keltirilishi bejiz emas.Navoiy ijodini bilmagan uning she'rlaridan ta'sirlanmagan, asarini sevib o'qimagan ijodkor nafaqat shoirlik da'vosini qilishi , "o'zbekman" deb ko'ksiga urishi ham bekor.

Darhaqiqat, Sirojiddin Sayyid she'rlaridagi yana bir fazilat - ulug' insonlarga bo'lgan ehtiromning yorqin ifodalanishidir. Shu sababli ham shoir Navoiyga bo'lgan hurmatini yuqorida keltirilgan asar zamirida baholagani ham ajab emas.

"Mir Alisher" she'rida ham Navoiyga berilgan ta'rifning qanchalik yuqori ekanligiga amin bo'lamiz:

Tiriklikning bongi Navoiy,
Buyuklikning rangi Navoiy.
Besh asrlik ro'yodir dunyo,
Besh asrlik o'ngi Navoiy.
Bir ummonkim,ibtidosi yo'q,
Yo'qdir uning so'ngi Navoiy.
O 'tgan sayin ildamlab ketgay,
Borgan sayin yangi Navoiy.
Vatan kabi poyoni yo'qdir,
Vatan kabi mangu Navoiy.

Shoir Hazrati Alisher Navoiyni dengiz ummoniga o'xshatadi,uning oxiri yakuni, ibtidosi yo'q...

Navoiy asarlarini o'qigan sayin ruhingiz tetiklashadi, qancha uni o'rgansangiz shunchalik o'zingiz uchun yangidan-yangi bilimga ega bo'lganingizni anglaysiz.Vatanning chegarasi va sarhadlari kengligi uchun Sirojiddin Sayyid Hazrati Navoiyni ham poyoni yo'q Vatanga qiyoslaydi.

Shoirning Ahmad Yassaviy,Alisher Navoiy, Maxtumquli, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab,Furqat kabi ijodkorlarga bag'ishlangan she'rlari, ular g'azallariga bo'glangan muxammaslari ham buni tasdiqlaydi.

Mir Nizomiddin Alisher,ya'nikim,
So'z aro osmonimiz,ummonimiz.
Til –"Xazoyin ul - maoniy"dan kelur,
Boshlanur shundan adab karvonimiz.

Shoir yuqorida keltirgan bu asarda Navoiyning yozgan she'rlarining barchasi jamlangan."Xazoyin ul- maoniy"("Ma'nolar xazinasi") – Alisher Navoiyning asari. "Xazoyin ul- maoniy" – "G'aroyib ussig'ar" ("Yoshlik g'aroyibotlari"), "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik nodirlik (she'r)lari"), "Badoye' ul-vasat" ("O'rta

yosh badialari") va "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") nomli devonlardan tarkib topgan mukammal yig'ma devon. Xalq orasida "Chor devon" deb ham yuritiladi. "Xazoyin ul - maoniy"ning tuzilish tarixini Alisher Navoiyning o'zi "Xamsat ul-mutahayyirin", "Munshaot", "Muhokamat ul-lug'atayn", ayniqsa,"Xazoyin ul-maoniy"ga maxsus yozgan "Debocha"sida bayon etgan. Navoiy bu devonlarning aralashib ketmasligi uchun ularga maxsus nomlar qo'yishini maslahat bergan. Sirojiddin Sayyid ta'kidlaganidek ,bu "Xazoyin ul - maoniy" axloq-odob qoidalarini tarannum qiluvchi ijod na'munasidir.Adabiyotimizning boshlanishi Navoiy asarlaridan boshlanadi deb yozadi.

To Navoiy bor – muhabbat dildadir,
So'lmagay hargiz ko'ngil bo'stonimiz.
Shul ismdan yurt aro yuz ming umid,
Shul ismdan nurlanur davronimiz.
Qadr etaylik nonu tuzday har so'zin,
To rizo bo'lgay ulug' mezbonimiz.

"Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs,milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi,sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir.Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa,Navoiyni sevmasa,Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa.

Agar bu ulug' zotni avliyo desak,u avliyolarning avliyosi, mutaffakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri,shoir desak,shoirlarning sultonidir" – deb O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov e'tirof qilganlari yana bir bor asoslidir.

Mashur muarrix Mirzo Haydar ta'biri bilan aytganda: "Turkiy she'riyatda Mir Alisherdan keyin hech kim uningchalik ko'p yozmagan". *Chindan ham, Bobur ijodi Navoiydan so'ng alohida bosqichni tashkil etadi. U adabiyotni hayotga, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirdi. Atoiy, Lutfiy she'rlaridagi xalqchillik Bobur asarlarida yangicha shaklda qayta tug'ildi. Xususan, "Boburnoma" bilan u turkiy adabiyotda realistik nasrni boshlab berdi, sodda,*

xalqona uslubga asos soldi. Shoir merosining hayratlanarli darajada hayotiyligi, ko‘ngilga yaqinligi, tuyg‘ularining tabiiy va samimiyligi shundan.

Shu bois Hazrat Navoiy timsoli qanday ta’riflansa, Zahiriddin Muhammad Bobir obrazi ham undan kam ta’riflanmaydi.

Sirojiddin Sayyid Bobir to‘g‘risida yozar ekan, eng avvalida “Boburnoma” asari haqida to‘xtalib o‘tmasdan iloji yo‘q:

Shoh shoirning ohnomasi ‘ – “Boburnoma”,
Harbu zarb jangnomasi – “Boburnoma”.
Firdavsiyning “Shohnoma”si bordir agar,
Turkiylarning shohnomasi – “Boburnoma”.

She’rni o‘qir ekanmiz ko‘z o‘ngimizda Bobur siymosi, uning suronli hayoti gavdalanadi. Sirojidin Sayyid Bobur obrazini alohida mahorat bilan ta’riflaydi.Uning ”Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli dostonida Bobur haqida she’rlar keltirilgan.Sirojiddin Sayyid Bobur haqida yozar ekan, shoh va shoir bo‘lgan ulug‘ zotning achchiq qismati haqida shunday yozadi :

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,
Muttahamlar dunyosida shoh Bobur.
Andijonu Hindu-etti iqlimda
Topilmadi Sizga bir dodhoh Bobur.
Alisherbek deysiz nazm sultoni,
Siz ham shunda topdingiz,panoh Bobur.

She’rda Boburning Andijonda ham Hindistonda ham bir yaqin do‘st topmagani,oxir-oqibat Navoiy kabi yozgan asar va she’rlaridan panoh topganligini aytadi.

Sabr paymonasin ichdim,davr g‘avg‘osidin kechdim,
Dayr ostonasin quchdim,dahr savdosidin kechdim.
Pushaymonlig‘ni dashtida ajab ovvoralar bo‘ldim,
Riyozat cho‘lidin o‘tdim,alam sahrosidin kechdim.

Ushbu misralarda ham ulug‘ shoirning achchiq qismatiga ishora bor. Ammo Bobur shunday taqdir egasiki, ayni shu taqdir sabab u buyuk shoh va misilsiz darajada e’tirofga loyiq shoirdir. Sirojiddin Sayyid Bobur haqida yozar ekan, uning hayotida ro‘y bergan har bir jiddiy holatlarni e’tibordan qochirmaslikka harakat qiladi. Zahiriddin Muhammad Boburning:

Belingdinkim,xayoledur,yiroqdurmen,meni yod et,
Umidim borki Boburdin etishgaymen xayolingg‘a.

ushbu muxammasidan Sirojiddin Sayyid ta’sirlanib, sharh sifatida “Umidim borki Boburdin”muxammasini yozadi:

Yomonlarning ko‘zi hech tegmasin qaddu kamoligg‘a,
Bo‘libman zor soching islari esgan shamolingg‘a,
Seni bir ko‘rmayin o‘tsam, qolurman deb uvolingg‘a,
Qachon bo‘lg‘ay musharraf bo‘lg‘amen,jono,jamolingg‘a,
Qutulg‘aymen firoqingdin,etishgaymen visolingg‘a.

Sirojiddin Sayyid Bobur ruhiyatidagi o‘zgarishlarni tasvirlashda yorni ezozlash va uning diydoriga yetishish misolida, bir umr Vatan ishqida yurt sog‘inchida yashab o‘tganligini tasvirlaydi.

Sirojiddin Sayyid she’riyatini o‘rganar ekanmiz,Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga alohida ehtirom ko‘rsatilganiga guvoh bo‘ldik. Bu ikki buyuk shoirning adabiy merosi asrlar davomida o‘zining yorqinligi bilan ajralib turadi. Ularning asarlari,hikmatli so‘zlari o‘sib kelayotgan yosh avlodning komil inson bo‘lib tarbiyalanishiga va hayot yo‘lini doimo yoritib turishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur. Tanlangan asarlar. -T.: 1958
2. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983
3.Sirojiddin Sayyid. Tuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur. T.: 2011
4. Sirojiddin Sayyid So‘z yo‘li Ikki jildlik tanlangan asarlar 2-jild. –T.:Sharq,2008
5. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir Bobirnoma. -T.:1960
6. E.Ochilov.Zahiriddin Muhammad Bobur. T.:O ‘zbekiston ,2012
7. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. – T.: 1993.

ALISHER NAVOIY OILA VA INSON ODOBI HAQIDA

Farmonova Muzayamxon
“Alisher Navoiy” MFY rais muovini

Alisher Navoiy ijodida ayollar, ayniqsa, onalarga bo‘lgan chuqur hurmat va ehtirom doimo sezilib turadi. Buyuk mutafakkir o‘z asarlarida bir qator to‘rtlik va baytlarni ayollar, ota-ona va farzand munosabatlari ta’rifiga bag‘ishladi. Ma’lumki, «Nasoyim ul-muhabbat Abdurrahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot il-quds» tazkirasining tarjimasi bo‘lsa-da, Navoiy Jomiy asariga erkin, ijodiy munosabatda bo‘ladi va uning asaridagi ma’lumotlarni to‘ldirib yoxud qisqartirib boradi va 618 ta shayxlar sonini 770 taga yetkazadi [Alisher Navoiy, 2016]. Jumladan, asarda Imom A’zam, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Hakim Tirmiziy, Bahouddin Naqshbandiylarning aqida va qarashlari, tasavvuf, odob, axloq kabi komil insonga xos xususiyatlar, sharqona fazilatlari yoritilgan. Bular qatoriga tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o‘z kasbi orqali non topib kun o‘tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o‘zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo‘pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo‘lish, yaxshi, muloyim tabiatli bo‘lish, saxiy, mard, xushxulq bo‘lish, rizo-rozilik bilan kun o‘tkazish, riyozat chekishdan qo‘rqmaslik kabilarni kiritadi.

Alisher Navoiyning “Hayratul-abror” asarida barcha mavjudotlar ulug‘lanib, ularning ichida inson eng mukammal ekanligi va unga ong, til-zabon berilganligi haqidagi fikrlar ilgari surilgan.

Borchasini garchi latif aylading,
Borchadin insonni sharif aylading.
Ofarinishdin qilib inson g‘araz,
Oni aylab xalq ichinda beevaz [Alisher Navoiy, 1991]

Allohning olamni yaratishidan maqsadi inson bo‘lgani uchun uni barcha mavjudot ichra tengsiz qilib yaratdi.

Shuningdek, “Hayrat ul-abror” dostonida ota-onaga hurmat, adolat, saxiylik, to‘g‘rilik, omonotga xiyonat qilmaslik, sabr-qanoat, vafo, shukur, himmat, ayniqsa, rostgo‘ylikka da’vat yetakchilik qiladi. Jumladan,

Odamiyning zebi himmatdindurur,
Nafsning ta’dibi himmatdindurur...

Odamiy badandur, himmat anga ruh,
Himmat ahlidin olamda yuz ming futuh .

Ya'ni, odam bir badan bo'lsa, himmat anga ruhdir, olamdagi barcha ezguliklar himmat ahli tufaylidir [Alisher Navoiy, 2006: 124].

Mana shunday fazilatlarga ega bo'lgan odamning oila va atrofdagilar oldida obro'yi va hurmati oshishi ta'kidlanadi. Aksincha, ota-onasini, oilasini ranjitadigan, yolg'on so'zlaydiganlarning uyatga qolishi yoki biror falokatga uchrashi aytiladi.

Uning quyidagi misralarida oilaga, onaga bo'lgan munosabat alohida ta'kidlab o'tilgan.

Onalarning oyog'i ostidadur
Ravzai jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'i visolin istar esang,
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i [Alisher Navoiy, 2000].

Ya'ni jannat bog'u bo'stonlari onalarning oyog'i ostidadur. Jannat bog'iga kiray desang, onang oyog'ining tuprog'i bo'l. Navoiy bu o'rinda onaga mehribon bo'lib xizmatini qilishni, roziligi va duosini olishni nazarda tutyapti. Yoki quyidagi baytlarda ota-onaga bo'lgan ehtiromning yana-da baland pardalarda tarannum etilayotganligini ko'ramiz:

Boshni fido ayla ano qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Ikki jahoningg'a tilarsen fazo –
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.
Tun-kuningga aylagil nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh,
So'zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo'yma qadam tashqari"
Bo'lsun adab birla bori xizmating,
Xam qil adab "dol"i kibi qomating [Alisher Navoiy, 1991].

Ya'ni, ota-onangga tiniq, musaffo osmonni tilab, har ikkisini rozi qilish, ularning birini oy, birini quyosh deb bilish. Shuningdek, har bir so'zidan nurdek yog'ilayotgan axloqiy fazilatlaridan, chizgan chiziqlaridan chetga chiqmasdan ikki bukilib farzandlik xizmatini adab ila bajarishlik nazarda tutilgan.

Alisher Navoiy Er-xotin munosabatlariga ham urg'u berib, turmush o'rtog'iga shariat asosida ayoliga do'st, yaqin o'rtoq,

mehribon bo‘lishni tavsiya qiladi.

Zavjagakim ul bo‘lsa anisi haram,

Shar’ tariqi bila tut muhtaram [Alisher Navoiy, 1991]

“Mahbub ul-qulub” yoki “Qalblarning sevgisi” asarining o‘ttiz yettinchi fasli “Kadxudoliq va xotunlar zikri” haqida bo‘lib, er-xotin munosabatlarni amalga oshirishda insonlarning fe’l-atvorlari qanday bo‘lishi ma’qul ekanligi, yaxshi oilaviy hayot kechirishda yaxshi xotin yoki yomon xotin xususiyatlarini bayon etilgan. Alisher Navoiy ayol kishining oiladagi o‘rniga quyidagicha to‘xtaladi: “Yaxshi xotin-oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi uy egasining uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan xusnli bo‘lsa – ko‘ngil yozig‘i, xushmuomala bo‘lsa - jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g‘am va kulfatda sirdoshga, oshkora va pinhoniy dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo‘ladi” [Alisher Navoiy, 1998].

Umuman olganda, Alisher Navoiyning oilaviy munosabatlarga oid bebaho fikrlari yoshlar va yosh oilalar uchun dasturul amal bo‘lishi, o‘zlariga xulosa chiqarishlari foydadan xoli emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1991. Т.7.

2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб, Муншаот, Вақфия. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1998. Т.14.

3. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Мезон ул-авзон. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки Ажам. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. Рисолаи тийр андохтан. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 2000. Т.16.

4. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 2001. Т.17.

5. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1 – 2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Тошкент: Sharq, 2016.

6. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Тошкент, 2006.

7. Султон Иззат. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2010.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA NAVOIY SHAXSIYATI TALQINI VA LIRIK MEROSI AN'ANALARI

Nodira XUDOYNAZAROVA
TDO'TAU

Sharq she'riyati, adabiyoti o'zining boyligi, javharlarini dengizning ostida saqlashi va uni hamisha ajdodlardan avlodlarga go'zal yetkazib berishi bilan ajralib turadi. Aynan shu sabab barcha davr ijodkorlarini o'zlaridan oldingi salaflaridan yordam olishga, ularning ijod laboratoriyasidan foydalanishga undaydi va ijoddagi ma'lum bir maqsadlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Alisher Navoiy kabi adabiyotning buyuk namoyondasi bo'lmish insonning adabiy ta'sirisiz, uning nazmiy va ijodiy ko'magisiz esa, albatta, Hazrat Navoiyning zamondoshlari ham, undan keyin o'tgan besh asrdan oshiq vaqt davomida yashab ijod qilgan insonlarning ham ijodini tasavvur qilish qiyin. O'zbek xalqining sevimli shoiralaridan biri, O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyevaning ham ijodida Alisher Navoiy ijodi an'analarini kuzatishimiz mumkin.

Navoiy-non. To'sma. Unga borar yo'ldan qoch,
G'ashlik qilma, to'rt yonni ham yoritarkan toj.
Navoiyga o'zin ursa, urma kofirni,
Axir, nonga musulmonu kofir birday och.

Shoira qalamiga mansub bu takrorlanmas satrlar esa haqiqatda ham mengzarsizdir. Alisher Navoiyning ijodi xuddi insonlarning ko'ngliga tegmaydigan, balki uni non kabi ochlikdan saqlaydigan kuchdir. Non jismoniy ochlikdan qutqarsa, Navoiy insonlarni ma'naviy ochlikdan asraydi.

Shoira she'rlarida Navoiy shaxsiyati, uning ko'nglidagi faqatgina ijodkorlargagina tanish bo'lgan kechinmalarni zamonaviy tilda o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Uning "Bu o't" she'ridagi quyidagi satrlar esa so'zlarimizning isboti kabidir:

Hazrati Navoiy-ku, nazm bog'ida shoh o'tdi,
Mangu takror o'lmag'ay endi bu yangroq o'tdi.
Ammo ko'ngil uyida yoqmasdan chiroq o'tdi,

Ammo bu sohir ko‘ngil dog‘ o‘tdi-ku, momojon,
Yorab, shoh yigit umri toq o‘tdi-ku, momojon.

Yana bir boshqa satrlardagi o‘xshashliklarni ko‘zdan kechiramiz:

Beshikdin to tobut qadar,
Muhabbat ehtiyojimdur,-

deydi ulug‘ shoir. Aynan shu satrlar Halima Xudoyberdiyevaning “Sezib qoldim” she’rida ham o‘ziga xos fig‘on qiladi:

O‘limdan qochganday Sendan qochdim-u,
Sensiz o‘larimni sezib qoldim men.

Muhabbat shunday kuchki, inson undan hech bir zamon uzoqlasholmaydi, balki o‘sha Ishq bilan o‘sib, o‘limni ham kechib, oliy muhabbatga ulashadi. Axir bu dunyoga kelmoqdan, Inson qilib yaratilinmoqdan ham maqsad shu emasmi? Ammo shu o‘rinda o‘ziga xos bir savol tug‘iladi. Ishqni har ikki solishtirilayotgan yozuvchining anglash tushunchalari har xil. Hazrat Navoiy asarlarida uch xil ishq haqida so‘z ketadi:

1.Avom ishqi. 2.Xoslar ishqi. 3.Sidqlar ishqi.

Alisher Navoiy uchinchi tur ishqni muhim hisoblaydi. Bu darajadagi Ishqqa esa hamma ham yetishavermaydi. Ulug‘ shoir “Layli va Majnun” dostonida bu haqida fikr yuritib, shunday deydi: “amom ishqidurkim, … derlar: “falon falonga oshiq bo‘lubdur” … va bu qismning (avom ishqining) biyikrak martabasi shar’iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnat…” [MAT, 14-tom, 67-bet]. Demakki, avom ishqi sunnat hisoblanmish nikoh bilan yakun topadi. Ammo sidqlar ishqi boshqa bir tushuncha hisoblanib, bu ishq rivojlanib borib, Allohga bog‘lanib ketadigan buyuk bir hodisadir. Ammo Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida ham aynan shunday yuksak Ishq qalamga olinmoqdami. Javob hammaga aniqki, YO‘Q. Demakki shoira yuqoridagi Navoiydan ta’sirlanib bitilgan satrlar orqali o‘zining ham avom ishqiga moyil ekanligini, hali Navoiychalik HAQIQIY ISHQni anglab yetmaganligini namoyon etadi. Aslida Hazrat Navoiyning ham ko‘plab g‘azallarining tahlili olib borilganida shoirning yoshlikda bitganlarining katta qismi bir AYOLga atab yozilganligi, ammo unga yetisha olmaganligi sababli o‘zini haqiqiy ishq uchun ataganligini tarixiy dalillar rad etmaydi. Ayol kishining baxti esa uning oilasi va farzandlari ekanligini

hisobga oladigan bo‘lsak, Halima Xudoyberdiyevaning qalamiga mansub satrlar esa, albattaki, avom ishqining tarannumidir.

Hazrat Navoiyning shunday bir mashhur satri bor:

Kimgakim qildim vafo, vahkim, jafo podosh edi,

Olam ahlida vafo mavjud emas beishtiboh [MAT, Navodir ush-shabbob, 365-bet].

Shoira ijodini kuzatish jarayonida bevosita uning bosib o‘tgan hayot chizig‘ini ko‘ramiz va shoiraning quyidagi satrlarida Navoiy g‘oyasining an’analarini sezganday bo‘lamiz:

Harchand yaxshilik istadim ulusga, ammo

O‘zim yomon otlig‘ bo‘lib, nom oldim, yo Rab.[H.Xudoyberdiyeva, 2019:513]

“Xazoyin ul-maoniy”ning ikkinchi devoni hisoblanmish “Navodir ush-shabbob” “Yigitlik nodirliklari” devonidan olingan parchada esa Navoiyning yigitlik chog‘idanoq hayotning shunchalar bevafoligi va jafokorligini ko‘rganligining guvohi bo‘lamiz. Ijodkor inson esa hamisha ko‘nglidagilarini qog‘ozga tushiradi. Halima Xudoyberdiyevaning hayot yo‘liga boqar ekanmiz, hech kimga sir emaski, ko‘plab ta’qiqlar va noo‘rin cheklovlarni ko‘ramiz. Yuqoridagi satrlar aynan shu isyonning mevasidir.

Xulosa o‘rnida shularni sanab o‘tamiz:

1. Hazrat Navoiy an’analarining bardavom bo‘lishining sababi Insonga xos bo‘lgan eng oliy hislarning Navoiy g‘azallarida tarannum etilganligi va g‘azallaridagi ISHQ mavzusining hamisha yuksak va pok ifoda etilishidir. Bu esa insonlarni unga maftun etadi. Uning yozganlarida hamisha Ilohiy bir sir yashirin. Insonlar esa sirli bo‘lgan narsalarga intilib yashashadi.

2. Ulug‘ shoirning ko‘zlagan maqsadini uning har bir yozganlarida uchratamiz. Uning yozganlarida Ilohiy va Hayotiy haqiqatlar bir-biridan ayrilmagan holda namoyon bo‘ladi. Halima Xudoyberdiyevada esa bu maqsadlar faqat bir tomonlama, ya’niki faqat hayotiy tarzda o‘zini oshikor etadi.

3. Shoiraning Navoiy haqidagi satrlarida ko‘proq buyuklardan o‘tinch so‘rash (“Armon” she’ri), shoirning butun bir hayot haqiqatini o‘zida mujassam etgan satrlaridan olgan xususiy xulosalarini bayon etish orqali gavdalanadi.

4. Halima Xudoyberdiyeva ijodida Alisher Navoiyning badiiy ta'sirlari, avvalo, barcha ijodkorlar kabi Ulug‘ shoirni ustoz sifatida bilishda, Navoiy besh asr oldin chiqargan hayot xulosalarini yangidan tahlil etishda, umr yo‘lida boshidan kechirganlaridan najot izlab Navoiydan topgan taskinlarini zamonaviy shaklda qog‘ozga tushirishda ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. MAT 14-tom. “Fan” nashryoti. –T.:,1987.
2. Alisher Navoiy. MAT 4-tom. “Fan” nashryoti. –T.:,1987.
3. Xudoyberdiyeva Halima., Tanlangan asarlar. “Sharq” nashryoti. – T.:2019.
4. Xudoyberdiyeva Halima., Tanlangan asarlar. “Sharq” nashryoti. – T.:2019.
5. Xudoyberdiyeva Halima., Tanlangan asarlar. “Sharq” nashryoti. – T.:2019.
6. Xudoyberdiyeva Halima., Tanlangan asarlar. “Sharq” nashryoti. – T.:2019.

ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O‘RNI.

Nigora XUDOYOROVA
Bahor SHUKUROVA
TDTU Termiz filiali

“Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi.Turkiy til bila to she’r aytubturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi “Xamsa”javobida,yana biri “Mantiq ut-tayr” vaznida “Lison ut-tayr” otliq. To‘rt g‘azaliyot devoni tartib qilibtur: ”G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoyi’ ul-vasat”, “Favoid ul-Kibar” otliq yaxshi ruboiyoti ham bor.Yana ba’zi musannafoti borkim, bu mazkur bo‘lg‘onlarga boqa pastroq va sustroq voqe’ bo‘lubtur”.

Ulug‘ o‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy temuriylar saltanatiga tegishli Xuroson mulkining markazi – Hirotda tug‘ilib, shu yerda umrining asosiy qismini o‘tkazgan.

Buyuk iste’dod egasi, she’r zavqi ila yonib yashagan betakror yurak sohibi yetti yoshidayoq Farididdun Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini yod olgan ,Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan. Mavlono Lutfiy yosh shoir iste’dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e’tirofini qozongan.

Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta’lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Alisher Navoiy feodal tarqoqligining avj olgan murakkab bir davrida hayot kechirdi. Ulug‘ shoir ana shunday og‘ir sharoitda o‘zining butun vujudini davlatning butunligi va mustahkam bo‘lishini ta’minlash,xalqning moddiy va ma’naviy ahvolini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, ilm-fan, san’at hamda madaniyatni rivojlantirishga bag‘ishladi.

Navoiy, ayniqsa, adabiyot va ona tiliga diqqat bilan qaradi. Benazir mutafakkirning xalqqa g‘amxo‘rligi, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy ettirishdagi xizmatlarini hisobga olgan holda u yashagan davr haqli ravishda Alisher Navoiy davri deb yuritiladi. Chunki,

u”…Yosh bolalik davrining avvalidan hayotining oxirigacha fayz va barakali vaqtning ko‘p qismini ilm-fan va san’at tahsiliga sarf etdi. Turli bilimlarni o‘zlashtirish va har xil fanlarni hosil qilish yo‘lida ozgina fursatni ham qo‘ldan bermadi.Umrining eng yaxshi davri bo‘lgan yigitlik zamonlarini atoqli olimlarning yig‘ilgan joyi va hurmatli fozillarning markazi bo‘lgan maqtovga sazovor Hirot shahrida zo‘r g‘ayrat va tirishqoqlik bilan turli kitoblarni mutolaa qilish ila o‘tkazdi”.

Alisher Navoiy yirik olim sifatida o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi.Uni eng yuqori pog‘onaga ko‘tardi.Uning tilshunos olim sifatida qilgan ko‘p qirrali ishlari,ilmiy-nazariy mulohazalari nodir asarlarida bayon etilgan.Bu esa Navoiydan katta mehnat va keskin kurash olib borishni talab qilardi.U xuddi shunday yo‘nalishda qattiq turib ish ko‘rdi.Uning shoh asarlari XV asr o‘zbek adabiy tilining o‘ziga xos xarakterli xususiyatlarini o‘zida to‘la aks ettirgan bo‘lib,o‘zbek tili tarixini o‘rganish uchun eng boy manbadir.

Ulug‘ shoir yashagan va undan oldingi davrda ham ilmiy asarlar arab va fors tillarida yozilar edi.Ommaviy xarakterga ega bo‘lgan bu an’ana somoniylar davridan boshlab urf bo‘lgan edi.Navoiy atrofida bo‘lgan,yashagan madaniy muhitda ko‘pchilik ana shu qoidaga muvofiq fors tilida ijod qilar edi.Bunday ijoddan faqat yuqori tabaqa vakillari ,umuman,tor doiradagi kishilar manfaatdor bo‘lib,keng xalq ommasi mahrum edi.Chunki ularda fors-arab tillarini o‘rganish va mutolaa qilish uchun hech qanday sharoit va imkoniyat yo‘q edi.

XV asrning 80-yillarida ikki buyuk xamsanavislar Abdurahmon Jomiyning forscha(14772 bayt) va Alisher Navoiyning o‘zbekcha (25615 bayt) ”Xamsa”lari kitobxonlarga yetkazilgan. Sharq adabiyoti tarixida uning janrlari turli davrlarda soni jihatidan ham va ham qay birlarining yetakchilik holati o‘zgarib turgani tarixdan ma’lum. Shunga ko‘ra, bir davrda masnaviy janri,boshqa katta bir davrda g‘azal va undan keyingi davrlarda esa ko‘pgina janrlar teng holatda qo‘llanishda bo‘lgan. Buyuk shoirlar ahamiyati va uning iste’dodi bahosi ma’lum darajada janrlar rang-barangligi bilan ham baholanadi. Masalan, Abu Abdullo Ro‘dakiy besh janrda (qasida, masnaviy, g‘azal, ruboiy, qit’a) Nizomiy Ganjaviy ikki

janrda (masnaviy, g‘azal), Sa’diy Sheroziy to‘qqizta janrda (qasida, qit’a, ruboiy, masnaviy, mufradot, tarje’ot, mulammat, musallasot, g‘azaliyot), Amir Xusrav Dehlaviy sakkiz janrda (g‘azal, qasida, qit’a, ruboiy, tarje’band, lug‘z, muammo, masnaviy), Kamol Xo‘jandiy yetti janrda (qasida, qit’a, mustazod, ruboiy, masnaviy, muammo, g‘azal) Hofiz Sheroziy besh janrda (g‘azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, muammo) va nihoyat, Alisher Navoiy o‘zbek va fors-tojik tillarida yigirmadan ortiq janrda ijod qilgan. Faqatgina “Xazoyin-ul-maoniy”devonlarida o‘n olti janrdagi asarlari kiritilgan.Mana shunchalik xilma-xil janrlarda shoir 200 ming qatorga teng ijod durdonalarini yaratgani haqida o‘zi umrining oxirida yozgan” “Lison ut-tayr” dostonida mana bunday ma’lumot bergan:

Nazm-u nasrim kotibi taxminshunos,
Yozsa yuz ming bayt etar erdi qiyos.
Munchakim nazm ichra qildim ishtig‘ol,
Xotirimdin chiqmas erdi bu xayol

Yuqoridagi fikrlardan yaqqol ko‘rinadiki, Sharq klassiklari orasida asarlarining (g‘azallar) soni,satrlar miqdori va janrlariga ko‘ra oldingi qatorda Hazrat Navoiy turar ekan.

XV asrda o‘zbek tilida original va tarjima asarlari yaratgan salaflarining tajribalarini davom ettirgan shoirlar o‘zbek dunyoviy adabiyotini ravnaq toptirish bilan birga ,o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar .Biroq ular son jihatdan juda oz edilar.Navoiy “Majolis-un-nafois”asarida “turkigo‘y” shoirlarning g‘oyat kam ekanligini eslatib o‘tadi, bular Amiriy, Harimiy,Qalandar, G‘aribiy, Lutfiy,Yaqiniy, Atoiy, Muqimiy, Mahbubiy, Sakkokiy, Mirzo Alibek, Said Hasan Ardasher, Shavqiy Gadoiy kabilar. Navoiyning afsus bilan ta’kidlashicha, hatto, ko‘pgina o‘zbek shoirlari ham ona tili boyliklari va keng imkoniyatlaridan foydalanishga kam e’tibor beradilar. “Bu til dag‘al til,unda yuksak san’at asarlari yaratib bo‘lmaydi “degan fikrlarga uzil-kesil zarba berish, o‘zbek tilining yashirin qolib kelayotgan xazinalarini ochish va uni ilm ahllariga,she’r ixlosmandlariga tushuntirish o‘zbek xalqining buyuk farzandlari oldida muhim vazifa bo‘lib turardi.Ana shu ulkan ishning uddasidan Alisher Navoiygina chiqa oldi.Navoiy ”Bu alfoz va iboratda bir nav’doyiq ko‘pdurkim,bu kunga deguncha hech kishi haqiqatig‘a mulohaza qilmag‘on jihatdin

bu yashurun qolibdur va filhaqiqat ,agar kishi yaxshi mulohaza va taammul qilsa, chun bu lafza muncha vus'at (kenglik)va maydonida buncha fushat (ochiqlik)topilur…"deb yozdi va o'zbek shoirlarini o'z ona tilini mukammal bilishga chaqirdi.

Navoiyning fikricha, ona tilini faqatgina xalq ommasi emas, balki shoirlar ham qo'llashi, shu tilda, iloji boricha, o'z iqtidor va mahoratlarini ko'rsatishlari kerak edi. Masalan, Navoiy xuddi shu maqsadda quyidagicha yozadi:"…turk tilining jomeiyati muncha daloil bila sobit bo'ldi, kerak erdikim,bu xalq orasidin paydo bo'lg'on ta'b ahli salohiyat va ta'blarin o'z tillari turg'och,o'zga til bila zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi va agar ikkala til bila aytur qobiliyatlari bo'lsa,o'z tillari bila ko'proq aytsalar erdi va yana biri bila ozroq aytsalar erdi va agar mubolag'a qilsalar, ikkala til bila teng aytsalar erdi…"

XV asrning o'rtalaridan boshlab fors-tojik adiblari o'rtasida ham turkigo'ylik paydo bo'ldi.Bu esa o'zbek adabiyotini yuksaklikka ko'tarib,o'zbek tilining betakror qudratini namoyish etgan Navoiyning bevosita ta'siri natijasi edi.

Fors-tojik shoirlaridan birinchi bo'lib o'zbekcha she'r yozganlar ham Navoiyning dastparvarlari-Kamoliddin Binoiy, Badriddin Hiloliy, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy kabilar edi.

Buyuk shoir,mutafakkir va tilshunos olim ana shu muddaolar, sa'y-harakatlar jarayonida o'zbek adabiy tilining muboriz himoyachisi,bayroqdori bo'lib chiqdi.Bu sohadagi ilg'or, dono fikrlari, ajoyib asarlari, amaliy faoliyati bilan shon-shuhrat qozondi.

Navoiy: *Turk nazmida chu tortib men alam,*
Ayladim ul mamlakatni yakqalam,-
deb haqli ravishda faxrlandi.

Alisher Navoiy "Muhokamat-ul-lug'atayn"da o'zbek tilini fors tili bilan taqqoslab, ona tilidagi ustunlikni,uning adabiyot,san'at,ilm-fan va madaniyat taraqqiyotidagi rolini mohirlik bilan namoyish etdi. U xalq bilan xalq tilida so'zlashish zarur,ona tilini bilish umumxalq,jamiyat va davlat ishidir,degan fikrda bo'lib,uni amalga oshirish uchun bor ilmi va kuchi bilan harakat qildi.

Navoiy ikki-o'zbek va fors(tojik)tillarini qiyoslar ekan,birining ahamiyatini kamaytirib yoki rad etib,ikkinchisining ahamiyatini

bo‘rttirib ko‘rsatmaydi,bu sohada hech qanday mubolag‘aga yo‘l qo‘ymaydi,aksincha,ularning har birini o‘z holicha olib qaraydi. Boy materiallarga asoslangan holda o‘zbek tilining fors tili bilan teng huquqligi va go‘zalligini,ayrim hollarda esa bu tomonlarning ustunligini isbotlab ko‘rsatadi. Ayniqsa, bunday ahamiyatli jihatlarning fonetika tarkibida,so‘z yasashda,uslubshunoslikda,leksi kada aniq ko‘zga tashlanib turishini alohida ta’kidlab o‘tadi. Demak, Navoiy fors tilining qimmati va ahamiyatini kamsitmaydi. Ulug‘ adib fors tilidan foydalanishda yuqori pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lib,ushbu xususda Navoiy bilan bellasha oladigan kishi kam topilar edi. Bu uning “Foniy” taxallusi bilan yozgan asarlaridan ham aniq ko‘rinib turibdi. Navoiy asarlari tili XV asr o‘zbek adabiy tilining yuksak namunasi bo‘lib,til tarixini o‘rganishda katta manba va boylikdir.

Mir Alisher Navoiy ona tilining sohir qudratini, tillararo huquqini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki o‘zi ham ona tilida ijod qilishning yuksak namunasini ko‘rsatgan buyuk siymodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Toshkent-1965.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma, Toshkent-1960.
3. A.Mirzoyev. Sezdah maqola Dushanbe “Irfon”-1973.
4. M.Azimov Xafiz Shirazi i uzbekskaya literatura Toshkent-1973.
5. A.Navoiy Devoni Foniy V tom , I kitob,”Toshkent”Badiiy adabiyot nashriyoti,1965.
6. A.Shomuhamedov. Traditsiya tatabbu v uzbekskoy klassicheskoy literature. T- “Fan”-1993.
7. A.Navoiy, To‘la asarlar to‘plami:10 jildlik, 5-jild. T-G‘.G‘ulom nomidagi NMIU,2011.
8. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi 2013-yil, 47-soni.

NASR VA NAZM UYG‘UNLIGI

Munira XUDOYOROVA
Navoiy davlat pedagogika instituti

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari shoir merosining nasriy asarlari sirasiga mansub bo‘lsa-da, unda mumtoz adabiyotimizning kichik she’riy janrlaridan unumli foydalanilgan . Xususan, masnaviy, ruboiy, qit’a janrlarining asar mohiyatini belgilashda o‘zining o‘rni bor.

O‘zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos olima Suyima G‘aniyeva to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Navoiy nasridagi nazm har bir asarning mazmuni, ijodkorning dunyoqarashi bilan mutlaqo bog‘liqdir, ayni chog‘da shoir lirik merosining o‘ziga xos bir qismidir”. [Ғаниева 2008:103] Asarda birgina qit’a janriga mansub she’riy shakllar yigirma to‘qqiztani tashkil qiladi. Shundan asarning kirish qismida 2ta, avvalgi qismida 7ta, ikkinchi qismida 2ta, uchinchi qismida 18 ta qit’a namunalari keltirilgan.

Milliy adabiyotshunosligimizning ilk tadqiqotchisi hisoblangan Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida sanab o‘tilgan o‘nta mumtoz adabiy janrlar sirasiga qit’a ham kiradi. Bu esa bu janrning qadimdan qo‘llanilib kelganligini, janr sifatida turkiy adabiyotda o‘z o‘rniga ega ekanligini belgilab beradi. [Шайх Аҳмад Худойдод Тарозий,2002:34-бет] Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da qit’aning ikki va uch baytli shakllaridan foydalanadi. Sharq poetikasida bunday kichik hajmdagi qit’alar “ali ul-taloq” deb nomlangan. Fasohatli, xushbayon, muxtasar ma’nolarini anglatuvchi shu shakldagi qit’alarga murojaatning mumtoz adabiyotimizda ko‘plab uchrashini filologiya fanlari doktori I.Haqqul shunday izohlaydi: “...birinchidan, qit’a o‘zining xarakteri , poetik ruhi bilan ixchamlikka, konkretlikka dohil janr. Ikkinchidan, klassik shoirlarimiz shakl tanlashda mumkin qadar ixchamlikka intilganlar. Qisqa shaklda katta mazmunni sig‘dirishni badiiy mahoratning muhim belgilaridan deb bilganlar”.[Ҳаққул 208-бет]

Asardagi qit’a namunalari bilan tanishar ekanmiz ,unda shorning qit’aning boshqa janrlarda uchramaydigan ifoda xususiyatlarini

inobatga olgan holda yondashganligining guvohi bo‘lamiz. Ana shulardan eng asosiysi, qit’ada real hayotiy voqealarning darj etilishidir. “Mahbub ul-qulub”da Alisher Navoiyning jamiyat, shaxs, turli tabaqa vakillarining hayotdagi o‘rni haqida aytilgan haqqoniy falsafiy hikmatlari qit’alar orqali ifodalanadi.”Shuning uchun ham , unda shoir hatto jamiyatga juda aktiv munosabatda bo‘lib turgan mutafakkir yoxud munaqqid shaxs sifatida ko‘zga tashlanadi. Uni eshitgan, o‘qigan kitobxon albatta to‘lqinlanadi, Hayot , jamiyat haqida qatra-qatra bo‘lsa ham real tasavvurga ega bo‘ladi, turmush tajribasi , shuuri oshadi”.[Орзибеков Р,1976:15-бет] Masalan, avvalgi qismning o‘ttiz birinchi “Dehqonlik zikrida” deb nomlangan fasliga ilova tarzida keltirilgan qit’a bu kasb egalarining shoir yashagan davrda ham e’tiborli bo‘lganliklaridan dalolat beradi:

Kimki dehqonlig‘ ayladi pesha,
Dag‘i non bermak o‘ldi anga shior.
Bo‘yla kimsa uluvvi rif’atdin.
Odam o‘lmasa, odamiy xud bor. [Alisher Navoiy,2013:474-бет]

Qit’a mavzu mundarijasining xilma-xilligi bilan ham ajralib turadi. “Qit’aning mavzu ko‘lami hayot qadar keng hamda tarmoqli. Bu jihatdan Sharq lirikasidagi birorta ham lirik janr qit’aga tenglasha olmaydi. Unda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, axloqiy-ta’limiy va ishqiy masalalar ifodalangan”.[Ҳаққул И,2009:208-бет] “Mahbub ul-qulub”dagi qit’alarning xarakterli jihatlaridan biri ularda bir necha mavzuning o‘zaro uyg‘unligi. Muborak hadislarimiz mohiyatini o‘zida singdirgan 35-tanbehning mazmunini ifodalagan qit’a falsafiy, ta’limiy-axloqiy mavzu bilan bir qatorda tanqidni ham o‘z ichiga oladi.

Olimekim, ilmi erdi beamal,
Yo g‘aniykim, molig‘a buxl erdi yor.
O‘ldilar yuz hasratu armon bila,
Elga bo‘ldi ishlaridin e’tibor. [Alisher Navoiy,2013: 514-бет]

Qit’a janri tadqiqi bilan shug‘ullangan olimlarimizning deyarli barchasi bu janr tilining soddaligi, ortiqcha buyoq yoki bezakdorlikning yo‘qligi , turli xalq iboralaridan “qo‘pol”, “dag‘al” so‘zlardan alohida , keng foydalanilishini e’tirof etishgan. Janrda aynan shunday imkoniyatning mavjudligi “Mahbub ul-qulub”ning

tabiatiga mos tushgan. Bu esa Navoiyga o‘z davrining muammolari, o‘z davri kishilarining turli holatlarini ifodalashda, puxta va muxtasar xulosalar chiqarishda qo‘l kelgan. Avvalgi qismning oltinchi fasli “Noqobil sadrlar zikrida ” deb nomlanadi. Asarning chiroyli sa’j usulida sadrlarning , ya’ni ulug‘ mansab egalarining xalq va davlat oldidagi me’yoriy talablarini belgilab yozadi: “Sadr kerak ulamog‘a dastyor bo‘lsa va mashoyixg‘a korguzor va xizmatkor va sodotg‘a mumid va fuqaro xizmatida mujid. Zulm rishtasin uzguvchi va avqot buzug‘in tuzguvchi va ziroat kasratida sa’y ko‘rguzguvchi”. [Alisher Navoiy,2013:458-бет] Agar aks holda bo‘lsa, unda Navoiyga qit’aning jo‘n, sodda, ayovsiz tanqid uslubi yordamga kelib sadrni oltin ziynatli-yu, lekin ulov maqsadida miniladigan hayvonga qiyoslaydi.

Kerakki boshig‘a qo‘ysa aloqalik dastor,
Yana rido ham aning egnida mavoliydek.
Yo‘q ulki, markabi bo‘ynig‘a bog‘lab ossa qo‘tos,
Osilg‘ay o‘zining o‘z bo‘g‘zidin saqolidek. [Alisher Navoiy,2013: 458-бет]

Asarda jamiyatdagi illat va nuqsonlarni , voqea-hodisalarni ana shunday ochiq-oydin baholash, ularni hayotiy holatlar bilan qiyoslash shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrni ravshanlashtirib asarning ta’sir kuchini yanada oshiradi. 89-tanbeh “Qobilg‘a tarbiyat qilmamoq zulmdir va noqobilg‘a tarbiyat -hayf. Ani adami tarbiyat bila zoye’ qilma va munda tarbiyatingni zoye’ qilma ”slik haqida parallelizm usulida keltirilgan qit’a ham fikrimiz isboti.

Qobilg‘a tarbiyat erur ul nav’kim, guhar
Tushsa najosat ichra yug‘ay kimsa ani pok.
Gar it uzumig‘a kishi may birla bersa suv,
Bu tarbiyat bila qila olg‘aymu ani tok. [Alisher Navoiy,2013: 530-бет]

“Mahbub ul-qulub”da qit’aning bayon qilinayotgan asosiy mavzu bilan aloqadorligi ham tahlil talab. Asarda aytilmoqchi bo‘lgan fikr nasrda- hikoyatlar, tanbehlar, fasllar orqali beriladi.Va keltirilgan qit’alar aytilmoqchi bo‘lgan fikrning she’riy ifodasi sifatida ko‘zga tashlanadi. Masalan, 3-qismning 30-tanbehida keltirilgan qit’a “Har kimki, birov bila yordur yoki yorlik da’viysida bordur, kerakkim ,

oʻziga ravo tutmogʻonni yorigʻa ravo tutmasa, koʻp nimakim, oʻziga ham ravo tutsa, anga tutmasa. Bas mashaqqatkim, andin ruhgʻa alam yetar , kishi ani oʻz jismu jonigʻa tajviz etar. Ammo ani yorigʻa taxayyul qila olmas, agar taxayyul qilsa, vahshatidan hayoti qolmas. ”,[Alisher Navoiy,2013: 512-бет] - degan fikrning sheʼriy ifodasi:

Yor uldurki, har nechakim oʻziga
Istamas, yoriga ham istamagay.
Oʻzi istarki, yor uchun oʻlgay
Ani bunda sharik aylamagay. [Alisher Navoiy,2013: 512-бет]

Asarda shunday qitʼalar borki, ular bahs yuritilayotgan mavzu mohiyatini toʻldiradi, ravshanlashtiradi. Masalan, 3-qismning 88-tanbehida “Gavhar balchiqqa tushgan bilan qiymati ushalmas va oʻz bahosidan qolmas. Eshak munchogʻin tojgʻa tikkan bila firuza yerin tutmas va hech kim aning kam baholigʻin unutmas ” [Alisher Navoiy,2013:530-бет]ligiga ilova tariqasida keltirilgan qitʼa zarur va kerakli narsani oʻz oʻrnida hammavaqt qadrli boʻlishini hayotiy misollar orqali obrazli tasvirlab, muallif fikrini quvvatlaydi.

Zevar bila shakli xoʻb boʻlmas,
Har qizki, erur yomon liqolik.
Har necha qorongʻu boʻlsa hujra
Sham anda boʻlur fuzun ziyolig‘ [Alisher Navoiy,2013: 530-бет]

yaʼni, xunuk qiz bezak bilan chiroyli boʻla olmaydi, lekin shamning ozgina yorugʻligi qorongʻi uyning ravshanligini orttiradi.

Asardagi qitʼalarning yana bir turlari mavjudki, ular xulosalovchilik vazifalarini oʻtaydi. 93-tanbehda Alisher Navoiy shunday yozadi: “Har gʻaniyki, tirikligida ehsondin koʻngillarni shod qilmagʻay, oʻlganidan soʻng ani kimsa duo birla yod qilmagʻay. Ehson tiriklikda yaxshi otdur, oʻlgandan soʻng doʻzax azobidin najot.”. [Alisher Navoiy,2013:531-бет] Ilova sifatida keltirilayotgan qitʼa ilgari surilayotgan gʻoyani umumlashtirib, xulosalab insonning mukammalligini belgilab beruvchi sifatlar haqida qatʼiy hukm eʼlon qiladi:

Kishida barcha axloqi hamida ,
Chu gʻam oʻldi qoʻyarlar otin ehson,
Biri andin saxodur, bir muruvvat,
Bular gar yoʻqdur, inson ermas inson. [Alisher Navoiy, 2013: 531]

“Mahbub ul-qulub”dagi qit’alar daho ijodkorning janrga qo‘ygan talablaridan kelib chiqib, turli poetik vazifalarni bajaradi. Qit’alar ijodkor niyati yoritilgan nasriy qismning she’riy ifodasi sifatida , g‘oyaning butunligini ta’minlovchi, to‘ldiruvchi she’riy shakl sifatida, donishmand ijodkorning umumiy xulosalarini bayon etuvchi asosiy vosita sifatida ham muhim vazifa o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғаниева С. Алишер Навоий насрида назмнинг ўрни// Озод ватан саодати. 5 жилдли, 5-жилд. Адабий танқид.Тошкент.
2. Шайх Аҳмад Худойдод Тарозий.Фунун ул-балоға//Ўзбек тили ва адабиёти,2002 йил, 1-сон,34-бет.
3. Ҳаққул И. Қитъа ва ғазал муносабатига доир//Ижод иқлими.Тошкент.
4. Орзибеков Р.Лирикада кичик жанрлар.Тошкент,1976,
5. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. Toshkent, 2013.

«MAHBUB UL-QULUB» BADIIY-TARIXIY MANBA SIFATIDA

Oybek XAYDAROV
ToshDO‘TAU

Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari komil insonni tarbiyalash orqali jamiyatni har taraflama yuksaltirish, undagi qusrlarni bartaraf qilish niyatida yozilgan. Bor-yo‘g‘i 130 sahifadan iborat mazkur pandnoma mohiyat-e’tibori bilan butun bir hayotni qamrab olgan. Unda ijtimoiy hayot, jamiyatdagi turli tabaqalar, siyosat, davlatchilik, shariat, tariqat, axloq, ishq, xullas, inson hayotining asosini tashkil qiladigan barcha mavzular haqida so‘z boradi.

«Mahbub ul-qulub» – hayotning butun bir konsepsiyasini qisqa va lo‘nda, badiiy shaklda aks ettirgan, Qur’oni karim va Hadisi sharifdan, xalq og‘zaki ijodiyu hikmatlaridan o‘sib chiqqan pandnomadir. «Mahbub ul-qulub» badiiy-tarixiy manba sifatida o‘zidan keyingi ko‘plab badiiy-didaktik asarlarga, xususan, nafaqat klassik, balki zamonaviy o‘zbek nasri va nazmi uchun g‘oyalar manbai bo‘lgan kitobdir.

«Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar» maqoliga doimo amal qilgan, qisqa satrlarga olam-olam ma’no yuklay oladigan Navoiy «Mahbub ul-qulub»da bu qobiliyatining cho‘qqisiga chiqdi, desak xato bo‘lmaydi. Asardagi nasriy jumlalar ham, nazmiy satrlar ham qisqa-qisqa tuzilgan, ammo mohiyatida umumbashariy g‘oyalar, butun insoniyatga tegishli bo‘lgan masalalar yotadi. Va bular badiiylik libosiga burkanib, o‘zining jozibadorligini, sirliligini oshiradi. O‘quvchi asardagi majozlar kalitini topmaguncha, uning ma’nolar mag‘zini to‘liq chaqa olmaydi. Bu haqida shoirning o‘zi shunday yozadi: *«...Men ul so‘zni anjumanda guhor etarmen va izhorida isror va takror etarmen, hyech kas manga nima deya olmas va demaskim, so‘zimning agarchi ma’nosi uldur, ammo suvrati ul emaskim, suvrat ahli suvratga nazar solurlar va ma’ni ahli ma’nidin bahra olurlar»* [Navoiy, 1998: 61].

Y.E.Bertels o‘zining «Navoiy» monografiyasida buyuk shoir va mutafakkir hayoti va adabiy merosini tavsif va tahlil etish asnosida

uning nasriy asarlari, xususan, «Mahbub ul-qulub»ga ham alohida to‘xtaladi va shoirning qisqa satrlarga olam-olam ma’no jo qila olishini e’tirof etadi [Bertels, 2015: 307–313].

...«Uning (Navoiyning) *o‘z oldiga qo‘ygan vazifasi – nasrda juda muxtasar tarzda kishilik jamiyatining tuzilishi, kishilararo muloqot asoslari haqidagi masalaga doir fikrlarni bayon qilishdan iborat bo‘lgan. Asar nasri vaznga solingan, qofiya bilan xo‘p ziynatlangan»* [Bertels, 2015: 307].

Bertels ham Navoiyning nasrda muxtasar ijod qila olishini ta’kidlamoqda. Mutafakkir bobomizning, asosan, ijtimoiy faoliyatiga e’tibor qaratgan olim, «Mahbub ul-qulub»ni ham ijtimoiy sathda tahlil qiladi. Shuning uchun ham asarni va uning yozilish sabablarini shoir yashagan davr bilan bog‘laydi. Lekin asarda qalamga olingan mavzular ijtimoiylikdan ancha kengroq bo‘lib, unda, shuningdek, insonning asli, ya’ni ruhiyatini tarbiyalash, uni ma’nan yuksaltirish bilan bog‘liq bo‘lgan nuqtalar borki, asarning buyukligini, ahamiyatini oshirib yuborgan jihatlar – aynan shulardir.

«Mahbub ul-qulub» badiiy-tarixiy asar sifatida Qur’oni karim, Hadisi sharif, xalq og‘zaki ijodiyoti namunalariga tayanib yozilgan. Shu bilan birga muallifning, o‘zigacha yozilgan pandnoma asrlardan ta’sirlanganligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Navoiygacha bu yo‘nalishda bir qator asarlar yaratilgan edi. Xususan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u-bilig», Kaykovusning «Qobusnoma», Sa’diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo‘ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» kabi pandnomalari shular jumlasidandir.

Xo‘sh, asarning vaqt sinovidan o‘tib, o‘zidan keyingi ko‘plab adiblar ijodiga ta’sir ko‘rsatib, qanchadan-qancha ijod namunalarining dunyoga kelishida ilhom manbai bo‘lganining siri nimada? «Mahbub ul-qulub»ning yuqorida sanab o‘tilgan pandnomalardan farq qiladigan jihati nimada?

Avvalo, «Mahbub ul-qulub»ning umrboqiy manbalardan o‘sib chiqqani va umumbashariy mavzularni o‘zida aks ettirgani uning yashovchanligini, universalligini ta’minlagan. Navoiy qaysi mavzuda so‘z yuritmasin, shu xususda Qur’oni karim va hadisi sharifda nima deyilganiga e’tibor qaratadi va matn boshida so‘z yuritilayotgan

mavzuga oida oyat yoki hadisni ilova qiladi. Masalan, asarning birinchi qism birinchi (Odil salotin zikrida) faslida shohlarning asosiy sifatlaridan biri adolat ekaniga ishora qilgan shoir, fikrini Payg‘ambarimiz sollollohu alayhi vasallamning *«Adli soat xabara min obodat as-saqlin»* [Navoiy, 1998: 12], ya’ni «Bir soatlik adolat, insu jins ibodatidan yaxshiroq» mazmunida aytgan hadislari bilan quvvatlaydi. Undan keyngina shaxsiy fikriga (yuqoridagi ikki muqaddas manbaga tayangan holda), o‘xshatishu sifatlashlariga o‘tadi. Ko‘plab o‘rinlarda oyat yoki hadisdan aynan parcha keltirilmasa-da, ishora qilib o‘tilgan yoki mavzuning mohiyati ularga ulab ketilgan bo‘ladi. Shuningdek, Navoiy xalq og‘zaki ijodiyoti (folklor)ga ham murojaat qiladiki, asarning badiiy jozibasi, ta’sirchanlik darajasi oshgandan-oshadi.

Poydevorni yuqorida sanab o‘tganimiz uch manba (Qur’on, hadis, xalq og‘zaki ijodiyoti)dan tiklagan Navoiy, ba’zi bir shakliy jihatlarni, pandnoma yozishning an’anaviy qoliplarini, o‘zigacha bu yo‘nalishda ijod qilgan salaflardan oladi.

Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarinining manbalarini o‘rgangan olimlar asarning asosiy sarchashmasi sifatida Quroni Karim va Hadislarni keltirsalar, shoir ilhomlangan adabiy manbalar sifatida Kaykovusning «Qobusnoma», Farididdin Attorning «Pandnoma», Ubayd Zokoniyning «Ta’rifot» asarlari bilan bir qatorda Sa’diyning «Bo‘ston» va «Guliston» asarlarini ham sanab o‘tadilar» [Hayitov, 1997: 3–7].

Asar o‘zigacha yaratilgan pandnomalar kabi didaktik ruhda yozilgan. Bu borada ular o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lishi tabiiy, chunki hammasiga tayanch bo‘lgan manba bir. Ammo «Mahbub ul-qulub»ning shunday jihati borki, o‘zigacha yaratilgan bu tur asarlardan uni tubdan farqlab turadi.

Bizga ma’lumki, «Qobusnoma», «Pandnoma», «Ta’rifot», «Guliston», «Bo‘ston», «Bahoriston» kabi asarlarda, asosan, pand-nasihat ruhi ustuvor bo‘lib, qanday bo‘lish kerakligi to‘g‘risida so‘z boradi. Ibrat sifatida yaxshi xislatlar ko‘rsatiladi. Ammo insonlarning qusrlari, xatoyu kamchiliklari, yomon shaxslar tasviriga ko‘p ham o‘rin berilmaydi. Bulardan farq qilaroq, «Mahbub ul-qulub»da qanday bo‘lmaslik, ya’ni yomon xislatlar va yomonlardan ibratlanish

xususida ham so‘z yuritiladi. Ularga keskin tanqidiy munosabat bildiriladi.

Shoir asarning uchinchi (Mutafarriqa favoyid va amsol surati) qismi boshida shunday yozadi: *«Saodatmand agar olim bo‘lsa, nodonlar so‘zi anga mujibi ibrat va e’tibor, besaodat johil bo‘lsa, olim so‘zidin anga or»* [Navoiy, 1998: 72]. Ya’ni Navoiy haqiqiy olim kishi uchun nodonlarning so‘zi, qilgan xatolari ham ibrat bo‘ladi. Unga qarab bu xatolarni qilmaslikni o‘rganadi. Johil kishi bo‘lsa olimning nasihatini quloqqa olmaydi, deydi.

Navoiydan keyin o‘tgan mumtoz shoirlarimiz, jadidlardan tortib zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakillarigacha bo‘lgan ko‘plab adiblarimiz Navoiyning nasriy asarlari, xususan, «Mahbub ul-qulub»dan ta’sirlanishgan. Asarda qalamga olingan mavzular ko‘plab ijod namunalarining vujudga kelishida tayanch bo‘lgan. Undagi hikmatli so‘zlar, maqollar o‘zbek bolalar adabiyoti namoyandalarining ijodlarida g‘oyalar manbayi vazifasini o‘tagan. Asardagi realistik, tanqidiy ruh, o‘zbek nasrining shakllanishida katta rol o‘ynagan.

Ijodida «Mahbub ul-qulub»ning ta’siri sezilib turadigan adiblar haqida gap ketganda, avvalo, didaktik ruhda asarlar yozgan, bolalar adabiyotida qalam tebratgan shoiru yozuvchilar – Muhammadsharif Gulxaniy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, Quddus Muhammadiy, Hamid Olijon kabilarni keltirib o‘tish mumkin. Ularning bu yo‘nalishda yozilgan ijod namunalarida ham inson (asosan, bolalar) tarbiyasi, odob-axloq, dinu diyonat masalalari birinchi o‘rinda turadi.

Gulxaniyning «Zarbulmasal»i didaktik ruhda yozilgan asar sanaladi. Asarning nasriy-nazmiy shaklda yozilganligi, undagi majoziylik, insonlardagi qusrlarga keskin munosabat bildirilishi, hajviy libosga o‘ralgan (Navoiy aytganidek, surati boshqa-yu, ma’nosi boshqa) achchiq tanqidiyligi, g‘oyaviy jihatdan Qur’oni karim va Hadisi sharifdan o‘sib chiqqanligi, ayniqsa, xalq maqollari, hikoyatlari, ertaklaridan unumli foydalanilganligi bilan «Mahbub ul-qulub»ga o‘xshab ketadi.

Yana bir adibimiz Abdulla Avloniy ham didaktik yo‘nalishda, ayniqsa, bolalar uchun astoydil qalam tebratgan. U ko‘plab she’rlari,

«Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklari bilan hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotiga poydevor qo‘ygan edi. Uzoq yillar qayta-qayta nashr etilgan «Turkiy guliston yoxud axloq» asari, Yusuf xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Nosir Xusravning «Saodatnoma», Sa’diyning «Guliston» va «Bo‘ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Ahmad Donishning «Farzandlarga vasiyat» asarlari kabi o‘ziga xos tarbiyaviy ruhi bilan o‘zbek didaktik adabiyotida o‘z o‘rniga ega.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari Sa’diy Sheroziyning «Guliston»idan ta’sirlanib, unga taqlidan yozilgan, deyilsa-da, «Mahbub ul-qulub» bilan tayanch manbasi bir bo‘lganligi, qolaversa, Navoiyning ham shayx Sa’diyning mazkur asaridan ta’sirlanganligi sabab, bu ikki asarning ko‘plab tutash nuqtalari bor. Masalan, Navoiy «Mahbub ul-qulub»da qalamga olgan qanoat, sabr, hilm, hayo, xasislik, hasad, tama’, chaqimchilik kabi mavzular «Turkiy guliston yoxud axloq»da ham keltirib o‘tilgan.

Chaqimchilik haqida hazrat Navoiy shunday yozadi:

«Kim so‘zni terib aytguvchi og‘zig‘a bergay,
Molik ani do‘zax o‘tining dudig‘a tergay» [Navoiy, 1998: 95].

Avloniy esa bu illatni:

«Chaqimchilar buzar ulfat hisorin,
Nifoqa o‘g‘ratur millatni korin.
Chaqimchi til yomon ajdar tilidan,
Solur jonga alamlik zahri morin.
Yomon til ming tilim bo‘lg‘oni yaxshi,
Sochar ummat aro kinu niqorin.
Yomon til, sohibining dushmanidur,
Yo‘qotgay sha’nu shavkat e’tiborin» [Avloniy, 33] – deya ta’riflaydi. Bundan tashqari, Avloniyning o‘z asarini Navoiy kabi nasr va nazmni uyg‘unlashtirgan holda yozganligi ham uning «Mahbub ul-qulub» va shu kabi pandnomalardan ta’sirlanganligiga yana bir dalildir.

Xulosa qilib aytganda, «Mahbub ul-qulub» badiiy-tarixiy manba sifatida nafaqat adabiyot, balki san’at, ta’lim-tarbiya, oila va jamiyat, ijtimoiy fanlar, siyosat, davlatchilik va boshqa ko‘plab sohalarga ta’sir o‘tkaza olgan, yillar dovonidan o‘tib kelayotgan, har qanday

zamon va makon uchun ahamiyatini yo‘qotmaydigan asardir. U yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lganlar uchun birdek taalluqli, ko‘ngillarga mahbub, o‘qib amal qilgan insonni ham ko‘ngillarga mahbub bo‘lishga o‘rgatadigan pandnomadir. «Mahbub ul-qulub» – o‘zidan keyingi ko‘plab badiiy-didaktik asarlarga, xususan, nafaqat klassik, balki zamonaviy o‘zbek nasriyu nazmi uchun ham g‘oyalar manbai bo‘lgan, komil insonni tarbiyalash niyatida yozilgan kitobdir. Bunday keyin ham o‘qiguvchilar, asarni qayta-qayta mutolaa etganlari sari undan turli xil duru javohirlar topaveradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami 14-tom «Mahbub ul-qulub» – T: «Fan» nashriyoti – 1998. 304 b.

2. Bertel’s E. «Navoiy» monografiyasi (Rus tilidan I. Mirzayev tarjimasi). – T: Tafakkur qanoti, 2015.

3. Hayitov Sh. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarining manbalari va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Filol.fan.nomz.dis. ... avtoreferati. – T., 1997.

4. Avloniy A. «Turkiy guliston yoxud axloq» – T: www. ferlibrariy.uz.

“XAMSAT UL- MUTAHAYYIRIN” ASARIDA JOMIY SHAXSIGA NISBATAN QO‘LLANILGAN ISTILOHLAR

Shahnoza XO‘JANIYAZOVA
ToshDO‘TAU

Alisher Navoiy deyarli barcha asarlarida ustozi Abdurahmon Jomiyni e’zozlab, ta’rif-u tavsif qilgan. Ammo “Xamsat ul-mutahayyirin” (“Besh hayrat”) asarida Jomiyning tug‘ilishidan to vafot etgunicha, nasl-nasabi, ustozlik fazilatlari, pirlik sifatlari mukammal ochib berilgan.

“Xamsat ul-mutahayyirin” tarkibiy jihatdan “Muqaddima”, Uch maqolat va “Xotima”dan iborat. Asarining kirish qismida mundarija keltirilgan. Unga ko‘ra, mazkur asar muqaddima, Jomiyning tug‘ilishi, nasl-nasabi, bolalik va yigitlik davri, ilk bor Navoiyning Jomiy bilan uchrashuvi tasvirlangan.

“Xamsat ul-mutahayyirin” G‘arb adabiyotshunosligi termini bilan ifodalaganda, agiografik asar. Chunki unda diniy-tasavvufiy jihatdan komil shaxs madh etiladi. Navoiy bu asarda Jomiyni faqat ustozi bo‘lgani uchungina emas, balki komillikka yetgan tasavvuf vakili va o‘zining piri bo‘lgani uchun ta’rif-u tavsif etadi. Ana shu jihati bilan asar − mumtoz adabiyotimizdagi manoqib janriga mansub [Olimov, 2014: 194].

Shayx Ahmad ibn Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida **manoqib** istilohi haqida quyidagicha fikr bildirgan: “Bu o‘n nav’ she’rkim, zikr qilduk, har qoysida agar Tengri azza va jallaga hamd aytsalar, oni tavhid derlar. Va agar Muhammad Mustafo alayhissalot vassalomni vasf qilsalar, na’t derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru’ qilsalar, munojot o‘qurlar. Va xulafoyi roshidinni ta’rif qilsalar, manoqib va manqabat derlar. Agar salotin yo umaro yo vuzaroni o‘ksalar, madh va madhat *va* tamadduh o‘qurlar. Va agar o‘lgan kishini zikr qilsalar, marsiya derlar. Agar kimarsani nafrin qilsalar, hajv va mazammat derlar. Va agar hazl qilsalar, mutoyiba derlar” [Taroziy, 2002: 76].

Navoiy Jomiy nasabini Shaybon qabilasining maliklaridan Muhammad binni Hasan binni Abdulloh binni Tovus binni Xurmuz

Shayboniy deb ko‘rsatadi. Shoir bu yerda ikki jihatga: ham Ahmadi Jom ta’limotining unga ta’siriga, hamda u siymoning ham Jom viloyatida tavallud topgani taxallusi Jomiy ekanligini ta’kidlamoqda.

Jom viloyatida alarning oliy nasablari imom ul-mujtahidin Muhammad binni Hasan binni Abdulloh binni Tovus binni Hurmuz Shayboniyg‘a borurkim, Hurmuz bani Shaybon qabilasining maliki ermishkim, Bag‘dodda saltanat qilibdur va johiliyat zamonida amir ul mo‘minin Umar raziyallohu anhu xalifaning ilgida islom sharafiga musharraf bo‘lubtur va Bani Shaybon qabilasi nasab sharafida arabning ko‘proq qaboyilig‘a mujibi mubohot va tafoxurdur va o‘z otalari va ulug‘ otalari zuhdu taqvo bila mashhur va qazou fatvo bila doim mashg‘ul ermishlar va Jom viloyatida sokin va shayx ul islom Ahmadi Jom vatanida mutavattin va alarning bu qit’asi bu ma’nig‘a dalildur (737).

Jomiy “Malomatiya” maktabiga mansub bo‘lgan. Malomatiya – IX asrda Nishopurda paydo bo‘lgan ta’limot. Unga ko‘ra uni qabul qilganlar o‘zlarining malakalarini oshirish, yuraklarini pokiza tutib, sunniy mazhabga qat’iy rioya qilishlari kerak bo‘lgan. Lekin ularning bu harakat va intilishlarini hech kim sezmasligi, bilmasligi shart hisoblangan. Zohirda ular boshqalardan farq qilmasliklari va o‘zgalar ularga biror bir malomat qilsalar xafa bo‘lmay, aksincha bu bilan faxrlanishlari lozim bo‘lgan.

Agarchi xavoriqi odat izhorig‘a Haq taolo amri bila ma’mur emaslar erdi va pokiza holatlari“Malomatiya”tariqini shoirliq va mulloliq tariqida yashurun tutarlar erdi. Ammo gohi g‘arib nimalar alardin zohir bo‘lur erdi (788).

Navoiy bilan Jomiy turkiy va forsiy adabiyotda ilmiy merosi bilan o‘chmas iz qoldirgan. Ular o‘rtasida do‘stlik, uztos-shogirdlik pir va murshidlik an’anasining eng go‘zal ko‘rinishi aks etgan. Buning yaqqol namunasi adibning “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida o‘z aksini topgan. Mazkur asarda Jomiyni *avliyo, shoir, hazrat, alar, mavlono, pir, mahdum va ustod* tarzida ifodalangan.

Avliyo istolohi bu arabcha so‘z **avliyвu** shakliga ega (ARS, 913); o‘zbek tiliga fathali hamzani **a** tovushiga **в** tovushini **в** tovushiga almashtirib, so‘z oxiridagi dam-mali hamzani tashlab qabul qilingan: **avliyвu →avliyв (avliyo).** Bu so‘z asli “kimgadir yaqin bo‘ldi”

ma’nosini anglatuvchi **valiya** fe’lining I bob masdari **valiy (un)** so‘zining (ATG, 142) koplik shakli bo‘lib (ATG, 41), o‘zbek tilida “yaqin” ma’nosi asosida yuzaga kelgan “bashorat qilishga, karomat ko‘rsatishga qodir” ma’nosini anglatadi (O‘TIL, I, 24) [O‘TEL, II, 2003:11].

“Alisher Navoiy qomusiy lug‘at”da avliyo-valiylar, Xudoning do‘stlari Jomiyning talqini bo‘yicha, avliyo so‘zi **vaylun** (yaqin kishi, do‘st)so‘zidan olingan bo‘lib, ikki-umumiy va xos holatlarda qo‘llaniladi. Umumiy holatda barcha imonli kishilar avliyo hisoblanadi, chunki Alloh jamiyki, bandlaridan faqat muayyan qisminigina imon saodati bilan musharraf etib, O‘zini bilish va tanish yo‘lida sobitqadam qilgan. Avliyolarning martabasi payg‘ambarlardan keyin turadi, ularning kimligi Alloh taolo va xoslar –o‘z toifadagilariga ma’lum [Sirojiddinov, 2016: 50].

Bu nav’ karomat avliyoning kamidin voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘aykim, o‘ttuz yil ortug‘roqdin so‘ngra natija zohir bo‘lmish bo‘lg‘ay (790).

Shoir bu arabcha so‘z bo‘lib, **єв’ir (un)** shaliga ega (ARS, 406); o‘zbek tiliga cho‘ziq **в** unlisini **в** unlisiga, kasrli ayn tovushini **i** tovushiga almashtirib qabul qilingan: **єв’ir → shвir (shoir)**. Bu so‘z asli “his qildi”, “ta’sirlandi” ma’nosini anglatuvchi **єв’ira** fe’lining (ARS, 406) “she’r ijod qildi” ma’nosi bilan hosil qilingan I bob aniq nisbat sifatdoshi bo‘lib, (ATG, 147), bosh ma’nosida “she’r ijod qiluvchi (kishi)” ma’nosini anglatadi (O‘TIL, II, 423). O‘zbek tilida bu so‘zdan **–lik** qo‘shimchasi bilan **shoirlik** so‘zi yasalgan [O‘TEL, II, 2003: 509].

Hazrat istilohi arabcha so‘z bo‘lib, ulug‘, mo‘tabar” degan ma’nolarga ega

[ANATIL, IV, 1983: 137].

Andoqki, davrning arjumandlari va ahdning sarbalandlari ul hazratning oliyshon ostonig‘a yuz yetkururlar erdi va iltijo keltururlar erdi (740).

Mavlono – bu so‘z **mavlвnв** shakliga ega bo‘lib, **mavlвn** so‘ziga xitob, murojaat ma’nosini ifodalovchi arabcha **в** yuklamasini qo‘shib tuzilgan (ARS, 912); o‘zbek tilida cho‘ziq **в** unlilarini **в** unlilariga almashtirib qabul qilingan: **mavlвnв → mavlвnв (mavlono!); mavlвn** so‘zi asli “boshqardi” ma’nosini anglatuvchi

valiay fe'lidan hosil qilingan ot bo‘lib (ARS, 911), arab tilidagi "hukmdor" ma'nosini anglatadi (ARS, 912), **ув mавlвпв** tarzida hukmdorga murojaat so‘zi sifatida ishlatiladi ("Ey hukmdorimiz!" kabi ma'noni anglatadi), eski o‘zbek tilida bu so‘z olim va fozil kishilarga murojaat qilishda yolg‘iz o‘zi yoki o‘sha zotning ismi sharifidan oldin qo‘yib ishlatilgan (O‘TIL, I, 438) [O‘TEL, II, 2003: 217].

tariqat ahlining muqtadosi va imomi va shariat xaylining mujtahid va shayx ul islomi, ya'ni nur ul Haq vad-din, kahf ul islom va muslimiyna shayxuno va MavlonoAbdurahmon ul Jomiy qaddasallohu sirrahu va navvarallohu marqadahu (735).

"Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati"da **pir** – "ustoz, boshlig‘, tasavvuf tariqatining boshlig‘i" tarzida izohlangan.

Andin so‘ngro Xiyobon boshida hazrati pir maxdum Mavlono sa'dul millati vad-din Sa'duddin Koshg‘ariy mazori boshida iqomat rasmin zohir qildilar va shahrning jame'i ulamo va akobiriyu ashrofi alarg‘a mulozamat va taraddud bunyod qildilar (740).

Maxdum istilohi hozirgi o‘zbek tilida deyarli ishlatilmaydigan arabcha so‘z **maxdьm (un)** shakliga ega bo‘lib (ARS, 213), o‘zbek tilida cho‘ziq **ы** unlisini **u** unlisiga almashtirib talaffuz qilinadi: **maxdьm → maxdum; xadama** fe'lidan "mehnat faoliyatini ado etdi" ma'nosi bilan (ARS, 213) hosil qilingan I bob majhul nisbat sifatdoshi bo‘lib (ATG, 148), arab tilida "ish bilan ta'minlovchi", "ishga yollovchi", "xojayin" ma'nolarini anglatadi (ARS, 213); o‘zbek tilidagi bu so‘z "martabali ruhoniy" ma'nosini anglatish uchunishlatilgan (O‘TIL, I, 452) [O‘TEL, II, 2003: 246].

Hazrati maxdum olam afozilining hakami, balki hokimidur, alarni musallam tutmas kishi yo‘qtur (743).

Ustod – "ustod, muarbbiy, muallim, rahnamo", "bilimdon, ishbilarmon, o‘tkir mahorat egasi" [ANATIL, III, 1983: 299].

Ul fano sori dastgir manga,

Murshid-u ustod-u pir manga (733).

Alisher Navoiy avvalida Abdurahmon Jomiyni shoir, donishmand, olim sifatida ustoz deb bilgan bo‘lsa, keyinchalik esa bu hazratning rahnamoligida Naqshbandiya tariqatini rasmiy tarzda qabul qilib, Abdurahmon Jomiyni ham ustoz, ham pir sifatida ezozlaydi

[Valixo‘jayev, 2002: 30].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy betakror durdona asarlari bilan turkiy va forsiy adabiyotda o‘chmas iz qoldirdi. Navoiy asarlarida Jomiyni alohida hurmat va ehtirom bilan tilga olgan. Ustozini nafaqat do‘sti deb bilgan, balki mehribon ota sifatida ham qadrlab ulug‘lagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy XX jildlik, V jild. Xamsat ul-mutahayyirin. –T.: 2013. – B. 791.
2. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. –T.: 2002. – B. 30.
3. Olimov F. Xamsat ul-mutahayyirin va Abdurahmon Jomiy. Jahon adabiyoti. 2014. –T.: №3. – B. 194.
4. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy qomusiy lug‘at. –T.: Sharq. 2016.-B. 50.
5. Taroziy Sh. A. X. Funun ul-balog‘a. O‘zbek tili va adabiyoti. – T.: 2002. № 1. – B. 76.

“ …O‘ZGACHA”

Saodat ESHPO‘LATOVA
ToshDO‘TAU akademik litseyi

O‘zbek xalqining ulug‘ shoiri va mutafakkiri, o‘zbek adabiyoti maydonida ulug‘ bir tog‘ yaratgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyotining yetuk siymolari—Firdavsiy, Rudakiy, Nizomiy, Shota Rustaveli, Shayx Sa’diy, Abdurahmon Jomiy kabi o‘lmas siymolar qatoida turadigan ulug‘ shoir va mutafakkirdir.

Biz dunyodagi eng baxtli xalqning farzandlarimiz. Chunki bizning Navoiymiz bor. Alisher Navoiyning bizga meros qoldirgan asarlari shunday ulkan ummonki, qanchadan qancha avlodlarini o‘z nuri-ziyosi bilan asrlar davomida bahramand etib tursa-da, hamon bir qatra ham kamaymasdan, o‘z qimmatini yo‘qotmasdan oltinchi asrni yashab kelmoqda. Navoiy g‘azallari mutolaasi o‘quvchiga shunday huzur bag‘ishlaydiki, har gal o‘qiganimizda yangi-yangi ma’nolarni uqish mumkin. Yuragimiz tubidagi eng pokiza hislar, bokira tuyg‘ular bosh ko‘taradi, g‘alayon qiladi. She’riyat atalmish ummonning asiriga aylanasiz-qo‘yasiz. Keling, mutolaaga kirishaylik…

Vahki, chamandin yana esti shamol o‘zgacha,
Har dam o‘lur atridin ko‘ngluma hol o‘zgacha.

Bunchalar chiroyli ta’riflangan chaman qayer ekan-a? G‘azal shunday go‘zal ohang bilan boshlandiki, beixtiyor ko‘z oldingizga obod bir bog‘ keldi. Bunday betakror go‘sha tushingizga ham kirmagan. Nazarimda, biz bunday joyni orzu qilamiz, xolos. Nima uchun bu chamanning shamoli o‘zgacha tuyuladi? Nima uchun u ko‘ngilga xush yoqadigan bo‘y taratadi? Chunki u oddiy chaman emas. Bu –ilohiy ishqdan bahramandlik bog‘i, Alloh ishqi bilan mast bo‘lish bog‘i.

Bulbul-u qumri chekib lahn-u navo o‘zga nav’,
Ko‘rguzadur sarvi gul g‘anj-u dalol o‘zgacha.

Bu chamanning bulbul-u qumrilari ham o‘zgacha sayraydi, ularning kuyiga, sayrashiga tahsin o‘qiysiz. Qomati sarvdek tik gul esa qosh-ko‘zlarini uchirib, noz-karashmalar qiladi. Gulning ko‘zi

borligi haqidagi lavhani biz “Hayratul-abror” asaridagi Nushirvon haqidagi hikoyatda uchratgan edik. Nushirvon nargis gulining ko‘zidan uyalib, adabsizlikdan qaytgan edi.Yuqoridagi baytda ham jonsiz narsa jonlantirilib, tashxis san’ati qo‘llangan.

Savsan o‘lub sarbaland, g‘uncha qilib no‘shxand,

Elga alardin yetib daf’i malol o‘zgacha.

Gulsafsar yuksaklikka ko‘tarilib, g‘uncha esa chiroyli tabassum qiladi (yana tashxis san’atini ko‘ryapmiz). Bu hodisalar xalqqa, odamlarga xotirjamlik baxsh etadi. Bu, albatta, Allohga bo‘lgan muhabbat evaziga kelgan baxtiyorlik tuyg‘usi.

Birinchi misrada ichki qofiya ham mavjud: sarbaland – no‘shxand. Bu qofiyalanish g‘azal ohangdorligini kuchaytiradi.

Sunbuli purtob ham, lolai serob ham,

Dud ila o‘tdin bo‘lub shibh-u misol o‘zgacha.

Yarqirab ko‘zlarni quvnatadigan sunbul ham, serobligidan qirlar bag‘rini gilamga aylantiradigan lolalar ham, hattoki tutun bilan olovning ham o‘xshashi topilmaydi, ularning bari o‘zgacha. Buning sababi esa birinchi baytda keltirildi – chamandan esgan o‘zgacha shamol.

Birinchi misradagi ichki qofiya tarkibida radif (ham) ishtirok etgan.

Kirdi magar dilbarim, huru pari paykarim,

Gulshan aro ko‘nglida fikr-u xayol o‘zgacha.

Agar bu chamanga sevikli yor, parisurat go‘zal tashrif buyursa, bu gulshan ichida uning fikri-xayoli ham o‘zgacha bo‘ladi. Sevimli yorh ularga, parilarga o‘xshatilyapti. Oshiq yigit yorining shu chamanga kirishini juda xohlayapti, chamanning yor bilan o‘zgacha bo‘lib ketishini ko‘ngli sezyapti.

Bo‘lsa manga dog‘i yo‘l, andaki aysh aylar ul,

Qilsam edi mast o‘lub qol-u maqol o‘zgacha.

Oshiq yigit ishq yo‘lidan hech charchamagan, aksincha, yana yo‘l yurishni istaydi. Bu yo‘lda aysh-u ishrat qilib, mast bo‘lib, o‘ylamay, beixtiyor ba’zi bir gap-so‘zlarni aytib yuborishni orzu qiladi. Agar mayni ishq ramzi ekanligini yodga olsak, oshiq Allohga bo‘lgan muhabbatdan mast bo‘lishni xohlaydi.

Umri abad topqamen, tutsa manga bir qadah,
Nash'ai maydin anga husn-u jamol o'zgacha.

Agar sevikli yor oshiq yigitga qadahda may tutsa, u mangu yashaydi, qiz qo'lidagi qadah yigitga abadiy umr bag'ishlaydi. May xayolidan oshiqning husni-jamoli ham o'zgacha tusga kiradi, u o'zini juda baxtiyor hisoblaydi.

Dahrda yo'qdur karam, dahrning ahlida ham,
Qilmag'asen, ey ko'ngil, fikri muhol o'zgacha.

Bu dunyoda lutf-u karam yo'qdir, dunyo ahli ham saxovat tuyg'usidan yiroqda. U bu dunyoning mehrsizligini, saxiylikka begonaligini biladi, chunki bu – o'tkinchi dunyo. Shuning uchun oshiq yigit ko'nglidan mumkin bo'lmagan ishlarni qilmasligini so'rayapti.

Zuhd, Navoiy sanga bermadi masjidda fayz,
Emdi kirib dayr aro, tarhni sol o'zgacha.

Maqta'da Navoiy zohidga murojaat qilyapti. Uning masjiddagi holatidan qoniqmayapti, uning dayr (mayxona)ga kirib, o'z yashash tarzini o'zgartirishini so'raydi. Axir zohidlar bu dunyodan uzilgan odamlar, ularni o'tkinchi dunyoning g'am- tashvishlari bezovta qilmaydi. Ular chin dunyoning umidi bilan yashashadi.

Biz Navoiyning birgina g'azalini ko'rib chiqdik. Bu ulug' mutafakkirning ilmiy, qomusiy va diniy bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan, jahon madaniyati xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas asarlari asrlar osha avlodlarga xizmat qilib kelmoqda. Shuning uchun ham Navoiy asarlari makon va zamon bilan doimo hamohangdir. Qaysi davrda o'rganilmasin, o'sha davr muhitini sezdirib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abadiyat gulshani. Toshkent – 2013.
2. A. Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent – 1998.

АЛИШЕР НАВОИ И УЗБЕКСКИЕ МАКОМЫ

Азизахон УСМАНОВА
Филиала Российского государственного университета нефти и газа имени И.М. Губкина

Невозможно представить любимые песни узбекского народа, макомы, без целебных газелей Алишера Навои. Из-за глубокого значения и мелодичности поэзия Навои наполняет сердце слушателя эмоциями, дает бесконечную духовную силу. Большой интерес Алишера Навои к музыкальному искусству, начатому в раннем детстве, отразился на его поэтических произведениях, написанных в разных жанрах. Навои создал прекрасные газели, используя возможности слова. Он создал целую систему мелодий со словами, знал, что звук слова гармонирует с музыкальным звуком и использует его более эффективно [Бертельс, 1965: 5]. Сегодня можно объяснить широкий спектр жанров газали узбекских макомов по их лирической содержаний. Музыка, которая является неотъемлемой частью восточной поэзии, играет особую роль в изображении эмоциональной системы Алишера Навои. Здесь мы слышим звуки музыки, мелодии или мелодии в каждом слове или фразе. Некоторые из его работ показывают ценность слова и его гармоничный музыкальный звук. Благодаря этим качествам газели Навои вдохновили композиторов на создание творчества [Исуоцов, 1983:11-12]. Более того, в отделе макомского искусства есть много работ, созданных гением Навои. Захириддин Мухаммад Бабур говорил: «В музыкальной науке Навои создал много композиции в том числе узоры и пешравы» [Исуоцов, 1983:11-12]. Дарвиш Али Чанги в своей книге утверждает, что Алишер Навои создал семь «усул» макомов [Эркинов, 1998: 44-45]. Известный ученый Исхак Раджабов в своей монографии «Макомлар» дал ценные комментарии что в Шашмакоме «усул» зависит от «вазн» газелей и привёл несколько конкретных примеров [Эркинов, 1998: 44-45]. По его словам, газели Алишера Навои очень просты в использовании некоторых частей Шашмакома как Сокийнома, Мугулча и Насре.

Газели Алишера Навои в основном состоят из семи или девяти байтов, каждый байт имеет конкретное значение. Примечательно, что начиная с первого байта, содержание газелей постепенно растет медленно. Когда дело доходит до четвертого и пятого байтов, духовные значения достигают вершину, а затем заканчиваются [Абдугафуров, 2001: 35]. Аналогичные тенденции развития также могут наблюдаться в макоме. Например, сначала исполняется введение макома, то есть «Мукаддима». В разделе «Даромад» читается первый байт газели, второй байт в следующем разделе «Миёнхат». В «Дунаср»е макома читаются 3, 4, 5 - байты, а шестой байт соответствует следующему разделу «Авж», а седьмой байт читается в последней части макома «Туширим» и произведение заканчивается. Зная законы развития макомов, Навои сочинял свои газели в семи и девяти байтах.

Познакомившись с работами великого узбекского поэта и мыслителя Алишером Навои, мы встретимся с рядом вопросов, связанных с музыкальным искусством. Будучи культурной фигурой, он изучал все аспекты искусства очень грамотно, с глубоким знанием музыкальной практики и теории. Вот почему есть глубокое понимание музыкальных вопросов и музыкальных терминов в его произведениях. Эти термины связаны с теоретическими и практическими проблемами музыки. Знания Навои являются ценным источником освещения музыкальной жизни того времени. Одной из самых важных тем в произведениях Навои является описание и использование музыкальных инструментов в музыке. Музыкальные инструменты являются основным ресурсом для определения процесса исторического развития музыкальной культуры. Иногда, когда Навои изображал слова, кажется, что их мелодии звенят в ушах. Работы Навои описывает ряд музыкальных инструментов, используемых в то время в практике. Среди них мы можем встретить такие имена, как, например, най, чанг, гижжак, танбур, уд, рубоб, кубуз, даф, чагона, руд, мусикор, аёлгу, ногора, некоторые из них малоизвестны и некоторые из этих инструментов были преобразованы [Абдугафуров, 2001:

35]. Самое главное, что в произведениях Навои описывает музыкальных инструментов от и до. Каждая его линия в сочетании с музыкальными выражениями отличается тем, что она глубоко укоренилась в музыкальных выражениях. В своих газелях о каком либо инструменте не говорил он понимал его музыкальную и философскую природу.

Когда Навои упоминал о «мутриб» (вокалист) и «Муганни» (музыкант) и дал высокую оценку: «... им обеим слушатель отдаёт свою душу...» [Бертельс, 1965: 5]. Мало того, поэт ставит высокие исполнительские выступления выше, чем некоторые религиозные ритуалы и церемонии. Великий мыслитель высоко ценил оригинальность искусства пения. Работа Алишера Навои сыграла важную роль в формировании характеристик ашулы и макомов. В конце концов, благодаря работе Навои узбекский язык обогатился, мысли и чувства углубились, и, самое главное, его музыкальные работы сделали музыкальные мелодии более успешными и грамотными.

Список литературы:

1. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. Москва: Наука, 1965.

2. Абдугафуров А. «Хазойину-л-маоний»дан четда колган газаллар // Навоийнинг ижод олами (маколалар туплами). Т.: Фан, 2001.

3. Исуоқов Ё. Навоий поэтикаси. Т.: Фан, 1983.

4. Эркинов А.С. Источники интерпретации «Хамса» Алишера Навои в XV-XX вв.: Афтореф. дисс. ... док. филол. наук. Ташкент, 1998.

ALISHER NAVOIYNING ODOB-AXLOQ HAQIDAGI QARASHLARI

Shahlo HOJIYEVA
O‘zbekiston Milliy universiteti

Hazrat Alisher Navoiy buyuk “Xamsa”si, devonlari va boshqa asarlari orqali turkiy tilning qanchalik boy va ifoda imkoniyati nechog‘lik keng ekanligini isbotlagani ma’lum. Bobokalonimiz asarlarida odob-axloq masalasi baland pardalarda tarannum etilgan. Bu jihatdan, buyuk shoir asarlari hamma zamonlar uchun ham dolzarb ekanini alohida ta’kidlash zarur.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining birinchi devoni bo‘lgan “G‘aroyib us-sig‘ar”ning 260-g‘azalida ushbu mazmundagi bayt bor:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish. [Navoiy 1988: 216]

Ulug‘ mutafakkir olam ahlini bir-biriga yor, hamdam bo‘lishga chaqirmoqda. Shoirning ta’kidlashicha, dushmanlik emas, yorlig‘ – ish. Ya’ni insoniyat bir-biriga yovlik qilish bilan hech qachon muddaoga yeta olmaydi. Aksincha, o‘zaro hamjihatlik, do‘stona munosabatlar orqaligina taraqqiy etishi mumkin. Ushbu bayt tahliliga etibor qaratgan taniqli adabiyotshunos olim, akademik Aziz Qayumov shunday yozadilar: “Navoiy uchun eng muhim narsa inson, uning foydasi uchun qilinadigan ish, insonlarning bir-biriga mehr-oqibati, ular o‘rtasidagi barqarorlik va qardoshlik. Insoniy fazilatlarni tashviq etar ekan, Navoiy hyech qachon odamlarning irqi, dini, bir xalqqa mansubligi bilan ajratmaydi. Aksincha, u hamisha hamma odamni barobar qo‘yadi. Ular o‘rtasida sof, pokiza, halol insoniy sifatlarni yoymoqqa bor kuchi bilan harakat qiladi. Eng muhimi odamlarning bir-biriga muhabbati va g‘amxo‘rligidir”. [Qayumov 2008: 350]

Shoir asarlarida odob-axloq masalasi yana shunda ko‘rinadiki, ularda yoritilgan muammolar jamiyatda tutgan mavqyeidan, millatidan, dini va e’tiqodidan qat’i nazar, barchaga birday tegishli. Jumladan, “Xamsa”ning ilk dostoni “Hayrat ul-abror”da shunday satrlarni o‘qiymiz:

Odami ersang demagil odami,
Oniki, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami. [Navoiy 1991:104]

Hazrat Alisher Navoiy fikricha, haqiqiy odamiylik xalq g‘ami bilan yashashdir. Xalq g‘amini o‘ylamagan kishining esa odamiylikka daxli yo‘q. Buyuk mutafakkirning bu singari qarashlari har jihatdan dolzarb va ahamiyatlidir. G‘iyosiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida bu ulug‘ zotning hamisha el-ulus manfaatini ustuvor deb bilganiga ko‘plab dalillar keltirilgan. Alisher Navoiyning o‘z xususiy mulkini el-yurt manfaati yo‘liga sarf etgani, jumladan, 60 dan ortiq bino, 20 ga yaqin hovuz, 16 ko‘prik, 9 hammom, 20 masjid va bir qancha madrasalar, xonaqohlar barpo ettirgani ham fikrimiz dalilidir. “Makorimu-l-axloq”da bu inshootlar nomma-nom sanalgan.

Bundan tashqari, Xondamirning yozishicha “… hazrat sohibqironning (ya’ni Husayn Bayqaroning) devon kishilari ba’zi bir zarur xarajatlar uchun xalq ustiga zo‘r mablag‘lar (og‘ir soliqlar) yuklamoqchi bo‘lganlarida xalqning qiynalmasligi va bu hol saltanat tartiblariga buzuqlik solmasligi uchun u mablag‘larni hazrat Navoiy o‘z mablag‘idan to‘lab yuborar edi”. Jumladan, 906 hijriyda Mozandaron viloyati hokimi Muhammad Valibek zarur xarajatlar uchun xalqqa 100 ming dinor soliq maslahati bilan Amir Navoiyga murojaat qiladi. U kishi “bu fursatda xalq ustiga o‘rinsiz soliq solishni hazrat Sohibqiron davlatiga munosib ko‘rmayman”, deb shu zahotiyoq mazkur mablag‘ni o‘z xususiy mulki hisobidan to‘lab yuboradi. [Xondamir 1967: 107]

Bu singari ma’lumotlar, birinchidan, Alisher Navoiyning himmati nechog‘lik baland bo‘lganini ko‘rsatsa, ikkinchidan, asarlarida vasf etilgan komil insonga xos sifatlarga ulug‘ bobokalonimiz hayotda ham to‘liq amal qilganini tasdiqlaydi.

“Farhod va Shirin” dostonini yozar ekan, muallif asarining shohga ham, qulga ham foydali, muborak bo‘lishini orzu qiladi:

Shoh olsa dog‘i qilsun toji torak,
Qul olsa ham anga bo‘lsun muborak. [Navoiy 1992: 150]

Ushbu doston qahramonlari ham turli xalqlarning vakillari. Farhod – Chin xoqonining farzandi. Shirin – arman o‘lkasining qizi. Ular o‘rtasidagi muhabbat esa, dunyodagi barcha xalqlar, millatlar uchun

chin ma’nodagi ibrat namunasi. Ko‘plab ilmu hunarlarni egallagan Farhod Armaniyaga borar ekan, tog‘da kanal qazib suv keltirish niyatida mehnat qilayotgan odamlarni ko‘rganda shunday so‘zlarni aytadi:

Hunarni asrabon netgumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdur oxir! [Navoiy 1992: 239]

Bu so‘zlar bugungi kunda ham zarracha ahamiyatini yo‘qotmagani bilan bir qatorda, barcha uchun odamiylik sabog‘ini berishi jihatidan ham qimmatlidir. Zero, ilmu hunar nafaqat o‘z sohibiga, balki jamiyatga naf keltirishi zarur. Hazrat Navoiy bu haqiqatni Farhod tilidan o‘quvchining qalbiga tez yetib boradigan tarzda, ta’sirchan ifodalaydi.

Shirin Eron shohi Xusravdan kelgan sovchilarni yoqtirmay, ularga quyidagicha javob beradi:

Manga ne yoru ne oshiq havasdur,
Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur! [Navoiy 1992: 263]

Bu iqtiboslar hazrat Navoiy asalarida odamiylik nechog‘lik ulug‘langani dalilidir. Bunda, shubhasiz, Qur’oni karim va hadisi shariflarning ta’siri katta. Jumladan, muborak hadislarda: “O‘zingiz sevgan narsani odamlarga ham ravo ko‘ring – salomat yurasiz”, “O‘zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko‘r” deyiladi. Buyuk mutafakkir “Saddi Iskandariy” dostonida bu teran hikmatni Iskandar tilidan quyidagicha ifodalaydi:

Xaloyiqqa ko‘rma qilib benavo,
O‘zungga ravo ko‘rmaganni ravo. [Navoiy 1993: 839]

Xulosa qilib aytganda, umuminsoniy ahamiyatga ega bu singari fikrlar Alisher Navoiy ijodida yetakchi o‘rin tutadi. Buyuk shoirning bu boradagi o‘gitlari barcha zamonlar uchun birday ahamiyatlidir. Ularni chuqur o‘rganish, ayniqsa, bugungi kunda yosh avlod tarbiyasida va jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish ishida benazir manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. Йигирма томлик. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1988.

2. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. Йигирма томлик. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.

3. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. МАТ. Йигирма томлик. Саккизинчи том. – Тошкент: Фан, 1992.

4. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ. Йигирма томлик. Ўн биринчи том. – Тошкент: Фан, 1992.

5. Қаюмов А. Асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008.

6. Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин Х о н д а м и р. Макорим-ул-ахлоқ. –Тошкент: Бадиий адабиёт, 1967.

ALISHER NAVOIY QIT'ALARINING QOFIYA TIZIMI

Orzigul HAMROYEVA
ToshDO'TAU

Qit'a ijodkorning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi kichik lirik janrlardan biri bo'lib, Alisher Navoiy ijodida qit'a janriga oid baytlar salmoqli hajmga ega. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibida qat'iy tizim asosida joylashtirilgan qit'alarda ijodkorning jamiyatdagi ma'lum voqea-hodisaga munosabati bilan birga, axloqiy-falsafiy va ta'limiy qarashlari aks etgan. Shoir har bir janrning vazifasidan kelib chiqqan holda ularga o'ziga xos shakl, qofiya tizimi yaratgan. Xususan, ruboiy janri mazmuniga mos ravishda ohangdorlikni yaqqolroq namoyon etish maqsadida o'ziga xos qofiya va radif uyg'unligini shakllantirgan. G'azal janriga oid namunalarda esa bu holat tenglikda amalga oshirilgan. Ayni xususiyat qit'alar misolida kuzatilsa, radifsiz qofiyalarning qo'llanishi asosiy o'rinda turganiga guvoh bo'lish mumkin. Qofiyadosh so'zlar ham hurufi qofiyalarning o'zak tarkibi bilan yakunlanishiga ko'ra muqayyad turiga mansubligi qit'a janrining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan. Axloqiy-falsafiy tushunchalarning aksariyati aniq xulosalar va qat'iylikka, buyruqqa asoslangani bois ham, asosning o'zi qofiyadosh so'zlar sifatida tanlangan. Navoiy ijodidagi 210 qit'aning aksariyatida ayni xususiyat yetakchilik qiladi. Navoiy ijodidagi qit'alar qit'a qonuniyatiga ko'ra b-a, s-a tarzidagi qofiya tizimiga asoslangan. Undan tashqari masnaviy shakli asosidagi qit'alar (a-a, b-b, s-s...) ham uchraydi. Navoiy poetika ilmining bilimdoni sifatida uning amaliy ifodasi sifatida qit'alarida qofiyaning deyarli barcha turidan unumli foydalanib, rang-barang qofiya tizimini yaratgan. Ular orasida murdafi muqayyad qofiya salmoqli hajmga ega:

Qarilar xotiri nozikdur, ey tifl,
Shikastidin qilib vahm, **o'lma gustoh**
Unuttungmuki, atfol o'ynag'onda.
Sinar oz mayl ko'rgondin quruq **shox.**

"Atfolni qarilar xizmatig'a yo'ldamoq va chuchuk so'z bila aldamoq" sarlavhali musaddasi maqsur (V - - - / V - - - / V -)

vaznida yozilgan 2 baytdan iborat qit'ada "***gustoh*** va ***shox***" so'zlari o'zaro qofiyadosh so'z sifatida raviy bilan tugagan, raviydan oldin esa, cho'ziq unli, ya'ni ridfi asliy kelgan, demakki, ushbu qofiyadosh so'zlar o'zak tarkibiga ko'ra murdaf, qo'shimcha tarkibiga ko'ra muqayyad qofiya turini yuzaga keltirgan.

To'nni zarbaft aylabon xiffatdin uchqon har taraf,
Yo'q ajab gar bor esa dunyo mato'i **kom** *anga.*
Ul chibinkim, ko'zga oltun yanglig' ishnor xil'ati,
Ko'praki bilkim, najosat uzradur **orom** *anga.*

"Takalluf ahlining dunyog'a sheftalig'ida va dunyolikka fireftalig'ida" sarlavhali ramali musammani mahzuf (- V - - / - V - - / - V - - / - V -) vaznida yozilgan qit'ada ham murdafi muqayyad qofiya turi (***kom*** va ***orom***) qo'llangan. Qofiyaning bu turi Navoiy qit'alarining deyarli 80 %ni tashkil qiladi. "Xo'blar vaslig'a mag'rur bo'lmoq va alarning iltifotig'a masrur bo'lmoq" sarlavhali qit'ada ham qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra murdaf (***mazoq*** va ***firoq***) qofiya turi qo'llangan.

Zamona xo'blarining visoli sharbatidin,
Navoiyo, tilabon kom ko'p chuchutma **mazoq.**
Ki har piyolasi zimnida koming etkay talx,
Sipehr tutqusidur yuz tag'ora zahri **firoq.**

Raviy unli bilan tugashiga asoslangan mujarrad qofiya turi ham qit'alarda asosiy qofiya turi sifatida keltirilgan. Xususan, "Ul mazmundakim takallufluq to'n mujibi kulfatdur va betakallufluq adami ulfat" sarlavhali qit'ada ***to'lo*** va ***balo*** so'zlari ayni qofiya turini yuzaga keltirgan:

Kiyib samur ila kish qilma asru ra'nolik,
Ipak libos ila tutma g'urur jomi **to'lo**
Tiynning o'z tuki o'q bo'ldi jonig'a ofat
Farisaning paridin keldi o'z boshig'a **balo.**
Yoki
Ey Navoiy, kishiga berma ko'ngul,
Agar ul hurdurur yo'qsa **pari.**
Vasli naf'i buki chekkaysen jon,
O'lturur lek firoqi **zarari.**

“Dilbastalig‘ man’idakim vasl naf’i jon tortmoqdur va hajr sarsari jon bermak” sarlavhali ushbu qit’adagi ***pari*** va ***zarari*** so‘zlari mujarradi muqayyad qofiya turini yuzaga keltirgan.

Qiblatul kuttobkim, derlar ani Sulton Ali,
Kim qazo kilki masallik xomasi yozmas **g‘alat.**
Qaysi qit’amniki yozdi, bordi andin she’rlik,
El solurlar juzvdong‘akim erur bir qit’a **xat.**

“Komil qalamzan so‘zidakim, ta’rifi lozim kelgayki, qalam tilin bilur kishi ani bilgay” sarlavhali qit’adagi ***g‘alat*** va ***xat*** qofiyadosh so‘z raviydan oldingi qisqa unliga taudjixga asoslangan. Bu esa mujarrad qofiyaning boshqa bir turini yuzaga keltiradi. Ayni qit’ada ham mujarradi muqayyad qofiya turi qo‘llangan. Navoiy qit’alari orasida muassas, ya’ni ta’sisiga asoslangan qofiya turi juda kam qo‘llangan.

Qit’alardagi qofiyadosh so‘zlarning aksariyati qo‘shimcha tarkibiga ko‘ra muqayyad qofiya turlarini tashkil qilsa-da, ba’zi o‘rinlarda fikrni ta’kid asosida yetkazish maqsadi bilan mutlaq qofiya turiga oid qofiyadosh so‘zlar ham uchraydi.

Sinuq safoleki, may durdin ichgali topsang,
Qabul aylamagil jomi saltanat **Jamdin**
Ilikka kirsa quruq none, maosh uchun chekma,
Nashot ne’matining minnatini **Hotamdin.**

Qofiyadosh so‘z	***Taudjix***	***Raviy***	***Vasl***	***Nafoz***	***Xuruj***
J	*a*	*m*	*D*	*i*	*N*
Hot	*a*	*m*	*D*	*i*	*N*

“Qanoat sinuq safolisi jomi jamdin va faqr quruq nonin Hotam chekkan na’mdin yaxshiroq ko‘rar muntahi” sarlavhali ushbu qit’adagi ***jomdin*** va ***Hotamdin*** qofiyadosh so‘zlari xurujli mujarradi mutlaq qofiya turini shakllantirgan, ya’ni raviydan so‘ng keluvchi qofiya huruflari qofiyaning mutlaq turiga asos bo‘lgan.

Falon kotib ar xatni mundoq yozar,
Bu mansabdin ani **qo‘pormoq** *kerak.*
Yuzin nomasidek qaro aylabon,
Qalamdek boshin dog‘i **yormoq** *kerak.*
Qarodin qarog‘a beribon uloq,
Qalamravdin ani **chiqormoq** *kerak.*

“G‘alat bitir kotib bobida qalam surmak va qarosining g‘alatin yuziga keltirmak” sarlavhali ushbu qit’adagi ***qo‘pormoq, yormoq, chiqormoq*** so‘zlari mazidli murdafi mutlaq qofiya turini yuzaga keltirgan.

Qofiyadosh so‘z	*Ridf*	*Raviy*	*Vasl*	*Xuruj*	*Mazid*
Qo‘p	*o*	*r*	*m*	*o*	*Q*
Y	*o*	*r*	*m*	*o*	*Q*
Chiq	*o*	*r*	*m*	*o*	*Q*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy qit’larida qofiyaning deyarli barcha turlariga asoslangan qofiyadosh so‘zlardan unumli foydalangan. Qit’a janri qonuniyatlariga to‘liq amal qilgan holda mohiyatga mos ravishda asosan asos bilan tugovchi, ya’ni qofiyaning qo‘shimcha tarkibiga ko‘ra muqayyad qofiya turidan samarali foydalangan, bu orqali mazmun va shakl mutanosibligini ta’minlab bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmon Jomiy. Risolai qofiyai Mulla Jomiy. Kalkutta, 1867.

2. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. 15 jildlik. 1 jild. –T., 1963.

3. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. 15 jildlik. 4 jild. –T., 1965.

4. Voxid Tabrizi. Djam i muxtasar. Kriticheskiy tekst, per. I primech. A. Bertelsa. – M.: Nauka, 1959.

5. Rustamov A. Qofiya nima? — T.: Fan, 1976.

6. Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mu’jam fi ma’oyiri ash’oru-l-ajam. - Dushanbe: Adib, 1991. - Sah. 161.

7. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog‘a. - T.: Xazina, 1996.

8. Sharq mumtoz poetikasi. Hamidulla Boltaboнev talqinida. –T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopedisi, 2008, B. 274-314.

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA HAYOT VA INSON TALQINI.

Gulchexra HAYDAROVA
Sirdaryo viloyati Boyovut tumani
4-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Alisher Navoiy she'riyati hayot taronasi va inson madhiyasidir. Navoiy hayotni e'tirof qiladi, uni sevadi, insonni sharaflaydi va ulug'laydi. Zeroki, olamning olam bo'lib yaratilishi ham, asosan, hayot guli bo'lgan inson uchundir:

Olamu odam fidong o'lsunki bor sen, ey habib,
Sen g'araz insondin ar olamdin insondur g'araz.

Birobarin, inson hayotini, o'zligini, umrni sevishi, qadrlanishi kerak. Inson dunyodan o'tib ketadi, lekin el-yurtga yaxshilik qilgan komil kishining oti boqiy bo'lib qoladi. Mutafakkir va murabbiy shoir kishilarni to'g'ri, halol, rostgo'y, saxovatli, himmatli, marhamatli, oqil va odobli bo'lishga chaqiradi, yomon xislat va odatlarni qoralaydi. Bu Navoiyning butun lirikasi, ayniqsa qit'a va ruboiy janridagi she'rlari mazmuniga uzviy ravishda singib ketgan.

Navoiy gumanizmi xalqqa hamda vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatda yanada to'laroq namoyon bo'ladi. Xudbin va manfaatparast kishilarga qarshi "Xushroq, el bedodiddin o'zumga bedod aylasam" degan shoir:

Yuz jafo qilsa menga, bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram

kabi misralar orqali umumning manfaatlarini shaxsiy manfaatdan yuqori qo'yish g'oyasini targ'ib etadi. "G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish" deb boshlanadigan mashhur ruboiysida vatanparvarlik va erksevarlik g'oyasini barala kuylagan shoir musofirlik chog'larida yozgan boshqa bir ruboiysida:

O'lsam yasamang munda mazorimni mening
Yuklab elting jismi figorimni mening.
O'tru chiqorib ahli diyorimni mening,
Ko'yida qo'yung tanni nizorimni mening, -

deydikim, bu bilan u hayotinigina emas, balki qabrini ham diyori bilan bog‘lab, jasadining diyori tuprog‘i qo‘ynidan joy topishini istaydi.

Navoiy turli irqqa va diniy e’tiqodga mansub bo‘lgan xalqlarni samimiyat bilan sevadi, hurmat qiladi. Dostonlarida turli xalqlarning vakillari obrazini yaratgan Navoiy lirik she’rlarida ham xalqlar do‘stligi, birodarligi g‘oyasini jo‘shqin zavq-shavq bilan targ‘ib qiladi. Otashin misralarda u xalqlarni bir-biridan ajratuvchi tashqi belgilariga emas, balki ularni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, tengma-teng qo‘yuvchi belgilarga e’tiborni jalb etadi hamda insonni irqi, elati, e’tiqodiga qarab, unga turlicha munosabatda bo‘lishga kurashadi.

Navoiyning hayot va inson xaqidagi fikr-qarashlari, shubhasiz, g‘oyatda katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Biroq Navoiy hayotni, inson va uning xulq-atvorini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizidan ajratib qo‘yadi, yashagan muhiti ziddiyatlari va illatlarining mohiyatini tushunolmaydi, pand-nasihat, ma’rifat va murosa yo‘li bilan xalqning moddiy va ma’naviy ahvolini yaxshilash, insonni baxtiyor qilish mumkin, deb o‘ylaydi.

Insonning hayoti abadiy emas. U tug‘iladi, o‘ladi, ota-bobolar o‘rnini farzandlar va nabiralar egallaydi. Shunday ekan, kishi hayotdan to‘la foydalanishi, har bir daqiqaning qadr-qimmatini bilishi kerak. So‘nggi pushaymon esa foydasizdir. Biroq inson hayotining mohiyati uning qisqa va uzunligi bilan emas, balki mazmuni bilan belgilanadi. Hayotdan murod faqat aysh-ishrat emas. Hayotning mezoni insonning faoliyati, xatti-harakati, sifati va fazilatidir. Inson hayotini o‘zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham foydali bo‘lgan xizmatga bag‘ishlashi, kasb-hunar o‘rganishi, ma’rifatli bo‘lishi, yaxshi fazilatlarni egallashi kerak. Shundagina u o‘z insoniy burchini ado etgan komil inson bo‘ladi. Alisher Navoiy - sevgi va shodlikning otashin va jo‘shqin kuychisi. Sevgi Navoiy lirikasining, xususan g‘azallarining yetakchi mavzusidir. Ayni chog‘da Navoiyning sevgi lirikasi oshiq va ma’shuqaning ishqiy kayfiyatlari tasviri darajasidan yuqori ko‘tarilib, keng ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etadi. U sevgi mavzusi orqali hayotga, insonga muhabbatni kuylaydi, badbinlik va tarkidunyochilikka qarshi kurashadi, yashagan muhitining ayrim illatlarini fosh etadi, olijanob insoniy fazilatlarni targ‘ib qiladi.

Muhabbat insonning tabiiy xususiyatidir. U inson hayotining mazmunini boyitadi, unga ko‘rk beradi! Muhabbat kishini kamolotga yetkazadi. Muhabbatsiz hayot fayzsiz va nursizdir.

Muhabbat insonning eng yaxshi sifat va fazilatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Vafo, sadoqat, do‘stlik, hamdamlik, mushfiqlik, to‘g‘rilik va halollik uning sharti va burchidir. Xudbinlik, manfaatparastlik, qalbakilik, munofiqlik va ikkiyuzlamalik kabi xislatlar sevgiga tamomila yotdir. Muhabbat irq va elat, din va e’tiqod ayirmalariga tobe bo‘lmaydi, u mol-davlatga, mansab-martabaga va nasl-nasabga qaramaydi. Muhabbatni zo‘r va zar bilan ham qo‘lga kiritib bo‘lmaydi.

Muhabbat yo‘lida shoh ham, gado ham tengdir, balki gado avloroqdir:

Ishq aro shohu gado tengdur, gado balki fuzun,
Gar gadolig‘ aylar o‘lsa ishqning yag‘mosidin.

Alisher Navoiyning lirik qahramoni samimiy oshiqdir. Uning sevgisi pok va musaffodir. U muhabbatga bir hoyu havas deb emas, balki inson hayotining ajralmas yo‘ldoshidir deb qaragan. [Mallayev, 1976:392]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek adabiyoti, uchinchi tom, O‘zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, T.: 1959.

2. Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”, T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1989.

3. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. “O‘qituvchi”. T.: 1976.

4. Alisher Navoiy. “Layli va Majnun”, T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1990.

“HAYRAT UL-ABROR” VA “HAJ DAFTARI”DA AXLOQIY MASALALAR TALQINI

Gulrux XUDOYOROVA
ToshDO‘TAU

Adabiyotning eng yetakchi badiiy konsepsiyalaridan biri–tarbiyadir. Shu sabab Sharqda didaktik adabiyot alohida yo‘nalish sifatida rivoj topdi. Shu o‘rinda mumtoz adabiyot tarbiya, komillik kabi sifatlarni ulg‘aytiruvchi eng katta kuch vazifasini bajargan, deyishimiz mumkin. Jumladan, hazrat Navoiy ijodi to‘laligicha inson qalbini yuksaltiruvchi, komillik yo‘lini ko‘rsatuvchi badiiy qudratdir. Uzoq asrlar mobaynida Navoiy ijodiga ergashish, uning ijodidan qaysidir ma’noda oziqlanish adabiyotning ildizlarini mustahkamlab bordi.

Aslini olib qaraganda adabiyotda mavzular sanoqli. Masalan, inson yaralibdiki, ishq tuyg‘usi u bilan birga qo‘shilib tug‘ilgan tuyg‘udir. Hamonki ishq haqida yoziladi, kuylanadi. Faqat chinakam ijodkorgina ishqning hech kim o‘ylamagan tashbehini topadi. Chinakam ijod degani ham ana shu aslida-hamma yozayotgan mavzuga oid hech kim o‘ylamagan fikrni ayta olish. Aynan shu holat badiiy kashfiyotni yuzaga keltiradi. Navoiy chinakam badiiy kashfiyot yaratish qudrati bilan Olloh tomonidan siylangan ijodkor. Bunga shak-shubha yo‘q! U yaratgan har bir misra–san’at darajasida. Mubolag‘ali qilib aytadigan bo‘lsak, Navoiy san’atining, mahoratining soyasi tushgan ijodkor ham chinakam baxt sohibidir. Shunday ijodkorlardan biri Abdulla Oripovdir. Insoniylikning chinakam mezoni bo‘lmish hayo, iymon, sahovat, kamtarlik va shu kabi juda ko‘p xislatlar haqida aso‘z yurituvchi “Hayrat ul-abror” asari adabiy xazinamizning eng yorug‘ gavharlaridan biridir. Abdulla Oripov ijodiy xazinasidan ham ayni shu gavharlar jilosi bo‘y ko‘rsatib turadi desak, soxta maqtov bo‘lmas, nazdimizda. Ushbu maqolada Hazrat Navoiyning “Hayrat ul- abror” hamda Abdulla Oripovning “Haj daftari” sayohat namunalari jamlangan misralari mazmun-mohiyatini o‘zaro qiyos etishga jazm etdik. Bilamizki, “Hayrat ul-abror” ning birinchi maqolati iymon haqida. Zero, iymon odamiylikning bosh mezonidir. Bu haqida asarda shunday yoziladi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga imon erur.

Abdulla Oripov nazdida ham shunday. Iymon odamiylikning asosi. Iymonga asoslanmagan hamma narsa yolg‘on. Hatto u hijrat bo‘lsa ham:

Hijrating shunchaki sayohat erur,
Unutar bo‘lsang gar zarra iymonni.
Makkaga yetti qat borgancha bo‘lur
Boshini silasang o‘ksik insonni.

Demakki, o‘ksik bir insonning boshini silash, unga saxovat ko‘rsatish iymonning bir qismidir. Aslida har ikki ijodkor fikricha saxovat ko‘rsatish eng ulug‘ amallardan biridir. Albatta, bu holat hech qanday ta’malarsiz, chindan ham ko‘makka muhtoj insonga ko‘rsatilganda saxovat maqomiga ko‘tariladi. Saxovatning katta-kichigi bo‘lmaydi. Chin dildan qilingan har ezgu amal saxovat nuridandir.

Navoiy ijoidadidagi aynan shu mavzuga murojaat Abdulla Oripov lirikasiga ham ko‘chgan. Ijodkor “Haj daftari”dan o‘rin olgan “Ezgulik” she’rida sahovat haqida shunday yozadi:

Axir, Rasulloh demish-ku ul dam:
Hamisha sahovat yo‘lidan yurgil.
Mayizday qop-qora boshli habash ham
Yaxshi ish qilganda yonida turgil.

Chindan ham saxovat eng xayrli amallardan biridir. Faqatgina u xo‘jako‘rsinga emas, chin yurakdan amalga oshsagina uning darajasi yuksaladi. Aslida har qanday amal chin dildan bajarilsagina xayrli hisoblanadi. Bu haqda ham Navoiy hazratlari alohida so‘z yuritadi. Jumladan, “Hayrat ul-abror”da “Hirqa kiygan riyokor shayxlar” xususida so‘z boradi. Bunday kishilar haqida to‘xtalib, “ishida echkichalik ham to‘g‘rilik yo‘q, u o‘g‘rini tutsa, buning o‘zi o‘g‘irlik qiladi”, - deya riyokor va o‘gri, soxta hirqapo‘shlarni tanqid ostiga oladi:

O‘chkucha ham yo‘q ishida to‘g‘riliq,
Ul tutib o‘g‘ri, bu qilib og‘riliq.
O‘chku tilabxaylig‘a bargu navo,
Gar gala ming bo‘lsa, bo‘lub peshvo.

Jamiyatning eng og‘riqli nuqtasi bo‘lmish bu mavzu ham Abdulla Oripov ijodidan chetda qolgani yo‘q. Xusasan, “Haj daftari”dan aynan shunday riyokor va o‘g‘ri shayxlar to‘g‘risidagi ikki she’r o‘rin olgan. Masalan, “Hojilar ” she’rida shoirning fikrlari Hazrat Navoiy qarashlari bilan g‘oyat uyg‘unligi yaqqol seziladi. Bunda Hojining hamyonini urgan Hoji haqida so‘z boradi:

O‘g‘ri Hoji esa mamnun ishidan,
Tinmayin sajdaga egilar boshi.
Nobakor bandaning bu qilmishidan
Badtarroq qorayar Ka’baning toshi.

Aynan shu mavzu, shu g‘oya shoirning “Haj savobi” nomli hazil she’rida ham davom etadi. Bu she’rda Abdulla Oripov Hajga ziyoratni emas, tijoratni ko‘zlab borgan “Hoji bobo”larni kulgi ostiga oladi. Muxbirning bergan savollariga berilayotgan javoblar nafaqat insonda kulgi hissini, o‘z-o‘zidan g‘azab tuyg‘usini ham uyg‘otadi:

Madina ham shahar ekan oliy himmat,
Ayollari yurishibdi yuzda chimmat,
Atlas olib borgan edim, arzon ketdi,
Muxbir bolam, u joylarda asal qimmat.

Muallifning bu so‘zlarni aynan “Hoji bobo”ning o‘z tilidan ayttirishi asar ta’sirini, kuchini yanada oshirishga yordam beradi. Alisher Navoiy va Abdulla Oripov ijodidagi ushbu mushtaraklik har ikki shoirning ham xalq g‘ami, xalq dardi bilan yashaganligi isbotidir. Zero, Hazrat Navoiyning o‘zi bu haqda shunday yozadi:

Odamiy ersang, demagil odami,
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

“Hayrat ul-abror”ning o‘n oltinchi maqolatida bashariyat fe’lidagi yana bir eng katta qusur-maqtanchoqlik illati qoralanadi.

Kibr e’tibon el bila fe’lin durang,
Qullai zulm uzra nechukkim palang.
It eti qoplon kibi quti aning,
Kibr yeli bodi buruti aning.

Kibr insonning qalbini qoraytiradi, uni el orasida beo‘bro‘ qiladi. Kibr insonni xarob etguvchi illatdir. Abdulla Oripov ijodida ham shubhasiz shunday fikrlar mavjud. Shoir fikricha manmanlikdan yuz burib, kamtarlikka intilmoq eng katta savobli amallardan biridir.

Zero, payg‘ambarimiz ham kamtarlik qilib, barchamizga katta ibrat ko‘rsatganlar. Bu haqda shoir shunday yozadi:

Kim aytar dunyoda kibr ustuvor,
Kim aytar umrning ma’nosi shuhrat.
Rasul kamtarlikni qilib ixtiyor,
To mahshar bizlarga qoldirdi ibrat.

Kamtarlik inson odobining bir ko‘rinishi bo‘lsa, odobning yana bir muhim jihatlaridan biri ota va onaga hurmat, ehtiromdir. Inson bu ikki zot qoshidagi qarzini aslo uzolmaydi, ularning xizmatini qilish har bir insonning muqaddas va sharafli burchlaridan biridir. Har ikki ijodkor bu masalaga alohida to‘xtaladi. Ota va ona haqida so‘z yuritishar ekan, insonning eng ulug‘ burchini bajarish farz ekanligini bot-bot uqtirishadi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Ikki jahoningg‘a tilarsen fazo,
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.

Demakki, ikki dunyo saodatiga ota va onaga xizmat qilmoq orqaligina erishmoq mumkin . Jannat onalar oyog‘i ostida. Abdulla Oripov aynan shu haqda fikr yuritadi:

Ka’ba qopqasida turgan, ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo‘llarin.
Onalar poyiga tiz cho‘k o‘shal on,
Tavof qil, ko‘zga surt, o‘pgin qo‘llarin.

Ijodkorlar qalam kuchi dunyodagi eng ulug‘ tuyg‘ularni she’rga soladi. Inson qalbiga poklik, tozalik bag‘ishlaydi.

Aslida Navoiy va Oripov ijodi chinakam shoirlik kategoriyalarini belgilab beradi desak xato bo‘lmaydi. Har bir qalam ahli xalq g‘amida yashasa, yozganlari o‘z dardi bilangina chegaralanib qolnasdan, bashariyat dardini aks ettirsa uning yozganlari mangulikka yuz tutadi. Bu fikrlarimizga yuqorida ijodi qiyos etilgan ikki buyuk shoir ijodi yorqin misol bo‘la oladi. Ular o‘z qalami bilan o‘ksik qalblarga shodlik baxsh etishdek savobga musharraf bo‘la olgan shoirlardir. Shu o‘rinda savob haqida Abdulla Oripovning quyidagi misralari xayoldan o‘tadi:

Demishlar, savob ish ofatni to‘sib,
Ezgulik yo‘liga shaylangusidir.
Eng kichik himmat ham toychoqdek o‘sib,
Tulpordek savobga aylangusidir.

Ko‘rinib turganidek, har ikki ijodkor zalvori asrlarga yuk bo‘lgan mavzularni aks ettiradi. Buyuk ijod ahli hamisha asrlar oshgan mavzularnigina bayon etadi. Agar “Hayrat ul abror” va “Haj daftari” yanada chuqurroq qiyoslansa, ularda har ikki so‘z kashshoflarining ko‘plab uyg‘un qarashlarini, badiiy kashfiyotlarini kuzatish mumkin. Demakki, bu ikki asar qiyosiy tahlili hali adabiyotshunosligimizga juda ko‘p ozuqa bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул аброр. // T. Yangi asr avlodi. 2009.
2. Орипов А. Танланган асарлар. //T. Sharq.2019 –Б.323.

“HAYRAT UL-ABROR”DA MUALLIF SIYMOSI

Nigora SHARIPOVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
(O‘zbekiston)

“Hayrat ul-abror” dostoni yagona epik syujetga ega bo‘lgan “Xamsa”ning keyingi dostonlaridan kompozitsiyaviy strukturasi va syujet qurilishi jihatidan butkul farq qiladi. Keyingi dostonlarning barchasida muayyan syujetdan kelib chiqqan holda qator qahramonlar liniyasi mavjud. “Hayrat ul-abror”ning maqolat va hikoyatlarida ham bir qator qahramonlar guruhi ko‘zga tashlanadi, biroq doston muqaddimasidan xotimasigacha turli masalalarda kitobxonga doimiy hamrohlik qiladigan, uni obrazlar olamiga olib kiradigan, maqolat va hikoyatlar mohiyatiga oshno etadigan bosh qahramon – shoirning o‘zi. “Hayrat ul-abror”da Navoiy fikr-u qarashlari dostonni bog‘lab, birlashtirib, boshqarib, o‘zaro aloqaga kirgizib turadi. Dostonga oshno bo‘lgan kitobxon doston markazida shoir shaxsi turganligini, barcha maqolat va hikoyatlar u bilan bog‘lanishini yaqqol idrok etadi.

Professor N.Mallayev “Hayrat ul-abror” obrazlar sistemasining xarakteri dostonning janr xususiyatlari va kompozitsion tuzilishi bilan bog‘liqligini, dostondagi masalalar voqeaviy syujet bayoni orqali yoritilmasligini, shu jihatdan doston “Xamsa” dostonlaridan tubdan farq qilishini ta’kidlasa [Mallayev,1991:20], professor A.Hayitmetov “Hayrat ul-abror”ning bosh qahramoni o‘zi yashagan ijtimoiy-tarixiy muhitni ko‘p jihatdan real va konkret tasvirlaydigan shoirning o‘zi ekanligini e’tirof etadi [Hayitmetov,1970:26]. Keyingi dostonlarda ilgari surilgan barcha masalalar xususida shoir mazkur dostonda debocha fikrlarni bildirib o‘tadi, aslida kitobxonni ulkan obidaning buyuk voqeotlariga tayyorlaydi. Muallif obrazining badiiy asarda tutgan o‘rni va asar voqealar rivojidagi pozitsiyasi xususida tasavvur hosil qilish uchun ayrim tadqiqotlarga murojaat qilish muhim.

Professor U.Jo‘raqulov “Xamsa” dostonlaridagi muallif obrazi xususida maxsus to‘xtalar ekan, bu obrazni metaforiklashtirilgan

tarixiy obrazlar guruhiga kiritadi. Muallif obrazi muayyan biografik qirralarga ega ekanligini, “Xamsa” dostonlari kompozitsiyasi, debocha va xotima qismlarida, boblar ichidagi lirik chekinishlar, soqiynomalarda aynan bo‘lmasa ham tarixiy Navoiy hayotiga oid voqea-hodisalarni, biografik unsurlarni, individual tabiat qirralarini kuzatish mumkinligini aytadi [Jo‘raqulov, 2016: 379]

M.Baxtin roman janridagi muallif obrazini tavsiflar ekan, muallifga xos yozish, asar bo‘laklarini jamlash, bayon etish, munosabat bildirish, betaraf turish xususiyatlarini ta’kidlaydi [Baxtin, 2015: 253-256].

Adabiyotshunos U.Jo‘raqulov muallif obrazining quyidagi shakllarini farqlaydi: a) har bir doston asosiy boblarida, qahramonlari hayoti tasvirida bayonchi, kuzatuvchi, yo‘naltiruvchi, baholovchi muallif obrazi; b) voqea ro‘y berishidan oldingi tabiat, inter’er va ruhiy holatni tasvirlovchi muallif obrazi; v) bevosita “Xamsa”ning maydonga kelishi bilan bog‘liq tarixiy voqea-hodisalar tarkibidagi muallif obrazi [Jo‘raqulov,2016:380]. Olim birinchi guruhga “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlarining asosiy boblaridagi qalamkash, raqamkash va h.k.larni, ikkinchi guruhga dostonlardagi kun, tun, shom, subh, urush, g‘alaba, mag‘lubiyat, iztirob, quvonch va h.k.lardagi muallif xarakterini, uchinchi guruhga esa Jomiy bilan uchrashuv, oxirgi dostondagi tush holatida ko‘rilgan voqeadagi muallif obrazini kiritadi. Bizningcha, “Hayrat ul-abror”ning turli o‘rinlaridagi muallif obrazida olim keltirgan tasnifning barchasiga oid qirralar, xarakter- xususiyatlar uchraydi. Ilk dostonning boshidan oxirigacha kitobxonga hamrohlik qiluvchi doston bosh qahramonida *har bir doston asosiy boblarida, qahramonlari hayoti tasvirida bayonchi, kuzatuvchi, yo‘naltiruvchi, baholovchi muallif obrazi* xususiyatlari yaqqol aks etsa, dostonning bir qator o‘rinlarida *voqea ro‘y berishidan oldingi tabiat, inter’er va ruhiy holatni tasvirlovchi muallif obrazi*ni kuzatamiz. “Xamsa”ning yaratilishi bilan bog‘liq tarixiy voqelik, shuningdek, Jomiy bilan uchrashuv tafsilotlari ham aynan ilk doston sifatida “Hayrat ul-abror”da to‘liq aks etgani uchun shu tafsilotlardagi muallif obrazi U.Jo‘raqulov tasniflagan *bevosita “Xamsa”ning maydonga kelishi bilan bog‘liq tarixiy voqea-hodisalar tarkibidagi muallif obrazi*ga aynan mos keladi.

XX asr so‘nggi choragidagi o‘zbek qissachiligining taraqqiyot tamoyillari bo‘yicha tadqiqot olib borgan filologiya fanlari doktori A.Xolmurodov qissa janrida qissanavis obrazining ahamiyati kattaligini, uni asardagi boshqa obrazlardan ajratib bo‘lmasligini, u asardagi barcha qahramonlarni birlashtirib turishi, hamisha qahramonlar orasida bo‘lib, ularning xatti-harakatlarini kuzatishi, baho berishi, xulosa chiqarishini o‘rinli ta’kidlaydi [Xolmurodov,2008:57]. Rus olimi V.Vinogradov esa, bu obrazni “asar mohiyatining jamlangan tarzda namoyon bo‘lishi” [Vinogradov, 1971:118] deya e’tirof etsa, L.Timofeev “...asardagi barcha lisoniy elementlarni bir butunlikda jipslashtirib turadi” [Timofeev, 1963:187] deb yozadi.

Tadqiqotlarda hikoyachi – asarning psixologik va bayon markazi ekanligi, uning asarda tasvirlanayotgan voqealarga munosabati shaxsiyatli, tuyg‘uli, faktlar va kishilarga yondashishi sub’yktivligi, hikoyachida muallifning ma’naviy shaxsiyatiga yaqinlik bo‘lishi to‘g‘ri ta’kidlangan [Quronov, 2018:383]. Biroq hikoyachi-roviya aynan muallifning o‘zi bo‘lsa-chi? Epik va dramatik janrdagi asarlardan farqli ravishda lirik turdagi asarlarda lirik qahramon obrazi o‘zgacha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Chunki lirikada voqelikka oid tafsilotlar kam uchrab, asosan kechinmalarni ifodalash, uni yuzaga keltirgan, harakatlantirayotgan omillarni ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi [Quronov, 2018:383].

Adabiyotshunosligimizda ko‘pincha lirik qahramon va muallif obrazi masalasi atrofida bahs-munozaralar kechadi. Nazariyotchi olim D.Quronov lirik janrlardagi lirik qahramon deganda ko‘pincha shoirning o‘zi tushunilishini va bu u qadar to‘g‘ri emasligini yozadi. Olim shoir o‘z kechinmalarini tasvirlashi ham, go‘yo o‘zganing ruhiga evrilgan holda “o‘zga shaxs” kechinmalarini tasvirlashi ham mumkinligini, hatto shoir o‘z kechinmalarini tasvirlasa ham, lirik qahramon va real shoir orasiga tenglik alomati qo‘yib bo‘lmasligini aytadi [Quronov, 2018:383]. Bu o‘rinda olim aynan lirik doston muallifi va lirik qahramoni masalasiga emas, lirik she’rlardagi lirik qahramon va muallif obraziga e’tibor qaratganligini ta’kidlash joiz.

Navoiy lirikasi, undagi obrazlar tizimi yuzasidan qator tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunos A.Hayitmetov Navoiy g‘azallaridagi lirik

qahramon mavzusida fikr yurita turib, lirik qahramonning qalbi shoir qalbidan harorat olishini, lirik qahramonning aqli shoir aqli bilan fikr yuritishini aytadi [Quronov,2015:170]. Olimning e'tiroficha, Navoiy lirikada "lirik qahramon" obrazini yaratish bilan cheklanmaydi. Navoiyning tarjimayi hol mavzusidagi g'azallarida to'qima obraz qahramon emas, shoirning o'z obrazi gavdalanadi, bunda shoir shaxsan o'z kechinmalari haqida so'zlaydi [Quronov,2015:170]. "Hayrat ul-abror"dagi muallif obrazi ham Navoiyning tarjimayi hol xarakteridagi g'azallarida uchraydigan muallif va lirik qahramon birikuvidagi yaxlit obrazga xos xususiyatlarni o'zida yaqqol aks ettirgan, deyish mumkin.

Professor D.Quronov lirik kechinmani egasiga ko'ra tasniflab, *avtopsixologik, ijroviy, personajli lirika* singari turlarga bo'ladi. Shuningdek, lirik qahramon va shoir shaxsiyati mos tushgandek ko'rinadigan, shoir ko'proq o'z qalbiga murojaat etadigan, o'z-o'zini, ko'nglidagini ifodalaydigan she'rlarni avtopsixologik lirikaning namunalari deydi [Quronov,2015:386]. Ko'rinib turibdiki, "Hayrat ul-abror"dagi lirik chekinishlar, muallifning aralashuvi kechadigan va shoir o'z qalb kechinmalariga imkon bergan o'rinlarda avtopsixologik lirikaning xususiyatlari namoyon bo'ladi.

"Hayrat ul-abror" dostonida ilk "Basmala" bobdan boshlab xotimagacha, hamd, na't, salaflar, so'z, ko'ngil ta'rifidagi boblar, uch hayrat, maqolatlar va hikoyatlarning barchasida muallifning aralashuvi, munosabati, kechinmalari aniq, ravshan o'z aksini topadi. Xususan, har bir bobning avvalida keltiriladigan debochalar muallif "men"ini to'la aks ettirishi e'tiborlidir. Adabiyotshunos U.Jo'raqulov muayyan poetik butunlik (devon, doston, xamsa) tarkibidagi debocha qismi keyingi bo'limlar uchun kalit vazifasini bajarishi bilan birga, muallif shaxsiyati, e'tiqodi, unga xos dunyoqarash va iste'dodni namoyon etishini, butun asar, jumladan, "Xamsa" badiiy tizimida "muallif obrazi" o'ta yorqin va keng ko'lamda namoyon bo'ladigan xronotop shakli ham aynan "debocha xronotopi" ekanligini ta'kidlaydi [Jo'raqulov,2016:96]. Chindan ham, "Hayrat ul-abror"dagi har bir bobning boshlanishida keltirilgan debocha - shu bobning mohiyati uchun ochqich vazifasini o'tashi, bob yuzasidan muallif nuqtai nazarini, pozitsiyasini o'zida to'la-

to‘kis namoyon ettirishi jihatidan ham xarakterlidir. Shuningdek, har bir bobning so‘nggida bir necha baytlarda shoirning o‘ziga, soqiyga murojaatlarida ham muallif obrazining badiiy konsepsiyasi, qissadan hissa tarzidagi teran qarashlari, o‘tkir da’vat va chaqiriqlari o‘z aksini topganki, bu o‘rinlarda muallif shaxsiyati kitobxon tasavvurida yanada aniqroq gavdalanadi.

Adabiyotshunos N.Mallayev “Hayrat ul-abror”ning obrazlari tasnifi bo‘yicha o‘z qarashlarini bayon etib, dostonning bosh qahramoni Navoiyning o‘zi ekanligini ta’kidlaydi. Bosh obrazning kitobxonga qalban yaqinligini, hamisha yonma-yonligini o‘rinli e’tirof etadi. Olim “Hayrat ul-abror”dagi muallif obrazi xususida, jumladan, shunday deydi: “...kitobxonni yangi-yangi masalalar, o‘y-fikrlar, ziddiyatlar, kurashlar olamiga olib kiradi. Kitobxon bu obrazning sarguzashti, tashqi qiyofasi yoki boshqa jihatlari bilan tanisholmaydi, lekin doimo uning qalbi va shuuri, hissi va tuyg‘usi, hayajoni va armoni, shodligi va g‘azabi bilan birga bo‘ladi, hamma narsani u orqali bilib oladi, tushunadi, o‘ylaydi, xulosa va yakun yasaydi, ...xalqparvar, ma’rifat arbobi, donishmand va murabbiy Navoiy obrazi kitobxonning ko‘z o‘ngida ulug‘vor bir monument bo‘lib gavdalanib turadi” [Маллаев, 1991. 21].

Chindan ham, “Hayrat ul-abror” ulug‘ mutafakkirni kitobxonga har jihatdan yaqinlashtiradi, “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan ko‘ra ilk dostondagi Navoiy shaxsiyati kitobxonga har jihatdan yaqin va hamnafasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтикадан очерклар. Т.: Akademnashr. 2015.

2. Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: Высшая школа, 1971.

3. Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Филология фанлари доктори диссертацияси. Т, 2016.

4. Маллаев Н. Сўз санъатининг гултожи. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.

5. Тимофеев Л.И. Речь повествователя// Основы теории литературы. – М.: Учпедиз, 1963.

6. Холмуродов А. Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари (XX аср сўнгги чораги). Филология фанлари доктори диссертацияси. Т., 2008.

7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: “Navoiy universiteti”, 2018.

8. Ҳайитметов А. Навоий лирикасидаги асосий образлар// Навоий лирикаси. Т.: “Ўзбекистон”, 2015.

9. Ҳайитметов А. “Хамса” қаҳрамонларининг ижтимоий муҳитга муносабати масаласи // Навоий даҳоси. Т.: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970.

ALISHER NAVOIY ISHTIROK ETGAN ADABIY KECHALAR

Sherxon QORAYEV
ToshDO‘TAU

Alisher Navoiy bolaligidan to umrining oxiriga qadar turli xil adabiy majlislar, diniy-ma’rifiy suhbatlar, she’riyat kechalarida ishtirok etgan. Bunday yig‘inlar shoirlar sultonining tafakkur olami, dunyoqarashi va bilimining takomilida muhim o‘rin tutgan.

1. Dastlab **darveshlar suhbatlari (mashoyixlar majlislari)** haqida so‘z yuritsak, Alisher Navoiy bolaligida otasi bilan ulug‘ avliyo Xoja Shamsuddin Muhammad Kusuyi Jomiy suhbatida bo‘ladi. Bundan tashqari ulug‘ mutafakkir Humomiddin Kalobodiy, Xoja Pir Naqqosh, Xoja Muayyad, Xoja Avhad Mustavfiy, Mavlono Sa’duddin, Xoja Abdulaziz Jomiy, Mavlono Muhammad Tabodgoniy, Shayx Shoh Ziyoratgohiy kabi valiylar suhbatiga musharraf bo‘lgan. Shayx Sadriddin Ravosiyning dilbar suhbatiga yetgani haqida Navoiy shunday yozgan: *“Shakli dilpisand va haqoyiq (ilohiyot fani) va maorif (ma’rifat) aytmog‘i dilfirib (jozibali) erdi. Sharif suhbatiga faqir (Navoiy) musharraf bo‘ldim. Badaxshon shohig‘akim, anga murid bo‘lib erdi. “Fusus” (Ibn al-Arabiyning “Fusus al-hikam” asari)din dars aytur erdi, ko‘nglimni base sayd qildi”* [Navoiy, 2012: 390]. Eng qizig‘i, aziz-avliyolarning dars yig‘ini shaklidagi suhbatlarida she’rlar o‘qilgan. Gap shundaki, she’r yozmagan tasavvuf shayxi deyarli bo‘lmagan.

Samarqand shahrida tahsil olgan davrida Alisher Navoiy Xoja Ahror Valiy muloqotlarida ham ishtirok etgan. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiy shunday yozgan, *“...Amir Alisher Movarounnahr viloyatida bir qancha vaqt – necha yil-u oy, sahar-u shom turli fazilatlar va kamolot kasb etib, olimlar va muhaqqiqlar peshvosi Xoja Aloviddin Fazlulloh Abu Laysiy mulozamatida diniy ilmlar tahsili va yaqiniy ma’rifat takomilida mashg‘ul bo‘lib, avliyolar qutbi Xoja Nosiriddin Ubaydullohning (Olloh unga tinchlik bersin), fayzli buzrukvor majlisidan fayz va oftob yanglig‘ munavvar siyratidan bahra olgan ”[Samarqandiy, 1981:188].* O‘z

navbatida Xoja Ahror Valiy majlislari Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy qarashlarining shakllanishida yetakchi rol o‘ynagani ayni haqiqat. Binobarin, navoiyshunos olim Shuhrat Sirojiddinov ham Abdurazzoq Samarqandiy *“Navoiyning Samarqandda ekanligi paytida Xoja Ahror Valiy suhbatlaridan bahramand bo‘lganligini aytib o‘tganki, bu Navoiy dunyoqarashi va mafkurasi tashakkulining bosqichlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega”*, [Sirojiddinov, 211: 55] degan.

2. **Olimlar majlislari.** Alisher Navoiy Hirot, Mashhad va Samarqand madrasalarida tahsil olgan davrida olimlar yig‘inlarida ishtirok etgan. Bu haqda Navoiy “Mahbub ul-qulub”da shunday yozgan: *“...Falokatli zamonlarda va noumid yurgan paytlarimda ba’zan ilm-fan madrasalarida quyi saflardan joy oldim va olimlar majlisida ilm nuridan ko‘nglimni yoritdim” [Navoiy, 1983: 11]*. Aytish lozimki, o‘rta asr Sharq olimlari she’r ham yozishgan. O‘z majlislarida o‘z fikr-g‘oyalarini she’riy tarzda ifodalashgan.

Navoiy Samarqandda Ulug‘bek Mirzo, Ahmad Hojibek va Fazlulloh Abullaysiy madrasalarida tahsil olgan va “shoirlar sultoni Ulug‘bek madrasasining mudarrislari Mavlono A’loi Shoshiy va Mavlono Olim Samarqandiy dars majlislarida qatnashgan. *“Xullas, Alisher (Navoiy) Samarqandda “Ulug‘bek bilan hamsaboq” bo‘lgan Muhammadolim Samarqandiy, Xoja Xisrav, A’loi Shoshiy, Jaloliddin Lutfullo Buxoriy, Qutbiddin Samarqandiy, Mavlono Fozili Samarqandiy, Mavlono Soili Nasafiy va nihoyat falsafa, huquqshunoslik hamda arab tili bilimdonligida shuhrat taratgan mudarris Fazlulloh Abullaysiy muhitiga tushib qoldi. Ulug‘bek zamonidayoq voyaga yetib qolgan bu olimlar poetika, tibbiyot, falsafa, tarix kabi sohalarda kamoli shuhratda edilar.*

Alisher Navoiy kamolotida Shayx Sadriddin Ravosiy, Shayx Kamol Turbatiy, Sayyid Hasan Ardasher, Xoja Muhammad Astrobodiy, Xoja Yusuf Burhon, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Fasihiddin Sohib qanchalik rol o‘ynagan bo‘lsalar, Fazlulloh Abullaysiy ham shunchalik muhim va aytishlik muhimki, hammadan ko‘proq rol o‘ynagandir” [Abdullayev, 1967: 12]. Albatta Navoiy umri mobaynida o‘z davrining yetuk olimlari majlislarida bo‘lib, bilim va tafakkur doirasini kengaytirgan.

3. **Shoirlar majlislari.** O‘rta asrlarda katta-kichik shaharlardagi bog‘-u rog‘lar, xonadonlarda shoirlar yig‘ilib, majlislar qurishgan. Bunday adabiy majlislar, adabiy munozara va suhbatlar shoirlar uchun adabiy asarlar ustida fikr almashish va tajriba orttirish vositasi bo‘lgan. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da temuriylar davridagi Mavlono Ayoziy kabi nozimlar to‘plangan shoirlar majlisini shunday tasvirlagan: *“Faqir (Navoiy) bir majlisda Puli Molonda (Mavlono Ayoziy)ni ko‘rdim, bir anjumanda bir qasidasin o‘qiydur erdi. Har bayt bunyod qilsa, so‘z uslubidin, qofiyadin ayta berur erdim. Bag‘oyat hayrat qildi. Uch yildan so‘ng Bog‘i Safedda yana bir majlisda biaynihi ushmundoq voqe’ bo‘ldi. Ul yana hayrat bunyod qildi. Burung‘i majlis ahlidin bu majlisda ham necha kishi bor erdi. Andin so‘rdilarkim, hargiz bu nav’ kishi ko‘ribmusen, chun ko‘zida za’f bor erdi, dediki, ko‘rmaymen, magar uch yil mundin burunroq Puli Molonda bir yigit ko‘rdum, ul ham bu nav’ shu’badabozliq(ko ‘zbo‘yamachilik) qildi” [Navoiy, 1966: 53]*.

4. **Sultonlar majlislari**. Ma’lumotlarga qaraganda, Alisher Navoiy Sulton Abulqosim Bobur, Abusaid Mirzo va Sulton Ahmad Mirzo saroyida o‘tkazilgan adabiy majlislarda ishtirok etgan. Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallagach, shoirlar sultoni hukmdor huzuridagi adabiy majlislarda qatnasha boshlagan. Ana shunday mushoiralardan biri “Majolis un-nafois”da hikoya qilingan: *“Hajr shomi suhbatida (ayriliq kechasining qiynoqlari haqida) va o‘zin anjum va aflok (yulduzlar va osmon) bilan mashg‘ul kayfiyatda bu g‘azal (Sulton Husayn qalamiga mansub) boshtin-ayoq xo‘b va puroshub (serhayajon) voqe’ bo‘lubtur va matlai bu dururkim:*

Hajr shomi oy chiqib, men yig‘lar erdim dard ila,
Sayrlar qildim, seni istab mahi shabgard ila [Navoiy, 1966: 201].

Husayn Boyqaro boshqa shoirlarni majlisda shu she’rga ergashib, xuddi shu mavzuda hozirning o‘zidayoq she’r aytishga, tatabbu’ qilishga da’vat etgan. Ba’zi shoirlar tatabbuni eplay olmadilar. Ayrim shoirlar esa bunday she’rga teng keladigan g‘azal aytish qo‘llaridan kelmasligini tan olishgan. *“Ul jumladan bu faqir (Navoiy) erdikim”,* deb yozadi kamtarlik bilan “Majolis un-nafois”da Navoiy.

5. **Muammo majlislari**. Hirotda Navoiy huzurida yetuk muammonavis shoirlar ishtirokida muammo yechish majlislari

tashkil etilgan. Bu haqda Abdurauf Fitrat shunday yozgan*: "Burung'i shoirlarni bo'sh-bo'shiga mashg'ul qilib charchatgan o'yunlarning birtasi muammodir.*

Shoirlarning biri bir bayt yozadir shul yo'sindakim, unda bir "ism" maxsus qoidalar bilan yashirilg'an bo'lsin. So'ngra (yig'inda) muammo qoidalarini bilganlarga hali yashurun aslini bildirmay, shu baytni o'quydir. Ular (majlis ahli) tirishib, jon chekishib bilgan qoidalari yuzasidan hali ismni topib aytadilar.

"Muammo" o'yunining eng ko'tarilgan (rivojlangan) zamoni Navoiy zamonidir. Navoiy zamonida forscha, o'zbekcha muammo birlikda ko'tarilgan, forsiy muammoga ko'prak ahamiyat berilgan desak-da bo'ladir" [Fitrat,1995:80].

Zayniddin Vosifiy "Badoye'ul vaqoye'"sida Alisher Navoiyning muammo yechish majlislarini tasvirlagan. Naql qilinishicha, erta bilan uch yigit hamrohligida Zayniddin Vosifiy Navoiyning muammo majlisiga kirib boradi. Ulardan biri muammo ilmida mahorati Husayn Nishopuriyga tenglasha oladigan muammoiy bo'lgan. Yosh ijodkorlar yig'inga qadam qo'ygach, majlis ahli va Alisher Navoiy o'z nadimlari bilan Vosifiy tomonga qaraydi hamda shoirlar sultoni uni ko'rsatib, *"nomini aytmay o'qilgan muammoni yecha oladigan do'stimiz shumi?"* deydi. Mavlono Sohibdoro *"ha"* deydi unga yuzlanib. Navoiy uning muammo ilmida iqtidori borligini ko'zidan ilg'aganligini aytib, mazkur muammoni o'qiydi:

Bog'ro bin az xazon befarru, sarv az jo shuda,

Bulbulash barham zada minqoru, nogo'yo shuda [Vosifiy, 1979:85].

(Bog'ini ko'r, xazonrezlikdan ko'rki qolmabdi sarv o'rnida yo'q, bulbulning tumshug'i yo'q bo'lib, kuylashdan qolibdi.)

Muammo majlisda Vosifiy bu muammoni bilishini aytadi. Shundan so'ng Navoiy bir oz boshini egib, *"bilasizlarmi, uning bu so'zi nimani bildiradi. O'z qudratini izhor qilib, bunisini bilaman, boshqasini ayting, demoqchi, da'vosini qabul qilurmiz*", deydi. Ammo Navoiy boshqa muammo o'qimaydi [Vosifiy, 1979:86].

6. **Samo' yig'inlari.** Alisher Navoiy mansub naqshbandiylik tariqati vakillari samo' majlisi tuzmaganlar, ammo inkor ham etishmagan. Yana shunisi ham borki, shoirning zamondoshlaridan

Mavlono Shamsiddin Muhammad Asad, Xoja Shamsiddin Muhammad Kusuyi Jomiy, Mavlono Muhammad Tobodgoniy, Xoja Abdulaziz Jomiylar samo‘ yig‘inlarini sayru sulukning tarkibiy qismi deb yondoshganlar. Balki, mazkur allomalarning ta’siri o‘laroq, Navoiy samo‘ majlislarida ishtirok etgan yoki uning huzurida ham ana shunday kechalar tashkil etilgandir. “Nasoyim ul-muhabbat”da Navoiy zamondoshi Mavlono Muhammad Tabodgoniyning samo‘ yig‘inlarini qayd etgan: *“...Xotirlari mayli yaxshi un bila samo‘g‘a ko‘p moyil erdi va Mavlono sozu xonandalig‘din bot muassir bo‘lib, samog‘a qo‘porlar erdi va behol bo‘lurlar erdi va majlis huzzorig‘a g‘arib asar qilur erdi”[Navoiy, 2012:447]*. Qolaversa, Navoiy Abdulaziz Jomiyning samo‘dagi holatini o‘zi guvoh bo‘lgandek ta’riflagan*: “...samo‘ majlisida azim sayhalar urub, bexud bo‘lur erdilar” [Navoiy, 2012:446]*. Eng qizig‘i, Navoiy qoshida so‘fiylar yig‘ilib, samo‘ yig‘ilishi o‘tkazganini Bobur “Boburnoma”da e’tirof etgan. Aniqroq qilib aytganda, Bobur Kamoliddin Husayn Gozurgohiy haqida to‘xtalar ekan, bunday *mutasavvuflar Alisherbek qoshida yig‘ilib, vajd va samo‘ qilgan*ligini qayd etgan[Bobur, 1990:159].

7. **Shatranj majlislari.** Navoiy huzuridagi **shatranj majlisi** haqida “Boburnoma”da yozilishicha, “...bir kun shatranj majlisida Alisherbek oyog‘ini uzatur. Binoiyning (orqasi) ga tegar. Alisherbek mutoyaba bila derki, “ajab baloest dar Hiriy agar poy daroz mekuni ba (pushti) shoir merasad” (“Ajab balodirki, Hirotda oyog‘ingni uzatsang, shoirning ortiga tegadi”). Binoiy derkim, “agar jam’ mekuni ham ba (pushti) shoir merasad” (“Yig‘sang ham shoirning ortiga tegadi”) [Bobur,1990:160].

Navoiy huzuridagi ana shunday shatranj majlislarida shaxmat o‘yinidan tashqari, mushoiralar, hazil-mutoyaba suhbatlari ham bo‘lib turgan.

8. **Kitobxonlik kechalari.** Jomiy xonadonida o‘tkazilib turgan kitobxonlik kechalarida turli xil kitoblar mutolaa qilingan. Navoiyning yozishicha, “Yana “Xamsa”, balki “Haft avrang”larning ko‘pragin muqobala (tanishish) dasturi bila alar o‘qig‘onda quloq tutulubtur, madadi uchun alar (Jomiy) majlisida o‘qulubtur” [Navoiy, 2012: 747]. Bu fikrni Xondamir ham tasdiqlaydi: “*Hazrat (Navoiy) haqiqatlar panohi bo‘lgan janobi oliy Maxdumiy Nuran (Jomiy)*

xizmatida bo‘lib, har doim ul zotning huzurida darveshlarning kitoblari va tasavvufga oid asarlarni o‘qishga mashg‘ul bo‘ldilar. Ul janobi oliy (Jomiy) ning bu borada yozgan risolalarini ham o‘sha kishining huzurida mutolaa qildilar... (Aytib o‘tish lozimki) ul janobi oliy (Jomiy) ham o‘zidan fayz taratib turgan o‘sha asarlarini hidoyat nishonli ushbu Amir (Navoiy)ning qutlug‘ nomiga bag‘ishlab yozdi”[Xondamir, 2015:31]. Alisher Navoiy Jomiy huzuridagi kitobxonlik kechalarida tasavvuf, din va ilm-u fanga oid qator kitoblarni mutolaa qilgan, uning kitobxonlik kechalarida ishtirok etib, o‘qilgan mo‘tabar kitoblarni tinglagan, shoirlar sultoni biror risola zarur bo‘lib qolganda ustozidan so‘rab olib, o‘qigan.

Jomiy huzuridagi mutolaa, ya’ni kitobxonlik kechalari, mo‘tabar kitoblar haqida Ibrohim Haqqul shunday yozgan: *“Xamsat ul-mutahayyirin” xotimasida Navoiy ustozi Abdurahmon Jomiy xizmatida (huzurida) “ta’lim va istifoda” yuzidan o‘qigan o‘ndan ziyod kitob ro‘yxatini keltiradiki, ularning aksariyati tasavvuf haqida... Shuningdek, Navoiy Hujviriy, Imom Qushayriy, Suhravardiy, Imom G‘azzoliy, Ibn Arabiy kabi islom allomalarining asarlarini ham puxta bilgan. Navoiyning tasavvuf bilan aloqasini belgilashda bunday faktlarga jiddiy qarash kerak. Navoiyshunoslikda xuddi shu jihat yetarli darajada inobatga olinganicha yo‘q” [Haqqul,2007:128].*

Alisher Navoiy davrida temuriylar saltanatida **rindlar majlislari** va **javonmardlarning ma’raka – yig‘inlari** ham o‘tkazilgan. Ammo bu toifaning yig‘ilishlarida shoirlar sultonining ishtirok etgan yoki ishtirok etmagani haqida yetarli ma’lumot yo‘q. Vaholanki, shoir asarlarida rindlar bazmlari hamda ma’raka yig‘inlari zikr etilgan. Binobarin, Navoiy bunday majlislarda ishtirok etgan bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas.

Muxtasar qilib aytganda, adabiy majlislar nafaqat mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotida, balki Alisher Navoiy kamolotida ham muhim rol o‘ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Beshinchi jild. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU-2012.

2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. To‘qqizinchi jild. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. –B. 290-448.

3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘ninchi jild. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 2012.

4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1983.

5. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois.– T.: G‘. G‘ulom nomidagi BAN, 1966.

6. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkirat ush-shuaro”dan). – T.: G‘. G‘ulom nomidagi ASN, 1981. – B. 226.

7. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy manbalarning qiyosiy – tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr, 2011.

8. Abdullaev V.A. Alisher Navoiy Samarqandda. – T.: “Bilim” jamiyati, 1967.-B.30.

9. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – T.: O‘qituvchi, 1995.

10. Zayniddin Vosifiy. Badoe‘ul vaqoe‘. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1979.

11. Zahiriddin Muhammad Bobur.Boburnoma.T:Yulduzcha, 1990.

12. G‘iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2015.

13. Haqqul Ibrohim. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq NMAK BT, 2007.

KOMIL HOFIZ (MUG‘ANNIY) ORZUSI

Shavkat Hayitov
Mahbuba Ahmadova
Buxoro davlat universiteti

Hazrat Alisher Navoiy «Mahbubul-qulub» asarining yigirma ikkinchi faslida hofiz va sozandalar – mutrib va mug‘anniylar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Alisher Navoiy bevosita ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan toifalarning ijtimoiy ahvoliga ko‘ra axloqini ularning jamiyat vakillari ma’naviy hayotiga yetkazadigan foyda-zarari, ma’rifat xirmoniga qo‘shgan hissasidan kelib chiqib yoritadi. «Mutrib va mug‘anniylar zikrida»gi faslda ham xuddi shu manzara kuzatiladi. Adib talqinicha, sozanda va xonanda, kuy va qo‘shiq kishilarning ruhoniy-ma’rifiy hayotida muhim ahamiyatga ega: «Mutribi tarabafzo, mug‘anniyi g‘amzudo-ikalasiga dardu hol ahli jon qilurlar fido» [Navoiy, 1998: 30]. Musiqa g‘amni tarqatib, asablarga orom beradi. Yoqimli tarona inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir qilib, qalbning holatida o‘zgarish yasaydi. U ko‘ngil mulkiga ezgu xayollar, go‘zal tuyg‘ularni olib kiradi. Haq oshiqlari qalbidagi muhabbat va ma’rifat o‘tini yanada alangalatadi: «Xushxon mug‘anniydin dard ahlining o‘ti tezdur, agar malohati bo‘lsa, hol ahlig‘a rustoxezdur. Har mug‘anniyki, dardmandonaroq nag‘ma chekar, aning nag‘masi zaxmliq yurakka korgarroq tegar. Otashin yuzluq mug‘anniyki, halqidin muloyim surud chiqorg‘ay, hol ahlining kuygan bag‘ridin dud chiqorg‘ay» [Navoiy, 1998: 30].

Alisher Navoiy musiqaning ko‘ngil holatlariga ta’siriga asosiy e’tiborni qaratgan. Shuning uchun ham badiiy matnda «dardu hol ahli», «dard ahli», «zaxmliq yurak», «hol ahli», «kuygan bag‘ir», «ko‘ngil mulki», «suluk ahli», «muhlik oh», «na’rai jonkoh» kabi so‘z va so‘z birikmalari, istiora va sifatlashlari ko‘p takrorlangan. Chunki insonning ichki musaffoligi, ruh pokligi ko‘ngil olami bilan bog‘liq. Ko‘ngil - ilohiy ma’rifat maskani. Ko‘ngil - oliy insoniy xislatlar ma’vosi. Ko‘ngil - inson umrining mazmuni.

Alisher Navoiy ruhiyat manzaralarini qalamga olgan «dard ahli» va «ishq ahli» Haq tajalliysi, jamoliga maftun, Husni mutlaqni ko‘rish, Haq vasliga erishishga ko‘ngli mushtoq komil insonlardir.

«Hol ahli» deganda ruhi uyg‘oq, ko‘ngli ogoh, qalbi ma’rifat xazinasiga aylangan, «ishqdin vasl maqsudi hosil», Iloh asroridan xabardor bo‘lgan yetuk inson nazarda tutilgan. «Hol ahlining kuygan bag‘ridin dud chiqorg‘ay» jumlasi tarkibidagi «kuygan bag‘ir» - fano maqomiga yetgan orifning ezguliklarga to‘la nurli qalbi. Xayol daryosining irmoqlari doimo faylasuf adib fikrini tasavvuf o‘zanlariga tortib turgan. Shuning uchun ulug‘ adib xoh shoir, xoh muallim, xoh savdogar, xoh mashshoq haqida yozsin, ma’rifat sharobiga qondirilgan insoni komilning nurli qiyofasi rangin jumlalarda zuhurlanadi va avlodlar ma’naviy balog‘atiga qattiq ta’sir o‘tkazadi.

Shakl va mazmun mutanosibligi, she’riy san’atlarni qo‘llash mahorati, qo‘shiq va kuyning qalb tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyatiga oid falsafiy fikrlarning hayratlanarli tarzda bayon etilishiga asos bo‘lgan: «Ko‘ngul quvvati xushnavozdin, ruh quti xushovozdin» [Navoiy, 1998: 35]. Ko‘chirilgan gapda saj’ «xushnavozdin» va «xushovozdin» so‘zlari asosiga qurilgan. Saralanib-saralanib jumlalar tarkibiga tizilgan so‘zlardan bir harfni o‘zgartirish musajja’ talablarning - hamvaznlilik, ohangdorlik, kuchli ta’sirchanlik kabi fazilatlarining buzilishiga olib keladi. Ma’no va shakl jihatlari bilan o‘zaro uyg‘un bo‘lgan, olti so‘zdan tashkil topgan ixcham jumlada ulug‘ adibning badiiy fikrlash salohiyati ravshan ko‘zga tashlanadi. Atoulloh Husayniy yozadi: «Ani tajnis-i muxtalif va tajnis-i muharraf ham derlar. Ul lafzlarning harflar soni, turi va tartibida muvofiq bo‘lub, harakoti sukunot, tashdidi taxfif, maddi kasrdin hosil bo‘ladigan shaklda turlicha bo‘lmog‘idan iboratdur» [Husayniy, 1981: 39-40]. «Mutrib va mug‘anniylar» zikridagi fasldan keltirilgan parchada «quvvati» hamda «quti» so‘zlarining arab imlosidagi harflar soni, shakli, yozilish tartibi bir xil bo‘lib, faqat «vov»ning «harakatu tashdid»ini o‘zgartirib o‘qish bilan so‘zning talaffuzida va bizning yozuvimizdagi ifodasida farq paydo bo‘ladi. «Quvvati» va «quti» kalimalarining ohangdoshligini inobatga olsak, shu so‘zlar orqali bir yo‘la ikki san’at - tajnisi muxtalif va saj’i mutarraf amal qilib, mukammal ma’no go‘zal shaklda namoyon bo‘lganligini his qilamiz. Saj’li jumlaning dastlabki qatorini yakunlovchi, musajja’ asosida turgan yetakchi so‘z «xushovozdin» (yoqimli ovozdan) ham o‘z muvoziysi «xushnavozdin» (yoqimli ohangdan) kalimasi

bilan lafzdosh bo‘lib, bu so‘zlarning talaffuzidagi ixtilof bir «nun» harfidadir. Badiiy tasvirning bunday namunasi tajnis-i muzayyal deyiladi [Husayniy, 1981: 41]. «Xushnavozdin» matnda «yaxshi kuylovchi, durust cholg‘uvchi» ma’nolariga ega (lutf san’ati): a) ko‘ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa yoqimli ovozdan oziq oladi; b) yurak yaxshi cholg‘uvchidan mador va ruh uning shirali tovushidan ma’naviy farog‘at tuyadi. Inson ruhiyatini teran his qilgan adib soz, cholg‘uvchi, hofiz faoliyati insonning ma’naviy jihatdan o‘sishiga, takomillashuviga xizmat qiladigan muhim vosita ekanligini mohirona ochgan. «Hozirgi pedagogikamizning tarbiya nazariyasida «ijobiy fazilatlarga tayanish prinsipi» tarbiyaning eng muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi. O‘rta asr pandnomalarida esa butun e’tibor mana shu prinsipga qaratilgan» [Habibullaev, 1996: 63]. Alisher Navoiy kuy va qo‘shiqning inson ruhiyati, erki, ichki olami, hissiyotlari parvoziga ta’sirini asoslar ekan, ruhiy va ma’naviy kamolot timsollari sifatida shayx Abubakr Shibliy va Abulhusayn Nuriy hayotini ibrat qilib ko‘rsatadi: «Shibliy va Nuriy quddisa sirrihummo samo’da kettilar, bu yo‘l suluki bila maqsud sarmanzilig‘a yettilar» [Navoiy, 2001: 30]. Manbalarda Abubakr Shibliy va Abulhasan Nuriy ibratli hayoti va hikmatlaridan ko‘plab namunalar keltirilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning so‘fiy shayxlar haqidagi tazkirasi - «Nasoyimul-muhabbat»da Abubakr Shibliyning komil fiqhshunos, cheksiz kamolat sohibi, valiyulloh bo‘lganligi xususida muhim dalillar mavjud: «Shayx Abubakr Shibliy q.s. din bir faqih so‘rabdurki, zakot adosi ne nav’dur? Shayx debdurlarki, sanga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Yo manga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Aytibdurlarki, manga bo‘lur zakot qaysidur va sanga bo‘lur zakot qaysidur? Shayx debdurlarki, sanga bo‘lur zakot uldirkim, har ikki yuz diramdin besh diram Tengri yo‘lida bergaysen. Manga bo‘lur zakot budurkim, har ikki yuz diramdin ikki yuz besh diram Tengri taolo yo‘lida bergaymen. Debdurlarkim, ikki yuz diramkim berildi, yana besh diram nedur? Shayx debdurlarki, ul besh diramni burj qilib, ul ikki yuz diram bergan shukronag‘a berilg‘ay...» Junayd q.s. debdurki, «Abubakr Shibliyg‘a boshqalarga nazar qilganingizdek nazar qilmang. Chunki u Alloh ko‘zlaridan bir ko‘zdir» ...Va ham Junayd debdurki: «Har bir qavmning toji bor. Bu qavmning toji esa Shibliydir» [Navoiy, 2001, 2000: 127].

Hofizlar zikriga bag‘ishlangan faslning navbatdagi jumlalarida musiqaning inson ruhiy olamiga ta’sirini yoritishda tashxis va intoq san’atlarining imkoniyatlaridan mohirona foydalanilgan. Muallif nay, g‘ijjak, tanbur, chang, ud, rubob, qo‘buz, qonun, chag‘ona kabi musiqa asboblariga inson xususiyatlarini ko‘chiradi. Adib go‘yo inson ixtiyorini o‘z tasarrufiga olish, uni o‘ziga rom qilish maqsadi yo‘lida birlashgan muhiblar kengashini tuzadi. Ittifoqdoshlar davrasi borgan sari kengayadi, jumladan jumlaga ko‘chadi.Shunisi hayratlanarliki, ixcham ifodalarda har bir soz o‘z tashqi ko‘rinishi, surat-shakli, siyrat-mohiyatiga mos navo, raftoru ravish bilan inson vujudida o‘zgarish yasaydi: «Va tanbur parda dog‘i fitnadin halok etar va ofiyat pardasin chok etar va chang zorlig‘ bila bo‘g‘zin tortar va ud lisoni nag‘masining targ‘ibi changidin ham ortar. Andakim rubob boshin yerga qo‘yub niyoz ko‘rguzgay va qo‘buz quloq tutub ayshg‘a targ‘ib ohangin tuzg‘ay...» [Navoiy, 1998: 33]. Alisher Navoiy qalamining mo‘jizakorlik qudrati hofiz qo‘lidagi sozni (ish quroli) tirik inson kabi kitobxon ko‘z o‘ngida jilolantirgan.

Badiiy matnda har bir so‘z zimmasiga yuklatilgan vazifa va undan ko‘zda tutilgan maqsad bor. Mazkur da’vo isboti uchun birgina kalimani olib qaraylik. Tanburga nisbat berilgan «dog‘i» so‘zi matnda ikki ma’noda, qo‘shaloq vazifani ado qilib kelayotir. Birinchidan, «dog‘i» tanbur dastasi bo‘ylab joylashtirilgan tovush notalarining farqlovchi belgilari - alomatlari ma’nosini ifodalab, tasvir mukammalligi va tiniqligini ta’min etayapti. Bunda Alisher Navoiy «dog‘i» so‘zining «belgi, iz» kabi ma’nolaridan badiiy-g‘oyaviy maqsad yo‘lida ustalik bilan foydalangan. Shu o‘rinda ulug‘ adib musiqa nazariyasining komil bilimdoni sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, «dog‘i»ning «tag‘in, yana ham» ma’nolari ishga solingan, natijada so‘z va soz biri-biridan madad olib, ichki mazmunni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Odam tabiatining qirralari qanchalik teran bo‘lsa, uning ma’naviy dunyosiga ta’sir qilish, insonni ruhiy-ma’naviy jihatdan yuksaltirish usullari ham shunchalik ko‘p. Tasvir va talqin insoniyat olamidan tabiat, hayvonot va nabotot olamiga ko‘chadi. Adib talqinicha, yoqimli tarona hayvonlar hayotida ham zarur narsa. O‘rta asrlarda odamlarga eng ko‘p nafi tegadigan hayvon tuya bo‘lgan. Issiq iqlim sharoitida bir necha kun suv ichmay yurishga moslashgan bu sahro

«kemasi» turmushning turli jabhasida odamlarning ogʻirini yengil qilgan. Shuning uchun ham Alisher Navoiy kitobxon e'tiborini tuyaga tortadi va aytadiki, arab tuyasi sarbonning «Hudiy» deb nomlangan ashulasidan mutaassir boʻlib sahroda qadamini tezlashtiradi: «Arab tevasi «hudiy» lahni bila bodiya qat'ida tez boʻlur, bulut buxtisi ra'd sadosidin soiqaangiz» [Navoiy, 1998: 31]. Jumlaning ikkinchi qismi goʻzal istiora bilan boshlangan. Adib «bulut» soʻzi oldidan «tuya» kalimasining forsiy sinonimini («buxti») keltirgan. «Buxti» kalimasi badiiy ifoda oqimida «bulut» soʻzi bilan tashbehiy munosabatga kirishib istiorani hosil qilgan. Osmonning u yer bu yerlarida toʻp-toʻp bulutlarning ba'zan yuk ortilgan qayiq shaklida, ba'zan nor tuya misol nazarga tashlanishini koʻz oldimizga keltirsak, ijodkorning borliqda mavjud oʻxshash hodisalarni tanlash salohiyatiga tan bermay ilojimiz yoʻq. Majoziy tasvirdan maqsad inson rizqining sababchisi, nabotot olami tomirlariga qon va jon baxsh etuvchi yomgʻir manbai bulutning namoyon boʻlishiga va unda chaqmoq chaqilib yogʻindan xabar berishiga momaqaldiroq sadosini (zalvarli ovozini) shoirona sabab qilib koʻrsatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий А. Асарлар. 15 томлик, 13-том. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти, 1966.

2. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: "Фан", 1998.

3. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. –Тошкент: "Фан", 1999.

4. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 16-жилд. –Тошкент: "Фан", 2000.

5. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 17-жилд. –Тошкент: "Фан", 2001.

6. Ҳабибуллаев А. Навоий пандномаси. – Тошкент: «Фан», 1996. - 84 б.

7. Ҳусайний, Атоуллоҳ. Бадойиъус-санойиъ. – Тошкент: Ғ. Ғафур номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

IJOD VA MAHORAT

Umida RASULOVA
ToshDO‘TAU

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” va “Majolis un-nafois” asarlari mohiyati borasida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, badiiyat, poetika, ijod, so‘z, tafakkur.

Resume

The article discusses the essence of Alisher Navoi’s works “History of the Prophet and the Ruler” and “Majolis un-nafois”.

Key words: literature, art, poetics, creativity, speech, thinking.

San’at olamini yangi obraz, ifoda, tasvir bilan boyitgan qomusiy bilim sohibi Alisher Navoiy ilmiy, badiiy merosidan bahramandlik kishiga huzur bag‘ishlaydi. Asrlar silsilasida ijodkor tafakkur olami ne’matlari kitobxonning ma’naviyatini yuksaltirib kelmoqda. Alisher Navoiy ijodini turli rakursdan o‘rganish adabiyotshunoslik, tilshunoslik, adabiy tanqid, tarix, falsafa, estetika kabi sohalarga doir qimmatli ma’lumotlardan boxabar bo‘lish imkonini beradi. Uning sharq hamda islom falsafasi uyg‘unligidagi asarlari zamirida oshiq inson mohiyati namoyon bo‘ladi. Hazrat Navoiy foniy va boqiy dunyo orasidagi tafovutni ko‘plab asarlari vositasida basir insonga anglatishga harakat qilgan. Farhod, Majnun, Iskandar timsollarida Yaratganga oshiq saodatmandning turli sinoatda toblanishi poetik ifodani to‘ldirib borgan. Ijodkorning diniy, dunyoviy ilm mahzanini teran singdirgani har narsadan ma’no uqib, nabototu hayvonotning odamzot bilan yaxlitligini real, ishonchli lavhalarda yoritib berish mahoratida ko‘rinadi. Alisher Navoiy zakovati, didi, sajiyasi uning qahramonlari ruhiyatini sinchiklab o‘rganish jarayonida ham ayonlashib boradi. Pok ko‘ngil, oshiq dardmand, chin e’tiqod sohiblarini badiiyat dunyosiga olib kirgan ijodkor insoniyatni haqiqat manziliga yo‘naltirishni maqsad aylagan.

Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Qur’oni Karim asosida payg‘ambarlar fitrati yoritilib, voqyealar tasvirida turli makonu zamondagi bog‘liqlikka rioya etiladi. Ijodkor qahramon tiynatidagi imon quvvati, sabru qanoatini aniq hayotiy voqyealar tizimida yetkazishga muvaffaq bo‘ladi. Asarda nabiylar ahkomi, tavoze ila Yaratgan hukmiga itoati turli mo‘jiza, sinoatlar kesimida taqdim etiladi. Payg‘ambarlar qavmu elatlarni yolg‘iz Allohga e’tiqod qilishga chorlab, kishilarning imon halovatini tuyushiga sababchi bo‘lganlar. Alisher Navoiy xokisor, kamtar, sobiru shokir insonlarni e’tiqodsiz, zulmkor kishilar bilan muqoyasa aylab, shayton nayrangi, vasvasasidan yiroq bo‘lishni ta’kidlab boradi. Bu asarda shoir payg‘ambarlar tarixidagi mayda tafsilotu holatgacha, hayvonlar rangi, fe’ligicha inobatga olib ularni qiziqarli, ta’sirli tasvirlashga sazovor bo‘ladi. Mazkur asarda soddalik, aniqlik, mantiqiylik yetakchilik qiladi. Alisher Navoiy asarida qism, lavhalarni jamlab, yaxlit manzara, tasavvurni hosil qilishga erishadi. Hazrat Navoiy asari kompozitsiyasida ham rivoyat, hikoyat, she’rlar voqyelikni tarixiy jihatdan asoslash, obraz mohiyatini yoritish, axloqiy, falsafiy qarashlarni umumlashtirish maqsadida qo‘llangani kuzatiladi. Ijodkorga Qur’oni Karimdagi qissalar tayanch, asos bo‘lgani, badiiy niyatini ro‘yobga chiqarish jarayonida tasavvur, tafakkur mahsulidan unumli foydalangani ma’lum bo‘ladi. Mazkur asar turkiy tilda yaratilgani, badiiy ifoda ila to‘yintirilgani bilan e’tiborga molik.

Adabiy maydonda o‘z uslubi, ovoziga ega ijod ahlini nafis majlis tegrasiga jamlagan donishmand inson xolis nigoh bilan ular asarini baholashga jazm etadi. Bunda ijtimoiy, madaniy, siyosiy vaziyatga ham ahamiyat qaratilib, san’atkoru ulamolar voyaga yetgan muhitning ta’siri nazardan qolmaydi. Alisher Navoiy o‘tmishdagi siymolar, bugungi iste’dodlar hamda yosh iqtidor egalarini iltifot ila yodga oladi. Sakkiz majlisdan tarkib topgan asarda to‘rt yuz ellik to‘qqiz nafar ijodkorlar faoliyati yoritib boriladi. Shoir bunda adabiyot ahli hasbi xoli, asari mohiyati bilan birga nazariy masalalar yechimini ham taqdim etishga intiladi. Ijodkor uslubi, so‘z qo‘llash mahorati, asar poetikasiga doir qarashlar mutafakkir intellektidan voqif aylaydi. U shuarolar portretiga chizgi tortib, ular fitratidagi fazilatlarni alohida ta’kidlab o‘tadi, ba’zan nuqsonlar borasida

ham astalik bilan, ko‘ngilga ozor yetkazmay aytib ketadi. Majlisda turli soha vakillari, xususan, xattotlar, musiqashunoslar, kimyogaru falakiyotshunoslar, mudarrisu hakimlar iste’dod qirralariga oydinlik kiritiladi. Alisher Navoiy ularning ilmu fan rivojiga qo‘shgan hissasini yaratgan kashfiyotlari misolida baholab boradi. Mutafakkir tomonidan asarlar mavzu ko‘lami, yo‘nalishi sinchiklab kuzatilib, g‘azal, masnaviy, ruboiy, qit’a, qasida kabi janrlar takomillashib borgani eslatiladi.

Alisher Navoiy tazkirada ijodkorlar taxallusi, shajarasi, kasbu kori borasida ham muxtasar shaklda mulohazalar bildiradi. Xususan, masalgo‘y Mavlono Tusiy, fazliyotda komil Mavlono Jomiy, sohib kamol Ali Yazdiy, malikul kalom Mavlono Lutfiy, darveshvash Mavlono Atoyi, donishmand Mirxond kabilarning sifatu fazilatini aniq, lo‘nda ta’rifga jo aylaydi. Tazkira sohibi har bir ijodkorning adabiyot hamda san’at takomiliga qo‘shgan hissasini, uning maslagi, dunyoqarashini ham mushtaraklikda taqdim etishni lozim biladi.

Donishmand shoir avval payg‘ambarlar oliy nizomi, sharafli vazifasi, hakimlar salohiyati, mas’uliyati borasida mufassal fikr bildirgan bo‘lsa, so‘ng maqsadu sohasi bilan mushtarak bo‘lgan qalam ahli faoliyatini yoritishga noil bo‘lib, insoniyat tarixi zarvarag‘ini muhim asror bilan to‘ldiradi. Alisher Navoiy badiiy, ilmiy asarlari yosh avlodning tafakkur dunyosini boyitib, erkin mushohada yuritish malakasini oshirib boradi. Halollik, to‘g‘rilik, fidoyilik fazilatlari tanqislashayotgan globallashuv jarayonida olijanob olim yaratgan nodir asarlar insoniyatni ezgulik, ma’rifatga targ‘ib etaveradi.

АЛИШЕР НАВОИ О КУЛЬТУРЕ РЕЧИ

Самигова Г.А. - *ГИИКУЗ*

Аннотация.

В данной статье рассматривается методологические основы культуры речи с точки зрения выдающегося средневекового узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои.

Ключевые слова: Алишер Навои, культура речи, культура речевой деятельности

В своих художественных и научных трудах особое внимание Алишер Навои уделял проблемам тюркского языка, его взаимосвязи с другими языками, тончайшим художественным возможностям тюркской речи, занимался вопросами культуры речи, этики речевой деятельности, особенно отмечая лингвистические и экстралингвистические критерии подбора средств обеспечения языковой культуры.

В данной статье мы в основном остановимся на некоторых рассуждениях Навои о культуре речи и критериях обеспечения языковой культуры.

Исследуя актуальные проблемы культуры речи, его этики, Алишер Навои во многих случаях уделял особое внимание средствам обеспечения точности и выразительности речи, наибольшего её соответствия поставленной цели. Вместе с тем поэт порицал отдельно встречающиеся случаи несоответствия культуре речи, этике общения.

В различных своих произведениях Навои упоминает предъявляемые культурой речи требования, её особенности. Классик считает, что совершенная речь должна обладать следующими качествами:

- речь должна быть содержательной;
- должны быть использованы слова положительного значения;
- необходимо хорошо понимать значение используемых

слов (имеются в виду синонимы, многозначные слова);

- предложения, словосочетания должны соответствовать грамматическим правилам языка;
- во время общения необходимо соблюдать этикет беседы;
- во время общения нужно учитывать речевое состояние собеседника;
- необходимо всегда держать в центре внимания, что речь должна быть содержательной, логичной, ёмкой;
- должно стремиться к тому, чтобы речь была краткой, собранной, однако стремление к краткости не должно приводить к скомканности, обрывочности речи;
- говорить нужно приятным, вежливым, проникновенным тоном;
- запинки, ненужные паузы вредят речи;
- в речи следует избегать слов-паразитов;
- правильная, красивая речь требует соблюдения правил произношения, голос, интонации должны соответствовать содержанию речи;
- в письменной речи необходимо соблюдать правила орфографии и каллиграфии и т. п.

Изучая в произведениях Навои его представление о признаках правильной, хорошей речи, необходимо отметить приближение значения слова «фасоҳат» к понятиям «культура речи», «культура языка».

В словаре «Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати» даётся следующее толкование слова «фасоҳат»: «Фасоҳат – использовать слово верно, ясно, красиво, в соответствии с правилами»1.

Алишер Навои уделял большое внимание правильности произношения, голосу, интонациям, необходимым средствам для возникновения, формирования речи, подчёркивал необходимость соответствия вышеназванных средств цели и содержанию речи. Поэт неоднократно напоминал необходимость правильного произношения слов, верной интонации, звучности речи.

Идеи Алишера Навои о произношении, звучании, звучности, голосе, созвучности, буквах, орфографии, грамматическом

значении, тонкости изъяснения, обдуманности речей и так далее, его размышления и комментарии отражают в себе стоящие перед культурой речи задачи и требования.

Литература.

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати: в IV т. Т. III. Ташкент: Фан, 1983. 335 с.

2. Қаюмов, А. Алишер Навоий. Ташкент : Камалак, 1991. С. 176.

3. Навоий асарлари луғати. Ташкент : Изд-во им. Гафура Гуляма, 1972. 636 с.

4. У. Х. Исламов. Алишер Навои об основных требованиях к культуре речи и речевой деятельности. Вестник Челябинского государственного университета. 2011. № 21 (236). 125-128 с.

АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ “МАҲБУБ УЛ-ҚУЛУБ” АСАРИДА ТУРМУШ ОБОДЛИГИГА ОИД ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАР

Акмал Абдуллаев Амирович – *ТВЧДПИ*
“Бошланғич таълим” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация

Маънавиятсиз, маърифатсиз кимсаларнинг қилмишлари юртнинг нафақат бугунини, балки келажагини ҳам хавф остида қолдириши турган гап. Бундай фарзандлар қўлига ўтадиган юртнинг бойликлари талон-тарож бўлади, иқтисодий таназзул бедаво дардга айланади. Унинг маданияти ва санъати миллий қиёфасизликка дучор бўлади. Ушбу мақолада маънавият, маърифат бошқа тимсолларни Алишер Навоий қарашлари бўйича кенг ёритилган.

Калит сўзлар: *Маҳбуб ул-қулуб, билим, ёзма нутқ, мактаб, таълим-тарбия, Маънавият, маърифат,*

Ўзбек адабиёти деганда беихтиёр кўз ўнгимизда Алишер Навоий сиймоси гавдаланади. Юртбошимиз таъкидлаганларидек: “Алишер Навоий халқимизнинг онги ва тафаккури, бадиий маданияти тарихида бутун бир даврни ташкил этадиган буюк шахс, миллий адабиётимизнинг тенгсиз намояндаси, миллатимиз ғурури, шаъну шарафини дунёга тараннум қилган ўлмас сўз санъаткоридир. Таъбир жоиз бўлса, оламда туркий ва форсий тилда сўзловчи бирон-бир инсон йўққи, у Навоийни билмаса, Навоийни севмаса, Навоийга садоқат ва эътиқод билан қарамаса.” [1]

Чунки Навоийни билиш, Навоийни севиш, миллатни севиш, Навоийга садоқат энг эзгу қадриятларга садоқат демакдир.

Алишер Навоий ижоди аввало, улуғ сўз санъаткорининг маҳсули, айни пайтда миллатимиз тафаккур кўлами ҳамда

[1] Ислом Каримов. Юксак маънавият –енгилмас куч. Т: Маънавият, 2008, 47-бет.

маънавий қудратининг тимсолидир. Ўзбек халқининг буюк адибга ҳурмати шу қадар чексизки, бу ҳурматнинг ифодаси сифатида ўзбекона ибора билан Навоий нисбаси олдидан Ҳазрат сўзини келтирамиз. Биринчи Президентимиз И.А.Каримов ўзининг "Юксак маънавият – енгилмас куч" асарида халқимиздан етишиб чиққан, унинг дунёга маърифатли миллат сифатида танилишига улкан ҳисса қўшган буюк ижодкорлар хизматига юксак баҳо берар экан, жумладан, мутафаккир бобомиз Алишер Навоийни қуйидагича таърифлайди: "Агар бу улуғ зотни авлиё десак, у авлиёларнинг авлиёси, мутафаккир десак, мутафаккирларнинг мутафаккири, шоир десак, шоирларнинг султонидир." [1]

Ўз мустақиллигимизни қўлга киритган она Ватанимизнинг эртанги кун тақдири қандай бўлиши, дунё халқлари орасида орттирадиган обрўси кўп жиҳатдан ёш авлодга боғлиқ. Чунки мамлакатни мамлакат, миллатни миллат қиладиган унинг бағрида ўстираётган фарзандларидир. Агар бу фарзандлар фақат қорин ғамини ўйлайдиган, юртдошлари тақдирига бефарқ, ўз манфаати йўлида инсоф, адолат, иймон туйғуларини топтаб ўтадиган кимсалар бўлиб етишса, бундай юртга четдан бостириб келадиган душманнинг ҳам кераги бўлмайди. Жамият ҳаётида адолатсизлик, инсофсизлик ва маданиятсизлик оддий ҳолга айланиб, кишиларнинг келакажакка бўлган ишончи мутлақо сўнади.

Жамиятнинг ривожи ёки, аксинча, таназзулига сабаб бўлувчи юқоридаги каби асосий омиллар ва фалсафий ўй-фикрлар улуғ шоиримизни бундан беш юз олтмиш йиллар олдин чуқур мушоҳадага чорлаган. Мана шундай мушоҳадалар натижаси ўлароқ, улуғ мутафаккир бобомиз умрининг сўнгги йилларида яна бир шоҳ асар – "Маҳбуб ул-қулуб" асарини дунёга келтирди.

Сўз мулкининг султони "Маҳбуб ул-қулуб" асарининг 1-фасли бўлган "Одил подшоҳлар тўғрисида" номли мақолотида шундай дейди: "Адолатли подшоҳ Ҳақ таолонинг халойиққа кўрсатган марҳаматидир; бундай шоҳ мамлакат учун тинчлик

[1]NИслом Каримов.Юксак маънавият –енгилмас куч. Т: Маънавият, 2008, 47-бет.

ва фаровонлик сабабчисидир... Одил шоҳ қуёш билан баҳор ёмғиридек қора тупроқдан гуллар очади ва мамлакат халқи бошига олтин билан дурлар сочади. Камбағал ва бечора одамлар унинг яхши, мулойим муомаласидан роҳатда; золим амалдор ва миршаблар унинг сиёсати тиғидан қўрқувда. Адолатли шоҳ шундай қўриқчики, унинг сояйи давлатида қўй-қузилар бўри хавфидан омон; ёмонларга шафқатсизлигидан йўлдаги мусофирлар йўлтўсарлар ваҳимасидан эсон. Марҳаматидан мактабларда болалар шовқин-сурони... Ҳайбатидан йўлларда қароқчилар йўқ ва халқ қўли ўз моли билан тўлиқ. Забтидан амалдорлар қалами синиқ ва золимлар байроғи йиқиқ. Ғамхўрлиги ва фаолиятидан масжидлар жамоат билан тўла мадрасалар илм устида баҳслашувчилар билан ғала-ғула. Қасоскор тиғидан ўғри қўли эл молига етмайди ва ўч олиши хавфидан йўлтўсарларнинг қадами йўқлиқ биёбонидан нарига ўтмайди. Савдо қилиш учун тун бўйи дўконларда шамъ ўчмайди, олди-сотди қилувчилар кўчаларда безорилар дайдишидан қўрқмайди. Шомдан то саҳаргача масжид хонақоҳларининг эшиги очиқ; хилватхоналар ибодат нуридан ёруғ. Шаҳарда кўчалар посбони у, далада қўйлар чўпони у. Аҳолининг ҳовли-боғи унинг шарофатидан обод; сипоҳлар орзу-умидларига етиб шодон. Одил шоҳ шарофатидан кечалари турк аёлларининг аллалари тинмайди; болалар эса, бемалол ошиғини ўйнайди. Кампирлар ип йигираркан, чарх овозига жўр бўлиб, унинг ҳақига дуо ўқийдилар; канизаклар пахта саваркан, савағичнинг тап-тупи билан тўлқинланиб, қўшиқ айтиб, уни олқишлайдилар. Фақирлар унга дуо-таҳсин ўқиб, эркалик қиладилар. Шоҳ эса, очиқ қўллилик билан фуқарога саховат қилади ва уни сийлайди.

Очларнинг овқати одил шоҳнинг шафқат ва мурувват билан ёзган дастурхонидан; яланғочларнинг либоси унинг лутф-марҳамат хазинаси эҳсонидан. У мамлакат боғини обод қилишда ёмғир булутидай сероб; мамлакат аҳли кўзини ёритишда жаҳонга нур сочувчи офтоб. Ўзга юртларнинг элу халқи уни орзу қилади; бошқа ўлкаларнинг мазлумлари адолатпарварлиги туфайли уни дуо билан тилга олади. Олимлар унинг яхши номини таърифлаб рисолалар битади; шоирлар унинг гўзал сифатини мадҳ айлаб

қасидалар ёзади. Бастакорлар унга атаб куйлар яратади; хонанда-созандалар уни дил-жигардан куйлайди.

Адолатпарвар шоҳ халқни рози қилса, Ҳақ таоло шоҳдан рози бўлади, кишиларнинг арзу додини тинглаганда, бу иш юзасидан халқ олдида сўроқ беришни ўйлаб, изтироб чекади.

Маснавий:

Ўзи подшоҳ, лекин дарвешсифат,
Унга шоҳликдан кўра фақирлик хуш келади.
Халойиққа бу шоҳдан нажот етсин,
Ҳаёт ундан асло холи бўлмасун."

Халқ фаровонлиги, турмуш ободлиги, унинг зарурий талаблари ҳақида ҳамда юрт раҳбарларининг унда тутган ўрни ҳақида шоир "Беклар ҳақида" деб номланган 2-мақолотида шундай ёзади:

"Мундоқ шоҳга бек набий хизматидаги тўрт (чаҳор) ёрнинг биридек.

Бек камбағал бечораларнинг паноҳи ва подшоҳ давлатининг - хайрихоҳи. Бек шоҳга бу дунё ҳақида чин сўз дегувчи ва охират ғамин егувчи, ундан ёмонларнинг кўнгли вайрон, яхшиларнинг мушкули осон. Унинг кўнглида халқ молига тама йўқ: дунё йиғишнинг хаёли йўқ. Муроди - аҳолининг тинч-омонлиги; мақсади - жамиятнинг равнақи... У мусулмонларни рози қилувчи киши, мусулмонлар эса уни дуо қилади. Унинг зоти тузук, шоҳ эшигида ҳам қилмиши яхшилик.

Шоҳ эшиги бундай беклардан холи бўлмасин, давлат осмонида бундайларнинг умри қуёши завол кўрмасин."

Алишер Навоий «Маҳбуб ул-қулуб асарида билим олиб мустақил мушоҳада юрита олмайдиган инсонни «устига китоб ортилган эшак»ка қиёслайди ва «нодон» деб атайди. Шунингдек, улуғ шоир асарида ўқувчини чиройли ёзувни, ёзма нутқ малакасини эгаллашга ундайди. У ёд олиш усулининг имконият ва афзалликларини тарғиб қилди.

Навоийнинг ўқитувчи ҳақидаги қарашлари ҳам ибратлидир. У «Маҳбуб ул-қулуб»да «Мударрислар зикрида» деган алоҳида фасл ажратган. Унда мударрис «ўзи билмаган илмни айтурға муртакиб бўлмаса», дейди. Шогирдларнинг эса устозлар олдида

ҳар доим бурчдор эканлигини («Дабиристон аҳли зикрида» фасли) таъкидлайди: «Шогирд агар шайх ул-ислом, агар қозидур, агар устод андин розидур - тенгри розидур.

Байт: Ҳақ йўлида ким сенга бир ҳарф ўқутмиш ранж ила,
Айламак бўлмас адо онинг ҳаққин юз ганж ила»[1].

Унинг кишилик жамияти ва жамият аъзоларининг ўзаро инсоний муносабатлари, мактаб, таълим-тарбия ҳақидаги теран ва фалсафий ўй-мушоҳадалари бизнинг давримизда ҳам фавқулодда катта аҳамиятга эга. Зеро, маърифатли, маънавиятли, ўзлигини танитган халқнинг комил фарзандлари она Ватан, замин қадрини ҳар нарсадан юксакка қўяди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Навоий А. Асарлар. 15 томлик, 13-том. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти, 1966.

2. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: “Фан”, 1998.

3. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. –Тошкент: “Фан”, 1999.

4. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 16-жилд. –Тошкент: “Фан”, 2000.

5. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 17-жилд. –Тошкент: “Фан”, 2001.

6. Ҳабибуллаев А. Навоий пандномаси. – Тошкент: «Фан», 1996. - 84 б.

7. Ҳусайний, Атоуллоҳ. Бадойиъус-санойиъ. – Тошкент: Ғ. Ғафур номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

[1] Алишер Навоий.Маҳбуб ул-қулуб. –Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн тўртинчи том. –Т.: Фан, 1998, 28-бет.

НАВОИЙ ИЖОДИНИНГ МУҲСИНИЙ ШЕЪРИЯТИГА ТАЪСИРИ

Тўхтамуратов Фурқат
ТошДЎТАУ

Ҳар бир миллат адабиётининг бетакрор ва умуминсонийлигини жаҳонга кўрсатадиган буюк ижодкорлари бор. Ҳазрат Алишер Навоий ўзбек миллатини улуғловчи, тафаккур оламининг кенг эканлигини дунёга намоён этган ижодкорлардан биридир. Навоий ижодидан таъсирланиш унинг тириклик давридан бошланган бўлиб, ҳозирги кунларда ҳам ўзбек шоир ва ёзувчилари ундан баҳраманд бўлиб келмоқда. Қўқон адабий муҳитининг истеъдодли шоирларидан бири Ҳусайнқули Сулаймонқули ўғли Муҳсиний ижодида ҳам Навоий таъсири маълум кўринишларда намоён бўлган. Биз шартли тарзада Муҳсиний лирикасида Алишер Навоий асрлари таъсирини қуйидагича таснифладик:

1) девон тузишда Навоий анъаналарига эргашиш;
2) буюк салафи шеърларига татаббуълар битиш;
3) поэтик шакл ва мазмунда улуғ шоирга эргашиш;
4) “Хамса” достонлари образларига мурожаат этиш.

Маълумки, ўзбек мумтоз адабиётида девонларга дебоча ёзиш анъанасини такомиллашишига Навоийнинг хизматлари каттадир. Ҳазрат Навоий ўзининг “Бадоеъ ул-бидоя”, “Хазойин ул-маоний” девонларига дебоча ёзиб, туркий адабиётда бу анъанани такомиллашишига ёрдам берди. Навоийдан кейинги даврда яшаган ўзбек шоирлари шеъриятнинг барча жабҳаларидан улуғ устоз ижодидан ибрат олди.

“XIX асрнинг биринчи ярмида Қўқон ва Хива адабий муҳитида яшаб ижод этган Нодира, Нодир-Узлат, Амирий, Огаҳий, Мунис, шунингдек, каттақўрғонлик Муҳаммад Шариф Шавқий каби ўз даврининг машҳур шоирлари ҳам шеърларини тўплаб девон тузганлар. Бу девонларга дебочалар битганлар. Бунда Навоийнинг таъсири катта бўлган. Шунингдек, XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бошларида яшаган

Муҳсиний, Фақирий, Табибий каби шоирлар ҳам ўз девонларига дебоча ёзганлар". [6,5].

Ҳусайнқули Сулаймонқули ўғли Муҳсинийнинг 1897, 1914-15, 1917 йилларда тартиб берган дастхат девонлари мавжуд. Ушбу девонларда битилган дебочалар ҳам маълум фарқларга эгадир. Муҳсинийнинг 1917 йилда китобат қилинган, ҳозирда ЎзФАШИ қўлёзма асарлар фондида 7392 инвентарь рақам билан сақланаётган қўлёзма девони мукаммаллиги билан бошқа нусхаларидан ажралиб туради.

Ҳусайнқули Муҳсиний лирик мероси жамланган 7392 инвентарь рақамли дастхат қўлёзма девон дебочасида Навоийни қуйидагича таърифлайди: " *…ва ҳам жаноби султон ул-уламо вал фузало маъориф ва ҳақойиқ маҳофилининг маҳбуби ва матлуби валоят ва каромат мажолисунинг шоҳиди, яъни марғуб ва мажзуби дақойиқ ва ҳақойиқ гулистонининг андалиби ғазал саройи яъни хазрат амир Алишер ал-мутахаллус бин Навоий тоба Аллоҳу сароҳу ва жаъл жанната мутавоҳ равон хулди маконларидин мададу истимдад тилаб ушбу бодияи поёниға қадам қўйдим" [5,6а]*. Дебочадан англашиладики, Муҳсиний Навоийни чексиз ҳурмат билан тилга олиб, руҳидан мадад тилайди. Муҳсиний девон тузиш тартибида ҳам Навоий ижодий анъаналарига амал қилади. Шоир 7392 инвентарь рақамли қўлёзма девонига ғазал, мухаммас, мусаддас, мусамман, таржеъбанд , нома , қасида , таърих, рубоий каби мумтоз шеърий шаклларни киритган.

Маълумки, мумтоз адабиётимизда улуғ, истеъдодли шоирлар ижодига эргашиш ва уларнинг ғазалларига татаббуъ боғлаш анъанавий тарзида амалга оширлиган.

"Татаббуъ (ар.-бирор нарсанинг изидан бориш, кузатиш)-ўзга бир шоир шеъридан таъсирланиб, ундаги вазн, қофия ва радифни сақлаган ҳолда асар яратиш. Назира, ўхшатма ва жавобия деб ҳам юритилади. Татаббуъ Мусулмон Шарқи адабиётида адабий алоқа ва ўзаро таъсирнинг кенг тарқалган шаклларидан бўлиб, салафлар ёки замондош шоирлар билан муайян тарзда ўзаро ижодий мусобақага киришиш билан боғлиқ анъана ҳисобланган" [3,174].

Муҳсинийнинг жорий имлода нашр қилинган “Барҳаёт гулшан” номли девонида *“келмади”, “ўлтургуси”* , радифли ва *“зиҳи йўлингда бир афтода одами хокий”* мисралари билан бошланувчи татаббуъ-ғазаллари бор. Ушбу татаббуълар мазмун-моҳияти, ифода усулига кўра ҳам Навоий ижодига эргашиш ва таъсирланиш натижасида битилган.

Навоий машҳур “*келмади*” радифли ғазалида дунёвий ишқий орқали илоҳий ишқ куйланган. Навоий ғазали ҳажми етти байт бўлиб, *гулрў, уйқу, бадхў, қоронғу, кулгу, су(в), ўтру, қайғу* сўзлари қофиядош бўлиб келган. Ғазал рамали мусаммани маҳзуф (ёки мақсур) вазнида ёзилган. Ҳусайнқули Муҳсиний Навоийнинг ушбу ғазалга боғлаган татаббуъ-ғазали матлаъси қуйидагича:

Кеча ялғон ваъда айлаб ул парирў келмади,

Фикри васли бирла токим кўзга уйқу келмади. [2,89].

Ушбу татаббуъ-ғазал ҳам Навоийнинг “*келмади*” радифли ғазали ёзилган вазн-рамали мусаммани маҳзуф (ёки мақсур) да битилган. Ҳажм жиҳатдан ҳар икки ғазал ҳам бир хил етти байтдан иборат. Муҳсиний ғазалида дунёвий ишқ тараннум этилган. У қофияларни имкон қадар янгилашга ҳаракат қилган.

Татаббуъ-ғазалда Навоий шеъридаги *уйқу, кулгу, бадхў, қайғу* қофиядош сўзлари такрорланган бўлса, *парирў,суманбў,қамту* қофиялари Муҳсиний томонидан ижод этилгани кузатилади. Ғазал оддий қофияланиш (а-а, б-а, в-а, г-а...) шаклида бўлиб, композицион жиҳатдан воқеабанд ғазал турига киради. Муҳсиний татаббуъ-ғазалида Комилхон исми мувашшаҳ шаклида ёзиб ижодий янгиликка интилган.

Навоийнинг “Наводир ун-ниҳоя” девонининг 804-ғазали матлаъси қуйидагича:

Бир кун мени ул қотили Мажнун шиор ўлтургуси,

Усрук чиқиб, жавлон қилиб, девонавор ўлтургуси. [1,550].

Мазкур ғазал анъанавий 7 байт бўлиб, тасаввуфий-ирфоний мазмун англатади.

Муҳсиний лирик асарлари жамланган “Барҳаёт гулшан” девонида *“ўлдургуси”* радифли ғазалнинг дастлабки байтини қуйидаги шаклда ўқиймиз:

Ёраб, мени мажруҳни дарди ниҳон ўлдургуси,

Ранги руҳимдур заъф ила чун зафарон ўлдургуси. [2,89].

Мазкур ғазал Навоий шеърига татаббуъ тарзида битилган. Муҳсиний татаббуъ-ғазал ҳажмини ва мазусини бироз ўзгартиради. Яъни Навоий ғазали 7 байт бўлса, Муҳсиний 9 байт ҳажмга етказади. Муҳсиний ғазалида дунёвий ишқни васф этиши баробарида мувашшаҳ тарзида Юсуфхўжа исмини битади. Татаббуъ-ғазал ҳажмини кўпайиши, мазмуни ўзгариши ва мувашшаҳ шаклида ифодаланиши Муҳсинийнинг ижодий янгиликка интилганини кўрсатади. Шоирнинг: *"Зиҳи ғубори қудумингдин Одами хоки, Топур саодати такмилу ақли идроки",* байтли ғазали ҳам Навоий ғазалига татаббуъ тарзида битилгани билан аҳамиятлидир.

Ҳусайнқули Муҳсинийнинг татаббуъ-ғазаллари юқорида келтирилган назарий талабларга ҳар томонлама мосдир. Барча ғазаллар мазмун ва ифода шакли, руҳи ҳамда ғояси жиҳатдан Навоий ғазалига ҳамоҳанг тарзда битилган.

Навоий "Хамса"си қаҳрамонлари: Фарҳод, Мажнун, Искандар образларига Муҳсиний шеърларида тез-тез мурожаат қилади. Бу ҳол "Хамса" образларини шоир шеъриятида бадиий талқин қилиниши самарасидир. Қуйидаги байт фикримизга мисол бўла олади:

Халқ аро мен телбалиғни айладим андоғ баланд,

Қиссаи Фарҳоду Мажнундин бироз сарнома бор [2.30].

Шоир лирик қаҳрамони наздида ҳалқ орасида телбалиғ билан машҳур бўлиб ном чиқарганман, шу боис Фарҳод ва Мажнун қиссаларини сарлавҳасида менинг исмим туриши керак, дея туйғуларини муболағали баён қилади.

Шоир яна бир ғазалида шундай дейди: "жунуни, телбалиғни Мажнун менга ёдгорлик қилиб қолдирган, чунки унинг муҳаббат йўлидаги севгиси, яъни "бойлиги" бекорга кетмай, мен каби шоирлар қалбига ўтади", дея қатъий фикр билдиради. Мана ўша сатрлар:

Ёдгор этти мажнуну телбалиғ Мажнун,

Холи ўлмайдур муҳаббат аҳлидин ушбу бисот [2,47].

Муҳсиний бир ғазалида Фарҳод ва Мажнун образларига мурожаат қилиб улар билан “баҳс”га киришади:

Тоғ йўнар Фарҳод, Мажнун-дашту саҳро гарди,

Лек мендек кўйи ишқида алар девона йўқ [2,54].

Шоир лирик қаҳрамони фикрича, Фарҳод тоғ йўниши билан, Мажнун дашти саҳрода чанг ютиб ошиқлигини намоён қилган. Бироқ ишқ кўйида мен каби улар девона бўлгани йўқ, деб ўз руҳий ҳолатини муболағали тасвирлайди.

Жаҳонни неку барин англар эрди ҳам кўнглим,

Мисоли лавҳи Сикандар, чу косаи Жам эдим [2,62].

Лирик қаҳрамон жаҳонни нимаики аъло нарсаларини худди шоҳ Искандарнинг сирли ёзув тахтасидек, Жамшид подшонинг сеҳрли қадаҳи кўрсатгани каби кўнгли билан англашини ифодалайди.

Хулоса қилиб айтганда, Навоий ижоди Муҳсиний шеъриятида девон тузиш; дебоча битиш; татаббуълар боғлаш; “Хамса” қаҳрамонлари образларига мурожаат қилиш шаклида намоён бўлган. Ҳусайнқули Муҳсиний лирик меросида жамланган шеърий жанрларда маълум маънода ҳазрат Навоий ижодидан таъсирланиш ва эргашишни кўришимиз мумкин. Бу ҳол устоз салафларга эргашиш ҳамда уларнинг ижодий анъаналарини давом этириш маҳсулидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алишер Навоий мукаммал асарлар тўплами 20 жилдлик. 2-жилд. Наводир ун-ниҳоя. Т.: Фан, 1987, 550-бет.

2. Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. - Фарғона, 2008. 89-бет.

3. Юсупова Д. Аруз вазни қоидалари ва мумтоз поетика асослари. – Т.: Таълим-медиа”нашриёти, 2019,174-бет.

5. Ўз ФАШИ Қўлёзма асарлар фонди. Инв №9273 қўлёзма 6а-бет.

6. Каримова Ф.Навоийдан кейин яратилган дебочалар.– Н.:“Наманган нашриёти”, 2007. 5-бет.

MUNDARIJA

I SHO‘BA. ALISHER NAVOIYNING ILMIY MEROSI VA MATNSHUNOSLIK
PANEL I. SCIENTIFIC LEGACY OF ALISHER NAVO‘I AND TEXTOLOGY

Durdona Zohidova. Navoiyshunoslik: muallif shaxsiyati va badiiy matn talqini 4
Oysara Madaliyeva. «Xazoyinu-l-maoniy» devonining umumiy alifbo tartibi muallifi Mashhadiymi? 12
Elyorjon Axmatqulov. “Nasrul-la’oliy” – Alisher Navoiyning “Nazmu-l-javohir” asari manbai 20
Kosimboy MAMUROV, Mohina KHAMIDOVA. Fransiya kutubxonalarida saqlanayotgan sharq nodir mumtoz asarlarining bezatilgan nusxalari 31

II SHO‘BA. ALISHER NAVOIYNING ADABIY MEROSI VA TARJIMAYI HOLI BILAN BOG‘LIQ MASALALAR
PANEL II. ALISHER NAVOI’S LITERARY HERITAGE AND INVESTIGATIONS IN HIS BIOGRAPHY

Akramjon Dehqonov. Shahzoda Shohg‘aribga nasihatlar 36
Bahriddin Umurzoqov. Navoiy homiyligida ijod qilgan Koshifiylar 44
Gulbahor Ashurova..... She’riyatda mutafakkir obrazining tadriji 56
Rustamjon Djabborov. Navoiy maqtagan Sayyid Asil kim? 66
Alibek Abdurahmonov. “Alifbei tayr” yoxud “Lison ut-tayr”: yangicha talqin va tahlillar 77
Zilola Amonova, Lobar Shokirova. “Farhod va Shirin” dostonida munojot talqini 93
Zuhra Mamadaliyeva. “Saddi Iskandariy” dostonida ma’shuqa obrazlari va ulardagi ramziylik masalasi 102
Umedullo Maxmudov. “Birodari arjumand va farzandi dilbandga pandlar” 110

Akrom Malikov. Mumtoz adabiyotda apokoliptik unsur: badiiy talqinning fenomenologik tahlili *(“Hayrat ul-abror” dostoni ikkinchi munojot misolida)*..... 118

III SHO‘BA. ALISHER NAVOIY LIRIK MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI
PANEL III. THE PROBLEMS OF STUDYING LYRIC HERITAGE OF NAVOI

Suvon Meli. G‘azalda ma’no energetikasi 125
Rashid Zohid. Bir g‘azal sharhi..... 133
Dilrabo Quvvatova, Zarnigor Sohibova. Alisher Navoiy lirikasida xazon fasli tasviri va uning zamonaviy she’riyatdagi tadriji 139
Bekova Nazora. Navoiyning forsiy merosida qo‘llanilgan taxalluslari..... 145
Abdumurod Tilavov. Matlabga yetaklovchi ma’rifat maskani.. 153
Ahadxon Muhammadiyev. Alisher Navoiyning hamd g‘azalida oyat va hadislarning badiiy talqini..... 161
Alisher Razzoqov. Alisher Navoiy she’riyatida fano timsolining irfoniy mohiyati 168

IV SHO‘BA. ALISHER NAVOIY IJODINING JAHON TAMADDUNIDAGI O‘RNI, SHOIR ASARLARINI XORIJIY TILLARGA TARJIMA QILISH. ADABIY TA’SIR VA SAN’AT MASALALARI
PANEL IV. THE ROLE OF ALISHER NAVO‘I IN WORLD CIVILISATION, PROBLEMS IN TRANSLATION OF POET’S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES. LITERARY IMPACT, LITERATURE STUDIES AND ART

Abdulhay Sobirov. O‘tmishi ulug‘ millatning kelajagi ham shunday bo‘ladi..... 177
Oqilxon IBROHIMOV. “Sab’ai sayyor”ning navo sirlariga doir..... 183
Iqboloy Adizova. Mavjudni mavjlantirgan naziralar..... 190

Халлиева Гулноз. «Лейли и Меджнун» Алишера Навои в литературном сознании Российских Востоковедов 201
Rahmon Farmonov. Alisher Navoiy – jamiyat islohotchisi va qonunlar ijodkori 208
Mo‘minjon Siddiqov. “Shayx San’on qissasi”ning jug‘rofiyasi 223
Islomjon Yoqubov. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida xronotop 229
Qobilova Zebo. Navoiy maktabidan saboqlar 236
Barno Abdurahmonova. Yusuf Xos Hojib va Navoiyning didaktik qarashlaridagi mushtaraklik 240
Tozagul Matyoqubova. Navoiydan ijodiy bahramandlik 246
Nazmiya Muxitdinova. Mirhasan Sadoiy ijodida Navoiy an’analarining badiiy takomili 255
Amonov Shermuhammad. “Hayratu-l-ushshoq” devonida Navoiy g‘azallariga yozilgan muxammaslar 263
Ozoda Tojiboyeva. Navoiyning ozar tadqiqotchisi 270
Oybarchin Abdulhakimova. Abdulla Oripov badiiy-estetik tafakkurida Alisher Navoiy an’analarining sintezi 275
Hussamuddin Tuyg‘un. Afg‘onistonda navoiyshunoslik 282
Yulduz Abdulhakimova. Laylining zohiriy va botiniy olamiga bir nazar 290
Halima Yuldasheva. Erkin Vohidov she’riyatida milliy ruhning navoiyona ifodasi 295
Dilshod AMONOV. Musiqa Alisher Navoiy hayotida… 303

V. SHO‘BA. ALISHER NAVOIY IJODINI O‘QITISH MUAMMOLARI. ALISHER NAVOIY IJODI VA TILSHUNOSLIK MASALALARI
PANEL V. ALISHER NAVOI’S WORK AND MODERN EDUCATION. ALISHER NAVOI’S WORK AND LINGUISTICS

Beg‘am Qarayeva. Amaliy mashg‘ulotlar mazmunida Alisher Navoiy she’riyati namunalarini o‘rganish (o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rganuvchi guruhlar misolida) 310

Darmonoy O‘rayeva, Ma’rifat RAJABOVA. Alisher Navoiy ijodida etnografik folklorizmlar 316
К.Р.Мамадалиев, Н.Д.Муқумжонова. Комил инсон тарбиясида бошланғич таълимнинг ўрни Навоий талқинида 322
Xo‘jamurod Jabborov. Alisher Navoiyning so‘z yasalishiga oid ilmiy talqinlari 326
Abduqahhor G‘aniyev, Marvarid Nurbayeva, Sarvar Toshev. Alisher Navoiyning «Xamsa» asarini intellekt xarita (mind map) yordamida o‘rganish 333
O‘tkurjon Islamov. Navoiy nutqning salbiy omillari haqida 343
Dilfuza Tuxliyeva. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining adabiyot darsliklarida g‘azal janrining aks etishi 349
Nafisa Egamberdiyeva. Alisher Navoiy badiiy merosida yoshlar estetik dunyoqarashini rivojlantirish masalalari 354

ADABIYOTSHUNOSLIK. TILSHUNOSLIK
LITERATURE STUDIES. LINGUISTICS

Adizova Obodon. Navoiy ijodida ustozlarga ehtirom talqini 359
Abdullayeva Hurriyat. Navoiy va Abdulla Oripov: mumtoz she’riyat an’anasining yangilanishi 362
Abdullayeva Marg‘uba. Hikmat janri xususiyatlari 366
Abdumannapova Shohsanam. Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari va Henri Bloshmanning aruzga doir erkin tarjimalari qiyosi 370
Abdujalilova Diyora. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” va Tashlijali Yahyobey “Gulshan ul-anvor” dostonlari muqaddimalarining qiyosi 375
Alimov Ozodbek. Navoiyning be “bismilloh” boshlangan asari “debocha”sining tadqiqi 381
Avaznazarov Odiljon. Yo‘lovchi obrazi taqdirida badiiy tushning o‘rni (“Layli va Majnun” dostoni misolida) 387
Almardonova Muxsina. G‘azalda peyzajning poetik vazifasi 391
Bahronova Sadoqat. Alisher Navoiy “Xamsa”sida poetik shakl va mazmun uyg‘unligi 394

Bobojonov G‘ulom. Navoiy ijodida so‘z fasohati masalasi 397
Vahobova Madina. “…Navoiy kirmagan uylar qorong‘u…” (Jigarrang kitob yoxud Halima Ahmedova ijodida hazrat Navoiyning o‘rni xususida)..... 401
Djurayev Muhammadrizo. Yormuhammad Yoriy muxammaslari..... 407
Djurayeva Laylo. Alisher Navoiy asarlarida musiqiy istilohlar... 413
Гулямова Гульнора. Роль Алишера Навои в развитии духовной культуры в Средней Азии..... 419
Jamoliddinov Mirhojiddin. Oybekning “Navoiy” romani tarixiy-biografik roman janrining birinchi nodir namunasi 426
Jo‘rayeva Gulnoza. Navoiy ijodida ruhiy kamolot masalasining bolalar she’riyatiga ta’siri..... 429
Jo‘rayeva Ramziya. Muqimiyning Navoiy g‘azaliga bog‘lagan bir muxammasi xususida..... 432
Jo‘raqulova Nasiba. “G‘amdin aylarlar Eranlar shodlig‘...” 435
Jo‘rayeva Mahliyo. Navoiy an’analari Charxiy ijodida..... 438
Ismoilov Ilyos. Alisher Navoiy Iskandarning yoshi haqida..... 443
Iskandarov Fayzulla. Alisher Navoiy asarlarini tushunish sari..... 446
Ishonxanova Iroda. Alisher Navoiy hayotini o‘rganishda manbalardan unumli foydalanish..... 450
Mo‘minova Latofat. Navfal Boltayev. Navolarda Navoiy..... 455
Mulloqulova Shohista. “Aynul hayot” qasidasida Me’roj tasviri..... 466
Muhitdinova Xurshidabonu. Fitrat “Farhod va Shirin” dostonining ilk tadqiqotchisi..... 469
Muxitdinova Muxlisa, Azimova Umida. Oybekning “Navoiy” romani va xalq og‘zaki ijodi 474
Norov T. Navoiy falsafasidagi ontologiyaga oid istilohlar izohi..... 480
Normurodov Oybek. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda Musoning “Ibtido” kitobi qiyosiy tahlili 486
Olimjanov Orifjon. Navoiyshunos..... 490
Pardayev Qo‘ldosh. Navoiy va Muqimiy asarlarining qiyosiy tahlili 494

Sultanova Mamlakatxon. Alisher Navoiy davlatni idora etishda ilm-fan va olimu fuzalolarning o‘rni haqida..... 497
Saparova Maftuna. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida muvozana va tarsi’ she’riy san’atlarining qo‘llanilishi... 502
Султанов Комилжон. Алишер Навои – неповторимый поэт и мыслитель 506
Ruzmetov Shahzodbek “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarida mavzu va ritm masalasi..... 512
Rajabov Faxriddin. Navoiy adabiy merosining Suyundik Mustafo Nurotoiy ijodiga ta’siri..... 518
Rahmonova Shahnoza. Navoiy tarkibbandi Chustiy uchun ilhom manbai sifatida..... 525
Rahmonova Zulayho. Alisher Navoiy ijodida soqiy-murshid obrazi..... 528
Sabitova Tojixon. Sharq adabiyotida xamsanavislik an’anasi..... 535
Sobirova Mahbuba. Navoiy adabiy merosidan insonparvarlikni singdirishda foydalanish 543
Tashmatova Nilufar. Haydar Xorazmiy va Alisher Navoiy asarlarida ifodalangan metaforalar..... 548
Tursunov Rustam. Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy: adabiy izdoshlik va badiiy ta’sir masalalari..... 552
Tursunmurodova Dilobar. Alisher Navoiyning ikki qit’asi tahlili 556
Turapova Marhabo. Sirojiddin Sayyid she’riyatida ikki buyuk siymo madhi..... 559
Farmonova Muzayamxon. Alisher Navoiy oila va inson odobi haqida..... 564
Xudoynazarova Nodira. Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida Navoiy shaxsiyati talqini va lirik merosi an’analari 567
Xudoyorova Nigora, Shukurova Bahor. Alisher Navoiy adabiy merosining jahon tamaddunida tutgan o‘rni..... 571
Xudoyorova Munira. Nasr va nazm uyg‘unligi..... 576
Xaydarov Oybek. «Mahbub ul-qulub» badiiy-tarixiy manba sifatida..... 581
Xo‘janiyazova Shahnoza. “Xamsat ul- mutahayyirin” asarida Jomiy shaxsiga nisbatan qo‘llanilgan istilohlar..... 587

Eshpo‘latova Saodat. “ …O‘zgacha” 592
Усманова Азизахон. Алишер Навои и узбекские макомы 595
Hojiyeva Shahlo. Alisher Navoiyning odob-axloq haqidagi qarashlari 598
Hamroyeva Orzigul. Alisher Navoiy qit’alarining qofiya tizimi 602
Haydarova Gulchehra. Alisher Navoiy she’riyatida hayot va inson talqini 606
Xudoyorova Gulrux. “Hayrat ul-abror” va “Haj daftari”da axloqiy masalalar talqini 609
Sharipova Nigora. “Hayrat ul-abror”da muallif siymosi 614
Qorayev Sherxon. Alisher Navoiy ishtirok etgan adabiy kechalar 620
Hayitov Shavkat, Ahmadova Mahbuba. Komil Hofiz (Mug‘anniy) orzusi 627
Rasulova Umida. Ijod va mahorat 632
Самигова Г.А. Алишер Навои о культуре речи 635
Акмал Абдуллаев Амирович. Алишер Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асарида турмуш ободлигига оид фалсафий қарашлар 638
Тўхтамуратов Фурқат. Навоий ижодининг Муҳсиний шеъриятига таъсири 643

QAYDLAR UCHUN

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.